

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**“ERKIN VOHIDOV
IJODINING TURKIY XALQLAR
MADANIYATIDA TUTGAN O‘RNI”**



XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 821.512.133.1

KBK 82.3(50‘)

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan
o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari / Toshkent,
2022. – 375 b.**

Tashkiliy qo‘mita:

Madjidov I.U. – O‘zMU rektori

Shirnova R.H. – O‘zMU prorektori

Saburov H. – O‘zMU prorektori

Mirsoatova M.S. – Jurnalistika fakulteti dekani

Boltaboyev H.U. – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası mudiri

Qurbonova M. – O‘zbek tilshunosligi kafedrası mudiri

Mas‘ul maharrir:

Filologiya fanlari doktori, professor

Hamidulla BOLTABOYEV

To‘plovchi:

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ra‘no MULLAXO‘JAYEVA

**O‘zMU ilmiy-texnikaviy kengashi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan**

ISBN 978-9943-6084-9-8

© Erkin Vohidov, 2022

© O‘zMU, 2022

MUNDARIJA

Hamidulla BOLTABOYEV. Kirish so‘zi.....7

I. ERKIN VOHIDOV SHE‘RIYATI ABADIYATI

<i>Naim KARIMOV. Erkin Vohidov gulshani.....</i>	<i>11</i>
<i>Abdulla A‘ZAM. Adabiy jasorat.....</i>	<i>19</i>
<i>Qozoqboy YO‘LDOSHOV. Beorom yurak zarblari.....</i>	<i>23</i>
<i>Muhammadjon IMOMNAZAROV. Erkin Vohidov mening taqdirimda.....</i>	<i>37</i>
<i>Narzulla JO‘RAYEV. Hurriyat hayqirig‘i.....</i>	<i>43</i>
<i>Nurboy JABBOROV. Erkin Vohidov she‘riyatida milliy ruhiyat tasviri.....</i>	<i>49</i>
<i>Islomjon YOQUBOV. Hayot haqiqati va badiiy-falsafiy talqin....</i>	<i>56</i>
<i>Abdulla ULUG‘OV . Dilbar she‘riyat.....</i>	<i>63</i>
<i>Yangiboy QO‘CHQOROV. Niholing qoshiga bir gul ekib qo‘y.....</i>	<i>68</i>
<i>Laylo SHARIPOVA. “Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir”.</i>	<i>75</i>
<i>Dilrabo QOZOQBOYEVA, Dildora HUSANOVA. So‘z sehri.....</i>	<i>80</i>
<i>Toji NOROV. Inson o‘zing, inson o‘zing!.....</i>	<i>86</i>
<i>Rustam JABBOROV. Vatandoshlik va zamondoshlik saodati...92</i>	
<i>Nafisa YUSUPOVA. Erkin Vohidov – el suygan adib.....96</i>	
<i>Shaxnoza XO‘JAMBERDIYEVA. Abadiy barhayot satrlar.....99</i>	
<i>Nigora QIRYIGITOVA. Hayot haqiqatini ifodalagan mısralardagi yumor.....105</i>	
<i>Sayyora QOZAQOVA. Bir she‘r jozıbası.....108</i>	
<i>Sayyora KULATOVA. Shoirlarlarning ichki kechinmalari erkin vohidov asarlari misolida.....111</i>	
<i>Halima YULDASHEVA. Erkin Vohidovning milliy ruhni hajviy obraz va xarakterlar orqali ifodalash mahorati.....115</i>	
<i>Parvina ASHUROVA. Erkin Vohidov lirikasida folklorizmning tutgan o‘rni.....121</i>	
<i>Dilruxjon ABDILAKIMOV. Erkin Vohidov ijodi Naim Karimov talqinida.....130</i>	
<i>Dilbar HASANOVA. Erkin Vohidov ijodi va zamonaviy o‘zbek nasrida inson tuyg‘ulari talqini.....133</i>	
<i>Gulnavoz MAMADALIYEVA. Samimiyatga yo‘g‘rilgan ijod....136</i>	
<i>Dilfuza QOSIMOVA. Nazmi navoli, navobaxsh shoir.....142</i>	

<i>Dilnoza URALOVA. Erkin Vohidov she'rlarida inson qadri.....</i>	147
<i>Abdunazar SHAROPOV. Erkin Vohidov – adabiyotshunos....</i>	151
<i>Abbosbek MO'MINOV. Ko'ngli uyg'oq she'riyat.....</i>	153

II. ERKIN VOHIDOV IJODI JAHON VA TURKIY MADANIYAT KONTEKSTIDA

<i>Huseyin BAYDEMIR. Erkin Vohidov haqida Turkiyada amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlar.....</i>	158
<i>Veli Savash YELOK. Uch tanishuv – bir shoir.....</i>	165
<i>Emek UZUNMEZ. Ikkinchi jahon urushi va erkin vohidovning “Nido” dostoni.....</i>	180
<i>Shuhrat RIZAYEV. Yo'l iztirobi.....</i>	199
<i>Muhammadali QO'SHMOQOV. Erkin Vohidov ijodini jahon adabiyoti kontekstida.....</i>	203
<i>Mo'minjon SULAYMONOV, Abbosjon ROHATALIYEV. Erkin Vohidov va adabiy aloqalar.....</i>	210
<i>T.T.TASHKENBAYEV, BOBUR BAKHTIYOROV. The role of erkin vohidov's creativity in the education of students of technical universities.....</i>	214
<i>D.TASHKENBAYEVA, N.QO'SHOQOVA, V.RASULOVA, S.XAMRAKULOVA. The work of Erkin Vohidov – the specificity of approaches and methodology of translation into English....</i>	217
<i>Sh.S. KHOLMATOVA. Erkin Vohidov: bright star of poetry..</i>	219
<i>M.O. NOSIROVA. Specific Expression of social values in the works of E. Vohidov.....</i>	223
<i>Gulchehra QO'YLIYEVA. Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.....</i>	226
<i>Shodiya TURDIYEVA. Erkin Vohidov va Nazar Eshonqul ijodida mifologizm.....</i>	230
<i>Suhrob PO'LATOV. Erkin Vohidov – tarjimon.....</i>	237

III. ERKIN VOHIDOV – DOSTONNAVIS

<i>Ulug'bek HAMDAM. Erkin Vohidov va uning shoh asari.....</i>	240
<i>Shahnoza NAZAROVA. Erkin Vohidov dostonlarida folklor ohanglari.....</i>	252
<i>Tozagul MATYOQUBOVA. Zamon ruhiga hamohang she'riyat.....</i>	259

<i>Shoira AXMEDOVA. Erkin Vohidov turkumlarida hajvning o‘rni.....</i>	263
<i>Shahlo HOJIYEVA. “Nido” dostonida qahramon ruhiyatining badiiy tasviri.....</i>	267
<i>Dildora AZIMOVA. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyonı” dostonida shaxs konsepsiyasi.....</i>	272
<i>Shukrullo JO‘RAYEV. Erkin Vohidov ijodining o‘ziga xos qirralari.....</i>	279
<i>Ozodaxon OTABOYEVA. Erkin Vohidovning “Nido” dostoni tahlili.....</i>	284
<i>Umida BUXOROVA. Erkin Vohidov dostonlarining badiiy talqini.....</i>	288
<i>Gulbahor BERDIYEVA, Lobar MELIYEVA. Adabiyot darslarida erkin vohidov ijodini o‘rgatish usullari.....</i>	291

IV. ERKIN VOHIDOV IJODIDA MUMTOZ AN‘ANALAR

<i>Mahliyo MIRSOATOVA. Erkin Vohidov she‘riyatida “Go‘zallik” tushunchasining badiiy talqini.....</i>	296
<i>Dilrabo QOZOQBOYEVA. Erkin Vohidov muxammas-larida salaflariga izdoshlik.....</i>	299
<i>Mo‘minjon SULAYMONOV, Gulnoza XOLDOROVA. “...Lek navoiydek bobom bor”.....</i>	303
<i>Tohir QAHHOR. Navoiyning qo‘llari.....</i>	308
<i>Munisjon HAKIMOV. Navoiy va Erkin Vohidov.....</i>	318
<i>Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy an‘analari Erkin Vohidov g‘azallarida.....</i>	329
<i>Hilola ESHKUZIYEVA. Erkin Vohidov she‘riyatida mumtoz adabiyot an‘analari.....</i>	337
<i>Go‘zal AZIMBOYEVA. Erkin Vohidov she‘rlarining musiqiy ohangdorligi.....</i>	341
<i>Shirinmoh TO‘RAYEVA. Erkin Vohidov – ruhiyat tasviri ustasi.....</i>	344
<i>Dildora HUSANOVA. Erkin Vohidov g‘azallarida Navoiy an‘analari.....</i>	347

V.ERKIN VOHIDOV IJODIDA SO'Z LATOFATI

<i>Ra'no SAYFULLAYEVA, Hulkar HAMROYEVA. Erkin Vohidovning so'z latofati.....</i>	352
<i>To'lqin ESHBEK. Buyuk shoirning arboblik va publitsistlik mahorati.....</i>	356
<i>SH.AXMEDOVA, O.QURBONOVA. E.Vohidov ijodiga bag'ishlangan turkumlar haqida.....</i>	361
<i>Gulchehra KELDIYOROVA. Erkin Vohidov - so'z zargari.....</i>	365
<i>Alisher UBAYDULLAYEV. Erkin Vohidov she'rlarida o'zlashgan qatlamga oid leksik birliklar.....</i>	369
<i>Ijobat SAYMURATOVA. Erkin Vohidov uslubining ba'zi jihatlari haqida.....</i>	375
<i>Onajon RO'ZIMOVA. Til va dil birligi.....</i>	379
<i>Samiya JO'RAQULOVA. Erkin Vohidov qalamida tatabbu chizmalari.....</i>	382

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida
O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan “Erkin Vohidov ijodining
turkiy xalqlar madaniyatidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro ilmiy-
amaliy konferensiya uchun
KIRISH SO‘ZI**

Assalomu alaykum, xalqaro anjuman qatnashchilari!

Bu yil mamlakatimiz Prezidentining Qarorlari bilan ulug‘ shoir va yozuvchilarning tavallud sanalarini keng miqyosda nishonlandi, ularning faoliyati va ijodiga bag‘ishlangan o‘nlab ilmiy-amaliy va nazariy anjumanlar o‘tkazildi. Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi, Abdulla Oripov va O‘tkir Hoshimov kabi xalq adiblarining 80 yilligi shular jumlasidandir.

Xuddi shu kabi bugun biz O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, millatimizning ulug‘ namoyandasi Erkin Vohidov tug‘ilgan kunning 85 yilligini nishonlash uchun xalqaro ilmiy anjumanga yig‘ildik. Men O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-pedagogik jamoasi nomidan shu ulug‘ ilm bayrami bilan sizlarni tabriklayman.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov ulug‘ shoir, nosir, publitsist, olim, tarjimon va jamoat arbobi bo‘lish bilan birga o‘zining ko‘p yillik faoliyatini, muhabbatini Milliy universitetga bag‘ishladi. Shoir shu universitetning Filologiya fakultetida o‘qidi, universitetni tamomlagandan so‘ng ham o‘z faoliyatini universitet bilan bog‘lab, bir qator ilmiy grantlarga rahbarlik qildi va universitetning Faxriy professori univoniga sazovor bo‘ldi.

Erkin Vohidov yaratgan 50 dan ortiq she‘riy to‘plamlar, ularning qatidan joy olgan diltortar she‘rlar xalqimiz qalbidan muqim o‘rin egalladi. Birgina “O‘zbekim” qasidasi millatning ma‘naviyatiga va iste‘dodiga qo‘yilgan muhtasham haykal bo‘ldi. Erkin Vohidov o‘nlab dostonlar yaratdi, jumladan, “Ruhlar isyoni” dostoni o‘z mavzu ko‘lami va badiiy ifodasi bilan jahonning eng sara epik asarlari qatoriga qo‘shildi. Dramaturg sifatida yaratilgan 5 sahna asaridan “Oltin devor” spektakli har bir o‘zbekning qalbi to‘ridan joy oldi, xorij mamlakatlari sahnasiga chiqdi. Jahon adabiyoti namunalarini, xususan, nemis adibi Gyotening “Faust” asarini o‘zbek tiliga mahorat

bilan tarjima qildi. Shu kabi J.Bayron, A.Axmatova, S.Esenin va boshqa jahonshumul shoirlarni o‘zbek tilida so‘zlata oldi.

Erkin Vohidov jamoat arbobi sifatida bir necha o‘n yillar davomida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida Oshkoralik komissiyasi raisi, boshqa Mamlakatlar parlamentlari bilan aloqa qilish qo‘mitasi raisi, Oliy Majlis Senatida Fan, madaniyat va sport ishlari qo‘mitasi raisi vazifalarida ishladi. Ayni shu faoliyati bilan mamlakatda xalqimiz ma‘naviyatini o‘stirishda, uning boshqa xalqlar bilan adabiy hamkorlik va do‘stlik rishtalarini rivojlantirish ishiga katta hissa qo‘shdi. Mamlakatimiz hukumati shu kabi betinim mehnatlarini hisobga olib, uni O‘zbekiston Qahramoni unvoni va “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni kabi bir qator yuksak unvon va ordenlar bilan mukofotladi.

O‘zbekiston Milliy universitetida Erkin Vohidov ijodini chuqur o‘rganish, uni xalqimiz orasida targ‘ib qilish borasida davomli ishlar amalga oshirilmoqda. “Erkin Vohidov ilmiy-ma‘rifiy markazi” tashkil etilganiga 2 yil bo‘lmasidan o‘nlab professor va o‘qituvchilarni, tadqiqotchi va talabalarni o‘z bag‘riga olgan. Olimlarimiz Erkin Vohidov ijodi bo‘yicha samarali ishlar olib borish bilan bir qatorda Farg‘onadagi Erkin Vohidov ijod maktabini otaliqqa olgan holda ularga ilmiy-metodik jihatdan ko‘mak berib kelmoqda. Har yili universitetda “Erkin Vohidov izdoshlari” nomli hajmi qariyb 30 bosma toboqdan ortiq yoshlarning ijod mahsullari nashr etilmoqda. Universitetda “Erkin Vohidov nomida maxsus stipendiya” joriy qilingan, o‘tgan yili universitetning 4 talabasi mana shu stipendiya sohibi bo‘ldilar. Bu yil esa tanlovda o‘ttizdan ortiq ijodkor yoshlar qatnashayotgani bu stipendiya talabgorlarining ko‘lami kengayib borayotganidan dalolatdir.

Yoshlarimiz Erkin Vohidov ijodi sirlarini muhabbat bilan o‘rganmoqdalar, shoirning asarlariga nazira bog‘lab, ayrim asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilmoqdalar. Shoir asarlarining shu vaqtga qadar e‘lon qilingan ingliz va rus tillaridan universitetimiz yosh tarjimonlari amalga oshirgan ingliz, nemis va rus tillaridagi tarjimalar majmuasi bo‘lmi “Inson va fursat” to‘plami (2019), Samarqand chet tillar universiteti bilan hamkorlikda xitoy va o‘zbek tillarida chop etilgan “Samarqand xayoli” (2020) to‘plamlari ana shu izchil zahmatning samarasidir.

Bugun O‘zbekiston Milliy Universitetida Jurnalistika fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-son qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 2-sentyabrdagi 458-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida “Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatidagi o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (oflayn-onlayn) tashkil etildi. Xalqaro konferensiya an’anaviy va ZOOM platformasida hamda YouTube dasturi orqali mamlakatimiz va xorijiy to‘g‘ridan to‘hri uzatilmoqda.

Konferensiyaning maqsadi O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo‘shgan atoqli shoir va publitsist, taniqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini inobatga olgan shoir tavalludining 85 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirishdan iborat.

Konferensiya quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan:

- “Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatidagi o‘rni” ni aniqlash va ilmiy o‘rganish;
- Erkin Vohidov ijodiga doir muhim ilmiy-nazariy muammolarni belgilash, shoir ijodini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etish masalasining yetakchi konsepsiyasi – inson va hayot falsafasi muammosini adabiyot, falsafa, tarjima, publitsistika, tilshunoslik sohasidagi yetakchi mutaxassislar bilan muhokama qilish;
- Erkin Vohidovning ko‘p qirrali adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish;
- O‘zbekiston Milliy universitetida ochilgan “Erkin Vohidov ilmiy-ma’rifiy markazi”ni shoir hayoti va ijodini targ‘ib qilish hamda ilmiy o‘rganishda yetakchi ilmiy markazga aylanishini ta’minlashdan iborat.

Konferensiyadagi chiqishlarda muhokama qilinadigan muammolar:

O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning suyuqli shoiri Erkin

Vohidov ijodi va faoliyatini o‘rganish orqali yosh avlodni yuksak ma’naviy ideallardan xabardor etish; Erkin Vohidov ijodini jahon va o‘zbek adabiyoti kontekstida o‘rganish; Erkin Vohidov ijodining badiiyati; til va uslubiy xususiyatlari; Erkin Vohidov ijodi va xorijiy, xususan, turkiy xalqlar madaniyatidagi ahamiyatini ta’kidlashdan iborat.

Konferensiya doirasida Erkin Vohidov faoliyatining turkiy xalqlar madaniyatidagi o‘rni, adabiy aloqalar, jamiyat va davlat boshqaruvi sohalari bilan bog‘liq faoliyatini muhokama qilindi; shoirning ijodiy konsepsiyasi, yaratgan asarlarining badiiy-falsafiy jihatlariga e’tibor qaratildi.

Konferensiyada O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardan 56 ta yetakchi olim ishtirok etmoqda. Ular orasida AQSH, Turkiya, Ozarboyjon Fanlar akademiyalari, yetakchi universitetlar va O‘zbekistonning o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitiladigan ko‘pgina universitetlarining professor-o‘qituvchilari bor.

Men Sizlarni ushbu muborak sana Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligi bilan samimiy va qizg‘in tabriklayman va “Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Hamidulla BOLTABOEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti rektorining ilmiy-adabiy
maslahatchisi, filolgiya fanlari doktori, professor

I. ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATI ABADIYATI

ERKIN VOHIDOV GULSHANI

*Naim KARIMOV,
O'zR Fan arbobi, O'zRFA akademigi*

Nazarimda, xalqning ham, jamiyatning ham charchagan, tevarakatrofta kechayotgan voqealarga, ilm-fan, adabiyot va san'at yoki boshqa ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga loqaydlik bilan qaragan, qandaydir pinakka ketgan paytlari bo'ladi. Xalq va jamiyat shunday paytlarda dunyoga tez-tez kelmaydigan, ellik-yuz yillarda bir tug'ilishi mumkin bo'lgan siymolarni, o'zining iftixori, vijdoni, ornomusi bo'lgan farzandlarini unutib qo'yadi.

O'zbek xalqi XX asrda fan va madaniyatning necha-necha ulug' arboblarini etishtirib berdi. Ammo, ming afsuslar bo'lsinki, mustabid tuzum mashinasi ularning aksar qismini majaqlab tashladi, qolgan qismi esa og'ziga kishan solgan holda yashashga yoki farzandlarini, yor-do'stlarini balo-qazolardan asrab qolaman, deb sho'ro davri laparlarini kuylashga majbur bo'ldi. "Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir", deb ulug'langan xalq esa na o'zini himoya qila oldi, na Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari nazarkarda farzandlarini.

Oybek tinimsiz xurujlar orqasida 1951-yil bahorida tildan qolib, to'shakband bo'lib qolganida, qanchadan-qancha kishilar uzoq-yaqindan kelib, ulug' adibning shifo topib ketishi uchun dori-darmonlar olib kelishgan edi. Abdulla Qodiriyning oqlangani haqidagi xushxabar tarqalishi bilan uning Samarqand darvoza mavzeidagi uyiga keluvchilarning oqimi bir necha kun davom etgan edi...

Xalq zamondoshlari bo'lgan ilm-fan, adabiyot va san'atning ulug' namoyandalarini chin dildan qadrlar, ularga katta hurmat va ehtirom ko'rsatar, asarlarini ko'ziga to'tiyo yanglig' surtib, qayta-qayta o'qir edi. Hatto fojiali davrlar qilichi ham uning oltin so'zga bo'lgan, ilm-fanga bo'lgan buyuk e'tiqodini kesa olmagan edi.

Kamina 60-yillarda o'zbek adabiyotiga chaqmoq yanglig' chaqnab kirgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov singari shoir va yozuvchilarning yangi asarlarini Toshkentdagi kitob do'konlaridan topolmay, biror bahonai sabab bilan viloyatlarga

borganimda, o'sha joylardagi kitobxonalardan topib kelardim. 10 ming nusxada chop etilgan she'riy kitoblar, 50-100 ming nusxada bosilgan romanlar kitobsevar o'zbek xalqiga urvoq ham bo'lmagan edi o'shanda...

Oradan ko'p o'tmay, kitob do'konlariga qiron keldi... Hozir eng mashhur shoir va yozuvchilarning fin qog'oziga bosilgan, muqovasining go'zalligi dillarni quvontirib yuboradigan asarlari ham kitob do'konlarida chang bosib yotibdi. Bu ajoyib asarlarni yurak qoni bilan yozgan davrimizning G'afur G'ulomu Oybeklari bo'lmish adiblarni tavof etadigan kitobsevar xalq qaerga g'oyib bo'ldi?..

Davrimizning ulug' shoiri Erkin Vohidov, taqdirning har qanday sinovlariga qaramay, aziz umrining saksoninchi bahorini munosib qarshi olish uchun badiiy adabiyotning rang-barang janrlarida tinmay asarlar yozib turibdi. Uning kuni kecha kitobxonlar qo'liga etib borgan yangi she'rlar to'plami va "So'z latofati" esselar kitobi bilan falakning har qanday zarbalariga qaramay, o'zidagi izlanish istagi, hozirgi adabiy tilimizni bezab turgan so'zlarning qadimiy ildizlarini topish ehtiyoji, she'riy shaklning yangi va go'zal shakllarini kashf etish zavqi, katta fikr, tuyg'u va hayajonlarni sodda va qisqa satrlarda ifodalash mahoratiga zarracha g'ubor qo'nmaganini ma'lum qildi. Hatto aytish mumkinki, XX asrdagi o'zbek shoirlari orasida aruz, barmoq va sochma she'riy vaznlar tabiatini mukammal bilgan va shu vaznlardagi she'riy durdonalari bilan XX asr o'zbek she'riyatini yuksak cho'qqiga ko'targan Erkin Vohidov hali ham ijodiy o'sishda, she'riyat koinotining noma'lum sayyoralarini kashf etishda davom etayotgan ekan.

Biz, Olohning oddiy bandalari, ko'pincha, taqdirning o'tkinchi xush va noxush shabadalari ta'sirida har bir inson uchun zarur bo'lgan, umrini bezagan, uni olg'a intilishga undagan eng muhim narsalarni unutib qo'yamiz. Holbuki, har bir tarixiy zamon va makonda shunday buyuk siymolar yashab, o'zlarining fidoyi ishlari, ilmiy va ijodiy kashfiyot bo'lgan asarlari, hatto shaxsiy ibratlari bilan shu zamon va makonga fayz bag'ishlab turadilar. Biz yoshligimizda Oybek va G'afur G'ulom, Shukur Burhon va Olim Xo'jaev, Yunus Rajabiy va Halima Nosirova singari adabiyot va san'at darg'alarini ko'rib, ularga zamondosh va vatandosh bo'lganimiz bilan faxrlanganmiz. Hozir ham barhayot zamondoshlarimiz orasida

faxrlanishga arzirli kishilar oz emas. Shulardan biri va, balki, birinchisi Erkin Vohidovdir.

Erkin Vohidov zamondoshlariga aruzni, o'n to'rt kunlik oydek, yashartirib, yangilab, qaro ko'zlariga surma, qo'llariga esa xino qo'yib berdi. "Sovet davriga yot", "eskirgan", "yangi madaniy davrning g'oyaviy boyligini ifodalashga noqodir", deb ayblanib kelingan aruz, Erkin Vohidov tufayli, zamonaviy, serimkon, jozibador vazn sifatida yarqirab ketdi. Shoir shu sohadagi izlanishlarini davom ettirib, aruzning mumtoz Sharq adabiyotidagi pirlaridan biri – Alisher Navoiy g'azallarida ifodalangan badiiy mazmunning boy va go'zalligini, ulug' shoirning she'riy san'atlardan foydalanish mahoratini shunday yorqin ko'rsatib berdiki, biz endi "Qaro ko'zim"ni aytgan hofizning ovozigina emas, uning tilidan kuylanib chiqayotgan so'zlarning turfa va chuqur ma'nolarini chaqib ham sel bo'ladigan bo'ldik.

Ammo Erkin Vohidov barmoq vaznining xushbichim beshigida ulg'aydi. XX asrning 30–50-yillarida tug'ilgan shoirlar uchun bu beshikni Cho'lpon bilan Fitrat o'zbek xalq she'riyatining uskunalaridan foydalangan holda yasashgan edi. Erkin shu beshikni tark etib, tetapoya qila boshlagan kundan to shu vaqtgacha unga pardoz berib, qubbalarigacha tinimsiz sayqal berib keladi. Uning barmoq vaznida yozgan she'rlarini boshqa biror, hatto zargar shoirning ham "barmoq"lari bilan almashtirish mumkin emas.

Erkin Vohidovning so'nggi yillarda yozgan she'rlari nafaqat qisqaligi, ayni paytda falsafiy fikrlarga boyligi, kitobxonni hayot, umr, abadiyat haqida o'ylashga chorlashi bilan e'tiborga molik. Shunday muxtasar she'rlardan biri soya haqida. Nur va soyaning o'zaro munosabati – she'riyatning abadiy mavzularidan biri. Bu mavzuda biror yangi fikrni aytish, binobarin, kitobxonni hayratga solish amri mahol. Ammo Erkin Vohidovning mahorati shundaki, u chaynalgan mavzu va chaynalgan obrazlarga ham yangi adabiy hayot bag'ishlay oladi. Shoir yozadi:

*Quyoshli kun soyang qolmas izingdan,
Bulut chiqsa g'oyib bo'lar ko'zingdan.
Oftobing tik kelsa, poyingda yotar,
Kunbotarda uzun bo'lar o'zingdan.*

Soya haqidagi bunday go‘zal ruboiyni hatto “ruboiyot qirol” Umar Hayyomning ham tilla sandig‘idan topish oson bo‘lmasa kerak. Erkin Vohidov bu she‘rning har bir satridagi so‘zni zargarning tilla tarozida tortib, so‘ng, o‘qni miltiqning o‘qdoniga joylagandek, uni satrga shunday joylaydiki, bu so‘z satr ichida otilishga shay o‘qdek qanotlanib turadi.

“Oftobing tik kelsa, poyingda yotar...” Qanday go‘zal obraz! Qanday dahshatli hayot haqiqati!! Aslida bu she‘rda tasvirlangan oftob ham, soya ham sizniki; sizning oftobingiz va sizning soyangiz. Ammo Sizning Oftobingiz boshingizda tik turganida, Sizning Soyangiz poyingizda bir burdadedek bo‘lib, ezilib, mazluma bo‘lib yotadi. Ammo (yana ammo!):

Kunbotarda uzun bo‘lar o‘zingdan.

Bu – she‘rni yakunlovchi, inson hayoti tarixiga so‘nggi, fojiali ma‘no berilgani va nuqta qo‘yilganini tasdiqlovchi muhr. Kunbotar – kun tugab, tun pardasi tushayotgan vaqt; inson umrining so‘nggi lahzasi. Shu so‘nggi lahza kelganda soya, Sizning Soyangiz bo‘y cho‘zib, yayrab-yashnab Sizdan ham uzun bo‘lib ketadi.

Erkin Vohidov shu tarzda soyani tabiatning oddiy hodisasidan inson umrining turli fasllarini anglatuvchi, piravardida undan-da “uzunlashib”, uni so‘nggi manzilga kuzatuvchi noxush bir hodisaning timsoli darajasiga ko‘taradi. Soya shoirning hayot va umr, adam va abadiyat haqidagi falsafiy o‘ylarining tugallangan badiiy shaklga kirishiga yordam beruvchi poetik vositaga aylanadi.

Oddiy so‘z va tushunchani yorqin obraz darajasiga, sermazmun, umumlashma timsol darajasiga ko‘tarish uchun shoir yillar davomida so‘z ustida ishlashi, “Bedor tunlar” she‘rida yozganidek, “Mijja qoqmay, she‘r qoralab, oqqa ko‘chirishi” va “Bu kech ham uxlamay, barini butun Bir satr ham qoldirmay o‘chirishi”, umr bo‘yi tinmay ishlashi, hayotning ayrim lazzatlaridan voz kechishi lozim. Bunday mashaqqat va “musibat”ga faqat buyuk shoirlargina rozi bo‘lishadi. Erkin Vohidov ana shunday buyuk shoirlardan.

E.Vohidov iste‘dodining muhim bir qirrasini uning hazilga, hajvga o‘ta moyilligidir. Hazil-mutoyiba, hajv uning butun borlig‘iga qon tomirlari orqali yoyilib ketgan. U voqelikda ro‘y bergan, zaharli tig‘i

o‘zining ham qalbini jarohatlagan voqea-hodisalarga o‘zbek hajvi, o‘zbek qiziqchiligi zabt etgan yuksak dovondan turib qaraydi.

U “Donishqishloq latifalari”da xalq tarixining achinarli, hatto fojiali davrlarini va shu davrda ro‘y bergan dahshatli voqealarni hajviy bo‘yoqlar yordamida, kulgi chaqnab turgan kinoyalar yordamida tasvirlash mumkinligini shunday mahorat bilan ko‘rsatdiki, Matmusa va uning eshagi hatto Apuleyning “Oltin eshagi”ni ham aro yo‘lda qoldirdi.

Fojiali davr, fojiali voqea haqida kulib yozish, hajviy tasvir vositalarini o‘ynatib, chaqmoq yanglig‘ charaqlatib yozish oson emas. O‘tgan asrning 30 – 50-yillarida avj olgan, yuz minglab kishilarni qon qaqshatgan qatag‘on davri manzaralarini eslash, hajviy bo‘yoqlar bilan tasvirlash esa, aslida, shu davr jabrdiydalari xotirasiga nisbatan o‘ta hurmatsizlikdir. Lekin Erkin Vohidov “Istibdod” she‘rida shu qaltis mavzuga shunday engil va nafis hazil-mutoyibaning yam-yashil maysa bilan qoplangan dovonida turib nazar tashlagan va sovet davlati qatag‘on siyosatining bema’niligini, har qanday ma’no va mantiqqa zid bo‘lganligini shunday nozik did va nazokat bilan ochib tashlaganki, bu she‘rdan qahqaha bo‘lib jaranglagan kulgudan jabrdiydalarning ko‘z yoshlari “chak-chak” tomib turgandek bo‘ladi.

She‘r dahshatli NKVD xodimining monologi tarzida yozilgan:

*Egil, o‘zni pana qil,
Borligingni bildirma.
Yo‘talganga o‘n besh yil,
Aksirganga yigirma.*

*Kar bo‘l, ko‘r bo‘l, tishla til,
Boshga balo keltirma.
Gapirganga o‘n besh yil,
Eshitganga yigirma.*

*Qalamingni dushman bil,
Qog‘oz uzra jildirma.
Roman yozsang – o‘n besh yil,
Doston yozsang – yigirma...*

Hozirgi avlod hajvning zaharli qahqahasi yangrab turgan bu she'ni o'qib, o'zini kulgidan to'xtata olmasligi mumkin. Ammo shu kulgi to'foni haqiqatning metin qoyalariga urilgach, uning ko'zlaridan shoda-shoda yoshlar to'kila boshlasa ajab emas.

Bunday she'rlar shoirning ilhom bulog'idan otilib emas, zardob bilan to'lgan qalbidan qon sachratib chiqadi.

Ammo hamma gap shundaki, Erkin Vohidov o'z qalbida kechgan ichki kurashlarni, yuragini ishdan chiqargan ijodiy jarayonlarni katta matonat bilan yashiradi...

Erkin Vohidov boshqa bir she'riyatni yaratdi. Bir qaraganda, o'ta engil va ravon yozilgan, Homerning gekzometri vaznida to'qilgan va serma'nolikka da'vo qilgan she'rlarga qaraganda, uning 7, 9, 11 hijoli barmoq vaznida yozilgan she'rlaridagi tuyg'u, hayajon, fikr katta haqiqatlar yashirin zamindan kuch olib, shu haqiqatlar shabadasini elpib turadi.

Kaftdek maqolada Erkin Vohidov ijodining hamma qirralari to'g'risida yozish shart emas. Lekin bu ulkan shoir ijodining yana bir olmos qirrasini borki, uni chetlab o'tish adabiyotshunos uchun kechirilmas bir holdir.

Erkin Vohidov jahon she'riyatining talay buyuk namunalari o'zbek adabiyotining ham mulkiga aylantirib berdi. Shunday o'lmas asarlar orasida "Faust" tragediyasining tarjimasini alohida ajralib turadi. "Osilsang, baland dorga osil!" shioriga amal qilib yashayotgan E.Vohidov hali badiiy tarjimada katta tajriba ortirmay turib, buyuk nemis shoiri Iogann Gyotening shoh asariga qo'l urdi. Balki Navoiyning "Xamsa"ga qo'l urish chog'ida yozgan mashhur bayti o'sha kezlarda uning xayolidan bir oz o'zgargan holda o'tgandir: "Emas oson bu maydon ichra turmoq, Gyotening "Fausti"ga panja urmoq".

Mirtemir ifodasi bilan aytganda, bunday "epoxal asar"ni butunlay begona tildan tarjima qilish uchun shu asar sharhi va tahliliga bag'ishlangan o'nlab noyob kitoblarni mutolaa qilish, "Faust"ning rus va turkiy tillardagi barcha tarjimalarini o'rganish va, albatta, nemis tilini muayyan darajada bilish talab etiladi. Bu uzoq davom etadigan, bedor tunlarni talab qiladigan g'oyat, g'oyat mashaqqatli jarayon. Erkin Vohidov shunday mashaqqatning daryo va tog'larini bosib o'tib, "Faust"ni o'zbek tiliga shunday tarjima qildiki, u xuddi o'zbek tilida yozilgandek hayratlanarli darajada katta taassurot qoldirdi.

Erkin Vohidovning butun ijodiy hayoti davomida olib borgan ilmiy-ijodiy izlanishlari qaymog'i – "So'z latofati" kitobi esa shoirning so'z ustida qattiq ishlagan, qariyb har bir so'zning kelib chiqishi va turfa ma'nolarini bilishga intilgan, igna bilan quduq qazuvchi nodir kishilar toifasidan ekanligini yana bir karra ma'lum qildi.

Yillab davom etgan bedor tunlar, ijod zahmatlari va mashaqqatlari fildek inson qomatini ham dol qilib qo'yadi. Kamina Navoiyning Muzaxxib qalamiga mansub rasmini ko'z oldimga keltirganimda, hali oltmishga to'lmagan shoirning hassaga tayanib qolgani sabablarini ana shunda – ijod bilan kechgan bedor tunlar va ijod mashaqqatlarida ham ko'raman.

"Toqqa chiqmasang, do'lana qayda?" degan gap bor xalqimizda. Erkin Vohidovning butun hayotini, sihat-salomatligini she'riyatga bag'ishlab, qanchadan-qancha tunlarni bedor o'tkazgani, ijod zahmatlarini chekkani, beli dol bo'lgan esa-da, behuda ketmadi. U o'zbek she'riyati bo'stonida o'z gulshanini yaratdi. U durdona she'rlari va tarjimalari bilan o'zbek she'riyatini, umuman, o'zbek adabiyotini yangi, yanada yuksak dovonga olib chiqdi.

Kamina Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir gulshanlariga tutash Erkin Vohidov gulshanida xayolan kezar ekanman, ayrim antiqa gullarning ko'chatlik, bog'bonning esa yoshlik chog'lari xotiramga keladi.

...Erkin Vohidov O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ning filologiya fakultetiga o'qishga kirganida, men shu dorilfununning aspiranturasiga o'tgan edim. Talabalik yillarimda devoriy gazetani bezash ishlariga jalb etilganim uchun, bayram arafalarida qizil matoga shiorlar yozish ham kaminaning zimmasida edi. Universitetning hovli tomonga qaragan qismida, birinchi kavatda kattagina xona bo'lardi. Shu xonada erga matoni yozib, tish yuvadigan poroshokni suvda atalab, cho'tka bilan shior yozardim. O'sha yillarda oq mayin brezentdan tikilgan tuflilar modada edi. Bu tuflilar beti tez kirlanib-qorayib ketar, shuning uchun uni o'qtin-o'qtin boyagi oq atala bilan bo'yab turilar edi. Erkin Vohidov ham bayram arafalarida shu xonaga kirib, qoraygan poyafzalini oqartirib turardi. Erkin shu yumushni shunday nazokat bilan bajarar ediki, bu jarayonni ko'rgan odam uni go'yo oyoq kiyimiga emas, balki biror qizning yuziga pardoz berayapti, deb o'ylashi hech gap emas edi.

O‘sha yillarda talabalar qatori, aspirant va o‘qituvchilar ham paxta terimiga chiqishardi. Shunday kuz kunlarining birida radiodan birinchi sun‘iy er yo‘ldoshining uchirilganini eshitib qoldik. Talabalar har kuni chaqnoq yulduzlar bilan to‘la osmonga ko‘z tikib, sun‘iy yo‘ldoshning “bip-bip” qilib o‘tishini zavq bilan kuzatadigan bo‘ldilar. Bu, ilm-fan erishgan ulkan tarixiy g‘alaba edi. Paxta dalasidagi shunday kunlarning birida kimdir shahardan “Qizil O‘zbekiston” gazetasining bir necha yangi sonini olib keldi. Shu gazetalarning birida sun‘iy yo‘ldoshga bag‘ishlangan she‘r ham bo‘lib, uning tagiga “Erkin Vohidov” deb imzo chekilgan edi. Erkinning she‘r mashq qilishini shu kungacha biror kishi bilmagan edi. Paxta dalasida, o‘sha davr tili bilan aytganda, “javlon urib yurgan” talabaning o‘zbek shoirlari orasida bu tarixiy voqeaga birinchi bo‘lib she‘riy munosabat bildirishi bizni, talabalaru o‘qituvchilarni hayratga soldi.

Universitetda mashhur tilshunos olim Ayub G‘ulomovning ukasi Yoqub G‘ulomov o‘zbek tilidan dars berardi. U ko‘pincha o‘zbek tili shevalarining sekin-asta yo‘qolib, adabiy tilga singib ketayotganini aytishni sevar, ammo o‘zining nutqida Toshkent shevasi o‘qtin-o‘qtin “jilva” berib turardi. Shunday kunlarning birida fakultetning devoriy gazetasida Erkinning Yoqub G‘ulomovga bag‘ishlangan ikki satrlik epigrammasi chiqqan:

*Tilimizda “votti-votti”
Asta-sekin yo‘qolvotti.*

Yodimda, shu ikki satr o‘sha kezlarda talabalar o‘rtasida G‘afur G‘ulomning “Ona qizim Jamila”sidan ham mashhur bo‘lib ketgan.

Paxta mavsumi tugab, talabalar shaharga qaytib, o‘qish ishlari yurishib ketdi. Shunday kunlardan birida Navoiy teatri yonidagi obunali kitoblar do‘konida qaysi bir “dohiy”ning asarlariga obuna e‘lon qilindi. E.Vohidovga kursdosh talabalar guruhi “dohiy” asarlariga obuna bo‘lish uchun saf tortib, Teatr maydoniga borishdi. Ba‘zi talabalar navbat talashib, “dohiy”ning to‘la asarlar to‘plamiga yozilish “baxt”iga “muyassar bo‘lishdi”. Hamma yozilib, navbat Erkinga kelganda, u: “Men keyin yozilaman”, dedi-da, miyig‘ida kulib, sekingina do‘kondan chiqib ketdi...

Men shu voqeani eslar ekanman, uning talabalik kezaridayoq sovet davri dohiylarining asarlari vaqti-soati kelib butkul

qadrsizlanishini sezganidan, ijodkor bunday asarlardan emas, insoniyat badiiy va falsafiy tafakkuri durdonalaridan oziq olishi kerakligini tushunganidan hayratga tushaman.

Ana shu Erkin Vohidov o'tgan davr mobaynida faqat jo'shib ijod qilibgina qolmay, insoniyat tafakkuri durdonalarini tinmay o'qib, ulardan oziqlanib, dono Inson va dono Shoir bo'lib etishdi.

ADABIY JASORAT

*Abdulla A'ZAM,
O'zRFA akademigi, professor*

Erkin Vohidovning hozirgi zamon o'zbek adabiyoti rivojiga, ming yillik ildizlarga ega o'zbek nazmi daraxtining parvarishiga qo'shgan hissasi ulkan va ko'pqirralidir. Biz ana shu qirralardan biri – ustoz shoirning mumtoz aruz vazni taqdiridagi alohida o'rni xususida fikr yuritmoqchimiz. Mulohazalarimizni biroz uzoqdan, adabiyotdan ko'ra ko'proq siyosatga aloqador xotiralardan boshlashni maqsadga muvofiq.

Erkin akaning 80 yoshlik to'yi yurtimiz mustaqilligining 25 yilligi bilan bir yilda nishonlanmoqda. O'tgan 25-30 yillik davr davomida tarixning ko'hna charxida ulkan bir evrilish yuz berdiki, beixtiyor shunday fikr kelasan – O'zbekiston tarixi xronologiyasini hatto 1991 yilga bog'lasa, tarixiy voqealar sanasini “mustaqillik e'lon qilinishidan besh yil avval” yoki “mustaqillikning o'ninchi yili” tarzida zikr etsa bo'ladi.

Bugun jamiyatdagi eng faol qatlamni tashkil etayotgan avlodning “suyagi” mustaqillik yillarida qotdi, ularning izidan esa mustaqillik yillarida tug'ilib voyaga etgan avlod qanot yozib kelmoqda. Balki bu ikki avlod uchun “mustaqillikdan avvalgi davr” voqeliklari endi ertaksimon bo'lib tuyular. Lekin Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “tarixsiz kelajak yo'q”. Bu hikmat nafaqat olis o'tmishga, balki mustaqillikkacha bo'lgan yaqin tarixga ham taalluqli. Hatto ma'lum ma'noda muhimroq – o'zgalarga qaram bo'lib yashash qanday fojealarga olib kelishi xuddi shu davr tarixida keskin buyoqlarda aks etgan: axir, sho'ro tuzumi parchalanishdan avval o'zining istibdod qilichini aynan O'zbekistonga yo'naltirdi-ku? “Paxta ishi”, “O'zbeklar ishi”, diniy, milliy va tarixiy qadriyatlarga nisbatan qatag'onning

so‘nggi to‘lqini, “o‘zbek tilining davlat tili bo‘la olmasligi” to‘g‘risidagi iddaolar, “paxta monokulturasini” kabi balolar xuddi shu davrda yuz bergan edi.

Biz bu erda sho‘ro zug‘umiga uchragan yana bir tarixiy qadriyatimiz to‘g‘risida so‘z yuritmoqchiman. U ham bo‘lsa, mumtoz she‘riyatimizning vazni bo‘lmish aruz tizimidir. Bu tizimni hazrati Navoiy muqaddas sanab, “aruzi sharif” deb atagan edi. Yusuf Xos Hojibdan boshlab Furqatgacha o‘zbek shoirlari amal qilgan, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy ijodida lirikaning ettinchi osmonigacha ko‘tarilgan she‘r tizimi.

Bunday olib qaraganda sog‘lom aqlga muvofiq kelmaydi – nima uchun sho‘ro mafkurasini aruzni tarix sahnasidan siqib chiqarishga intilgan? Bu savolga o‘sha davrda rasmiy mafkura tilida shunday javob berilgan: mumtoz o‘zbek she‘riyati saroy adabiyotiga mansubdir. Boshqacha qilib aytganda, “mayakovskiycha” tarqoq vazndan farqli o‘laroq, aruz inqilobiy baqir-chaqirlarni ifodalashga moslashmagan, mitingga to‘plangan olomoni junbushga keltiradigan hayqiriq-she‘rlarni aruzda yozib bo‘lmas edi (Hatto, aksincha, aruziy she‘r kishini ko‘ngliga quloq solishni o‘rgatadi, bezovta dil, qaqshagan asablarga taskin berib, ularni tinchlantirish xususiyatiga egadir). Albatta, aruziy she‘r minglab tinglovchiga qarata o‘qilishi mumkin. Masalan, Navoiyning Abdurahmon Jomiy vafotiga yozgan marsiyasini mingdan ziyod kishi chuqur hayajon bilan tinglagan.

Sho‘ro mafkurasining aruzga nisbatan iddaosi har tomonlama sun‘iy tabiatga ega edi. Birinchidan, A.S.Pushkin va boshqa ko‘plab rus shoirlari saroy adabiyotining vakillari edi, I.V.Gyote esa so‘nggi tukigacha saroy shoiri bo‘lgan. Ikkinchidan, Lutfiy she‘riyatining saroy adabiyotiga aloqasi bo‘lmagan, Turdi Farog‘iy, Maxmur kabi shoirlar quyi tabaqa vakillari, Mashrab esa hatto devonasifat darvish edi. Uchinchidan, Navoiyning mashhur

*Jahon ganjiga shoh erur ajdaho
Ki, o‘tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi bila tiriklik erur
Maosh aylamak ajdaho komida*

qit‘asiga “saroy adabiyoti” degan tamg‘a bosish insofdanmi? Agar bu qit‘a “saroy adabiyoti”ga mansub hisoblansa, dunyoda saroy

adabiyotidan zo‘rroq demokratik adabiyot yo‘q, degan xulosa chiqarish lozim emasmi?

Bu satrlar muallifining ishonchi komilki, sho‘ro mafkurasi tomonidan mumtoz she‘riyatga, xususan, aruzga nisbatan xurujning tagida o‘zbek xalqini milliy va islomiy ruhda tarbiyalashning ta‘sirchan vositasi bo‘lgan ana shu she‘riyatdan begonalashtirish va shu orqali uning asil qadriyatlarining ildizini qirqish niyati yotgan. Va bunday mash‘um niyatni amalga oshirishga kirishilgan. Ming afsuski, 21-asr o‘zbek adabiyotining ayrim yirik vakillari ham “aruz – qoloq, o‘z davrini o‘tab bo‘lgan, zamon talablariga javob bermaydi” mazmunidagi tashviqotni qo‘llab-quvvatladilar. Natijada oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalaridan aruz ilmi (umuman, mumtoz she‘r ilmi) chiqarib tashlandi, aruzda ijod qilishga uringan shoirlar adabiyot dargohining poygagiga surib qo‘yildi, aruzda faol ijod qilgan Chustiy hatto bu dargohdan badarg‘a qilindi.

Xayriyatki, “xalq musiqasi” degan nom bilan saqlanib qolgan milliy qo‘shiq san‘ati, ayniqsa maqomlar aruz bahrlari bilan chambarchas bog‘liq edi, g‘azallar, muxammaslar o‘zidan-o‘zi maqom sho‘balariga tushib ketaveradi-da. Shu bois sho‘ro mafkurasi shaklan bo‘lsa-da, g‘azalnamo she‘rlarga muhtojlik sezgan va ularga matbuot sahifalaridan o‘rin bera boshlagan. Faqat bir shart bilan – “g‘azallar” ana shu mafkurani targ‘ib etishga xizmat qilishi lozim edi.

Arab alifbosiga asoslangan yozuvning muomaladan chiqarilishi bilan zamonabop va zamonasoz mavzularda yozish buyurtmasi qo‘shilib, 20-asrning 20-yillaridan boshlab mumtoz she‘riyatdan vazni bo‘yicha ham, badiiyati bo‘yicha ham keskin farq qiladigan “g‘azalnavislik” uslubi vujudga kelib, asrning o‘rtalarida u qaror topib bo‘lgan edi. Nafsilamirini aytish lozim, Habibiy kabi oz bo‘lsa-da, madrasa ta‘limi ko‘rishga ulgurgan ijodkorlar merosida “Bu gulshan soz ekan soz ustiga soz etkali keldik” kabi, zamonabop mavzuda bo‘lsa ham aruzning yuksak talablariga javob beradigan she‘rlar uchraydi. Lekin bu kabi namunalar umumiy qoidadan istisno bo‘lib, g‘azallarni aruzga barmoq vaznini aralashtirib, ko‘pincha esa sof barmoq vaznida yozish odat bo‘ldi (masalan, Sobir Abdullaning “Devon”i barmoq vaznida yozilgan g‘azallardan tarkib topgan). Matbuotda bir necha g‘azal yig‘masi e‘lon qilinguday bo‘lsa, orasida partiya, tepakal dohiy, sho‘ro tuzumini madh etuvchi va boshqa “qizil” mavzudagi bir-ikki she‘r bo‘lishi talab qilinar yoinki sof lirik

gʻazalga ana shu sifatli bayt yamoqday “yopishtirilishi” ragʻbatlantirilar edi. Natijada shoʻro mafkurasi ancha-muncha muvaffaqiyatga erishdi ham – Alisher Navoiyning buyuk “Xamsa”sini sheʻriy asar sifatida (yaʼni vaznga solib) oʻqiy oladiganlar yil sayin kamayib bordi, uni oʻqib chiqqanlarni esa kunduzi chiroq yoqib izlashga toʻgʻri kela boshladi.

Shukronalik bilan qayd etish lozimki, tom maʼnodagi oʻzbek ziyolilarining vakillari juda tor davralarda boʻlsa-da, mumtoz sheʻriyat shamchirogʻining oʻchib ketishiga yoʻl qoʻymadilar: Andijon, Qoʻqon kabi shaharlarda aruzxonlik majlislari qilib turilgan. Shunday davralardan biri Toshkentda, Erkin akaning togʻasi K.Sohiboev hovlisidagi mehmonxonada uyushtirilar ekan. Unda 20-asrning yirik tarixiy shaxslaridan boʻlgan Alixon Toʻra Sogʻuniy ishtiroki etgani davraga alohida mazmun, alohida fayz bagʻishlagan – Erkin aka har safar bu davradagi suhbatlarni eslaganda, entikish va hayajon, haqli ravishda iftixor bilan hikoya qiladi. Shoirning badiiy dunyoqarashi shakllanishida, gʻazalga ishtiyoq, mumtoz sheʻriyatga muhabbat shu davrda uygʻongan boʻlsa ajab emas. Bir narsa aniqki, mazkur majlislardagi navoiyxonlik, fuzuliyxonlik natijasida unda zamonasoz sheʻrlarning oʻtkinchiligi, mumtoz sheʻriyatning esa azaliy va abadiy mavzularga taalluqli ekanligi bilan bogʻliq eʼtiqod mustahkamlangan:

*Ey, munaqqid, sen gʻazalni koʻhna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.*

Shunday ekan, shoir dilida zamondoshlari, ayniqsa yoshlarni gʻazalga qiziqtirish, ularda Navoiy ijodiga eʼtiborni kuchaytirish kechiktirib boʻlmaydigan burch edi. Shu bilan birga, bu xayrli yumushni mumtoz sheʻriyatning anglash murakkab tili va uslubida, zamonasozlik ruhidagi buyurtma gʻazallar yoʻlini davom ettirish bilan amalga oshirib boʻlmasligi ravshan, Shoir butunlay yangi uslub ixtiro qilmogʻi lozim edi. Erkin aka buni qoyil-maqom qilib amalga oshirgan.

Bugun endi barala ayta olamiz: Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni” nashr etilishi bir qator sifatleri bilan oʻsha davr adabiy jarayonida “portlash” boʻlgan boʻlsa, mohiyatan mumtoz sheʻriyatimizning arxivga aylantirishga qarshi qaratilgan hayqiriq, taʼbir joiz boʻlsa, “isyon” ham edi. Yanglishmasam, adabiy

jamoatchilik g‘azal nihoyatda zamonaviy bo‘la olishidan hayratga tushdi, devon yoshlarning ko‘ksida asrab yuradigan hamrohiga aylandi, oshiqlar ma’shuqalariga o‘z dil izhorlarini “*Barcha shodlik senga bo‘lsin, bor sitam, zorlik – menga*” kabi misralar bilan izhor qila boshladilar. Devon g‘azallari darhol xalq qo‘shiqlariga aylana boshladi. Hatto tasdiqlash mumkinki, “Yoshlik devoni” bu borada o‘ziga xos rekord o‘rnatdi – qisqa muddat ichida o‘nlab g‘azalga kuy bastalandiki, bungacha hech bir she’riy to‘plam bilan bunday hodisa yuz bergani tarix kitoblarida qayd etilmagan.

Eng muhimi, “Yoshlik devoni” mumtoz she’riyat ulug‘ bir xazina ekanligi, undan bobahrlik esa insonga chin saodat keltirishini yaqqol isbotlab berdi. “Yoshlik devoni”dan keyin nazm ahli va muxlislarida mumtoz she’riyatga qiziqish qayta uyg‘ona boshlagani yaxshi ma’lum. Xudo xohalsa, bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Shuning uchun Erkin akaning “Yoshlik devoni”ni yaratish bilan bog‘liq jasorati adabiyotimiz tarixidan abadiy o‘rin olishiga shakshubha yo‘q.

BEOROM YURAK ZARBLARI

***Qozoqboy YO‘LDOSHEV,
O‘zMU proffesori***

Tabiatan g‘oyat nazokatli shaxs bo‘lgan Erkin Vohidov adabiyot ixlosmandlari ko‘nglidan nafis va dolg‘ali hamda isyonkor shoir sifatida joy oldi. U shoir bo‘lib shakllanayotgan davrda insonning intim kechinmalari, his-tuyg‘ularini kuylash maqbul sanalmas, adabiyot sovet kishilarini so‘ialistik tuzumga qulluq qilish va navbatdagi mehnat g‘alabalariga chorlash bilan shug‘ullanishi kerak degan qarash hukmron edi. She’riyat odamning murakkab ko‘ngil olamini ifodalash o‘rniga partiya qarorlarini qofiyaga soladigan tizmalar bitishga yo‘naltirilgan edi. O‘sha vaqtning bir qahramon shoiri kamoli jiddiyat bilan:

Aziz paxtakorlar, yildan yilga ham
Oltin xirmoningiz hosilga to‘lsin!

Har ishda rahnamo, madadkorimiz
Ulug' partiyaga sharaflar bo'lsin!

deb yozgan bo'lsa, falsafiy fikrlashga moyil boshqa bir taniqli ijodkor esa:

- Kim berdi dilingga yorug', tarbiya?
- Kimga sen qoyilsan, ustozim, deya?
- Kim seni yashatar va yashartirar?
- Leninning kollektiv o'g'li – Partiya!

tarzida to'rtlik qoralagandi. XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Erkin Vohidov etakchiligidagi adabiy avlod asta-sekin inson shaxsi, uning tuyg'ulari tasviriga e'tibor qarata boshladi. Isonning ruhiy kechinmalari, turfa sezimlari poetik tasvir ob'ektiga aylandi. Bu hol esa, tabiiy ravishda, davrga to'g'ri kelmaydi deb, chetga suribroq qo'yilgan aruzning jonlanishiga imkon yaratdi. E. Vohidov g'azalning xaloskori yanglig' paydo bo'lib, uning jonsizlanib qolgan taniga yangicha nafas bag'ishlaganday bo'ldi. Shoir «Yoshlik devoni» kitobining «Debocha»sida eski poetik shakl yangi gap aytishga yaramaydi deydirgan kishilar bilan bahsga kirishadi:

Ey munaqqid, sen g'azalni ko'hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.

Shoir inson qonida azaldan mavjud bo'lgan sevgi tuyg'usi bugun ham yashayotgani yanglig' uning ifodasiga moslashgan g'azal ham yashashga haqli ekanini mantiq jihatidan ishonarli, ifoda jihatidan go'zal yo'sinda ko'rsatdi. Shoir g'azalni shunchaki she'riy janr rutbasidan yuksaltirib, mangu tuyg'ularning poetik ramzi hamda har qanday fikrni ifodalay olishga qodir badiiy vosita darajasiga ko'taradi.

Men o'ylaymanki, Erkin Vohidov, umuman, aruz vazni, xususan, g'azal janrini tiklash maqsadidan ko'ra o'z o'yu tuyg'ularini aynan aruzda moddiylashtirish maqsadga muvofiq bo'lgani uchun bu janrga qo'l uradi. G'oyat nazokatli va zarif shoirni bezovta qilgan fikru tuyg'ular ham uning shaxsiyati singari nazokatu zarofatli yo'sinda ifodalanishni taqozo etardi. Shoir o'z davri uchun shakkoklik sanalgan isyonkor fikrlarni ham g'azalning go'zal, mayin va jozibali libosiga

o‘rab bera bildi. E.Vohidov poetik fikrining zalvori g‘oyat og‘ir bo‘lgani holda uning ifoda yo‘sini o‘ta mayin bo‘lardi. Uning she‘rlarida o‘tli chaqiriq bor edi. Lekin bu da‘vat o‘qirmanni olamni ag‘dar-to‘ntar qilishga emas, balki dunyo va undagi tartibot haqida jiddiy o‘yga toldiradigan yo‘sinda latif She‘riy shaklda taqdim etilardi. Ehtimol, “O‘zbekim” she‘ri barmoqda bitilganida mutlaqo bosib chiqarilmagan bo‘lardi.

E.Vohidov g‘azallarida oshiqning dil rozlari, ma‘shuqaning ta‘rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig‘ har qancha mubolag‘ador, serbo‘yoq bo‘lmasin, undagi timsollar bugunning odami ekani anglashilib turadi. Ular “zamon zayli”ni hisobga oladigan, o‘y-fikri, tuyg‘ulari bugungi odamlarga tushunarli bo‘lgan kishilardir. Ma‘lumki, mumtoz she‘riyatda makon juda mavhum, zamon tushunchasi o‘ta nisbiy bo‘ladi. Chunki mumtoz shoirlar o‘tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo‘l urmaganlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o‘z davrining belgilari ko‘zga tashlanib turmaydi. E.Vohidovning g‘azallarida esa bugunning nuqsi aks etadi. Shoirning «Fursating» g‘azali o‘zida davr belgisi, zamondoshlar tabiatini aks ettirishi jihatidan xarakterlidir. G‘azalning birinchi baytidayoq davr ruhi ko‘zga yaqqol tashlanib turadi: “*Fursating etmaydi doim, hech qachon etgan emas, Mehnating bitmaydi doim, hech qachon bitgan emas*”. Bu misralarda davrning tezkor va shiddatli qarqin (sur‘at)i, undan orqada qolmaslik ilinjida halloslab borayotgan chog‘dosh tabiati namoyon bo‘ladi. Keyingi baytda davr ruhi yanada bo‘rttirib ko‘rsatiladi:

Chun zamondek bepoyondir ko‘ksing ichra orzu,
Fursatu orzuni quvlab hech kishi etgan emas.

Zamonning cheksizligi azaldan ma‘lum, ammo davr kishisining orzusi ham chegara bilmasligi ifodasi – shoirning kashfiyoti. Shoir tinimsiz o‘zgarib turadigan insonning hech o‘zgarmas intilishi — kamolot haqida to‘xtalar ekan, uning ham hech qachon erishib bo‘lmas orzu ekanini ishonarli aks ettiradi: “*Intilar borliqni inson barkamol etmoq uchun, Ne ajab, insonni borliq barkamol etgan emas*”. O‘zi komil bo‘lmagani holda borliqni mukammallashtirishni da‘vo qiladigan inson tabiatidagi chigallik shu yo‘sin tasvirlanadi. Shoirning tasvir mahorati yuqoridagi misralar so‘ngida kelgan «*etmoq*

uchun» va «*etgan emas»* singari fe'lli birikmalarga zidlash ma'nosini yuklay bilganida ham ko'rinadi.

E.Vohidov «Inson» g'azalida insonning baland martabaga egaligi, olam yaralishidan maqsad aynan odam ekanligini aks ettirar ekan, odam o'zining yuksak martabasiga loyiq ma'naviyat egasi bo'lishi lozimligini orzu qiladi. Chunki:

Bu yorug' dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur, mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Ayni misralarda insonning mohiyat va imkoniyati aks etgan. Chindan ham odam bu dunyoga mehmon va buni o'zi biladi. Lekin yorug' olamning mezboni ham uning o'zi ekani hamisha esida turavermaydi. Demak, mezbon sifatida dunyoning obodligi, tinchligi, to'kisligi uchun har bir inson mas'uldir.

G'azalda shoir insonning bugungi kamoloti, zakovati, erishgan mislsiz zafarlarini tasvirlar ekan, unda ko'ngil g'ariblashib, ma'naviyat qashshoqlashib borayotganidan xavotirini: "*Minding ilm narvoniga, chiqding funun osmoniga, Bu jahon ayvoniga arkon o'zing, vayron o'zing*" tarzida aks ettiradi. Shoir ilmu fan taraqqiyoti tufayli inson jahon ayvoniga «arkon» darajasiga ko'tarilgani, ayni paytda, shu «ustun»ni qulatib «vayron» etadigan ham insonning o'zi ekanini ifodalaydi. So'ng bu fikr rivojlantirilib yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayanchli holat she'rxon ko'z o'ngiga keltiriladi:

Zarrani ijod etib, dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib, vayron o'zing, hayron o'zing.

«Zarra» bu – atom. Odam uni yaratib, vayron keltiruvchi qudratini sinab ko'rgachgina o'z qilmishiga «hayronu», o'z buzg'unchiligidan ko'ngli «vayron» ekani shoir tomonidan go'zal ifoda etilgan. G'azalchi insonning buyuk kashfiyotlari nuqul dahshatu balolar keltiradi deb hisoblamaydi, ularni ezgulikka xizmat qildirish ham odamning qo'lida ekanini tasvirlaydi: "*Bog'i arz obod erur, sendin agar imdod erur, Yo'qsa u barbod erur, to'fon o'zing, to'g'on o'zing*". Agar inson o'zining yaratuvchilik, ezgulik singari ulug' vazifalarini unutmasa, umri mazmun kasb etadi, hayot yashashga arziydigan bo'ladi. Olamni barbod qiladigan to'fon ham, uni balolardan saqlab

qoladigan to‘g‘on ham odamning o‘zi. Shuning uchun dunyoni bo‘ston qilishga, jannatga aylantirishga urinmoq kerak:

Kelding olamga demak, etmas uni so‘rmak, emak,
Erni etmog‘ing kerak, bo‘ston o‘zing, rizvon o‘zing.

Shoir borgan sari tafakkuri kuchayib, aqlu zakovati oshayotgan inson zimmasida behad ulkan yuk mavjudligini, bu yuk – olamning taqdiriga javobgarlik ekanini g‘azal zamiriga singdiradi. Shuning uchun ham bugun odam kelajagi barbod bo‘lmaydigan yo‘lni tutishi, o‘zini doimo «inson etishi» kerakligi She‘rda ta‘sirchan ifodasini topgan: “*Bo‘lmasin subhing qaro, bor bo‘l mudom borliq aro, O‘zing etgil doimo inson o‘zing, inson o‘zing*”. She‘rda odamning hayotdagi o‘rni, uning tafakkur imkoniyatlari ezgulikka xizmat qilishi kerakligi mutafakkir kishining o‘ylari ta‘sirli aks etgan.

Erkin Vohidov 1968-yilda aruzda bitgan “O‘zbekim” qasidasidayoq milliy g‘ururni uyg‘otish, ulus ahlida milliy ruhni mustahkamlash niyatini poetik voqelikka aylantirgan edi. Ma‘lumki, o‘z vaqtida aytilgan badiiy so‘z qudratli kuchga ega. “O‘zbekim” o‘z vaqtida maydonga tashlangan mardona poetik chorlov bo‘lgandi. Millatning fikrlash va yashash tarzidan tortib, to‘yu ma‘rakalariga qadar begona yo‘riqqa tushib borayotgan bir vaqtda bu she‘r o‘zbekdagi o‘zbeklikni saqlab qolishda beqiyos amaliy ahamiyat kasb etdi. “O‘zbekim” millatni chinakamiga uyg‘otdi, unda g‘urur, iftixor tuyg‘ularini paydo qildi.

Elsevar shoirni bosib olingan uluslarga xos qo‘rquv, mutelik, qullik tuyg‘ulari tobora o‘zbekning ruhiyatiga singib, uning tabiatiga aylanib borayotgani xavotirga soladi. Shuning uchun ham she‘rlarida tobelik, qo‘rquv va qo‘rqoqlikdan nafratini ochiq ifodalaydi:

Qo‘rquvning ko‘zi katta, yuragi kichik bo‘lur,
Qo‘rquv zo‘r kelgan yurtda arslonlar kuchuk bo‘lur.

Shoir arslonlarni kuchukka aylantirgan sharoitni o‘zgartirmoq, millatdoshlari yuragiga jur‘at baxsh etmoq istaydi. Boshqa bir she‘ridagi: “*Qaddingni baland tut, bo‘lma sarta‘zim*” satrida ham shoirning ana shu istagi ifoda etilgan. Shu kabi ko‘plab bitiklarida shoir o‘zining dov yurakli millatsuyar shaxs ekanini ko‘rsatadi.

Millatga, yurtga chin mehr faqat maqtovu madhiyadan iborat bo'lmaydi. Asl adabiyotda elu yurtga muhabbat hayotning teran badiiy tasviri orqali yuzaga chiqariladi. Shafqatsiz hayotiy haqiqat, echimsiz muammolar, insoniyat oldida turgan mushkul masalalar boricha ko'rsatilib, odamning ko'ngil dardlari ochiq aytilgan asarlar el-ulus ma'naviyatini yuksaltiradi. Bunday bitiklar xalqning dilidan joy olib, ruhiyatiga o'ktamlilik baxsh etadi. «Vatan istagi» she'rida shoirning kurashchanlik sifatleri namoyon bo'ladi. Egamanlikdan oldin yaratilgan bu g'azalda E. Vohidov millatini o'z vataniga ega ozod etnos sifatida ko'rish istagini ifoda qiladi:

Bu vatanda bir Vatan qurmoqni istaydir ko'ngil,
O'zni ozod qush kabi ko'rmoqni istaydir ko'ngil.

She'rdan shoirning yolg'ondan hazar qilishi, inson hayotining chinlikka qurilishini xohlashi aks etadi: «*Bas, etar, yolg'on saodat, yolg'on erk, yolg'on Vatan! Hurriyat zavqini chin surmoqni istaydir ko'ngil*». Qizig'i shundaki, ancha vaqt ishq izhori va Yaratganga munojotdan boshqaga yaramaydi, deb qarab kelingan aruzda shoir g'oyat o'tli ijtimoiy lirika namunalarini yarata oldi. Bu hol bitikning qanday saviya, salmoq va yo'nalish kasb etishi qaysi vaznda yozilganida emas, balki qanday yozilganiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Erkin Vohidovning etuk asarlari yuksak badiiyati, shafqatsiz haqiqati va samimiyligi bilan jahon she'riyatining eng yaxshi namunalariga uyg'undur.

Millatini buyuk muhabbat bilan sevgan shoirning millat oldiga qo'ygan talablari ham sevgisi qadar yuksak edi. E.Vohidov "Og'riqli savollar" masnaviysida yurtdoshlarga murojaaaat qilib deydi:

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan og'ayni,
Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og'ayni.
Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami bo'lmagan,
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo'lmagan,
Imonni ham, vijdonni ham qurbon qilgan halqum deb,
Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?
El mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,

Ko'ragida na himmatu na g'ayratdan asar bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor.
Umrida hech qilgan emas, mulkdan o'zga bir niyat,
Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?

Yurtga beaded muhabbat va millat oldida turgan yumushlarning zalvori shoirga o'z qadrini anglab etmayotgan, hoziridan narini o'ylamaydigan xalqidan yozg'irish huquqini beradi. U she'r so'ngida: *“G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na'ra uningni, Ko'rarmanni zuluklardan ozod bo'lgan kuningni”*, - deya hayqiradi.

E.Vohidovning barmoqdagi she'rlarida ham o'ychan mushohada ustunlik qiladi. Ularda shoir hayotning tub mohiyati, ichki ziddiyatlariga teran nazar tashlab, qalamga olingan hodisani bor qarama-qarshiligi, ziddiyatlari bilan yaxlit idrok etadi. Natijada, shoir She'rlari munozaraviy tus olib, tasdiq bilan inkor yonma-yon keladi.

XX asrning 70-yillaridan e'tiboran E.Vohidov hayotning poetik tadqiqotchisi va taftishchisiga aylana bordi. Shoirning «Hozirgi yoshlar», «Sirdaryo o'landi», «Arslon o'ynatuvchi», «Oqsoqol», «Yuragingda makon tutgan qul», «Otdoshlarimga», «Sharqiy qirg'oq», «Qulluq qil demasman», «Ey, men bilgan» singari o'nlab she'rlari, «Ruhlar isyoni», «Istanbul fojiasi» singari dostonlarida shoir ijodidagi ana shu jihatlar yorqin aks etadi. O'z ijodiy kredosini 80-yillarda ustoz Mirtemir xotirasiga bag'ishlab yozgan *“Shoirlik”* she'rida

Shoirlik bu – shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik jomin ichmakdir.
Shoirlik – jigarni ming pora etmak,
Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.

tarzida ifodalagan E.Vohidov bitiklarida ham, hayot yo'sinida ham *“fidolik jomin”* to'la sipqorib yashadi. Qadim bobolar: *“Elimov!-deydigan bola bo'lishi uchun “Bolamov!” – deydigan el bo'lishi kerak”*, - der edilar. Shoir ana shu haqiqatni:

Shoir bo'lsang bo'lsin qalbing
Elga qurbon bo'lgulik.

Shoir bo'lsang, bo'lsin xalqing
Senga qalqon bo'lgulik

deya poetik ifoda qiladi. Chindan ham shoirdan fidoyilik talab qiladigan xalq fidoyi shoiriga qalqon bo'la olishi ham lozim.

E.Vohidovning «Arslon o'ynatuvchi» she'ri – XX asr o'zbek milliy poeziyasining jiddiy yutuqlaridan biri. Bu she'r qaramlik, mutelik va erksizlikka qarshi o'tkir poetik aybnomadir. She'rdagi erksizlik dunyosining shafqatsizligi, kun ko'rish tashvishi nafaqat odamzod, balki umuman, tirik mavjudotni har ko'yga solishi mumkinligi butun keskinligi bilan ko'rsatiladi. She'rdagi kishilarni bir-biriga ko'rinmas kishanlar bilan bog'lab tashlagan ehtiyojning qudrati ochib beriladi.

She'rdagi hayvonlar podshosi bo'lmish qudratli arslonni charsillab yonib turgan olov halqa ichidan sakrab o'tishga majbur qilgan, Shunday qudratli jonliqni jisman ojizgina odamga qaram, befarq olomonga esa ermak qilib qo'ygan bilgisiz kuch nima ekani haqida mushohada yuritiladi. Muallif hodisaning sirtiga emas, mohiyatiga nazar tashlaydi. Chuqur poetik tahlil va nozik tasvir orqali haqiqiy aybdor uyrak maydonidagi arslon ham, hayvon o'ynatuvchi ham, tomoshabin ham emas, balki sahna ortidagi ayovsiz hayot ekani ko'rsatiladi. Ularning biriga qamchi, boshqasiga qafas, o'zgariga chipta bergan qudrat tirikchilik ekani ta'sirli yo'sinda ifoda qilinadi. Arslonning ta'nalariga o'rgatuvchi bergan javobning ta'sirli ifodasi asar mohiyatini aks ettirishi jihatidan beqiyosdir:

Netay, men ham egalik qul,
Boshda xo'jam bor,
G'azab qilsa,
Ko'zlarimga dunyo bo'lar tor.
Menda-ku dard, iste'dod bor,
Bor andak sehr,
Hech bo'lmasa hayvonotga
Shafqatu mehr!
Tomoshagoh egasi kim
Mening qoshimda!
Ammo qamchi o'ynatar u
Doim boshimda.

Holatimni tushun,
Isyon qilma, birodar,
Charx oldida ikkimiz ham
Asli barobar.
...Goh jonimdan o'tsa zulm
Na'ra tortaman,
Lekin bundan
Faqat boshga balo ortaman.

She'ning mana shu o'rinlarida hayotning nechog'lik chigal va tushunarsizligi, sirtidan qaraganda qudratli hokim ko'ringan kishining aslida nochor mahkum ekani g'oyat samimiy aks ettirilgan. Asarning xotimasi kutilmagan darajada hayajonli:

Bu so'zlarga chidolmadi,
To'lg'ondi arslon:
— Bo'ldi, bas qil!
Yuragimni qon qilma, inson!
O't olsin bu charxi falak
Rizqu ro'zini!..
Arslon olov chambarakka
Otdi o'zini.

Bu satrlarda ehtiyoj oldida odamu jonliqning har ko'ygga tushishi, ilojsiz va nochorligi holati o'ta ta'sirli aks ettirilgan.

«Tush» she'rida shoir odamning tushi bilan uning arosatdagi mudroq, lanj o'ngini muvoziy tasvirlaydi. She'ning lirik qahramoni mudrab yurgan elga qo'shilib, o'zining ham mudragan ko'yi asta sudralib borayotgani holatini takror-takror tushida ko'radi: «*Bu tush, deyman, uyg'on, deyman. Uyg'onolmay mudrayman*». Mudroqlik, ruhning g'aflati — inson uchun og'ir fojia. Agar bu holat bir kishiga emas, balki butun boshli xalqqa tegishli bo'lsa, chinakam milliy kulfatga aylanadi. Muallif xalqni g'aflatdan, ko'zi ochiq holdagi uyqudan uyg'otishni maqsad qiladi. Shoir Tangridan kishini og'ir ruhiy tanazzulga yo'liqtirgan mudhish kechaning tezroq tugashini iltijo qiladi. Fikrning, ruhning mudroqligi qullikning ko'rinishidir. Qullik esa, chin insonga isnoddir.

Shoir «Yuragingda makon tutgan qul» she'rida «Qullar ichra eng bechorasi» inson yuragiga o'rnanishgan qullik ekanini yozadi. Shoir talqinicha, kishining yuragidan joy olgan qullik, aslida, gadolikdir va bunday gadolikdan adolik, ya'ni o'lim ma'quldir:

Umr qoshu kiprik orasi,
Gadolikdan adolik ma'qul.
Qullar ichra eng bechorasi
Yuragingda makon tutgan qul.

Shoir millatdoshining yuragida qul makon tutishini istamaydi. Uning yuragini ana shu tuban tuyg'udan ozod ko'rmoq istaydi.

Boshqa bir she'rida yosh shoirga qarata yurtga o'g'lon bo'lmoq og'ir mas'uliyat ekanini, uni obod qilmoq uchun qulluq qilish emas, fidolikka tayyor bo'lish kerakligini o'ta ta'sirli ifoda etadi:

Qulluq qil demasman,
Yurt tuprog'in o'p.
Unga qullar emas, fidolar kerak.
Uning senu menday shoirlari ko'p,
Buyuk elga endi daholar kerak.

Hayot haqiqatini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan boricha ko'rsatish, o'tkir ijtimoiy-ma'naviy masalalarni dadil ko'tarib chiqish, hodisalardan falsafiy xulosalar chiqarishga moyillik, ruhiy erkinlik shoir ijodining etakchi tamoyillaridir.

E.Vohidov iste'dodi yorqin namoyon bo'lgan asarlar orasida 1979-yilda yaratilgan «Ruhlar isyoni» dostoni yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Nazrul Islom XX asr boshlarida she'riyatga chaqindek yaraqlab, momaqaldiraqdek gulduros bilan kirib kelgan va Kunchiqish poeziyasi taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan isyonkor shoir edi. U da'vatkor she'rlari bilan butun Hindistonni larzaga solgan, iste'dodi va hayotini vatani ozodligi, xalqlar birdamligi, erki va baxti yo'lida fido etgan dovyurak shoirdir. Bosqinchilar va ularning mahalliy yaloqxo'rlari qilgan adoqsiz tazyiq va qiynoqlar hali o'ttiz beshga ham kirmagan isyonkor va bo'ysunmas shoirni ayni ijodi qaynagan paytda aqldan ozdiradi. Oradan yillar o'tdi, mustamlakachilar shoirning vatanidan quvildi. Mamlakat mustaqillikka erishgach, bir

vaqtlar tahqirlangan, jabrlangan shoir qadr topadi, el ardog'iga sazovor bo'ladi. Ammo endi u ularni bilmas, chunki uni aqlidan ayirgan edilar. Nazrul Islom yurtidagi o'zgarishlarni sezmay, shu ahvolda yana qirq yil yashaydi.

Dostonda Nazrul Islom fojiiy qismatini, shoirning iste'dod va jasorati unga qanchalar qimmatga tushganini, qalbidagi alam-iztirobu tug'yonlarni butun keskinligi bilan tasvirlanadi. Ayni vaqtda, muallif Nazrul Islom hayoti va qismatini ko'rsatish asnosida o'zini qiynab kelgan armonli o'ylar ko'ngil dardlarini ifoda etadi. Doston haqsizlik va adolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste'dod egasining o'rni haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boshlanadi. Chin iste'dod egasining tabiati yaralishdan adolatsizlik, nohaqlik, istibdodga qarshi isyondir. Hamma narsaga chidashi va ko'nikishi mumkin bo'lgan iste'dod zo'rligu istibdodga chiday olmasligini shoir g'oyat ta'sirchan ifoda etadi:

Bu dunyoning quvonchi kam,
Dardu g'ami ziyoda.
Ammo g'amdan qochmoqning ham
Tadbiri ko'p dunyoda.
...Lek olamda bir dard borki,
Unga sira najot yo'q.
Bu azobga kim duchorki,
Unga kun yo'q, hayot yo'q.
Bu mashaqqat ichgan bilan
Dil tubiga cho'kmaydi.
Uni hech kim yuragidan
Hech kimsaga to'kmaydi.
...U jon bilan ketsa dildan,
Sukut qolsa yurakda,
Odamzodning ruhi bilan
Yashayberar falakda.
Bu – shoirning dilin ezgan
Istibdodning dardidir.
Yurakdan qon bo'lib sizgan
Iste'dodning dardidir.

Iste'dodli bo'lish yoki bo'lmaslik odamning ixtiyorida emas. U kishiga Yaratgan tomonidan qilingan inoyat, ulkan mas'uliyat va tayin etilgan qismatdir. Shu bois iste'dodli shaxsning Haqni qaror topdirish uchun kurashishi tabiiy holdir. Iste'dodning istibdodga chiday olmasligiga sabab istibdod zamirida adolatsizlik va zulm borligidir. Shuning uchun ham dostonda alohida ta'kidlanadiki:

Kuy, g'azali odamzodning
Darddir, ezgu armondir.
Yaralishdan iste'dodning
Tabiati isyondir.
Shoir yurak – pok tilagi,
Imonidir basharning.
Armon to'la yurakdagi
Isyonidir basharning.

Nazrul Islom dunyoga shoir bo'lib, ya'ni basharning pok tilagi, imoni, armon to'la yurakdagi isyoni bo'lib kelishi bilanoq elning ozodligi uchun mas'ul edi. Ozodlikka chiqishi lozim bo'lgan yurt isyonkor shoirga muhtoj edi. Chunki «*Shoirni u tug'ilmasdan Gado qilgan edilar, O'z yurtida o'z yurtidan Judo qilgan edilar*». Shuning uchun ham davri undan so'lim ishqiy g'azallar emas, balki: «*...uning yonib turgan yuragini so'rardi*». Dostonda johilligi sabab dushmani tomonidan aldangan xalq bosqinchiga qarshi turish o'rniga, hindu musulmonga ajralib, bir-birini qirish bilan ovora ekani tasvirlanadi. Muallif ana Shu qora kunlar tasviri asnosida, iste'dodli shoir va uning burchi haqida mulohazalarini bildiradi:

Har nechakim zo'r iste'dod,
Toshqin ilhom, u nega?
Xalqing yotsa chekib faryod.
Yaramasang kuniga.
Shoir esang, shoir bo'lib
Nega kelding hayotga,
Eling yotsa dardga to'lib,
Kelolmasang najotga?!
Ne shoirsan, tashbihlarning
Bormi asli keragi?

Bo'lmasa el g'ami – darding,
Yuraging – el yuragi?!

El g'amini o'z dardi deb bilgan Nazrul Islom adolatsizlik bilan kelisholmay, butun kuchini yurtni ozod qilishga sarflaydi. Unga zarba ustiga zarba berib, e'tiqodidan qaytarmoqchi bo'ladilar. Lekin bunga erisholmaydilar. Dostonda bu holat g'oyat ta'sirli ifoda etilgan: «*Nazrul Islom o'z qalbini Bayroq qilib ko'tardi. Yuragida to so'nggi dam Isyon o'ti so'nmadi. Haqsizlikka ko'ndi olam, Ammo shoir ko'nmadi*». Bunday shaxslik sifatlariga ega shoirga, avvalo, faqat jonining tinchini o'ylaydigan, jur'atsiz, munofiq kimsalar dushmandirlar. Zo'ravonlik va haqsizlikni ko'rib turib indamaslik, unga qarshi kurashmaslik diyonatsizlikdir. Jonu jahonini yurtining ozodligi, elining erki uchun bag'ishlagan Nazrul Islom jaholat tufayli ko'ru karga aylangan olomon ta'qibiga uchraydi. Shu tariqa, Shu xalq uchun jonini tikkan fidoyi yigit Shu xalq tomonidan dushman sanaladi. Bu tasvirlar haqiqatning yo'li nechog'lik chigal ekanini ko'rsatib, o'qirmanni hadsiz iztirobga soladi. Kishida umidsizlik uyg'otadiganday ko'ringan iztirob cheksizligi o'qirmanni shoirga yaqinlashtiradi. Uning ruhini, ko'nglini anglatadi.

Dostonda faqat Nazrul Islom qismatigina tasvirlanmaydi, balki yo'l-yo'lakay shoir qismatiga muvoziy keladigan turli rivoyatlar ham keltiriladi. Bular bilan tanishgan o'qirman muallifning maqsadi faqat bengal shoirining hayoti, bir zamonlar Hindistonda kechgan voqealar, qadim rivoyatlarni aytib berishdan iborat emasligini, bu tasvirlarning chuqur tagma'nosi borligini his etib turadi. Asardagi tasvirlar ota yurtning sovet istibdodi yillaridagi kechmishi, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi asl millat o'g'lonlarining yurt ozodligi yo'lidagi kurashlari va ular o'z hayotlarini haq yo'lga tikkanlarini yodga soladi.

«Ruhlar isyoni» dostoni tasvir yo'sini va ifoda shakliga ko'ra betakror asardir. Doston xilma-xil she'riy shakllar, ritmik birliklar, hissiy ifodalar, hayotiy lavhalar, rivoyatlar, shartli ramziy tasvirlarning nazokatli uyg'unlashuvidan paydo bo'lgan. Shu xildagi rang-baranglik doston asosidagi hayotiy va badiiy haqiqatni hamda muallifning ko'nglidagi fikr-tuyg'ularni butun nozik tovlanishlari bilan ifodalashga xizmat qilgan.

Bu jihatdan dostondagi rivoyatlar muhim badiiy vazifa bajargan. Jumladan, asardagi «Jaholat to‘g‘risida rivoyat» Nazrul Islomning diniy nizoga qarshi kurashib tuhmatga qolgani, ta‘qib ostiga olingani tasviridan keyin berilishi tasodifiy emas. Chunki «G‘alayon» deb atalmish bu faslda keyinroq keltiriladigan rivoyatning urug‘i tashlab qo‘yilgan edi. Bu faslda Nazrul Islom tilidan:

Bosqinchining qadimdan oq
Falsafasi ayondir,
El ichida bo‘lsa nifoq,
Demak, zolim omondir.
Ular mazlum vatanida
Bo‘lmasin der sobitlar,
Jaholatning gulxanida
Isinadi zobitlar.
Eldan omad ketsa dastlab
Hamjihatlik yo‘qolgay,
Bunday elni sirtmoq tashlab,
Har bosqinchi yiqolgay.

«Jaholat to‘g‘risida rivoyat»da jaholat hukm surgan zamonda ulug‘ donishmand hakimning ko‘r ko‘zni ochgani, johil olomon esa uning bu ishini Yaratganga isyon hisoblab, uni sazoyi qilib, o‘tda kuydirgani tasvirlanadi. O‘qirman qalbiga titroq soladigan joyi shundaki, hakimdan shifo topib, ko‘zi ochilgan chol uni Tangri irodasiga qarshi borganlikda ayblab, donishmandni kuydirish uchun yig‘ilgan o‘tinga o‘t qo‘yadi. Bunday haqsizlikdan hakim qilgan faryod she‘rxon yuragiga ham ko‘chadi:

Yoqing, – deya so‘radi u. —
Olov bo‘lsin sarbaland.
Tezroq ketay bu dunyodan
Hech toqatim qolmadi,
Menda shifo oldi odam,
Olam shifo olmadi.
...Ko‘r ko‘zlarga mehrgiyodek
Nur baxsh etdi nashtarim,

Qalblar ko‘zin ochmoqqa lek
Kamluk qildi hunarim.

Shoir rivoyatni shu bilan tugatmaydi. Jaholat, adolatsizlik g‘alabasi mangu emas. Ezgulik ertami-kechmi, baribir yuzaga chiqadi. Bu hol dostonida shunday tasvirlanadi:

Shu olovdan elning, ajab,
Aql ko‘zi ochildi.
O‘kindilar. Aza tutib,
Yig‘ladilar, kuydilar.
Donishmandga yillar o‘tib
Oltin haykal qo‘ydilar.

«Ruhlar isyoni» asari chin insonni engib bo‘lmasligi, uni chin e‘tiqodidan, ezgulikka ishonchidan ayirish mumkin emasligini g‘oyat ta‘sirli ko‘rsatib berishi jihatidan o‘zbek dostonchiligi tarixida takrorlanmas voqea bo‘ldi. U millat ma‘naviyati shakllanishiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan asar sifatida sevib o‘qilmoqda.

Haqiqat quvg‘in qilingan zamonda badiiy so‘zga zo‘r keladi. Chin gapga boshqa qopqalar yopiq bo‘lganda u adabiyot orqali el orasiga yoyiladi. Erkin Vohidov ijodiy umrining eng sermahsul qismi Shunday davrda o‘tdi. Ijodining ilk bosqichidayoq: *“Yo‘q, halovat istamayman, Orom bilmas yosh jonim, To‘lqin urgan ummoncha bor Yurakdagi tug‘yonim”*, - deb yozgan shoir umrining oxirigacha elu yurt tashvishi bilan behalovat yashadi. U bundan toriqmadi, Chunki shoir ko‘p yillar oldin: *“Taqdir menga berdi beorom yurak”* tarzidagi qanoatni ijodining leytmotiviga aylantirgandi.

ERKIN VOHIDOV MENING TAQDIRIMDA

*Muhammadjon IMOMNAZAROV,
filologiya fanlari doktori, professor*

Men Erkin Vohidov ismli shoirni ilk marta 1961-yilda tanidim va bu ilk tanishuv mening kelgusi hayotimda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu ilk tanishuv g‘oyibona bo‘lib, shaxs bilan emas, shoir bilan

tanishuv edi. Men juda yoshligimdan kitobga, she'rga shaydo bo'lib o'sdim. To'rtinchi sinf devoriy gazetasida birinchi mashqim sinfdoshlarim nazariga tushgan, 18 yoshimda, oliy o'quv yurtiga o'qishga kira olmay zavodda chilangarga shogird bo'lib yurgan paytimda "*Qiz qalbi*" deb nomlangan poemam tengdoshlarim davrasida muhokamaga qo'yilgan, uning birinchi 20 satri Qo'qon shahar gazetasida chop etilgan edi. Xullas, 1961-yili Toshkent davlat universitetining Sharq fakultetida birinchi kurs talabasi ekanman o'sha davr yosh shoirlarining kichik-kichik she'r kitobchalari jamlangan to'plam qo'limga tushti. Bu to'plamda Sayyor Po'lat, Oxunjon Hakimov, Xayriddin Saloh va boshqalar qatori Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarning ham ilk lirik majmualari joy olgan edi. Men ularni yutoqib o'qiy boshladim. O'qib bo'lib bir qat'iy xulosaga keldim. Mendan har qancha harakat qilmay katta shoir chiqmas ekan. Chunki boshqalarni bilmadimu, ammo Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar darajasida she'r yozish uchun bilim, iroda va intilish, o'zmoz iqtidor va havas kifoya qilmasligi menga ayon bo'ldi. Buning uchun, birinchi navbatda, Alloh in'om etgan alohida ko'z va ko'ngil, tafakkur va taxayyul, qudrat va shuur bo'lishi lozim ekan. Haqiqiy shoir bo'lib tug'ilmagan bo'lsang, o'zingni harqancha urintirishing befoydaligi ma'lum bo'ldi.

Men bu qarorimdan o'kinganim yo'q. Ammo she'r nima ekanligini o'shanda birinchi marta anglab etdim. Negadir shungacha o'qigan she'rlarim mening ko'zimni ochmagan ekan. Yillar o'tib mavzuga jiddiy kirishganda bir narsani tushundimki, 1937-38-yilgi qatag'onlardan keyingi haqiqiy o'zbek she'riyatining qayta tug'ilishini Erkin Vohidov ijodi boshlab bergan ekan. Undan keyin XX asr ikkinchi yarmi yosh o'zbek she'riyati olovlanib, gurullab yonib-yashnab ketdi. Abdulla Oripov, Xalima Xudoyberdieva, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf – bular barchasi ketma-ket she'riyat osmonini yoritib chiqib kela boshladilar. Abdulla mendan oldin talabalikka erishgan, lekin aslida biz tengdoshmiz, Erkin aka esa mendan 6 yosh ulug'. Adashmasam, "Mitti yulduz" bilan birga nashr etilgan "Lirika" kitobi Erkin Vohidovning ikkinchi she'rlar to'plami edi¹.

¹ Эркин Воҳидовнинг биринчи шеърлар китоби "Тонг нафаси" илгарирок нашр этилган.

Nazarimda, haqiqiy shoirlar ham turlicha bo‘ladi, ba’zilari tandirdagi g‘o‘zapoya olovidek gurillab yonadi, she’rlari insonni maftun etadi, ammo bir muddat yonib keyin so‘na boshlaydi, albatta, olovning tafti uzoqqa borishi, umrining oxirigacha ilhom cho‘g‘i butkul so‘nib qolmasligi ham mumkin. Ammo endi buyog‘i bir maromga tushib oladi, she’r yomon emas, o‘qiysiz, ammo oldingi gurullab yongan olovning kuydiruvchi, dillarni o‘rtab yuboruvchi harorati sezilmaydi. Erkin akaning ijodiy salohiyatini men toshko‘mir oloviga qiyos qilaman. Ma’lumki, qishloq ayollari tandirga odatda g‘o‘zapoya yoqishadi. Gurullab yongan bu olovdan tandir bir pasda yaxshi qiziydi, bir tandir non qipqizarib yaxshi pishadi. Bir oilaga 2-3 kunga etadi. Ammo haqiqiy nonvoylar uchun bu yoqilg‘i ish bermaydi. Ular tandirida kuni bilan yashnab turadigan toshko‘mir ishlaydi. Usta nonvoylar tandirni bir qizitib, cho‘g‘ ustini alohida tunuka qopqoq bilan berkitadi-da, etilib pishgan nonni uzib oladi. Yana qopqoqni ko‘tarsa, tandir yangidan qiziy beradi, yangi non yopila beradi. Erkin Vohidov ijodiy jarayonida necha marta yangilanish bo‘ldi, she’r muxlislari yaxshi biladi. Biz necha qayta har safar yangi Erkin Vohidovni kashf qilib bordik. Ilk lirikasi, ilk dostonlari, keyin “Nido”, “Palatkada yozilgan doston”, “Yoshlik devoni”, “O‘zbeqim”, Esenindan tarjimalar. “Oltin devor”, “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Faust”, “Ruhlar isyoni”, “Dog‘istonim”, Donishqishloqlik Matmusa, “Bedorlik”, “Istanbul fojeasi”, “Iltijo”, “Iztirob”, “Taxt va baxt” va nihoyat “So‘z latofati”. Bular har biri – bir olam. Bitta shoir uchun bularning bittasi ham kifoya qilar edi. Boring, ana ikkitasi, yoki uchitasi. Yaxshi shoir uchun shular etarli edi. Axir Ahmad Yassaviyning, Hofiz Xorazmiyning, Atoiyning, Amiriyning bittadan devoni bizgacha etib kelgan. Qutb, Sayfi Saroiyning birgina tarjimalari ma’lum, Lutfiyning, Fuzuliyning bir devoni va bir dostoni bor. Nima, ular kichkina shoirlarmi? Ammo Alisher Navoiy boshqa bir olam. Balki olamlar uzra olam. Uni hech kim boshqa turkiy shoirlar bilan qiyoslashga jur‘at etmaydi. Nizomiy xamsachilikni boshlab bergan, Navoiy ijodi faqat “Xamsa” bilan cheklanmaydi. Yaqinda ustozim, akademik Aziz Qayumov mendan jiddiy bir iltimos qildi. “Muhammadjon, siz Erkin Vohidov bilan tez-tez ko‘rishib turasiz, ayting, “Xamsa” yozsin, bizning davrimizda haqiqiy “Xamsa”ni yozish faqat uning qo‘lidan kelishi mumkin”. Men bu gapni egasiga etkizdim. Erkin aka shirin jilmayib qo‘ya qoldi.

Ustozning gapi to‘g‘ri. Faqat, mening nazarimda, Erkin Vohidov XX asr “Xamsa”sini ham, “Chor devoni”ni ham allaqachon yozib qo‘ygan. XXI asr “Xamsa”si balki endi yozilar. Agar o‘zbek xalqining baxtiga yana bir Alisher Navoiy yoki Erkin Vohidov tug‘ilsa.

Mening Erkin Vohidov bilan ilk marta shaxsan uchrashuvim 1967-yil kech kuz oylarida kechasi soat 10 yoki 11 lar orasida yuz bergan. Men bo‘lg‘usi rafiqam Ra‘noni uyiga kuzatib borayotgan edim. Erkin aka qorong‘ida to‘satdan ro‘paramizdan chiqib qoldi. Yonimdagi qiz “Voy, ana Erkin aka!” dedi hayajon bilan. Men o‘zimni chetga oldim, Erkin aka men bilan so‘rashdimi, yo‘qmi, hayajon bosganidan hali eslay olmayman. Ra‘noga “Ha, Ra‘no, kelayapsanmi, men endi xavotir olib chiqib kelayotgan edim”, dedi-da, keyin birga qaytib ketishdi. Men joyimda taxta bo‘lganimcha qotib qoldim. Ma‘lum bo‘lishicha, Ra‘no Erkin akaning amakisining qizi bo‘lib, Toshkentga o‘qishga kelgandan beri ularnikida turar ekan. O‘shanda shoirning katta qizi – Nozimaxon 3 yashardan oshgan, o‘g‘li – Xurshidjon 2 yoshga ham kirmagan edi. O‘sha yili oxirlarida ikkinchi qizlari – Mohiraxon tug‘ildi. Keyingi yili yozida to‘yimiz bo‘ldi. Oltiariqqa to‘yga men o‘qigan to‘plamda kitobchalari chiqqan yosh shoirlarning deyarli barchasi borgan ekan. Erkin Vohidov o‘shanda o‘zining mo‘‘jazgina “Asal oyi” she‘rini bizga bir umrlik baxt tilab o‘qib bergan edi. (Mustaqillik yillari Erkin Vohidovning avval 4 jildlik “Saylanma”si, shu kunlarda 8 jildlik “To‘la asarlar to‘plami” nashr etilmoqda. Ammo ko‘pchilik sezib turgan bo‘lsa kerak, bu kitoblarga shoirning o‘z vaqtida nashr etilgan asarlarining balki yarmi ham kirmagan bo‘lsa, ajab emas. Bunda noshirlarning aybi yo‘q, bu shoirning o‘ziga nisbatan g‘oyat talabchanligi.)

Men baxtli odamman. Umrim bo‘yi zamonamizning ulug‘ odamlaridan ko‘plari bilan tanish bo‘ldim, suhbatdosh bo‘ldim, birlariga shogird, birlari bilan do‘st bo‘ldim. Shular ichida eng yaqin ulug‘lardan biri Erkin Vohidovdir. Men ularning deyarli barcha yaxshi kunlarida yonlarida bo‘ldim, mening hayotimdagi eng quvonchli kunlarda bu mukarram inson birga bo‘ldi. Rauf Parfi, Muhammad Yusuf kabi ajoyib shoirlar bilan ham yaqindan tanish, qadrdon edik. Bu insonlar ham yuragi ochiq, dilkash, teran fikr va hassos qalb egalari. Ammo Erkin Vohidov butkul boshqacha inson. Chinakam shoir xalqi Mashrab singari “devona” bo‘ladi, chunki haqiqiy she‘r dunyoga kelishi uchun Majnun bo‘lish kerak, dilda ulug‘ ma‘nodagi

“junun” qaynab-toshib turgan bo‘lishi lozim (Aslida haqiqiy ijodkor, u shoir bo‘ladimi, olim yoki rassom, bastakor – farqi yo‘q, barchasida shunday “junun”, o‘rtamiyona odamlarning tasavvuriga sig‘maydigan fidoyilik, o‘zlikdan kechish holati bo‘ladi, agar shunday holatga tushmasa, ilmda ham, badiiy ijodda ham haqiqiy kashfiyot tug‘ilishi dargumon). Erkin Vohidovning dilidan nelar o‘tganini o‘zi biladi, Alloh biladi, ammo uning ilohiy “junun” qudrati faqat she’rida namoyon bo‘ladi, hayotda biroq bu “junun”ni ko‘rmaydi. Men yaqinda Xurshidjonga aytdim, shoirning vujudi tashqaridan, zohiran boshqa insonlarnikiga o‘xshash, ammo botinan butkul boshqacha, oddiy insonlarning qalbi ko‘krak qafasinig ichida bo‘ladi, tashqi havfu xatardan puxta himoyalangan bo‘ladi, shoirniki unday emas, uning yuragi tashqi dunyo ta’sirlari uchun ochiq, mutlaqo himoyalanmagan bo‘ladi. Badanimiz a’zolarini teri qoplami turli tashqi ta’sirlardan himoyalab turadi, shoirning asab tolalari teridan tashqarida, himoyalanmagan bo‘ladi. Chunki agar yaxshi himoyalangan bo‘lsa, o‘zgalar dilining tub-tubiga etib boruvchi she’r yaralishi imkondan tashqaridir. Rauf Parfida, Muhammad Yusufda bunday himoyasizlik ochiq ko‘rinib turar edi, Erkin Vohidov buni o‘zgalarga ko‘rsatmaydi, faqat uning she’rlari bu “sir”ni ochib qo‘yadi.

Alisher Navoiy faqat shoir emas edi, u ulug‘ davlat va jamiyat arbobi, buyuk sahovat va mehr egasi, tasavvuf va javonmardlikda ham benazir edi. Erkin Vohidov ham xuddi shunday. Gap uning ijtimoiy faolligi, ko‘p yillar Oliy majlisda qo‘mita raisi, senator bo‘lganligida emas. Erkin Vohidov doimo millat va bashariyat taqdiri, har bir tirik inson taqdiri haqida xuddi o‘zi va oilasi taqdiri haqida qayg‘urgandek chin yurakdan g‘am chekishi, jon kuydirishi bilan ko‘pchilik zohiriy “ijtimoiy faol”lardan farqlanib turadi. Bunga yana bir yorqin dalil uning o‘tgan yili chop etilgan “So‘z latofati” kitobidir. Bu kitob xuddi “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi ona tilimiz, uning boyligi, go‘zalligi, latofati va nafosati haqida. Ammo bu kitob faqat madhiyadan iborat emas. Unda ona tilimizning kechagi kuni, buguni va kelajagi haqida kuyunchaklik bilan aytilgan jiddiy mulohazalar, tilshunosligimizning bugungi kundagi dolzarb muammolariga ijodkor ko‘zi bilan qarab aytilgan e’tiborga loyiq fikrlar mavjud. Shoir o‘z kitobida nafaqat o‘zbek tilining bugungi holati, uni rivojlantirish yo‘llari va buning uchun birinchi navbatda nimalarga e’tibor qaratish kerakligi haqida qayg‘uradi, balki masalaga global miqyosda yondoshib tilimizning

dunyo tillari doirasidagi o‘rni, turkiy xalqlarning o‘zaro til sohasidagi hamkorligi muammolari, bu hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish uchun biz – o‘zbek filologlari nimalar qilishimiz zarurligi haqida qimmatli mulohazalarini ajoyib badiiy topildiqlar orqali go‘zal bir shaklda dilimizga singdirib yuborishga erishadi.

Shoirning tarjimalari haqida ikki og‘iz so‘z. Umuman olganda tarjimachilik haqida avom orasida butkul noto‘g‘ri tasavvur yuradi. Badiiy asarda ikki qatlam bor. So‘z qatlami va voqea qatlami. Voqea qatlamini bir ilojini qilib, o‘zga til vositalari bilan tahminiy tiklasa bo‘ladi. Ammo badiiy asarning so‘z qatlamini o‘zga tilda birga-bir (adekvat) tiklashning mutlaqo imkoni yo‘q. Shunday ekan, yaxshi shoir yaxshi shoirning she‘rini o‘qib undagi ma‘nolar qatlamini o‘zi anglab etgan darajada o‘z tilida qayta tiklashga harakat qiladi, o‘rtamiyona shoirning she‘rini o‘rtamiyona shoir o‘rtamiyona darajada bizga o‘girib beradi, ammo she‘riyat daholarining ijodi uncha-muncha tarjimonga bo‘y bermaydi, yuksak iste‘dod sohiblarigina bunday ulug‘ satrlarni o‘z tilida qayta yarata olishi mumkin, ammo endi bu asarni qayta yaratish yangi asar yozishdan ham mashaqqatliroq kechishi aniq. Shu sababli biz Qutbni ham, Sayfi Saroiyni ham Lutfiy va Atoiylardan kam sanamaymiz. Shuning uchun ham Erkin Vohidov qayta yaratgan “Faust”, “Fors taronalari”, “Bezoring ko‘ngil izhori” va boshqalar badiiy qimmat va estetik ahamiyatiga ko‘ra shoirning mustaqil ijod samaralari bilan teng darajada ko‘rishga arzigulikdir. Bu haqiqatni men birinchi bo‘lib aytayotganim yo‘q. Taniqli huquqshunos olim va zukko tadqiqotchi Akmal Saidovning “Faust” tarjimasini haqida so‘nggi yillarda e‘lon qilgan tadqiqoti buning yana bir isboti bo‘la oladi.

Men butun umr Erkin Vohidov oldida o‘zimni nihoyatda qarzdor his qilib yuraman. Chunki adabiyotshunoslikka da‘vom bor, bu yo‘nalishda qancha maqolalar yozdim, kitoblarim chiqdi. Ustozlarim haqida nimalardir yozdim, do‘stlarim haqida yozdim. Erkin akaning ijodini umr bo‘yi chanqoqlik bilan kuzatib boraman, ammo bir narsa yozishga yaqingacha hech jur‘atim etmay keladi. Va nihoyat kuni-kecha biz – filologlarga qaratilgan mavzuda yozgan asarlariga kichik bir taqrizim jurnalda chop etildi. Aslida unda ham Vohidov asari bahonasida o‘z ko‘ngil dardlarimni bayon qildim. Oxirgi paytda ustoz shoir biroz betoblandi. Men juda sarosimaga tushib qoldim. Hayriyat, asta-sekin quvvatga kirib bormoqdalar. Allohdan ustozning

salomatliklari to‘liq tiklanishini iltijo bilan so‘ragan holda kelgusida yanada yangi ijodiy yuksalishlar kutib, umidvorlik bilan ushbu dil izhorimni hozircha yakunlasam. Ammo kelgusida bu yo‘nalishda hali ancha-muncha batafsil niyatlar, rejalar yo‘q emas.

HURRIYAT HAYQIRIG‘I

*Narzulla JO‘RAEV,
professor*

Har bir davrning o‘z namoyandalari, adabiyot va san‘atning yalovbardorlari bo‘ladi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida tub burilish davri bo‘ldi. Bu bevosita Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Xalima Xudoyberdieva, Jamol Kamol, O‘tkir Xoshimov, O‘lmas Umarbekov, Toxir Malik singari zabardast adiblar nomi bilan bog‘liq. Xususan, Erkin Vohidov o‘sha davr o‘zbek she‘riyatida butunlay yangi, jozibador, inson qalbi va mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan kechinmalarning va tasavvurlarning butunlay yangi ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. U dastlabki she‘rlari bilanoq adabiyot ixlosmandlari qalbidan chuqur o‘rin oldi.

Aytish mumkinki, ijodkor xarakteri, fe‘l-atvori, uning axloqiy va tarbiyaviy asoslari ijodda muhim rol o‘ynaydi. Erkin Vohidovdagi ichki tarbiya va ulkan madaniyat donishmandlik va yorqin tafakkur bilan yo‘g‘rilib ketib, butunlay yangi, sohir, latif va zarif she‘riyat timsoliga aylandi. Uning asarlari janri va katta kichikligidan qat‘iy nazar, soddaligi, ravonligi, joziborligi bilan birga chuqur falsafiy tafakkur yirik badiiy umumlashmalar bilan sintezlashib ketgan mo‘‘jizaga aylandi. Erkin Vohidov asarlari o‘quvchi tomonidan qiynalmay o‘qiladi. O‘qigan sari uning ichiga kirib boradi. Har bir satrda va so‘zda o‘quvchi o‘zini ko‘radi. Bunday qalbgga yaqinlik Erkin Vohidov ijodining butun mohiyatini belgilaydi.

Erkin Vohidovning eskirib qolgan g‘azal janriga yangi nafas olib kirganligi, ifoda usulining o‘ta ravon va samimiyligi ushbu “umrini o‘tab bo‘lgan” janrning yangi davrini boshlab berdi. Unga hayot bag‘ishladi. G‘azalda ham katta ijtimoiy mohiyat, inson qalbi iztiroblari va dramatik kechinmalarni ifodalash mumkin ekanligini isbotlab berdi. Ayrim g‘azallarida so‘zning jozibas, harorati, nafis va

latif ifoda usulida namoyon bo'lsa, ayrimlarida inson qalbining og'ir kechinmalari, ijtimoiy hayotning falsafiy mushohadasi va mazmuni bayon etiladi:

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan, nechun bag'ring tuguncha.

Bo'ldingmi men kabi yo bir bevafoqa oshiq,
Ayt, sevganingni senga parvosi yo'qmi uncha.

Nihoyatda ravon, sodda va samimiy satrlar. SHoir – oshiq boshini egib turgan atir gul g'unchasida o'zining taqdirini, kechinmalari, ruhiy holatini, oshqlikning iztirobli ayni paytda rohatbaxsh ruhiyatini ko'radi. Unga o'zini qiyoslaydi. Naqadar latif va jozibador o'xshatish. Umuman, olganda Erkin Vohidov tabiatan mayin va latif inson edi. Uning gapirishlarida, yurish-turishlarida, odamlar bilan muloqotida mayinlik va latiflik ustuvorlik qilardi. Badiiy ijodda uslub muammosi turlicha talqin etiladi. Bizning nazarimizda uslub ijodkorning fe'l-atvoridan, tarbiyaviy asoslaridan, genetik manbai va irsiy imkoniyatlaridan kelib chiqadigan biologik, fiziologik va ma'naviy-ruhiy asoslardan kelib chiqadi. Bilimlar saviyasi esa, bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Erkin Vohidovdagi tiniq, o'ta ravon va samimiy ifoda usuli, katta donishmandlik hayot mohiyatini o'ta nozik tushunadigan falsafiy mushohadasi g'oyatda chuqur bo'lgan noyob imkoniyat bilan sintezlashib ketgan. SHuning uchun uning katta-kichik asarlarining barchasida soddalik bilan chuqur falsafiy mushohada uyg'unlashib ketadi:

Kecha kerak bo'lding bolalik chog'im,
Senga qo'l uzatdim, yo'q, etolmadim.

Oshkora g'irromlik qildi o'rtog'im,
Bor, o'ynamayman, deb, keta olmadim...

Naqadar sodda va iztirobga to'la satrlar. Hayot mohiyatini inson degan muhim olamning murakkab dunyosini g'oyatda yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan holat. Shoir do'stdikka hiyonat qilgan sotqin, munofiq o'rtog'idan aziyat chekayapti. Beg'ubor bolaligini

sogʻinayapti. “Bor oʻynamayman”, deb aytolmay iztirob chekayapti. Afsuski, hayot haqiqati shunday: munofiqlar, sotqinlar, ikkiyuzlamachilar, arziyas manfaat uchun hohlagan odamini qurbon qilishga tayyor odamlar orasida umrguzoronlik qilasan. Munofiqning munofiqligini, sotqinning sotqinligini bilib turasan, lekin undan voz kechib ketolmaysan, quchogʻlashib koʻrishasan, muruvvat koʻrsatasan. Ana shunda yuraging zardobga toʻlib, jigaring qonga aylanadi. Inson taqdiridagi bunday dramatik holat hammamizning boshimizdan bot-bot oʻtadi. Faqat bardosh berib yashashga majburmiz. Bu juda katta dramatism, balki fojeadir.

Erkin Vohidov bir gʻazalida dunyoning murakkabligini, inson umri ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, muhabbat bilan nafrat oʻrtasida oʻtishini oʻziga xos ohangda ifoda etadi:

Dutorim tori ikkidur, biri quvnoq, biri maxzun.
Ki baytim satri ikkidur, biri dilxush, biri dilxun.

Gʻazal bitmakda sachrabdur, koʻzimdan yosh dilimdan oʻt.
Shu bois ikki satrimning biri qatra, biri uchqun.

Kelib bogʻ sayridan Erkin, gʻazalga toʻlqin izlardim,
Kirib keldi ikki doʻstim, biri Sayyor, biri Toʻlqin.

Bu erda butun hayot mohiyati, insonning qalb kechinmalari, iztirobga toʻla hayoti oʻz ifodasini topgan. Dutorning ikkita torini sozandalar odatda ikkita notaga moslashtiradi. Ana shunda chertilayotganda bir ohang ikkinchi ohangni toʻldirib, inson qalbini larzaga keltiradi. Shoir dutoridan quvonch bilan qaygʻu yonma yon ravishda, ezgulik bilan yovuzlik bir-birini mahf etar holatda sheʻrxon qalbida aks sado beradi. Maʼlumki, suv bilan oʻt hech qachon kelisholmaydi. Oʻtning kushandasi suv. Suvni bugʻlatib quritib yuboradigan olov. Bir-biriga azaliy va abadiy dushman. Shoir qalbida ana shunday oʻta iztirobli dramatik holat yuzaga keladi va oʻquvchi hayot mohiyatini, turmush mazmunini ushbu goʻzal va betakror satrlar orqali anglay boshlaydi. Shoir koʻzidagi yosh qalbidagi olov bilan toʻqnashib insonni yaxlit obrazini, butun mohiyatini, borligʻini namoyon etadi. Shoir iztiroblar olamida turgan bir paytda eshikdan ikki doʻsti Sayyor va Toʻlqin kirib keladi. Albatta, bu har ikki taniqli

shoirilar Erkin Vohidovning yaqin do‘stlari, maslakdoshlari edi. Biroq, ayni holatda, she‘r yozilayotgan paytda gap Sayyor va To‘lqin haqida bormayapti. Ikki olam, ikki dunyo haqida ketyapti. Zotan, har bir odam alohida olam. Boshqacha qilib aytganda, odam olam ichra olam. Mavlono Jaloliddin Rumiy “Olami kubroda neki bor, olami sug‘roda bor”, degan edi. Olami kubro bu tashqi olam, borliq, butun koinot, galaktika. Borliqda neki bo‘lsa, inson qalbida u majassam. Boshqacha qilib aytganda, inson qalbi yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, muruvvatlilik va bag‘rikenglilik bilan munofiqlik, sotqinlik doimiy ravishda kurashib turadigan olam. Mo‘‘jazgina g‘azalda hayot mohiyati va insoniyat taqdiri ana shu tarzda o‘z ifodasini topgan.

Ushbu g‘azalning yozilishi bizning talabalik davrimizga to‘g‘ri kelgan. O‘sha yillari mashhur adabiyotshunos ustozlarimizdan biri (joylari jannatda bo‘lsin) ushbu g‘azalga e‘tiroz bildirib, tanqid ham qilgan. Nimagadir she‘rdagi chuqur falsafiy mushohadani, hayot mohiyati va uning shafqatsiz qonuniyatlari g‘oyatda nafis, beozor tasvirlanganini payqamaganlar.

Erkin Vohidovning bir qator she‘rlarida shaxsiy kechinmalar umumsayyoraviy muammolar bilan qorishib ketgan holda tasvir etiladi. Jumladan, “Yuragimda makon tutgan qul”, “Diagnoz”, “Og‘riqli savollar” “Temirtan daholar”, “Zamin sayyorasi”, “Bizlar ishlayapmiz”, “Tirik sayyoralar” singari yuzlab she‘rlarida, “Nido”, “Orzu chashmasi”, “Quyosh maskani” singari dostonlarida umumsayyoraviy muammolar, inson va insoniyatning buguni va istiqboliga bog‘liq bo‘lgan global muammolar o‘z ifodasini topgan. Xususan “Inson” qasidasida odamzotning buyukligiyu tubanligi, kezi kelganda o‘zi o‘zining kushandasi ekanligini g‘oyatda e‘tirozli ifodalasa, “O‘zbekim” qasidasida juda og‘ir mafkuraviy sharoitda milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ularini dadil bayon etgan. Bu o‘z davri uchun g‘oyatda xatarli va ayni paytda jasoratli ish edi. Har ikki qasida falsafiy jihatdan g‘oyatda chuqur mushohadalarga, katta mantiqiy asoslarga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Erkin Vohidov ijodida “Ruhlar isyoni” dostoni alohida o‘rin tutadi. Sovet imperiyasi sharoitida milliy respublikalar to‘la mustamlakachilik rejimida yashayogan bir paytda Erkin Vohidovning mustaqillik uchun kurash, Ona xalqi va Ota yurtini ozod ko‘rish istagi ushbu asarni yozishga da‘vat etadi. Doston yozilgan davr – 1978-1979- yillar aytish mumkinki, Sovet hukumatining buyuk davlatchilik

shovinizmi ruhi jo'sh urgan, dunyoga egalik qilish da'vosi bilan yashayotgan, milliy respublikalarga har tomonlama, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ruhiy zarba berayotgan, kommunistik mafkura barcha millatlarni yo'q qilib, yagona sovet xalqini urchitish uchun kurashayotgan davr edi. Ana shu zo'ravonliklardan chuqur aziyat chekkan shoir, istiqlol uchun kurashning o'ziga xos badiiy shaklini topadi. Hindistonlik mashhur Nazrul Islomning ayanchli taqdiri, Hindiston ozodligi yo'lida tortgan mashaqqatlari asosida o'z kechinmalarini ifoda etadi:

Zamin uzra qor quyunin
Yog'dirganda charx-falak.
Qish qahriga egmay bo'yin,
Isyon qilar boychechak.

Qishga isyon, qaxratonga g'alayon qilayotgan boychechak xalq orzulari, shoir qalbidagi tuyg'ular edi. U ozodlik, xurriyat, millat qadru qimmatini hamma narsadan ustun bo'lishini intilik bilan kutayotgan edi: "Shu el dog'i dog'imdir, dardi, mening dardim Ohi mening ohimdir, - deydi. Ana shu tarzda shoir qalb bo'hronlari va iztiroblarini Nazrul Islom faryodi orqali ochadi. O'zining g'oyat shiddatkor, dardchil, alamzada tuyg'ularini ifoda etadi. Hindistondagi mustamlakachilik fojealari va Nazrul Islom kechinmalarini ifodalari ekan, unga Ona yurti O'zbekistondagi ayanchli holatlarni katta badiiy mahorat bilan uyg'unlashtirib yuboradi:

Manglay tering to'kib erga, qolding och.
Sen olamga ipak berib, o'zing o'tding yalang'och.

Bu endi o'zbek edi, O'zbekiston edi. Million-million tonnalab paxta etishtirib, dunyoni kiyintirib, o'zi yalang'och qolgan xalqning faryodi edi. Qishin-yozin mehnat qilib yaratgan ne'matlari rohatini o'zga xalqlar ko'rib, o'zi och-nohor yashagan o'zbekning timsoli edi.

Ozodlik, hurriyat shoir qalbida xayqiriqqa, jur'atli, jasoratli chaqiriqqa aylanadi. Albatta, Erkin Vohidov tabiatan o'ta bosiq, har qanday ziddiyatli holatlarda ham ehtiroslarga berilmay katta aqlga va hayratomuz idrokka suyanar edi. Uning butun vujudi tarbiya va madaniyatning, sharqona donishmandlik va tafakkurning jamul-jami

edi. Hamma gap shundaki, bosiq odamning yorilishi qiyin. Bir yorilsa eru ko‘k, osmonu zamin kunpayakun bo‘ladi. Mehri katta odamning qahri ham katta bo‘ladi. Demak, muhabbati kuchli odamning nafrati, bosiqning isyoni dahshatli. Inson tabiatidagi bunday og‘ir, iztirobli holat Erkin Vohidov qalbidan hayqiriq bo‘lib yangraydi:

Asriy g‘aflat etar endi,
Ey mazlum inson!
Uyg‘onmoqning vaqti keldi,
Bosh ko‘tar, uyg‘on!
Bosh ko‘targil, ming yil to‘kkan
Ko‘z during haqqi.
Qo‘zg‘al, asriy qullik bukkani
G‘ururing haqqi.
...Erk bongin ur, sen intiqom –
tablin baland chol
Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod
bo‘lib qol!

Bunday holatlarni dostonni o‘qish jarayonida boshdan-oyoq his qilish mumkin va shoir ayrim holatlarda o‘zining orzu-istaklarini yorqin, o‘tli, jozibador satrlarda ifoda etadi. Unda kelajakka ishonch, katta optimistik ruh namoyon bo‘ladi.

Mustaqillik...
Ona o‘lkam, bir kun seni
Ozod ko‘rgim keladi.
Istibdodning zanjirini
Barbod ko‘rgim keladi...

Bu albatta, shoirning orzusi, qalb armoni va ertangi kundagi umidi edi. Ana shu tarzda o‘zining dardchil holatini, dramatik kechinmalarini ifoda etib, “Kengliklardan oshar edi, qalb shukuhi shoirning, el dardida yashar edi, isyon ruhi shoirning” deydi.

Xullas, Erkin Vohidov she‘riyati g‘oyatta ulkan va mahobatli she‘riyat. Unda nihoyatda betakror, inson qalbini junbushga keltiradigan, uning ruhiyatiga quvvat bo‘ladigan, ertangi kunga ishonch, mustahkam iroda baxsh etadigan ma‘naviy-ruhiy qudrat bor.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MILLIY RUHIYAT TASVIRI

*Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh tasviri masalasi tahlilga tortilgan. Shoir lirikasida milliy ruh tasviri *oy, yulduz, fonus, dastro 'mol* singari badiiy obraz va timsollar, *ona tiliga muhabbat, ona yurt vasfi*, o'zbekka xos *yomonga ham yaxshilik qila olish* singari milliy qadriyatlar talqini, Shuningdek, fikrning badiiy ifodasi misolida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. She'riyat, milliy ruh, badiiy obraz, timsol, milliy qadriyat, poetik shakl, badiiy ifoda.

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo'ladi. O'zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she'riyatda, ayniqsa, yaqqolroq bo'y ko'rsatadi. Zamonlar almashinadi, tafakkur, taxayyul evriladi, she'riyatda surat – shakl o'zgarib, yangilanib boradi. Biroq har qanday holda adabiyotning, she'riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko'ra belgilanadi. Bugungi she'riyatimiz milliy ruhni saqlab qola bilgani hamda badiiy tasvir va uslub rang-barangligida katta miqyoslarga ko'tarila olgani jihatidan jahondagi eng rivojlangan xalqlar poeziyasi bilan ham bo'ylasha oladi. O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov nazmiy merosi bu jihatdan, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega.

Shoir "O'zbekim" qasidasini yozish orqali o'ta murakkab va ziddiyatli bir zamonda beqiyos jasorat ko'rsatdi, o'zi mansub xalqning barhayot badiiy siymosini yaratdi. "Yoshlik devoni" bilan zamonamizga unutila boshlagan mumtoz aruzni olib kirdi, aruzga yangi ruh bag'ishladi. "Donishqishloq latifalari" timsolida engil yumor vositasida millatga oyna tutdi. Bu oynada taraqqiyotga to'siq bo'layotgan illatlarni ro'y-rost ko'rsatdi. Komfirqa g'oyalarining jarchisiga aylangan she'riyatga milliy ruhni olib kirish yo'lida munosib xizmat qildi.

Bizningcha, Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh quyidagi poetik shakllarda ifodalangani kuzatiladi:

Birinchidan, badiiy obraz va timsollarda. She'riyatning, hatto umuman adabiyotning asosiy sharti bo'lgan badiiy obraz yoki timsol chinakam milliy shaklda namoyon bo'lsagina o'quvchi qalbiga tezroq etib boradi. Shundagina uning ta'siri umrbod unutilmasligi mumkin. Ijodining ilk davridayoq Erkin Vohidovning zohiran maishiy turmush ashyosi sanalgan piyola va choynak timsollari orqali manmanlik va kamtarlik haqida chiqargan ohorli va ta'sirchan xulosasi buning yaqqol dalilidir. Bor-yo'g'i sakkiz misradan iborat bu She'r o'zbekka xos obrazli tafakkurning yorqin namunasi ekani uchun ham yuraklardan chuqur joy egalladi. Shu bois uni yod bilmagan odam kam.

Yoki mana bu satrlarga e'tibor bering:

*Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.*

Oyni qorong'i tunda yongan fonusga va yulduzlarni uning atrofida aylangan parvonalariga qiyoslash – milliy ruhga yo'g'rilgan bu ohorli tashbeh Erkin Vohidovgacha boshqa biror shoir asarlarida uchramagani bilan ham qimmatlidir. Shoir ijodidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

“Uchi tuguk dastro'mol” – sarlavhaga olib chiqilgan bu poetik ramz o'zbek xarakteri, o'zbek ruhiyatini ta'sirchan va yorqin ifodalagani bilan alohida ajralib turadi. Muhimi, shoir bu kichik poetik ramz vositasida yirik badiiy umumlashmalar chiqaradi. Uningcha, g'unchalar – olamga sep yozgan bahorning bayramga yasanishni unutmashlik uchun ro'molchasiga solgan tuguni. Inson miyasi – o'n to'rt milliard uchi tugik dastro'mol. Odamzod ko'krigidagi betinch qalb – bamisoli umr mohiyatini eslatib turuvchi ro'molcha tuguni.

*Taqdir derlar, bilmam, nedir taqdiring,
Balki oltmish, balki yuzga kirgan chol...
Boshing uzra unsiz yig'lar kamping,
Bir qo'lida uchi tugik dastro'mol.*

Ya'ni muqaddas kalomda aytilganidek: "Har bir tirik jon o'lim sharbatini totib ko'rguvchidir". Hayot intihosida ham dastro'mol uchi tugik holda qoladi. Negaki, inson o'zi o'ylagan, orzu qilgan barcha ishini ham amalga oshirib ulgurmaydi. Hayoti asta-sekin so'nar ekan, inson yuragi hisob so'raydi: "*Bo'lganmi hech ixtiyoring o'zingda, Biror soat yashadingmi betugun?*"

Shoir chiqargan badiiy xulosa o'quvchini inson hayotining asl mohiyati haqida chuqurroq mushohada yuritishga undaydi:

*O'yla, do'stim, kelmay turib o'sha dam,
Isrof qilma yosh yurakning kuchini.
Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan,
Tugib qo'ygin ro'molchaning uchini.*

Erkin Vohidov ko'p mamlakatlarda xizmat safarlarida bo'lgan. Qaerga bormasin, shoir qalbini Vatan va millat muhabbati, bir nafas bo'lsin, tark etmagani rost. "Ararat cho'qqisiga" she'rida moviy samoga tutashgan, tong eng avval otib, quyosh eng keyin tark etadigan bu zamin haqida yozar ekan, dengizdan naridagi – oq dalalari harir ko'ylak kiygan, Amu, Sir atalgan daryolari bor o'z ona diyori, sevikli yori haqida o'y suradi. Arman qizi Azganushni vasf etar ekan, tog'lar ortidagi ona yurtini bir lahza bo'lsin unutmaydi. Bokuda Fuzuliy haykali qoshida turar ekan, she'rsevar xalqini yod etadi. Kanada safarida yurar ekan, soat milini hamma sursa ham, shoir o'zgartirmaydi: "*Er sharining ters tomonida ham Toshkent vaqti bilan yashaydi*". Bular hammasi millat ruhi, o'zi mansub ona xalqi yodi shoir bilan bir umr hamnafas, hamqadam bo'lganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlar talqini. She'riyatda milliy ruh ifodasining eng muhim shartlaridan. Millat mavjudligi va milliy ruh asosi bo'lgan ona tiliga muhabbat g'oyasi Erkin Vohidov She'riyatida o'ziga xos yuksak o'rin tutadi. Zamondoshi Abdulla Oripov "Ona tilimga" (1965) She'rida badiiy niyatini bulbul va to'ti obrazlari orqali ifodalagan bo'lsa, Erkin Vohidov "Ona tilim o'lmaydi" (1976) She'rida sho'rolarning milliy tillar yo'qolib, faqat bir til qolishi haqidagi safsatasiga javoban Navoiy, Pushkin, Dante, Shiller, Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor, Xayyom, Beranje, Lorca va Fuzuliy kabi buyuk mutafakkirlar tilidan mana bunday badiiy hukm chiqaradi:

*Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.*

*Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o'lmaydi!*

Shoir ona tili va millat qismatini biri-biridan ayri tasavvur eta olmaydi. Uning bu mavzuga takror-takror murojaat etgani sababi Shunda. Amerikalik olim Ilza Sirtautasga, ukrain shoiri Ivan Drachga bag'ishlangan she'rlarida ham ayni ruh ustuvor. Matbuot nashrlaridagi suhbatlaridan birida ijodkor bu haqdagi o'ylarini mana bunday talqin etadi: "Keyingi she'rlarimda ona tilimiz to'g'risida yozganlarim Marokash safarida tug'ildi, desam ko'plar ajablanishi mumkin. Munosabat haqiqatan ham uzoq. Lekin gap shundaki, Marokashdagi Arab tili markazini ko'rib, u erlik olimlar arab tilini chuqur o'rganish, uni yangi atamalar bilan butun dunyoda targ'ib qilish borasida shunday ishlar qilishmoqdaki, ochig'ini aytganda, o'zbek tishunoslaridan xafa bo'lib ketasan kishi. Bu markazda vaqt-vaqti bilan barcha arab mamlakatlaridan tishunos olimlar yig'ilib, dunyo tillarida yangi paydo bo'lgan atamalarni arab tilida qanday ifoda qilish ustida, umuman turli tillar bilan arab tilining o'zaro aloqalari xususida ilmiy kengash o'tkazadilar. Ijtimoiy terminlarga ham, ilmiy-texnik terminlarga ham ekvivalent topadilar. Bizning tishunoslik markazimiz nima bilan shug'ullanadi, Xudoning o'zi biladi... "Tilga e'tibor – elga e'tibor" deymiz-u hech birimiz tilimiz imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni o'ylamaymiz..."

Ulug' shoirning bu so'zlari o'sha davrda qanchalik dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham shunchalik qimmatlidir. Negaki, dunyo tillaridan zamonaviy texnika-texnologiya taraqqiyoti natijasida kirib kelayotgan atamalarni ona tilimizning asl tabiatiga muvofiqlashtirib qabul qilish borasidagi muammolar bizda hanuz kun tartibida turibdi. Erkin Vohidov hayotiy zarurat taqozosi bo'lgan ushbu muammoni ko'tarish bilangina cheklanmadi. O'z ijodida ona tilimizning butun jozibasini, beqiyos ifoda imkoniyatini bor bo'y-basti bilan ko'rsata oldi.

Ona tilining taqdiri uchun kuyingan shoir bu boradagi armonlari va iztiroblarini ukrain shoiriga bag‘ishlangan she’rida quyidagicha badiiy talqin etadi:

*Ona tiling uchun g‘am chekib dilda
Nola qilsang, ko‘kka uchar faryodim.
Etmish etti pushtim so‘zlagan tilda
So‘zlarmikin yana etti avlodim.*

Tabiiyki, shoir yuragini o‘rtagan bu armon o‘tmish zamonga oid. To‘g‘ri, bugun ona tilimiz ravnaqi uchun barcha imkoniyat bor. Biroq bu imkoniyatlardan qay darajada foydalanilayotir – shoirni ana shu muammo o‘ylantiradi. Uning “So‘z latofati” kitobi – ona tiliga bo‘lgan muhabbatning beqiyos namunasi. Bu kitobida ijodkor tilimiz haqida millat ruhiyatiga yot, tushuniksiz ajnabiy terminlar, o‘lik so‘z va iboralar orqali emas, chinakam milliy ruh, milliy atama va tushunchalar asosida fikr yuritish, ilmiy-ijodiy o‘ylarni yurakni titratadigan tarzda o‘zbekcha ifoda etish mumkin ekanini amalda namoyon etdi. Ona tilimizdan olingan aniq misollar tahlili asosida nechog‘lik qadimiy tarixiy ildizlarga, boy ifoda imkoniyatiga ega til egalari ekanimizni yana bir karra ko‘ngillarga muhrladi. Milliy tilning jonli vujud ekanidan, unga zaxa etkazish og‘ir gunoh bo‘lishidan barchamizni yana bir marta ogoh etdi.

Shoirning ona yurt vasfiga bag‘ishlangan she’rlari ham milliy ruh bilan sug‘orilgan. Ijodkor shunday bir Vatan qurmoqni istaydiki, unda inson ozod qush kabi erkin bo‘lsin. Bu Vatanning bayrog‘i – insof, tug‘i – sarhad, muhri – mehr bo‘lmog‘ini orzu qiladi shoir. Shoirning mana bu misralarida esa, o‘zbekka xos chinakam samimiyat, rostakam milliy ruh mujassam:

*Kim bu tuproq qadrin istar
Aylamoq tuproqqa teng,
Ko‘ziga tuproq bilan
Urmoqni istaydir ko‘ngil.*

Iymon – o‘zbek uchun eng muqaddas tuyg‘u. Shuning uchun ham shoir Vatanning ma’rifat ummonidagi elkanlarini qiblai iymon

sari burmoqni istaydi. Zero, ijodkor nazdida, sho‘rolar va’da qilgan yolg‘on saodat, yolg‘on erk, yolg‘on vatandan xalos bo‘lish, chin hurriyat zavqini surishning asosiy sharti ham shu.

Yaxshiga yaxshilik istash oson. Biroq yomonga yaxshilik sog‘inish dushvor. O‘ziga yomonlik qilganlarga nisbatan ham bag‘rikeng, kechirimli bo‘lish, hatto g‘animiga ham Yaratgandan yaxshilik tilash o‘zbekning asl tabiatida bor. Erkin Vohidovning “Kechir, yo Rab” radifli g‘azali ana shu fazilat betakror badiiy talqin etilgani bilan qimmatlidir.

*Menga tosh otdi bir johil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men,
U quldir, bandai g‘ofil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men.
Jahonda fitnalar bordir,
Adolat gohi nochordir,
Adolat qil, o‘zing odil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men.*

Shoir lirik qahramoni tubanlikka tubanlik bilan javob qaytarishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Voqelikka insoniy kamolot cho‘qqisidan turib baho beradi. Qabihlik bois yomon holga tushgan, xato o‘qqa nishon bo‘lgan esa-da, ag‘yorini kechiradi. Hatto u siniq odamning siniq iymoniga motam tutadi. Haq taolodan uning diliga e‘tiqodni jo aylashni so‘rab iltijo qiladi, g‘animining qiyomatda xijolatli holga tushishidan panoh so‘raydi. Asli nokomil bo‘lgan odamzod yanglishmoqqa moyil ekanini aytib, toshotarning afv etilishini tilaydi. O‘zbekning fitratini, o‘zbekning ruhiyatini bunchalik teran ifodalash hamma ijodkorga ham nasib etavermasligi ayon. Samimiyat va badiiyatning bu darajada uyg‘unlashuvi nazmiy ijoddagi noyob hodisa.

Uchinchidan, Erkin Vohidov she‘rlarida milliy ruh fikrning badiiy ifodasida ham o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgani kuzatiladi. Quyidagi qit‘a bu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

*Istasang toza ko‘ngilga qo‘nmasin zarra g‘ubor,
Pok so‘zu pok ish va pok dil, pok xayol bo‘lmoq kerak.*

Xalqimizning bir necha ming yillik maqol va matallaridan, hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidan bizga ma’lumki, insonning nainki “ko’ngli poku ham ko’zi pok”, balki “tili poku so’zi poku o’zi pok” bo’lishi uning fazilati ulug’ ekanidan dalolat beradi. Erkin Vohidov ana shu haqiqatni bugungi zamon o’quvchisiga mos tarzda, o’ziga xos talqin etadi.

Ko’ngilni gunohlar zangidan qanday tozalash mumkin? – Ishq orqali! Odamzod vujudiga sihat bag’ishlaydigan kuch nima? – Ishq zavqu dardi! Mumtoz she’riyatimizga xos an’anani munosib davom ettira olgan Erkin Vohidov buyuk salaflari kabi bu savolga ayni javobni beradi. Biroq fikrning badiiy ifodasi o’zgacha, poetik talqin ohorli:

*Jismu jonimga desang begona bo’lsin xastalik,
Ishq zavqu dardi birlan xastahol bo’lmoq kerak.*

Shoirning mahorati shundaki, so’zni o’zi istagan yo’riqqa yurgiza oladi. So’zlardagi zohiriy shakl uyg’unligidan san’atkorona istifoda eta biladi. So’zlar intizomli askarlar singari ijodkor amriga so’zsiz bo’ysunadi. Natijada teran mazmun va go’zal badiiyat mutanosibliigi ta’minlanadi. Quyidagi satrlarda dori nomi bo’lgan “karvalol” bilan “kar va lol” hosil qilgan tajnis muallifning she’rdan ko’zda tutilgan badiiy niyatini to’laqonli ifoda etgan:

*Qalbgga istarsan shifo gar, bo’l yomon so’zdan yiroq,
Karvalol ichmoq kerakmas, kar va lol bo’lmoq kerak.*

So’z latofatini, so’z sehrini inja his eta bilmoq – ijodning, ijodkorlikning asosiy sharti. Fikrni aniq, lo’nda, obrazli ifodalashni talab etadigan adabiy tur – she’riyatda bu fazilat o’n karra, yuz karra zarurroq. Ohorli so’z va iboralarni yuksak badiiyatga xizmat qildiradi bilish, oz so’zga ko’p ma’no yuklay olish, so’z durlarini marjondek tizib, ma’no olamini nurlantirib yuborish salohiyati – Erkin Vohidov she’riyati ana shu xususiyatlariga ko’ra ham biz uchun qadrlidir. So’zga ta’rif berar ekan, shoir mana bunday yozadi:

*So’z – zabarjad,
So’z – gavhar, oltin,*

*Zargarlikning mashaqqati ko‘p.
So‘zni baytga qadashdan oldin
Kaftingga qo‘y, to‘yib qara, o‘p!*

She‘riyatda milliy ruh ifodasi haqida gapirganda O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi so‘zlari yodga keladi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, Evropa, Amerika deysizmi, mayli Lotin Amerikasi, mayli Oymi, Marsmi.... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta erishamiz”.

Haqiqatan, muayyan xalq she‘riyatining bo‘y-bastini, o‘ziga xosligini belgilovchi bosh mezon aynan milliy ruhdur. Erkin Vohidov milliy ruhning betakror ifodasi bilan adabiyotimiz ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shdi. Shoir nazmiy merosi iste‘dodlarning bugungi va kelajak avlodlari uchun benazir ijodiy maktab o‘laroq bundan keyin ham millat adabiy-estetik tafakkuri rivojiga xizmat qilishi shubhasizdir.

HAYOT HAQIQATI VA BADIY-FALSAFIY TALQIN

*Islomjon YOQUBOV,
filologiya fanlari doktor, professor*

O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” (1978-1979) dostoni² epigrafida bengal vatanparvar va gumanist shoiri, taniqli nosiri Nazrul Islom (1899-1976) ning:

*Tug‘ilgansan ozod, mudom
Ozod bo‘lib qol!*

degan satrlari epigraf qilib keltirilgan. Hali bengal shoirining “Inson” she‘riy to‘plami (1981) milliy tilimizga o‘girilmagan, binobarin Hofiz asarlari muhibi va o‘tgan asrning 30- yillaridayoq isyonkor shoir sifatida tanilgan bu inson ijodi bilan E.Vohidov mustaqil ravishda yaqindan tanishgan, uning kurashchan ruhiga behad ma‘naviy yaqinlik

² Вохидов Э. Сайланма. Шеър дунёси. Иккинчи жилд. – Т.: ШАРҚ НМАК Бош тахририяти, 2001. - Б. 113-164.

tuygʻusini his qilgan. Zotan, Nazrud Islomning “Isyonkor” (1922) dostoni, “Olovli ud” (1922), “Zaharli nay” (1924), “Bulbul” (1928) sheʼriy toʻplamlari, shuningdek “Kambagʻalning iztiroblari” (1924) hikoyalar kitobi, “Tuman” (1924) romani oʻtgan asrning 70-yillaridayoq E.Vohidovning diqqat-eʼtiborida boʻlgan. SHu asarlar oʻzbek shoirining koʻngliga choʻgʻ solgani tufayli Nazrul Islom hayoti va ijodi haqida doston bitish niyati kurtak yozganiga shubha yoʻq.

E.Vohidovning haqli eʼtiroficha, Nazrul Islom qahramonona va fojiali taqdiri shoirni hayajonga solib, yirikroq asar yozish istagida yurgan kezlarida uning hayoti va ijodini oʻrganish bilangina ruhiy qanot tuymay, hatto Olis Hindistonga borib, Nazrul Islom yashagan joylarda boʻlgan, uni yaqindan bilgan kishilar bilan suhbatlar qurgan ekan. Shuning uchun ham doston koʻpchilikka tanish faktlarning joʻn belletristik sharhi emas. Balki, qahramon hayoti, taqdirini badiiy tahlil etish bahonasida E.Vohidovni bezovta qilgan hayot haqidagi kuzatishlar, oʻy-mushohadalar izhorini ham qamrab olgan. *“Unda men shoir hayoti bahonasida oʻzimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erk tashnaligi haqidagi, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati haqidagi, qolaversa inson hayotining maʼnosi haqidagi oʻy-mulohazalarimni kitobxon bilan baham koʻrishga intildim”*³, deb yozadi shoir.

Dostonda 1926 yilda Gʻarbiy Bengaliya shtatining maʼmuriy markazi – Kalkuttada boʻlib oʻtgan qonli toʻqnashuv voqealari qalamga olingan. Ikki jondosh el – hind va musulmonlar oʻrtasiga nifoq solgan ingliz mustamlakachilari, keng maʼnoda umuman bosqinchi imperialistlarning kirdikorlari ayovsiz fosh etiladi.

E.Vohidov ona tabiatda ibtidodan intihogacha soʻngsiz gʻalayon hukm surishidan soʻz ochadi. Illo, qaro tun quchogʻida ertangi kun uchun nur yiqqan tong, qish ayozigaga boʻyin egmay, qor bagʻrini yorib chiqqan boychechak, bulutlar koʻksini tilib, nursiz hayotni bir lahza yoritgan chaqmoq, oʻlimning ziddi oʻlaroq, yorugʻ dunyoga mushtini tugib, chinqirib keluvchi chaqaloq hatti-harakat va intilishlarida oʻsha isyon yorqin boʻy koʻrsatadi. Shoirning faylasufona talqinlaridan ayon boʻladiki, aslida inson sabr-bardoshi zamirida ham otash yangligʻ isyon mujassam. Zotan bizning kuy, gʻazallarimizda ham soʻngsiz dard-armonlar jo-bajo boʻlgan. Axir, asl isteʼdod tabiati yaralishdanoq

³ Воҳидов Э. Изтироб. -Т.: Ўзбекистон, 1992. -Б.200.

isyonga yo'g'rilgan emasmi? Darhaqiqat, E.Vohidov haqli e'tirof etganiday:

*Shoir yurak –
Pok tilagi,
Imonidir basharning,
Armon to'la
yurakdagi
Isyonidir basharning*

Sevimli shoirimiz bir umr sodiq bo'lgan estetik tamoyilga ko'ra, chin iste'dod qimmatini, hayotining mazmuni xalqi va eli dardu faryodlariga dil qulog'ini tutish, ularni yurak-yurakdan his etish va najotkoriga aylana bilishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham:

*Ne shoirsan,
Tashbehlarning
Bormi asli keragi,
Bo'lmasa el g'ami –
darding
YUraging –
el yuragi?!*

deb yozadi shoir.

Dostonda johil olomon qilmishidan so'ngsiz iztirob chekib, Bani Odam nasli azaliy birodar, Haq oldida barobar ekanini anglatmoq tilagida o'zini maydonga otgan Nazrul Islom obrazi alohida ajralib turadi. E.Vohidov shu qahramon tilidan "Veda" va "Qur'on"da harqanday nizoyu xunrezliklar keskin qoralanishi, asl dushman millatlar sha'n-shavkatini bukib, qonini zulukday so'rayotgan kelgindilar ekanini baralla aytadi.

*Bas, endikim,
Jangni qo'ying,
odamlar!
Sizning asli yovingiz
kim –*

*Bilib qo'ying,
Odamlar!*

Darhaqiqat, har qanday bosqinchi va zulmkorning azaliy falsafasi el ichiga nifoq solib, o'z jonini omon saqlash, jaholat gulxanida isinish, hamjihatlik tuyg'usini yakson qilishdan iboratdir. Birdamlik tuyg'usidan mosuvo bo'lgan el esa, chinakam ma'noda omadsizdir. Dostonda: nahotki, birodar ellar adovat olovida qovrilishi abadiy davom etsa? Nahotki, hindu musulmon o'zaro do'st va inoq bo'lolmasa? degan o'rtaguvchi savollar bilan ogohlikka da'vat etgan Nazrul Islom OZODLIK, TENGLIK, BIRODARLIK tuyg'usi barqaror bo'lib, musulmon o'z eliga bek, hindu yurtga chin ega bo'lmog'i uchun BIRLIK degan oliy tuyg'uni baland tutib, bosqinchini Hind bahri muhiti qa'riga uloqtirmoq lozim, deya hayotiy va estetik hukm chiqaradi:

*Birlik chog'i
bu choqdir.
Bosqinchini,
eng avvalo,
Hind bahriga uloqtir.
So'ng abadiy
Barcha orzu,
YAshar ozod, tinch omon.
Vataniga ega hindu,
Yurtida bek –
musulmon...*

Afsuski, olovqalb shoir zamoniga sig'maydi. Uning o'tli nidolaridan hayiqqan mustamlakachilar N.Islomni zindonband mahbus sifatida el ko'zidan panada saqlashni lozim topishadi. Hatto, hindu va musulmon orasiga qutqu solib, qonli g'alayonni keltirib chiqargan zot aynan shu kimsadir, degan hukmnoma o'qiladi. Bu adolatsiz hukmdan faryodga kelgan E.Vohidov qalbida toshgan o'tli nidolar tog'u toshni larzaga soladi. Shuning uchun shoir: *Faryod qilar toshlar ham* deb yozish orqali, o'z shoirini dadil himoya qilolmagan tosh yurak olomondan ozurda qalbini ochadi. Shu elning g'ami, xalq dardi, yurt hamjihatligi tashvishida shirin halovatidan kechgan,

kurashchan shoirga: “o‘z xalqiga yov”, “el dushmani” degan aybnoma o‘qimoq uchun qanchalar beandisha bo‘lmoq kerak? To‘g‘ri, bani ochunda azaldan qabohat va yolg‘on degan tushunchalar mavjud. Ammo faqat mustamlakachi va zulmkor qavmgina el uchun jon tikkan isyonkor millat shoiri sha‘niga nisbatan bunday oshkora tuhmat toshlari otishdan zarracha or qilmay, uning pok nomini ming balolarga qorishtirishi mumkin xolos.

*Bu dunyoda
bor qabohat,
Bu dunyoda
bor yolg‘on.
Ammo bunday
oshkor tuhmat
Bo‘lmagandi hech qachon.*

Hammasidan oshib tushgani loqaydlik iskanjasiga tushib qolgan hindu musulmon shu yolg‘onlarga jo‘rovoz bo‘lgani edi. Murdor kimsalarga qo‘shilgan avomning turtki va siltovlari shoirni ko‘proq iztirobga soladi, aziz boshini egadi. Ko‘rinadiki, E.Vohidov bizni jaholatning tabiati, olomonlik geneologiyasi to‘g‘risida teranroq o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Shuning uchun ham “Jaholat to‘g‘risida rivoyat”, ya‘ni donishmand hakim haqidagi qadim hikmat yondosh keltiriladi. Umuman, dostonidagi yondosh syujet liniyasi kitobxon o‘ylarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi va asar kompozitsiyasida muhim o‘rin tutadi.

Hasadgo‘ylar qutqusiga uchib, tabibini sazoyi qilgan, cho‘g‘li temir bilan ko‘ksini dog‘lagan, o‘tda kuydirishga chog‘langan johil olomon safida hakim ko‘r ko‘zini ochgan sobiq bemor ham bor. Ajabki, uning domangirligi ko‘zi ochiqlikdan ko‘ra, o‘zi ko‘nikkan so‘qirlik davrini afzal bilishida edi. Odamning olamga moslashuvchan va ko‘nikuvchanligidan fig‘oni falakka etgan, qalbida alamli faryod tug‘yon urgan tabib, olomonning qalb ko‘zini ochishga ojiz ekanidan o‘kinadi:

*Mendan
shifo oldi
odam,
Olam –*

*shifo olmadi.
Xurofotning zahri tekkan
Nodon,
johil,
gumrohlar –
Davosiga ojiz ekan
Men kashf etgan
giyohlar.*

Jaholat hukmi bilan buyuk zotning qurbon qilinishidan hatto samovot ham yuziga qora chodir tortadi. Olimni otashda kuydirgan olomon ko‘zi esa, behad kechikib ochiladi va hakimga oltindan haykal qo‘yiladi. Taassufki, endi alloma o‘zi bilan olib ketgan mislsiz ulkan hikmatni qaytarish mutlaqo imkonsiz edi...

Dostonda keltirilgan “*Shohi Jahon va Avrangzeb haqidagi rivoyat*” da Mumtoz Mahal begim o‘qib bergan g‘azallar mazmunidagi ezgulikka da’vat ruhigina SHohi Jahon qalbiga taskin, hayotiga mazmun bag‘ishlaydi. Malikadan bevaqt ayrilgan hijronzada hukmdor unga atab yigirma yil davomida buyuk va tengsiz obida – Toj Mahal qasrini bunyod qiladi. Ne ajabki, mehr bilan tarbiyalangan o‘g‘il Avrangzeb kun kelib, padariga qarshi tig‘ yalang‘ochlaydi. Armon iskanjasida o‘rtangan ota zindonband etilib, o‘g‘il taxtga minadi. E.Vohidov garchan rivoyat desa-da, aslida olis tarixda otasini o‘z poyida tiz cho‘ktirgan noqobil o‘g‘il haqidagi shafqatsiz haqiqatlardan so‘z ochadi.

Hukmdorning irodasi vojib ekani ayni haqiqat. Ammo har kim o‘z amalini haqiqat sanasayu aslida chin adolat poymol bo‘lib, xiyonat sodir etilsa, garduni dun ters aylanmasmi? Biz bu savolga javobni farzandi arjumandi qalbida taxtga muhabbat uyg‘otgani bois zindonband etilgan ota va taxtni tortib olgan besabr o‘g‘il dialogidan topamiz. Otasini zabun, akalarini qatl qilish evaziga baxtu taxt topmoqchi bo‘lgan shuhratparast Avrangzeb isyonkorligi ham otameros ekani kishini chuqur o‘yga toldiradi. Biroq ikki isyonkorlikdagi farq ulardan biri saltanatni inqiroz botqog‘idan olib chiqmoq, ikkinchisi esa, toju taxt da’vosida amalga oshirilganida edi.

*Inson bilan inson farqli,
Isyon bilan isyon ham.*

Darhaqiqat, Toj Mahalday abadiy obida SHoh Jahon bedor ruhini asrlardan asrlarga olib o'tayotgani bunga jonli dalildir. E.Vohidov to'g'ri ta'kidlaganiday, o'zaro munosabatlarda o'rtadan oqibat ko'tarilgan palla inson hayotining intihosidan nishonadir.

Umuman, E.Vohidov talqinida ma'nau oliy ruhlar dargohida yurgan Nazrul Islom zamon va zamin tashvishlaridan ozod va hur edi. SHubhasiz, bengal shoirining she'r va dostonlariga ko'chgan o'ttiz ikki yillik navqiron davri g'oyat qimmatlidir. Ammo etmish besh yil umr ko'rgan yoniq bir jonning darvesh va devonavash tarzda kechgan qirq uch yillik umri-chi? Bu jahondan butkul uzilgani, his va tuyg'ulari oliy ruhlar davrasida osoyish topgani bois, o'z she'rlari butun Hindiston bo'ylab yangrashini tinglash va anglashga-da qurbi etmagan bu inson el g'azabi bosqinchilarni yurtdan quvolganini ham aslo bilmadi, bilolmadi.

Ha, aslida istibdod etkazgan iqtisodiy tanglikdan ko'ra, u tug'dirgan jaholatning ijodkor inson ma'naviy-ruhiy olamiga etkazgan jarohatlari benihoya zalvorlidir. Xalqimizning ardoqli shoiri E.Vohidov ham sho'ro mustamlakachiligi davrida ana shunday ma'naviy iztiroblar iskanjasida yashadi, ijod qildi. Muhimi, zinhor elimiz dardi, yurtimiz tashvishlari, erk va hurlik sog'inchidan ayro tushmadi. Chunki E.Vohidov fenomeniga xos hassos yurak ham inson, ham shoir sifatida hamisha bedor edi.

*Shoir bo'lsang,
Bo'lsin qalbing
Elga qurbon bo'lgudek.
SHoir bo'lsang,
Bo'lsin xalqing
Senga qalqon bo'lgudek...
Shoir bo'lsang,
Yurtda yasha
Meniki deb aytgulik...
Shoir bo'lsang,
Qalamingni
Nayza qilib tutolsang.
Yurakdagi alamingni
Oq qog'ozga to'kolsang.*

*Shoir bo'lsang,
Qalb chirog'ing
Yonib tursa to abad.
Bu dunyoda
ketar chog'ing
Yig'lab qolsa she'riyat
O'z bag'riga olsa quchib
Seni ona makoning...
Gar shu baxtlar bo'lsa nasib
Yo'q dunyoda armoning*

Hech shubha yo'qki, o'tgan asrning 70- yillari intihosida aytilgan va E.Vohidov ijodiy kredosini to'kis aks ettirib, uning merosiga harorat va jon bag'ishlagan yuqoridagi prinsipial konsepsiya to'laligicha amalga oshdi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga unitilmas hissa qo'shgan atoqli shoir va adib, taniqli davlat va jamoat arbobi” sifatida ardoqlab, “ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini” alohida qadrlagan⁴ Erkin Vohidov chinakam ma'noda bearmon shoirdir. Uning muborak 80 yillik to'yi butun mamlakatimiz miqyosida zo'r tantana bilan to'ylangani ham buning yorqin dalilidir. Darhaqiqat,

*Fidoyilar umri faqat
Bu dunyoda poyidor!*

DILBAR SHE'RIYAT

*Abdulla ULUG'OV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

O'zbek adabiyotining ikki asr oralig'idagi manzarasini Erkin Vohidovning ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. XX asr 60-yillaridan

⁴ Қаранг: Адолат / 2016 йил 8 декабрь. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов таваллудининг 80 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги Қароридан.

XXI asr 15-yillarigacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiyotida uning she‘riyati, tarjimalari, adabiy publitsistik maqolalari alohida bo‘y ko‘rsatib turadi. Bu davr she‘riyati esa boshqa yillar she‘riyatiga qiyoslaganda behad barkamol va yorqin bo‘lib ko‘rinadi. O‘tgan yarim asr oralig‘ida juda ko‘p iste‘dodli shoirlar etishib chiqdi. Ular o‘z she‘rlarida teran ma‘no, yangicha ohang va yana juda ko‘p sifatlarni namoyon qilib, o‘zbek she‘riyatini jahon she‘riyatiga bo‘ylashtirdi. Shu yillarda boshqa xalqlar she‘riyatidan har jihatdan ustunlikka erishgan o‘zbek she‘riyatining sahnida uch shoir – Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Rauf Parfi ijodi, ayniqsa, charaqlab ko‘rinadi. Abdulla Oripov va Erkin Vohidov chinakam xalq shoiri sifatida dovuq qozondi. Ularning she‘rlari kasb-kori, ijtimoiy ahvoli, didi, saviyasi turlicha millionlab kishilarning e‘tiborini tortdi. Maktab o‘quvchilari, talabalar, paxtakor, bog‘bon, cho‘pon, shofyor, chilangar – hamma-hamma ularning she‘rlarini yod oldi. Sevishganlar, ajrashganlar, quvonganlar, iztirobga tushganlar bu she‘rlarda o‘zining qalb holati – kechinmasi, dardi, xursandchiligini ko‘rdi. Rauf Parfi esa shoirlar shoiri bo‘ldi. Uning ijodi she‘riy didi, she‘rga talabi baland kishilarni hayratga soldi. Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she‘rlari barchaga birday zavq bag‘ishladi, o‘ylantirdi, mushohadaga chorladi. Bu uchala shoirning ijodi ellik yildan ko‘proq vaqt mobaynida o‘zbek she‘riyati uchun asosiy mezon bo‘lib keldi. Zamonaviy milliy she‘riyatdagi yangilanish, o‘shish-o‘zgarishlar darajasi aynan ana shu uch shoir ijodi asosida belgilandi. Ularning she‘rlari, tarjimalari, maqolalari hamisha millionlab muxlislarning, nozikta‘b adabiy jamoatchilikning diqqat markazida bo‘ldi. Zamonaviy adabiyot muammolari xususidagi aksariyat bahs-munozaralar, bevosita yoki bavosita, ularning ijodi atrofida kechdi. Chunki bu uch shoirning she‘riyati Sharq she‘riyatidagi eng ilg‘or an‘analar bilan jahon she‘riyatidagi eng yaxshi sifatlarning ajoyib mujassami bo‘lib ko‘rindi. Xususan, Erkin Vohidov she‘rlarida o‘zbek mumtoz she‘riyatiga xos musiqiylik, Hamid Olimjon, Oybek she‘riyatida balqib turadigan ohangdorlik namoyon bo‘ldi. Erkin Vohidovning dastlabki she‘rlari, ilk kitoblaridan tortib, “Saylanma”larigacha, g‘azallar sharhlangan maqolalaridan tortib, “So‘z latofati” kitobigacha sinchiklab o‘qigan o‘quvchi uning ijodi, badiiy tafakkuri tadrijiy tarzda o‘shib borganini anglaydi. Eng muhimi, u shaxsiy ruhiy holatlari, intim kayfiyatlarini ifodalash bilan cheklanmasdan, xalq,

jamiyat, insoniyatga daxldor g'oyalarni ko'tarishga intilgani aniq bilinadi. Bu esa shoirning she'r to'g'risidagi tasavvuri, adabiyotning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi qarashlari doimiy tarzda teranlashib borganidan dalolat beradi.

Albatta, Erkin Vohidovning ilk she'rlari, "Tong madhiyasi", "Qo'shig'im sizga" to'plamlarida zamonasozlik kayfiyati, madhiyabozlik yaqqol seziladi. Ayni holat, ayniqsa, "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirg'oq" kitoblari bilan qiyoslaganda yanada aniq bilinadi. Shoirning 60–70-yillardagi she'rlarida o'tkinchi hissiyotlarga berilib, zavq-shavqqa to'lib, mavjud hayotni madh etish ustuvorlik qiladi. Uning ayni she'rlarida sho'ro siyosatiga ishongan, uning mafkurasiga aldangan zamondoshlarining dunyoqarashi ko'rinadi. Shoirning "Yoshlik devoni" shunday deyish uchun asos bo'la oladi. Ushbu to'plam hozir va keyinchalik qanday baholanmasin, unda o'sha davr kishilarining kayfiyati, hayot haqidagi tasavvuri, dunyo haqidagi tushunchasi ifodalangani bilinib turadi.

Iste'dodli kishilar, qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat'i nazar, san'atga, adabiyotga insonning yashashi, ma'nau-ruhan ulg'ayishi uchun zarur vosita deb qarashadi. Insoniyatning ko'hna tarixi ham, uning bugungi zamonaviy hayoti ham shundan dalolat beradi. Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezaru Albert Eynshteynning tarjimai holi, Boburning hayot yo'li, yana minglab mashhur siymolarning adabiyot va san'at to'g'risidagi qarashlari bunga misol bo'la oladi. Davrning eng ilg'or, porloq g'oyalariga intilib yashaydigan shoirlar hech qachon she'rga ermak uchun to'qiladigan narsa deb qaramaydi. Ular she'rni hamisha inson qalbidagi turli kechinmalar, daf'atan tug'iladigan tuyg'ular ifodasi, deb bilishadi. Erkin Vohidovning she'rlarida ham, qaysidir darajada, kishilar qalbidagi hissiy boylik – turli tuyg'u, kechinmalar ifodalanadi. Shu bois necha o'n yildirki, ming-minglab muxlislar uning she'rlarini ishtiyoq va qiziqish bilan mutolaa qilishadi. Hofizlar shoir she'rlarini o'zining sevimli qo'shig'iga aylantirib, maroqlanib kuylashadi. Odamlar esa ularni zavq-shavqqa to'lib tinglashadi. Ayni holatlarning barchasi esa Erkin Vohidovning chinakam xalq shoiri ekanini bildiradi. Beriladigan unvon, daraja, mukofotlar har doim ham ijodkorning san'atkor sifatidagi asl qiyofasi, ijodining mazmun-mohiyati, uning el orasidagi mavqeini aniq ko'rsatib berolmaydi. Aniqrog'i, ular hamma vaqt ham eng to'g'ri, adolatli mezon, o'lchov

bo‘lolmaydi. Uchala shoir esa unvonlariga har jihatdan loyiq, munosib ekanini, shubha yo‘qki, barcha birday e‘tirof etadi.

Shoirlarning ijodi xususida so‘z yuritilganda, she‘rlari tahlil qilinganida ko‘pincha “falsafiy she‘riyat”, “o‘ychan she‘riyat”, “intellektual she‘riyat”, “an‘anaviy she‘riyat”, “modern she‘riyat”, “avangard she‘riyat” singari sifatlashlar qo‘llanadi. Erkin Vohidov ijodiga nisbatan esa “dilbar she‘riyat” iborasi har jihatdan mos keladi. Chunki uning she‘rlari musiqiy, jarangdor. Hamid Olimjon she‘rlarida ham ayni xususiyat bo‘rtib turadi. “Yoshlik devoni” muallifining she‘rlaridagi musiqiylik, jarangdorlik fikrni ifodalashga, ma‘noni bo‘rttirishga xizmat qilishi bilan e‘tiborni tortadi. Bunga esa so‘zlarning jarangi, ohangini his qilish, ma‘no qamrovini anglash bilan erishiladi. Erkin Vohidov so‘zlarning bu sirli jihatlarini juda nozik idrok etadi. To‘plamlaridagi she‘rlari, g‘azallarni sharhlagan maqolalari, “So‘z latofati” kitobi buni yaqqol namoyon etadi. Uning so‘zlar jarangini topish, ularning ma‘no, mazmun doirasini kengaytirish yo‘lidagi samaralari izlanishlari “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq” to‘plamlaridagi she‘rlarida, “Ruhlar isyoni” dramatik dostoni va “So‘zlar latofati” kitobida, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. Ayni asarlarida u so‘z san‘atkori, chinakam shoir sifatida balog‘atga etishadi. Erkin Vohidov mumtoz shoirlar g‘azallarini sharhlaganida, “Iztirob”, “So‘z latofati” kitobidagi maqolalarida so‘zga oshuftaligini, butun vujudi, qalbi bilan unga bog‘lanib yashashini mehr va ishtiyoqqa to‘lib izhor qiladi. Ijodkorlarga : “Shundoq so‘z ayt, shoir ukajon,/ So‘zing qalblar tubiga borsin./ Baxtni yozsang, yayrasin jahon,/ G‘amni yozsang, dodlab yuborsin” deya murojaat qiladi. So‘zning qudrati, sehri, jozibasini chin yurakdan his qilgan shoirgina shunday deydi. Borliq-olamning yaralishiga vosita bo‘lgan So‘zda haqiqatan ham odamlar shu paytgacha anglab etolmagan qudrat, mislsiz quvvat, tengsiz joziba va boshqa behisob sifat, xususiyatlar mavjud. Uning bu jumboq, sirlarini har kim o‘zining aqli, saviyasi, didi darajasida angelaydi, his qiladi. “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Ruhlar isyoni”, “So‘z latofati”da bu ilohiy ne‘matga maftun bo‘lib yashayotgan dilbar qalb sohibining shaxsiy-intim quvonchu dardlari, inosniyatning olis o‘tmishi, zamondoshlarining hozirgi ahvoli, kelgusi avlodning taqdiri xususidagi iztiroblari ko‘rinadi. Erkin Vohidovning millionlab

zamondoshlari qalbidan joy olgan dilbar she'riyati zaminida avvalo uning so'zga bo'lakcha mehri, intilishi turadi.

Aksariyat she'rlarda shoirning boshidan kechirgan, ko'rib, kuzatgan voqealari ta'sirida tug'ilgan his-tuyg'usi, fikrlari ifodalanadi. Shu bilan bog'liq holda, ko'p shoirlarning she'rlari tarjimai hol doirasida qolib ketadi. Erkin Vohidov singari iste'dodli shoirlar esa she'rlarida shaxsiy-intim kechinmalariga umumlashtiruvchi ma'no bera biladi. Shu bois ularning she'rlarida bizning tuyg'ularimiz, o'zimizning kechinmalarimiz ifodalangandek tuyuladi. Erkin Vohidovning hayot voqeligiga uch jihat – shaxs, jamiyat, insoniyat taqdiri nuqtai nazaridan qarashi sevgi-muhabbat mavzuidagi oshiqona tizmalarida, “O'zbekim”, “Inson” singari qasidalarida, “Tirik sayyoralar”, “Arslon o'rgatuvchi”, “Sharqiy qirg'oq” kabi barkamol she'rlarida yanada aniq ko'rinadi. Ayni xususiyat shoirning hazil mutoyibaga yo'g'rilgan, tagdor mazmunli qochirik bitiklarida ham yaqqol seziladi.

Erkin Vohidov she'rlarida so'zlar silliq, mayin va muloyim, satrlar ixcham, qofiyalar to'liq va jarangdor. Mazmun ham mavhum, xira, chalkash, jumboq emas, aniq. Ularda bu kabi yana qator o'ziga xos jihatlar mavjudki, yuksak badiiylik mezoni sanaladigan ayni sifat, xususiyatlar shoir she'rlarini “dilbar she'riyat” deyish uchun etarli asos bo'la oladi.

Chinakam badiiylikka xos talay xususiyatlar yarqirab ko'rinadigan ayni she'rlarda soddalik, oddiylik, jarangdorlik va ma'nodorlik sifatleri alohida bo'rtib turadi. “Yurak” she'ri bunga misol bo'ladi: “Dardlar toshi yog'di, yurak – / Shishasining darzi ko'p./ Sinmay tursin, hali kerak, / Eldan uning qarzi ko'p”. Shoirning “Begunoh odam” ixcham she'ri ham buni tasdiqlaydi: “U otdan qulasa, gunoh jilovda,/ Toyib yiqilsa, ayb – qorda, qirovda./ Boshiga har neki ko'rgilik kelsa,/ Ayb o'zida emas, doim birovda”. Sodda, ammo ma'nodor bu satrlar barchaga birday tushunarli va ta'sirchan. Shoir bu kabi ixcham, sodda she'rlarida tagdor kinoya, kesatq bilan so'z “o'yin”i qilishni ham ajoyib tarzda ado etadi. “Parishon do'stlar” she'ri bunga isbotdir: – Xotin tug'ilgan kun ertaga, o'rtoq,/ Guldasta olishni esimga solgin./ – Albatta, esimga solaman, biroq/ Esimga solishni esimga solgin. Ayni xildagi tagdor qochiriq, o'tkir kinoyaga yo'g'rilgan shirin hazil she'rlar shoir she'riyatining o'ziga xos yaxlit qirrasini bo'lib ko'rinadi. O'zbek adabiyotining yorqin sahifasi

sanaladigan bu she'riyat markazida hayotga shirin orzu-havas, zavq bilan qaraydigan, butun vujudi, qalbi bilan uni sevadigan, umrning bebaho damlari besamar o'tayotganidan kuyinib: "Dod soling,/ ne kechar holimiz./ Alamdan jonimiz qiynoqda./ Olamda/ topilmas/ molimiz – / Vaqtimiz/ yonmoqda,/ yonmoqda" deb iztirob chekadigan va dunyo haqida : "Imkon yo'q dunyoda mangu qolgani,/ Taskin – bizdan ham bir yodgor qolgani,/ Yaxshi ish, yaxshi so'z va yaxshi farzand – / Qolari – shu. O'tdi-ketdi qolgani" deya xulosa chiqara oladigan Inson obrazi turadi.

Jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri Gyote "Faust"ining o'zbekchasi, mashhur rus shoiri Sergey Eseninning ehtirosli tuyg'ularga to'la she'rlarining tarjimai sifati darajasi, ulardagi so'zlarning salmog'i, jarangdorligi, musiqiyliги va ma'nodorligi ham Erkin Vohidovning yorqin iste'dodidan, uning ijodi o'zbek she'riyatining betakror namunasi ekanidan darak beradi. Bu dilbar she'riyatdagi so'zlarning jarangi qalblarda aks-sado berib, unda ifodalangan kechinmalar, tuyg'ular, bayon qilingan fikrlar, chiqarilgan salmoqli xulosalar kishilarni hayotga teranroq qarashga, hamisha umid va ishonch bilan yashashga ilhomlantiradi.

NIHOLING QOSHIGA BIR GUL EKIB QO'Y...

*Yangiboy QO'CHQOROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi*

Biz ijod ahli odatda ikki toifaga ya'ni o'zi yozgan she'rlarning asosiy qismini, shuningdek boshqa shoirlarning eng sara she'rlarini yoddan biladigan va aksincha ularni xotirasida u qadar mahkam saqlay olmaydiganlarga bo'linamiz. Kaminai kamtarin ikkinchi toifaga mansub bo'lsam kerak. Ammo aziz ustozim, Xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning quyidagi jozibali satrlardan iborat ajoyib she'rini hamisha yoddan o'qib yuraman:

*Vatandosh, bog'ingga bir nihol qada,
Va uning otini yaxshilik ata.*

*Niholing qoshiga bir gul ekib qo‘y,
Va uning ismini go‘zallik deb qo‘y.*

*Gulu niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga mehr deb qo‘y ot.*

*Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey do‘st,
Bog‘ing Vatan deya nom olsin, ey do‘st.*

Qizig‘i, bu ma‘noli she‘r Erkin aka uni Do‘rmondagi ijod bog‘imizda o‘tgan adabiy kechada bir marta o‘qib bergan soniyadan yodimga muhrlanib qolgan. Bir marta tinglaganimdanoq! Bu har kuni ro‘y beraveradigan hodisa emas. She‘rdagi har bir so‘z, har bir harf yuksak, quyma she‘riy san‘at mevasi bo‘lgani uchungina bir tinglashdan esda qolgan. Qolaversa, har qanday asl she‘r teran tafakkur, yorug‘ tuyg‘u va chinakam hayajon hosilasidir. Esimda: 1966 yilning 26 aprelida vaqtincha Buxoroyi sharifda istiqomat qilar edik. Zilzila haqidagi xabarni eshitganimizda munis onaizorim Toshkentdagi inisi Qo‘ziboy Qo‘chqorovning u soatdagi bizga noma‘lum bo‘lgan taqdirini o‘ylab yig‘lab yuborgan. Men ham qattiq hayajonga tushganman. Qishloqqa qaytganimizdan keyin hurmatli adabiyot muallimam Rimma Qo‘zieva qo‘limga Erkin Vohidovning “Palatkada yozilgan doston”ini bergan. Qattiq hayajon bilan o‘qib chiqqanman. Shu orada rus adabiyoti muallimim Pavel Efimovich Tujilkin qo‘limga K.Simonovning “Ты помнишь, Аёша, дороги Смоленщины...” she‘rini tutqazgan. Shu go‘zal doston va shu haqqoniy she‘r meni nafis she‘riyatning sodiq bir muxlisiga aylantirgani aksioma.

O‘tgan asrning oltmishinchi yillari ijtimoiy hayotida poeziya ma‘naviy bayroqdor bo‘lgani, o‘yingohlarga bir necha o‘n minglab muxlislarni to‘plagan ko‘pchilikka ma‘lum. Aynan ana shu o‘n yillikda zamonaviy rus she‘riyatiga o‘ttizdan ortiq iste‘dodli shoirlar pleyadasi kirib kelgan, ammo ular orasidan faqat Andrey Voznesenskiy, Evgeniy Evtushenko, Robert Rojdestvenskiylargagina shu avlodning karvonboshilari bo‘lish maqomi nasib etgan edi. O‘sha “qaynoq” o‘n yillikda o‘zbek zamonaviy she‘riyatida ham xuddi shu yo‘sindagi adabiy manzara kuzatildi. YA‘ni Husnitdin Sharipov, Hayritdin Saloh, Normurod Narzullaev, Tesha Saydaliev, To‘ra

Sulaymon, Sayyor, Olimjon Xoldor, Yusuf Shomansur, Yo‘ldosh Sulaymon, Barot Boyqobilov, Oxunjon Hakimov, Erkin Samandar, Razzoq Abdurashid, Jamol Kamol, Ma‘ruf Jalil, Gulchehra Jo‘raeva, Erkin Madrahimov, Tursunboy Adashboev, Miraziz A‘zam, To‘lan Nizom, Abdulla Oripov, Omon Muxtor, Mashrab Boboev, Muhammad Ali, Rauf Parfi, Oydin Hojjeva, Omon Matjon, Abdulla Sher, Habib Sa‘dulla, Toshpo‘lat Ahmadlardan iborat o‘ttiz shoir bir davrda she‘riyatimiz saroyining eshigini qoqib kirib keldilar. Va ular orasidan ham uch atoqli shoirlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfilarning elkasiga ana shu baquvvat avlodga karvonboshilik qilishdek mashaqqatli ishning zalvorli yuki tushdi. Tan olish kerakki, ularning uchalasi ham bu sharaflı ishni imkon qadar munosib tarzda uddaladilar. Biz bu gal uch ulkan shoirdan birinchisining sermazmun hayoti va ijodi, adabiy portreti, uning zamondoshlari to‘g‘risidagi kamtarona kuzatishlarimiz bilan o‘rtoqlashmoqchimiz.

Turkiy xalq she‘riyatining atoqli vakillaridan biri Erkin Vohidov 1936 yilning 28 dekabrda qator atoqli shoirlarning she‘r va dostonlarida jilo topgan go‘zal Farg‘ona diyorida tavallud topadi. Bo‘lg‘usi shoir baxtiyor onaning oq sutini to‘yib emar, sehrli allasini miriqib eshitar ekan, o‘zbek adabiy jarayoni jonli, biroq tahlikali kunlarni boshidan kechirayotgan edi. Adabiy solnomalarga nazar salsak, 1937-yilning 12-yanvarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida joriy anjuman o‘tkazilib, Oybek domla ma‘ruza qilganini, ulug‘ Cho‘lpon va otashnafas Usmon Nosir so‘zga chiqqanini, 10 fevralda Sverdlov nomidagi teatrda buyuk A.S.Pushkin vafotining 100 yilligiga bag‘ishlangan marosimda Maqsud SHayxzoda va Usmon Nosir gapirib, 12 aprel kungi dramaturgiya kengashi majlisida Abdulla Qodiriy va Elbek o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashganini, 14 oktyabrda Qurbon Beregin uyushma raisi bo‘lib saylanganini o‘qishimiz mumkin. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay ulardan ko‘pchiligi OGPU-NKVD qatag‘oni iskanjasida halok bo‘ladilar.

Oradan o‘ttiz besh yil vaqt o‘tadi. Zamon muayyan maqomda o‘zgaradi. “Tong nafasi”, “Qo‘shiqclarim sizga”, “YUrak va aql”, “Mening yulduzim”, “Lirika”, “Yoshlik devoni” she‘riy to‘plamlari, “Nido” dostoni, “Oltin devor” komediyasining muallifi adabiy hayotda faol ishtirok eta boshlaydi. Aruz vaznida o‘zining go‘zal sahifalarini yaratadi. U serqirra ijodining dastlabki davridan boshlab nainki Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud SHayxzoda, Mirtemir kabi

alloma shoirlarimiz, balki o‘z zamonasining Tleubergen Jumamuratov va Ibroyim Yusupov, Sobit Muqonov va Sirboy Mavlonov, Berdi Kerboboev va Karim Qurbonafesov, Aali To‘qumboev va Chingiz Aytmatov, Mirzo Tursunzoda va Sotim Ulug‘zoda, Sulaymon Rustam va Rasul Rizo, Aleksandr Tvardovskiy va Konstantin Simonov, Qaysin Quliev va Rasul Hamzatov, Dovud Qo‘g‘ultinov va Mustay Karimdek zabardast shoirlari, adiblari nazariga tushadi. Natijada u Ulmambet Xo‘janazarov, O‘ljas Sulaymonov, Berdinazar Xudoynazarov, Nabi Hazriy, Mo‘min Qanoat, Andrey Dementev, Gevork Emin, Nazar Najmiy kabi mashhur zamondosh shoirlar bilan bir safga turadi. Xususan u 1972-yilning noyabrida Moskvada, 1973-yilning iyulida Tyumenda bo‘lib o‘tgan adabiy anjumanlarda ishtirok etadi. Ayniqsa 1973-yilning 14-sentyabri shoir tarjimai holiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yiladi. Shu kuni u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari Rahmat Fayziy bilan Dog‘iston zaminiga, Maxalqal‘aga borib, atoqli avar shoiri Rasul Hamzatov tavalludining 50 yilligi tantanalarida qatnashadi, so‘zga chiqib, ajoyib she‘rini o‘qiydi. O‘zbek shoirining ovozi Kavkazning olmos cho‘qqilarida, Kaspiyning qaymoqli mavjlarida aks sado beradi. Aynan shu davrda ya‘ni 1970–1975-yillarda shoir buyuk I.Gyotening “Faust” asarini o‘zbek tiliga o‘giradi.

Ijod, shu jumladan, badiiy durdonalar yaratish jarayoni chinakam poyga hisoblanadi. O‘tgan asrning etmishinchi yillari shoir uchun aynan shunday jiddiy sinov, etuklik imtihoni davri bo‘ldi. Chunki aynan shu davrda atoqli shoirlardan Mirtemirning “Izlaganim”, Zulfiyaning “Tong bilan shom aro”, Asqad Muxtorning “Sizga aytar so‘zim”, o‘zi mansub avlodning yorqin vakili Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” to‘plamlari o‘quvchilarga borib etadi. Ayniqsa Asqad Muxtorning “Men dunyoga kelib dunyo orttirdim” turkumi alohida shuhrat qozonadi. Unga tengdosh shoirlardan Shuhrat, Hamid G‘ulom, Shukrullo, Ramz Bobojon, Turob To‘la, Mirmuhsin ijodida yangi nafas paydo bo‘ladi.

Shoir bu poygada “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Kelajakka maktub”, “Muhabbat”, “Hozirgi yoshlar” to‘plamlari, “Ruhlar isyoni” va “Istanbul fojiasi” dostonlari, “O‘zbekim” va “Inson” qasidalari, “Zamin tashvishlari”, “Bong uring”, “Tirik sayyoralar”, “Temirtan daholar”, “Zangori shu‘lalar”, “Arslon o‘rgatuvchi” kabi mag‘zi to‘q she‘rlari bilan uloqni yutib oladi. Eng

muhimi “Zvezda Vostoka”, “Noviy mir”, “Drujba narodov” jurnallari, “Literaturnaya gazeta”, shuningdek, Nukus, Almati, Ashgabat, Bishkek, Boku, Dushanba va boshqa shaharlarda bosiladigan oynoma va ro‘znomalar orqali jahon adabiyoti minbariga chiqadi. Akademik S.Mamajonov ta’biri bilan aytganda shoirning “maroq bilan o‘qiladigan she’rlarida inson qalbiga yaqin, uning ma’naviy ehtiyojini qondiruvchi sharbat, ham jiddiy, ham nozik lirik ohang, ham shirin hazilomuz ruh bor”.

Shoir istiqlol arafasida uning mohiyatini anglashga, qizil saltanatni qoralashga, soxta g‘oyalarga tayangan komfirqadan voz kechishga, ozod Vatanni sevishga qaratilgan qator she’rlar yozdi. 1989 yilning aprelida yozilgan quyidagi satrlar fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi:

*Tiflisda xalq uzra tank yuborgan zot,
Sha’nin qilar bo‘lsa qonun ehtiyot,
O’sha zot kommunist bo‘lsa, men, hayhot,
Firqa daftarimni otganim bo‘lsin...*

Shoir ona-yurt haqida yozganda yurak tuyg‘ularini teran ifodalaydi:

*Menga begona ellarda
Nasib gar o‘lsa yuz rohat,
Chekay bag‘ringda ming ozor
Seningdirman, seningdirman.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yili shoir G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyida “Kuy avjida uzilmasin tor” to‘plamini chop ettirdi. U muallifning o‘zi yozgan “Tarjimai holi” bilan ochiladi. “Bunday qaraganda bitta shoir qilishi mumkin bo‘lgan ishni qilib qo‘ygandekman.- deb yozadi shoir. – Lekin hech qachon o‘z qilgan ishimdan ko‘nglim to‘lgan emas. Hamisha yozganimdan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyuladi.” Kitobga shoirning avvalgi to‘plamlaridagi barcha sara she’rlari va yangi taronalari jamlangan. “Asablar”, “Fuzuliy haykali qoshida”, “Kutish soatlari”, “Bir tomchi yosh”, “Kardiogramma”, “Abay”, “Hozirgi yoshlar”

she'rlari, xalq qalbidan joy olgan g'azallar, "Matmusa" turkumi bu to'plamni poeziyamizda voqea darajasiga ko'tardi.

1992-yili ustoz shoir A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida "Yaxshidir achchiq haqiqat" nomli kitobini 10 ming nusxada e'lon qildi. E'tiborli jihati shundaki, kitobga ijodkorning mashhur zamondoshi Abdulla Oripov muharrirlik qildi va iliq so'zboshi yozdi. Unda "Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh bo'lganim bilan faxrlanaman" degan samimiy so'zlar bor. Kitobdagi "Vatan istagi", "Bizdan keyin hech bir avlod qayta qurmasin", "Qurolsizlanish", "Xalq noiblariga", "Iztirob", "Darddoshlik" she'rlari zamonning yurak urishini yaqqol ifodalab bergan. Keyingi yillarda ustoz shoir 4 jildlik "Saylanma"sini, boshqa qator kitoblarini, shu jumladan, "So'z latofati" asarini e'lon qildi. "So'z latofati"ning Toshkentda, Milliy kutubxonada o'tkazilgan taqdimotida qatnashdim, so'zga chiqdim. Erkin aka o'z vaqtida millatimizning Muhammad Yusufdek ulkan iste'dodining turnako'z buloqdek ko'z ochishiga yo'l ochib bergan edilar. Shuni eslab taqdimotda ustozga Muhammadjon aka she'rlarining "Favvorafilm" studiyasi tomonidan tayyorlangan audiodiskini sovg'a qildim.

Aziz ustozim bilan ilk bora tasodifan telefon orqali 1980-yilning yozida so'zlashganman. O'shanda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Jo'lmirza Oymirzaev Ellikqal'adagi "Moskva" davlat xo'jaligi bog'ida cho'lquvarlar hayotidan roman yozar, men unga dastyor edim. U paytlari uyali telefon tugul, oddiy shahar telefoni ham yo'q, boshqa shaharlar bilan faqat kommutator orqali gaplashish mumkin edi. Esimda: bir vaqtlari shaxsan Maksim Gorkiy bilan suhbatlashgan adib kommutatordagi qizlarga "Toshkentni ulab bering!" deb ko'p bora yalindi. Men Jo'lmirza og'aga ko'z qisdim-da, trubkani ko'tarib "Eto Mixail Ivanovich Alekseev iz SK KPSS. Srochno soedinite menya s Tashkentom!" dedim ovozimni ko'tarib. Shu shumlik orqali oqsoqol adibni bir necha marta Komil Yashin, Ramz Bobojon, Hamid Ubaydullaevich va bir gal Erkin aka bilan gaplashtirdim. Jo'lmirza og'a "Minekey, Jangaboy degen jaqsi jigit bor. So'l menen so'yles!" deb trubkani berdi. Erkin akaga nimalar dedim esimda qolmaganu "Mashqlaringizdan yuborib turing!" degani yodimda. 1982-yilning 12-noyabrida, "Nukus-Moskva" reysi bilan uchayotgan "TU-154" samolyoti bortida bizni harbiy xizmatga olib ketishdi. Samolyot salonida L.Brejnevning dafn

marosimiga borayotgan Qallibek Kamolov va Madiyor Xudoyberganovlar bor edi. Harbiy xizmat chog'i Moskvada, Cherepovetsda, Krivoy Rogda yozgan she'rlarimdan bir nechtasini Toshkentga, yangi tashkil etilgan "Yoshlik" jurnaliga jo'natdim. Tez orada banderol keldi. Unda Erkin akaning ixcham va iliq xati bo'lib, yaqin sonlardan biriga bir turkum she'rim tayyorlanayotgani aytilgan, mashinkalangan matn qo'shilgan, iste'dodli shoir Sa'dulla Ahmadning "Yangiboy inim! Biz belgilab qo'ygan ikki satrni o'zgartirib bersangiz!" degan so'zlari yozilgan edi. She'rda "Ey, Misr xudosi Osiris! Sen mening xalqimni qachon abgor holatdan chiqarasan!" degan sha'ma bor edi. Gap Bosh kotibga qaratilgani shundoq bilinib turardi. Bosh kotib lavozimiga esa xavfsizlik idorasi rahbari saylangan, u O'zbekistonga o'gay ko'z bilan qarayotgan edi. Men buni qaynog'am Boqi Murotovning G'uzor raykomining birinchi kotibligi lavozimini o'z ixtiyori bilan topshirgani (Moskvadagi, Markazqo'mdagi do'sti qulog'iga shivirlagach)dan anglab etgan edim. Xullas Toshkentga, Sa'dulla Ahmadga qo'ng'iroq qilib, keyinchalik boshqa she'rlar berishimni aytdim, Erkin akadan uzr so'rab qo'ying, dedim. Yaqinda, 2015 yilning avgust oyi oxirida haj ziyoratiga o'tlanayotgani munosabati bilan Sa'dulla akaga "Oq yo'l" tiladik. Oradan 32 yil o'tgach Sa'dulla aka o'sha "Osiris" voqeasini esga oldi.

O'ylab qolaman. Keyingi chorak asr davomida necha bora Erkin aka bilan safarlarda, adabiy uchrashuvlarda birga bo'ldik? Ko'p bora. Necha bora u kishiga Ibroyim oqsoqol bilan To'lepbergen raisining salomini keltirdim. Ayniqsa Ibroyim og'aning "Qirg'iz GAI Erkinga "chest beradi!" degan go'zal she'rini eslang. Erkin akaning Ibrohim aka G'afurov va rahmatlik O'tkir Hoshimov bilan Ellikqal'aga borganlari, samimiy uchrashuvlar, she'rxonliklarning o'zi bir doston. 2013 yilning 5 sentyabrida "Do'rmon" ijod uyida anjuman bo'ldi. Poytaxt va viloyatlardan uch yuz nafar uyushma a'zosi yig'ilgan. Shunda ular orasidan birinchi bo'lib Erkin aka meni muhtaram Prezidentimiz Farmoniga binoan berilgan unvon bilan qizg'in qutladilar. Ko'ksim tog'dek ko'tarildi. (Bu dunyoning g'alat ishlarini qarangi, yonimda turgan qo'shni viloyatlik o'rtamiyona ijodkor meni tabriklamadi, ko'rib turib ko'rmaslikka oldi. Erkin aka esa yuz odam ichidan kelib bag'riga bosdilar). To'ylar, tantanalar o'z yo'li bilan. Ammo Erkin aka hamma narsani, birovni qutlash yoinki birovga ta'ziya bildirishni o'z o'rniga qo'yadigan ajoyib inson. 2013

yilning iydi ramazonida Xurshid aka Do‘stmuhammedov qo‘ng‘iroq qilib “Bir necha joyga ta’ziyaga kirib chiqmoqchimiz. Erkin akam “Yangiboyga ham aytinglar!” dedi. Sizga ustozning mehri bo‘lakcha!” dedi. Bajonidil rozi bo‘ldim. Erkin aka, Ibrohim aka, Iqboljon, Dadaxon aka, Nasriddin aka, Xurshid aka, Abdunabi aka va men avval O‘tkir Hoshimovnikiga, keyin Pirmat Shermuhammedovnikiga (Sirg‘ali dahasining chetida, dala bilan tutashgan mavzeda ekan), Farhod Musajonovnikiga fotihaga kirdik. Abay ko‘chasidagi ko‘p qavatli uylarga borib fotiha o‘qitganimizda Erkin akam sinchkovlik bilan bir narsani sezib qoldilar. Xurshid akam ham hushyorlik bilan Farhod aka emas, boshqa birovning xonadoni oldida o‘tirganimizni aniqladilar. U yoqqa, rahmatlik adibning pod‘ezdiga o‘tdik. Keyin Yunusobodga borib Shodmonbek akadan, Sobir O‘nardan ko‘ngil so‘radik. Bu tafsilotlarni keltirayotganimning boisi Erkin akada bir oila tuyg‘usi nihoyatda kuchli. U kishi boshchiligida tez-tez uyushtirilayotgan shaxmat bellashuvlarini oling. Bularning o‘zi bir qissa. Ahmadjon Meliboev “Sayohat” mehmonxonasida nahorgi to‘y oshi berayotganida Erkin aka bilan suhbatlashib turardik. “Ustoz! Tush payti “Afsona”da do‘ppidek osh damlatmoqchi edim. Shaxmat o‘ynaysizlarmi!” dedim. “Yangiboy! Ezgu ishning erta kechi yo‘q. Ketdik!” dedi. Kuni bo‘yi shaxmatchi adiblar, Aziz aka To‘raev, Bahodir Umrzoqov bilan dona surdilar. Jurnalistikadagi ustozim Shuhrat Jabborovni ham chaqirdik. Yana bir mehrlı murabbiyim Saydi Umırov safarda ekan. Shu kuni Erkin aka g‘olib bo‘ldilar. Men Allohdan yuz yoshda ham u kishining qo‘lidan qalam va shaxmat donalari tushmasligini so‘ragan bo‘lardim!

“SHOIRLIK – BU SHIRIN JONDAN KECHMAKDIR”

*Laylo SHARIPOVA,
BuxDU dotsenti, f.f.d.*

O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov “shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir”, “Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir”, “...Jigarni ming pora etmak”, “Bag‘ir qoni bilan satrlar bitmak” deb yozdi va umrini aynan Shunday yashab o‘tdi. Yozganiday:

O‘zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
Elga qurbon qilib eng so‘nggi karra
Armon bilan demak: “Ey ona yurtim,
Kechir, xizimatingni qilolmay o‘tdim”⁵.

deya oladigan vatanparvar shoirlar safidan joy oldi. Bu misralar ustod Mirtemirga bag‘ishlangan “Shoirlik” she‘ridan olingan bo‘lib, shoir she‘r yakunida “Shundoq yashar asli sohibi ijod”, – deya xulosa qiladi. Bu she‘r aynan E.Vohidovning o‘ziga ham daxldor. Uning o‘zi ham shunday yashab o‘tdi. Nafaqat she‘riyati, dramaturgiyasi, tarjimalari, ilmiy va publitsistik maqolalari bilan, balki hayoti, ijtimoiy faoliyati bilan ham xalq ruhiyati kamoloti, yoshlar tarbiyasi yo‘lida xizmat qila oldi. Tug‘ilganida farg‘onalik bo‘lgan esa-da, ulug‘ iste‘dodi, zahmatli mehnati, so‘zi va amali birligi tufayli O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoniga aylandi. Istiqlolni chorlagan va mustaqillik yillarida bor salohiyatini Vatan ravnaqi yo‘lida sarflagan shoir quyidagi satrlarni yozganida hali ko‘plar istiqlolni orzu ham qilmagan edilar:

Qulluq qil demasman,
Yurt tuprog‘in o‘p,
Unga qullar emas, fidolar kerak.
Uning senu mendek shoirlari ko‘p,
Buyuk elga endi daholar kerak.
Qaddingni baland tut,
Bo‘lma sarta‘zim,
Cho‘qqi bo‘lolmasang, mahkam qoya bo‘l.
Pillapoya bo‘ldim senga, azizim,
Sen ham gal kelganda pillapoya bo‘l⁶.

E.Vohidov qaddini baland tutdi, sarta‘zim bo‘lmadi. Ammo kamtarinlik bilan keyingi avlodga “pillapoya” bo‘ldi. XX asrning 2-yarmida o‘zbek she‘riyatiga kirib kelgan shoirga Cho‘lpon, Usmon Nosirlar bivosita, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemirlar bevosita pillapoya bo‘lgan esalar, E.Vohidovning o‘zi

⁵ Vohidov E. Saylanma. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. Sadoqatnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashr., 1986. – B.123 (keyingi misollar shu kitobdan olinganda faqat kitob nomi va beti keltiriladi).

⁶ Sadoqatnoma. – B.165.

A.Oripov, Jamol Kamol, Rauf Parfilar avlodi safida turib Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Usmon Qo‘chqor, Muhammad Yusuf singari baquvvat ijodkorlarga pillapoya bo‘la oldi. Bugun Shavkat Rahmonlar pillapoyasida turib qad rostlagan Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Eshqobil Shukur, Halima Ahmedova, Abduvali Qutbiddin singari xalq suygan shoirlar yangi avlodga pillapoya bo‘lib ulgurdilar.

Adabiyotshunosligimiz E.Vohidov haqida anchayin yozgan bo‘lsa-da, umumiy holatga nazar solsak, hozirga adabiy jarayonni yoritishda o‘zbek she‘riyati taraqqiyotidan ortda qolayotgani rost. Hali ko‘p va xo‘b yozish darkor.

E.Vohidov ijodi davomida she‘r va shoirlik haqida alohida mehr, ulug‘ e‘tiqod, muhabbat bilan yozdi. Uning “Kuzatish”, “Shoirlik”, “Yurak va aql”, “Shoir”, “Shoir qalbi”, “She‘rim haqida she‘r” kabi she‘rlari fikrimizga misoldir. She‘rlarini farzand deb bilgan shoir 1977-yilda yaratilgan “Kuzatish” she‘rida oqil ota bo‘lib she‘rlarining yutuq va kamchiliklarini aytib o‘tadi. Milliylik nuqson sanalgan pallada shoir muharrirlarga murojaat qilish bahonasida jasorat bilan davr dardlarini aks ettiradi:

To‘g‘rilangu yurish-turishin,
O‘zgartirmang turish-turmushin.
O‘z fe‘liga xosligi qolsin,
O‘z eliga mosligi qolsin.
To‘g‘ri so‘zlik darsin o‘tgan dam
Unutmasin qochirimni ham.
Mag‘rur qilgan chog‘ida xitob,
Yo‘qolmasin sharqona odob⁷.

Shoir davr mafkurasi sabab dil so‘zini o‘zi istaganday bitolmayotganidan, yozganlarini davrga moslashga majburligidan o‘kinar ekan, shu og‘riqni ham kulgu vositasida mahorat bilan bera olgan. Farg‘onacha kulgu-qochirim ko‘magida davr nuqsonlarini tanqid qila olgan, zakiy she‘rxon bilan dardlasha bilgan:

⁷ Sadoqatnoma. – B.83.

O'zgaradi qancha kaloming,
O'zgaradi qanchalar lavhang.
Yozilganda "Tong" bo'lsa noming,
"Oqshom" bo'lar balki sarlavhang⁸.

She'r e'lon bo'lganda uni nomimdan taniyman, deyish bilan shoir kulguni yanada kuchaytiradi. "She'rim haqida she'r"ni o'qib, rohat qilib kulasiz. Satrdan satrga o'tgan sayin kulgungiz jarangi oshib boradi. Ammo she'rni o'qib bo'lgach, birdan xomush bo'lib qolasiz. Xalqimizning yaqin o'tmishini o'kinch bilan o'ylaysiz. Istiqlolgacha bo'lgan davrda ijod qilgan shoirlar qismatini eslaysiz. Oqibat o'qigan she'ringizdagi yumor satiraga aylanadi. Tragik komediya mutolaa qilganingizdagi holga tushasiz. E.Vohidov ijodida uchraydigan satira va yumor folklordan rang olganiga, vodiya xos askiya, xalqona qochirimlardan o'sib chiqqaniga iqrar bo'lasiz.

E.Vohidov uslubi rang-barang. Uning she'riyati, avvalo, vazniga ko'ra betakror. Barmoqdagi she'rlari shoir ruhiyatidagi barqarorlikni, muvozanatni, aruzdagi she'rlari vazminlik, mutanosiblikni namoyish qilsa, sarbastdagi she'rlari shoirning buysunmas, o'jar, erkin ruh egasi ekanini ko'rsatadi. Bu uch xil holat bir-biriga zid va ayni damda, bir-birini taqozo qilib, to'ldirib turadigan jihatlar sifatida butunlik hosil qilgan. Bunday serqirra ruhiyat sohibi betakror shoir bo'lishi tabiiydir. E.Vohidov uch vaznda birday ijod qilgan shoirki, bunday shoirlar she'riyatimizda barmoq bilan sanarli. Negaki yetuk shoirlarimizning aksariyatida uch vazndan qaysidir biri kam iste'foda qilingani hech kimga sir emas.

E.Vohidov mahoratli shoir sifatida badiiy san'atlardan o'z o'rnida, o'ziga xos tarzda foydalana oldi. Bu hol shoir she'riyati badiiyatining yuksak bo'lishini ta'min etdi. Ayni damda, shoir ham folklordan, ham Sharq mumtoz she'riyati an'analaridan va dunyo she'riyati yutuqlaridan foydalana oldi.

Xalq dostonlarida, aytaylik, "Ravshan" dostonida osmonda oy ikkita bo'lib qolgani, bu Zulxumor ruxsorining ko'kdagi aksi ekani tasvir etilgan. Bu bilan xalq qizning go'zal ekanini ifoda etgan.

⁸ Vohidov E. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. Muhabbatnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1986. – B.83 (keyingi misollar shu kitobdan olinganda faqat kitob nomi va beti keltiriladi).

Shoirning “Oyga” she’rida xalqning ana Shu tasviridan ta’sirlanib diolog va bu suhbatdan chiqarilgan ajoyib xulosa berilgan. Lirik qahramon o‘zini yerga olib ketishlarini xohlagan oyga javoban unga borib yeta olishini, uni yerga olib qaytishini aytadi. Ammo jindaygina e’tiroz bildiradi:

Lekin bunda bor bir parivash,
Qarashidan dillarda otash.
Yuzi uning mohi tobondir,
Ko‘zi uning ofati jondir.
U qarshingda ko‘rsatsa chiroy,
Ko‘kka qaytib ketmaysanmi, oy?⁹

Xalqda mavjud “Husnidan oy xijolat” tashbehi go‘zal tarzda tasvirga aylantirilgan. Natijada she’r ta’sirchanligi oshgan.

E.Vohidovda folklordan, undagi ertak, afsona, rivoyatdan ta’sirlanib, folklor obrazlari, motivlari qo‘llab yozilgan she’riy asarlar talaygina. Shoir xalq maqollari va matallaridan mahorat bilan foydalanib, oddiy folklorizmni yuzaga keltirar ekan, xalqning purhikmat ifodasi yordamida o‘ziga xos, kutilmagan xulosalar chiqara olgani bilan e’tirofqa loyiqdir. Bu o‘ziga xoslik shoir uslubining bir qirrasiga aylana olgan:

Men ko‘ngil ko‘yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib ta’bir etingkim,
O‘ngda bir gulshan topay.
Ayrı til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do‘st.
Do‘st kerakmas, to‘g‘ri so‘zlab
Bir halol dushman topay¹⁰.

“Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman jabrini” xalq maqolini qo‘llab turib, shoir she’rxonni ko‘tarinkilik tomon tortadi: tikanning gulshanga aylanishini istaydi. Folklorga xos evrilishni aruz ko‘magida beradi. Bu satrlar tahlilining o‘zi bir maqola bo‘la olish imkoniga ega.

⁹ Muhabbatnoma. – B.148.

¹⁰ Sadoqatnoma. – B.64.

Bu fikrlardan muddao Shuki, E.Vohidov she'riyati surati bilan ham, siyrati bilan ham xalq yuragida muhabbat paydo qila oldi. Goh she'r, goh doston, goh kuyga vobasta holidi har bir xonadonga kirib bordi va shoirning barhayotligini ta'minlay oldi. E.Vohidov hayoti va ijodi, jumladan, she'riyati uning XX asrning 2-yarmi, XXI asrning 1-choragida yashab o'tgan ulug' shoir, mohir dramaturg, yetuk tarjimon, fidoyi, vatanparvar jamoat arbobi ekanini, uning 2-umri boshlanganini, bu umr zavol bilmasligini dalillay oladi.

SO'Z SEHRI

*Dilrabo QOZOQBOYEVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;
Dildora Husanova,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'azal mulkining sulтони Alisher Navoiy va O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning so'zga oid qarashlaridagi o'zaro mushtaraklik to'g'risida fikr yuritiladi. Ularning ushbu fikrlari o'zaro qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, so'z, gavhar, "Hayratu-l-abror", "So'z latofati", til, millat.

Annotation: This article discusses the similarities between the views of Alisher Navoi who is the Sultan of the Ghazal dynasty and Erkin Vahidov who is Hero of Uzbekistan. Their views are comparable.

Key words: Alisher Navoi, Erkin Vahidov, word, gem, "Hayratu-l-abror", "So'z latofati", language, nation.

Biz hamisha olam sir-sinoatlarini bilishga intilamiz. Undagi o'zgarishlar qanday paydo bo'ldi-yu, taraqqiyot qay yo'sinda o'sib bormoqda buni bilishga harakat qilamiz, fikrlarimizni mushohada etamiz; to'satdan bir savol tug'iladi "Bizni o'z bag'riga olgan, shu qadar fikrlashga undayotgan olam asli qanday paydo bo'lgan?" Ko'pchilik manbalarda ochunning so'zdan bino bo'lganligi haqida fikr boradi. Bu bejiz emas, albatta. Olamning "yaral" (arabchasi "kun") so'zidan ibtido topganligi haqida hatto hazrati Navoiy asarlarida ham bir necha bor ta'kidlanadi:

So‘z kelib avvalu jahon so‘ngra,
Ne jahonki, kavn ila makon so‘ngra.

Jahonga avval so‘z kelgani, hali jahon bor bo‘lmay turib, borliq va makonga so‘z kelgani Qur’oni karim oyatlarida ham mavjud edi. Yaralmish dunyo vujudga kelishidan avval “kun-yaral!” degan ilohiy so‘z Yaratganning qudratini ro‘yobga chiqardi:

Chunki mavjud bo‘lsa nuktayi “kun”,
Bo‘ldi mavjud toza, yo’qsa kuhun.

Dunyoning yangidan mavjudligi, to‘g‘rirog‘i, tavalludiga “kun-yaral!” so‘zi sabab bo‘ladiki, yo‘qsa “kuhun” shaklidagi borliq dunyoga aylanarmidi?!¹¹ Demak, so‘zning qudrati olamning yaratilishi qadar beqiyos va serqirra.

Aytish mumkinki, uning qadrini bilganlar hamisha e‘zozda. Ana shunday so‘zning salmog‘ini teran anglagan daholardan biri, hech shubhasiz, Alisher Navoiydir. Shoir so‘zni har chog‘ ulug‘laydi, uning sharaflari nomiga tahsinlar aytadi.

So‘z guhariga erur oncha sharaf
Kim, bo‘la olmas anga gavhar sadaf.

So‘z ham misoli bir gavhar, lekin uning qiymati suv tubidagi moddiy injudan ko‘ra anchagina baland va betakror. To‘g‘ri, gavhar o‘zining go‘zalligi, noyobligi, jozibasi bilan insonni o‘ziga jalb qiladi. Biroq bunday dur-u javohirlardan baland-baland tog‘larni paydo qilganda ham birgina so‘zning qudratiga teng kelolmaydi. Navoiy so‘zni shu qadar yuksak e‘tirof etadi. Qolaversa, “Hayrat ul-abror” dostonining so‘zga bag‘ishlangan XIV bobi boshlanmasida so‘zga shunday ta’rif beradi: “So‘z ta’rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma’danining javohiri serobidurur”¹². Ya’ni so‘z “bashar vujudi sipehrining yulduzi” va “inson zotining

¹¹ Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. –B. 10.

¹² Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror. – T.:G‘afur G‘ulom, 2020. –B. 37-38. Keyingi misollardagi ham shu kitobdan olindi.

javhari”dir. Navoiy dahosiga, albatta, bu borada lol qolmay ilojimiz yo‘q.

Xo‘sh, ulug‘ shoirga izdosh bo‘lib, bu fikrlarni davom ettirgan yana biror bir zabardast ijodkor bormi? Javob o‘rnida, XX asr o‘zbek adabiyoti vakili, ulkan iste’dod sohibi, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning bu boradagi izlanishlari ko‘z oldimizga kelsa, ajab emas. Darhaqiqat, shoir Navoiydek so‘z qadrini bilgan, o‘z ona tilini qadrlagan, uning imkoniyatlarini to‘la ochib berishga intilgan chinakam ilm fidoyisi edi.

Erkin Vohidovning Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgani, uning ijodidan ta’sirlangani asarlarida, fikr va mushohadalar o‘rtasidagi o‘zaro mushtaraklikda ham namoyon bo‘ladi. A.Nurmonov ham “So‘z mulkiga sayr” nomli maqolasida bu haqida to‘xtaladi: “Men Erkin Vohidov qiyofasida, nimagadir, Alisher Navoiyni tasavvur qilardim. G‘azallarining purma’noligi, ohangning serjiloligi Navoiyni eslataverar edi. Mana, oradan yarim asr vaqt o‘tibdiki, tasavvurim aldamaganining guvohi bo‘lib turibman. Bugun “Yoshlik devoni”ni o‘qib, “G‘aroyib us-sig‘ar”ni, “So‘z latofati”ni varaqlab, “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni xayolinga keltiraman. Bu ikki she’riyat dahosi o‘rtasida qandaydir tutash nuqtalarni ko‘rish qiyin emas”¹³. Jumladan, so‘zga oid qarashlarda bu yaqqol ko‘rinadi.

Ul kishi so‘z bahrida g‘avvos erur,
Kim, guhari ma’ni anga xos erur.

Navoiy bu baytda go‘zal tashbeh qo‘llaydi. G‘avvoslar dengiz tubiga sho‘ng‘ib, chig‘anoqlardan durlarni izlashadi, agar jamiki so‘zlarni bir ummon deya tasavvur qilsak, nutq so‘zlovchi ham xuddi g‘avvos kabi bu bahrdan so‘z gavharlarini teradi. Yarqiroq, sara, qimmatbaho durni topish g‘avvosga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, o‘z nutqi uchun so‘zning eng go‘zalini tanlash ham notiqqa shu qadar bog‘liq. Zero, bu har bir kishining dunyoqarashidan, so‘z borasidagi mohirligi-yu mahoratidan kelib chiqadi va bevosita so‘zning ma’no gavharida tovlanadi.

Erkin Vohidov ham so‘zga ta’rif berish barobarida “So‘z latofati” nomli kitobini yozadi. “Asar dur marjoni donalaridek tizilib turgan 37

¹³ Nurmonov A. So‘z mulkiga sayr. Sharq yulduzi. – T.: 2014. 6-son. – B. 133.

maqoladan iborat. Shulardan 28 maqola tilimizning xilma-xil muammolariga, 9 tasi g‘azallar tahliliga bag‘ishlanadi”¹⁴. Shoir asarida Navoiyning so‘z haqidagi fikrlarini davom ettirgandek bo‘ladi:

So‘z – gavhar, oltin,
So‘zni baytga qadashdan oldin
Zargarlikning mashaqqati ko‘p.
Kaftingga qo‘y, to‘yib qara, o‘p.

Bu yerda ham shoir so‘zni gavhar, oltin kabi qimmatbaho dur-u javohirlarga mengzaydi, ularni o‘z mehnati bilan yanada go‘zal holatga keltiradigan kishi sifatida esa zargarlarni ko‘rsatadi. Keyingi misrada to‘g‘ridan to‘g‘ri shoirlarga murojaat qilinadi va zargar gavharni shodaga terishdan oldin obdon ko‘zdan kechirgani kabi baytga qadalishi kerak bo‘lgan har bir so‘zni o‘ylab ko‘rishga, mazmun-mohiyatini mushohada qilishga chorlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Erkin Vohidov ham Navoiy singari so‘zning qadr-qiymatini yuqori baholagan va hamisha e‘zozlagan.

Inson ham asli Alloh tomonidan yaratilgan maxluqot. Lekin Yaratgan bandalarini boshqa mavjudotlardan bir qancha sifatlarda ustun qilib qo‘ydi va insonni yaratilganing gultojiga aylantirdi. Unga tafakkur qilish, iymon keltirish baxti bilan birga so‘zlay olish qobiliyati ato qilindi.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.

Yoki:

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

kabi Navoiyning shohbaytlari so‘zimizning yorqin isbotidir.

Shunga hamohang tarzda Erkin Vohidov “So‘z latofati” kitobida shunday deydi: “Xoliqi odamzotga idrok va so‘z aytish ne‘matini berib, uni barcha xilqatlaridan ustun yaratdi, jonli va jonsiz olamga hokim qildi, Olamni idrok qilgan inson So‘zni idrok qiladi. So‘zni idrok qilib

¹⁴ Nurmonov A. So‘z mulkiga sayr. Sharq yulduzi. – T.: 2014. 6-son. – B. 134.

olamni yanada teranroq idrok qiladi. So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan, olamni oxirigacha anglab bo‘lmaganidek, So‘zning ham tubiga yetish imkonsizdir”¹⁵.

So‘zlarning umumiy majmuasi, tabiiyki, muayyan bir tilni paydo qiladi. Bu til millatning umumbashariy timsoliga aylanadi. Navoiy ham, Erkin Vohidov ham o‘z ona tillarining ravnaqi uchun, umrboqiyliigi uchun kurashganlar. Buni butun xalqqa So‘z orqali yetkazishga harakat qilganlar va uddalaganlar.

“Bir tomchi shabnamdek mo‘jaz va tiniq elchi degan sof o‘zbekcha turkiy so‘zda qancha hikmat bor! ...Bizning shunday ulug‘ she‘riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor. Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q”¹⁶.

Navoiyning ham turk tilini fors tilining keskin to‘lqinlaridan qanday asragani ma‘lum. Turkiy so‘zlarni qo‘pol deb bilguvchilarga, bu tilda yozilgan asarlarni dag‘al, o‘qishga noqulay deguvchilarga javoban birinchi bo‘lib turkiy tilda “Xamsa” bitishi esa tilimizning naqadar boyligini, serqirraligi-yu jilvakorligini qayta-qayta isbot qilgan.

Navoiy so‘z haqida yana bir qancha fikrlarni keltiradi. Quyidagi baytga e‘tibor qiling:

To‘rt sadaf gavharining durji ul
Yetti falak axtarining burji ul.

Bu misralar, hech shubhasiz, so‘zga berilgan eng oliy sifatlardan biri. To‘rt sadaf dunyoning to‘rt tomoni, to‘rt unsur(suv, havo, olov, tuproq) kabi ramziy ma‘nolarni anglatishini hisobga olsak, borliqning eng muhim jihatlarini birlashtirib turuvchi ham, ularning eng haddi a‘losi ham So‘zdir. Faqat bu emas, falak (koinot)dagi yetti sayyoraning birlashtiruvchisi ham bu so‘z, ya‘ni burj arabcha “yulduzlar turkumi” degani. Bundan kelib chiqadiki, birgina burj so‘zini aytish bilan yetti axtarni umumiy nomlagan bo‘lamiz, ya‘ni bari so‘zga borib taqaladi.

So‘zning qudrati shu darajadaki, u o‘likka jon baxsh etishi yoxud tirikni har ko‘yga solishi mumkin.

¹⁵ <https://kh-davron.uz>.

¹⁶ <https://kh-davron.uz>.

Soʻzdin oʻlukning tanida ruhi pok,
Ruh dogʻi tan aro soʻzdin halok.

Soʻzning nufuzi hamma zamonlarda ham yuqoriligini taʼkidladik, biroq “guruch kurmaksiz boʻlmaydi” deganlaridek, maʼlum kamchiliklar ham uchrab turadi. Erkin Vohidov aytganidek; “Oʻylasam, izlanishlarimiz kabi gʻofilligimiz-da bepoyon ekan. Soʻzni eshitamiz, soʻzlashni qotiramiz, lekin Soʻz magʻzini chaqish aksar xayolimizga kelmaydi. Nega shunday deymiz, deya oʻzimizga savol bermaymiz. Bu sinoat toʻla olam bamisoli olisdagi yulduzlardek noayon qolaveradi”¹⁷.

Navoiy va Erkin Vohidovning soʻzga oid fikrlaridagi oʻzaro mushtaraklikni koʻrdik. Har ikkala shoir ham soʻzning qadrini bilishga undaydi, uning Alloh tomonidan ilohiy mujda va neʼmat sifatida yuborilganini eslatadi. Insonning har bir aytayotgan soʻziga javobgarlik hissini uygʻotadi. Zero, soʻzning quvvati kuchli: insonni bir lahzada shodlik bogʻlariga olib ham kira oladi; gʻam-anduh botqogʻiga roʻbaro qilishi ham hech gap emas.

Demak, soʻz shu qadar buyuk tadrijiy yoʻllarni bosib kelgan ekan, biz buni tushunishimiz, soʻzlayotganimizda har bir soʻzning tub mohiyatini anglashimiz darkor. Eng muhimi, Soʻz deya atalmish goʻzal yaratiqqa mehr qoʻyishimiz kerak. Chunki soʻzga mehrli inson qalbida butun tiliga, jamiki dunyo lisonlariga boʻlgan muhabbat jo boʻladi. Bunday inson millatning ertasini oʻylaydi, yorqin istiqbolni koʻzlaydi. Zero, til masalasi hamisha millat taqdiri bilan uzviy bogʻliq. Bizdan talab qilinadigani ham shu aslida: millatimizning naqadar goʻzal va beqiyos soʻzi, tili borligini butun dunyoga koʻrsatish, soʻz sehrini namoyon qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: Gʻafur Gʻulom, 2020. – B. 262.
2. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 425.

¹⁷ <https://kh-davron.uz>.

3. Erkin Vohidovning soʻz qoʻllash mahorati. Toʻplam. – Guliston, 2020. – B. 561.

4. Nurmonov A. Soʻz mulkiga sayr. Sharq yulduzi. – T.: 2014. 6-son. – B. 208.

5. <https://kh-davron.uz>.

INSON OʻZING, INSON OʻZING!

*Toji NOROV,
falsafa doktori (PhD)*

Mana necha asrlarki, oʻz aql-zakovati bilan inson, butun koinot, dunyo sir-asrorlarini ochish bilan birga, oʻzining oʻzligi bilan bogʻliq savollarga javob topolmay hayron boʻlib kelmoqda.

Falsafa tarixida faylasuflar inson xususida turli qarashlar va fikrlar bilan taʼriflab kelganlar. Ular turli tuman. Biz ushbu maqolamizda inson falsafasida oʻzbekning ikki zabardast shoirlarining boshqa falsafiy maktablaridan mutlaqo farqli boʻlgan qarashlarini taqqoslashga harakat qilamiz. Bularning biri, – XV asrning buhronli davrida yashab ijod qilgan, oʻzbek mumtoz tili va adbiyotining asoschisi – Amir Alisher Nizomiddin Navoiy boʻlsa, ikkinchisi – Navoiydan qariyb 500 yil keyin dunyoga kelgan va XX-XXI asrlar tutashida yashab qaynoq ijod qilgan – Oʻzbekiston xalq shoiri, Oʻzbekiston qahramoni Erkin Vohidovlardir.

Alisher Navoiy ijodi juda rang-barang va koʻpqirrali boʻlib, u bevosita va bilvosita qalam yuritmagan mavzu deyarli qolmagan. Lekin, uning ijodi, amaliy faoliyatini umumiy qoliplovchi, umumlashtiruvchi xususiyat, inson va insonparvarlik mavzusidir. U inson mavzusining oʻz uslubi va tiliga xos tarzda, ham ilohiy ham dunyoviy talqinlarini mohirona ifoda etgan.

Alisher Navoiyda insoning kelib chiqishi bilan bogʻliq muammoga ilohiy (panteistik) tarzda yondoshuvni koʻramiz. Xususan, insoniyat tongi Alloh tomonidan Odam alayhissalomni yaratilishi bilan boshlanishi Qurʼoni karim oyatlari (suralari)ga asoslangan. Navoiyning deyarli hamma asarlarida borliq, olamda, koinotda odamning maqomi masalasi haqida gap borsada, uning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu mavzu ancha keng yoritilgan.

Jumladan, Alloh “xammartu tiynati odama biyadayya arabina sabohana” ya’ni “Odamni loyini qirq kun o‘z qo‘lim bilan qordim”¹⁸ kalimasiga asoslangan. Shu erda odamni boshqa jonzodlardan farqi, uning ongi, tafakkuri haqida ham Qur’oni karimning “Baqara” surasi 31 oyatidagi “Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi”¹⁹ va barcha maloyikalarni unga sajda qildirdi deyilgan²⁰ni kabi ilohiy asoslari bor.

Navoiy “Muhakamat ul-lug‘atayn”ni: “Insonni nutq va til bilan sharaflab, tilining shirinligi, fikr bayon etishining go‘zalligi, shukr aytishning shakari...tufayli uning(insonni) yaratgan, barcha boshqa jonzodlardan ulug‘ va mumtoz qilgan Ollohga hamdu sanolar bo‘lsin” degan teran gumanistik falsafa bilan boshlaydi²¹.

“Hayrat ul-abror”dagi so‘z (nutq) ta’rifiga bag‘ishlangan bobida:

*Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz²²,*

degan.

Mutafakkirning “Nazm ul-javohirda”:

*Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkin guhari sharifroq yo‘q ondin²³*

hikmati ham, inson, til, tafakkur bilan bog‘liq savollarga aniq javoblardan bo‘lib xizmat qiladi.

“Hayrat ul-abror” da:

*Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading²⁴,*

¹⁸ Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 16 т. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Т.: “Фан”, 2000. 99 б.

¹⁹ Қуръони карим. Бақара сураси, 31 оят. Qur’oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi. www.ziyouz.com kutubxonasi. 5 б.

²⁰ Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 16 т. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Т.: “Фан”, 2000. 99 б.

²¹ Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 16 т. Муҳакамат ул-луғатайн . Т.: “Фан”, 2000. 7 б.

²² Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр . Т.: “Фан”, 1991. 58 б.

²³ Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 15 т. Назм ул-жавоҳир . Т.: “Фан”, 1999. 125 б.

²⁴ Navoiy. A. MAT: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр . Т.: “Фан”, 1991. 26 б.

Navoiy Islomdagi so‘fiylik ta‘limotining Naqshbandiylik va YAssaviylik sulukida bo‘lganligi uchun uning olam va odam to‘g‘risidagi qarashlarida islomiy falsafa ustuvor bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos uslub va qarashlar namoyon bo‘ladi.

Jumladan, “Hayrat ul-abror”ning “Avalgi munojot” faslida, inson tabiatda Alloh yaratgan jonzotlarning eng ulug‘i va mukarrami ekanligi, olamdagi barcha tog‘u-toshlar, noz-ne‘matlarni yaratishdan asl maqsad, ularni inson manfaatiga xizmat qilishi uchun edi, deydi. Xususan, asarning uchinchi faslida:

*Ganjing aro naqdi farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.*

deydi.

Mutafakkir, insonni dunyodagi barcha jonzodlar ichidagi eng komili, Olloh-taoloning olamdagi, tabiatdagi yashirin sirlarini ham o‘z aqlu-zakovati, tafakkuri, zehni bilan barcha nozikligi bilan tushunib etuvchi, ma‘rifatli mavjudod tarzida ta‘riflaydi va tavsiflaydi. Insonni “Karramano”(Qur‘ondagi – “Biz odamni mukarram qildik” degan oyatga ishora qilingan) mukarram va eng go‘zal suratli qilib yaratilganini alohida ta‘kidlaydi.

*“Karramano” keldi manoqib anga,
“Ahsani taqvim” munosib anga²⁵*

“Saddi Iskandariy”da

*Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.
G‘araz odame anga olam tufayl,
Nekim g‘ayri olamdur, ul ham tufayl²⁶.*

Navoiy insoni ulug‘lash, sharifligini e‘tirof etish bilan birga xolisona baho berib “Lison ut-tayr”da:

²⁵ Navoiy Алишер. Ҳайратул-аброр. МАТ. 7 жилд, –Т.: Фан, 1991. -21 б.

²⁶ Navoiy. А. МАТ: 20 томлик. 11 т. Хамса: Садди Искандарий . Т.: Фан, 1993. 7-б.

*Bordir inson zodida oncha sharaf,
Lek, yamon axloqin etsa bartaraf²⁷,*

deydi.

“Hayrat ul-abror”ning asosiy mazmuni inson mavzusida ekan Navoiy insonning barcha yaxshi xislatlari va yomon illatlarini ta’riflab, ularni oqibatlarini falsafadagi sabab-oqibat kategoriyasiga mos tarzda yaxshilik – kamolot, yomonlik – zalolat, zavolga olib kelishidan saboq beradi. Xususan, xayru-ehson va baxillik, adabillik va tarbiyasizlik, hayo va behayolik, qanoat va tamagirlik, vafo va beoqibatlik, rostlik va yolg‘onchilik, to‘g‘rilik va gumrohlik, odillik va zolimlik kabi bir-biriga zid jihatlarni muqoyasa qilib, tahlil qilinadi.

Qanoat va tamagirlik haqidagi faslda, Sharq adabiyotidagi qanoat timsoli bo‘lgan Qone’ o‘z qanoatligi bilan podshoh bo‘lganligi, tamagirlik timsoli bo‘lgan Tome’ esa sharmanda va xor-zor bo‘lganligi hikoyasi bilan tasvirlaydi²⁸.

Mutafakkir Olloh insonga ko‘ngil, qalbi uchun butun koinotning sohibi sifatida e’tirof qiladi. Mutafakkir insonga ko‘ngilning egasi sifatida “xoja”, deb yuksak ta’rif beradi.

Navoiy, “Ka’ba butun dunyoning qiblasidir, ko‘ngil Ka’basi oldida esa uning hech qanday qimmatini yo‘q. Chunki, u Ka’ba odamlarning oddiy sajda qiladigan joyi, bunda esa (ko‘ngilda) Yaratganning jilvasi zohir bo‘lib turadi. Zero, ana shu ko‘ngil insonni eng oliy martabaga ham, eng tubanlikka ham olib boradi”²⁹, deydi.

Navoiy ko‘nglida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda samimiylikka bo‘lgan ishonch yo‘qdek. Xususan, uning “Mehriboni topmadim”, “Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim”, “Do‘stlar, ahli zamonda mehr umidi tutmangiz”, “Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim”, “Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas”³⁰ kabi ko‘plab g‘azallarida ham aynan oqibatsizlikdan nolish kayfiyati ustuvor.

²⁷ Navoiy Aliшер. Лисон ут-тайр. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. 157-б.

²⁸ Navoiy Aliшер. Ҳайратул-аброр. МАТ. 7. жилд, – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 173-176.

²⁹ Navoiy Aliшер. Ҳайратул-аброр. МАТ. 7. жилд, – Тошкент: Фан, 1991. –Б. 72-82. Яна қаранг “Ҳайрат ул-аброр” насрий баён (насрий баёнчи А.Ҳайитметов). –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. –Б. 18-19 б.

³⁰ Ўзбек шеърляти антологияси. Беш томлик, Т 2. – Тошкент: Ўздабийнашр, 1961. –Б. 165-181.

“Farhod va Shirinda” inson hamma harakatlarini o‘z ongi va tafakkuri bilan va uni faqat yaxshi ishlarga yo‘naltirsa, u o‘z sharifligini saqlashini aytadi:

*Ki har ishniki qildi odamizod,
Tafakkur birla bildi odamizod³¹.*

Tafakkur, ko‘ngil bilan bir vaqtda Navoiyni tilni, inson taqdirini belgilovchi omil sifatida ta’riflaydi. Til nafaqat har bir millatning, xalqning millat va sifatidagi timsoli, balki insonni inson ekanligi timsoli deb qaraydi. Xususan uning insonni boshqa maxluqotlardan ajratuvchi mo‘‘jiza va fazilat bu, - til ekanligini:

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim guhari sharifroq yo‘qdir ondin,

degan mashhur hikmati misolida ma’lum.

Navoiyning “Olam ahli bilingizki, ish emas dushmanlik, yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorliq ish”, “Davron elining jismida ham jon bo‘lg‘il, ham jonlarig‘a moyai darmon bo‘lg‘il”, degan purma’no hikmatlari asrlar osha insoniyatni yaxshilik, saxovatlilik, muruvvatga undovchi bong sifatida yangrab kelmoqda.

“Saddi Iskandariy”da Navoiy Iskandarni to‘rtta insoniy fazilatning mujassamida ifodalaydi: podshoh Iskandar, hakim (olim) Iskandar, payg‘ambar-Iskandar va umumlashtiruvchi insoni komil-Iskandar.

Navoiyning Foni taxallusi bilan forsiy tilda yozgan “Ruh ul-quds”, asarida: “Inson jismini turfa tarkiblardan yaratding. A’zolarini tuproqdan joy-joyiga qo‘yib, zebo va bebaho qilib yasading... To‘rt bir-biriga zid unsurlarni yagona tarkib (inson vujudi)ga birlashtirdingki, ular tuprog‘u olov va suvu havo edi. bu erda Navoiy insonni tabiatida ham shu unsurlarga xos jihatlarni ramziy tarzda ishora qiladi. ya’ni inson tuproqdek vazminlik, olovdek yonishi, havodek engillik, suvdek saxovatlik kabi tabiat mujassamligini ifodalaydi”³².

³¹ Navoiy Алишер. Фарход ва Ширин. МАТ. 8 жилд. – Тошкент: Фан, 1991. -122 б.

³² Navoiy Алишер. Рух ул-қудс. 20 жилдлик МАТ. 20 жилд. Т.: “ФАН” 2003. 209 б.

Ulug‘ Navoiydan deyarli 500 yil keyin dunyoga kelgan ulug‘ shoir Erkin Vohidov, o‘z salafining inson haqidagi armonli qarashlarini uzviy davom ettirdi. Shoirning ijodining ham asl mazmuni asosan inson mavzusiga bag‘ishlangani holda, o‘zining inson qasidasida:

*Sobitu sayyorada
Inson o‘zing, inson o‘zing.
Mulki olam ichra bir
Hoqon o‘zing, sulton o‘zing,*

Shoir, insonni koinot mehbari, mukarramligi, uning ulug‘ va mukarramligiga bois esa, insonning tafakkuri, fikrati, tufayli ekanligi, lekin, shu bilan birga inson shunday yomon illatlar botqog‘iga g‘arq ekanligi afsus bilan ta’kidlaydi:

*Mash’ali fikrat — sening,
Ham changali vahshat sening,
G‘ayratu g‘aflat sening,
Javlon o‘zing, uryon o‘zing.*

Bu g‘oya ulug‘ Navoiyning:

*Bordir odam zotida oncha sharaf,
Lek yomon axloqin etsa bartaraf,*

hikmati bilan hamohangdir.

Koinotda, zaminda yagona jonzod ekanligini e’tirof qiladi. Lekin, inson o‘zi, qanchalik dono, aql-zakovatli bo‘lmasin, u qilmishlari oqibatlarini bartaraf qilolmay hamon hayronu lol ekanligini:

*Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib
Hayron o‘zing, hayron o‘zing,*

tarzida qalamga oladi

Umuman, Alisher Navoiy va Erkin Vohidovning inson xususidagi qarashlarini quyidagicha xulosalash mumkin:

- inson olamdagi eng oliy va mukammal mavjudot;
- insonga ong – tafakkur va til shariflik ulug‘lik xos lekin shu bilan birga insonda yomon illatlar ham bor;
- inson qisqa umri davomida baxtli va farovon yashashi kerak, uning uchun u insoniy kamolotga erishishi lozim, o‘zining yomon illatlarini bartaraf qilmog‘i shart;
- unga esa go‘zal xulq-atvorga erishishi lozim ya’ni yuksak ma’naviyatli bo‘lishi lozim;
- uning uchun inson bolasi bolaligidan dunyodagi, balki olamdagi barcha bilimlarni egallashi, ya’ni ma’rifatli bo‘lishi kerak;
- inson inson bo‘lsa, inson insonparvar bo‘lsa, u komil, o‘shanda insoniyatning asrlar, mingyillar davomidagi armoni bo‘lgan munosib baxtiyor hayot tarziga erishadi...

VATANDOSHLIK VA ZAMONDOSHLIK SAODATI

*Rustam JABBOROV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

O‘zbek adabiyoti bo‘stonini Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Nodira, Ogahiy singari buyuk shoirlar yaratib qoldirgan muattar nazm gullarisiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, unda ustoz Erkin Vohidov yaratgan nazm chechaklarining ham o‘z bo‘yi, o‘z o‘rni bor.

...Adashmasam, buyuk shoirimizning ijodi bilan ilk bor ikkinchi yo uchinchi sinfdaligimda, mendan ikki-uch yosh katta ammamning darsligida tanishgandim. Bu satrlar ilk o‘qigan paytimdayoq xotiramda mahkam muhrlanib qolgandi:

*Hayqiraman, tog‘lar bag‘ridan,
Gumburlagan sado keladi,
Ona erning otash qa‘ridan
O‘g‘lim degan nido keladi.*

Ha, bu shoirning mashhur “Nido” dostoni edi. Farzandning otaga bag‘ishlangan qalb nidosi! Aynan shu misralar menda she’riyatga, adabiyotga, ijodga havas uyg‘otgan bo‘lsa, ajab emas. SHundan so‘ng, xalqning allaqachon qalb mulkiga aylanib bo‘lgan, uyimizda har kuni yangraydigan, mashhur hofizlar ijrosidagi o‘lmas qo‘shiqlarning aksariyati ham shu buyuk shoirning qalamiga mansub ekanini bilib oldim.

Yoshim ulg‘ayib, sinfdan-sinfga o‘tib borganim sari Erkin Vohidov ijodiga, uning she’riy dunyosiga ham shu qadar chuqur kirib boraverdim. Uning ash‘orini boshqalar bilan taqqoslar ekanman, “nahot shu qadar mukammal, shu qadar teran mazmunli ijod namunalarini yaratish mumkin bo‘lsa?” deya o‘z-o‘zimga savol berardim.

10-sinfda o‘qiyotganimda shoirning “Inson qasidasi”ni darsda yoddan o‘qib berib, ustozning olqishini olganim esimda. O‘shanda ko‘p sinfdoshlarim “buncha uzun she’rni qanday yodlading?” deb so‘rashgandi. Men esa bu savoldan ajablangan edim: Axir bu qasidani o‘qib turib, yodlamaslik mumkinmi?

Siz ham o‘sha jozibador misralarni esladingizmi?

*Sobitu sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir karvon o‘zing, sarbon o‘zing.*

Mumtoz adabiyotda zulfoyatayn deb atalmish she’riy san’at bor. ya’ni bitta she’rda ikkitadan qofiya ishlatiladi. Bu san’atdan ustalik bilan foydalanish har qanday shoirning qo‘lidan kelavermaydi. Chunki, ohangdosh, qofiyadosh so‘zlarni xuddi ipga munchoqni tergandek tartib bilan, donalab terib chiqishning o‘zi bo‘lmaydi.

Bu murakkab vazifa ushbu qasidada mohirona uddalangan. Tasavvur qiling 18 baytdan iborat bo‘lgan bu she’riyatda ikkitadan qofiyadosh so‘zlarni joylashtirib chiqishning o‘zi bo‘ladimi? Asar nafaqat shakl, balki mazmun jihatidan ham mukammallik kasb etgan. ya’ni o‘rniga tushmagan birorta so‘zni topolmaysiz.

*Zarrani bunyod etib, dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib, hayron o‘zing, nolon o‘zing!...*

Ha, bu asar chindan ham Insonning ibtidosidan intihosi qadar ochiq va achchiq tahlil etilgan komil bir ijod mahsuli. Bu qasida har birimizni mushohaga, mulohazaga, munozaraga chorlaydi. Biz kimmiz o‘zi? Nima uchun yashayapmiz? Hayotdan maqsad-muddaomiz ne?

Bilmadim, har qalay ustozning bu asariga munosib baho berish, uni tahlil etish bizdek bir no‘noq adabiyot muxlisiga munosib ish emasdir. Ammo, quyidagi voqeani shu o‘rinda eslab o‘tish ayni o‘rinli bo‘lsa kerak...

2014-yilning aprelida xalqimizning buyuk hofizi Sherali Jo‘raev xonadonlarida o‘zbek san’ati va madaniyatining etakchi vakillari jamlangan bir yig‘inda kamina ham ishtirok etgandim. Shunda buyuk alloma, marhum Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf so‘zga chiqib bir gapni aytgandilar:

- “Inson qasidasi” mukammal bir adabiyot durdonasidir. Agar Erkin Vohidov shu qasidadan boshqa she’r yozmaganida ham, Sherali Jo‘raev bundan boshqa qo‘shiq kuylamagan taqdirda ham ularning nomi baribir madaniyatimiz tarixida mangu qolgan bo‘lur edi.

Menimcha, ana shu ta’rifning o‘zi etarli!

Biroq, ustozning boshqa yuzlab she’rlari borki, ularning barchasida faqatgina ustozning ijodiga xos hassoslikni, teranlikni, mukammalikni ko‘ramiz. Odatda, ijod ahlining siyrati ularning ijodida yaqqol aks etadi, deyishadi.

Ustozning choynak va piyola haqidagi mana bu she’rini bilmagan o‘zbek kitobxonlari bo‘lmasa kerak:

*Garchi qancha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
SHunday ekan, manmanlik nechun?
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan
Piyolaning shuning uchun ham
Hamma o‘par peshonasidan...*

Kamtarinlikni ulug‘lovchi g‘oyat go‘zal, maftunkor, o‘ziga xos misralar. Ustoz shoirimiz nainki she’rlari, balki o‘zining sokin tabiati

bilan ham kamtarinlik bobida o‘rnak bo‘la olishlari haqida u kishini yaqindan biladiganlardan ko‘p bor eshitgandim.

Garchi ustozni juda ko‘p tadbirlarda ko‘rgan bo‘lsam ham, yaqiniga borib, so‘rashishga jur‘atim etmas, qandaydir salobati bosardi meni.

Ancha yillar ilgari hozirgi O‘zbekiston Milliy axborot agentligi joylashgan binoning oldida bir guruh ijodkorlar suhbatlashib turganimizda Erkin aka kelib qoldi. Hammamiz u kishiga baravar salom berdi. Shoir har birimiz bilan qo‘l berib, samimiy so‘rashib chiqdi. Men bilan ham xuddi o‘n yillardan beri gaplashib, so‘rashib yurgan yaqin inson kabi so‘rashganidan ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi.

Holbuki, u kishiga ham kibr ham yarashadi, viqor bilan salomga bosh irg‘ab o‘tib ketaversa ham hech kim aybsitmaydi. Ammo, inson qanchalik yuksalsa, ulug‘lik maqomiga etsa, shu qadar kamtar, oddiy bo‘lib qoladi, deganlari to‘g‘ri ekan...

Holbuki, hali ikkita-uchta xom-xatala kitobi chiqib, to‘rt-beshta she‘ri qo‘shiqqa aylanib, zamonaviy tilda aytganda “xit” bo‘lib ketgan “shoircha”larning takabburligini ko‘rib, yoqa ushlaysiz. Qo‘yib bersa, o‘zlarini Navoiyga tenglashtirishdan ham toyishmaydi.

Ular Erkin akaning birgina shu baytidan ibrat olishsa koshkiydi:

*Mening shoirligim yolg‘ondur, ammo,
Fuzuliy she‘riga oshiqligim rost.*

Mana, oddiylik va kamtarinlik, adabiyotga bo‘lgan sodiqlik, fidoyilik, hurmat-e‘tibor namunasi.

Ustoz shoirimizni nafaqat Vatanimizda, balki xorijda ham juda yaxshi tanishlari, hurmat qilishlariga shaxsan guvoh bo‘lganman.

O‘n yilcha ilgari xizmat safari bilan Ozarboyjonda bo‘lgandim. Mezbonlar bilan bir spektakl tomoshasiga boradigan bo‘ldik. Mana, Ozarboyjon Milliy akademik teatri. Uning qarshisida. Sharq she‘riyatining buyuk namoyandasi Muhammad Fuzuliyning muhtasham haykali salobat to‘ktib turibdi. Bir paytlar sevimli shoirimiz ana shu yuksak obidaga bag‘ishlab ajoyib she‘r bitgan edi:

*Ellar, bir daqiqa to‘xtang esishdan,
Sernavo bulbullar, sayramang biroz,*

*Karbalo dashtida yayov kezishdan
Charchab dam olmoqda Fuzuliy ustoz...*

Beixtiyor hamrohlarimga ana shu misralarni o‘zbek tilida yoddan o‘qib berganimda, ular she‘r muallifi bilan qiziqishdi. Aytdim. Shunda hamrohlarimdan biri, etakchi gazetalardan birining muharriri ustozning “O‘zbekim” qasidasidan ikki misrani ozariy lahjada o‘qidi:

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o‘zbekim,
Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon o‘zbekim...*

Ha, ustoz haqida bunday gaplarni soatlab gapirish mumkin. U kishi bilan bir zamonda, bir Vatanda yashash har birimizning baxtimiz bo‘lsa ajab emas.

ERKIN VOHIDOV – EL SUYGAN ADIB

*Nafisa YUSUPOVA,
O‘zMU O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodiga, uning ijodiy merosiga ilmiy to‘xtalib o‘tilgan. Yozuvchi ilmiy – adabiy merosi, she‘riy to‘plamlari alohida mushohada qilingan. Shuningdek, yozuvchi uslubi va she‘rlarida qo‘llangan badiiy tasviriy masalalar alohida yoritib berilgan.

Kalit so‘lar. Mumtoz, adabiyot, faxrl, tuyg‘u, falsafasi, satira, yumor.

O‘zbek adabiyotining zabardast shoir, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o‘z she‘rlarida millat dardini ochiq ayta olgan, yuksak tuyg‘ular haqida kuylagan, ayni vaqtda, faqat o‘zigagina xos hazil-mutoyiba bilan jamiyat hayotidagi muammolarga oyna tutgan. Erkin Vohidov XX asrning 70-yillarida o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga katta ahamiyat kasb etdi. U mumtoz va zamonaviy she‘riy an‘analardan foydalanib, o‘lmas she‘rlarni yaratdi.

Ma'lumki, har bir mamlakat she'riyatida o'ziga xos janr turlari mavjud, Shu jumladan o'zbek she'riyatida ham bundan mustasno emas. Erkin Vohidov she'riyatiga nazar tashlar erkanmiz, shoirning ijodiy merosidan o'rin olgan she'rlari ham turli janrlarda yozilganinin guvohi bo'lamiz. Masalan, "orzu bulog'i", "Bahmal" she'rlarini lirik-epik, "nido", "quyosh mamlakati" kabi she'rlarini lirik, "Chodirda yozilgan doston" she'rini doston-xronika, "ruhlarning isyoni" nini esa falsafiy janrga kiritishimiz mumkin.

Shoirlarga shuhrat keltirgan she'r – "Nido" she'ridir. She'r harbiy haqiqatni aks ettiradi. Unda hikoya-lirik "men" nomidan paydo bo'ladi. She'rni o'qish jarayonida ma'lum bo'ladiki, she'rdagi lirik "men" bu – shoirning o'zi. She'rdagi shoirning bolaligi va urushda vafot etgan otasi bilan bog'liq xotiralarni aks ettiriladi, bu shoirning she'rdagi aks ettirgan his-tuyg'ulari namoyon bo'ladi.

Erkin Vohidov g'azal janrida ko'p she'rlar yaratdi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Erkin Vohidov haqida: "Mumtoz adabiyotimizning oltin eshiklari" abadiy bekiladi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasida birinchilardan bo'lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi", – deb yozgan. Erkin Vohidov g'azallari shoirning o'z aruzi, o'z g'azali shakliga aylanganligi uchun ham milliy adabiyotimizda, she'riyatimizda muhim xodisa bo'ldi. Uning lirikasida mumtoz she'riyatga xos musiqiylik, ohangdorlik namoyon bo'ldi.

*Tun bilan yig'labdi bulbul G'uncha hajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib Qolmish uning yaprog'ida.*

Nihoyatda go'zal, mangulikka muhrlanib qolgan benazir holat, jarayonning bu qadar nafis, chiroyli, sirli-sehrli ohanglarga yo'g'rilgan ifodasini "Yoshlik devoni" dagina uchratish mumkin. Erkin Vohidov mumtoz adabiyotimizning ming yillik go'zal va boy an'alarini yangi pog'onaga ko'targan falsafiy shoir. Taniqli adabiyotshunos olim Tursunoy Sodiqovning "El ustozim" nomli kitobida shoir ijodidagi Alisher Navoiy an'alaridan foydalanganligi haqida batafsil bayon qilingan.

Erkin Vohidov asarlarining mavzu, ma'no doirasi keng. Uning ijodida Vatan, xalq tarixi, taqdiri tasviri, ona yurti, uning boy, shonli tarixi bilan faxrlanish tuyg'usi muhim o'rin tutadi. Bu tuyg'u, ayniqsa,

“O‘zbekim” qasidasida o‘zining yorqin ifodasini topdi. O‘sha yillarda “O‘zbekim” qasidasi shoir she‘riyatining eng avj pallasi bo‘lgan. Darsliklardan joy olgan bu asar millatning sha‘ni-g‘ururi toptalgan, tarix darsliklarida xalqimizning shonli o‘tmishi qora bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug‘ otaga, partiyaga hamdu sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug‘lovchi “O‘zbekim” qasidasi g‘ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi. Shu tariqa “O‘zbekim” 60-yillari birin-ketin chop etilgan beshta she‘rlar to‘plami, “Nido”, “Palatkada yozilgan doston”lardagi ijodiy izlanishlarning muayyan yakuni bo‘ldi. Qasidani o‘qir ekansiz o‘zbekning “Pomiru Tyanshonga tengdosh”, “Ming asrlar ichra pinhon” tarixi birma-bir ko‘z oldingizdan o‘tadi.

Yillar o‘tgan sari Erkin Vohidov ijodida fikrlar ufqi kengayib, his-tuyg‘ular tobora serjilo bo‘lib bordi. Shoir o‘z asriga mos, faqat millatning emas, butun olamning shavqini, dardini o‘zida mujassam etadigan she‘rlar yozishni orzu qildi. Bu orzu va izlanishlar samarasi 70-80 yillarda yaratilgan “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Kuy avjida uzilmasin tor”, “Yaxshidir achchiq haqiqat” kabi to‘plamlardan joy olgan she‘larida, “Ruhlar isyoni”, “Istambul fojiasi” dostonlarida yaqqol ko‘rindi. Bu asarlardagi har bir so‘z, har bir satrda insoniyat qismatidan bezovta qalb kechinmalari, zamon taqdiriga javobgarlik hissi bilan urayotgan yurak hayajonlari lovullab turadi. Shoirning “Inson”, “Sirdaryo o‘lani”, “Arslon o‘ynatuvchi” kabi o‘tkir fuqarolik ruhi yo‘g‘rilgan doston va she‘rlari XX asr milliy she‘riyatining nodir namunalari qatoridan joy oldi.

Erkin Vohidov ijodida Vatanni, tug‘ilib o‘sgan el-yurtni e‘zozlash, o‘lkamizning go‘zal, fusunkor tabiatini tasvirlash, uni madh etish alohida o‘rin egallaydi, u tug‘ilgan maskani Farg‘ona bilan iftixor etgan:

*Bu vatanda bir makon bor,
Men uchun bir donadir.
Ko‘hna Turkiston sadaf bo‘lsa,
U yer durdonadir.
Kim parixona deb aytar,
Kim uchun Parkonadir,
Ahli she‘r ta‘rifida*

*Uyqudagi jononadir,
U mening uyg‘oq diyorim
O‘ktamu mardonadir,
Maskanim Farg‘onadir,
Farg‘onadir, Farg‘onadir.*

Erkin Vohidov she‘riyatining muhim bir qirrasini quvnoq qahqaha, samimiy satira va yumor tashkil etadi. Hayotda shoir nihoyatda quvnoq, dilkash inson bo‘lgan; u har qanday qaltis daqiqalarda topqirlik va hozirjavoblik, hazil va yumor bilan vaziyatdan chiqib keta oladigan so‘z ustasi bo‘lgan. Adibning hajviy asarlari va shoir hayotida yuz bergan voqealar haqida Umarali Normatovning “Ijod sehri” kitobida batafsil bayon qilingan. Adibning “Manfaat falsafasi”, “Sen menga tegma”, “Donishqishloq latifalari” kabi she‘rlarida ham komil inson uchun kurash muammosi bosh g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Vohidov E. Dil tubiga cho‘kkan lahzalar. – T. : Sharq, 2013. – 128 b.
2. She‘riyatda sehr sohibi: E.Vohidov she‘riyatiga bir nazar // Normatov U. Ijod sehri. – T. : Sharq, 2007. – B. 127-136.
3. Shoir tabassumi // Normatov U. Ijod sehri. – T. : SHarq, 2007. – B. 162-173.
4. So‘z sehri: Erkin Vohidov hayoti va ijodiga chizgilar. – T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 136 b.

ABADIY BARHAYOT SATRLAR

*Shaxnoza XO‘JAMBERDIYEVA,
NamDU dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada xalq shoiri E.Vohidovning “O‘zbekiston bog‘lariga qaytib keldi bulbullar”, “Yosh shoirga”, “Demang shoir tinib ketdi”, “Kichkina kattalar” nomli she‘rlari tahlil etilgan. Tahlil jarayonida shoirning tabiat manzaralarini o‘ta mohirlik bilan tasvirlay olishi, kitobxonning ko‘z o‘ngida o‘sha ko‘rinishi

yaqqol namoyon bo'lishi "O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar" she'ri tahlili misolida aytib o'tiladi. Shuningdek, shoirning she'rlarini o'qigan odam uning tasviridagi obrazlarni aniq ko'rishi, ularni tasavvur qila olishi, bu uning lirik she'rlarida ham o'z aksini topganligi ta'kidlanadi. Shoirning go'zal tavirlar, o'xshatishlar bilan ifodalangan fikrlari bugungi jamiyatimiz uchun ham juda ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: g'azl, doston, mahorat, tasvir, shoir, mavzu, manzara, davr, ijodkor.

Erkin Vohidovning qaysi asarini o'qimaylik, u xoh g'azal, xoh doston bo'lsin – ularda o'ziga xos bo'lgan bir jihat bor – beqiyos tasvir mahorati. U, ayniqsa, tabiat manzaralarini o'ta mohirlik bilan shunday tasvirlay olardiki, kitobxonning ko'z o'ngida o'sha ko'rinishi yaqqol namoyon bo'ladi:

*Butun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg'ondim,
Bir-biriga navbat bermay qo'shiq aytdi bulbullar
Shukr bo'lsin, bog'larimga yana qaytdi bulbullar.
(”O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar”)*

Lekin shoir ushbu she'ri davomida yana hurlik mavzusiga qaytadi:

*Tomigacha paxta ekan elda yetar bulbullar,
Osmonidan zahar yoqqan yurtida ketar bulbullar!*

Hozirgi yoshlar – baxtli avlod. Ular o'sha qiyinchilik zamonlarini ko'rishmagan. Har bir qarich yerga ekilgan yakka hokimligi, ushbu ekin yaxshi rivojlanishi uchun yengil sochiladigan kimyoviy moddalarni ular bilishmaydi. O'zbekistonni hosildor yerlari paxta uchun berilgan, butun bir o'lka ulkan paxta plantatsiyasiga aylantirilgan edi. Sovet Ittifoqining g'arbidagi shaharlarda, aniqrog'i, Rossiyada bolalar po'rim kiyinib, sayrga chiqqan paytda o'zbek xalqi, farzandlarini yetaklab, azonda dalaga yo'l olar, u yerda qorong'i tushib, ko'zlari hech narsani ilg'ay olmay qolguncha mehnat qilishardi. Yozda, rus bolalari turli dam olish maskanlariga yo'l olganlarida, kuzda ular kino va teatr, muzeylarda vaqtlarini xush

o‘tkazayotgan vaqtlari ham bizning bolalar yana dalada ishlayotgan, ularning boshidan og‘u sochilayotgan bo‘lardi. Hukumat paxtani „Oq oltin“ deb atardi, lekin shu boylikni yetishtiruvchi xalq o‘ta qashshoq yashardi. Paxta rejasini bajarish uchun odamlarning shaxsiy tomoqarlarini, bog‘lar, to‘qaylar ham shudgor qilinib, paxta ekilardi. Buning natijasida butun O‘rta Osiyo hududining ekotizimiga jiddiy putur yetgan edi. Zaharlangan havodan nafas olishga qiynalgan xalq erkni sog‘ingan edi. Buni shoir quyidagi satrlarda aks etadi:

*Chamanzorlar shudgor bo‘lsa bulbul qandoq yayrasin,
Erk qushchasi erk yo‘q qushchasi qandoq qilib sayrasin?
(“O‘zbekiston bog‘lariga qaytib keldi bulbullar”)*

Mustabid tuzumdan qochib, o‘z vaqtida bir qancha vatandoshlarimiz yurtimizni tashlab, o‘zga ellardan panoq izlashga majbur bo‘lishgan. Ular yillar davomida ona-yurt sog‘inchi bilan yashashgan.

Erkin Vohidov Sovet ittifoqining mustabid tuzum davrida ijod qilgan. Bu davlatning siyosati uning tarkibidagi turli millatlarning go‘zalligini, milliy g‘ururini egib, yo‘q qilish, ulkan mamlakatning aholisidan bittadan yangi millat yaratish bo‘lgan. Shuning uchun ham o‘zligini anglashga intilgan odam borki, “millatchi” deb e‘lon qilingan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlarimiz ana shunday vaziyatda ishlashga majbur bo‘lishgan. Erkin Vohidov „O‘zbeqim“ qasidasini yozgan paytda qanday tazyiqlarga uchragani barchamizga ma‘lum.

Yangi davr boshlanganini shoir o‘z ijodkor qalbi bilan tez angelaydi, endi vatanga muhabbat bilan yog‘rilgan she‘rlarini bemalol yozish mumkinligini mamnuniyat bilan angelaydi. U buni yangi davr shoirlari ham anglashini istaydi va ularni bu yo‘lda dadil bo‘lishlarini xohlaydi. Erkin Vohidovning bu fikrlari quyidagi she‘rida o‘z ifodasini topgan:

“Yosh shoirga”

*Tilay g‘ayrat senga, yosh shoir ukam,
Fazl-u hikmat senga, yosh shoir ukam.
Biz ham kuylab o‘tdik imkonlar qadar,
Endi navbat senga, yosh shoir ukam.*

*Mustaqil, hur ma'vo seningdir, sening
Ozod, emin sado seningdir, sening
Biz shivirlab aytgan tuyg'uni endi,
Kuylash oshikora seningdir, sening.
Nafosat yurtiga posbon bo'l o'g'lim.
Tili shamshir, ko'ksi qalqon bo'l, o'g'lon.
Avvalo, shoir bo'l, undan ham avval,
Shu yurtga o'g'lon bo'l, o'g'lon bo'l, o'g'lon.*

Shoir bu she'rdagi izdoshlarini eng avval shu yurtga sodiq farzand bo'lishga chaqirmoqda. Hayotda ko'pni ko'rgan tajribali insonning bunday o'giti shoir yoki yozuvchi bo'lmoqni niyat qilgan har qanday yosh ijodkor uchun shoir bo'lishga arzigulik.

Yurtimizda ozodlik shamoli esa boshlagan paytda yurtboshimiz o'z atrofiga ziyoli, chin vatanparvar insonlarni yig'a boshladi. Bunday odamlar orasida Erkin Vohidov ham bor edi.

U 1990-yildan boshlab jamiyat va davlat faoliyati bilan band bo'ldi, 1990-1995-yillar davomida O'zbekiston Oliy Kengashining Raisi lavozimida, 1995-2005-yillarda Oliy Majlisning xalqaro munosabatlar va parlamentlararo aloqalar kengashi raisi 2005-yildan 2009-yilgacha esa Oliy Majlis Senatining fan, maorif, madaniyat va sport masalalari bo'yicha kengashi raisi lavozimida ishladi. Qaysi lavozimda bo'lmasin u ishga jon-jahdi bilan kirishdi, chin dildan sevuvchi yurtiga iloji boricha ko'proq foyda keltirishga harakat qildi. Albatta, davlat ishlari bilan band bo'lgan paytda shoir ijodga nisbatan kam vaqt sarflashiga to'g'ri kelardi. Buni u o'zi ham yaxshi bilardi. Uning yangi she'rlarini intiqlik bilan kutgan muhlislariga qarata shunday deydi:

*Demang, shoir tinib ketdi,
Siyosatga inib ketdi.
Va yo aytmangki, mo'rt toladek
Shamollarda sinib ketdi.
Siz, ey lutf bahrida g'avvos.
U sizni sog'inib ketdi.
Demang, shoir jimib ketdi,
G'azal yozmay tinib ketdi,
Tinib ketsa bilingizki,*

Yog‘och otga minib ketdi.

(“Demang shoir tinib ketdi”, 1996)

Shoirning she‘rlarini o‘qigan odam uning tasviridagi obrazlarni aniq ko‘radi, ularni tasavvur qila oladi. Bu uning lirik she‘rlarida ham o‘z aksini topgan.

Erkin Vohidov faol fuqaro sifatida yurtimiz har tomonlama rivojlanishini, dunyoning eng oldi mamlakatlari qatoriga kirishini chin dildan istaydi. Bu intilish yo‘lidagi ayrim to‘siqlarni esa olib tashlashni xohlaydi. Ana shunday illatlardan biri deb ayrim eskicha ish yuritadigan rahbarlarning ishlarini aytdi. Ularni taraqqiyot va rivojlanish dushmanlari deb ataydi. Quyidagi She‘r ham ana Shu muammoga atalgan. U “Kichkina kattalar” deb ataladi. Nega shoir aynan shunday sarlavha qo‘ygan? Chunki davlatning eng katta rahbaridan chiqqan tashabbusga joylardagi kichik lavozimdagi rahbarlar tomonidan tushov qo‘yiladi, bajarilish muddati cho‘ziladi, natijada kelajagi bordek tuyulgan qiziqarli loyiha qog‘ozda ilk ko‘rinishda qolib ketishga mahkum etiladi. Yuqori lavozimlarda ishlagan Erkin Vohidov bunday kichkina kattalar bilan yaqindan tanish bo‘lgan, ular qanday ish yuritishlaridan xabardor bo‘lgan.

*Martaba berganda fe‘l ham bersa keng,
Adl-u muruvvatdan qilmasa judo.
Dargohi kattalar bor bo‘lsin lekin
Kichik kattalardan asrasin Xudo
Sen biror eshikka bosh urib borsang,
Yuz bor haq bo‘lsangda-bitmasa ishing,
Bilki, ko‘ksi ichra, qalb emas, harsang,
Kichkina kattadir uchragan ishing.
Sen olim bo‘lsang-u ixtiro bilan
Lol qolgudek bo‘lsang agar dunyoni,
Senga yo‘l ochguncha bir imzo bilan,
Kichkina kattaning uzilar joni*

(“Kichkina kattalar”)

Shoir bunday odamlarga insof tilaydi, ularga amal bog‘lab berilmaganini eslatadi. She‘r so‘ngida shunday odamlarga insof tilab qoladi:

*Men She'r aytdim, xolos, ne g'am qilmayman,
Ne iloj, iztirob jonga o't qolar.
Faqat ko'nglingizga iymon tilayman
Diyonat tilayman kichik kattalar*

(“Kichkina kattalar”)

Shoirning go'zal tavirlar, o'xshatishlar bilan ifodalangan yuqoridagi fikrlari bugungi jamiyatimiz uchun ham juda ahamiyatli.

Erkin Vohidov o'zgacha shoir. Uning ijodining o'ziga xosligi shundaki, u qisqa satrlarga olam-olam ma'noni jo qila oladi. Shoirning to'tr, olti yoki sakkiz satrlari orqali ba'zilar butun bir dostonda ham ochib bera olmaydigan ma'no ifodalanadi. Masalan, quyidagi she'rni olaylik:

*Hamma bolam deydi
Hamma bolam deydi
Shu kori olam!
Bola ulg'ayib, so'ng u ham der bolam,
Suv pastga oqadi.
Ota mehrini
Farzandiga berib qarz uzar odam.*

Bu she'rda muallif o'zbekchilikning yana bir o'ziga xos fazilatini – bolajonligini tasvirlaydi, farzandga bo'lgan mehr avloddan avlodga ko'chib o'tadigan meros ekanligini go'zal, shu bilan birga qisqa va lo'nda satrlarda ifodalaydi.

Erkin Vohidov bizning zamondoshimiz. Bu bilan faxrlansa arziydi, aslida. Kim biladi kuni kelganda biz nabiralarimizga uning she'rlarini yod olishga yordam berarmiz, ular orqali murg'ak qalblarga Vatan tuyg'usini singdirarmiz, ona-yurtning qanday sevish mumkinligini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'larmiz. Chunki haqiqiy, asl tuyg'u ifodasi bo'lmish bunday she'rlar hali ancha vaqt xalqning e'zozida bo'lishi aniq. Demak, Erkin Vohidov hozirdanoq o'ziga haykal yarata olgan ijodkordir. Lekin bu oddiy haykal emas, balki insonlar ko'ngliga qurilgan obidadir. Haqiqiy ijodkor uchun eng qadrlil narsa shudir, aslida.

HAYOT HAQIQATINI IFODALAGAN MISRALARDAGI YUMOR

*Nigora QIRYIGITOVA,
JDPI O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada xalqimizning sevimli shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov poetikasiga nazar solingan. "Yashavor", "XayrlaShuv", "Karashma", "Hazrat Xisr va zamona ayol", she'rlaridagi chin ma'nodagi hazillar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Komediya, urf-odat, o'zbekchilik, mehmondo'stlik, hazil-mutoyiba, parishonxotirlik.

Odamlar go'daklikdan tom ma'noda kulish qobiliyatiga ega. Ko'pchiligimiz kulgili komediyalar, hajvchilar va hazillarni yaxshi ko'ramiz. Kulgi hayotdagi eng yaxshi voqealarning, bayramlarning ajralmas qismidir. Biroq biror bir insonni yuziga tabassum hadya etish anchayin murakkab jarayon. Qiziqarli, kulgiga boy latifa va voqeahodisalarni aytib berish orqali insonlarni kuldirish birmuncha osondek, ammo bunday hodisotlarni badiiyatda she'riy misralarga ko'chirib, lablarga yengil tabassum ulashish esa amri mahol.

Mana Shunday mashaqqatli ishni barchamizning sevimli shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov poetikasida uchratishimiz mumkin. Shoir xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlarini va kundalik oddiy voqealarini shoirona misralarda ifoda etadi. Masalan, o'zbek xalqi azaldan mehmondo'stligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Ana shu ajoyib xislati sabab yurtimiz odamlari boshqa xalqlar oldida yuksak hurmat va e'tirofga loyiq. Shoirning "Yashavor" nomli to'rtligida o'zbekchilikka xos bo'lgan mana Shunday oliyjanob fazilatlarimizning "ikkinchi tomoni" haqidagi hayotiy haqiqat yumorga boyitilganini ko'rishimiz mumkin:

Meva berma bolangga,
Asra mehmon xolangga.
Mahkam berkit, yashavor,
Qoraytirib tashavor! [1,53]

Yoki:

Xayrlashmay ketar ingliz
Mezbonini notinch etmaydi.
Donishqishloq ahli, bilingiz
Xayrlashadiyu ketmaydi. [2,652]

Misralarida o‘zbekona mehmondo‘stlikning yakunini holat kulgisiga ko‘chiradi. She’rni o‘qigan o‘quvchi borki, uyiga kelgan mehmonning “Ana ketaman, mana ketaman” deya ketishi cho‘zilgan vaziyatni eslab yuziga tabassum olmay iloji yo‘q.

Olam yaralibdiki, muhabbat tuyg‘usi, bu xislat bilan bog‘liq vaziyatlar davom etib kelmoqda. Barchaning boshida bor savdo deya ta’rif etiladigan muhabbat voqealariga e’tibor bersak, yigit va qiz o‘rtasida aksariyat hollarda juda o‘xshash, bir-biriga yaqin suhbatlar mavjud. Ayniqsa, qizlarning “Tegmang menga”, “Nari turing”, “Qurib keting”, “Yomon ekansiz” kabi birikmalar aslida qanday mazmun kasb etishini shoir “Karashma” nomli she’rida hazil-mutoyiba orqali ochib beradi:

Qiz bolaning rost gapi ozdir,
Yolg‘onlari bisyor adashma,
Tengmang menga degani - nozdir,
“NARI TURING” desa karashma.
Ishva bilan “QURIB KETING” der,
Ko‘ngilga hech qattiq olmagin,
“O‘LING” desa yashnab yuraver,
“QOCHING” desa qochib qolmagin.
Hech gul bormi axir tikonsiz,
Tikoniga fido qilgil jon,
Bir kun aytar: yomon ekansiz,
Ma’nosi siz eng yaxshi inson [3,39]

Ayollar mavzusini davom ettirib shuni aytish joizki, har qanday zamon ayolining “dunyo tashvishi-yu, dunyo arz-dodi” bor. Bunday “arz-dod”ga oddiy inson uyoqda tursin, hatto Xizr Alayhissalom ham quloq tuta olmaganini badiiy ifodalar ila ziynatlangan “Hazrat Xizr va zamona ayoli” she’rida guvoh bo‘lamiz:

Bu ertak emas yo shoir xayoli,
Hangoma ham emas suhbat qizirga.
Shu kunlarda bizning zamon ayoli
Uchradi nogahon Hazrat Xizrga.
Ul Alayhissalom odatga ko‘ra
Tila tilagingni, deb qildi xitob,
Xizrman, xohlagan narsangni so‘ra,
Muhayyo qilurman borini shitob.
Ertak haqiqatga aylangan davron,
Hayratni unutgan bizning ayollar.
Ayniqsa ularga xush kelar har on
Tila tilagingni, deb tursa chollar.
Juvon lol qolmadi, arz qila ketdi,
Ro‘yxat ayta ketdi behadu poyon.
Hazrat charchab o‘lar holatga yetdi,
Xizr bo‘lganidan yuz ming pushaymon.
Sho‘rlik ko‘kka qarab hasratda, dog‘da,
Dedi: ishingni ol, yo parvardigor.
Yo‘q esa, ey tangrim, yorug‘ dunyoda
Meni ayollarga duch qilma zinhor. [4,307]

Odamzot yashar ekan hayoti davomida barcha narsalarni eslab qololmaydi. Hatto shunday insonlar borki, oddiy narsalar uning parishonxotirligidan dalolat berib turadi. O‘rni kelganda doimo eslab qolish uchun nimadir choralar topishi, ammo ana shu topilgan “najot” ham o‘z xotirasidan ko‘tarilib qolishi quyidagi misralarda o‘z badiiy ifodasini topgan:

Yoddan chiqmasin deb, xayol aralash,
Har kech unga odat reja qoralash.
Ro‘yxatni batafsil yozar-u, ammo
Tongda esdan chiqar qog‘ozga qarash [5,61]

Bu keltirilgan ijod namunalari Erkin Vohidov yaratgan ijod ummoning bir tomchisi xolos. Bu tomchilarning har qatrasida insoniyat uchun suv va havodek zarur ehtiyojlari gavhar misol ipga terilgan. Shoirga berilgan “O‘zbekiston xalq shoiri” degan unvon uning chinakamiga xalq shoiri ekanligini isbotlaydi. Erkin Vohidov

hayot haqiqatlarini marjondek misralarda jilovlar ekan, har bir soʻzni shunchaki soʻz deb emas, balki “... soʻzni tirik jon deb biladi va Soʻz bilan soʻzlashadi”[6,9].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Asarlar. Toʻrtinchi jild. Qish halovati. – Toshkent: Sharq, 2016. – 415 b.
2. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2016. – 683 b.
3. Erkin Vohidov. Asarlar. Toʻrtinchi jild. Qish halovati. – Toshkent: Sharq, 2016. – 415 b.
4. Erkin Vohidov. Inson. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. – 316 b.
5. Erkin Vohidov. Soʻz latofati. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. – 215 b.

BIR SHEʼR JOZIBASI

*Sayyora QOZAQOVA,
NamDU oʻqituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada xalq shoiri E.Vohidovning “Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur” deb nomlangan sheʼri tahlil etilgan. Tahlil jarayonida inson hamma narsaning oʻtkinchi ekanligi, quvonch ham, shodlik ham bir zumda tark etishini, eng ogʻir damlarda ham koʻnikish kerakligini, faqat sabrli boʻlish shartligi aytib oʻtiladi. Shoirning sheʼrda hikmatli soʻzlardan, oʻxshatishlardan ham oʻrinli foydalangani aytib oʻtiladi. Bir oy oʻttiz kun boʻlsa, yarmini yorugʻ kunlar, yarmini zimiston egallashi mumkinligini uqtirgan holda majoziy maʼno yuklanishi, ertangi kunga umid bilan qarashga, hatto qurib qolgan bogʻ ham ertaga boʻstonga aylanishi mumkinligiga ishontiriladi.

Kalit soʻzlar. Sheʼr, shoir, ijod, kechinma, xarakter, obraz, oʻziga xoslik.

Erkin Vohidov xalqimiz ardogʻidagi ijodkorlardadir. Uning qalb kechinmalari tasvirlangan satrlari barchamiz uchun sevikli va suyuqlidir. Shoir sheʼrlar oʻz jozibasi bilan kitbxonni sehrlay oladi.

Ijodkorning bugungi texnika bilan “do‘stlashgan” avlod qalbini ham larzaga soladigan shunday she’rlari borki, ular kishini o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi. Erkin Vohidovning “Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur” deb nomlangan she’ri ana shunday ijod namunalardandir.

Inson juda qisqa umri davomida taqdir sinovlariga bo‘ysunib yashaydi. Ba’zan turli muammolar, zarba va to‘siqlar, ko‘ngil ozorlari har qanday insonni o‘ylantirib qo‘yadi. Shoir Erkin Vohidov ushbu she’rida ana shunday vaziyatlarda to‘g‘ri xulosa chiqara olishga, har bir yomon ishni ham yaxshilikka yo‘yishga chorlaydi:

*Dard yig‘ilib kelsa, qavatma-qavat,
Taqdir zarba bersa, aylamay shafqat,
Tanda kuch qolmasa, qolmasa toqat,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Mavjud hayotda turli xarakterga ega bo‘lgan insonlar yashaydi. Inson jamiyat kishisi sifatida xilma-xil toifadagi kishilar bilan munosabatga kirishishga majbur. O‘zgarlar qalbida qanday niyat, qanday kechinmalar hukmron buni hech kim bilmaydi. Gohida eng yaqin insoning, qadrning ham dushman ekanligini bilib qolish, qalb vayronaligi, ishonchsizlik vaziyatlarining yuz berishi ham tabiiy holdir. Shoir bunday holatlar hammada ham bo‘lishi mumkinligini, bu kutilmagan vaziyatlarda inson ruhan kuchli va sabrli bo‘lishini va buni ham yaxshilikka ekanligini uqtiradi:

*Orqadan do‘stingiz xanjarin sanchsa,
Pishgan hosilingiz tepkilab yanchsa,
Ishongan insonlar, turtkilab qochsa,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Hayot goh shodlik, goh quvonchdan iborat. Kimdir to‘y qilsa, kimdir aza ochadi. Kimgadir omad kulib boqsa, kimdir mag‘lub bo‘ladi. Kimdir sizning yaxshiligingizni qadrlasa, kimdir oyoq osti qiladi. Chunki insonlarda turli xarakter, turli dunyoqarash mavjud:

*Omad gohi kulib, gohi kulmasa,
Yaxshilik qilsangiz, birov bilmasa,
Boshingiz changallab, sochni yulmasdan,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Yaratganning to‘rt fasli garchi belgilangani bilan o‘zining sifatleri bilan kechmasligi mumkin. Insonning umri ham xuddi shunday. Inson umrining bahori gullamasa, yozi nurli bo‘lmasa, qishida qora bulut tark etmasa ham “yaxshilikka” deya, sabrli bo‘lish lozim:

*Bahorda bog‘ingiz, gullamay qolsa,
Yozda oftob sizga, nur sochmay qolsa,
Qishda qora bulut, arimay qolsa,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Inson hamma narsaning o‘tkinchi ekanligi, quvonch ham, shodlik ham bir zumda tark etishini, eng og‘ir damlarda ham ko‘nikish kerakligini, faqat sabrli bo‘lish shartligini ta’kidlaydi:

*Quvonch-u shodlik ham, o‘tkinchi bunda,
Tun o‘rnini quyosh, olar har kunda,
Qiynalib, qiynalib, ketsangiz shunda,
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Xalqda yaxshi bir naql bor. Ya’ni oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘. Shoir she’rda Shu ma’noli hikmatdan ham o‘rinli foydalanadi. Bir oy o‘ttiz kun bo‘lsa, yarmini yorug‘ kunlar, yarmini zimiston egallashi mumkinligini uqtirgan holda majoziy ma’no yuklaydi. Ertangi kunga umid bilan qarashga, hatto qurib qolgan bog‘ ham ertaga bo‘stonga aylanishi mumkinligiga ishontiradi:

*Oyning yarmi yorug‘, yarmi zimiston,
Qurigan bog‘ bir kun, bo‘ladi bo‘ston,
Dardingiz hamma, qilmay dasturxon,*

*Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim,
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur!*

Shoir she‘r so‘ngida donolarning fikrlarini eslatishga harakat qiladi. Insonning sabri tufayli boylik, mol-dunyo kelishi muqarrarligini, buning uchun esa Allohdan so‘rash, yaxshi niyat qilish, faqat sabrli bo‘lish kerakligini ta‘kidlaydi:

*Har neda bir hikmat! Aytgan donolar,
Sabr qilsa oltin, kelar tillolar,
Tangriga yolvorib, qilib duolar
Bir gapni qaytaring, qaytaring do‘stim
Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur ..!*

Shoir Erkin Vohidovning “Hammasi yaxshilik, yaxshilikkadur” deb nomlangan she‘rida inson hayoti davomida bo‘lishi mumkin bo‘lgan past-u balandliklar, yaxshi-yomon kunlar, turli muammoli holatlar ifoda etiladi. She‘rning tarbiyaviy ahamiyati Shundaki, u shunday vaziyatlarga har bir odamni tayyor turishi kerakligiga, og‘ir-vazminlik bilan qaror chiqarish lozimligiga va faqat sabrli bo‘lishga chaqiradi.

SHOIRLARLARNING ISHKI KESHINMALARI ERKIN VOHIDOV ASARLARI MISOLIDA

*Sayyora KULATOVA
Jizzax davlat redeagogika instituti
akademik litseyi o‘qituvshisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoirlarning ishki keshinmalari hamda o‘ziga xos tabiatining Erkin Vohidov asarlari misolida ta‘kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Shoir, ilhom, iste‘dod, ruhiy holat, shoir tabiati, sevgi, hissiyotlar, iste‘dod tayoqshasi.

Hozirgi o‘zbek milliy adabiyotining nomdor ijodkorlaridan biri Erkin Vohidov g‘azal, qasida, muxammas kabi janrlarda qalam

tebratdi. U bu borada mumtoz adabiyot tajribasini boyitish va takomillashtirishga intildi. Badiiy mahorati yuksak yetuk ijodkor Erkin Vohidov she'riyati chuqur falsafiy umumlashtirish darajasiga ko'tarildi. Erkin Vohidov – fuqarolik nuqtai nazari yorqin ifodalar bilan sayqallashgan shoirdir. Uning she'rlari kelajak avlodning taqdiri ushun xavotirga to'la, muallif zamonaviy hayotning chuqur ma'naviy va axloqiy jarayonlarini tushunishga intiladi. Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana Shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning ushun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz surur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinshi bir she'rni o'qib xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz. Shoirlik o'sha tuyg'ularning tabiiyligi va haqqoniyligiga she'rxonni ishontira olishdir. Ishontira olish qobiliyati iste'dodning ibtidosidir.

Odamlarga faqat she'rigina emas, balki o'zi ham kerakligini chuqur his etib yashash istagi ErkinVohidovni hamisha ana shu avlodning oldingi safida yurishga undadi. Shoir ijodining ilk qadamlaridan ijodkorlik va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etib, uning zalvorli yukini ongli ravishda zimmasiga ortgan holda yashab va ijod qilib kelmoqda. Agar sinshiklab qaralsa, ErkinVohidov asarlarida millat sha'niga maqtov yog'dirishdan, unga hamd-u sanolar o'qishdan ko'ra, ko'rroq insonning hayot oldidagi burshini anglashi, zamon uning yelkasiga ortayotgan tahqirli yukdan qanday qilib ozod bo'lish yo'llarini izlashi lozimligi to'g'risida yozishni muhimroq deb bilganini anglash qiyin emas. Shu boisdan, u butun hayoti davomida ham ijodiy, ham ijtimoiy faoliyatini bir-biriga qo'shib olib bordi va bu uzviy bog'liqlik shoir she'rlariga o'ziga xos mazmun hamda rang bag'ishladi.

Erkin Vohidov har doim ijodining boshlanishida aytgan:

*Xalq – ustozim, men esa – tolib,
So'z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o'zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim,*

– degan rrintsiriga qat'iy amal qilib yashadi va ijod qildi. Buning natijasi o'laroq, u shinakam xalq shoiri sifatida tan olindi. Shoir butun ijodi mobaynida o'zini “erkalab bag'riga bosgan, mehnatkash, bag'ri

keng, orzularida yulug‘ xalqi”ning beqiyos fazilatlarini, dardini kuylab kelmoqda. Shuning uchun ham shoirimiz asarlarida xalqona ruh, soddalik mudom ustuvor bo‘lib kelayotir [1].

Erkin Vohidov shoirlik juda mushkul va shu bilan birga ulug‘vor ijodkorlik ekanini ta’kidlab o‘tadi. Shoir doim haqiqatga tik boqib uni qalbidagi misralari bilan yoritib berishi kerak.

Erkin Vohidov o‘zining shoir Husniddin Sharipovga bag‘ishlangan “Shoir” nomli she’rida shoirlik haqida shunday misralarni keltirib o‘tadi:

*Shoirlarga hayron bo‘lmang,
Shoir xalqi turfaroq.
Gohi mag‘rur, gohi diltang,
Goh hazin, goh tumtaroq [2].*

Bu yerda ustoz shoir tabiati o‘zgaruvshanligi, ya’ni gohida xursand, gohida esa aksinsha bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan. Keling, mavzuni kengroq yoritish ushuni ushbu she’rdan yana misol keltiramiz:

*Ungabirrulmansabi ham,
Undamansabbo‘lmaydi.
Sevgisi ham, g‘azabi ham
Shegaranibilmaydi.*

*Oqilodamg‘am, azobdan
Yonibfig‘onbo‘ladi.
Shoiresaiztirobdan
Zavqqiladi, kuladi [3].*

Bu yerda shiorning hesh qanday boylik va mansabi bo‘lmasligi va bu kabi narsalar shoir inson ushuni muhim emasligini aytib o‘tgan. Yana shuni ham aytish mumkinki, shoirning hissiyotlari shegara bilmasligi ya’ni sevganida va g‘azablanganida ham o‘zining qaynoq haroratini bildirib turishi aytib o‘tilgan.

Shoir o‘zining “Demang, shoir tinib ketdi ” she’rida shunday deydi:

*Demang, shoirjimibketdi,
G‘azalyozmaytinibketdi.
Tinibketsa, bilingizki,
Yog‘oshotgaminibketdi [4].*

Bu o‘rinda ham shoir tabiati o‘zgaruvshanligi, gohida ijodi to‘xtab qolishi va bunday holat tez-tez takrorlanib turishi haqida yozilgan.

ErkinVohidov boshqalar ko‘ra olmaydigan, oddiy nazar ilg‘amaydigan nozik va sirli go‘zalliklarni ilhom kelganda kashf qila oladi. Ilhom odatda ijodiy jarayonga yuqori darajada erishiladigan o‘zgasha ruhiy holat sifatida tushuniladi. Ba‘zi hollarda bu ruhiy holat shunshalik kushli bo‘lishi mumkinki, shoir vaqt o‘tishini ham, oshlik yoki noqulaylik hissini ham sezmaydi.

Ustoz Vohidov shoir ushun isde‘dod juda muhim xislat ekanligini shunday tasvirlab beradi:

“Iste‘dod tayoqshasi” degan garni “iste‘dod shami” deb aytsa bo‘lar ekan. Bu shunday shiroqki, u bilan ijodkor ham o‘z yo‘lini ko‘rib, yoritib boradi, ham shiroq ko‘tarib borayotgan kishini odamlar ko‘radi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ustoz Erkin Vohidov shoirlikning o‘ziga yarasha mashaqqatlari borligini tushuntirgan hamda shoir insonda turli ijobiy va salbiy murakkab ruhiy keshinmalar bo‘lishini bizlarga o‘z asarlarida keltirib o‘tgan. Qalbida vataniga bo‘lgan muhabbat sheksiz bo‘lgan, insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko‘radigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek sheksiz, tog‘lardek ulug‘vor bo‘lgan insonni o‘z umrining qahramoni deyish mumkin. Erkin Vohidov ham shunday insonlardan edi. Mustaqillikka erishib o‘zligini, o‘zbegini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug‘lashi tabiiy va mantiqiy holdir. ErkinVohidovning hayot yo‘li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakshi g‘oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she‘riyat / Sharq yulduzi jurnali, 2013., 2-son.
2. Vohidov E. O‘zbeginim. – T.: Yangi asr avlodi.2017. – B.186.

3. Vohidov E. Umrin daryosi. Saylanma,3-jild. –T.: Sharq.2001. – B.222.

4. Vohidov E. Qalb sadoqati. –T.: Sharq.2018. – B.198.

ERKIN VOHIDOVNING MILLIY RUHNI HAJVIY OBRAZ VA XARAKTERLAR ORQALI IFODALASH MAHORATI

*Halima YULDASHEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkumi misolida hajviy obraz va xarakterlar orqali milliy ruhni ifodalash mahorati tahlil etilgan. Ushbu turkumning Shunchaki kulgili rivoyatlarning she’rga solingan shakli bo‘lmay, shoirning istibdod hukmronligi sharoitida vatandoshlari ko‘nglini ko‘tarish, aytish mumkin bo‘lmagan haqiqatlarni ifodalash. Shu bilan birga, zamondoshlari fe’l-atvoridagi illat va nuqsonlarni kulgi, kinoya, hajv vositasida muolaja qilish niyatyai ifodalangani misollar vositasida dalillangan.

Kalit so‘zlar. hajv, xarakter, obraz, ijodiy niyat, badiiy usul, milliy ruh, badiiy talqin.

Har bir davrning o‘z muammolari bor. Bir davr uchun kulgi sanalgan voqea-hodisalar boshqa davr uchun jiddiy hisoblanishi mumkin. Adabiyot bu muammolarni hal etishda ba’zan o‘tkir kulgi – satira yo‘ldan borib, ba’zan yengil mutoyiba – yumor orqali ta’sir qiladi. Hajviyot jamiyatni isloh qilishda, tartibga solishda, qadriyatlarimizni saqlashda milliy munosabatlarimizning muhim xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqi - zarif tabiatli, o‘tkir zakovatli, hazilga o‘ch xalq. Shu sabab eng qadimgi davr og‘zaki adabiyotimizda ham hajviy yo‘nalishga katta e’tibor berilgan. Zero, kulgi ulkan ta’sir kuchiga ega bo‘lib, xalqimiz yaratgan og‘zaki adabiyot namunalarida kulgining inson aqli va ruhiga quvvat berishi o‘z isbotini topgan.

“Hajv hayotimizni bezaydigan, ruhlarimizni yengillatadigan va Shu bilan birga, hayotimizdagi illatlarni turtkilab, yo‘ldan

chiqqanlarni ko‘pchilik orasida po‘stagini qoqadigan g‘oyaviy qurol hamdir”³³ – deb yozadi xalqimizning sevimli yozuvchisi Said Ahmad. Darhaqiqat, adabiyot o‘z oldiga hayotning ijobiy jihatlarini ko‘rsatish, ularni tarannum etishni maqsad qilib oladi, jamiyatda uchrab turadigan illatlarni fosh etishni o‘zining muhim vazifasi deb biladi.

Erkin Vohidov hajviyotini ming-minglab kitobxonlarga suyakli qilib turgan elituvchi kuch ham aynan o‘sha – mohirlik. “Donishqishloq latifalari” turkumidagi she‘rlar Erkin Vohidovning nafaqat jiddiy – sof lirik va teran falsafiy she‘rlar muallifi, balki usta hajvchi shoir sifatida ham qalami o‘tkir ekanini namoyon qiladi. Shoirning “Donishqishloq latifalari” turkumi o‘zbek hajviy she‘riyati takomilida alohida o‘rin tutadi. Lekin ayrim tadqiqiy maqolalarni, zamondosh shoir-u adiblarning ba‘zi e‘tiroflarini istisno qilganda, “Donishqishloq latifalari”ning badiiy-estetik qimmatini, o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini nechog‘liq mujassam etgani, ushbu turkumda poetik shakl va mazmun mutanosibligi, ijodkorning hajviy obraz va xarakter yaratish mahorati singari masalalar alohida tadqiq etilgan emas. Ushbu maqolada shoirning hajviy obraz va xarakterlar orqali milliy ruhni ifodalash mahorati tahlil etiladi.

Shoirning hajvchilik mahoratiga ayni yo‘nalishdagi asarlari bilan e‘tirof qozongan Anvar Obidjon mana bunday ta‘rif bergan edi: “...hajviy roman yoki qissada yangicha qiyofa yaratganlar behisob, ammo she‘riyatda bunday hollar sanoqli. Erkin Vohidov she‘riyatda Matmusa talqinida o‘ta o‘ziga xos obraz yarata olgan”³⁴.

Avvalo, badiiy qahramonning o‘ta soddaligini unga tanlangan xalqchil ismdan ham anglash mumkin. Ismlarda millatning o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi xususiyat borki, bu – arablarda Abdulloh, Abdurahmon, ruslarda Ivan, Aleksandr bo‘lgani kabi. Bizning o‘zbekona soddalik Muhammad ismini qo‘shib hosil qilinganda atoqli otlarni Mahamat, Mamat tarzida qisqartirib chaqirish, Matqovul, Matyoqub, Matjon tarzida qisqartirishlar ham o‘zbekning o‘ta soddaligidan darak. Bu holatlar dangasalik tufaylimi yo so‘z tejash natijasimi? Nima bo‘lganda ham, Matmusa ismi shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni ifodalash uchun juda qo‘l kelgan, sababi o‘zbekning

³³ Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. –T., .1982. –B.558.

³⁴ Obidjon, Anvar. – Erkin Vohidov. Tabassum. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. - B.3.

SODDADIlligini eng avval ismidagi kamtarlik, kamsuqumlik ham ko‘rsatib turadi.

Shoir o‘zbek xalqiga o‘zining ajoyib tabiatini ko‘rsatib, nafaqat samimiy kulgi uyg‘otadi, balki zukko kitobxonni millatning bebaho xazinasini yo‘qotib qo‘yish xavfi turgan bir kezda uning taqdiri haqida o‘ylashga undaydi. Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborovning: “Matmusa timsolida Erkin Vohidov millatga oyna tutib, o‘zligini anglashga chaqirganini yozadi”, deya ta’kidlashi Shundan³⁵.

“Donishqishloq latifalari” allaqachon she’rxonlar-u hajvsevarlarga yod bo‘lib ketgan. Ammo bular shunchaki, ichakuzdi rivoyatlarning she’rga solingan shakli emas. Balki shoir bu turkum orqali istibdod hukmron, dahriylik mafkurasi to‘rda, milliy qadriyatlar chetga surilgan bir davrda vatandoshlari ko‘nglini ko‘tarish, taqiqdagi haqiqatlarni aytish, shu bilan birga, fe’l-atvorimizdagi illat va nuqsonlarni kulgi, kinoya, hajv, ishora vositasida muolaja qilish niyatini o‘z oldiga qo‘ygan. Shuning uchun shoir “dushmanni kuldirib, do‘stni yig‘latgan, ezilib ketgan qalbga nim tabassum hadya etib erkin nafas oldirgan”³⁶, – deb yozadi adabiyotshunos Vafo Fayzulloh.

San’atga oshno xalqimiz madaniyati tarixidan ma’lumki, o‘zbek xonadonlari milliy cholg‘u asboblarisiz – doira, nay, g‘ijjak, ayniqsa, dutorsiz bo‘lmagan. Sababi, dutor o‘zbekning baxtli kunlarida ham, musibatli onlarida ham hamroh bo‘lib, qalbida jo‘sh urgan quvonch-u, alamli g‘amni yengib o‘tishiga yordam bergan. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida bola otasining dutorini sindirib qo‘yib, o‘ta talabchan otaning so‘roqlariga qanday javob berishni bilolmay, qo‘rquvdan padari qarshisida ilojsiz qolganda frontga ketib qaytmagan yaqinlaridan judo bo‘lgan Zebi xolaning nomi, dutorning Shu ayol tufayli doimiy joyidan olinganligi vaziyatni yumshatadi: “Zebi bo‘lsa, mayli...”

Zebi xola farzand dog‘ini, yurakdagi ayriliq o‘tini bosish uchun dutor bilan sirlashadi, alamlarini dutor ohangi bilan yozganday bo‘ladi. Milliy qadriyatlarimizdan bo‘lgan ushbu cholg‘u asbi Nodira-yu Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Charxiy va ustoz Habibiy

³⁵ Jabborov N. Milliy ruhning betakror ifodasi / “Erkin Vohidov ijodining ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2017. - B. 71.

³⁶ Fayzulloh V. Azaliy hikmatni izlab...// Sharq yulduzi, 2016, 2-son. - B.168.

domlaning xonadonlarida ham o‘zbekona tokchalar tepasida qoziqqa ilib qo‘yilgani, ruh tashna bo‘lgan kezlarda qo‘lga olinib, “sayratilgani”ga ham Shubha yo‘q. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan shoir Matmusaning dutori timsolida “kerak pardani topolmay sarson bo‘lgan” zamondoshlarini hushyorlikka, ziyraklikka undaydi. Erkin Vohidov “Matmusaning dutori” hangomasida dutor chalishga qiziqqan, biroq qunt, ixlos yo‘qligi sabab atrofdagilarga kulgi bo‘lgan yumoristik obraz orqali noShud kishilar ustidan kulgi uyg‘otadi:

*“Bobong qo‘li dutorda
Yugursa yugurgandir.
Sho‘rlik kerak pardani
Topolmay qidirgandir.
Endi men chalganimda
Og‘zingni yum, jim, depdi.
Bobong parda qidirgan,
Men uni topdim”, depdi.*

Professor Nurboy Jabborov fikricha, muallif xalqimizning so‘zlari zalvorli shoiri zamonlari, buyuk allomalari bisyor bo‘lgani bilan ularga munosib avlod bo‘la olmayotgan zamondoshlariga qarata Matmusa timsolida “oyna tutib”, har bir o‘zbek xonadonida ajdodlar an‘anasi davom etmog‘i lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Shoirning o‘zi bu haqda shunday deydi: “Donishqishloq latifalari”ni o‘qib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig‘lab yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlarni keltirib yotgani sir emas-ku! Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutganicha qolavergan, bir xil ohangni qo‘ymay chalabergan matmusalar ozmi? O‘zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo‘lni ko‘rolmay, osmonga qarab ketayotgan hollarimiz yo‘qmi? Bular kulgili ishlarmas, achinarli, ofatli hodisalar”³⁷.

Oddiy tuproqdan yasalgan tandirni o‘zbek xalqi mo‘jiza deb biladi, unda tabarruk qilib ko‘ziga surtadigan non yopiladi. O‘zbek qaynoqqina non-kulchalar, anvoyi xil somsalar uzilib, qo‘li kuyib,

³⁷ Erkin Vohidov bilan 1988 yili bo‘lgan suhbatdan

tandir otashidan tanasi ham yayrab, har gal tandirga “kirib-chiqqach” qo‘ni-qo‘shnisiga ham “issiqqina nondan oling” deya mulozamat qilib hayot kechirgan. Begona yurtlarda bir kundayoq qadrdon go‘shasini sog‘ingan.

*“Parijning eng go‘zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men” –*

deb ona bag‘ri kabi qaynoq tandirni ko‘klarga ko‘targan xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf o‘zligini naqadar baland notalarda kuylaydi. O‘zbekligidan, milliy qadriyatlaridan boshi baland shoir Abdulla Oripov ta‘biri bilan aytganda, “G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni tuyadi”.

Erkin Vohidov “Matmusaning tandiri” hangomasida tandir o‘zbek xonadonining doimiy ehtiyoji bo‘lgani bois atay bozorga borib, uni xarid qilgach, eshakka avval o‘zi minib, so‘ng tandirni kiyib olgan, bu kashfiyotidan “og‘zi qulog‘ida” bo‘lgan donishqishloqlik “alloma” ning – yo‘lni ko‘rolmay, osmonga termulganча, o‘z uyini so‘rashdan orlanib, hali-hanuz qidirib yurgan Matmusaning, aniqrog‘i, yuzlab Matmusalarning holidan kuladi:

*Ketib borar tavakkal,
Ko‘kka qarab “Tangrim!”-der.
-Meni qilma sharmanda,
Eshagimga aql ber“.*

Bu kulgi ostida millat taqdiridan xavotirga tushish, uning kelajagi uchun qayg‘urish yotibdi, aslida. Shoir xato qilish ayb emas, uni tuzatishdan uyalish katta nodonlik ekanini uqtirmoqchiday go‘yo. Butun boshli millatni to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotgan Matmusaga o‘xshatib, sho‘rolar mafkurasida kimga ergashishni-da bilmay sarson bo‘lgan butun boshli XALQ haqida achchiq haqiqatlarni shu yo‘l bilan aytmoqchi bo‘ladi shoir. “Ko‘pchiligimiz Afandining soddaligidan kulib qo‘yaqolamiz. Aslida, buning zamirida ulkan fojia yotganini, bunda o‘zligini, o‘zini taniyolmasdan yashayotgan kimsaning

achinarli holati bayon etilganini kamdan-kam odam anglab yetadi”³⁸, deb yozadi Anvar Obidjon.

O‘quvchi “Donishqishloq latifalari”ni o‘qib, dastlab Matmusaning devonalarcha qilgan qiliqlaridan qah-qah urib kuladi. Keyin esa chuqur o‘yga toladi. Aslida, Matmusa o‘zining soddaligidan “g‘ururlanib”, boshqalar uchun “ermak”ka aylangan, bundan zarracha ham o‘ng‘aysizlanmaydigan, haqiqatda esa o‘zining fojiasini anglamayotgan, o‘zligini yo‘qotib borayotgan ODAM ekanini tushunib yetadi. Chunki shoir Matmusa tushgan vaziyatning tub mohiyatini anglamay kulayotgan bizdek nodonlarga nimtabassum bilan:

*Ayo, do‘stlar, adashgan
Matmusadan kulmaylik.
Matmusadek o‘zimiz
Tandir kiygan bo‘lmaylik, -*

deb tanbeh beradi. Chindan ham Matmusa kim? U, aslida, o‘z davrida kommunistik mafkura tandirini kiyib olib, ko‘zlagan manzil-makoni, maqsad-muddaosi noma’lum bo‘lgan o‘zimiz emasmi? Darvoqe, Erkin Vohidov latifalaridagi tandir, dutor, qalpoq, lagan, eshak singari detallar Matmusa shaxsi bilan yonma-yon turib, rivojlana borib, qahramon xarakterini turli tomonlardan yorituvchi obraz darajasiga ko‘tariladi

“...U biz ilgari ko‘rmagan qiziq holat vositasida hammamizni o‘z ustidan (millatning ustidan emas!) kuldirdi, ko‘nglimizdagi ozmi-ko‘p g‘ubor tarqaldi-ketdi... Biz uchun asosiysi – gapning yilt yangiligi, hodisa mahorat bilan tasvirlab berilganligi...”, - deb yozadi Ne‘mat Aminov”³⁹. Darhaqiqat, sevimli shoirimiz “yilt yangi” gapni o‘zgacha tafakkur, yangicha nigoh bilan qalamga oladi va o‘z ijodiy niyatini mahorat bilan badiiy talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkumi o‘zbek hajviy adabiyoti rivoida alohida o‘rin tutuvchi noyob poetik hodisa. Murakkab va ziddiyatli davrda yashagan shoirning asl haqiqatni aytishda qo‘llagan o‘ziga xos badiiy

³⁸ Obidjon, Anvar. – Erkin Vohidov. Tabassum. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. - B.4.

³⁹ Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she‘riyat. // Sharq Yulduzi, 2013, 2-son.

usuli. Ushbu turkumning milliy ruh ifodasidagi o‘rnini yanada chuqurroq tadqiq qilish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Milliy ruhning betakror ifodasi /“Erkin Vohidov ijodining ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2017.
2. Obidjon A. Kulgu - ochiqko‘ngillik guvohnomasi. – Erkin Vohidov. Tabassum. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
3. Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. – Toshkent.1982.
4. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she’riyat. //Sharq Yulduzi, 2013, 2-son.
5. Fayzulloh V. Azaliy hikmatni izlab... //Sharq yulduzi, 2016, 2-son. -B.168.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA FOLKLORIZMNING TUTGAN O‘RNI

*Parvina ASHUROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqalar hamda folklorizm masalalari yoritilgan bo‘lib, bunda shoir Erkin Vohidov ijodi misolida yoritilgan. Bir nechta she‘rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. Folklor, maqol, matal, folklorizm, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, olqish, qarg‘ish.

Xalq og‘zaki ijodi qadimdan yozma adabiyotga beshik vazifasini o‘tagan. Yozma adabiyot doim undan oziqlangan va boyigan. Har bir ijodkor o‘z ijodida folklor asarlari syujeti, kompozitsiyasi, an‘analari, tili, elementlari, uslubidan, maqol, matallaridan foydalanib, o‘z asarini boyitadi va unga yangicha ruh bag‘ishlaydi. Bu orqali esa, yangi bir

badiiyat namunasining xalqchilligi, milliyligi, o‘qishli bo‘lishi ta’minlanadi. Ijodkor aynan folklor elementlarini o‘zi izlab topib uni ijodida shunchaki zo‘rma-zo‘rakilik bilan kiritmaydi albatta. Bu ilohiy jarayonda shoir yoki yozuvchi o‘ziga tanish bo‘lgan va shundan ilhomlangan og‘zaki ijod namunasini o‘z ijodiga kiritadi. Bunda ijodkordan xalq og‘zaki ijodidan yaxshi xabardor bo‘lish talab etiladi. Xalq dardi bilan tanish va shu dard bilan yashagan ijodkorgina bu mas’uliyatli ishni bajara oladi. Zero, asrlar mobaynida faqatgina Shu millatgagina xos bo‘lgan urf-odatlar deysizmi, yillar davomida yig‘ilgan hayotiy tajribalar deysizmi, mavsumiy qo‘shiqlar deysizmi, motam qo‘shiqlari deysizmi barcha barchasi shu xalq og‘zaki ijodida jamlangan.

Bu ikki adabiyot o‘rtasidagi aloqalar doim adabiyotchilar e’tibor markazida. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov bu ikki adabiyotni solishtirar ekan shunday deydi: “Qadimgi bobolarimiz og‘zaki ijodidagi obrazlarda inson ruhining qorong‘u go‘shalari, dilidagi murakkab kechinmalari va tuyg‘ularning barchasi N.G.Chernishevskiy iborasi bilan aytganda, qalb dialektikasi, realistik adabiyotdagidek emas. Chunki xalq og‘zaki badiiy ijodida tasvir va ifoda vositalari yozma adabiyotdagidek chuqur ochilmagan. Bundan tashqari xalq og‘zaki badiiy ijodida tasvir ham badiiy ifoda usullari, tamoyillari muayyan darajada qoliplik xususiyatiga ega”. Shuningdek, olim xalq og‘zaki ijodiyotining realistik adabiyot uchun “bebaho mezon” ekanini ham e’tibordan chetda qoldirmagan: “Biroq bu holat badiiy obrazni tashkil etuvchi voqelik hamda kishilar xatti-harakatidagi, dili va ongidagi mohiyatini aks ettirish yoki ifodalash kabi estetik qonuniyatlardan folklor mahrum, degan xulosaga kelishga imkon bermaydi. Aksincha, asrlar qa’ridan bizga nur sochib, ongimiz va ruhimizni parvozga undab turgan ajdodlarning badiiy obraz, binobarin, badiiylik haqidagi tasavvurlarini, ular yaratgan badiiy obrazlar mohiyati, vazifasi, me’yori, shakli va estetik darajasini belgilashda biz bebaho mezon sifatida olib qaraymiz”.⁴⁰

Eng kichik ibora ham ming yillar davomida yashab qolishi uchun, ming bitta chig‘iriqdan o‘tib, haqiqat oynasida aks etgan, hayot tajribasida ma’qullangan bo‘lishi lozim. Shunday ekan, xalq og‘zaki

⁴⁰ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – B. 11.

ijodiy merosi hamisha yozma adabiyotning bebaho injusi bo‘lib qolaveradi.

Ma’lumki, yozma adabiyotda xalq og‘zaki ijodining eng faol turi maqol va matallardan unumli foydalanilgan. Elimizning ardoqli shoiri Erkin Vohidov xalq og‘zaki ijodi namunalarini juda yaxshi bilgan, undan o‘z asarlarida o‘rinli va unumli foydalangan adiblardan biri hisoblanadi. Sevimli shoirimizning she‘rlarida folklor mavzulari, timsollaridan foydalanib go‘zal namunalarni yaratgan. Xalq maqollaridan unumli foydalanib, ko‘plab she‘rlarida ba‘zan asl holicha, ba‘zan she‘r qatiga singdirib yuborgan holatda qo‘llagan. Masalan: Erkin Vohidovning “Yoshlik” devonida keltirilgan “Yo‘q emish orzuda ayb” deb nomlangan g‘azalida

Sen-ku Zuhrosan falakda,
Intizoringman faqat,
Ne ajab, talpinsa ko‘nglim,
*Yo‘q emish orzuda ayb.*⁴¹

Ko‘rib turganizdek, shoir “Orzuga ayb yo‘q” maqolini she‘r talabi bilan o‘zgartirgan. Bu holat esa g‘azalning musiqiylikini oshirgan.

Umrini oshiq hamisha
O‘tkazur orzu bilan.
Oyning o‘n beshi qorong‘u,
O‘n beshi yog‘du bilan.⁴²

Shoirning navbatdagi g‘azalida ham she‘r talabiga ko‘ra yorug‘ so‘zi yog‘du so‘zi bilan almashtirilgan, mazmun saqlangan. Shoir aksariyat she‘rlarini xalq maqollari bilan nomlagan. Yuqoridagi g‘azal ham “Oyning o‘n beshi qorong‘u” deb nomlanadi. Bu esa shoirning xalq og‘zaki ijodi bilan yaqindan tanishligini bildiradi. Zero, yozma adabiyot folklor bilan sug‘orilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir o‘zining “Masal borkim” g‘azalida boshidan oxirigacha qofiya

⁴¹ E.Vohidov Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. 69- bet

⁴² E.Vohidov Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. 96-bet.

qismida maqollardan foydalanib, oddiy folklorizmlarni vujudga keltirgan. Gʻazalni oʻqisangiz Lutfiyning “*Ayoqinggʻa tushar har lahza gisu...*” boshlanuvchi besh baytli gʻazaliga oʻxshatma tarzida bitilganligini sezasiz.

*Ajab, vaslingga men endi
Etishganda koʻrindi moh,
Masal borkim, ogʻiz oshga,
Burun toshga tegibdir,
Voh! Kulib yurgay elim bir vaqt
Oʻqib Majnun jununidan,
Degaylar, oʻzgin kulma,
Oʻzingdan boʻlmayin ogoh.
Seving, deb sheʼr bitib avval,
Oʻzim boʻldim asiri ishq,
Oʻzi tushgay emish oxir
Birovga kimki qazgay choh.
Parivash zulmidan boʻldi
Koʻngil mulki parishonhol.
Demishlar: *mulk vayrondir*
Agar zolimlik etsa shoh.
Boʻlibsan oshiq, Erkin,
Uz umid jondin, oʻkinch qilmay,
Oʻzingga, deydilar, *dushman*
*Keyin chekkan pushaymon, oh**

Sheʼrda keltirilgan “*ogʻiz oshga, burun toshga tegibdir*”, “*oʻzgin kulma, oʻzingdan boʻlmayin ogoh*” (birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuluvchilar bor), “*Oʻzi tushgay emish oxir birovga kimki qazgay choh*” (kimki birovgga choʻx qazisa unga oʻzi tushadi), “*mulk vayrondir agar zolimlik etsa shoh*” (zolim shohning mulki vayron), “*dushman keyin chekkan pushaymon, oh*” (soʻnggi pushaymon oʻzingga dushman) kabi maqollari uning badiiyligini, xalqchilligini oshirgan.

“Doʻst bilan obod uying” sheʼrida shoir “Doʻst ming boʻlsa ham – oz, dushman bir boʻlsa ham koʻp” maqolini sintezlashtirib yuborgan:

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz,
Ko‘p erur bisyor dushman
Bo‘lsa u bir dona ham.⁴³

Shoir ba‘zi she‘rlarida maqol so‘zining sinonimi sifatida masal so‘zini qo‘llab, oddiy folklorizmni “Senga baxtdan taxt tilarman” she‘rida qo‘llaydi:

Ko‘p nasixat tinglab Erkin
Qilmadi hech tarki ishq.
Bor masalkim, ish yurishmas
Sohibi gar bo‘lsa koj.⁴⁴

She‘rda shoir o‘ziga tanbeh bergan holda “O‘jar kishining ish o‘ng bo‘lmas” deya maqol qo‘llab fikrini ma‘qullayapdi.

Shoir ijodida maqollardan foydalanib, yanada chuqurroq falasafa chiqargan. Xalq anglagan haqiqatlarni she‘riga jo qilib, uning ma‘nosini, badiiyatini kuchaytirgan. Bu o‘ziga xoslik shoir uslubining bir qirrasiga aylangan:

Men ko‘ngil ko‘yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib ta‘bir etingkim,
O‘ngda bir gulshan topay.
Ayri til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do‘st.
Do‘st kerakmas, to‘g‘ri so‘zlab
Bir halol dushman topay

(Vohidov, 1986:64).

“Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman jabrini” maqolini qo‘llab turib, shoir she‘rxonda ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otadi. Tikanning gulshanga aylanishini istab, folklorga xos evrilishdan foydalanadi.

⁴³ E.Vohidov Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. 87-bet.

⁴⁴ E.Vohidov Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 75-bet.

“Tikanni tushida bosibdi deb bilib, shunday ta’bir qilingki, ta’biringiz sharofati orqali gulshan topay”, – deb so‘raydi. Riyoga yo‘l qo‘yib, ikki xil gapirish orqali yuzta do‘st topgandan ko‘ra to‘g‘ri so‘zlash orqali haloldushman topishni ixtiyor etadi. Xalqimiz bilmay bosilgan tikan jonniqanchalar og‘ritishini anglatish orqali insonni ko‘p balolardan ogohlantirganki, shoir shu panddan chiroyli tarzda o‘z maqsadi yo‘lida foydalangan. Ya’ni dushmanlik qilgan do‘st bilmay bosilgan tikankabidir. Bosilgan tikanning gul kabi bo‘lishini istash dushmanlik qilganda‘stning niyatiga yetolmasligini tilash, yomonlik qilaman deb yaxshilikqilib qo‘yishini istashdir. Nekbin shoir bunday ifodani oddiyfolklorizm orqali berar ekan, quruq nasihatbozlikdan qochib bilgan. She’rdagi obrazlilikni kuchaytirgan. Ta’bir motivi, xalq maqoli orqalifikrini ifodalab, motiv stilizatsiyasini, oddiy folklorizmnini yuzaga keltirar ekan, E.Vohidov mutasavvuf shoirlar an’analariga ergashadi.

Shoir oddiy folklorizmlar bilan bir qatorda murakkab folklorizmlardan ham unumli foydalangan. Olqish, qarg‘ishlardan foydalanib, she’riyatda murakkab folklorizmlarning analitik turi hosil qilinadi. Shoir tilaklari xalq olqishlari bilan omuxtalashib, she’rda o‘zgacha badiiylik kasb etadi. Bundan ko‘rinadiki, bir mustaqil adabiy asar tarkibida folklorning bir necha janri namunalari umumiy g‘oyani ochishga xizmat qilib kelishi mumkin. Ammo shu o‘rinda tilak va olqishlarning farqli jihatlarini belgilab olishga to‘g‘ri keladi. Chunki har ikkalasi mazmuni ezgu istak bildirishga qaratilgani bois ular ba’zida qorishib ketadi. Masalan, “Umring boqiy bo‘lsin!”, “Yuzga kir!” – deyilsa, bu ham tilak, ham olqishdir. Ammo “O‘qishga kir!” iborasi tilak bo‘ladiyu olqish bo‘lolmaydi. Bundan anglashilindiki, har qanday olqish tilak bo‘la oladi, biroq har qanday tilak olqish bo‘lolmaydi. Olqish badiiy hodisaligi bilan tilakdan farq qiladi va mustaqil janr sanaladi.⁴⁵ Qo‘llanish o‘rniga ko‘ra olqishlar ham bir necha turlarga bo‘linadi: a) Vatanga; b) xalqqa; d) ota-ona, farzandga, do‘st yorga, ya’nikim, aniq bir kishiga aytilgan olqishlar; g) ramziy olqishlar;

Erkin Vohidovning “Navro‘z nashidasi” she’rida Vatanga olqish:

⁴⁵ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizmlar: Filol.fanlari nomz. ... diss. – T., 2008.

Bugun dalalarga qadalgan urug‘,
Inshoolloh, rizqu barokat qutlug‘,
Ey umid o‘lkasi, ertasi ulug‘ –
Vatanim, muborak bo‘lsin navro‘zing.⁴⁶

“Otdoshlarimga” she’rida aniq bir kishilarga aytilgan olqish:

O‘g‘lon ko‘rib qildilar tilak,
Omon bo‘lsin ofatdan bu bosh,
Balolarni yog‘dirsa falak,
Ismi kabi bo‘lsin Temir, Tosh...

Erkin bo‘lsin hayot va mehnat,
Erkin bo‘lsin muhabbat, ijod.
Yayrab o‘ssin farzandim,
Faqat –
El g‘amidan bo‘lmasin ozod.⁴⁷

“Ota tilagi” she’rida farzandga olqish:
Kiprigiga zarra *qo‘nmasa qayg‘u,*
Baxti komil bo‘lsa, tolei bekam.
Ko‘rsa men ko‘rmagan shodliklarni u,
Yetsa men yetmagan niyatlarga ham...

Mayli, mushkul bo‘lsin sen tanlagan yo‘l,
Tole ham, mayliga, kelmasin oson.
Faqat odam qadrin bilar odam bo‘l,
*Bo‘l inson dardini bilguvchi inson!..*⁴⁸

“Oy fonusin ko‘tardi osmon” deb boshlanuvchi she’rida yorga olqish”

Sayr etaylik, kel, birga, erkam,
Rozi ketsin bizdan umrbod –

⁴⁶ Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 532-bet

⁴⁷ O‘sha manba: 271 bet.

⁴⁸ O‘sha manba: 247 bet.

Shodlik uchun yaralgan olam,
Sevmoq uchun berilgan hayot.⁴⁹

“Vatan sog‘inchi” she’rida shoir do‘stlarim deya butun yurt-doshlariga olqish aytadi:

*Do‘stlarim, har qayda bo‘ling, salomat,
Omon qayting uyga olis makondan.
Tilagim, hech qachon, hech qachon qismat
Bizni ayirmasin O‘zbekistondan.⁵⁰*

Olqish ko‘p hollarda she’r yakunida kelib tilak, xotima ma’nolarda qo‘llaniladi. Xalq olqishlari aynan birov uchun yaratilmaydi. “Sog‘ bo‘l”, “Umring uzoq bo‘lsin”, “Zavol ko‘rma”, “Bor bo‘l” kabi olqishlar turli vaziyatlarda turli kishilarga ezgu niyat sifatida aytiladi. Yozma she’riyatda esa bu olqishlar analitik folklorizmni hosil qilgan ekan, u aniq bir adresatga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Olqishlarning yana shunday turi borki, jonsiz narsalarga qarata ham aytiladi. Bunday olqishlar she’riyatda ramziy tushunchalarni ifodalab keladi. Ularni shertli ravishda ramziy olqishlar deyish mumkin. Erkin Vohidov ijodida she’rga, daryoga olqish aytish holatlarini “Kuzatish” she’rida kuzatdik:

She’rlarim, bolajonlarim,
Qora-qura polaponlarim,
Yo‘llaringiz bo‘lsin charog‘on,
Xayr endi, sog‘ bo‘ling, omon!⁵¹

“Sirdaryo o‘lani” she’rida ko‘hna Jayhunni olqishlab, “to‘lib-tosh”, “serob bo‘l” deya ezgu istagini bayon etadi:

Sen paxtasam, olma, anor va nursan,
O‘zbek uchun surursan ham g‘urusan.
O‘zni yerga tomchi-tomchi berursan,

⁴⁹ O‘sha manba: 24 bet.

⁵⁰ O‘sha manba: 323 bet.

⁵¹ O‘sha manba: 282 bet.

Daryo emas, xalq timsoli erursan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.⁵²

Olqishlarni she'rdagi qo'llash barobarida folklarning yana bir turi qarg'ishlardan ham unumli foydalanilib, analitik folklorizmni hosil qilingan. Erkin Vohidov she'rlarida aksariyat qarg'ishlar mustabid tuzumdan norozilik, chorasizlikdan ezilgan xalq e'tirozi tarzida ramziy ifodalangan. Jumladan, "Arslon o'rgatuvchi" she'rida bu hol kuzatiladi. Unda ifodalanishicha, arslon o'zini o'ynatayotgan ojiz odamdan g'azablanadi. Ojiz odam arslonga o'z ixtiyori bilan bunday qilmayotgani, u ham egalik qul, boshda xo'jasi borligidan nochorligini shunday izhor etadi:

To'lg'ondi arslon:
Bo'ldi, bas qil!
Yuragimni qon qilma inson!
O't olsin bu charx – falakning
Rizqu ro'zini!...
Arslon olov chambarakka
Otdi o'zini.⁵³

Yana shoir "Unutish qo'shig'i" she'rida lirik qahramon tilidan "Dunyo uchun faqat pul muhimligini" aytib, "Menga desa, borliq qul bo'lsin!" deya qarg'andi.

Xullas, shoir ijodida tadqiqotimiz davomida qator maqollar, matallar, olqish va qarg'ishlarni uchratdik. Bu folklor elementlari she'rdagi o'z vazifasini bajarib, estetikani, badiiylikni oshirgan. Shoir ulardan mahorat bilan foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019. 69- bet
2. Sharipova L. Oddiy folklorizm – She'r kompozitsiyasi uzvi. Filologiya va madaniyat masalalari (Akademik Aziz Qayumov xotirasiga bag'ishlanadi) ilmiy uslubiy maqolalar to'plami.

⁵² O'sha manba: 296-bet

⁵³ O'sha manba: 285-bet.

3. Sulaymonov M. Erkin Vohidovning folklorizmdan foydalanish mahorati. “Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati” nomli respublika onlayn ilmiy-amaliy materiallar to‘plami. 66-bet.

4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.

ERKIN VOHIDOV IJODI NAIM KARIMOV TALQINIDA

*Dilruxjon ABDILAKIMOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti
magistranti*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov ijodining Naima Karimov tomonidan qanday asoslarda o‘rganilgani ochib berilgan. Shoir bilan qilingan adabiy suhbat, oltmish va yetmish yillik yubileyi munosabati bilan e‘lon qilingan maqolalar tahlilga tortilgan. Munaqqid Erkin Vohidov ijodini yuksak baholagan va milliylik kuychisi sifatida yoritganini ko‘rishimiz mumkin. Shoir sherlaridan misollar keltirib, munaqqidning tahlili berilgan va bu mulohazalar asoslari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: aruz, barmoq, munaqqid, she‘riyat, majoziy, ma‘no, qasida, o‘ziga xoslik.

O‘zbek she‘riyatida o‘chmaydigan iz qoldirgan ijodkorlardan biri Erkin Vohidovdir. Shoirning she‘riyati o‘zigacha bo‘lgan ijodkorlardan tamomila o‘zgachadir. Shoir bir vaqtning o‘zida ham aruzda, ham barmoqda birday qalam tebrata oldi. O‘zbek adabiyotida aruzni qayta jonlantira olgan ijodkor sifatidagi ishlari ham kattadir. She‘riyatimizning Erkin Vohidovday zabardast vakilining ijodi hech bir munaqqidni beetibor qoldirmaydi.. Albatta adabiyot haqida, badiiy asar haqida hech kim va hech qachon original fikrni ayta olgan emas, bundan keyin ham ayta olmaydi. Har bir munaqqid shoir ijodiga o‘zining nuqtayi nazaridan, dunyo qarashidan, bilim va tajribasidan kelib chiqib turlicha baho berganlar. Shunday munaqqidlardan biri Akademik Naim Karimovdir.

Naim Karimov ilmiy faoliyati davomida o‘zbek adabiyotining Hamza, Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir, H.Olimjon, Oybek, Mirtemir,

Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov kabi qator ijodkorlari ijodini chuqur tahlil va talqin qilib bergan. Erkin Vohidov ijodiga bag'ishlangan dastlabki ishlaridan biri 1988-yilda "Sharq yulduzi" jurnalining 1-sonida (159-166 betlar) "She'riyat mehr demakdir", [E.Vohidov bilan suhbat] adabiy suhbatidir. Bu suhbatda shoirning eng intim tuyg'ulari ham o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. "Men ba'zan sizning she'riyatingizni o'qib, maboda shoirlik san'ati sizni maftun etmaganda, kim bo'lib yetishar edingiz?", - deb bergan savoliga shoirnin chin ko'ngildan, jiddiy javobini o'qishimiz mumkin. Bunga munaqqid: "Men suhbatimiz jiddiy tus olib ketmasligi uchun jindek hazil savol bergan edim", - deb o'z hayratini yashirmaydi. Bu suhbatni o'qigan o'quvchi xuddi shu suhbat davrasiga kirib qolgandek his qiladi o'zini. Butun suhbat jarayonida munaqqid xolislik bilan savollar beradi. Bu savollarga shoirning samimiy va aniq javoblari berilgan. Bu suhbat shoirning sof fikrlari o'quvchiga aniq uzatilganligi bilan qimmatlidir.

Shoir tavalludining 60 yilligi munosabati bilan 1996-yil "Til va adabiyot ta'limi" jurnalining 5-6 sonlarida Naim Karimovning "Men buyuk yurt o'g'lidirman" maqolasi e'lon qilinadi. Bu maqolani o'qish barobarida shoir ijodining dastlabki davrlariga munaqqidning guvoh bo'lganligini, Erkin Vohidovning 7-8-sinflardan she'rlar yoza boshlagani va barcha she'rlarini yoddan bilishi kabi qimmatli ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Shoirning dastlabki she'rlaridan biri sifati: "Mayli umrim abadiy emas, Mayli, yashay faqat bir nafas, Lekin meni oyga qilib teng, Shulalardan qilib koshona, Quyosh kabi uzatgan xalqning, Boshi uzra bo'lay parvona..." she'rini keltirib o'tadi. Munaqqid shoirning barchamizga tanish "Kamtarlik haqida" she'rini shoirning butun umri davomida dastur ul amali bo'lganini takidlaydi va she'r badiiyatiga yuksak baho beradi. Haqiqatda shoirning topqirligi va kuzatuvchanligiga qoyil qolmasdan iloj yo'q. Oddiy kundalik voqeadan shunday o'lmas asar yarata olgan. Bu haqiqiy istedodlarninggina qo'lidan keladi xolos. Munaqqid shoir ijodiga baho berarkan: "Uning she'rlaridagi musiqiy ravonlik, fikr va tuyg'uning samimiyligi, she'riy nutqning tabiiy va jozibador oqimi kitobxonni maftun etadi", degan haqli fikrlarni takidlab o'tadi. Bu fikrlar yo'lga aytilmaganligini shoir ijodi ham tasdiqlab turibdi. Maqolada Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" kitobiga yuksak baho beradi. Bu asar qahramonlari Nasridin Afandini qayta

jonlantirgan bo‘lganligini, har bir voqea majoziy ma’noda jamiyatdagi illatlarni ochishga qaratilganligini munaqqaid alohida takidlab o‘tadi. Kitobda keltirilgan she’rlardan birida Donishqishloqlik kishi shaharga borib tandir olgani, eshakka o‘tirib tandirni ichiga kirib olgani, yo‘l ko‘rinmay o‘z taqdirini eshagining xotirasiga ishinib adashib, sarson-sargardon bo‘lgani tasvirini sotsialistik ideallarga qiyoslagan. 60-yillarda ona yurtni kuylash jinoyat deb qarab kelingan bir davrda Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasini e’lon qilinishini katta jasorat sifatida baholagan munaqqid. Bu she’r o‘sha vaqtlarda o‘zbekistonning norasmiy madhiyasiga aylanib ketganligiga ham alohida urg‘u beradi. Shundan so‘ng she’r haqiqatdan o‘zbek xalqining shonli o‘tmishini yaxshi yoritganligi va badiiy yuksakligiga to‘xtaladi. Bu she’rning so‘ngi misralarini keltiradi:

Men buyuk yurt o‘g‘lidirman,
Men bashar farzandiman.
Lekin avval senga bo‘lsam,
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbekim.

Bu misralardagi o‘z yurti, o‘z xalqi bilan faxrlanish hissining yuksakligini takidlaydi. Haqiqatda ona xalq va vatan haqida betakror satlar bo‘lgan. Bugungi o‘quvchini ham to‘lqinlantirib, vatanga muhabbat, xalqi bilan faxranish tuyg‘ularini uyg‘otib yuboradi. Maqolada shoir she’riyati haqida umimiy qilib: “Erkin Vohidov she’riyatida tasvirlangan tuyg‘ular olami fusnkor, go‘zal va samoviydir. Asarlari qahramonlari asrimizning eng yaxshi kishilaridir”, degan fikrlarni aytib o‘tadi. Haqiqatda Erkin Vohidov she’riyati o‘ziga xos takrorlanmas she’riyat bo‘lib qoldi o‘zbek adabiyotida. Munaqqid shoirning “Yoshlik devoni”ga kirgan she’rlarda “hikmat uchqunlari porlab turadi” degan fikrlarni ham aytib o‘tadi.

Erkin Vohidov tavalludining 70 yillik yubileyi munosabati bilan “Shoirning o‘ziga xosligi” maqolasini e’lon qiladi. Bu maqolada Erkin Vohidovni Cho‘lpon, Oybek, G‘ofur G‘ulom, Shayxzoda, Mirtemir va Usmon Nosirlar qatorida sanashga loyiq shoir deb baholaydi. Har bir ijodkorni ilhomlantirgan, uning faoliyatiga boshqa bir ijodkor bevosita tasir etishi haqida gapirib, “Erkin Vohidov shu davrda katta Shuhrat qozongan zamonaviy shoirlardan emas, Navoiy, Bobur,

Fuzuliy singari abadiy ustozlardan saboq olishga urundi”, - degan fikr bilan shoir ijodida milliylikka baho beradi. Misol tariqasida shoirning arman qiziga bag‘ishlab yozilgan “Azganush” she’rini keltiradi hamda she’rda tasvir va uslub to‘la milliy ekanligini aytadi. “She’rning hatto arman qiziga bag‘ishlangani ham Navoiyning Shirinini yodga tushuradi...” deb bunda ham milliylik borligini alohida takidlaydi. Umaman shoir ijodida milliylik kuchli ekanligini takidlar ekan munaqqid o‘z fikrini quyidagicha dalillaydi: “Erkin Vohidov she’riy ijodining milliyligi, lo‘nda qilib aytsak, uch “kit”ning ustida turadi. Bu kitlarning biri milliy tafakkur yoki sharqona donishmandlik, ikkinchisi obrazlilik va uchunchisi, musiqiylikdir”. Bu fikrlar shoir ijodiga to‘laqonli mos topilgan o‘xshatishdir. Maqola davomida munaqqid shoirning dastlab barmoqda, so‘ng aruzda, nihoyat sərbast she’rda ham nihoyatda muvaffaqiyatli qalam tebratganini alohi yutuq sifatida baholaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Naim Karimov o‘zining ilmiy faoliyatida Erkin Vohidov faoliyatini ham yaxshi yoritib bera olgan. Bu ishlar shoir ijodini o‘rganuvchilarga yaxshi manba bo‘lib xizmat qiladi.

ERKIN VOHIDOV IJODI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA INSON TUYG‘ULARI TALQINI

*Dilbar HASANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
magistranti*

Annotatsiya. Maqolada shoir Erkin Vohidov ijodining o‘ziga xosligi, inson tuyg‘ulari talqinidagi yangilanishlarning badiiy ifodasi o‘z aksini topgan. Shoir ijodidagi ushbu yangilanisharning zamonaviy o‘zbek nasri bilan bog‘liq jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Shoir, publisist, tuyg‘u, iste’dod, ruhiyat, badiiy, uslub.

O‘zbekiston xalq shoiri, publitsist, atoqli olim Erkin Vohidovning betakror ijodi XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zbek adabiyoti va madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog‘landi. Shoir haqida zamondosh

shogirdlaridan biri Muhammad Ali shunday deydi: “Erkinlikda vohid, vohidlikda erkin ustoz, serqirra iste’dod sohibi Erkin Vohidov nihoyatda bag‘ri keng, dilkash-u dilbar inson edi, uning suhbatlari adabiyot, ijod, mahorat sirlari, mutolaa mo‘jizalari, kashfiyotlar haqida kechardi. Har bir suhbat biz yoshlarga bir adabiy saboq vazifasini o‘tardi” [3.10.].

Har bir ijodor individual. Har biri o‘z uslubi va yo‘nalishiga ega. Erkin Vohidov ijodi xalqona, sodda, badiiy jihatdan yuksak sayqal topgani bilan alohida ajralib turadi. Shoir hamisha haqiqatga tik qaragan holda chinakam vatanparvarlik g‘oyalarini, insoniy tuyg‘ularni turfa ranglarda ifoda etadi. Shoir she‘rlarida mavzu xilma-xil bo‘lsa-da, ularning barchasi inson tuyg‘ulari tasviri bilan omuxtalashib ketganini kuzatish mumkin.

She‘r – ko‘ngil mayli. Shoir qalbida jo‘sh urgan qaynoq tuyg‘ularning ifodasi o‘laroq yuzaga chiqadigan ushbu hodisaga shoir “ Bag‘ishlov” she‘rida shunday ta‘rif beradi: “She‘r asli dilning savoliga dilning javobidir...”[3.11] Shoir o‘quvchi qalb savoliga javob bera olsagina she‘r haqiqiy tuyg‘ular kuychisiga aylana oladi.

Mustaqillikdan keyingi islohotlar inson tuyg‘ulari talqinida ham yangilanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Shoir ijodini o‘rganar ekanmiz, bu kabi tuyg‘ular talqinidagi yangilanishlarning yuksak tarannumini kuzatish mumkin. Shoir she‘rlarining yaratilganiga ancha vaqtlar o‘tsa-da, bugungi kun uchun ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ota-bola, yaqinlar, qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘zgarishlar bir-biridan uzoqlashish, begonalashish kabi munosabatlar avj olib bormoqda. “Ruhlar isyoni” dostonida xalqlar o‘rtasidagi kurash, jaholat, zulm, ota-bola o‘rtasidagi munosabatlar yorqin bo‘yoqda qalamga olingan. Shohi Jahon va Avrangzeb haqida keltirilgan rivoyatda o‘g‘ilning ota boshiga solgan ko‘rgiliklari, zindonda yotishga mahkum qilishi aks ettiriladi. Ota o‘g‘ilning quvonchi, baxti uchun borini beradi. Farzandining har bir harakatidan quvonadi. Ammo o‘g‘il otasiga yaxshi farzand bo‘la olmaydi, unga qarshi isyon ko‘taradi.

Hozirgi zamonaviy o‘zbek nasrida ham bu kabi holatlar ko‘p bor qalamga olinmoqda. Iste’dodli yozuvchi Salomat Vafoning “Poyezd” hikoyasi qahramonlaridan biri sanalmish Odil qori va

uning xotini Toshkentdagi o'g'lini ko'rish uchun uzoq yo'l bosib kelishadi. O'g'il esa ertasi kuni farzandlarini olib Chimyonga ketishadi. Farzandining mehrsizligidan kuygan ota-ona bo'zlab qolaverishadi. Ona kasal bo'lib yotib qoladi. Uning birdan bir aytgan gapi esa "Toshkentdagi Orif boshqa ekan". [1.358] Ushbu birgina jumla ona qalbining chilparchil bo'lganini, farzandining mehrsizligi sababli kuygan qalbning tug'yonlari po'rtnasini ifodalaydi.

Har ikki holat ham bir-birini takrorlamasa ham, har ikkisida insonlar o'rtasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibat, qon-qarindoshlarning uzoqlashib ketishi, oralaridagi "silai rahm" ni uzish kabi holatlarning badiiy bo'yoqdagi ifodasini ko'rsatib beradi. Ushbu holatlar ko'z o'ngimizda sodir bo'laayotgan rad etib bo'lmas haqiqatlardir.

Muhabbat – go'zal tuyg'u. Uning bahosini boylik bilan o'lchash, sevishgan yoshlar o'rtasiga rahna solish, guldek qizlarini boylik, mansab uchun yoshi kata, qari kishilarga uzatib yuborish kabi holatlar azaldan mavjud. Shunday bo'lishiga qaramay davrning eng og'riqli nuqatalaridan biri bo'lib qolaveradi. Shoirning "Majnuntol" she'rida

Hamon yodimdadir u g'amli ko'zlar,
Shu oqshom aytilgan alamli so'zlar:
"Ota...", "boylik...", "taqdir...", "nikoh...", "qari chol..."
va "Xayr, xush qol!..." [3.16]

kabi satrlar vositasida otasining qarori bilan boyligi uchun qari cholga nikohlangan qiz iztiroblarini ko'z oldimizga keltiramiz.

Zulfiya Qurolboy qizining "Qadimiy qo'shiq" hikoyasida momaqaldir ovozidan qo'rqib ahvoli og'irlashgan, Abdurahmon eshonning ilm-u amali bilan o'ziga kelgan va oqibatda eshonning "issiq-sovug'i" tufayli unga nikohlanishga majbur bo'lgan yosh qiz Shohsanamning achchiq qismati, oshiq yigit Sultonmurodning ayanchli taqdiri yoritib berilgan. Eshonning zavjasiga aylangan Shohsanamning xayoli bilan yashagan yigit uylanib ham qizni unuta olmaydi. Eshonning vafotidan so'ng ham odamlardan ayri holda hech kimga qo'shilmay yashagan Shohsanam og'ir dardga yo'liqib, omonatini topshiradi. Qizning xayoli bir zum ham tinch qo'ymagan yigit oqibatda telba bo'lib qoladi. Oqibatni o'ylamay,

boylik, ilmu amal ta'sirida hayotga yengil-yelpi qarash, otionalarning gulday farzandlari umrini arzimas matohga teng ko'rib o'yinchoq qilishlari bugungi kunning ayni rad etib bo'lmas haqiqatlaridan biri.

Shoir qisqa so'zda ushbu holatni teran ifodalay olish orqali o'quvchini vaziyat bilan tanishtiradi. O'quvchini lirik qahramon qismatiga sherik qiladi. Bu sheriklik majnuntolga murojaat bilan boshlanishi, majnuntol tasviridagi o'ziga xoslik shoirning peyzaj uslubidan mahorat bilan qo'llashi orqali she'rga uyg'unlashib go'zal badiiy ifoda yaratadi.

Badiiy adabiyot uchun inson va uning tuyg'ulari, qalb tovlanishlari, murakkab va anglab bo'lmas qalb sezimlari doim asosiy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Shoir ijodi inson tuyg'ularini tasvirlashda, tuyg'ulardagi o'zgarish va yangilanishlarni badiiy mushohada qilishda o'zining falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Shoir yuksak tuyg'ular kuychisi sifatida qalbimizda mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurolboy qizi Z. Qadimiy qo'shiq. – T.: O'zbekiston, 2012. 358-bet.
2. Vafo S. Nomsiz kema. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2015, 288-bet.
3. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2016.
4. Vohidov E. Ruhlar isyoni. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.

SAMIMIYATGA YO'G'RILGAN IJOD

*Gulnavoz MAMADALIYEVA,
NamDU magistranti*

Annotatsiya. Maqolada buyuk o'zbek shoirlaridan biri bo'lgan, Erkin Vohidov hayot yo'li va ijodining rang-b arangligi, mavzu qamrovi keng ekanligi tahlil qilingan. Shoir satrlarida takrorlanmas so'z qo'llash mahorati, teran fikrlari, qalb izhori yoritilgan. Bundan tashqari uning ijod namunalarning xalqona ruhda ekanligi va taribiyaviy ahamiyatga egaligi alohida o'rinda keltirilgan.

Kalit soʻzlar. ijodkor, madh, sevgi, tarannum, hajv, sheʼr, yumoristik, satirik, toʻplam.

Har bir kitobxon borki, oʻzining sevimli, oʻrnak oladigan, asarlaridan ilhomlanadigan ijodkorlari boʻladi. Mening ana shunday sevikli adibim, Oʻzbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovdir. Shoirning ijod yoʻli bilan tanishar ekanmiz, unda Vatan mavzusi, ona xalqimiz, muhabbat tuygʻulari, inson va uning orzu-xayollari, sir-sinoati, umidlari tarannum etilganligining yaqqol guvohi boʻlamiz. Uning kamalakdek rang-barang, jilvakor, purviqor, oʻzida olam-olam maʼno jam etgan asarlarini oʻqir ekansiz adabiyotga, kitobxonlikka ishtiyoqingiz ortaveradi. Erkin Vohidovning dastlabki ijod namunalarida orzulari ummon- ummon, hayotga intilib yashayotgan, bugungi kundan zavq olayotgan, soxtalik, magʻrurlik unga begona navqiron yigit koʻz oldingizda namoyyon boʻladi. Erkin Vohidov oʻz uslubini, badiiy mahoratini goh lirikada, goh mumtoz poetikada, goh tarjimada, goh dramaturgiyada namoyon etib, bir qator ibratli yutuqlarga erishgan. Oʻzining tiniq adabiy-estetik tizimiga, badiiy dunyoqarashiga ega ijodkor oltin tojga qadalgan javohir kabi koʻzga yaqqol tashlanadi. Bunday isteʼdod egalari oʻzining dunyoqarashi bilan kelajakka nazar tashlaydi. Masalan, “Isteʼdod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham gavhar, isteʼdod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrat, ummonlarning teranligi bor, isteʼdod Shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan gʻunchasida chamanlarning boʻyi va tarovati bor” (Erkin Vohidovning “Chaqmoq umri” maqolasidan).

Shoirning oʻzi esa ijodiga nisbatan oʻta talabchan va ehtiyotkor. U shoirlikni mehnat deb, qismat bitigi deb biladi. Ona yurt neʼmatlaridan bahramand boʻlgan, kindik qoni tomgan tuprogʻining dovrugʻini yuksaltirish uning eng oily maqsadidir. Vatan madhin bitmagan, Vatan haqida kuylamagan birorta ham isteʼdod egasi boʻlmasa kerak. Lekin Erkin Vohidovning bu mavzudagi yozganlar asarlari betakrordir. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Vatan, to tanamda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,

Tanim xok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.

Erkin Vohidov Vatani, yurti, millati, xalqini yonib, jo'shib
kuylaydi. U tanasida joni bor ekan Vatani haqida o'ylaydi. Tanam
tuproqda o'lsa ham men sen bilanman deb baralla aytadi.

Jahon kengdir, falak kengdir,
Yurak kengdir, chi sen borsan
Seningsiz ikki dunyo tor,
Seningdirman, seningdirman

Shoir so'z tanlashda juda ehtiyotkor. Shunday so'zlar tanlaydiki,
bir o'qishda qanday yod olganingni bilmay qolasan. U odamlarning
yuragidagi dard-u o'ylarini yaxshi biladi va buni o'z she'rlarida
tarannum etadi. Asrlar davomida madh etib kelinayotgan Vatan
mavzusi uning qalamida o'zgacha joziba topganini ham shuning bilan
izohlash mumkin.

Erkin Vohidov mavzu qamrovi keng ijodkordir. U faqat
ijtimoiy-ishqiy she'riyat yaratib qolmay, balki hajviy yumoristik
she'rlar muallifi hamdir. Uning «Manfaat falsafasi», «Sen menga
tegma», «Majlis qiling» kabi she'rlarida ham kamoli inson uchun
kurash muammosi bosh g'oyani tashkil etadi. Erkin Vohidovning
turkum she'rlar ham yozgan. Ulardan biri – “Donishqishloq latifalari”
she'rlari bo'lib, ushbu turkumdan o'n yettita mustaqil she'r o'rin
olgan. Ushbu mashhur turkum hajviy she'rlardan iborat bo'lib, undagi
she'rlar satirik va yumoristik mazmunda yozilganligi bilan ham
ahamiyatli. Turkumning ilk she'ri “Matmusaning qishlog'i” deb
atalib, bu she'r turkumning bosh qahramoni bo'lgan Matmusa
yashaydigan Donishqishloq haqidagi umumiy tasavvurni beruvchi
turkumning kirish qismi deyish mumkin.

Donishqishloq degan joy
Bordir bizning tomonda.
O'sha qishloq ahlidek
Dono xalq yo'q jahonda.
Jo'yak tortib tomiga,
Makka ekkan o'shalar.

Kalishini perronga
Yechib ketgan o‘shalar.

Turkumdagi, “Matmusaning charxpalagi”, “Matmusaning uylanishi”, “Matmusa – rassom”, “Matmusaning dutori”, “Tandir kiygan Matmusa”, “Matmusaning qo‘shig‘i”, “Matmusaning Amerika ochishi”, “Matmusaning haykali”, “Matmusaning eshak sotgani”, “Matmusaning bog‘i” kabi she‘rlar satirik janr asosida yozilgan she‘rlardir. “Matmusaning dutori” ni o‘qir ekansiz ko‘plab o‘zbek erkaklarida uchraydigan fe‘l- atvor ya‘ni, er kishini xotinidan tili qisilmaslikka intilishi, xotin qarindoshidan o‘zini ustun tutishi, nima bo‘lsa ham o‘zini haq deb bilish xususiylarini hajviy ravishda yoritganligini ushbu parchada ko‘rishimiz mumkin:

Xotini:

Bir mahal bobomda ham
Shunday cholg‘u bor edi.
Esimda adashmasam,
O‘sha ham dutor edi.
Lekin u chalmay turib,
Qulog‘ini burardi.
Barmog‘i ham manov ip
Ustida yugurardi.
Sen bo‘lsang bitta yerni
Tutgancha qolaverding.
Bir xil ting‘ir-ting‘iringni
Qo‘ymasdan chalaverdin

Matmusaning javobi:

Ey, xotin, sen eringga
Nodon gapni deb qo‘yding.
Nima bo‘ldi? Yo qarib
Es-hushingni yeb qo‘yding?
Bobong qo‘li dutorda
Yugursa, yugurgandir.
Sho‘rlik kerak pardani
Topolmay qidirgandir.

Endi men chalganimda
Og‘zingni yum, jim, deпти.
Bobong parda qidirgan.
Men uni topdim, deпти.

“Matmusaning charxpalagi” ni o‘qigan kitobxonning ko‘z oldiga “Behuda chiranish belni chiqaradi”, “O‘ylamay qilingan ish, boshga keltirar tashvish” kabi maqollar, shuningdek, jamiyatning ongsiz vakili ommani mavhum kelajakka tomon boshlashi namoyon bo‘ladi.

Turkumdan joy olgan “Matmusaning qalpog‘i”, “Matmusaning lagani”, “Qiziquvchan Matmusa”, “Matmusaning mehmondo‘stligi”, “Matmusa va o‘g‘rilar” kabi she‘rlar yumoristik yo‘l bilan yozilgan.

Ulardan biri “Qiziquvchan Matmusa” da qiziquvchanlik doim ham yaxshilik olib kelmasligi, o‘ylab qadam bosish kerakligi, shoshqaloq bo‘lmaslik uqtirilgan. She‘r so‘ngida Matmusadan maslahat berib o‘tilgan:

Ey, odamlar, bilishdan
O‘zingizni tiymanglar.
Qiziquvchan bo‘lsangiz
Yangi ko‘ylak kiymanglar!

“Donishqishloq latifalari” turkumi ajib bir xalqona tabassumi, zavqli kinoyasi, zarofati bilan keng o‘quvchilarning mehr-muhabbatlariga, tahsiniga sazovor bo‘layotgan asardir. E.Vohidovga “Xalqning dilidagi gapni topib yozadigan shoir”, – deb baho beradi Ibrohim G‘afurov.

Ushbu turkumning yana bir o‘ziga xos jihatlari shundaki, undagi she‘rlarning yagona qahramoni – Matmusaning mavjudligi, yagona zamon, ya‘ni Matmusa yashayotgan zamon tasvirlanganligi, she‘rlarning hammasi hajviy usulda yozilganligi, Matmusa bilan bog‘liq latifalar tasviriga bag‘ishlanganligi, she‘rlardagi yaxlit tasvir noma‘lum, ya‘ni hayotda borligi gumon bo‘lgan makon bo‘lsa-da, badiiy to‘qima uchun o‘rinli bo‘lgan shartli-kinoyaviy nomlangan Donishqishloq tushunchasining mavjudligi kabilarda aks ettirilgan.

Shoir ijodining rang-barangligi va kitobxon ko‘ngliga birday yoqishining asosiy sabablaridan biri, uning marjonday tizgan satrlarda xalqona hajviyot, iliq yumorning borligi, tili soddaligi bilan ham

belgilanadi. Yumor orqali dilxiraliklar tarqaladi, yuzga tabassum yuguradi, qalb yayraydi va hayot haqiqatini anglash osonlashadi.

Erkin Vohidov ijodini o'rganish adabiyot muhlislari uchun doimo zavqli va oson ko'ringan. Erkin Vohidov she'riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sərbast vaznlarida birdek yuksak saviyada ijod qilgan. E.Vohidov she'riyati mavzuviy jihatdan guruhlarga bo'linsa-da, ular bir maqsad uchun birlashgan. Shoirning asarlarida aytilayotgan fikr, berilayotgan g'oya ijod ahlini o'ziga tortadi. San'atkorning o'ziga xos qarashi, orzu-umidlari, qalb izhori asarida chop etilishi turli-tuman mavzularning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. She'riyatning azaliy mavzularidan biri bo'lgan ishq barcha davrlarda shoirlar ijodida o'z o'rniga ega.

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to'rt satr,
Sirdoshiga asta ko'rsatib,
Qo'shni qizga bermagan kim bor.

Ushbu satrlarni o'qir ekansiz, umrning eng go'zal, takrorlanmas onlari, qaytib kelmas yoshlikning beg'ubor hislarga to'la damlar ko'z oldingizga keladi. Bu lahzalarni har kim boshidan o'tkazgan borki, o'sha muhabbatga oshno yoshlikni sog'inadi, qumsaydi.

Tushdim chog'i men ham domingga,
Ezgu hislat baxsh etding menga
Hayotimga zar lavha bo'lding,
Xayollarim ulfatdir senga.

Lirik qahramon ya'ni, oshiq mashuqining domiga tushganini tan olyapdi. Mashuqasi unga eng go'zal hislar, hayotiga zar lavhalar olib kirganidan baxtliligini namoyon qilyapdi. Bunday go'zal onlari tortiq qilgan sevgini izohlashga hojat yo'q. Asarda yorni anglash, uning sevgisini to'la his qilmoq uchun Shu yosh ya'ni "o'n sakkiz" nazarda tutilgan. Ko'rinib turibdiki, she'r boshidan oxirigacha sevgiliga muhabbat ruhi aks etgan bu misralar go'zallikka oshufta qalb kechinmalariga yo'g'rilgan. Shu bois qo'shiq ohangi ham ana shu

oshuftalikka hamohang. Muhabbat shunday kuch va yuksak tuyg'uki, u paydo bo'lgan joyda faqat go'zallik bo'ladi.

Erkin Vohidov sevgi-muhabbat mavzusini tanlaydimi, insonni o'y-hayollarga chorlovchi falsafiy ruhdagi she'rlarinimi, hayotiy hangoma va voqealardan tug'ilgan hajviy ijod namunalarimi yoki kuchli sohir iste'dodining bir qirrasini sanalgan dramalarimi, publitsistika sohasimi, tarjimonlik yo'lidami, buyuk iste'dod egasi sifatida teran fikrlarimi – bularning bari adabiyot shinavandalarining qalbidan chuqur joy olib bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Erkin Vohidov she'riyatining ayrim qirralari yosh ijodkorlar nazmida yanada sayqal topib bormoqda. Iste'dodli shoirning keng dunyoqarashi bilan yaratilgan har bir asari o'zbek adabiyotining ulkan xazinasini va kelajagini belgilovchi asosiy poydevordir. Erkin Vohidov asarlari tili o'zining mazmundorligi va serjiloligi bilan birga til vositalaridan foydalanishda katta iste'dod va mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Kitobxon uning sodda tilda, xalqona, yaratgan asaridan shuerga to'ladi. Shoir she'rida nima demoqchiligini oson ilg'aydi. Kelajak avlod shoirlari esa, E.Vohidovning boy ijodiy merosidan ilhomlangan holda, yangidan-yangi poetik obrazlarni kashf etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afurov I. Joziba. – T., 1970.
2. Vohidov E. Saylanma: Ikki jildlik. 1-j. Muhabbatnoma: She'rlar, dostonlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1896.
3. Vohidov E. Saylanma.1-kitob. – T.:Sharq, 2001.
4. Vohidov.E. She'rlar. – T.: Sharq, 2015.
5. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.:Sharq, 2016.

NAZMI NAVOLI, NAVOBAXSH SHOIR

*Dilfuza QOSIMOVA,
Guliston davlat universiteti magistri*

Annotatsiya. Inson dunyoqarashini kengaytirishda, mushohada qilishda, estetik his-tuyg'ularni kamol toptirishda adabiyotning o'rnini beqiyos. Aynan beqiyos adabiyotning namunalari xassos ijodkorlar

tomonidan yaratiladi. Shunday iste`dodli,otashqalb ijodkorlardan biri Erkin Vohidov adabiyot olamiga o`z ovozi va inja tuyg`ular kuychisi sifatida kirib keldi Betakror ijod namunalari, samimiy asarlari, umrboqiy satrlari hanuz kishilar ruhiyati va estetikasini tarbiyalab,boyitib kelmoqda. Shoir she`rlaridagi satrlar sodda,jo`n bo`lsa-da, butun borliqni o`zida aks ettirish qudratiga ega.

Kalit so`zlar. Adabiyot, nasr, she`riyat, estetika, poetik tafakkur, poetik qahraman, badiiy so`z, nazm, navo, nasr, badiiy tafakkur, badiiy obraz.

XX asr o`zbek adabiyoti juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o`tgan. 60-yillarda esa sher`riyat yana bir pog`ona yuksaldi. Bu davrda samarali, sermahsul ijod qilgan Erkin Vohidovning ko`plab she`riy asarlarida Vatan, millat, uning erki, ozodligini ifodalovchi mavzular o`rin oldiki, bularning zamirida lirik qahramonning ruhiy-ma`naviy iztiroblari, o`zlikni anglashga bo`lgan intilishlari,orzu va maqsadlari go`zal tashbehtar asnosida talqin etilgan. Iste`dodli shoirning o`zbek adabiyotidagi o`rni beqiyos.

To tirikdirki, tabiat
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha
Uch bu so`z yondosh bo`lur:

Mohiru, mehru, mahorat.
Olimu, ilmu, amal.
Oshiqu, ishqu, mashaqqat,
Shoiru, she`ru, shuur

Yuqoridagi she`riy satrlar muallifi bo`lgan buyuk va atoqli shoir Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg`ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tug`ilgan. Shoir G`ayratiy tomonidan O`quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to`garakka qatnashib, adabiyot sirlarini o`rganadi. O`n besh-o`n olti yoshlariduanuq ancha pishiq she`rlar yoza boshlaydi. Buyuk ijodkorlarning asarlarini berilib o`qish, ulardan badiiy mahorat sirlarini, so`zga mas`uliyat hissini, soddalik va ravonlikni o`zlashtirishida muhim omil bo`ldi. Shuning uchun ham uning «Tong lavhasi», «Kamtarlik haqida», «Buloq»,

«Sevgi», «Ona tuproq» kabi qator she'rlaridagi chuqur ma'no go'zal ifodalar, ajoyib tasvirlar bilan uyg'unlashib ketgan. Masalan, shoir turmushdagi oddiygina holatdan -choy suzilayotganda choynakning piyolaga «egilishi», choy ichayotganda inson piyolaning peshonasidan «o'pishi»dan ajoyib she'r yaratadi:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

Erkin Vohidov ellik yildan ko'proq davr mobaynida ijod etgan asarlarini to'plab, «Ishq savdosi», «She'r dunyosi», «Umr daryosi» va «Ko'ngil nidosi» nomli to'rt jildlik saylanmasini o'quvchilarga taqdim etdi. Bu asarlar faqat shoir qalbining, kechinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham ko'zgusidir. Shoir asarlaridan hayotga, go'zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi.

Erkin Vohidov – poetik tafakkuri g'oyat keng, tiniq, mahoratli, o'z so'zi bilan aytganda xalq hayotini badiiy so'z bilan rangli, o'zgacha, sodda va tushunarli qilib kuylovchi iste'dodli shoir. Shoir qalamiga mansub she'rlarda hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni teran nigoh bilan ko'rish, mushohada qilish, tub mohiyatini anglashga intilish borligini ko'ramiz. Shoirning “quyma misralar”i kitobxon yuragiga kirib, qalb to'ridan joy oladi va uning xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Har bir she'riga o'zgacha pafos, donishmandlik, xalqchilik bilan yondoshgan shoir asarlarida millat sha'niga maqtov yog'dirish, hamdu sano aytishdan ko'ra, ko'proq insonning hayot oldidagi burchini bajarishi, uni anglash kerakligini, hayotda inson degan buyuk nomga munosib bo'lishga undovchi chaqirig'ini his etish qiyin emas. Shoir teran fikrlaydi. Mushohada bilan, yillar tajribasi va hayotiy manzaralardan, dono xalqdan olgan taassurotlarini misralar qa'tiga singdiradi.

U xalqni, millatni, insonlarni o`ziga - ustoz, o`zini esa ulardan bilim oluvchi, o`rganuvchi - tolib ekanini aytib o`tadi. Va o`z kasbini juda chiroyli va ishonarli, haqqoniy so`z bilan tasvirlaydi:

El-ustozim, men esa-tolib,
So`z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o`zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim [1],

Shoir umri davomida o`zi yaratgan ushbu “oltin qoida”ga amal qilib ijod qilgan desak mubolag`a bo`lmaydi.

Shoir she`rlarida samimiyat, dilbarlik, go`zallik, soddalik va barkamollik aks etadi. Shoir she`rlarining buyukligi ham aynan shunda, nazarimda. She`rlarni o`qib, har bir she`rda o`ziga xos navo, musiqiylik, o`yga soluvchi jumboq, kishi aqlini mushohada undovchi teranlik borligini ko`rish mumkin. She`rlar beixtiyor biz uchun yozilgandek tuyuladi, sevilib o`qiladi, misralarda qoqilish kuzatilmaydi, eng asosiysi she`r mazmuni va undagi musiqiylik bizni hayotda yashashga, turmushimizdagi vaziyatlarga o`zgacha ko`z bilan qarashga o`rgatadi, estetik didimizni shakllantiradi, ruhiyatimiz tarbiyalaydi. Aslida adabiyotning bosh vazifasi ham aynan, kishini, uning his-tuyg`ularini tarbiyalashdan iborat. Nazmiga navoni uyg`unlashtirgan navobaxsh shoir, aynan bu ta`rif aynan Erkin Vohidov uchun xos deb o`ylayman. Shoir she`rlarini o`qiganimizda bu she`rlar dastavval qo`shiq bo`lib yaratilgandek, keyinchalik qog`ozga ko`chirilgandek tuyuladi kishiga. Ohangni o`ziga jam qilgan she`riy satrlar o`zlariga yuklatilgan, kishi qalbiga kirishdek ulkan vazifani yuksak mahorat bilan uddalaganlar. Shoir she`rlariga oddiy ko`z qaramaydi, har bir she`riga o`zgacha mehr bilan munosabatda bo`ladi.

Masalan, “Kuzatish” she`rida shunday yozadi:

Qora-qura polaponlarim
Chag`ir-chug`ur qaqajonlarim
Serjanjal.serto`polonlarim
Ko`mganim yo`q sizni ziynatga

Oshno qildim samimiyatga! – deya ta`kidlaydi, o`z she`rlarini samimiy erkalaydi.

Erkinlikda vohid, vohidlikda erkin deya e`tirof etilgan shoirning “Kavkaz she`rlari”, “Azganush”, “Kimni etmas bu ko`ngil shaydo”, “Sevgi”, “Oy fonusin ko`tardi osmon” kabi yuzlab, minglab she`rlari yoqimli navoday jaranglaydi. Bir o`qishdayoq ko`ngilga yoqib qoladi. Shu bois, shoirning barcha she`rlarini “ko`ngil qo`shiqlari” desak xato qilmagan bo`lamiz. Yoki,

Yellar bir daqiqa to`xtang esishdan
Sernavo bulbullar sayramang, bir oz.
Karbalo dashtidan yayov kezishdan
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.

“Fuzuliy haykali qoshida” she`rida shoir g`azal bo`stonida sayr qilmoqda, she`rni o`qir ekanmiz, atrof, tabiat, qushlar hatto barglarning shitirlashi, Fuzuliy ustoz g`azallaridan olingan satrlar shoir misralari bilan uyg`unlash`ib, bir butunlik kashf qiladi. Bu yaxlitlik-hayotbaxsh she`riyat simfoniyasidir.

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko`rksizgina olam yaralgan.

Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to`kar hamon.

Yerni go`zal qilgani sayin
Go`zal bo`lar o`zi ham inson.

Yoki:

Sevgi Shunday navbahorki,
U tikandin gul qilur,
Toshga jonu til bag`ishlab,
Zog`ni ham bulbul qilur.

Sevgi Shunday dard erurki,
Barcha bo`lg`ay muhtalo,
Muhtaloni neki qilsa
Telba bu ko`ngil qilur

Shoir “Yulduz” (1964) nomli she`rida ba`zan o`z she`rlariga sarlavha topolmay qolgan o`rinlarida, sarlavha o`rnida yulduz qo`yishini va bu yulduz kechayu kunduz porlab nur sohib turishini orzu qilgan edi:

Zuhro kabi charaqlab tursin
Tunlar o`zim, yumganda ko`zim
Hech so`nmasin charaqlab tursin
So`nganda ham mening yulduzim [3].

Shoirning bu orzusi ro`yobga chiqdi. Shoir o`zining sehri, dilbar, go`zal, samimiy, tug`yonli, jilvakor she`riy misralari bilan she`riyatimiz osmonida mangu porlab, kitobxonlar yuragiga mangu nur ulashib charaqlayveradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To quyosh sochgayki nur. E.Vohidov zamondoshlari nigohida. –T.: O`zbekiston, 2018.
2. Vohidov E. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2016.
3. Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.

ERKIN VOHIDOV SHE`RLARIDA INSON QADRI

Dilnoza URALOVA
O`zMU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning to`plamlaridan olingan “Inson” qasidasi, “Inson fe`li ajibdan ajib”, “Inson va fursat”, kabi she`rlari tahlilga tortilgan, unda insonning ulug`vorligi va odamzod uchun muhim bo`lgan fursatning naqadar qimmatli balandligi misollar yordamida yoritilib o`tilgan hamda shoirning asarlaridagi so`z qo`llash mahorati beqiyos darajada ekanligi ko`rsatilgan.

Annotation: This article analyzes poems from the collections of Erkin Vahidov, such as the poem “Human”, “Human behavior is amazing”, “Human and opportunity”, in which the glory of human and the opportunity that is important for mankind the value of which is illustrated by examples, and the skill of word-use in the poet’s works is shown to be incomparable.

Kalit so‘zlar: *qasida, ijod dengizi, yetuk ijodkor, g‘azalnavist, dramaturg, bashariyat*

Key words: *poem, sea of creativity, mature artist, novelist, playwright, humanity*

XX asr she‘riyatining zabardast vakili, ijod cho‘qqisini zabt etgan alpinist, qalamining sehri bilan butun o‘zbek xalqining qalbidan joy olgan adib - Erkin Vohidovni bugungi kun yozuvchi va shoirlari uchun namunali ustoz desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uning yaratga barcha asarlari o‘quvchi ruhiyatiga o‘zgacha ta‘sir qiladi. Bilamizki, Erkin Vohidov “O‘zbekiston Qahramoni”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlar bilan mukofotlangan. U yozuvchi, taniqli shoir, mahoratli tarjimon, dramaturg bo‘lishi bilan bir qatorda g‘azalnavist hamdir. Erkin Vohidovning badiiy tafakkuri ummon kabi g‘oyatda keng va moviy osmon kabi tiniq ekanligini aytib o‘tish joiz. Shoirning qalbi bilan yaralgan she‘rlari o‘lmas qo‘shiqlarga aylanib butun o‘zbek millatining, ayniqsa she‘riyat shaydolarining qon - qoniga singib ketgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir she‘rlarining bu darajada qadrligi ekanligining sababi nimada deb o‘ylaysiz? U qanday qilib bu qadar go‘zal ijod namunalarini yarata oldi ekan? Bu savollarga quyida izoh berishga urinib ko‘ramiz.

Avvalo, Erkin Vohidov asarlarini o‘qib tarjima qilar ekanmiz, uning tili bir muncha oson hamda insonni o‘ziga jalb qiluvchi haqiqiy ruhiyat manzili ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Adib ijodining negizini asosan insonning bu dunyodagi vazifasi, burchini tushunib, anglab yetishi kabi tushunchalar tashkil qilishi sezilib turadi. Ko‘rinadiki, adib inson qadrini ulug‘lagan va buni quyidagi “Inson” qasidasi misolida ko‘rishimiz mumkin:

Sobitu sayyorada inson o‘zing inson o‘zing.

Mulki olam ichra bir xoqon o‘zing, sulton o‘zing.

Sobit o‘z ma‘vosida sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida karvon o‘zing, sarbon o‘zing.

Bu sehrli baytlar orqali adib nima demoqchiligini hamma o‘zicha tasavvur qilib ko‘rgan bo‘lishi kerak. Bu hayotda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarga insonning o‘zi sababchi ekanligi boshdan oyoq ochib berilgan. Qasidadagi asosan “xoqon, sulton, mehmon, mezbon, shayton, g‘ilmon, sirtlon, jayron, sarson, gardon” va boshqa shu kabi jumlar bunga isbot bo‘la oladi. Demak, biz ham inson sifatida hayotimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga bevosita o‘zimiz sababchi bo‘lib qolamiz. Erkin Vohidov shunchaki ijod qilmaydi. So‘zlarimizga dalil sifatida uning Alloh yuqtirgan qobiliyati orqali dunyoga kelgan bir-biridan go‘zal va takrorlanmas insoniy histuyg‘ular orqali hayotga urg‘u beruvchi asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Albatta, bu kechinma va tushunchalar asl zabardast o‘zbek shoiri tomonidan go‘zal qoliplarga solib, tarannum etilgani uchun chet el fuqarosidan farqli o‘laroq o‘zbek kitobxonni darrov tushunib yetishi, shubhasiz. Biroq, inson Yaratganning shunday yaratig‘iki, uni butunlay anglab olishning iloji yo‘q. U xayolan qurbi yetgan ishlarga, hech o‘ylab o‘tirmay qo‘l uradi. Odamzot hech qachon “umrim o‘tib ketmoqda” deb kuyinib o‘tirmaydi, aksincha, o‘tgan umrini yillarda sarhisob qilar ekan, uni bayram qilib o‘tkazadi. Keling, uning quyidagi “Inson fe‘li ajibdan ajib” she‘ridan parchani keltirish orqali, bunga o‘zimiz guvoh bo‘laylik:

Inson fe‘li ajibdan-ajib,
Yo‘qdir unga me‘zonsiz olam.
Yulduzlarni o‘lchar botmonlab,
Qarichlaydi cheksizlikni ham.
O‘zi ega, o‘zi qul mangu
O‘zi topgan aqidalarga,
Ne dey, hatto mangulikni u
Bo‘lib chiqqan daqiqalarga.

Ushbu she‘rda yana bir go‘zal haqiqat borki, bu insonning mavjudligi uning ixlosida ekanligini ko‘rsatib beradi. Inson umrini tartibga solib olganligiga achinmay, dunyodan mamnun yashar ekan, o‘lim ularning hayotiga g‘ov bo‘la olmaydi, sababi ixlosi o‘zidan

keyingi zurriyodlariga o'tib boradi. Lekin, inson umrini tartibga solib ololmagan bo'lsa-chi? Unda uning hayoti qanday kechadi, degan tushuncha kelib chiqadi. Afsuski, bashariyatning barchchasi ham biz yuqorida keltirib o'tgan sifatlarga mos emas. Ammo bu bilan uni qadrsiz deyish noto'g'ri. Negaki, dunyodagi mahluqotlarning eng ulug'i – inson. Unga Alloh tomonidan hech bir jonzotga berilmagan ong ato etilgan. Ba'zan o'sha ongdan unumli foydalanish yodimizdan ko'tariladi va ko'z o'ngimizda daqiqalar shuvvillab o'tib ketganini bilmay qolamiz. Aniqroq qilib aytganda, biror buyuk ish qilish uchun beriladigan fursatni qo'ldan boy beramiz. Ustoz Erkin Vohidov quyidagi parcha orqali yuqoridagi fikrlarni inson yuragini junbushga keltiradigan so'zlar bilan ochib bergan:

Soat qilib,
Zanjir o'tkazib,
Bog'lab oldik fursatni qo'lga.
Ammo fursat bo'ysunmadi hech,
Yurmadi biz istagan yo'lga.
Bizlar uni qo'zg'almas qilib
Mixlab qo'ydik devorlarga ham.
Ammo fursat bizdan yulqinib
Chopa berdi oldinga ildam.

Qancha vaqtni to'xtatishga urinmang u sizga quloq solmay ustingizdan bosib o'tib ketaveradi. Siz esa bu ish uchun ketkazgan fursatingizga kuyib qolaverasiz. Qo'limiz baland kelishini xohlasak, undan o'z ezgu maqsadlarimiz yo'lida foydalanib qolishimiz darkor. Shundagina yo'qotgan vaqtimizga achinmaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoir ijodini tahlil qilishga arzidigan juda ko'p qirralari mavjud. Ya'ni adibning ijod dengizidan hali qanchadan qancha dur-u javohirlarni terib olish mumkin. O'sha boyliklar insonning tashqi ko'rinishiga emas aksincha, ma'naviy dunyosiga o'zgacha joziba bag'ishlashi shubhasiz. Xalqimiz Erkin Vohidovni ulug' shoir deb hisoblash bilan birga, inson sifatida ham ulug'lagan. Ijodkor uning ijodi bilan bir qatorda o'zini ham ardog'lanishini bilgani sayin tinimsiz ijod dunyosidan andoza olib o'zbek ellatiga taqdim qilib borgan. Biz esa adib yaratgan asarlarni

abadiy sevib mutolaa qilish baxtiga muyassar ekanligimizdan xursand bo'lishimiz joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Sharq. 2018.
2. Vohidov E. O'zbekim. Nurafshon businessn. – Toshkent, 2021.
3. Vohidov E. Iztirob. O'zbekiston, – Toshkent, 1992.

ERKIN VOHIDOV – ADABIYOTSHUNOS

*Abdunazar SHAROPOV,
Guliston davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidovning adabiy jarayonga „shoir va yozuvchilar bo'lgan fikr va mulohazalari, "Shoiru she'ru Shuur" asaridagi adabiyotshunoslik oid qarashlari aks etgan.

Kalit so'zlar. Erkin Vohidov, shoir, she'r, shuur, asar, iste'dod, tushuncha, an'anviylik, so'z, mas'uliyat.

Ijod ahliga bo'lgan munosabat har bir davrda o'ziga xos va ijodkor shaxsiga qo'yiladigan talablar, ijod namunasiga bildirilgan fikrlar turfa va xilma-xildir.

Serqirra ijodkor, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov nafaqat she'riyat shaydolari va ijod ahlining balki butun o'zbek xalqining qalbidan joy olgan shoir edi. Erkin Vohidov adabiyotning turli sohalarida qalam tebratdgan: she'rlari, ajoyib tarjimalari, dramalari va publisistik maqolalari bilan tanilgan. Ijodkorning yana bir asari ham borki alohida ahamiyatga ega va unda o'z davri va kelajak avlod ijod kishilari uchun dolzarb masalalar o'z ifodasini topgan. Erkin Vohidov adabiyotshunoslikka oid masalalar va adabiy nuqtai nazaridan bildirgan fikrlari, adabiy o'y va mulohazalari aynan 1987-yilda nashr qilingan "Shoiru, she'ru, shuur" kitobidan o'rin olgan. Kitobning kirish qismida aynan shu nomdagi she'r keltirilgan:

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur

Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so`z yondosh bo`lur:

Mohiru mehru mahorat,
Olimu ilmu amal,
Oshiqu ishqu mashaqqat,
Shoiru she`ru shuur.

Erkin Vohidov shoirlik iste`dodi haqida Shunday deydi: "Barcha iste`dodlar kabi shoirlik iste`dodi ham tug`ma bo`ladi va bolalikdan o`zini namoyon qiladi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o`zidek ayon. Tug`ma iste`dod egasi bo`lmagan „she`riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo`yi havaskor bo`lib qoladilar" [1]. Chumchuq so`ysa ham qassob so`ysin deganlaridek shoir ijod ishida tug`ma iste`dodning roli va ahamiyati asosiy o`ringa qo`yadi. Bu to`g`ri albatta, havas orqali adabiyotga ,umuman san'atga kirib qolib, mazmunan sayoz va bir martalik asarlar yozish bilan o`zini ham o`zgalarni ham ovora qilish shart emas. She`riyatda an'anaviylik tushunchasi mavjud bu asrlar o`sha o`tib kelayotgan g`o`yaviylik va izchillilik kabi yana ko`plab omillar bor. Erkin Vohidov an'anaviylikdan qochib bo`lmasligi barobarida yangilik ham yaratish kerakligini va ayni yangilik yaratishning o`zi ham an'ana ekanligini aytadi. Har bir ijodkor o`z uslubi bo`lishi va "... yangilik topaman deb inson ruhiyatiga singmaydigan ong, qalb qabul qilmaydigan shaklbozlik yoki tumtaroqlik – uslub emas, oddiy didsizlikdir" [2].

"Shoiru, she`ru , shuur" asarida Erkin Vohidov ijodiy faoliyati davomida yozgan va adabiy jarayonning ma`lum bosqichlarida ko`tarilgan muammolar aks etgan maqolalar, adabiy o`ylar, mumtoz she`riyatimiz talqinlari , adabiyotimizga kirib kelgan yosh avlod haqidagi mulohazalar hamda safar xotiralari o`rin olgan.

Erkin Vohidov yaratilayotgan har bir badiiy asar, she`r, roman yoki dramatik asar bo`ladimi avvalo o`quvchilar qalbida joy ola bilsa bas, o`qirman odam uchun yozuvchi yoki shoirni unvoni bor yo`qligi yoxud yoshi muhim emas, o`qirman uchun satrlardagi ma'no-mazmun, badiiyat, haqqoniylik va yuksak estetik did lozim. O`qirman shular orqali biror-bir asar yoki she`rga o`z munosabatini u yoki bu tarzda bildiradi. Shuning uchun ijodkorlar so`zga alohida e`tibor bermoqliklari lozim. "Afsuski, bizda yuzaki yozilgan asarlar

anchagina bor. Ba'zi yozuvchilarimiz, shoirlarimiz so'z ustida mehnat qilishga ikkinchi darajali ish deb qarasar kerakki, ularni asarlarini o'qib ona tilimizning boyligi va rangliligini hamisha his qilavermaymiz", – deb aytganda shoir naqadar haq ekanligini har bir ziyarak kitobxon anglay biladi.

Alisher Navoiyning ayrim g'azallarining sharhi ham o'rin olganligi ham shoirning mumtoz adabiyotga bo'lgan mehri va ayni paytda o'zi ham mumtoz adabiyotdan Ilhomlangan holda zamonaviy nazmda g'azal janrining ajoyib namunalari yaratganligi hech kimga sir emas.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Erkin Vohidov yuqorida keltirilgani kabi serqirra ijodkor, ko'p yillar davomida yosh ijodkorlar uchun she'rlari va dramalari va, umuman, qoldirgan adabiy-badiiy asarlarlari ijod maktabi sifatida qadrlanishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Shoiru, she'ru, shuur. –T.: Yosh gvardiya nashriyoti, 1987.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. www.kh-davron.uz kutubxonasi.

KO'NGLI UYG'OQ SHE'RIYAT

*Abbosbek MO'MINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Erkin Vohidov she'riyat bilan bir qatorda publitsistika, dramaturgiyada samarali mehnat qildi. Lekin, eng avvalo, shoir sifatida nom qozondi, qadr topdi, ustoz shoir bo'lib, adabiyotimizda abadiy iz qoldirdi. Uning g'azallaridagi teran mazmun, quyma ma'no, ravon shakl o'quvchini ham, tinglovchini ham beixtiyor sehrlab qo'yadi. Erkin Vohidovning yana bir yutug'i, she'rlarida so'zlarning turfa ma'nolaridan, shakldoshlaridan, sinonimlari, antonomik xususiyatlaridan juda ustalik bilan foydalanilganligidir. Maqolada shoir ijodidagi shu xususiyatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: sheʼriyat, ona til, xalqonalik, lirik qahramon, falsafa, tabiat lirikasi, mumtoz adabiyot, millat ruhi.

Adabiyot – insoniyatning ichki dunyosini aks ettiradigan shaffof koʻzgudir. Oddiygina soʻz bilan taʼrif etadigan boʻlsak, adabiyot inson qalbidan oʻrin egallagan tuygʻularning aks-sadosi, soʻz va soʻzlashish sanʼatidir. Zero, “Soʻz – libos, maʼno – unda yashirin asror”, deb yozgan ekan Sharqning buyuk allomasi Jaloliddin Rumi. Haqiqiy badiiy asar esa ijodkorning shunchaki ijod mahsuligina emas, kishilar qalbiga ezgulik urugʻini sepuvchi nur, qalblar dardiga shifo boʻlguvchi malham kabi boʻlmogʻi lozim. Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ana shunday oʻlmas va betakror sheʼriyat olamini yarata olgan soʻz sanʼati sohibi, oʻz asarlariga Vatanga muhabbat, ona diyorning porloq kelajagiga ishonch, hayotsevarlik tuygʻularini toʻlaligicha singdira olgan ijodkor edi. Erkin Vohidovning ijod yoʻli betakror va benazirligi bilan xalqimizning bebaho maʼnaviy boyligiga aylangan. Erkin Vohidov xalqimiz uchun samimiy tuygʻular kuychisi sifatida gʻoyat qadrlidir. Inson qalbi, pokiza tuygʻular, quvonch-u shodliklar bilan birga, oʻzbek xalqiga xos boʻlgan bagʻrikenglik, odamiylik, halollik kabi fazilatlar madh etilgani bois uning sheʼriyati barchani oʻziga chorlayveradi.

“Soʻz ham tirik mavjudot. Uning chaqaloqlik, bolalik, oʻsmirlik hamda balogʻat chogʻlari boʻladi. Soʻzda mansub xalqning ruhi, feʼl-atvori aks etadi. Oʻz soʻzingni qoʻyib, oʻzganing zaboriga suyanish — oʻz jigaringni uyingdan haydab, begonani yetaklab yurishdek gap...”

(Erkin Vohidov suhbatlaridan).

Soʻz zargari, tilimiz jonkuyari Erkin Vohidov bir necha tilni, eng avvalo, ona tilini chuqur egallagan, uning boyliklari, nazokati, tarovati, tovlanishlaridan keng xabardor, soʻzni oʻz hukmiga boʻysundirgan sanʼatkor edi. Oʻz ijodida vatanparvarlik, insonparvarlik gʻoyalarini ilgari surdi. Goʻzal va rangin gʻoyalari bilan betakror ijod mahsulini yaratdi.

Shoir sheʼriyatida anʼanaviy mavzular salmoqli oʻrin egallasada, biroq har bir sheʼrida va yoki qoʻyingki, har bir misrasida Erkin Vohidovgagina xos sheʼriyat ruhi sezilib turadi. Ulardagi badiiy ifodaning oʻziga xosligi, shoir shaxsiyatining yuksak axloqiy fazilatlarini bilan uning nafis dunyosi oʻrtasidagi uygʻunlik har

qadamda kitobxon diqqatini o‘ziga tortadi. O‘zbek adabiyotida ishqiy she’rlar ko‘p. Lekin bu mavzuga oid mana bunday satrlarni qaysi shoir she’riga o‘xshatish mumkin?!:

*Ayb etmangiz,
Do‘stlar, bu savdo
Bormi faqat mening boshimda?
Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo,
Kim she’r yozmas mening yoshimda?!*

Shoir ijodi markazida inson turadi. Shoir bu obrazni faqat lirik qahramon ruhiy olami orqali tasvirlamaydi. Bu inson obrazi shoirning lirik qahramonidanda keng va rang-barang qiyofa kasb etadi. Shoir ana Shu rang-barang qiyofadagi inson obrazini ko‘z oldidan qochirmaydi. Odamlarni diyonatga, mehr-oqibatga, odamiylikka chaqiradi.

Erkin Vohidovga nisbatan bemalol “adabiyotga Navoiy etagini tutib kirgan” degan ta’rifni ishlata olamiz. Qalbida mumtoz adabiyotga muhabbat uyg‘onshida Navoiy ijodining o‘rni beqiyos. Balki, Shu uchun ham ba’zi zamondoshlari tomonidan shoirga “o‘z davrining Navoiysi” deya nisbat berilgandir. U bir umr Navoiy dahosiga talpinib, uni ulug‘lab, uning ijodidan kuch olib yashadi:

*Yo‘lning azobidan egilsa kaddim,
Betin zahmatlardan toliksa yurak,
Navoiy ruhidan madad so‘radim...*

Tabiat hodisalari, manzara va holatlarni inson xayoloti, ichki olami bilan muqoyasa qilib, yangilik yarata olish Erkin Vohidov she’riyatining bosh xususiyatlaridan biri, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Shoir tabiat va inson ruhiyatining birligini teran his etadi, tabiatdan yaralgan inson bir umr uning bir qismi ekanligini, bu ikki tushunchani bir-biridan ayro holda bilmaslik, birining zalolati ikkinchisining ham falokati, birining ravnaqi ikkinchisining ham rivojiga asos bo‘lishini bot-bot ta’kidlagan:

*Mulki borliq ichra bir mahal
Ko‘rksizgina olam yaralgan.*

*Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.*

*Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to'kar hamon.
Yerni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.*

Erkin Vohidov adabiyot ostonasiga qadam bosib, o'zining betakror she'riyati, dramaturgiyasi, publitsistikasi bilan nafaqat o'zbek, balki dunyo kitobxonlarining ko'ngil to'ridan muqim o'rin egallaganiga ham yarim asrdan oshdi. Uning she'riyati inson ruhiyati bilan bevosita aloqador. Ijodkor o'zining benazir ijodida hayot go'zalligini madh etuvchi she'rlari bilan adabiyotga tashna qalblarni sug'ora oldi. Asl shoir ruhiyati tabiat bilan bir butunlikda yashaydi. Uning rang-barangligi, mo'jizalarga boyligidan hayratlanibgina qolmay, dunyoni teran anglash, sir-sinoatlaridan voqif bo'lishga ham intiladi. Erkin Vohidov shaxsiyati go'yo olam ichra yana bir olam, she'riyati esa adabiyot ichidagi yana bir o'zga adabiyot edi. Shoir xoh tabiat, xoh muhabbat va yoxud ijtimoiy va boshqa mavzularda qalam tebratganida, jamiyat taqdiri, inson kelajagi haqida o'zining falsafiy mushohadalarini o'rta qo'yadi. Uning yaratgan she'rlari, dostonlari faqat mavzu, janr va uslub jihatidan emas, balki jo'shqin, shiddatli va ayni chog'da beg'uborligi bilan ham ajralib, alohida ahamiyat kasb etadi. Erkin Vohidov ko'p asrlik mumtoz she'riyatimiz an'analarini munosib ravishda davom ettirgan va bunga o'zgacha sayqal bera olgan ijodkordir.

Erkin Vohidov adabiyotga jilg'a bo'lib kirib keldi, lekin katta bir ummonga aylandi. Vatanga, uning cheksiz kengligiga muhabbat, ona diyorning porloq kelajagiga ishonch Erkin Vohidov ijodining eng muhim jihati bo'lib qoladi. Ijod ahli orasida "Chin ko'ngildan aytilgan so'zgina yuraklarga yetib boradi", degan gap bor. Erkin Vohidov she'rlari ana Shunday chin ko'ngildan aytilgan, ko'ngli uyg'oq she'riyatdir. Erkin Vohidov she'riyatining bosh mavzularidan biri – millatparvarlik. O'zbekiston haqida, shu yurt egalarining ko'p ming yillik tarixi haqida aqalli bir misra bo'lsada, she'r yozmagan shoir bo'lmasa kerak. O'zbek she'riyatida ona Vatanimizga, xalqimizga bag'ishlab ko'plab she'riy asarlar yaratilgan. Bular ichida "O'zbekim"

qasidasi, hech Shubhasiz, bu chaman ichindagi bir sara guldir. Millat ruhi, xalqqa muhabbat tuygʻulari aynan Erkin Vohidov ijodiga xos jihatlardir. Chunki milliylikdan xoli boʻlgan har qanday tuygʻu oʻzining taʼsir kuchidan ayriladi. Aynan oʻzbek sheʼriyatini jahon adabiyoti mehvarida ajratib koʻrsatadigan jihat ham milliy ruh, xalqqa, yurtga muhabbat masalalaridir:

*Qayga bormay, boshda doʻppim,
Gʻoz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
Oʻzbekiston, oʻzbekim.*

Har qanday asarni ham oʻqishga arzirli qiladigan jihat undagi tuygʻularning sofligi, samimiyligidir. Bu xususiyatlarning barchasi ustoz shoir, Oʻzbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodida mavjud edi. U yaratib ketgan ulkan ijodiy meros hali necha yillar oʻtsa ham kitobxonlar tilidan tushmasligi bor gap. Inchunin, haqiqiy ijod zavol bilmas va abadiyatga daxldordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Shoir-u sheʼr-u shuur. –Toshkent: Yosh gvardiya,1987.
2. Vohidov E. Tirik sayyoralar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978.
3. Vohidov E. Yoshlik devoni. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1969.
4. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1992.

II. ERKIN VOHIDOV IJODI JAHON VA TURKIY MADANIYAT KONTEKSTIDA

ERKIN VOHIDOV HAQIDA TURKIYADA AMALGA OSHIRILGAN AYRIM TADQIQOTLAR

Huseyin BAYDEMIR,
filologiya fanlari doktori*

Ilm va san'atning beshigi hisoblanuvchi Movarounnahr hududida joy olgan va bu yil mustaqilligining 24 yilligini nishonlayotgan O'zbekiston o'z bag'rida etishtirib chiqargan shoir va yozuvchilarga etarlicha e'tibor va hurmat ko'rsatib, e'zozlaydigan o'lkalardan biri sanaladi. O'zbekiston bo'ylab kezar ekansiz, yo'lingizdagi ko'cha-ko'ylarning, metro bekatlarining nomi shoir va yozuvchilarning oti bilan yuritilishiga guvoh bo'lasiz. Xalq tomonidan ijodiga yuksak baho beriladigan, el ichida sevimli bo'lgan san'atkor va ijodkorlar davlat tomonidan ham muntazam ravishda mukofotlanib keladi. Ijodkorlar orasida mehr-u vafo, bir-birini qo'llab quvvatlash yaxshi saviyada. Shoir va yozuvchilar haqida tez-tez xotira kitoblarining chop etilishi aynan shuning samarasidir. Bu xildagi asarlar boshqa kasb egalari va san'atdan uzoq bo'lgan kishilar uchun katta ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin, ammo adabiyotga oshno bo'lgan yoki bu sohada izlanuvchilar uchun ulkan bo'shliqni to'ldiruvchi vositadir. Ustoz Erkin Vohidov uchun ham shunday xotira kitobi chop etilishi olqishga sazovor tashabbusdir. Bu tashabbusning vafoli boshchilariga, olis-olislarda o'zbek adabiyotiga mehr bilan qiziquvchi shaxs sifatida tashakkur bildirishni o'zim uchun farz deb bilaman. Ojizonalik bilan yozgan ushbu fikrlarimizga ham kitobda joy bergan holda iltifot ko'rsatishlarini so'rab qolaman.

Erkin Vohidov zamonaviy o'zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biridir. Uning shon-shuhrati O'zbekiston sarhadlaridan oshib, dunyoning ko'plab erlariga etib borgan. Bu shoir

* Otaturk Universiteti Adabiyot Fakulteti. Erzurum shahri, Turkiya. hbaydemir@atauni.edu.tr

va nosir haqida boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi Turkiyada ham muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Kelajakda boshqa ko‘z qarashlar va tadqiqot uslublari doirasida o‘zgacha izlanishlar ham amalga oshiriladi, albatta. O‘zbekiston davlatining dunyo bilan yuzlashganiga endigina 24 yil bo‘ldi. Bu vaqt oralig‘i madaniyat tarixi nuqtai nazaridan juda qisqa muddat hisoblanadi. Bu qisqa muddat ichida Turkiyada o‘zbek tili va adabiyoti borasida dissertatsiya, maqola va kitob darajasida yuzlab ishlar amalga oshirildi. Lekin hanuz Turkiyada arzigulik darajasida o‘rganilmagan, bu borada mustaqil tadqiqotlar qilinmagan ko‘plab o‘zbek shoiri va yozuvchilari ham bor. Kelgusida bu arboblarning haqida ham kitob va maqolalar chop etilishi tayin. Erkin Vohidov haqida Turkiyada bir necha kitob va maqola nashr qilingani shoirning muvaffaqiyati va shon-shurati uchun arzigulik bo‘lmasa ham, qisqa vaqt ichida bu ishlarning amalga oshirilgani, albatta, kishini xursand qilmay qo‘ymaydi.

O‘zbekiston mustaqil bo‘lmasdan ilgari Erkin Vohidov haqida mustaqil tadqiqot yo‘q edi. Bir qancha joyda shoir haqida qisqa ma‘lumotlar berib o‘tilar yoki ismiga havola qilib qo‘yilar edi. Biz shoirning haqiqiy iste‘dodini mustaqillikdan keyingina bilib oldik. Bizga adibni tanitgan bosh tadqiqot va izlanishlar quyidagilardir:

Marhum Bayram O‘roq tayyorlagan bu kitob Turkiyada Erkin Vohidov haqida chop etilgan ilk tadqiqotdir⁵⁴. Kitobning O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan yilda nashr etilgani nihoyatda ulkan muvaffaqiyat, qolaversa juda ma‘nodordir. Kitobda navbati bilan “Bosh so‘z”, “Kitobning tayyorlanishi haqida” (s. 1-2), “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va Erkin Vohidov” (s. 3-20), “Tanlangan She‘rlar” (s. 21-201) va “Manbaalar” (s. 202) nomli sarlavhalar joy olgan. “Kitobning tayyorlanishi haqida” sarlavhasi ostida yozilgan qismda bu kitobdagi she‘rlarning Erkin Vohidovning 1986-yilda chop etilgan “Muhabbatnoma” va “Sadoqatnoma” o‘tli kitoblaridan tanlangani ta‘kidlab o‘tilgan. Shuningdek, she‘rlarni turk tiliga o‘g‘irishda e‘tibor berilgan jihatlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va Erkin Vohidov” qismida o‘zbek adabiyotining tarixiy davrlari va o‘zbek she‘riyatining bosib o‘tgan

⁵⁴ Erkin Vohidov, Seçme Şiirler, (Hazırlayan: Bayram Orak), Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1991, 202 sayfa. (Эркин Воҳидов, Танланган Шеърлар. (Нашрга тайёрловчи: Байрам Ўроқ). Маданият Вазирлиги нашриёти. Анкара, 1991. 202 саҳифа.)

bosqichlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Undan keyin Erkin Vohidovning qisqa biografiyasi keltirilgan. Bolalik xotiralari ham berilgan ushbu qismda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1987-yilda nashr qilingan 6- sonidan parchalar keltirilgan. Keyingi satrlarda shoirning she'r san'ati va mahorati haqida to'xtalangan. Uning O'zbekistonda sevimli shoir ekani va asarlari qo'ldan-qo'lga o'tib yurishiga doir misollar berilgan. Turkiya bilan qiyoslab o'tgan quyidagi ma'lumotlar nihoyatda qiziq va ma'nodordir: "...*Muhabbatnoma va Sadoqatnoma kitoblarining har biri 1986-yilda 25 ming nusxadan nashr qilingan. ...50 million atrofida aholiga ega bo'lgan Turkiyada eng mashhur shoirning kitoblari ko'pi bilan 5000 adad chop etilishini e'tiborga olsak, 15-16 million aholi soniga ega bo'lgan O'zbekistonda yigirma minglik, yigirma besh minglik nusxalarning qanday ma'noga egaligi va shoirimiz O'zbekistonda qanchalik qiymatli ekani ochiq-oydin anglashiladi, deb o'ylaymiz*" (s.16-17). Bu bo'limning keyingi qismlarida shoirning O'zbekistonda sevimli bo'lishining sabablari haqida fikr yuritilgan va bu holat shoirning milliy qadriyatlari, madaniyati va ildizlariga sodiq qolgan holda ijod qilishi bilan izohlangan (s. 17-20).

"Tanlangan She'rlar" bo'limida shoirning 70 ash'ori berilgan. Unda she'rlarning ham o'zbekcha, ham turkcha tarjimai joy olgan⁵⁵.

Bu kitobda 21 o'zbek shoirining she'rlaridan saylanmalar joy olgan. Bu shoirlardan biri Erkin Vohidovdir. Unda shoir haqida qisqacha ma'lumot va ushbu she'rlarining o'zbekchasigagina joy berilgan: "Inson", "Fursatin", "She'riyot", "Yuragingda makon tutgan qul", "Tush" (s. 31-40).

Bu maqolada⁵⁶ muallif zamonaviy o'zbek she'riyatini davrlarga qarab quyidagi bosqichlar bilan ko'rsatib o'tadi: 1. 1917-1919 Qaytadan tiklanish davri; 2. 1930-1941 Yuksalish davri; 3. 1941-1955 Ikkinchi Jahon Urushi va undan keyingi davr; 4. 1956-1988 yillar orasi yangilanish davri.

⁵⁵ Günümüz Özbek Şairleri Antolojisi, (Hazırlayan: Tahir Qahhar; Transkripsiyon, çeviri ve sözlük: Hüseyin Özbay), Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1995, 310 sayfa. (Замонамиз Ўзбек Шоирлари Антологияси. (Нашрга тайёрловчи: Тохир Қаҳҳор; Транскрипция, таржима ва луғат: Хусайн Ўзбай). Маданият Вазирлиги нашриёти. Анкара, 1995. 310 саҳифа.)

⁵⁶ Ertuğrul Yaman, "Çağdaş Özbek Şiiri", *Türk Dili (Türk Şiiri Özel Sayısı V)*, Sayı 531 (Mart 1996), s. 905-979. (Эртуғрул Яман. "Замонавий ўзбек шеърляти". *Түрк Дили (Түрк шеърляти махсус сони V)*. Но 531. (Март 1996). с. 905-979.)

Erkin Vohidovga oxirgi bo‘limda joy berilgan. Unda shoir haqida qisqacha ma’lumot va uning *Kamtarlik Haqida, Vatan Istagi* nomli ikki she’rining o‘zbekcha va turkchasi berilgan⁵⁷. (s. 947-950).

Olim zamonaviy o‘zbek she’riyatini davrlariga ko‘ra qisqacha bayon qilib o‘tgandan so‘ng ba’zi shoirlarning she’rlaridan o‘rnaklar berib o‘tgan. Erkin Vohidovning “Shoir”, “O‘zbekim”, “Buloq”, “Ona tilim o‘lmaydi”, “Yuragingda makon tutgan qul” nomli besh she’rining o‘zbekchasi va turkcha tarjimalari keltirilgan (s. 26-33).

Bu antologiyada⁵⁸ Erkin Vohidov haqida qisqacha ma’lumot va O‘zbekim she’ri joy olgan. *“Bugungi o‘zbek she’riyatining bir qancha eng yaxshi va zabardast namoyondalaridan biri sifatida qabul qilinuvchi Erkin Vohidov”* satrlari bilan boshlangan shoir haqidagi ma’lumotda quyidagi satrlar e’tiborni tortadi: *“Erkin Vohidov 1960-yillardagi kommunizm ideologiyasi va turli cheklovlar bilan chegaralangan adabiyotga tabiiy go‘zalliklar va turli tuyg‘ularni jo‘shqin ravishda tarannum etuvchi she’rlari orqali yangicha nafas sifatida kirib keldi. Erkin Vohidovni shoir sifatida tanitgan va milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan bu she’rlari mumtoz o‘zbek adabiyoti bilan zamonaviy adabiyot o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. 1969- yilda nashr qilingan “Yoshlik Devoni” muallifga katta shon-shuhrat olib keldi. Bu asardagi O‘zbekim qasidasi, ... yosh avlodning milliy ruh va jasoratini qayta topishiga xizmat etdi”* (s. 107). Shoir haqidagi ma’lumotdan keyin uning “O‘zbekim” she’ri keltirilgan. She’r turk tiliga Shuayip Karakash tomonidan o‘girilgan.

Erkin Vohidov haqida Turkiyada qilingan eng qamrovli tadqiqot ushbu doktorlik dissertatsiyasidir⁵⁹. Dissertatsiya Kirish (s. 1-17), Erkin Vohidovning hayoti va asarlari (s. 18-60), Tadqiqot (s. 61-388), O‘zbekcha she’rlar (s. 389-875), Turkcha she’rlar (s. 876-1266), Xulosa (s. 1267-1274), Manbaalar (s. 1275-1296), Lug‘at (s. 1297-

⁵⁷ Timur Kocaoğlu, “Çağdaş Özbek Şiiri”, Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, Sayı 1, Bahar 1996, s. 1-53. (Тимур Хўжаўғлу. “Замонавий ўзбек шеърляти”. Türk Dünyası Dil ve Edebiyat журналі. Но 1. Баҳор 1996. с. 1-53.)

⁵⁸ Tahir Kahhar, “Erkin Vâhidov”, *Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi 16 Özbek Edebiyatı III*, Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara 2000, s. 107-109. (Тоҳир Қаҳҳор. “Эркин Воҳидов”. *Туркиядан ташқаридаги туркий адабиёт антологияси 16 Ўзбек Адабиёти III*. Маданият Вазирлиги нашриёти. Анқара 2000. с. 107-109.)

⁵⁹ Veli Savaş Yelok, “Erkin Vahidov’un Şiirleri Üzerine Şekil ve Muhteva Bakımından Bir Değerlendirme”, *Türkiye Sosyal Araştırmalar Dergisi - Turkish Journal of Social Research*, Yıl/Year 11 . Sayı/Issue (3). Aralık/December 2007, s. 111-130. (Вели Саваш Елўк. “Эркин Воҳидов шеърларининг шаклий ва таркибий жиҳатлари ҳақида мулоҳазалар”. *Туркия Иجتимоий Тадқиқотлар Журнали - Turkish Journal of Social Research*. 11. йил . Но 3. Декабр 2007. с. 111-130.)

1370), Turkcha annotatsiya (1371-1372) va Inglizcha annotatsiya (1373-1374) bo‘limlaridan iboratdir.

“Kirish” qismida Erkin Vohidovning qanday adabiy iqlimdan etishib chiqqanini ko‘rsatib berish maqsadida XX asr o‘zbek adabiyoti “Milliy Uyg‘onish Davri O‘zbek Adabiyoti (1900-1929)”, “Sotsialist Realizm Adabiyoti (1930- 1960)” va “YAngi Uyg‘onish va Mustaqillik Uchun Kurash Davri Adabiyoti (1960-1990)” bo‘limlari ichida tadqiq etilgan.

Birinchi bobda Erkin Vohidovning hayoti haqida ma‘lumotlar berilgan; adibning ijodi esa “She‘riy Kitoblari”, “Nasriy Asarlari”, “Dostonlar”, “Tiyatr Asarlari” va “Tarjimalari” bo‘limlariga bo‘lingan holda ko‘rsatilgan. Tadqiqotning asosiy qismini tashkil etuvchi ikkinchi bobda *“Ishq savdosi”*, *“She‘r dunyosi”* va *“Umrin Daryosi”* nomli kitoblaridagi 422 she‘rning nazm shakli, tarkibi, vazn, til va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Uchinchi bobda ushbu asarlardagi she‘rlarning lotin harfli transkripsiyasi; to‘rtinchi bobda esa bu she‘rlarning turkcha tarjimasi joy olgan. Undan keyin matnlarni tushinib anglab etish va tahlil qilishda ko‘mak bo‘lishi maqsadida kichik lug‘at qismi ham tayyorlangan.

Izlanuvchining tadqiqot oxirida chiqargan ushbu xulosasi e‘tiborni tortadi: *“Erkin Vohidovning hayoti yashagan davri kabi turli hodisotlarning ta‘siri ostida qolgan. Ikkinchi Jahon Urushining mashaqqatli kunlari, Sovet hukumatining istibdodiy boshqaruv tushunchasi, prestroyka va glastnost davri va bu davrdan keyin mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishi davrini shaxsan boshdan o‘tkazgan Erkin Vohidovning so‘z boyligi dunyosi mana shu davrlardagi ijtimoiy va siyosiy hodisalarni aks ettiradi. SHu bois haqiqiy qiymatlari matnning ichida ekani bilan birga drammatik ve tragedik o‘xshashliklar bilan falokat va umidsizlik atmosferasining nishonasi mohiyatida bo‘lgan so‘zlarning ko‘tarinkilik darajasi e‘tiborni jalb etadi. Qo‘llagan so‘zlari bilan shaxs sifatida drammatik idrokni namoyon etgan shoir falsafiy qarashlari bilan lirikani bir-biriga ulashga intiladi. Erkin Vohidovni qanchalik ishq va muhabbat shoiri deyish mumkin bo‘lsa, shunchalik fikr va qarash, hurriyat va xayolot shoiri ham deyish mumkin”* (s. 1274).

Maqolada boshlab shoir haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. “She‘rlarining tahlili” qismi “Shakl” va “Tarkib” bo‘limlariga bo‘lingan holda tadqiq etilgan. Izlanuvchining xulosa qismidan joy

olgan mulohazalari qisqacha shunday berilgan: “Shoirlikni “jondan voz kechish”dek ko‘radigan Erkin Vohidovga ko‘ra, shoir insoniyat yashaydigan joydagi barcha voqea-hodisalardan mas’ul bo‘lgan kishidir. Uningcha, “shoirning dardi – xalqning dardi” va shoir “har bir so‘zi xalqning va zamonasining faryodi, oh-u nolasi bo‘lsagina” baxtiyor bo‘lg‘usidur. Shu bois Erkin Vohidov millatining va yashagan davrining faryodi bo‘la olish yo‘lida xizmat qilgan. Mahoratli adib so‘z, jumla va misrada yangi his va hayajonga mos ravishda yangiliklar qilib turgan. Erkin Vohidov mumtoz she‘riyatdagi ko‘rinish va mazmunlarni yo‘q qilish tarafdori emas. Aksincha, shoir o‘tmish bilan munosabatning qaytadan tiklanishiga ishonch bildirib, klassik davr asarlaridagi xususiyatlarni ham klassik she‘riyatning, ham xalq tilining ranglari bilan jilolagan. Har bir so‘zning eng nozik va latif jihatlarini bilan qo‘llashga mohir bo‘lgan Erkin Vohidov hayotning barcha chigalliklari, jamiyatdagi bo‘ronlar, kulfat va mashaqqatlar oldida o‘ziga xos munosabat bildirgan” (s.128-129)

Ushbu tarjimai holni⁶⁰ Erkin Vohidov o‘z qalami bilan yozgan bo‘lib, unda adib o‘zini turk kitobxonlari bilan tanishtiradi. Shoirning hayot hikoyasi sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan ushbu maqola shunday tugallanadi: “Tarjimai holimning bari yozgan she‘rlaringa, yurgan yo‘llaringa, ko‘nglimdan joy bergan odamlarga sochilgan. Quyidagi ikki satr o‘ylab topilgan emas, balki kundaligimdan chiqqan so‘zlardir:

Odamlar, siz mening hayotim,
Har biringiz umrim parchasi 1987

Shuningdek, “Kamtarlik Haqida” va “Masal borku” nomli ikki she‘rining turkcha tarjimalari ham berilgan. She‘rlar Ibrohim Bulbul tomonidan turkchaga o‘girilgan⁶¹ (s. 4-5).

⁶⁰ “Erkin Vahidov 70 Yaşında (Kendi Kaleminden Özgeçmiş)”, *Kardeş Kalemler Aylık Avrasya Edebiyat Dergisi*, Yıl 1, Sayı 2, Şubat 2007, s. 4-5. (“Эркин Воҳидов 70 Ёшда (Ўз қалами билан таржимаи холи)”. *Қардош Қаламлар Ойлик Евроосиё Адабиёт Журнали*, 1, Но 2. Февраль 2007, с. 4-5.)

⁶¹ Veli Savaş Yelok, “Erkin Vahidov’un Kelime Dünyasına Bir Bakış”, *Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi - The Journal of International Social Research*, Volume 1/3 Spring 2008, s. 442-470. (Вели Саваш Елўк. “Эркин Воҳидовнинг Сўз Дунёсига Бир Қараш”. *Халқаро Ижтимоий Тадқиқотлар Журнали - The Journal of International Social Research*. Но 1/3 Баҳор. 2008, с. 442-470.)

Bu maqolada⁶² Erkin Vohidovning she'rlaridan kelib chiqib, uning uslubini tashkil etgan xususlardan fonetik unsurlar bilan so'z unsurlari xususida to'xtalib o'tilgan va shoirning so'z dunyosi tasvirlangan.

Maqolada qisqa kirish bo'limidan so'ng Erkin Vohidov haqida ma'lumot keltirilgan va asosiy qismga o'tilgan. "Erkin Vohidovning So'z Dunyosi" bo'limida joy olgan kichik bo'limlar orqali masala chuqur tahlil qilingan. Bu kichik bo'limlar quyidagilardir: So'z Frekanslari va Mohiyatlari: Fe'llar, Otlar, Sifatlar, Olmoshlar, Ravishlar, Ko'makchilar, Taqlidiy so'zlar, Iboralar, Maqollar va epigrammalar, Takroriy so'zlar, Takroriy Jummlalar.

Maqolaning xulosa qismida izlanuvchining mulohazalaridan ayrimlarini shunday qisqacha ko'rsatib o'tish mumkin: *"Erkin Vohidov o'z she'rlarida o'zbekchada bor bo'lgan sodda va keng qo'llaniladigan so'zlarni tanlash bilan birga, mumtoz she'riyatda keng qo'llanilgan so'zlarga ham mohirona ravishda joy bergan. Bundan tashqari Erkin Vohidov xalq shevalaridan va xalq og'zaki ijodidan foydalangan holda tabiiy, jonli, ravon uslub namoyon etgan. Ijtimoiy va siyosiy hodisalarga qarshi o'z munosabatini ko'rsatishda zid ma'noli so'z va ifoda shakllaridan tez-tez foydalanib turgan adibning she'rlarida hayajon va majoziy ifoda shakllari sababli leksik jihatdan ot so'z turkumining ko'pligi ko'riladi. Ba'zan o'git beruvchi, ba'zan so'roqqa tutuvchi, ba'zan voqealar oldida chorasiz qolgan, ba'zan esa yuzlashgan qiyinchilik va mashaqqatlarning echimini insonning ruhiy olamining yangidan barpo etilishida topgan asabiy va ko'tarinki tazodlar bilan to'la misralari Erkin Vohidovning poetikasini belgilab beradi. Erkin Vohidov qo'llagan ravish so'z turkumlariga nazar solsak, ko'pincha payt ravishlaridan foydalanilganini ko'ramiz"* (s. 467-468).

Kitobda 53 o'zbek shoiridan tanlangan she'rlar joy olgan. Bularda biri Erkin Vohidovdir. Shoir haqida qisqacha ma'lumot va *Vatan Istagi, Tun bilan yig'labdi bulbul, Kamtarlik Haqida* otli uch she'rining turkcha tarjimasini berilgan (s. 137-141).

⁶² Ertuğrul Yaman, Çağdaş Özbek Şiiri (Seçmeler), Akçağ Yayınları, Ankara, 2015, 254 sayfa. (Ертуғрул Яман. Замонавий Ўзбек Шеърляти (Сайланма), Акчағ Нашриёти, Анкара, 2015. 254 саҳифа)

Xulosa

Turkiyada Erkin Vohidov haqida qisqa bo'lsa-da, ma'lumotni o'z ichiga olgan boshqa bir qancha maqola bordir. O'zbek adabiyoti bilan bog'liq maqolalarning deyarli barchasida Erkin Vohidovning ismi zikr etilgan. Shu bois adabiyotga oz bo'lsa-da, qiziquvchi turk kitobxoni Turkiyada Erkin Vohidov haqida kerakli ma'lumotni topishi mumkin.

Erkin Vohidov Turkiyada ko'proq "O'zbekim" she'ri bilan mashhur bo'lgan. She'r farqli kishilar tomonidan turkchaga bir necha marta o'girilgan. Erkin Vohidov haqida ma'lumot bergan bosh asarlarda va turkcha internet sahifalarida tez-tez qo'yilib turadi. Turkiyada adibning ikkinchi mashhur she'ri esa "Kamtarlik haqida" otli manzumasidir. Bu she'r turklar uchun tavoze va kamtarlikning ramzidek bo'lib qolgan. Ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p ulashiladigan she'rlardan biridir. She'r turk tiliga o'girilishi bilanoq shunchalik yoqtirilib qabul qilindiki, Ahmet Sandal ismli shoir tomonidan bu she'rga nazira yozildi⁶³. Erkin Vohidov O'zbekistonda bo'lgani kabi Turkiyada ham sevimli va qadrli shoirdir. Adib haqida Turkiyada kelgusida yana-da ko'proq tadqiqot va izlanishlar olib borilishiga ishonchim komil. O'zbekistonda ham kelajakda uning izidan boradigan yosh shoirlar etishib chiqishidan umidvorman. Shoirga va uning barcha yaqinlariga samimiy salomlarimni va hurmat-ehtiromimni bildiraman. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishimga vasila bo'lgan hurmatli Nigora Umarovaga va matnni o'zbekchaga o'giran Saidbek Boltaboevga, xotira kitobining nashr etilishida mehnati singgan vafoli insonlarga tashakkurimni izhor etaman.

UCH TANISHUV – BIR SHOIR

*Veli Savash YELOK,
Hoji Bayram valiy universiteti
professori*

1995-yilning kuzi. Oktyabr oyining oxirlariga borib qolgan paytlar. Kuzni kuzatib sekin qadamlar bilan qishga kirib borayotgandik.

⁶³ Ушбу назира учун қуйидаги ҳаволага қаранг: http://www.kardeskalemler.com/eskisayilar/Kardeskalemler_Sayi4_nisan2007.pdf).

Institutdagi oxirgi yilim. Shu yilni tugatib, o‘qishni tamomlab ish xayotimni boshlayotgan edim. Ustozlar ham tahsil davrimizning so‘ng pallasiga kelganimizni fahmlagan, shuning uchun ular ham vaqt topdi deguncha bizdan nima kutayotganlarini qayta-qayta e‘tirof etardilar.

Adabiyotga bog‘liq darslarimizda nafaqat Turkiya shoir va yozuvchilarini, balki Turkiston hududining adiblarini ham o‘rganar, ularning asarlarini o‘qib borar edik. Ustozlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri bu hududni, bu erdagi ozarbayjon, Qrim, Qozon, turkman, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq adabiyotlarining rivojlanish bosqichlarini tinglar, har darsimizda bu o‘lkalarni kezib chiqqandek, bu o‘lkalarda ma‘rifat yo‘lida kurashganlar bilan birga yo‘lga chiqqandek bo‘lamiz. Bu erdagi odamlar bilan birga yig‘lar, ular bilan birga kular edik. Bilhissa, bu adabiyot vakillari asarlarini o‘qigan sari Turkistonda adabiyot an‘anasining nechog‘lik kuchli ekanligini, bu o‘lka adiblarining ustalik bilan tildan foydalanishlarini ko‘rgan sari sevinamiz. Bu darslarimizdan birining oxirgi daqiqalarida o‘qituvhimiz sinf taxtasiga yozib ishtiyoq bilan she‘r o‘qib berdilar. Keyin esa keyingi darsimizda ushbu she‘rni yozgan shoir haqida gaplashishimizni, shoir haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarni izlab topishimizni, agar she‘rlarini topish imkoni bo‘lsa, ularni ham darsga olib kelishimizni aytdilar. Sinf taxtasiga yozilgan misralarining hammasi ham meni mast qilsa-da shu misralar adabiyotga, asosan she‘rga qiziqishi bo‘lgan mendek talabani yana da o‘ziga tortadi:

Ellar, bir daqiqa to‘xtang esishdan,
Sernavo bulbullar, sayramang bir oz.
Karbalo dashtida yayov kezishdan
CHarchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.
Dengiz to‘lqinlaring urma qirg‘oqqa,
Shoir o‘ylariga bermagil xalal
Ustoz yuragida she‘r tug‘ilmoqda,
Dunyoga kelmoqda bir munis g‘azal.

Keyingi darsgacha kutubxonalarda bu matnning shoiri bo‘lgan Erkin Vohidov haqida ma‘lumot izladim. Uning xayoti haqida, asarlari va ijodi haqida ma‘lumotlar to‘pladim. Biroq men topa olgan ma‘lumotlar etarli emas edi: Bayram O‘roq ismli tadqiqotchi tayyorlagan kitobda Vohidovning xayoti va asarlari haqida

ma'lumotlar va she'rlaridan namunalar... Yavuz Akpinar tayyorlagan Vohidovning qisqa biografiyasi. Yana huddi shu avtorning har misrasini Turk tiliga o'girib qaytadan jon bergan O'zbekim Qasidasi va uning bir nechta she'ri...

Keyingi hafta Qiyoslamali Adabiyot darsimizga o'qituvchimiz ikki mehmon bilan keldi. O'qituvchimiz ularni bizga tanishtirdi. Mehmonlarning ikkalasi ham O'zbekistondan kelgan ilmiy hodimlar edi. Ulardan biri darsimizda qirq daqiqacha Hazrati Mir Alisher Navoiy haqida gapirib berdi; uning tilga qanchalik ahamiyat berganligi, madaniyatga qo'shgan hissasi haqida hikoyalar aytib berdi. Va yana Navoiyning faqatgina o'zbeklarga emas butun Turkiston hududiga ham yo'nalish bergan ziyoli ekanligi haqida gapirib bergandan keyin 1930-yillargacha bo'lgan o'zbek adabiyotining umumiy hususiyatlarini sanab o'tdi.

Butun sinf etmish besh o'quvchi O'zbekistondan kelgan mehmonimiz aytgan har so'zni diqqat bilan tinglar, u aytgan har gapni yodimizga mustahkamlab olayotgan edik. Oxirgi so'zni mehmonimiz Cho'lponning "Go'zal" she'rini o'qib yakunladi. Ikkinchi mehmon so'zga chiqdi va ma'ruzasini boshladi. U asosan O'zbekistonning ozodlikka erishish yo'lidagi kurashi, bu jarayonda bo'lib o'tgan voqealar, o'zbeklarning o'zligini saqlab qolish uchun madaniyatini yashatish yo'lidagi kurashlari va O'zbekistonda adabiyotga berilgan e'tibor haqida gapirib berdi.

Hususan, milliy va ma'naviy qadriyatlarni asrash, mustaqillikning qadriga etish, kuchli davlatning ogoh farzandlar bilangina mavjud bo'ishi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hurmatli Islom Karimovning xizmatlari haqida so'zlab berdi. U keyinroq zamonaviy o'zbek shoirlari haqida ma'lumot berib o'zbeklar yoddan aytishni faxr deb biladigan O'zbekim Qasidasini aytib berdi. She'rning ohangrabosi bilan birga undan ham qiziqroq tarafi shu edi ki, sinfni to'ldirib o'tirgan etmish besh talabani hech ovoz chiqarmay bu she'rni tinglashi, she'r tugagandan keyin esa butun sinfning mehmonimizni tik turib olqishlagani edi. Dars tugagan vaqti men shoirlik qoni jo'shib turgan, ham mumtoz, ham zamonaviy xarakterlarga ega yangi shoir bilan tanishgan edim.

Boshqacha qilib aytganda, qanchalik g'oyibona bo'lsa da, Erkin Vohidov bilan bo'lgan ilk tanishuvim edi.

2002-yil... Ko‘klam fasli edi. Aprel oyi... Aspiranturada darslarni tugatib, imtihonlarni topshirganimga ikki oy bo‘lgan edi. Aspirantlik dissertatsiyasi uchun mavzu tanlab yurgan vaqtlarim. O‘zbek adabiyotining kuchli ijodkori haqida ilmiy ish qiishni maqsad qilib qo‘ygandim. Cho‘lponshunos Husayn O‘zbay bilan maslahatlashib, ikki ijodkor o‘rtasida qarorsiz qoldim. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov... Biri O‘zbeklarning dostonini yozgan shoir. Ikkinchisi O‘zbekiston milliy madhiyasi muallifi...

Fikr-mulohazasini olish uchun Ahmet B. Ercilasunga murojaat qildim. Gaplarimni eshitib kulimsiraydi ustoz... Tabassum bilan: qiyin tanlov... Qaysisiga to‘xtalishni bilmay turibsan shundaymi dedilar. ‘Ho‘sh. Ikkisining ham ijodi bilan tanisib chiqdingmi? Har ikkisi haqida ham ma‘lumotga egasan. Qaysi biri zamonaviy shoir seningcha?. Shunday javob qildim: Ikkalasi ham. Qaysisining she‘ri ko‘proq? Mavzu rangbarangligiga ko‘ra qaysisi farq qiladi? Yana o‘sha javob. Ustoz bir qancha payt tildan foydalanish san‘atini shoirlar yaratishin,, o‘zbek adabiyoti haqidagi o‘ylari, o‘zbek shoirlarining Turkiyada tanitilishi va ular haqida qilinadigan ilmiy ishlarning dolzarbligi haqida so‘zlab ketdi. Keyin esa ilmiy ish mavzusi uchun qaror berolmayotgan shoirlarim ijodidan esingda qolgani bormi, deb so‘raydi.

*Men esa
Sobitu sayyorada
Inson o‘zing, inson o‘zing.
Mulki olam ichra bir
Hoqon o‘zing, sulton o‘zing.*

*Sobit o‘z ma‘vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o‘zing, sarbon o‘zing.*

*Bu yorug‘ dunyo nadur?
Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur,
Mehmon o‘zing, mezbbon o‘zing.*

*Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shohu gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.*

*Goh adolat bog‘ida,
Piri adovat gohida,
O‘z diling dargohida
SHayton o‘zing, g‘ilmon o‘zing.*

Misralarini yoddan o‘qiyman. Bu misralarning Erkin Vohidovning ‘Inson nomli she’ridan esimda qolgan parchasi ekanligin aytganimda, ustoz ‘Savash, o‘zing uncha tushunib etmabsan-u, lekin zehningda o‘rganmoqchi bo‘lgan shoirni tanlab bo‘libsan: Erkin Vohidov. Uning hamma asarlarini izlab top, o‘zi bilan bog‘lan. Hamma yozgan asarini o‘qib chiq. Shoir haqida yozilgan maqolalarni qidir. Yozganlarini tahlil qil... Erkin Vohidov kim ekan? Qanday muhitda o‘sgan? Asarlarida nima haqida yozadi? Uni har bitta qirrasigacha qanday ijodkor ekanligini o‘rgan va bizga ko‘rsat, tanit.dedi.

Shundan keyin ishga kirishib ketdim.

2003-yildan 2007-yilgacha davom etgan deyarli to‘rt yillik ish jarayoni. Bu davr men uchun bir o‘zbek ziyolisi, shoirini, munaqqidini o‘rganish jarayoni. Bugungi kun nazari bilan qaraydigan bo‘lsam, bu davr balki da Vohidovning xayotini va fikrlarini mufassal o‘rganib ikkinchi tanishuvim desam mubolag‘a bo‘lmas.

Erkin Vohidov haqida aspirantlik ishi qilayotgan vaqtimda oldimga qo‘ygan maqsadlarim bor edi.

Bular – she’r va shoir vazifasini jamiyatni uyg‘otish va uning rivojlanishiga hissa qo‘shish deb biluvchi va bu yo‘lda she’rlar yozgan Erkin Vohidovni Turkiyaga tanitish; Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Vohidovning nazm asarlaridan xulosa chiqargan holda she’r dunyosi va uslubiy hususiyatlarini ochib berish edi. Bularni o‘rgangan holda uning asarlarining o‘ziga xosliklari, ya’ni shoir foydalangan so‘zlarni tejamkorlik bilan sarflashi, uning fikr va tasavvurining she’riyatida aks etish shakli va uning she’rlaridagi til bilan bog‘liq boshqa san’at unsurlarini qayd etish edi.

“Erkin Vohidov she’riyati bo’yicha til va uslubiyyat tadqiqi nomli aspirantlik ishining asosiy materiali ijodkorning “Ishq Savdosi, She’r Dunyosi, Umrin Daryosi” nomli asarlarida mujassamlashgan 422 ta she’rdan iborat edi. Ilmiy ishning kirish qismida Erkin Vohidovning qaysi adabiy muhitdan ilhomlanganligini yoritib berdim. “I bo’limida Vohidovning hayoti haqida ma’lumot berib o’tib uning asarlarini “Sher Kitoblari”, “Nasriy asarlar”, “Dostonlar”, “Teatr asarlari” va “Tarjimalari sarlavhalari” bilan joylashtirdim. Uning 24 ta she’r kitobida mumtoz nazm birliklari va mumtoz nazm birliklaridan tashqari farqli va tartibsiz miqtordagi misralar bilan nazm qilingan she’rlari o’rin olgan edi. Adabiy tanqid va suhbatlardan tashkil topgan nasriy asarlari uning fikriy etuk bo’lishidagi bosqichlarni aks ettirmoqda edi”.

Ilmiy ishning Tadqiq qismini tashkil qiluvchi II bo’limida Erkin Vohidovning ilmiy ishning asosini shakllantirgan 422 sherni she’riy tarkibi, nazm shakli, vazn, til va uslub jihatlaridan o’rganib chiqdim. Ilmiy ishning III bo’limida Vohidovning mazkur asarlaridagi she’rlarining transkripsiyali shakllari, IV bo’limida esa bu matnlarning Turk tilidagi tarjimasiga o’rin ajratdim.

Ilmiy ishni himoya qilayotgan paytim hay’at a’zolari “Bir shoir sifatida Erkin Vohidov qanday hususiyatlarga ega? Nimalarni ko’rib chiqding? Aytib ber-chi! degan paytlarida shunday degandim:

Zamonaviy O‘zbek o‘zbek she’riyatining muhim vakillaridan biri bo‘lgan Erkin Vohidov, mumtoz she’riyat an’anasiga sodiq qolib yozgan she’rlaridan tashkil topgan ‘YOshlik Devoni; Insonning ruhiyati va o‘ylarini mushohada qilishga majbur qiladigan ‘Tirik Sayyoralar, “Sharqiy Qirg‘oq”, “Yaxshidir achchiq haqiqat” nomli kitoblari; Ikkinchi Jahon Urushining olib kelgan kulfat va azoblarini aks ettiruvchi “Nido” dostoni, Bengaliyalik inqilobchi shoir Nazrul Islomning xayoti va va fojiiyaviy xotimasiga bo‘g‘liq holda jasorat, fidokorlik, milliy burch va insonlik kabi hususiyatlari xulosasi sifatida insonlarning manfaatparastligi, va shafqatsizligini tasvirlovchi “Ruhlar Isyoni” nomli dostoni, to‘g‘rilik va egrilik, adolat va adolatsizlik, samimiyat va soxtalik o‘ylaridan kelib chiqqan holda xayotning shavqatsiz yuzini ko‘rsatib beruvchi ‘Istanbul Fojeasi nomli nazmiy pesasi hajviy unsurlar bilan bezatilgan “Donishqishloq latifalari” nomli she’rlar to‘plami, “Oltin devor” komediyasi va

tarjimalari bilan O‘zbeklarning ham adabiy va madaniy xayotiga ko‘zgu tutgan, ham da o‘zbeklarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan ijodkordir.

1950-yillarda she‘rlari bosila boshlagan va 1960- yillarda shoir sifatida tanilgan Erkin Vohidov asarlarida o‘zi va jamiyatni qiynaydigan muammolarni, o‘ziga hos uslubda tarannum qilgan. U ijodkorning o‘z asrining shohidi bo‘lishi va millatning xayqirgan tili bo‘lishi majburiyatini oladi degan mantiq bilan vijdoni ko‘rsatgan yo‘lda yurish azmi qaroridan aslo voz kechmagan. Shuning uchun Erkin Vohidov millatining dardlarini, xalqiga bosqinchilik syosatini yurutgan kuchlarning beshavqatligi, adolatsizligi va noto‘g‘ri harakatlaridan bezovta ekanligini hech ikkilanmasdan ifoda etgan.

She‘rini o‘zining quroli deb biluvvchi Vohidov, millati oldidagi vazifa va majburiyatlarini ho‘p o‘ylagandir. Shoirlikni ‘jondan voz kechish deb baholagan Erkin Vohidovning fikricha, shoir insoniyatning er yuzida boshidan kechirgan hamma voqealarga javobgar kishidir. Uningcha, ‘Shoirning dardi – xalqning dardidir. Va shoir ‘har so‘zi xalqning ovozi va fayodini ifoda etsagina baxtiyor bo‘lishini aytib o‘tadi. Bundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, u millatning va yashagan davrining faryodi bo‘lish g‘oyasiga xizmat qilgan.

Erkin Vohidovning *Ishq Savdosi*, *She‘r Dunyosi ve Umrim Daryosi* nomli kitoblaridagi she‘rlarida mumtoz nazm birliklaridan bayt, to‘rtlik, beshlik, oltilik, sakkizlik va o‘nlik nazm birliklari bilan birga mumtoz nazm birliklarining ichiga kirmaydigan she‘rlari ham bor. Nazmning bayt birligida 122 ta she‘r yozgan Erkin Vohidov, bu asarlarning katta qismida misralarni sindirish yo‘i bilan yangilik qilishga harakat qilgan. Shoir oddiy bayt shaklida 18, siniq misralardan tashkil topgan bayt shaklida 104 she‘r yozgan. Bu she‘rlarning miqdorini qiyoslaydigan bo‘lsak, shoir nazm birligi nuqtayi nazaridan yangi formalarni tanlaydi. To‘rtlik nazm birligida 191 ta she‘r yozgan Erkin Vohidov, bulardan bir qismida an‘anaviy she‘riyatda ishlatilgan shakllarni afzal ko‘rgani holda, bir qismida to‘rtliklardagi qofiya sistemasini asos olib yangi shakllar yaratib ko‘rgan. Buni esa to‘rtliklarni tashkil qiluvchi misralarni sindirib amalga oshirgan. Bu shaklda sindirib yozgan misralarida odmilikdan ko‘ra ko‘proq sistema izidan borgan shoir, siniq misralarni asosan bosh vazn sifatida tanlagan hijo vazniga ko‘ra tartiblaydi. Bu jarayonda misralarni hijo qolibining tanaffuslariga ko‘ra sindiradi, bu

vaznda an'anani chetlab o'tib yangi shakllar qidirsam ham, bir tomondan orqa planda qolgandek bo'lsa ham an'anaviy yo'lni ham davom ettiradi.

Vohidov to'rtlik nazm birligi bilan yozgan 191 she'rining 113 tasida to'g'ridan to'g'ri to'rtlik vaznini asos olgani holda, 78 tasini siniq misralar bilan tuzgan. SHoirning beshlik vaznida yozgan she'rlarining soni 13 tadir. Ularning o'ntasi beshlik nazm shakli asosida bo'lib, uch donasi beshlik nazm shaklida yozilishiga qaramasdan siniq misralardan tashkil topgan. Oltilik nazm shakli bilan uchta she'r yozgan Vohidov, bulardan bittasini aruz vaznida, qolgan ikkitasini esa hijo vaznida yozgan. Bu she'rlardan to'rt donasi to'g'ridan to'g'ri sakkizlik nazm shaklida yozilgan, biroq qolganlardan bittasi '11 sakkizlik+1 ta to'qqizlik, ikkinchisi esa '8 sakkizlik+2 ta to'rtlik shaklida tuzilgan. Vohidov o'nlik nazm shaklda to'rtta she'r yozgan. She'rlarining bir qismini esa turli va tartibsiz miqdordagi misralardan yozgan. Mazkur she'rlardan 19 tasi har xil o'lchamdagi misralar bilan bir butun holda tuzilgan bo'lib 29 tasi tartibsiz miqdordagi misralardan tuzilgan.

She'rlarida ham hijo, ham aruz vaznini ishlatgan Erkin Vohidov ba'zan biron vaznga bog'liq bo'magan holda sarbast she'rlar yozgan. She'rlarining bir qismida bir tomondan aruz vazni va mumtoz she'riyatning nazmiy shakllari ko'zga tashlanadi, boshqa tomondan esa she'rlaridagi kiritgan yangiliklar diqqatga sazovordir. Shu bilan birga hijo vazni bilan yozilgan she'rlarining bir qismida mumtoz she'riyat qoliblaridan ilhom olgan, bir qismida esa foydalangan hijo qolibining tanaffuslariga mos holda misralarni sindirish yo'li bilan yangi shakllar tuzishga harakat qilgan.

Erkin Vohidov she'rlarining 127 tasini aruz vaznida yozgan. Bular mumtoz adabiyotda eng ko'p ishlatilgan bahrlardan 'baxri hazaj, 'baxri ramal bilan kam ishlatilgan baxrlardan biri 'baxri muzori va 'bazri munsarihdur.

She'rlarida ko'proq hijo vaznidan foydalangan Erkin Vohidovning bu vaznda yozgan she'rlari 289 ta. Oltilik hijo vaznidan o'n beshlik hijo vaznigacha har xil vaznlardan foydalangan shoir, ba'zi she'rlarida esa ikkita alohida vazndan birgalikda foydalangan. Shoir shu yo'l bilan toq misralarda boshqacha, juft misralarda boshqacha hijo qolibidan foydalanib ohangdorligini ta'minlagan. Bu she'rlarida toq misralarining soni bilan juft misralarining soni bir xil.

Erkin Vohidov hijoning 11 lik qolibidan qolgan qoliblarga nisbatan ko‘proq foydalangan.

Erkin Vohidovning she‘rlarining katta qismida ‘lirik tuyg‘u va ifoda uslubi namoyon bo‘ladi. Shoir bu ilmiy ishning asosini tashkil qiluvchi 422 she‘ridan 62 tasida muhabbat haqidagi tuyg‘u va o‘ylarini berib boradi. Muhabbat va u bilan bog‘liq tomonlarini hamma so‘zlardan ustun qo‘yuvchi Erkin Vohidov oshiq va mahbubasini she‘rlarida ifoda etayotganda mumtoz she‘riyatda mavjud bo‘lgan hoshiya ichida jamlaydi.

Vohidov do‘stlik, tavoze, samimiyat, to‘g‘ri gapirish, mardlik kabi mavzularda ijod qilgan. Do‘st deb aytilgan kishi Vohidovning she‘rlarida muhim o‘rniga egadir. U do‘stlik va o‘rtoqlik haqidagi she‘rlarida salomlashishning ahamiyati, qarindoshlik, suhbat istagi, muammolarni bo‘lishish, birlik, hamkorlik, hol-ahvol so‘rash, yaxshilik va hiyonat mavzulariga keng joy ajratgan.

Ko‘p sonli bo‘lmasa ham ayriliq va chorasizlikdan kelib chiqqan pessimist ruhda yozgan she‘rlari ham bordir. Bu she‘rlarida Vohidovning ba‘zi ijtimoiy she‘rlarida kuzatiluvchi umumiy ko‘rinishdan farq qiluvchi ruhiyati ko‘zga tashlanadi. Uning bu holi ‘o‘tkinchi tushkunlik paytlari da vujudga kelgan ‘pessimist holdir.

Erkin Vohidov she‘rlarida vatan mavzusiga keng joy ajratadi. Uning she‘rlarida Vatan oddiy bir tuproq parchasi emas. Hamma narsadan oldin Vatan – uning ustida yashovchi xalq yaratgan til, tarix, urf-odat axloq qoidalaridan tashkil topgan madaniyati bilan ya’ni ruhi bilan Vatandir. Erkin Vohidov qishloq ho‘jaligi asosiy o‘rin tutuvchi O‘zbekistonda paxta etishtirish haqida she‘rlar yozgan. Bu sohada ishlaydigan odamlarning xayotini asarlarida tarrannum qiladi. Bu she‘rlarida bir ishni amalga oshirishga qodir bo‘lish, peshona teri bilan kun kechirishning ahamiyati, g‘ayrat, muvaffaqiyat, imkoniyatlarni ishga solish, mehnatning taqdirlanishi va paxta etishtirish haqidagi mavzularni yoritib bergan.

Vohidovning fikricha, inson, dunyoni go‘zlalashtirish va obodonlastirish uchun yaratilgan. Shuning uchun insoniyat tinmasdan buni amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Bu shijoati natijasida dunyo kundan kunga chiroy ochib, shu ishi natijasida insoniyat baxtiyor bo‘ladi.

Erkin Vohidov she‘rlarining muhim qismini sho‘ro ideologiyasi, jamiyatga yotlashib ketgan ziyolilarni, sho‘ro tuzumining yaratmoqchi

bo'lgan inson tipini tanqid qiluvchi, va jamiyatdagi buzilish mavzusi bilan yo'g'rilgan she'rlaridan tashkil topadi. Bu she'rlarnig soni 65 ta. Shoir bu she'rlarda aqlga sig'mas narxlarda savdo qiluvchi tijoratchini, sobiq sho'ro tuzumining dinga qarshi harakatlari, dinni suistimol qilganlarni, qurolsizlantirish g'oyasi tagida manfaatparastlik qilgan inson tipini tanqid ostiga oladi.

Erkin Vohidov so'z, gap va misrada yangi tuyg'u va hayajonga parallel holda yangiliklar yaratgan. Sodda til va samimiy hislarga mumtoz va xalq she'riyati an'anasi yo'nalishida ijod qilish barobarida yangi shakllarni yaratishni sinab ko'rgan. Shoir o'zbek she'riyatining an'naviy uslub, motiv va ramzlarini mumtoz shariyatdagi qolibidan foydalanish bilan bir qatorda ularni davrga moslashtirib ishlatgan. Vohidov mumtoz she'riyatdagi imidj va mazmunlarni olib tashlash tarafdori emas. Bil'aks shoir o'tmish bilan bugungi kun munosabatlarini yangidan shakllantirishni maqsad qilgan holda, ham mumtoz davr asarlaridagi hususlarni ham mumtoz she'riyatning, ham xalq tilining rangi bilan yangidan chizgan. U har so'zning en nozik, eng go'zal tomonlaridan foydalanishga harakat qilgan, xayotning hamma qarshiliklariga, jamiyatdagi to'polonlarga, bo'ron, kulfat va qiyinchiliklarga o'ziga xos reaksiya ko'rsatadi.

Erkin Vohidovning she'riyatga kiritgan yangiliklardan eng ahamiyatga sazovor bo'lgani leksioklogiya sohasidagisidir. Shoir o'zbek tiliga o'zlashtirilgan sodda, keng foydalaniluvchi so'zlarni tanlash barobarida mumtoz she'riyat an'anasida foydalanilgan asosiy so'zlardan ham mahorat bilan foydalanadi. Su bilan birga Vohidov xalq shevalaridan va folklorik til materiallaridan ham foydalangan holda tabiiy, jonli va sodda uslub namoyon qiladi.

Erkin Vohidov ijtimoiy va siyosiy voqealarga bo'lgan munosabatini bildirish chog'ida zid ma'noli so'zlar va ifoda shakllaridan keng ko'lamda foydalangan. Uning she'rlarida hayajon va majoziy ifoda shakllari mo'l bo'lganligi uchun leksikologik jihatdan ot so'z turkumi markazda turadi. Ba'zan o'git beruvchi, ba'zan so'roqqa tutguvchi, ba'zan voqealarga chorasiz qolguvchi, ba'zan duch kelgan muammo va qiyinchiliklariga echimni insonning ruh dunyosining yangidan shakllantirilishida qidirgan asabiy va baland bosimdagi tazodlarga to'la misralari Vohidovning poetikasini belgilab beradi.

Erkin Vohidov she'rlarida samimiy tuyg'u, fikr, hayajon va xayollarini yana da chiroyli holatda ifoda qilib Erkin Vohidov muhlislari bilan bo'lishish uchun so'z san'atlariga murojaat qiladi. Asarlaridagi she'rni bo'g'maydigan ammo zaruriy bo'gan majoz, tashbeh va istioralar, shoir hayajoni darajasini ko'rsatuvchi xitob va nidolar, 'holni so'roqqa tutguvchi savollar, amalga oshirilishini xohlagan hususlarini ko'rsatuvchi istak va amrlari, shoirning uslubini belgilovchi omillardir. Vohidov bular bilan bir qatorda she'rlarida ritmik va garmonik parchalarga keng ko'lamda joy ajratgan. Tovush, qo'shimcha, so'z, so'z turkumi, gap, misra, bo'lim holiday ifoda takrorlari, deyarli hamma she'rlariga yoyilgan. U sodda, ochiq va ravon uslubini tuyg'u va fikrlariga ko'ra farq qiluvchi gap va misralarda belgilab boradi. Boy va o'xshashi yo'q xayollar va hamma she'rlarida oz yoki ko'p bo'lsa da o'zini sezdiruvchi lirik hislari ko'proq, tartibli jumla va misra qolibida ifoda qilinadi.

Erkin Vohidovning she'rlarida ishlatilgan ba'zi so'zlarning to'liqini, shoirning fikr va ruh shaklidagi o'zgarish va taraddutlari barobarida ba'zan badbin ruhiyatga cho'milganini ko'rsatib turadi. Sobiq sho'ro rejimi va'da qilganlarining teskari yo'nalishda amalga oshishi, bosim ostidagi ziyolining umid va umidsizlik orasida borib kelishlari, bir biriga zid so'zlarning yaqin ohangda ishlatilishi bian namoyon bolmoqda.

Vohidov she'rlarida xalq ko'rgan qiyinchiliklarga qaramasdan 'optimist turishini saqlab qoladi. Barcha bo'lib o'tgan voqealarga qaramasdan umidini muhofaza qilgan shoir murojaat qilgan xayot, shavqat, hurmat, umid, nur, xayol, ozodlik, birlik, hurriyat, hokimiyat, orzu, sevgi, do'stlik, xayotning bolalik va yoshlik payti, tabiat va bahor tuyg'ulari kabi tushunchalarni bog'lovchi so'zlar tizimi yaqqol seziladi.

U she'rlarida vaqt, tabiat, mavsum bilan bog'liq so'zlarni ham majoziy va ramziy ma'noda keng foyadalanadi. Vohidov she'rlariga teran nazar bilan razm solsak, uning 'ko'ruvchi, xis qiluvchi, sevguvchi; xayolot olami keng, muhabbat va estetikaga ahamiyat beruvchi va shu bilan bir paytda azob va qayg'ularni boshdan kechirgan bir shoir ekanligini anglash mumkin. Shoir hurriyat va istiqloq tushunchalariga alohida urg'u berish bilan birga ijtimoiy masalalarni ham alohida e'tibor bilan yoritib beraolgan. Xayotni bir butun sifatida tasavvur qilgan shoir dunyoni, o'lkasini va unga oid

muammolarni nafaqat analiz qiladi, balki bularning echimiga doir choralar ham keltirib o‘tadi. Shoir umuman olganda asarlarida ko‘p sifatdan foydalanmaydi. Shundan bo‘lsa kerak, otlarning vasfidan ko‘ra beliglash unsurlariga, (belirtme sifatlariga)ga keng joy beradi. Ot hukm shaklida ifoda etuvchi ism gaplar Vohidov asarlarida foydalanilgan ot sonini orttirgan. Bu hol keng sonli fe‘l va ravishdoshdan tuzilgan so‘z turkumlari yordami bilan dinamik uslub vositasi bo‘lgan, ya‘ni Vohidov asarlarida otlarning harakat ko‘rinishida namoyon bo‘ishi yaqqol seziladi.

Erkin Vohidov foydalangan ravishlarga razm solsak, ko‘proq payt rvishlari ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz. Vohidov foydalangan ravishlar orasida ko‘p qo‘llanilishi nuqtai nazaridan so‘roq ravishlari ko‘proq ekanligi diqqatimizni tortadi. Bu ham, o‘z o‘rnida shoirning so‘roqqa tutuvchi ulsubga ega ekanligidan dalolatdir.

Vohidovning she‘rlarida leksikolgik jihatdan diqqatni tortuvchi hususiyatlardan biri iboralardir. Uning xalq tilidan va iboralardan keng qamrovli shaklda foydalangan ekanligi, shoirning mahalliylashish va miilliylashishga harakat qilganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari uning folklorik materiallarga murojaat qilishi ham ochiq va sodda tilni asos olganining isboti desak to‘g‘ri bo‘ladi. SHu boisdan Erkin Vohidov o‘zbek maqollariga ham she‘rlarida keng joy ajratgan.

Erkin Vohidov tabiatni yaqindan va real tomonlari bilan mushohada qilib, she‘rlarini eshitishga asoslangan taqlidiy so‘zlar bilan bezaydi. Vohidovning tabiat va tasvir she‘rlarida keng o‘rin olgan taqlidiy so‘zlar ko‘proq fe‘l funksiyasida namoyon bol‘adi. U she‘rda ma‘lum tovush, so‘z, misra yoki bandlarda boshqa tovushlariga nisbatan ko‘proq joy berish yo‘li bilan amalga oshirilgan asonans va aliteratsiyalar yordamida ovoz va ma‘no orasida musiqiy bahosi baland bir ohang ta‘minlaydi.

Vohidovning xayoti u yashagan davr bilan bo‘g‘liq faktorlar ta‘siri ostida qolgan. Ikkinchi Jahon Urushining musibatli kunlari, sho‘ro hukumatlarining boshqacha boshqarish usullari, perestroyka (qayta qurish) va glastnost jarayoni va bu jarayondan keyingi mustaqil O‘zbekiston tuzilish davrini shaxsan boshdan kechirgan Erkin Vohidovning so‘z boyligiga, butun bu jarayonlardagi ijtimoiy va siyosiy hodisalarning aks etganligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. SHu boisdan haqiqiy qiymati matn ichida bo‘lishi barobarida, uning tilida

drammatik va tragedik ohang bilan falokat va umidsizlik atmosferasining belgisi darajasida bo‘lgan so‘zlarning ko‘p ishlatilishi diqqatga molikdir. Foydalangan soz‘lari bilan individual holda drammatik idrokni yoritib bergan shoir, falsafiy fikrlari bilan lirizmni payvand qilish tamoyilidan boradi. Erkin Vohidov mehr-muhabbat kuychisi ekanligini aytish barobarida uning fikr, hurriyat va orzu kuychisi ekanligini ham ta’kidlab o‘tish darkor.

Shu uzun ma’ruzam bilan tanishtirgan edim Erkin Vohidovni ilmiy hay’at va tinglovchilar huzurida.

2010-yil... Fevral oyi... 2009-yilning oxirida Shaqrshunoslik Institutida dars berish uchun Toshkentga keldim. Bir tomondan darslarim davom etyapti, boshqa tomondan Toshkentni o‘rganayotgan paytim. Ani vaqtda, izlanish olib borayotgan shoirim bilan tanishish bilan yugurib yurgan paytim. Tohir aka menga bu mavzuda yordam berishi mumkinligini aytib qoldilar. O‘zi kerakli ishlarni qilib Erkin Vohidov bilan meni (qaytadan lekin yuzma yuz !) tanishtirishini ular bilan suhbat qilish imkoni yaratib berishligini aytib qoldi. Tohir akaga, bu tanishuvning aslida yuzma yuz birinchi marta tanishuvim bo‘lishini aytdim. Balki da bir tarafli o‘zim ikki marta tanishganim va hatto o‘rganganimdan keyin Tohir akaning sharofati bilan yuzma yuz tanishuvimdan xursand bo‘lishimni aytib kulimsiradim. Tohir aka bilan bu tanishtirish uchrashuvi haqida kelishib olish uchun bog‘lanib turdim. Nihoyat, ular bir kuni meni chaqirib uchrashuv vaqtining belgilaganligi xabarini etkazdilar. Erkin aka bilan metro bekatlaridan biri bo‘lgan Beruniy metro bekati chiqishidagi Beruniy restoranidan ko‘rishishimizni aytdilar. Men ham aytilgan kun va soatda belgilangan joyda bo‘lishimni bildirdim.

Va kutilgan kun keldi.

Restoranga bordim. Tohir aka bilan suhbat qilib o‘tirarkanmiz, Baxtiyor Nazarov va Erkin Vohidov kirib keldilar.

Erkin Vohidov, nihoyatda kibor va samimiy ohang bilan ‘hush kelibsiz, Turkiyalik mehmon. Boshimiz ko‘kga etdi. Xoh Tohir, xoh Baxtiyor akaning ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, meni mendan ham yaxshi biladigan mutaxassis... Siz bilan tanishganimda mamnunman deb men bilan salomlashdi.

Hammmiz o‘rnimizga o‘tirdik.

Taom asnosida suhbatimiz davom etdi. Keyinroq Erkin akaga, uning haqida olib borgan ilmiy ishning bir nusahasini va buning

diskini, shoir haqida bosib chiqarilgan maqolalarimni taqdim qildim. U bir tomondan ilmiy ishimi ko‘rib chiqar ekan boshqa tomondan savollar so‘rar, o‘zi haqida fikrlarimni so‘rar, she‘rlari haqidagi fikrlarim bilan qiziqardi. 2007-yili aspirantlik ilmiy ishimi himoyasida hay‘at huzurida aytib berganlarimni Erkin akaga bitta bitta so‘zlab berdim. Erkin akaning o‘zi ham she‘r haqidagi fikrlarini bildirar, ijodkorning nima qilishi kerakligi haqida o‘z fikrlarini aytar edi. Mavzu kengaygan sari kengayar, chuqurlashgan sari chuqurlashar edi.

Suhbat asnosida Vohidov, shoir sifatida Navoiyga bergan qadriyatini aytib o‘tar ekan, uning butun Turkistonliklarga oid shoir ekanligini, yashagan davrida foydalangan so‘zlarining O‘zbeklarnikigina bo‘lib qolmasdan turkman, qozoq, qirg‘iz, tatar kabi ko‘pgina madaniyatlarga mushtarak ekanligi, o‘zi va boshqa ijodkorlarning ham shunday qilishi kerakligini aytdi. Bu qolibda Navoiy she‘rlarida kuzatiluvchi so‘zlardan ‘supurgini misol sifatida keltirdi Erkin aka. U o‘ziga o‘xshagan ko‘pgina zamonaviy shoirlarning ham bu so‘zlarni unutganini aytganda, ruhsatini olib so‘zga qo‘shildim. O‘zining 1961 yilda singlisi Firuzaxon uchun yozgan “Qizaloq” nomli she‘ridan ushbu parchani o‘qidim.

*Ko‘g‘irchokdan bir zum nari ketmasdan
Erkalar, bag‘riga bosar qizaloq.
Hayot nima — hali idrok etmasdan,
Go‘dakligiga ham aqli etmasdan,
Ona bo‘laman deb o‘sar kizaloq.
Taajjub, kim solmish uning ko‘ngliga,
Kirmoq kayda hali hayot yo‘liga,
Ona allasiga qonmasdan hali,
Ertaga shu uyga beka bo‘lgali
Supurgi tutadi jajji qo‘liga.*

O‘zining ham shu qatorga kiruvchi so‘zlardan foydalanganligi, balki da kamtarin b‘lganligi uchun shunday deb atygan deb o‘ylashimni aytdim. Erkin aka, shundan keyin, ‘Savash Bey! Siz haqingizda, she‘rlaringiz va asarlaringiz haqida juda ko‘p ma‘lumot to‘plagan, izlangan, deb aytishganda shubham bor edi. Endi shubham qolmadi. dedi.

Uzoq yillar izlanib bitirgan ilmiy ishim himoyasidan chiqqan vaqtimda tuygan baxtiyorlik bilan; Erkin aka bilan yuzma yuz tanishgan, unga o‘zi haqidagi ilmiy ishim va yozgan maqolalarimni taqdim qilgan ondagi hayajonim va baxtiyorligim, ular bilan suhbat qilish imkonini bergan soatlar- xayotmning eng baxtli lahzalari deb aytaolaman.

Bu ovqat ustidagi uzundan uzun suhbtimiz nihoyasiga etib yashab turgan joyimga kelganimda, bu uchrashuvga ketganimdan xabardor bo‘lgan o‘quvchilarim bilan suhbat qilarkanman, ularga shunday dedim.

‘Bir shoir va u bilan uch tanishuv. Bu jarayon ham tugadi chog‘i.

Ilk tanishuvim uzoqdan, she‘rlaridan kelib chiqqan holda o‘zimning tanishuvim edi.

Ikkinchisi... Balki tanishuvdan ham ko‘prog‘i edi. Bu mening Erkin akani o‘rganish bosqichi sifatida baholashim mumkin bo‘lgan tanishuv edi. Bu jarayonni boshqacha qilib shunday ifoda qilaman: *Saharlarga tomon Erking akaning kitoblari bilan band bo‘ldim, ishladim.*

Manbalar:

1. Bayram O‘roq, Erkin Vohidov. Tanlagan she‘rlar, Anqara, 1991.
2. Vohidov E. “Qaynoq Hayot Ichida YAşab”, O‘zbek Tili va Adabiyoti, S. 6, 1987.
3. Vohidov E. Ishq Savdosi, Toshkent, 2000.
4. Vohidov E. O‘mrin Daryosi, Toshkent, 2000.
5. Vohidov E. Shoiru she‘ru shuur, O‘zbekistan LKSM Markaziy Komiteti “Yosh Gvardiya” Neshriyoti, Tashkent, 1987.
6. Vohidov E. She‘r Dunyosi, Toshkent, 2001.
7. Veli Savaş Elok, “Erkin Vohidovning so‘z dunyosiga nazar”, The Journal Of International Social Research (Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi), Spring 2008, Volume: 3, Issue: 3, s. 442-470.
8. Veli Savaş Elok, “Erkin Vohidovning she‘rlari bo‘yicha shakl va tarkibi jihatidan bir izlanish”, Türkiye Sosyal Araştırmalar Dergisi (The Journal of Social Research), Aralık 2007, Yıl: 11, Sayı: 3, s. 111-129.
9. Veli Savaş Elok, Erkin Vâhidovun Şiirleri Üzerine Dil ve Üslûp Çalışması, Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara, 2007.

IKKINCHI JAHON URUSHI VA ERKIN VOHIDOVNING “NIDO” DOSTONI

*Emek UZUNMEZ,
Istanbul universiteti professori*

Özet

Müstakillik devri Özbek edebiyatının en güçlü şâirlerinden birisi olarak kabul edilen *Erkin Vahidov/Erkin Vohidov* (1936-2016) 28 Aralık 1936-yılında Fergana Vadisi vilayetlerinden olan Fergana'nın *Altıarık/Oltıariq* tümeninde öğretmen bir ailenin çocuğu olarak dünyaya gelir. Erkin Vahidov'un babası Cho'yonboy ve annesi Roziyaxon kasabanın öğretmenlerinden olup Erkin Vahidov küçük yaşlarda iken vefat etmişlerdir. Anne ve babasının vefatı ile küçük yaşta yetim kalan Erkin Vahidov aydın ve ileri görüş sahibi olan dayıları *Sohiboev*'lerin elinde büyümüştür. Bu durum şâirin eğitim ve şâirlik hayatında önemli bir yer tutmaktadır.

Erkin Vahidov *Nida* destanını İkinci Dünya Savaşında kaybettiği babası *Çoyanbay Vahidov/Cho'yanboy Vohidov* anısına kaleme almıştır. Bu eserde şâir yetim kalmasının vermiş olduğu acıyı, savaşın ana babasız bırakmış olduğu insanları duygusal ve edebî çerçevede ele alır. Bu çalışmada İkinci Dünya Savaşının Modern Özbek Edebiyatına yansımaları bağlamında Erkin Vahidov'un *Nida* Destanı ele alınmıştır.

Anahtar Kelimeler: Modern Özbek Edebiyatı, Erkin Vahidov, İkinci Dünya Savaşı

ON THE SECOND WORLD WAR AND ERKIN VOHIDOV'S NIDA EPIC

Abstract. Erkin Vohidov/Erkin Vohidov (1936-2016), who is considered one of the most powerful poets of Uzbek literature in the period of independence, was born on December 28, 1936, as the child of a teacher family in the Altıariq / Oltıariq division of Fergana, one of the Fergana Valley provinces. Erkin Vohidov's father Cho'yonboy and mother Roziyaxon were teachers of the town and died when Erkin Vahidov was young. Orphaned at a young age with the death of his parents, Erkin Vohidov grew up in the hands of his intellectual and

forward-thinking uncles Sohiboefs. This situation has an important place in the education and poetic life of the poet.

Erkin Vohidov wrote his epic *Nida* in memory of his father, Choyanbay Vahidov/Cho‘yanboy Vohidov, who lost in the Second World War. In this work, the poet deals with the pain of being an orphan and the people left without parents by the war in an emotional and literary framework.

In this study, Erkin Vohidov’s *Nida* Epic is discussed in the context of the reflection of the Second World War on modern Uzbek literature.

Keywords: Modern Uzbek Literature, Erkin Vohidov, World

ERKIN VAHİDOV/ERKIN VOHİDOV (1936-2016)

Müstakillik devri Özbek edebiyatının en güçlü şâirlerinden birisi olarak kabul edilen *Erkin Vahidov/Erkin Vohidov* (1936-) 28 Aralık 1936 yılında Fergana Vadisi vilayetlerinden olan Fergana’nın *Altıarık/Oltıariq* tümeninde öğretmen bir ailenin çocuğu olarak dünyaya gelir (Mirvaliyev, 1993:103). Erkin Vahidov’un babası Cho‘yonboy ve annesi Roziyaxon kasabanın öğretmenlerinden olup Erkin Vahidov küçük yaşlarda iken vefat etmişlerdir. Anne ve babasının vefatı ile küçük yaşta yetim kalan Erkin Vahidov aydın ve ileri görüş sahibi olan dayıları *Sohiboev*’lerin elinde büyümüştür. Bu durum şâirin eğitim ve şâirlik hayatında⁶⁴ önemli bir yer tutmaktadır.

1955-yılında liseyi bitirdikten sonra Taşkent Devlet Üniversitesine giren Erkin Vahidov buradaki Filoloji Fakültesini Nevâî’nin *Sedd-i İskenderi* adlı eseri üzerindeki bitirme tezi (Inog‘omov, 1996:18) ile tamamlamıştır. Şâirin ilk şiiri yedinci sınıfta okuduğu dönemde *Mushtum* dergisinde yayımlanmıştır.

Çeşitli yayınevi ve dergilerde görev yapan Erkin Vahidov öncelikle *Yosh Gvardiya* yayınevinde (1960-1963, 1975-1982), daha sonra G‘afur G‘ulom adlı yayınevinde (1963-1970) editör ve yönetici olarak görev yapmıştır. Şâir yine bu dönemde *Yoshlik* dergisinde de görev almıştır. Erkin Vahidov günümüzde milletvekilliği görevi yanı sıra Özbekistan Meclisinde *Oshkoralik* komitesi rehberliği ve Cumhuriyet Edipler Birliği başkanıdır.

İlkokul sıralarında iken şiirler yazmaya başlayan *Erkin Vahidov*’un şiir dünyasının pek çoğunu çocukluk hatıraları oluşturur.

⁶⁴ Erkin Vahidov, özgeçmişini 1987 yılında bizzat kendi ağzından kaleme almıştır. Onun edebî hayatının şekillenişini öğrenmek ve geçmişi hakkında sağlıklı bilgi edinmek adına bu bilgiler çok büyük önem arz eder.

(Kalp ve Akıl, Benim Yıldızım, Muhabbet...) Erkin Vahidov çeşitli türdeki (destan, kaside vb.) şiirleriyle insan sevgisi, vatan sevgisi gibi temaları ince ve zarif bir üslupta ele alır.

Siyasi önyargıların örümcek ağlarına mahkûm edilmekle irtifa kaybetmiş olan şiir, 1960'lı yıllarda Erkin Vahidov, Abdullah Aripov ve Rauf Parfi sayesinde tekrar yükselişe geçer. Bu üç şâir, kendi varlığından başka hedefi olmayan, kendinde başlayıp kendinde biten ve asaleti de buradan gelen asıl sanat eserine kan pompalayan üç yürek olur. Özbek şiirini asır başındaki Çolpan ve Osman Nasırların atıp duran kalp sıcaklığına ve saflığına yükseltir ve yönlendirirler⁶⁵.

Erkin Vahidov'un ilk şiir kitabı 1961 yılında *Tong Nafasi* ismi ile yayınlanmıştır. Bunun dışında günümüze kadar şâirin onlarca şiir kitabı neşredilerek okurla buluşmuştur. Erkin Vahidov'un *Qo'shiqlarim Sizga* (1962), *Yurak va Aql* (1963), *Mening Yulduzim* (1964), *Nido* (1965), *Lirika* (1965), *Palatkada Yozilgan Doston* (1967), *Yoshlik Devoni* (1969), *Charog'bon* (1970), *Dostonlar* (1973), *Xozirgi Yoshlar* (1971), *Muhabbat*, *Tirik Sayyoralar* (1980) adlı şiir kitapları ve destanları yayımlanmıştır.

Şâir Erkin Vahidov'un şiir dünyasının en önemli özelliklerinden birisi klasik şiire ve geçmişe verdiği değeri günümüz değer ve modern yaşantısı ile harmanlayarak okura farklı bir şiir çeşidi sunmasıdır. Bu yüzdendir ki insan ve cemiyet konusu onun şiirlerinin başlıca temasıdır.

Erkin Vahidov şiirlerinde hiciv ve istihza da önemli bir yer tutar. «Manfaat falsafası», *Sen menga tegma*, *Majlis qiling*, *Donish qishloq latifalari* gibi şiirleri bu türe örnek gösterilebilir.

Erkin Vahidov destan türünde de adından söz ettirmiştir. *Nido* (1964) *Ruhlar isyoni*, *Istambul Fojeasi*, *Toshkent Sadosi*, *Quyosh Maskani*, *Qasida Usulida*, *Buyuk Hayot Tongi*, *Chorog'bon*⁶⁶ *Baxmal*⁶⁷ *Palatkada Yozilgan Doston*⁶⁸ (1967) gibi destanları şâirlik maharetini ortaya koyduğu şiirler arasında yer almaktadır. Erkin Vahidov *Nida* destanını İkinci Dünya Savaşında kaybettiği babası *Çoyanbay Vahidov/Cho'yanboy Vohidov* anısına kaleme almıştır. Bu eserde şâir yetim kalmasının vermiş olduğu acıyı, savaşın ana babasız

⁶⁵ Hüseyin Bargan, "Türkistan'ın Huma Kuşu: Özbek Edebiyatı", <http://daplatform.org>, 13/07/2011.

⁶⁶ Şura Devrinde Lenin'i öven eserler yazmak gelenek olduğu için Erkin Vahidov da bu destanını Lenin'i övmek için yazmak zorunda kalmıştır.

⁶⁷ Basmacılık Hareketi hakkında yazılmıştır.

⁶⁸ Taşkent depremi hakkında yazılmıştır.

bırakmış olduğu insanları duygusal ve edebî çerçevede ele alır. Bu eser Özbek okullarında ders kitabı olarak da okutulmuştur. Ruhlar İsyanı adlı destanda ise Bengal’li meşhur kişi Nezrul İslam’ın cesareti, kahramanlığı, vatanı ve halkı için verdiği mücadele anlatılır (Boltaeva, 2004:61).

Tiyatro ve drama Özbek edebiyatının vazgeçilmezlerindedir. Erkin Vahidov da bu güçlü geleneğin etkisi altında kalmış olacak ki yazmış olduğu *Oltin Devor* (komedi) adlı eser Taşkent’te bulunan *Hamza* adlı devlet tiyatrosunda mütemadiyen sahnelenmektedir.

Çok yönlü kişilik olan Erkin Vahidov iyi bir edebiyat araştırmacısı (Shoiru, she’ru, Shuur⁶⁹) ve usta tercümandır. S. Yesenin (Zamin Darg’asi), L. Ukrainka, M. Svetlov, A. Blok, R. Hamzatov, S. Kaputikyan gibi önemli şâirlerin şiirlerini Özbek Türkçesine aktarmıştır. Alman şâir Goethe’nin *Faust* eserini de Özbek Türkçesine (1974) aktaran Erkin Vahidov bu ve benzeri hizmetleri için Özbekistan Halk Şâiri (1987), Özbekistan Kahramanı (1999) ünvanı ve Hamza adlı devlet mükafatı sahibidir.

Özbeklerin gönlünde Erkin Vahidov sevgi tahtını kuran en mühim etkenler arasında onun insana ve vatana verdiği değer gelir. İnsan/İnsan⁷⁰ ve O‘zbekim/Özbeğim kasideleri bu durumun en açık delillerindedir. Müstakillikten önce 1968 yılında Özbeğim gibi bir kaside yazdığı için 1969 yılında şâir bütün görevlerinden ayrılmak zorunda kalmıştır. Aslında bu kaside şâirin içinde coşan, kaynayıp duran duyguların terennümünden başka bir şeydir. Kendi özüne, halkına, vatanına olan sevgi ve övgü güzellemesi olan O‘zbekim kasidesi zamanla Özbeklerin dilinden düşmemiş ve bestelenerek adeta milli marş gibi gencinden yaşlısına bütün Özbeklerin dilinde söylenmiş ve hâlâ da söylenmektedir.

Özbekistan’da Erkin Vahidov çalışmaları denilince akla gelen isimlerin başında R. İnagamov⁷¹ ve İbrahim Gafurov⁷² gelmektedir. Bunlardan başka çeşitli edebiyat kitaplarında ve tarihlerinde Erkin Vahidov’dan bahsedilmektedir. Naim Kerimov, Bahtiyar Nazarov gibi

⁶⁹ Edebiyat bilimi hakkında yazılmış bir eserdir: Erkin Vahidov (1987). *Shoiru She’ru Shuur*, Toshkent: Yosh Gvardiya Nashriyoti.

⁷⁰ Bu kasidede Erkin Vahidov’un insan geleceği hakkındaki felsefi düşünce ve söylemlerini dile getirilir:

Sobitu sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing

Mulki olam ichra bir hoqon o‘zing, sulton o‘zing

⁷¹ R. İnagamov (1996). *Shoir Bo‘lish Osonmas*, Toshkent: G. Gulom Nomidagi Adabiyot va San‘at Nashriyoti.

⁷² I. G‘afurov (1987). “Bedor Vijdon”, Kitob: *O‘ttiz yil Izhori*, Toshkent: G. Gulom nomidagi Adabiyot va San‘at Nashriyoti.

isimler tarafından hazırlanan 20. Asır Özbek Edebiyatı Tarihi⁷³ adlı çalışmada Erkin Vahidov'a geniş yer verilmiştir. A. Abdullayev, Şark Yıldızı dergisinde Tan Nefesi adlı şiir kitabının tanıtımını yapmıştır⁷⁴. İ. Yarmatov⁷⁵ da Sahiller Şukuhu adlı çalışmasında Erkin Vahidov'dan bahseder. M. Haşimova ise Erkin Vahidov'un şiirlerindeki milli yönü ele alan bir yazı yayımlamıştır⁷⁶.

Erkin Vahidov'un çok sayıda şiir kitabı⁷⁷ yayımlanmıştır. Seçme eserler toplamı evvela iki⁷⁸ daha sonra dört cilt⁷⁹ halinde yayımlanmıştır.

Türkiye'de Erkin Vahidov üzerine bir doktora çalışması yapılmıştır⁸⁰. Erkin Vahidov'un şiirlerinden bazıları *Seçme Şiirler*⁸¹ adıyla yayımlanmıştır.

Giriş

Rusya Çarlığı (1547-1721) tarafından 16. yüzyıldan itibaren aşama aşama gerçekleştirilen Türkistan işgali, Rusya İmparatorluğu (1721-1917) sömürge politikaları ile giderek genişlemiştir. 19. yüzyılın sonlarına yaklaşırken Türkistan'ın üç büyük Hanlığı olan Buhara, Hive ve Hokand Hanlıkları Ruslar tarafından işgal edilmiştir. Sırası ile 1856'da Taşkent, 1868'de Semerkant şehri ve Buhara Hanlığı, 1873'te Hive Hanlığı, 1876'da Hokand Hanlığı Rus Çarlığı himayesine boyun eğmek zorunda kalmıştır. 1883'te Merv şehrinin istilasını ile Türkistan'da Rus işgali tamamlanmış oluyordu. Türkistan topraklarını ele geçiren Çarlık Rusya'sı, Buhara emirliği ve Hive Hanlığı dışında kalan bütün Türkistan topraklarını Türkistan Genel Valiliği (2 Haziran 1866'dan itibaren) ve Bozkır Genel Valiliği (25

⁷³ N. Karimov v.d. (1999). *XX. Asr O'zbek Adabiyoti Tarixi*, Toshkent: O'qituvchi Nashriyoti.

⁷⁴ O. Abdullaev, "Tong Nafasi", *Sharq Yulduzi*, 1983 yil, 9-son.

⁷⁵ I. Yarmatov (1994). *Sohillar Shukuhi*, Toshkent: Yozuvchi.

⁷⁶ M. Hoshimova, "She'riyatdagi Milliylik", *Til va Adabiyot Ta'limi*, 1988 yil, 1-son.

⁷⁷ Erkin Vohidov (1970). *Lirika*, Toshkent., Erkin Vohidov (1980). *Uzelok na Pamyat*, Moskva., Erkin Vohidov (1992). *Iztirob*, Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti., Erkin Vohidov (1973). *Dostonlar*, Toshkent: G. Gulom Nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti., Erkin Vohidov (1985). *Sadoqatnoma*, Toshkent: G. Gulom Nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti., Erkin Vohidov (1980). *Ruhlar Isyoni*, Toshkent: G. Gulom Nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti., Erkin Vohidov (1992). *Yaxshidur Achchiq Haqiqat*, Toshkent: Nur Nashriyoti., Erkin Vohidov (1992). *O'zbekim Vatan Seriyasi*, Toshkent.

⁷⁸ Erkin Vohidov (1986). *Saylanma, Ikki tomlik*, Toshkent: G. Gulom Nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti.

⁷⁹ Erkin Vohidov (2000-2002). *Saylanma, To'rt tomlik*, Toshkent: Sharq Nashriyoti.

⁸⁰ Veli Savaş Yelok (2007). *Erkin Vahidov'un Şiirleri Üzerine Dil ve Üslup Çalışması*, Basılmamış Doktora Tezi, Ankara: Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.

⁸¹ Erkin Vahidov (1991). *Seçme Şiirler* (Hazırlayan: Bayram Orak), Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları.

Mayıs 1891'den itibaren) olmak üzere iki ayrı sömürge halinde ayırmıştır.

1905-yılında Çarlık Rusya'sının Japonya ile yaptığı savaşı kaybetmesi neticesinde ekonomide baş gösteren olumsuzluk, grev ve halk isyanlarını tetiklemiş ve neticede 1917-yılında gerçekleşecek olan devrime alt yapı hazırlamıştır. Birinci Dünya Savaşının getirmiş olduğu yenilgiler ve 1905 devriminin devamı niteliğindeki halk isyanları, grevler, ekonomik kriz, Türkistan'da baş gösteren huzursuzluk vb nedenlerden dolayı 1917'de gerçekleşen Bolşevik (Ekim) devrimi ile Rusya İmparatorluğu yerine Lenin önderliğinde ilk olarak Rusya Sovyet Federatif Sosyalist Cumhuriyeti (1917-1922), ikinci olarak da Sovyet Sosyalist Cumhuriyetler Birliği (1922-1991) kurulmuştur. Bu karışık ve sıkıntılı dönemde Lenin'in talimatları Sovyetler Birliği askeri gücü Kızılordu 1918'de Taşkent'i işgal etmiştir. 1919'da Hive Hanlığı, 1920'de ise Buhara Hanlığı ortadan kaldırılmış, 1924'te Sovyet Sosyalist Cumhuriyetler Birliğine bağlı olarak Özbekistan Sovyet Sosyalist Cumhuriyeti kurulmuştur.

Baskı Politikası

1860'lı yıllarda Türkistan'ın Çarlık Rusya'sı tarafından işgali ve Hanlıkların ortadan kalkması, siyasal anlamda bağımsızlığını kaybetmesi, Taşkent, Semerkant, Kokand gibi şehirlerin işgali ile Türkistan'ın kaderinde değişim rüzgârları esmeye başlamıştır. Sovyetler, Türkistan topraklarında idari hâkimiyeti sağladıktan sonra bilinçli olarak toplumun milli ve manevi değerlerini yok etme planlarını bir bir uygulamaya başlamışlardır.

Türkistan'ın Çarlık Rusya tarafından işgal edilmesinden sonra Komünist Sovyet idaresi, Türk ve Müslüman Türkistan halkını kendi siyasî, dinî ve etnik yapısını benimsetme ve kabule zorlamaya başlamıştır. Türkistan topraklarında kadim bir geçmişe sahip olan halk bu baskı ve zorlama politikasına başkaldırmıştır. Bu başkaldırı yer yer silahlı direniş yer yer de fikrî anlamda gerçekleşmiştir. Türkistan'ın direnişine son derece sert biçimde müdahale eden komünist Sovyet rejimi, tam bir baskı politikası güderek şâir ve yazarları, aydınları hedef almıştır. Türküm diyen, Müslümanım diyen, dilime, dinime, geleneğime bağlıyım diyen Türkistan halkını açlığa, yokluğa, sefalet ve zindanlara mahkûm etmiştir. Millet ve halk yanlısı yazılar, eserler yasaklanmış, şâir ve yazarlar sürgüne gönderilmiş, hapsedilmiş veya katledilmiştir.

1917-1939 Arası Sovyet Politikası

1917 Ekim Devriminden sonra Sovyet Rusya'sı kurulmuş ve Türkistan sömürge politikası daha şiddetli biçimde devam etmiştir.

1924 yılında kurulan Sovyet Toprak Komitesi Türkistan topraklarını, masa başında, etnik bölücülüğe destek çıkar mahiyette parçalamıştır. 1860'larda başlayan Rus işgalini 1924 yılında Özbek Sovyet Sosyalist Cumhuriyetinin kuruluşu ve Sovyet Sosyalist Cumhuriyetler Birliğine ilhakı izler. 1917 Bolşevik (Ekim) Devrimi sonrası yaşanan ikinci büyük değişimdir bu. Bolşevik Devrimi sonrasında Komünist Partinin ilk genel sekreteri olan Lenin (iktidarı: 1917-1924) zulüm politikaları Stalin devrinde zirveye ulaşacaktır. Özbek halkı topraklarının işgal edilmesi ve esarete karşı mücadele ederken resmen Sovyetlere bağlanmayı sinesine çekememiştir. Özbek halkının bu tepkisinden rahatsız olan Stalin (iktidarı:1922-1953) elinden gelen bütün acımasızlık ve gaddarlık politikalarını Özbek halkı üzerinde uygulamaya başlamıştır. Vatan ve din unsurunu öne çıkararak Özbek şâir ve yazarları sarrafın altın tarttığı gibi hassas biçimde tespit ettiren Stalin yönetimi bu kişilerin idamını gerçekleştirmiştir. 1930'lu yılların sonu bilhassa 1938 yılı Özbek aydınlarının peş peşe katledildiği zaman dilimidir.

Stalin 1930'lu yıllarda başlattığı "Büyük Temizlik" terörü ile karalama kampanyasını ve yasağcı zihniyeti, devreye sokmuştur. Taktik hep aynıydı. Akıl almaz suçlamalar, hesapsız iftiralar, toplum nazarında hedef kişiyi düşman ilan etme, gece baskınları ile sorgusuz sualsiz tutuklamalar, zindanlarda "suçunu kabul et" baskısı, düzmece mahkemeler ve ardından gelen idamlar... Sovyet baskısı ve katliamlarının sebebi 1917'deki Bolşevik İhtilalinden sonra "Sovyet kafasıyla düşünen" insanlar yetiştirmektir. Vatanını seven, kendi milli değerlerine sahip çıkan veya bir Türk destanını okuyan kimse uydurma mahkeme kararları ile "vatan haini", "halk düşmanı" ilan ediliyor ve katli vacip oluyordu.

Türkistan'ın Ruslar tarafından işgal edilmesine tepki olarak halkın 20. asır başlarındaki başkaldırışı, Türkistan'ın bağımsızlık hareketinde önemli bir dönüm noktasıdır.

Türkistan'ın Çarlık Rusya tarafından işgal edilmesinden sonra halkın refahı ve Rus işgalinden kurtuluşla ilgili çözüm yolları aranmaya başlamıştır. Rusların işgal ve sömürgecilik faaliyetlerine

Türkistan halkı sivil, siyasî ve silahlı savunma haklarını kullanmış, işgal ve sömürgeyi hiçbir zaman kabul etmemiştir.

Birinci Dünya Savaşı, 1917 Ekim (Bolşevik) Devrimi, Josef Stalin (1878-1953) zulmü altında hayatını kaybedenler, Sibiryaya sürgüne gönderilen Türkistan aydınları, katledilen, mezarı belli olmayan şâir ve yazarlar, gece yarısı ansızın evinden götürülüp kurşunlanan Türkistan halkı (Özbekler, Kırgızlar, Tatarlar, Kazaklar, Karakalpaklar...) ve bütün bu olumsuzluklar yetmezmiş gibi devamından gelen İkinci Dünya Savaşı, genelde Türkistan özelde ise Özbek halkının deyim yerinde ise adeta belini bükmüştür.

Özbeklerin II. Dünya Savaşına Katılma Süreci

İkinci Dünya Savaşı, dünyanın en kanlı, en acımasız savaşı olarak harp tarihine geçmiştir. 20. yüzyılın en kapsamlı ve şiddetli harbi olan bu savaş 1939-1945 yılları arasında, fasılalarla yaklaşık 6 yıl sürmüştür. Savaşa nerdeyse tüm dünya devletleri katılmıştır. Sovyetler Birliği, Çin, Amerika Birleşik Devletleri, Birleşik Krallık, ittifak güçleri adı altında savaşa katılırken Almanya, İtalya, Japonya ise mihver devletler olarak savaşta varlık göstermişlerdir. Nükleer silahların da caydırıcı güç unsuru olarak kullanıldığı bu savaşa 100 milyondan fazla askerin iştirak ettiği belirtilmektedir.

Almanya'nın Stalingrad ve Moskova'ya saldırması sonucu 1941 yılında Sovyetler Birliği, hâkimiyeti altındaki halklardan (Özbek, Türkmen, Kazak, Kırgız, Azerbaycanlı, Tuva, Hakas, Çuvaş, Ukraynalı, Tacik, Kırım Tatar, Kazan Tatar, Saha Cumhuriyeti vb) topladığı askerlerle Almanya'ya karşı savunmaya geçmiştir. Özbekler, 1941 yılında, Sovyetler Birliğini savunmak için Stalin yönetimi tarafından Komünist Parti propagandası ile zorunlu olarak askere alınmış ve cepheye gönderilmişlerdir. II. Dünya Savaşı yıllarında Sovyetler Birliğine bağlı olan Özbekistan (Özbek Sovyet Sosyalist Cumhuriyeti), savaşa bizzat katılmış ve Doğu cephesine 1.500.000 milyon asker göndermiştir.

Eldeki belge ve bilgilere göre yaklaşık 1.500.000 Özbek, Nazi Almanya'sı ve destekçileri ile çarpışmak için Doğu Avrupa cephesine gönderilmiştir. 1939 yılında Özbekistan nüfusu 6.500.000 olarak kayda geçmiştir. Özbekistan, neredeyse nüfusunun dörtte birini cepheye göndermiştir. Sovyetler Birliğine bağlı diğer Türkistanlılar gibi Özbekler 22 Haziran 1941 ve 9 Mayıs 1945 yılları arasından Nazi Almanya ile Japonya vb devletlere karşı farklı cephelerde yapılan

savaşta milyonlarca Sovyetler Birliği askeri ve halkı hayatını kaybetmiştir.

1945'te savaşın sona erdiğinde yaklaşık yarım milyon Özbek askeri hayatını kaybetmiştir. Esir düşenler, kaybolanlar, cephede hayatını kaybedenler, dönüş yolunda vefat edenler...

İkinci Dünya Savaşı ve Özbek Edebiyatı

Eldeki belge ve bilgilere göre yaklaşık 1.500.000 Özbek, Nazi Almanya'sı ve destekçileri ile çarpışmak için Doğu Avrupa cephesine gönderilmiştir. 1939 yılında Özbekistan nüfusu 6.500.000 olarak kayda geçmiştir. Özbekistan, neredeyse nüfusunun dörtte birini cepheye göndermiştir. Sovyetler Birliğine bağlı diğer Türkistanlılar gibi Özbekler 22 Haziran 1941 ve 9 Mayıs 1945 yılları arasında Nazi Almanya ile Japonya vb devletlere karşı farklı cephelerde yapılan savaşta milyonlarca Sovyetler Birliği askeri ve halkı hayatını kaybetmiştir.

1945'te savaşın sona erdiğinde yaklaşık yarım milyon Özbek askeri hayatını kaybetmiştir. Esir düşenler, kaybolanlar, cephede hayatını kaybedenler, dönüş yolunda vefat edenler...

İkinci Dünya Savaşının doğrudan edebiyata yansımalarını ele alan müstakil bir çalışmadan söz edemeyiz. Savaşı ve etkilerini konu edinen edebî eserler 1939'lu yıllardan başlayarak günümüze kadar deva etmiştir. Savaşla ilgili en çok edebî eser, Sovyet (Şûrâ) Devri Özbek Edebiyatı diye adlandırılan dönemde, 1930-1950 yılları arasında verilmiştir.

II. Dünya Savaşı yıllarında Zülfiye, Gafur Gulam, Uygun, Şehzade gibi şâirlerin vatan konulu ve hissî şiirleri öne çıkar.

Oltin vodiyan shabadalar (1949) romanı ise Özbek halkının II. Dünya savaşından sonra yeniden var olma mücadelesini anlatır. Quyosh Qoraymas (1958), romanı da II. Dünya Savaşı galibiyetinin yansımalarını edebî üslupla irdeler. Ulug' yo'l (1963), romanında Aybek milli duyguların şekillenışı ve oluşumunu ele almaktadır. Bu yönüyle söz konusu roman Qutlug' Qon romanının devamı niteliğinde görülmektedir.

Asror bobo, Dardaqdan chiqqan qahramon, Kampirlar sim qoqdi, Xotinlar hikoyalari ve Oltin yulduz gibi kıssalarda savaşanların kahramanlık ve mertlikleri, Özbek halkının gayret ve vatanseverlik duyguları etkileyici bir üslupla anlatılmıştır.

Abdulla Kahhar'ın yazıları dönemin olayları ve toplum ruhuna göre değişmeler gösterir. İkinci Dünya Savaşından sonra yazılan eserlerden Qo'shchinor chiroqlari (1951) romanında halkın birlik ve beraberlik duygusuna dikkat çekilir ve bundan övgüyle bahsedilir.

Maksud Şeyhzade'nin yazarlık hayatı da Taşkent'e gelişinden bir yıl sonra 1920'de başlar. Onun O'n she'r (1932), Undoshlarim (1933), Uchinchi Kitob (1934), Jumhuriyat (1935) adlı şiir toplamlarının neşredilmesi Özbek edebiyatına yeni bir ufuk kazandırmıştır. Bilhassa savaş yıllarında yazdığı Kurash nechun (1941), Jang va Qo'shiq (1942), Kapitan Gastello (1941), Ko'ngil Deydiki gibi şiir güldesteleri ve Jaloliddin Manguberdi (1944) gibi tarihî dramaları halkın savaş karşısındaki azim ve cesaretinin artmasını sağlamıştır.

Hamid Alimcan'ın şiir alanında öne çıktığı tarih 1930'lu yıllardır. Siyasi lirizmin en güçlü temsilcilerinden birisi haline gelen Hamid Alimcan'ın şiirlerindeki (Vodiylarni yayov kezganda) vatansever insan İkinci Dünya Savaşı yıllarında ise Jangchi Tursun olarak tanınmış ve sembol haline gelmiştir. Gerek savaş öncesi gerekse savaş sırasında Hamid Alimcan'ın şiirlerindeki kahramanlar Özbek halkının ortak duygusuna tercüman olmuştur. Rus alim ve tenkit yazarı V. Ermilov 1934 yılındaki bir yazısında Özbek nesri ve nazmının yükselmesinde rol oynayan şâir ve yazarları sıralarken Hamid Alimcan'ı da bu yükselişte katkısı olanlar arasına dahil etmiştir (Ermilov, 1934:7).

Şiirlerinde genellikle sevgi, mutluluk, ikbal ve baht temalarını vurgulayan şâir Sovyet devri Özbek toplum hayatındaki sıkıntılara rağmen samimi, içten ve duygusal şiirler yazarak baht ekolünü oluşturmuştur. Arapların Türkistan'ı istila edişini ve bu istilada direnişin simgesi olan Mukanna/Muqanna (1942) adlı drama bu alanda yazılmış en seçkin dramlardan birisi olarak etki ve önemini hâlâ devam ettirmektedir. Yine şâirin Jinoyat draması konu bakımından dikkate şayandır.

Askad Muhtar/Asqad Muxtor (1920-1997), G'alaba Ishonchi, Jangchining Bayram Kechasi, Tug'ishganlar Qaytdi, Sog'inish, Moskvaning Qalbi gibi şiir kitaplarında İkinci Dünya Savaşı (Ulug' Vatan urushi) yıllarında halkı Faşistlere karşı galip gelmeye çağırılmış ve cesaretlendirmek istemiştir.

Mirtemir'in ilk şiir kitabı olan Shu'lalar Qo'ynida ise 1928 yılında neşredilmiştir. Bu kitaptaki şiirler çoğunlukla vatan-millet

sevgisi, insanların sıkıntıları ve genç nesillerin manevi dünyaları başlıca temalardır. Daha sonraları sırasıyla Zafar (1929), Qaynashlar (1932), Tong (1932), Ochlar o'lkasida (1936), Poytaxt (1936), O'ch (1943), Tanlangan she'rlar (1947), Tanlangan asarlar (1958), She'rlar (1961,1964) Yangi she'rlar (1967), Qush tili (1970), Tingla hayot (1974) Kipriklarim (1976), Izlayman (1976) Yodgorlik (1978) gibi şiir kitapları okuyucu ile buluşmuştur (Boltaeva, 2004:23). Mirtemir'in şiirleriyle Özbek edebiyatında gözle görülür bir yükselme (Mirzaev-Shermuxeimedov, 1993:307) kaydettiği Komil Yashin (Mirtemir, 1980:5) gibi edipler tarafından da tasdiklenmiştir.

Mirtemir'in Karakalpakistan ziyaretleri neticesinde kaleme aldığı şiirlerden oluşan Qoraqalpoq daftari şiir kitabı 1957 yılında neşredilmiştir.

Zülfiye She'rlar ve Qizlar qo'shig'i (1938) adlı kitaplarındaki şiirlerinde Özbekistan'ın terakkisi için tarlalarda çalışan kadınları, traktör kullanan kızları ve onların sıkıntılarını dile getirir.

Onun II. Cihan Harbi yıllarında neşredilen Uni Farhod Der Edilar (1943), Hijron Kunlarida (1944) şiir kitapları, Zülfiye'deki yurt ve millet sevgisini göstermesi açısından önemlidir. Mening Vatanim, Qo'limda qurolu ustimda shinel, Bizni kut gibi şiirler halkın düşman karşısındaki mücadelesini perçinlemiş ve bir dönem dillerden düşmemiştir.

Savaş sonrası dönemde yazılan şiirler ve şiir toplamalarında ise cihan harbinin genel bir değerlendirmesi, kahramanlar ve onların yaşadıkları, örnek davranışlar edebî üslupla ele alınmıştır. Bunlar arasında Chorjo'y-Qo'ngirot (1947), Dalada bir kun (1948), Zootexnik qiz (1952), Tong qo'shig'i (1953), Men tongni kuylayman, Yuragimga yaqin kishilar (1958), Kuylarim sizga (1965), Salom, sizga erkparvar ellar, O'g'lim, sira bo'lmaydi urush gibi şiir ve şiir toplamaları gösterilebilir.

Şükür Halmirzayev/Shukur Xolmirzayev (1940-2005)'in Qora Kamar draması ki İkinci Dünya Savaşı sırasındaki kahramanlıklar etrafında gelişen bir eserdir.

Aman Muhtar/Omon Muxtor (doğum: 1941)'in Çadırhayal isimli eserinde millî ve manevî duygular şehitler vasıtasıyla anlatılır.

Said Ahmed'in yayınlanan ilk kitabı ise Tortiq (1940) adlı hikâyeler toplamıdır. İkinci Dünya Savaşı ve sonrasında çok sayıda hikâye ve kıssa yazan Said Ahmed'in yazıları genellikle yaşadığı

devrin güncel konularıyla ilgilidir. Er yurak (1942), Farg‘ona Hikoyalari (1948), Muhabbat (1949) gibi hikâye kitapları ile Xazina, Hayqiriq, Rahmat Azizlarim gibi hikâyelerinde savařın dehşeti ve savař kahramanlarına övgü söz konusudur.

Said Ahmed usta bir nesir yazarıdır. Qadrdon Dalalar, Hukm (1958) kıssaları ile Ufq (1964), Jimjitlik (1988) romanları onun nesir alanındaki maharetini gösteren önemli yapıtlardır. Ufq romanında İkinci Dünya Savařı sırasında cephe gerisinde hizmet gören çiftçilerin azim ve gayretleri ibretli bir dille anlatılır. Ufq romanı aslında bir üçlemedir. Qirq Besh Kun, Hijron Kunlarida ve Ufq Bo‘sağ‘asida adlı üç kitaptan ibaret olan bu romanın devamında savař öncesi ve sonrası yaşantı tasvir edilmektedir. Jimjitlik romanında ise durgunluk devri yılları konu edilir (Mirzaev-Shermuxamedov, 1993:368-370).

Izlayman kıssasında ise Adil Yakubov 1945-1950 yılları arasında Japonya‘ya karşı verilen mücadeleyi anlatır. Bu eser yazarın birebir şahit olduđu bir konuyu ele aldığı için biyografik özelliklere de sahiptir.

Er Boshiga Ish Tushsa (1969) adlı romanı İkinci Dünya Savařı yıllarındaki olayları yansıtmaktadır.

Erkin Vahidov Nida destanını İkinci Dünya Savařında kaybettiđi babası Çoyanbay Vahidov/Cho‘yanboy Vohidov anısına kaleme almıştır. Bu eserde řâir yetim kalmasının vermiş olduđu acıyı, savařın ana babasız bırakmış olduđu insanları duygusal ve edebî çerçevede ele alır. Bu eser Özbek okullarında ders kitabı olarak da okutulmuştur. Ruhlar İsyanı adlı destanda ise Bengal‘li meShur kişi Nezrul İslam‘ın cesareti, kahramanlığı, vatanı ve halkı için verdiđi mücadele anlatılır (Boltaeva, 2004:61).

Ötkir Hařimov, Tushda Kechgan Umrlar adlı eserinde İkinci Dünya Savařı sırasında yaşananları halkâne bir üslupla anlatmaktadır.

Nida Destanı

Modern Özbek Edebiyatının temsilcilerinden Aybek, Adil Yakubov gibi isimler bizzat İkinci Dünya Savařına tanık olmuş, cepheye gitmiş kişilerdir. Erkin Vahidov bu edipler gibi değildir. Yani cepheye gitmiş veya savařa doğrudan tanıklık etmemiştir. Fakat onun babası, vatan için savařmış, hastalanmış ve Özbekistan‘a döndükten bir müddet sonra savař kaynaklı hastalığı sebebi ile vefat etmiştir. Küçük yaşta yetim kalan řâirin annesi ile birlikte geçirdiđi zorlu çocukluk hayatı onun belleğinde daim yer edinmiştir. Savař yüzünden

babasını kaybetmiş bir çocuğun gönül ıstırabı onun iç dünyasını anlatmaya kâfidir. Zaten şâir, bu ve benzeri hissiyatını Nida Destanında güçlü biçimde vurgular. İthaf/Bag‘ishlov başlığı ile başlayan destanı şâir babasına ithaf eder.

Bag‘ishlov

Hayqiraman,
Tog‘lar bag‘ridan
Gumburlagan sado keladi,
Ona-Yerning otash qa‘ridan
«O‘g‘lim!» degan nido keladi.
«O‘g‘lim!»
Vujudimni chulg‘ar alanga,
Bo‘g‘zimga tiqilar hayajon.
— Mana men, o‘g‘lingiz,
Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor,
So‘ylang, otajon!
So‘ylang, bir daqiqa quloq solayin,
Ovozingiz tinglab to‘yolmaganman.
Bir marta yo‘qotib topolmaganman,
Xayolimda tiklab olayin.
Otajon!

Şiirin “haykırıyorum” diye bir nida ile başlaması bir nevi halka sesleniş, savaş düzenine sitem, acı ve gözyaşına dur demek, adaletsizliğe başkaldırı gibi görülebilir. Dağlardan gümbür gümbür gelen ses bu duygu ve düşüncüyü destekler. Ve yer altından, ateş ve lavların arasından bir ses, nida duyulur. Baba, oğluna seslenir. Oğlum nidası, seslenişi aslında şâirin babasızlık özlemine bir yalvarış, özlem ve yakarıştır. Babası ile mistik bir sohbet havasında geçen diyalogda şâir babasının vücudunun ateşlerin yaktığını ve heyecandan boğazının düğümlendiğini düşünür. Babasından bir beklentisi vardır. Kendisine bir şeyler söylemesini bekler. Aynı sesi tekrar duyamamaktan korkar. Erkin Vahidov, dünyayı dertli âlem olarak tarif eder. Babasız bir dünya onun için elem ve keder, sıkıntı, dert doludur.

Men axir kutlug‘ bu so‘zni
Yigirma yil olmadim tilga,

Yigirma yil sakladim dilda.
Armonli o‘g‘lingiz tinglaydi sizni,
So‘ylang, eshitaman.
Vujudim tilka,
Yuragimni yoqar o‘tli iztirob
Ammo ko‘zlarimda bir tomchi yesh yo‘q.
Bag‘rim o‘yib,
Bu kun menga bermoqda azob
Sizning ko‘ksingizni teshgan kora o‘k.

Erkin Vahidov, “baba” sözüne hasrettir. Yirmi yıldır böyle bir söz işitmemiştir. Yirmi yıl dile getirmediği bu sözü bir o kadar yüreğinde saklamıştır. Destanda baba özleminin en hissiyatlı yürek burkan yönleri yukarıdaki dizelerde geçmektedir.

Qalbim o‘rtamoqda so‘ngsiz armonim...
Yurak konim bilan bitgan dostonim
Sizga bag‘ishladim, Otajon!

Erkin Vahidov bu destanı yürek kanı ile yazdığını söylerken onun ruhî elem ve ıstırabını hissetmemek mümkün değildir. Esasen bu destanı yani nazımlar toplamını da babasına bağışlamıştır.

Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq.
Yuguraman — ortga ketar qadamlar,
Yig‘layman — ko‘zimga kelmaydi namlar,
Murg‘ak vujudimda faqat zo‘r titroq!
Bo‘g‘zimda alamlar,
Achchiq alamlar,
Yo‘lning o‘rtasida turibman.
Shu chok —
Poezd qichqiradi,
To‘xtang, odamlar!
Qayga ketmoqdasiz?
Qani dadamlar?!
Tepamda yonadi zangori chirok...

Uyku ile uyanıklık arası bir hâl yaşar şâir. Gerçek ve hayal arası bir kurgusal düşünce dünyası. Baba diye bağırان bir çocuğun sesi duyulmuyor. Babasının peşinden gidecek ama gidemiyor. Dermanı yok, halsiz. Yine boğazı düğümlenmiş ve keskin bir yürek sancısı. Yolun ortasında kalakalmış bir çocuk. Bir tren çığılığı gecenin sessizliğini bölüyor. Garip adamlar var etrafta. Durun diyor. Çocuk, çaresiz “babam nerede” diyor.

Cho‘chib uyg‘onaman,
Onam qoshimda.
Mehribon qo‘llari
Otash boshimda:
— Nega yig‘layapsan,
Yolg‘izim, ko‘zim?
Tun uzoq, uxlay kol,
Ko‘zlaringni yum.
Orom ol, men senga
Allalar aytay.
Tongda peshonangdan
O‘pib uyg‘otay.
Ana, derazangga
Qo‘nibdi hilol.
Boshingga egilib
So‘rmoqchi savol.
Sening kiprigingga
Sochmoq bo‘lib zar,
Hilol tegrasida
O‘ynar yulduzlar.
Men sening baxtingman
Deganday go‘yo
Imlab chorlamoqda
Yoqut Surayyo.
Senikidir bular,
Seniki bari.
Seniki osmonning
Zar qandillari.
Somonchining yo‘li —
Sening yo‘llaring,

Uzatsang Zuhroga,
Yetar qo‘llaring
Ulg‘ay, bolajonim,
Ulg‘aygin tezroq.
Sening yo‘llaringga
Yulduzlar mushtoq.
Hozircha orom ol,
Yolg‘izim, qo‘zim.
Tun uzoq, uxlayqol,
Ko‘zlaringni yum.

Gecenin bir vakti uykusundan sıçrayarak uyanan bir çocuk Erkin Vahidov. Ateşler içinde uykusundan uyanan çocuğu şefkatli anne kolları sarıyor. Annesi onu, “yalnızım, kuzum” diye seviyor. Geceler uzun, uyu yavrucuğum diyor. Yukarıdaki dizelerde baba yokluğunu anne şefkati ve merhameti ile gidermeye çalışan bir çocuğun gönül dünyasından sızıntılar hissedilmektedir. Şâir aynı zamanda annenin yüce ve kutsal bir değer olduğunu vurguluyor.

Olis sohillarda,
Ufqdan nari
O‘lim sochmoqdadir
Yov kuzg‘unlari.
O‘lim sochmoqdadir
Elga beayov.
Shahar qishloqlarni
Yutmoqda olov.
O‘sha olis yurtda
Kon kechib hozir

Savaş tüm şiddeti ile devam etmektedir. Uzak sahillerde, ufuk ötesinde yokluk ve ölüm saçan bir savaş. Yaban kuzgunları gibi ölüm saçan savaş. Köyleri, şehirleri yutan savaş.

Otang hayot uchun
Jang qilayotir.
Ellarning erk degan

Sof tilagi deb,
Jahonning nurafshon
Kelajagi deb,
Ofat solmasin deb
Olamga qotil,
Otang uzoq yurtda
Jang qilayotir.
Sen uchun, men uchun,
O‘z uchun emas,
Faqat o‘zbek va yo
Rus uchun emas,
Butun Yer — undagi
Bor avlod uchun,
Dunyoda eng kutlug‘
E’tiqod uchun
Uzoq o‘lkalarda

Anne, o‘g‘luna savař hakkında ibretlik s‘zler s‘yler. Senin baban yařam i‘in, hayat i‘in savařmaktadır. Birilerinin ‘zg‘rl‘k dediđi deđer i‘in savařmaktadır. Senin baban insanlıđı bir felaket yok etmesin diye savařıyor. Senin baban yalnız ‘zbek, Rus i‘in deđil b‘t‘n insanlık i‘in savařıyor. En kutsal, en kutlu iř budur. Erkin Vahidov’un annesinin ađzından s‘ylenilen bu s‘zler ř‘irin savařa bakıř a‘ısını ve insanlıđa mesajını g‘stermektedir.

Bu kunlar albatta
O‘tib ketadi.
Bashar jarohati
Bitib ketadi.
Ona-Yer qaytadan
Yasharar bir kun.
Olam nur qo‘ynida
Yashnar lolagun.
Jangu jadallarga
Kelur intiho,
Bizning dunyo bo‘lur
Urushsiz dunyo.
Bu kunlardan qolur

Faqat xotira.
Ammo xalk jafoni
Unutmas sira.
Bu kunlar ketar-u,
G'am, dog'i qolur.
Yuraklarga solgan
Firog'i qolur.

Elbet bir g n savař biter, d nya huzur bulur. Gam, keder diner. Savařsız barıř dolu bir d nya kalır yeni nesillere. Fakat bu g nlerin hatırası asla unutulmaz. Halk bu cevr   cefayı asla unutamaz. Gam, keder ve y reklerde onun sancısı sonsuz kalır.

Sonuc

Erkin Vahidov, Nida Destanını 1964-yılında yazmıřtır. Modern  zbek Őiirinin en belirgin manzumeleri arasında yer alan bu Őiir muhteva, Őekil ve Őiir estetiĐi aısından  zbeklerin hayatında  zel bir mahiyete v kıftır. Ders kitaplarında okutulan bu Őiir,  zbeklerin vatan sevgisi, savař, baĐımsızlık gibi kavramları algılamasında  nemli bir iřleve sahiptir. Bunun yanı sıra Őiirdeki anne sevgisi, anneye verilen  nem ve deĐer ayrıca takdire Őayandır. Savařa bakıř aısı ile evrensel bir insan sevgisi ve d nya barıřı arzusu olan Erkin Vahidov'un g nl nde kalan acı, İkinci D nya Savařı sonrası kaybettiĐi babasıdır. Yetim b y yen ocuklar, savař sonrası  zbeklerin yařadıĐı sıkıntılar, yokluk, acı ve g zyařı, boĐazlarda d Đ mlenen elem ve benzeri hisler bedi bir  slup ve tarzda ustaca tasvir edilmiřtir. İkinci D nya Savařının, Modern  zbek Edebiyatına manzum yansıması ve savař sonrası  zbek toplumunun ruh d nyasını yansıtması baĐlamında Erkin Vahidov'un Nida Destanı, Modern  zbek Őiirinin klasikleri arasında g sterilebilir.

Kaynaklar

1. Bala M., "Hokand HanlıĐı", *İslam Ansiklopedisi (Meb)*: Milli EĐitim BakanlıĐı Basımevi, İstanbul 1987, P. 556-559.
2. Boltaeva I., *XX Asr O'zbek Adabiyoti Tarixi*, (Nashriyotchi Noma'lum), Tashkent, 2004.
3. Commission. *Adabiyotimiz Avto'bio'g'rafiyosi*, Sharq Nashriyoti, Tashkent 1973.

4. Devlet N., *Rusya Türklerinin Milli Mücadele Tarihi (1905-1917)*, Türk Tarih Kurumu, Ankara 1999.
5. Fayziev B., *Navoiy Romanida Tarixiy Voqealar Va Badiiy To'qima*, Gafur Gulom Nomidagi Adabiyot Va San'at Nashriyoti, Tashkent 1971.
6. G'ulom G., "Mening Yorim Asrlik Dustim", *Sharq Yulduzi* (9). Tashkent 1965.
7. Yoqubov H., *Oybek*, O'zadabiynashr, Tashkent 1950.
8. Yoqubov H., *Oybek Lirikasida Goyaviylik Va Mahorat*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1963.
9. Yoqubov H., *Adibning Mahorati*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1966.
10. Ibroximova, R. *Ibrat*, Fan Nashriyoti, Tashkent 2009.
11. Kara F., "Harezmi (Hive) Halk Cumhuriyeti", *Türkler*, Yeni Türkiye, Ankara 2002, P. 808-812.
12. Karimov N., *Oybek*, Gafur Gulom Nomidagi Adabiyot Va San'at Nashriyoti, Tashkent 1985.
13. Kocaoğlu T., Rus İhtilalleri Ve Türk Halkları/Sovyetler Birliğinin Yayılma Siyaseti (1905-1991). In *Türkler Ansiklopedisi*, Yeni Türkiye, Ankara 2002, P. 741-759.
14. Kurat A. N., *Rusya Tarihi*, Türk Tarih Kurumu, Ankara 1999.
- Matjon S, And Sharofjon S., *O'zbek Adabiyoti*, (Nashriyotchi Noma'lum), Tashkent 2009.
15. Mirvaliev S., *O'zbek Adiblari*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1993.
16. Mirzaev S., Shermuxamedov, S., *Hozirgi Zamon O'zbek Adabiyoti Tarixi*, Ozbekiston, Tashkent 1993.
17. Oybek. *Asarlar-Qutluq' Qon (Uchinchi Tom)* Gafur Gulom Nomidagi Badiiy Adabiyot Nashriyoti, Tashkent 1969.
18. Oybek. *Mukammal asarlar to'plami, 20 Jildlik*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1990-1995.
20. Qo'shjonov M., *Oybek Mahorati*, O'zadabiynashr, Tashkent 1965.
21. Saidnosirova Z., *Oybegim Mening*, Sharq Nashriyoti, Tashkent 1994.
22. Saray M., "Rusya'nın Asya'da Yayılması" *İstanbul Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Tarih Enstitüsü Dergisi* C. 10-1, S. 279-302, İstanbul 1979-1980, P. 279-302.

23. Sharafiddinov O., *So‘z San‘atiga Fidoiy Sadoqat, Iste‘dod Jilolari Kitobida*, Gafur Gulom Nomidagi Adabiyot Va San‘at Nashriyoti, Tashkent 1976.

24. Sharafiddinov O., And J. Sharipov, *Adabiyot Darsligi*, O‘zdavr Nashriyoti, Tashkent 1936.

25. Shermuhammadov C., 1987. *Oybek Va O‘zbek So‘vet Adabiyoti*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1987.

26. Sobirdinov M., *Oybekning Ijodiy Mato‘di Va Badiiy Mahorati*, Fan Nashriyoti, Tashkent 1985.

27. Sobirdinov M., "Oybek She‘riyatida Tasviriylik." *Til Va Adabiyot Ta‘limi* (1), Tashkent 2000.

28. Sobirov, O., *Oybek Ijodida Fo‘lklo‘r*, Gafur Gulom Nomidagi Adabiyot Va San‘at Nashriyoti, Tashkent 1975.

29. Togan Z. V., *Bugünkü Türk İli Türkistan Ve Yakın Tarihi*, Enderun Kitabevi, Ankara 1981.

30. Yoqubov O., U. Normatov, "Oybek Dahosi" *Yoshlik Jurnal* (1), Tashkent 1985.

YO‘L IZTIROBI

*Shuhrat RIZAEV,
filologiya fanlari nomzodi*

Ustoz Erkin Vohidov haqida so‘z aytish ularni bilgan, tanigan, binobarin, tom ma‘nodagi muxlisiga aylangan odam uchun o‘ta mas‘uliyatli ishdir. Chunki allaqachonlar millatning faxri-g‘ururi bo‘lib, hayotligidayoq, afsonavash ta‘riflarga ko‘milgan inson haqida gapirish oddiy yumush emas. Shu bois, qo‘rqa-qo‘rqa qo‘limga qalam olib, qanday ta‘rif bersam o‘zgalarnikidan farqli, yangi fikr ayta olaman deb, bir necha haftadan beri urinib-surinib yotibman... qani biror osmoniy tavsifu ohorli kalom kelsa. Hayollarimga qanot, turtki berarmikan deb bot-bot kitoblarini varaqlayman. Suydigim – 2006 yili 70 yilliklariga o‘zlari saralab tayyorlagan “O‘zbekim” to‘plami qo‘limda.

“Aziz va muhtaram Shuhratilla Rizaevga yuksak ehtirom, samimiy mehr va minnatdorlik tuyg‘ulari ila muallifdan” Erkin Vohidov 28 dekabr 2006 yil.

Ana shu dastxat bilan qirmizi muqovalik “O‘zbekim” to‘plamini Erkin aka tavallud sanalari nishonlangan kunlarda tuhfa etgan edilar.

Gap shundaki, Yurtboshimizning ko‘rsatmalari bilan shu kezlar Erkin Vohidov yubileyini o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar belgilanib, Vazirlar Mahkamasining bayonnomasi qabul qilindi. Respublika bo‘ylab bu qutlug‘ sanani nishonlash, yakunida Milliy teatr binosida tantanali kecha o‘tkazish rejalashtirildi. Kamina shu ishlarga jalb etilib, yakuniy kecha bilan bog‘liq masalalarga mas‘ul edim. Tabiiyki, yubilyar bilan kechani o‘tkazish, so‘zga chiquvchilar, konsert dasturi kabi qator masalalarda mashatlashib olish uchun tez-tez uchrashib turishga to‘g‘ri keldi. Har safar ko‘rishganimizda Ustozning birinchi gaplari shu bo‘lard: “Nima bo‘lsa ham kamtarona bo‘lsin. Ortiqcha dabdaba, sharaflashlar sira kerakmas. Shuhratjon, bilsangiz mening ilk she‘rim kamtarlik haqida bo‘lgan:

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
SHunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning – chun
O‘par doim peshonasidan.”

Shu satrlarni o‘qib, qayta-qayta ta’kidlab, taomil bo‘yicha ayollari bilan sahnada yaslanib o‘tirib, qutlovlar qabul qilishni, to‘nvoqlik, sovg‘a-salomlar taqdim etish kabi holatlarni keskin rad etdilar. “Abdullajon (Oripov) – uyushmamiz raisi, lozim topsalar, ikki og‘iz so‘z aytib boshlab bersalar, Ibrohimjonmi (G‘afurov) yoki Umarali aka (Normatov) 5-10 daqiqalik olimona chiqish qilsalar bas, u yog‘iga go‘zal qo‘shiqalar, raqslardan iborat konsert dasturi bo‘lsa, odamlar maza qilib tinglab, tomosha qilib huzurlansalar, shu kifoya. Bundan boshqasini qo‘yinglar...”

Yubileydan yubileygacha yashaydigan adiblar bor. Qilgan-qilmagan ishlari uchun alyorlar eshitib, sahnada yalpayib o‘tirishni, raqqosayu xonandalar ta‘zim qilib, hurmat bajo etishlariga yanada havolanib, zaldagi do‘st-dushmanlariga kibrlanib qarab qo‘yishni xush ko‘radigan va bu mashg‘ulotning obdon hadisini olgan kimsalar bor.

Boshlab, viloyatlarga borib, “o‘lpon” yig‘ib kelib, tuman yo viloyat hokimlaridan bir nimalar undirib, so‘ngra poytaxtda asosiy dabdaba uyushtirishga odatlangan “uchar” yozg‘uvchilar ular. Qarangki, o‘zbekning buyuk zamondosh shoiri har qanday dabdabaga qarshi borib, hatto sahnaga chiqishdan ham tortinib tursa. Yana bunga azbaroyi mamlakat rahbarining ko‘rsatmasi bo‘lgani uchun rozilik berib, shunda ham kamtarona tadbir o‘tkazilishini uqdirib, talab qilsa...

“O‘zbekim” to‘plami, yuqorida qayd etganimizdek, Erkin Vohidov etmish yoshiga qadar e‘lon qilgan she‘rlarining eng saralari jamlangan nihoyatda tabarruk, ustoz SHayxzoda ta‘biricha “nuroniy hosil” xirmoni. Biror sahifasini qoldirib o‘qib bo‘lmaydi. Hayotlarining shu kabi donishga to‘lgan nuroniy pallalarida Oybek domla “Quyoshli qalam”, Mirtemir “Izlaganim” to‘plamlarini o‘z qo‘llariyu qalb qo‘ri bilan bitta-bitta ajratib tartiblagan edilar. Bular muxlislariga o‘ziga xos hisobotlari, hatto vasiyatlaridek edi go‘yo. Erkin aka buni ochiq e‘tirof etib, kitobni “qalb sarhisobi” deb nomlagani quyidagi satrlar bilan boshlaydi:

Ey sen, latif do‘st, bu senga
Umrim kitobidir,
Balki kitob emas, umru
Qalb sarhisobidir.

Qalb sarhisobi bu o‘tgan yillarning oddiy solnomasi emas. YOki qilingan ishlarning mazmun salmog‘ini ko‘rsatish, umr kechmishlarini qayd etib xulosa yasash, jo‘yali falsafa, kerak ibrat aytish emas. Bu fanoyu baqo nisbatlarini anglab, kelmakdin murod neku, ketmakdin muddao ne, tiriklik, hayot atalmish manzil-maskanning ikki eshigi oralig‘ida “Sen kim eding, kim bo‘lding, ey dil” degan so‘roqlariga iztirob ila javob izlamoqdir.

Bir shahr nomi Ibtido,
Bir shahr Intiho.

Jonimda ikki shahr aro,
Yo‘l iztirobidir.

Shu yil 22 sentyabr kuni ustozning solih farzandlari Xurshidbek o'g'lini uyladi. To'y oqshomi, va nihoyat bir necha oy sirdan xolu ahvol so'rab yurishliklardan so'ng, shukurki, Erkin akani yuzma-yuz ko'rib, tavof etish imkoniyati tug'ildi. Oldilariga yaqinlashar ekanman, o'sha "ikki shahr oralig'idagi yo'l iztirobi"ni ko'rgan, tuygandek bo'ldim. Ustoz bilan davralarda, avvallar muntazam, keyinroq biroz betoblanganlari bois, unda-bunda imkon qadar ko'rishib turamiz. Hamisha bir xil – tetik, mulozamatli, ozoda, ziyoli nigoh, salobat va shahdda ko'rib ko'nikib qolgan ekanmanmi, bu safar jussalari biroz chog'roq, rang qiyofalarida surunkali muolajalarining asorati ifoda topgan edi. Ha, bu o'sha Ibtido va Intiho otliq shaharlar orasida bosib o'tilgan yo'llarning iztirobi edi. Nazarimda, shoir etmish yoshida emas, endi – orada qariyb o'n yil o'tib – sakson arafasida yo'l azoblarining zaxmini yuzaga chiqargandek tuyuldi. Elkalaridan quchib, tavof etarkanman, qalbimdagi titroq, fikratimdagi mung diltang ahvolga soldi meni, beixtiyor ko'z qaroqlarim yiltilladi. SHu kayfiyatda to'yxona to'ridagi chekkaroq ziyofat dasturxoniga borib o'ltirdigu, hamma jim, barchaning nigohi goh oshkora, goh zimdan ustozda. To'yxona bo'ylab esa shovqin-suron, kelin-kuyov tashrifi arafasidagi kuy, raqs, qo'shiqlar. Yonginamda Abduhoshim Ismoilov. Baraka topgur, ne bir hunar ko'rsatib davradagi huzunni ko'tarsam deydi. Baxtimizga Zulayho (Boyxonova)ning ustoz g'azali bilan aytadigani sho'x-sha'n "Bir qadam" qo'shig'i yangrab qoldi.

Ikkimizning o'rtamizda

Yo'l, diloro bir qadam,

SHunchalar mushkulmi qo'ymoq

Senga, zebo, bir qadam.

Abduhoshim aka, odatdagidek, o'zi yaratgan ohangdan sarhushlanib o'ltirgan erida beixtiyor qo'llarini o'ynatib, muqom qila boshladi. Qarshisidagi Erkin aka ham o'ltirgan joylarida shu harakatga jo'r bo'ldilar. Va sozanda akamizning da'vati bilan o'rinlaridan turib, tik turgancha zavqlanib qo'llarini raqsga muvofiqladilar. Shu tob yonimizdagi ayollar o'tirgan stoldan ayollari Gulchehra opa zavjlarining ruhiyati engillashib, zavqlanayotganlaridan zavqlanib, ular ham bir joyda turgancha o'ynab berdilar. Qo'l harakatlari asnosida Erkin akaga bori minnatdorliklarini

izhor etib, go‘zal ishoralar qildilarki, bu ham zavqli shukronalik..., ham ne bir taraddud shavqidek edi go‘yo... Ha, garchi bu o‘rinda “shavq” tushunchasi g‘alat tuyulsa-da, ayni damda kamina anglagan holat-daqiqalar shunday edi. Erkin aka shu tobda ham benazir edi. O‘z borligi-holatidan davraga cho‘kayotgan mahzunlikni his etib, qulay imkoniyat tug‘ilishi bilan o‘ziga har qancha og‘ir kelsa-da, atrofida qilarga rosmoana to‘y-tantana kayfiyatini bag‘ishladi, atrofni gulgun etdi. Gulchehra kelinoyidan tortib Xurshidbeku qizlari, kelinlar, qarindosh urug‘-yaqinlar, do‘st-yoron barcha engil tortib, ulkan izdihomga singib ketdi.

Hozir, orada o‘n-o‘nbesh kun o‘tib, shularni o‘ylasam, ustoz Erkin Vohidov qariyb oltmish yildan beri millatni shu yo‘sin uyg‘otib, jonlantirib, shavqlantirib kelayotgan ekan, garchi bu o‘ziga chandon og‘ir, dardli, iztirobli bo‘lsa ham...

ERKIN VOHIDOV IJODINI JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA TADQIQ ETISH MASALASIGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR

*Muhammadali QO‘SHMOQOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti
dotsenti, f.f. nomzodi*

O‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida – kesimida, ya’ni jahon adabiyoti bilan bir butunlikda tadqiq etish uni yangi bir nuqtai nazardan ko‘rish va talqin qilish uchun boy imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri, davlat va jamoat arbobi Erkin Vohidov (1936. 28. 12, Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumani – 2016. 30. 5, oToshkent sh.) adib va mutafakkir sifatida o‘zidan boqiy ijodiy meros qoldirdi. Uning lirikasi, dostonlari, dramalari, tarjimalari, teran va go‘zal tahlillarga boy publiqistik va adabiyotshunoslikka oid maqolalari tobora sevib o‘qilmoqda, o‘rganilmoqda. Bu asarlarning nomlari va yozilgan yillari barchamizga ma’lum ekanini hisobga olib, ular ro‘yxatini keltirmaymiz-da, fikrimizni tanlagan mavzumiz bo‘yicha davom ettiramiz.

Shu o‘rinda barhayot shoirimizning quyidagi fikrini eslash o‘rinlidir:

“Iste’dod – bu mumkin bo‘lmaganni mumkin qilish, hukmron estetik prinsiplarni sindirish, She’riyat mana bundoq bo‘ladi, deb yangicha nuqtai nazarga odamlarni ishontirish demakdir”.

Ayni hikmatni Erkin Vohidovning o‘z ijodiga yaxlit tatbiq etgan holda, dadil ayta olamizki, u iste’dodining joni bo‘lmish badiiy tafakkurini izchillik bilan safarbar aylab, bu olijanob va mangu dolzarb vazifani to‘liq ado qildi. Sharq She’riyati ruhida tarbiya topgan, ayni vaqtda g‘arb She’riyati, yana ham aniqrog‘i, jahon adabiyoti tajribalarini o‘zlashtirgan – “She’riyatning jamiyat hayotidagi kurashchan vazifasi”ni, “She’rning haqiqat sadosi, dardli yurak nidosi” ekanini hamisha yodida tutgan muallifimiz tabiat, hayot nafosatini, insonning boy ma’naviy dunyosini, bunyodkorlik faoliyatini ulug‘lab kuylash bilan birgalikda, ijtimoiy adolatsizlikka, mustabidlikka, yovuzlikka qarshi Ezgulik, Go‘zallik nomidan qat’iy, qaqshatqich badiiy kurash olib bordi. Erkin Vohidov ijodiga xos mana shu to‘kislik uning asarlari qardosh turkiy xalqlar, shuningdek, nemis, fransuz, rus, ingliz, urdu, hind, arab va boshqa millatlar tillariga qilingan tarjimalarida ham aks etib, turli yurtlarda yashayotgan muxlislar e’tiborini qozonmoqda, faqat o‘zbek adabiyotining emas, balki jahon adabiyotining namoyandalariga aylanmoqda.

Ardoqli shoirimiz tarjimon qo‘liga topshirilayotgan – jahon adabiyoti olamiga kirishga hozirlanayotgan she’rlariga murojaat qilib, ularga otalarcha nasihat qilib, oq yo‘l tilab, shunday deb tayinlagan edi:

Bo‘lsangiz ham otash va olov,
Bo‘lmang ortiq sarkash va asov...

Faqat o‘zni unutmang ammo,
Mening she’rim bo‘lib qolingiz.

Muayyan adabiyot mulkini boshqa xalqlarning ko‘ngil xazinasiga qo‘shishda tarjimonlarning ijodiy xizmati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Erkin Vohidovning ushbu murojaati zamirida muallif va tarjimon zimmasidagi mas’uliyatlarning falsafiy-estetik nisbati shoirona ifodalangan:

Siz, tarjimon,
Ey muhtaram zot!
She'rlaringa berguvchi qanot!
Bir-bir yo'nib tarashlaguvchi,
Olam sari yo'l boshlaguvchi,
Baxsh etuvchi yangi bir hayot!
Mana sizga, polaponlarim,
Har biri naq bir jahonlarim,
Tanlab oling – keragi sizga,
Qay birini chertib olsangiz,
Eti sizga, suyagi bizga.

Muallifning sodda, samimiy so'zlari mazmunini ma'lum badiiy asar asliyati va uning tarjimasi o'rtasidagi muvofiqlik, uyg'unlik asoslarini hosil qiluvchi hikmatlar tashkil etadi:

Iltimosim, ularga faqat
Bo'lmagaysiz ortiq beshafqat.
Soddaligin ayb etib kulmang,
Ko'p ichida xijolat qilmang.
To'g'rilangu yurish-turishin,
O'zgartirmang turish-turmushin.
O'z fe'liga xosligi qolsin,
O'z eliga mosligi qolsin.
To'g'riso'zlik darsin o'tgan dam
Unutmasin qochirimni ham.
Mag'rur qilgan chog'ida xitob,
Yo'qolmasin sharqona odob.

Shoirning tarjima odobiga doir bu fikrlarini muayyan adabiyotning jahon adabiyoti muhitiga qo'shilishiga oid shartlar deb qabul qilishimiz ham mumkin.

Darhaqiqat, "Ijodkor So'zni tirik jon deb biladi va So'z bilan so'zlashadi". Erkin Vohidovni adib va mutafakkir sifatida yana bir marta teran va keng miqyosli ravishda, yangi bir yo'sinda idrok etishimizga sabab bo'lgan "So'z latofati" (2014) kitobi ham el e'tibori va e'tirofiga erishdi. "Bizning Shunday ulug' She'riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor. Til millatning bosh belgisi

hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q, – deb hisoblaydi muallif. – Istiqlol unut bo‘lgan davlatchiligimizni tikladi, yo‘q bo‘lishga mahkum qilingan tilimizni, demakki, millatimizni asradi va aziz qildi”. “So‘z latofati” kitobi ma‘lum millatning har bir vakili o‘z ona tilini, undagi har bir kalomni o‘z joniday asrab-avaylashi lozim, deb o‘rgatadi: “Ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi mas‘uliyat ham umummilliy. Men o‘zbekman, degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak. Unutilgan so‘zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg‘iz tishunoslarning emas, millatning ishidir”. Bu hikmatni ko‘ngilda saqlash va amalga oshirish umrimiz mazmuniga aylansa, ajab emas. Chunki ona tilimiz sofligini saqlovchi, uni boyitib borishga intiluvchi kishilar bor, etarli darajada bor. O‘zbek tili taraqqiyotini mukammal ta‘minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bugungi muhitimizda til fidoyilari safi kengayib borishi ham tabiiydir.

Demak, “So‘z latofati”, – barcha ustozlarimizning, jumladan, Erkin Vohidovning ham eng barkamol asarlari kabi, – ma‘naviy va ijtimoiy ehtiyojlar samarasi bo‘lib dunyoga kelgan.

Erkin Vohidov xalqimizning ziyobaxsh va betakror xislatlarini, uning badiiy tafakkuriga xos yuksak parvozlarni, tilimizga hamisha ko‘rk bag‘ishlab turadigan tagdor lutf-u qochirimlarni noyob shakllarda qo‘llagan milliy shoirimizdir.

Erkin Vohidov xalqimizning murakkab tarixiy yo‘lini, ko‘nglidagi g‘urur va faxrni, armonlarni yorqin badiiy ifodalab, uning qadrining yuksak maqomini olam aro namoyon qilgan milliy shoirimizdir.

“O‘zbekim” qasidasi (1968) o‘z davrida xalqimizning norasmiy gimniga aylandi, deb shohidlik bergan ustoz Umarali Normatov haq. Qardosh turkiy xalqlarning vakillari ham Erkin Vohidov she‘rlari, g‘azallari, “O‘zbekim” qasidasini to‘lqinlanib yoddan o‘qiganlariga esa, ko‘pchiligimiz guvohmiz. “Oltin devor” komediyasi, “Saylanma” kitobi, “Nido” dostoni va boshqa asarlari tarjima qilib nashr etilgan mamlakatlarda muxlislar va tanqidchilar mehrini qozongani, Pokistonning Lahor shahri teatrida “Oltin devor” komediyasi muvaffaqiyatli sahnalashtirilgani Erkin Vohidov ijodi jahoniy e‘tibor qozonayotganidan dalolatdir.

Shoir qalbi hamisha dunyoga ochiq. U Ivan Novikovga bag'ishlagan "Sharqiy qirg'oq" she'rida tarannum etganidek:

Shoir! Ey tinchimas olovli yurak!
Adolat yulduzi senga mayoqdir.
Haq yo'lda fidoyi askarsan, demak,
Sening qarorgohing – sharqiy qirg'oqdir.

Zulm qo'rg'oniga qila ber hujum,
Bilki, biznikidir, nihoyat, zafar.
Dunyoda bor ekan eng so'nggi mazlum,
Sharqiy sohillarda o'chmas mash'allar.

U shoirlik mohiyatini har on, har kun teranroq uqib borishga harakat qiladi:

Ey ko'ngil, bo'l sodiq habib,
Meni zinhor tashlama.
Habibim bo'l, ammo hadeb
O'z ko'yingga boshlama.
Yolg'iz manim desa fikrat,
Yo'q, manim, deb da'vo qil.
Lekin gohi,
Etdi fursat,
Fikratga ham oshno qil.
Tutma menga ishq yo'lin berk,
Mayli, toshgin, quyilgin.
Ammo o'zga berma ko'p erk,
Qirqni ko'rding, quyilgin.
Bas, o'y surma, senga dunyo –
Asroridan ne g'am bor?
Bu dunyoda
Odil tanho
Vaqt atalgan hakam bor!

Barhayot shoirimiz "Vaqt atalgan hakam" sinovidan haqiqat ko'ziga tik qarashdan qo'rqmagan ijodkorgina o'tishi ishongan. Shuning uchun uning ijodida Yovuzlikka qarshi kurashda Ezgulik

kuchiga kuch qo‘shuvchi hajv va yumor ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa uning sho‘ro tarixida qayta qurish deb atalgan davrni fosh etuvchi she‘rlari faolligi, jangovarligi, badiiy yorqinligi bilan ajralib turadi. Qayta qurishni boshlaganlar aslida bu ishni amalga oshirishni istamas edilar... Shu mavzudagi “Bizlar arra tortmoqdamiz” (1991) she‘rida, shoir qo‘llagan badiiy timsolning favqulodda va ta’sirchanligi, misralarning sodda, ravonligiga e’tibor bering... Uni bir o‘qigan yoki bir eshitgan odam beixtiyor yodlab oladi:

Bizlar arra tortmoqdamiz,
Arramizning tishi yo‘q.
Nega arrang tishi yo‘q, deb
So‘raydigan kishi yo‘q.

Chunki bizlar anoyimas,
Pishib ketgan ko‘zimiz.
Arra tushgan o‘sha shoxda
O‘ltiribmiz o‘zimiz.

Erkin Vohidov hajvi va yumori haqida o‘ylaganda, u yaratgan Matmusa siymosi ko‘z o‘ngimizga yarq etib keladi.

“Donishqishloq latifalari” guldastasini hosil qilgan va Matmusaning: qishlog‘i; qalpog‘i; lagani; charxpalagi; tandiri; uylanishi; qiziquvchanligi; rassomligi; dutori; tandir kiygani; mehmondo‘stligi; qo‘shig‘i; o‘g‘rilarga uchragani; Amerika ochishi; haykali; eshak sotgani; bog‘i mavzusidagi voqeaband, hajviy-yumoristik asarlar, “Matmusaning she‘rlari” turkumi (“So‘z boshi”, “Hikmatlar”, “Bizning motam”, “Narx-navo”, “Arslon va eshak”, “Do‘ndiqcha”, “Tuxum kulgidan muhim”, “Ko‘kterak bozorida”) hamda “Kelajakning Matmusalari” she‘rlari uyg‘unlikda bu zavqbxash hajviy-yumoristik qahramonni badiiy jonlantiradilar.

Matmusa – xalq latifalari qahramonlari kabi, – o‘zini go‘llikka solib, rolga kiruvchi va yolg‘onning, nodonlikning hamda boshqa illatlarning avra-astarini ag‘darib ko‘rsatuvchi tug‘ma donishmanddir. Vaqt taqozosiga ko‘ra, bu she‘rlar tahlilini keyingi galga qoldirib, diqqatimizni E.Vohidov “Hazil to‘g‘risida jiddiy she‘r”ida hajv, yumor, fojiiyaviylik-kulgulilik mohiyatini namoyon qiluvchi ushbu falsafiy-estetik qonunni kashf etganiga qaratamiz:

Zavol topdi qattol tuzum,
Uni enggan qo‘shin yo‘q.
Bu qal‘aga hajv atalgan
Zambarakdan yog‘di o‘q.

To‘rt tomondan kulgu, mazax
Paymonasin to‘latdi.
Yiqolmasdi hech bir qudrat,
Latifalar qulatdi.

Hazilni hech o‘yin dema,
Hazil tagi puch emas.
Qanot yozgan bir hazil so‘z
Hazilakam kuch emas.

Bu dono badiiy haqiqat istibdodning ma‘naviy mahv bo‘lishi, uning o‘rnida mustaqillikning bunyodga kelishida folklorimiz, adabiyotimiz va san‘atimizning insoniylik, erk, adolat, vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan barkamol asarlari, jumladan, ularning hajv, yumor ichdan nurlantirib turgan namunalari – o‘zlarining beqiyos xizmatlarini ko‘rishimiz va anglashimiz, bu beminnat fidoiylikni munosib darajada qadrlashimiz uchun, – bizni ilhomlantiradi. Shoir Erkin Vohidovning ushbu fenomen – noyob davriy hodisa mag‘iz-mag‘iziga singib ketgan butun ijodi, xususan, uning betakror hajvi, yumori, chunonchi, “xalqchil” deb haqqoniy sharaflangan (R.Inog‘omov, I.G‘afurov ta‘rifi; “O‘zME”, 2-jild, 2001, 505-b.) hajviy-yumoristik qahramoni – Matmusa badiiy siymosi ham ana shunday yuksak ehtiromga sazovordir. Matmusaga bag‘ishlangan she‘rlarning jahon tillariga tarjima qilinishi ularning o‘zga muhitda, yangidan yaralishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan bir butunlikda o‘rganish, tadqiq etish adabiyotshunosligimiz kun tartibida turgan muhim masaladir. Uni ilmiy ro‘yobga chiqarish adabiyotimizga, uning Erkin Vohidov singari ulug‘ siymolariga xos fazilatlarini asosli va ishonarli ochib berishga xizmat qilajak. Mazkur istiqbolli va keng miqyosli tadqiqotni yaratishga dunyoning turli mamlakatlarida yashasalar-da, o‘zbek

adabiyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan olimlar ham o'z hissalarini qo'shadilar, albatta. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida "Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni" mavzusida, shu yil 24 dekabr kuni buyuk shoirimiz tavalludining 85 yilligiga bag'ishlab, oflayn-onlayn tarzida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferençiya esa bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri bo'lib qolajak, deb umid qilamiz.

ERKIN VOHIDOV VA ADABIY ALOQALAR

*Mo'minjon SULAYMONOV,
Namangan davlat universiteti
dotsenti, f.f. nomzodi,
Abbosjon ROHATALIEV,
Namangan davlat universiteti
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning adabiy tarjimalari va uning o'zbek adabiyoti rivojidagi o'rni xususida fikr yuritilgan. Shoirning tarjimonlik mahorati atroflicha tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Mumtoz adabiyot, qasida, tarjima, jahon adabiyoti, antik adabiyot tarixi, Rim adabiyoti.

Erkin Vohidov o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini, shuningdek, turkiy xalqlar adabiyotini ham juda yaxshi bilganligi hammaga ayyon haqiqat. Shoir o'tgan XX asrning 60-yillarida bitgan "O'zbekim" qasidasining dastlabki baytlaridayoq faxr bilan yozgan edi:

*So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon o'zbekim⁸².*

⁸² Воҳидов Э. Асарлар. Биринчи жилд. Баҳор таровати. – Тошкент: "Sharq" нмак бош таҳририят, 2015. – 209 бет.

Qasidaning keyingi deyarli barcha baytlarida ham xalqimiz va adabiyotimiz tarixiga oid ko‘plab fikrlarning badiiy ifodasini kuzatamiz:

*Tuzdiyu Mirzo Ulug‘bek
Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk –
Qo‘ydi narvon o‘zbekim.
Mir Alisher na‘rasiga
Aks sado berdi jahon,
She‘riyat mulkida bo‘ldi
Shohu sulton o‘zbekim⁸³.*

Shunday bo‘lishi bilan birga shoir boshqa xalqlar adabiyotidan ham atroflicha xabardor ekanligi ko‘pgina she‘rlaridan ma‘lumdir. Mana shu sabab tufayli Erkin Vohidov jahon adabiyoti tarixini ham juda yaxshi bilishi hamda asarlarida bu ulkan xazinadan unumli foydalanganligi mazkur maqolamizning asosiy mavzusi bo‘ldi.

Ijodkorning jahon adabiyotini atroflicha bilishi, bizningcha, ikki sohada ko‘zga tashlanadai. Avvalo, shoir jahon adabiyotining durdona namunalarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan o‘girganligini ta’kidlashimiz lozim. Ikkinchidan, uning asarlarida jahon adabiyotida uchraydigan syujetlar va qahramonlar nomlarini tez-tez tilga olinadi.

Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati, ayniqsa, mashhur rus shoiri Sergey Esenin She‘rlarini hamda nemis adibi Iogan Volfgang Gyotening “Faust” tragediyasini zo‘r mahorat bilan o‘girganligi haqida ko‘p va xo‘p yozilgan. Bu tarjimalar to‘g‘risidagi tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, mazkur o‘girmalarni o‘qigan kitobxon ayrim so‘z va iboralarni hisobga olmaganada, asliyat rus tilida yozilganligini xayoliga ham keltirmaydi. Shuningdek, Gyotening dunyoga mashhur asarini o‘z tillariga muvaffaqiyatli o‘girgan tarjimonlar ko‘pchilikni tashkil etmaydi⁸⁴.

Shoir fransuz romantizm adabiyotining yorqin vakillaridan biri Viktor Gyugoning “Shohona ishrat” dramasini ham tarjima qilgan⁸⁵.

⁸³ Ўша нашр. – 210 бет.

⁸⁴ Гёте, И.В. Фауст. Трагедия. Эркин Воҳидов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – 268-бет.

⁸⁵ Гюго, Виктор. Клод Гё. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. 85–223-бетлар.

Aslida shoir tarjimonlik faoliyatini qachon va qaysi asarlarni tarjima qilishdan boshlagan degan savolga aniqlik kiritib olish ham zarur, deb hisoblaymiz. Erkin Vohidov filologiya fakultetining talabasi sifatida jahon adabiyoti, jumladan, antik adabiyot tarixidan ma'ruzalar tinglaganligi aniq. O'sha vaqtlarda hali antik adabiyot tarixidan o'quv qo'llama va darslik nashr etilmagan edi. Atoqli olim qadimgi Evropa adabiyotining zukko bilimdoni Abdurahmon Alimuhammedov "Antik adabiyot tarixi" darsligini yozayotgan paytda sobiq shogirdini ham bu ishga jalb qilgan ko'rinadi. Yuqoridagi darslikda keltirilgan qadimgi yunon va qadimgi Rim shoirlari asarlaridan namunalarning tarjimoni Erkin Vohidov deb ko'rsatilganligi shundan dalolat beradi. Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, A.Alimuhammedov o'tgan XX asrning 60–70-yillarida Toshkentdagi bir necha oliy o'quv yurtlarida "Antik adabiyot tarixi" fanidan ma'ruzalar o'qigan. Shoir talabalik yillaridayoq iste'dodli ijodkor sifatida iqtidorini namoyon qilganligi ham ko'pchilikka ma'lum.

E.Vohidov qadimgi yunon adabiyotidan 11 ta she'riy parcha, Rim adabiyotidan 6 ta parcha, jami 17 ta namunani tarjima qilganligi yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir⁸⁶. To'g'ri, atoqli adib va tarjimon Muhammad Ali ham "Antik adabiyot tarixi" darsligiga kiritilgan ayrim parchalarning tarjimoni hisoblanadi.

Aslini olganda, Rim adabiyotidan dastlabki tarjimalarning namunalari atoqli adib Oybekka taalluqlidir. Doston va romanlari bilan tanilgan Oybek she'riy tarjima bilan jiddiy shug'ullanadi va qisqa vaqt ichida salmoqli asarlarni tarjima qilishga ulguradi. Bu namunalarni 1940 yilda "Rim adabiyotidan tarjimalar" nomi ostida nashr ettiradi. Aynan shu nashrda qadimgi Rim adabiyotining mashhur vakili – komediyanavis Plavtning "Xumcha" asari tarjimasi ham o'rin olgan edi. Bu komediya dunyo adabiyotida mashhur bo'lgan asarlardan biridir. Keyinchalik "Rim adabiyotidan tarjimalar" Oybekning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ning XV jildiga kiritildi.⁸⁷ Bu tarjimalarni asliyat bilan qiyoslab, tadqiqotlar olib

⁸⁶ Алимухаммедов, А. Антик адабиёт тарихи. Университетларнинг филология ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун дарслик. Иккинчи нашр. – Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 1975. – 416 бет.

⁸⁷ Плавт. Хумча. // Ойбек. Рим адабиёти (Таржималар). МАТ. 20 томлик. XV том. – Тошкент: Фан, 1978

borish kelajakda amalga oshiriladigan izlanishlarga mavzu bo'lishi, shubhasiz.

E.Vohidovning xalqimiz orasida mashhur bo'lgan "Oltin devor" komediyasi aynan Plavtning "Xumcha" asaridan ilhomlanib, ta'sirlanib yozilgan, desak ham, balki mubolag'a bo'lmas. Har ikkala asar komediya janrida bitilgan, shuningdek, o'g'irlangan xazina syujetiga asoslangan⁸⁸.

E.Vohidov jahon adabiyotining yana ko'plab mashhur namoyandalari asarlarini yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga o'girib, kitobxonlarga taqdim etdi. Jumladan, fors shoiri Hofiz Sheroziy, hindistonlik shoirlar: Bedil, Mirzo G'olib, Muhammad Iqbol, rus shoiri A.S.Pushkin, nemis shoiri Fridrix Shiller, arman adiblari: Silva Kaputikyan, Gevorg Emin, gruzin shoiri Muxran Machavariani, avarlarning hassos shoiri Rasul Hamzatov va boshqalarni eslatib o'tish kifoya, deb o'ylaymiz.

Rasul Hamzatovning "Ona tilim" va yana bir necha she'ri E.Vohidov tarjimasida umumiy o'rta ta'lim maktablarning "Adabiyot" darsliklariga kiritildi⁸⁹. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, R.Hamzatovning "Mening Dog'istonim" nomli mashhur asarining ham ilk tarjimoni E.Vohidov hisoblanadi. Shoir tomonidan bu asarning dastlabki tarjimalari "Guliston" jurnalida bosila boshlagan. O'ta vatanparvarlik ruhida yozilgan bu asarning o'zbek tiliga o'girilishi o'sha davrning "hushyor" siyosatchilari uchun ma'qul bo'lmagan. "O'zbekim" qasidasi bilan xalqimizning qalbida vatanparvarlik ruhini jo'shtirib yuborgan shoirning mazkur tarjimasi chegaradan chiqish hisoblangan. E.Vohidovga, yaxshisi, "Mening Dog'istonim" asarining davomini tarjima qilmay turishni maslahat berishgan. Keyin bu asar iste'dodli shoir Asror Mo'min tomonidan to'la tarjima qilib, nashr ettirildi⁹⁰.

Shoir tarjimalari o'zbek kitobxonlarini jahon adabiyoti namunalari bilan tanishtirishda katta ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Biz bu sohada ayrim jihatlar haqida bahs yuritish bilan cheklandik, xolos.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tarjima ajdabiyotini va adabiy aloqalarni Erkin Vohidov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

⁸⁸ Воҳидов, Эркин. Асарлар. Биринчи жилд. Баҳор таровати. – Тошкент: "SHARQ" НМАК БОИШ таҳририяти, 2015. – 380-425 бетлар.

⁸⁹ Ҳамзатов, Р. Она тилим. Умумий ўрта таълим мактабларининг 7-синф учун Адабиёт дарслиги. Т.: "Шарк" 2017. 41-бет.

⁹⁰ Ҳамзатов, Р. Менинг Доғистоним. Асрор Мўмин таржимаси. - Тошкент. "Тафаккур". 2011

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 416 bet.
2. Vohidov E. Asarlar. Birinchi jild. Bahor tarovati. – Toshkent: “Sharq” NMAK BOSH TAHRIRIYATI. 2015.
3. Gyote I.V. Faust. Tragediya. Erkin Vohidov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1972. – 268 bet.
4. Gyugo V. Klod Gyo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. Oybek. Rim adabiyoti (Tarjimalar). MAT. 20 tomlik. XV tom. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Hamzatov R. Ona tilim. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun Adabiyot darsligi. – T.: “Sharq” NMAK bosh tahririyati, 2017. 41-bet.
6. Hamzatov R. Mening Dog‘istonim. Asror Mo‘min tarjimasi. –Toshkent: Tafakkur, 2011.

THE ROLE OF ERKIN VAKHIDOV’S CREATIVITY IN THE EDUCATION OF STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

T.T.TASHKENBAEV,
Lecturer of the department "Uzbek (Russian) languages"
Tashkent State Transport University;
Bobur BAKHTIYOROV,
Student of the group TLA
Tashkent State Transport University

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidovning ijodiy hayotidagi asosiy fikrlar yoritilgan, uning adabiy janrlarga yondashuv tamoyillari ochib berilgan va uning asarlarining texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga dars berish jarayoniga ta’siri ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Lirik, ma’naviyat, tarbiya, ta’limot, adabiy janr, ilmiy bilimlar sintezi.

Abstract. The article highlights the main points from the creative life of Erkin Vakhidov, reveals the principles of his approach to

literary genres and shows the influence of his works on the process of teaching students of technical universities.

Key words. Lyrics, spirituality, education, teaching, literary genre, synthesis of scientific knowledge.

The end of the fifties – the beginning of the sixties of the XX century was marked by a qualitatively new stage in the development of society. The changes that took place in the ideological sphere (the debunking of the Stalin personality cult) led to a serious creative upsurge of a certain part of the creative intelligentsia. With their creativity, they formed fundamentally new trends in the development of Russian culture and literature, contributed to the expansion, and sometimes serious loosening of the rigid ideological framework of realism. They were the first after a long time to abandon embellishment in depicting reality, began to write not about external, but about internal, deep processes of the human soul, thereby seriously raising the artistic level of Uzbek literature. Aesthetic traditions of the past and artistic innovative solutions, the experience of oral folk art and stylistic searches of artists are all inherent in the literature of the 60-90s, which is distinguished by a variety of creative individuals, a variety of types and genres. All of them help to delve deeper into life, to comprehend the past as an effective weapon in solving modern problems, and to view the present as the threshold of the future. Themes and conflicts, ideas and images of works created in the second half of the 20th century, vividly and realistically reflect the truth of the past century, which was complex and contradictory in the history of the Uzbek people.

The Uzbek literature of the 20th century is characterized by its enrichment with new prose genres. In particular, such a genre of modern prose as the historical novel began to actively develop in Uzbek literature. This genre is relatively young, but it can be noted that certain achievements in this genre are associated mostly with the name of Erkin Vakhidov.

Erkin Vakhidov is a remarkable contemporary poet. He was born in 1936 in the Altyaryk region of the Fergana region. In 1960 he graduated from the philological faculty of the Tashkent State University (now the National University of Uzbekistan). He began his career as an editor at the Yesh Gvardia publishing house, where he

worked for three years (1960–1963). Later, the poet worked in the same publishing house, but already as editor-in-chief (1975–1982). Erkin Vakhidov also worked in the publishing house of literature and art named after Gafur Gulyam as editor, chief editor (1963–1970), director (1985–1987), was chief editor of the “Yeshlik” magazine (1982–1985).

Since 1990, Erkin Vakhidov has been actively involved in public and state activities. In 1990–1995, as a deputy of the Oliy Kengash, he headed the Committee on Publicity Issues. Since 1995, he has been a deputy of the Oliy Majlis and chairman of the committee on international affairs and inter-parliamentary relations. In these high positions, his talent manifested itself not only as an organizer and creatively working leader, but also as a politician, a person capable of generating ideas, whose intelligence, flexibility in conducting politics helps to raise the authority of the state.

Currently Erkin Vakhidov is a laureate of the State Prize of Uzbekistan named after Hamza (1983), People's Poet of Uzbekistan (1987), Hero of Uzbekistan (1999).

E.Vakhidov's creative path is also extremely consistent. Erkin Vakhidov began writing poetry early, in the early fifties, when he was still in school. Even then, a talent manifested itself, which is characteristic only of poets of great talent. And even then E.Vakhidov understood perfectly well that it was necessary to write only about the most intimate and present.

From the very beginning of the sixties, Erkin Vakhidov has published his poetry collections almost every year: “Breath of the Dawn

(1961), “You My Songs” (1962), “Heart and Mind” (1963), “My Star” (1964), “Resonance” (1965), “Lyrics” (1966), “The Sofa of Youth” (1969), “Svetoch” (1970), “Today's Youth”(1971).

He seeks to expand the theme of his work, tries himself in different genres - epic, song, journalistic. These were not just poems by a young poet. These were artistically mature, sincere poems of a poet whose talent was amazing.

The most valuable psychological quality of E. Vakhidov is deep inner democracy, which does not contradict subtle intelligence, but, on the contrary, cement it.

The natural manifestation of democracy is an insatiable curiosity about life. There is no indolence in such curiosity. Its basis is indifference. Close attention to people and situations that can be erased in memory or falsely incarnate if not captured by a direct witness.

Erkin Vakhidov is the author of a number of interesting poems and poetic dramas, among which one can note such poems as “The Dream of the Earth”, “The Poem Written in a Tent”, “Devotion”, “Rise of the Immortals”, “The Conqueror and the Barber” and some others ...

Of course, all the work of the remarkable poet Erkin Vakhidov is a precious historical evidence, an artistic document of the era. Thus, the works of Erkin Vakhidov plays a significant role in the education of students, including technical universities.

THE WORK OF ERKIN VOHIDOV – THE SPECIFICITY OF APPROACHES AND METHODOLOGY OF TRANSLATION INTO ENGLISH

D.TASHKENBAEVA,

*Lecturer at the Department of Humanities studies of
TUIT named after Muhammad al-Khwarazmi*

*N. QO‘SHOQOVA, V.RASULOVA, S. XAMRAKULOVA,
The students of National Institute of Art and Design named
after Kamoliddin Behzod*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodidagi g‘oyaviy yondaShuvlarning tarixiy voqealar prizmasidan o‘ziga xos jihatlari yoritilgan, Shuningdek, muallifning ilmiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish metodologiyasining mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarix, mafkura, tarjima texnikasi, qarz olish, tashkilot, tarixiy motivlar.

Abstract. This article highlights the specifics of ideological approaches in the work of Erkin Vakhidov through the prism of historical events, and also reveals the essence of the methodology for translating the author's scientific works into English.

Key words. History, ideology, translation technique, borrowing, organization, historical motives.

Speaking about the Uzbek poetry of the 70-80s of the XX century, about the work of Erkin Vohidov, we cannot but rejoice at the fact that his works are in tune with the modernity of those years, are dedicated to the glorification of the man-creator and worker; they, without losing their journalism, the activeness of the civic position of the author, have become more intellectual, they noticeably deepened universal human motives. So, in the poems of E. Vakhidov, the deepening of the philosophical, analytical spirit is strongly noticeable. Uzbek is a hard worker with extensive knowledge, a person with a rich spiritual world. He deserves to be sung with dignity. Creating verbal images, writers and poets select material from various lexical groups. “The meaning of a word in a work of fiction is never limited by its direct nominative-objective meaning. The literal meaning of the word in the text “overgrows” with new, different meanings. In the context of the entire work, words and expressions, being in close interaction, acquire a variety of additional semantic shades, are perceived in a complex and deep perspective of the whole”.

The ideological and emotional orientation of this poetic work is a feature of human life in its social and moral essence; cognition and poetic illumination of the social characters of people both in their external manifestations and in their inner life, in the development of their thoughts and experiences. So, we see a living image of an arrogant person who is forced to “worship” the one who is below him in position in society.

It is not so easy to translate the poetry of Erkin Vakhidov, like any great master, but many stylistic features of his writing help the translator. First of all, the fact that E. Vakhidov is a poet of great clear thought. Thought is translatable, because it is universal, all-human; another thing is the national form of presentation or metaphorical object-verbal thinking. It is important to note the feeling that the poet's thought is not so much “revealed” in the process of contemplating reality (as a natural conclusion from the observed life pictures), but rather is formed in advance as a kind of artistic setting, initial in his poetic concept, which then finds expression in the figurative system, lyrical “plot” and selection of artistic details and means. It is not so

much the perception of life that produces an image, as a formed thought “selects” a figurative combination. In the poem “The Sadness of the Needle”, expressing the idea of value, perhaps not large-scale and not striking, but persistent and necessary daily work, as well as the natural need to be grateful for such work.

Here is the meaning of the poem, the conclusion contained in the final lines of the text with an effective use of proximity and difference of the concepts “ear – ear” is precisely that previously discovered figurative comparison and preformed thought, which then “overgrow” with the necessary “lyrical plot”.

It is easy to see that there is no comparison of the present time with the period of his youth, and this poem, perhaps, is not “about love” at all. The poet’s thought is much deeper: he grieves that from the sphere of modern perception of the world and feeling, that cultural origin, that aesthetics, “classics” that have bordered and deepened feelings have gone, when the artistic word made unique the expression of our experiences and the very nature of the perception of life.

A special feature of the artistic creativity of the Uzbek poet is his humor, often containing deep generalizations of life and becoming a form of expression of philosophical and socio-historical observations. There are also works that are literally devoted to comprehending the socio-historical significance of the laughter principle in our life. E. Vakhidov, explaining the importance and power of laughter, calls for responsibility for a mocking word, for a “joke”, because not only “great ideas” and lofty impulses produce revolutions in personal and social consciousness, but also laughter:

Therefore, a poet working in the field of poetic translation cannot do without philological science. And to turn away from philology for a poet-translator means to doom oneself to hopeless amateurism

ERKIN VAKHIDOV: BRIGHT STAR OF POETRY

*Sh.S. KHOLMATOVA,
teacher of UzSWLU*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining atoqli shoiri va yozuvchisi E.Vohidov ijodi haqida so‘z boradi. Jamiyatimiz

ma'naviy hayotini yuksaltirish komil yosh avlodni shakllantirish bilan uzviy bog'liq ekani ta'kidlanadi. Mumtoz yozuvchi va shoirlar ijodini ta'limning barcha bosqichlarida o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu ma'naviy kamolotga, shaxs shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: istiqloq, ta'lim, adabiyot, lirika, to'plam.

Abstract. The article deals with the work of the outstanding poet and writer of the Republic of Uzbekistan E.Vakhidov. It is noted that the development of the spiritual life of our society is inextricably linked with the formation of a perfect young generation. The study of the works of classical writers and poets at all stages of education is one of the urgent tasks and this has a significant impact on spiritual development, personality formation.

Key words: independence, education, literature, lyrics, collection.

The development of the spiritual life of our society is inextricably linked with the formation of a perfect young generation. At all stages of education, one of the urgent tasks is to study the work of classical writers and poets. This has a significant impact on the spiritual development and formation of the personality.

After achieving independence in the Republic of Uzbekistan, it became obvious that in the educational sphere it is necessary to revive national customs and traditions, cultural and spiritual values. The slogan "Uzbekistan is a state with a great future" determines the need for the development and reform of all spheres of life in our society. We must not forget about the direct connection between the education of the young generation and the future of the entire state. In modern education, new methods and techniques, called interactive, provide efficiency in the study of literature, including in the study of the work of the writer and poet Erkin Vohidov.

A native of the Fergana Valley, the future poet was born into a family of teachers. His childhood years passed during the Second World War, and his youth – the post-war years. All this left an indelible imprint on Erkin's worldview, forming a strong character. He learned to appreciate life, enjoy every minute of it, find a reason for joy in every little thing that a common man in the street cannot grasp.

He began his work in his youth, and already in the sixth grade, his first poem was published. Even then, it was clear that a new star had shone on the horizon of Uzbek literature. As he matured, his talent also matured, and already in his student years, his first collection of poems, entitled "Breath of Dawn", was published. And that was just the beginning.

Subsequently, the poet's collections are published almost annually. Other poets highly appreciated the work of Erkin Vakhidov. For example, Robert Rozhdestvensky wrote that his works are multi-layered and polyphonic. A future member of the Union of Writers of Uzbekistan, Erkin Vakhidov traveled all over the vast country, was abroad: in Berlin, Delhi, New York. And from all his trips, he brings works written under the impression of the new and interesting.

The love lyrics of Erkin Vakhidov deserve attention. The poet can rightfully be called the successor of the traditions of the classical genre of the gazelle. So, in the poems "The nightingale cried all night", "Bud" there are traditional attributes of a gazelle – images of a nightingale and a rose, Farhad and Majnun as the personification of passionate tragic love, the obligatory mention of the poet's name in the last lines.

Carefully preserving traditions, the author also conveys his original perception of love. In the poem "The Spring", the reader is presented with a girl sitting by the spring. Starting from a real episode, the poet creates a lyrical love story, or rather, expectations of love. The love of the lyric hero of the poem is like a pure spring emanating from the depths of the earth. The heroine of the poem is both sublime and simple in anticipation of a bright feeling.

In the poem "Free Land – Uzbekistan" the poet glorifies the most precious achievement of the people – freedom and independence of the Motherland. Erkin Vakhidov refers to the historical past of his native land, when "the hordes were trampled by predatory, evil, and wounds are visible on the ground." The poet is proud that the eternal striving for freedom and prosperity of the motherland, expressed in the epics "Alpamysh", Tor-oglu "is being carried out in our time, and he is a direct participant in the events. It is organic and accurate to compare the homeland with the legendary heroic winged horse – a symbol power, strength and freedom.

Erkin Vakhidov tries himself in different genres – epic, journalistic, but more and more gravitates towards song. Many of his poems are known as songs performed by Uzbek singers. Later, the work of Erkin Vakhidov is noticeably different from his earlier works, he is freed from his previously inherent laconicism and abruptness towards smoother intonations. During this period, poetry collections "Love" (1976), "Living Planets" (1978), "East Coast" (1982), "Message to Descendants" (1983), "Insomnia" (1985), "Suffering" (1991) were published "The Bitter Truth is Better" (1992).

Erkin Vakhidov's authorship belongs to the poems "The Dream of the Earth", "The Poem Written in a Tent", "Devotion", "Rise of the Immortals", "The Conqueror and the Barber", the plays "The Golden Wall", "The Istanbul Tragedy", "The Second Talisman".

The poem "Revolt of the Spirits", by definition of literary critics, is considered the pinnacle of E. Vakhidov's creativity. Literary critic U. Normatov calls "The Mutiny of Spirits" a philosophical, tragic, heroic poem: "Mutiny of Spirits" is a kind of innovative work in its form. It consists of a synthesis of the poetic form of rhythm, emotionality, different colors symbolize the life episodes of the legend, etc." [2] The poet used several methods to reveal the fate of Nazrul Islam. The legends in the work help to reveal the image of Nazrul Islam. This method is simulating. "The Legend of Ignorance", "The Legend of Eternity", "The Legend of Devotion" occupies an important place in the composition of the work. All these legends are an important means of revealing the character of the Bengali poet Nazrul Islam, who fought for the freedom of his people. At the same time, the poet puts forward a philosophical outlook on life. In particular, can a person live forever? What are the factors that determine its eternity consist of? During the reading of the work, the reader finds answers to these questions. A person can live for one whole century. But human life is measured not by the years lived, but by perfect good deeds. The life of the heroes fighting for freedom, like the life of Nazrul Islam, corresponds to eternity. Based on these qualities, "The Rebellion of the Spirits" can be attributed to philosophical poems. Thus, summing up, we can say that E. Vakhidov worked fruitfully in the genre of the poem. He created the most striking examples of lyric and lyric-epic poem.

References

1. Karimov N. She"rij shakllar va uslubij junalishlar. // "Uzbek adabiyotida zhanlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi" tuplami. – Toshkent: Fan, 1983.
2. Huzhamberdieva Sh. Izuchenie tvorchestva Erkina Vohidova v obshcheobrazovatel'nyh shkolah na osnove sovremennyh pedagogicheskikh tekhnologij // Molodoj uchenyj. – 2015. – № 2 (82). – S. 566-568.
3. Vohidov E. Izbrannoe. 2 toma. – T.: Izdatel'stvo «Literatura i iskusstvo», 1986.

SPECIFIC EXPRESSION OF SOCIAL VALUES IN THE WORKS OF E. VAKHIDOV

*M.O. NOSIROVA,
senior teacher of UzSWLU*

Annotatsiya. Maqolada E.Vohidov ijodida ijtimoiy qadriyatlarning ifodasi haqida so‘z boradi. O‘zbekiston azaldan iste’dodlarga, ayniqsa, adabiyot sohasida boy bo‘lgani ta’kidlanadi. Erkin Vohidov o‘zining barcha asarlarida o‘quvchiga yetuk, kuzatuvchan, inson psixologiyasini ayrim psixologlar vakillaridan ko‘ra yaxshiroq tushunadigan shaxs sifatida namoyon bo‘lishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: lirika, Erkin Vohidov, qadriyatlar, she’r, aksiologiya, ijtimoiy qadriyatlar, ijod, tishunoslik.

Abstract. The article deals with the expression of social values in the works of E. Vakhidov. It is noted that Uzbekistan has always been rich in talents, especially in the field of literature. In all his works, Erkin Vakhidov appears to the reader as a mature, observant person who understands human psychology better than some representatives of psychologists.

Key words: lyrics, Erkin Vakhidov, values, poem, axiology, social values, work, linguistics.

At all times Uzbekistan has been rich in talents, especially in the field of literature. Alisher Navoi, Babur, Nodira, Mashrab, Mukimi ... This list can be continued for a very long time. The poems of these and many other poets have long been included in the treasury of Uzbek literature. But this does not mean that today there are no poets whose talent could not be compared with the talent of the above authors. One of these people is the Hero of Uzbekistan, People's Poet Erkin Vakhidov. Probably, there is no person in the republic who could not quote a couple of lines from the works of this talented person. These are the kasida "Uzbeğim" ("My Uzbek"), the poem "Nido" ("Groan"), the poems "Inson Uzing" ("You are a man"), "The Tamer", the play "The Golden Wall" and many others.

In all his works, Erkin Vakhidov appears before the reader as a mature, observant person who understands human psychology better than some representatives of psychologists.

A native of the Fergana Valley, the future poet was born into a family of teachers. His childhood years passed during the Second World War, and his youth – the post-war years. All this left an indelible imprint on Erkin's worldview, forming a strong character. He learned to appreciate life, enjoy every minute of it, find a reason for joy in every little thing that a common man in the street cannot grasp. He began his work in his youth, and already in the sixth grade, his first poem was published. Even then, it was clear that a new star had shone on the horizon of Uzbek literature. As he matured, his talent also matured, and already in his student years, his first collection of poems, entitled "Breath of Dawn", was published. And that was just the beginning.

Subsequently, the poet's collections are published almost annually. Other poets highly appreciated the work of Erkin Vakhidov. For example, Robert Rozhdestvensky wrote that his works are multi-layered and polyphonic. A future member of the Union of Writers of Uzbekistan, Erkin Vakhidov traveled all over the vast country, was abroad: in Berlin, Delhi, New York. And from all his trips, he brings works written under the impression of the new and interesting [4].

The love lyrics of Erkin Vakhidov deserve attention. The poet can rightfully be called the successor of the traditions of the classical genre of the gazelle. So, in the poems "The nightingale cried all night", "Bud" there are traditional attributes of a gazelle – images of a

nightingale and a rose, Farhad and Majnun as the personification of passionate tragic love, the obligatory mention of the poet's name in the last lines:

*May Erkin's blood sprout,
A flower in the garden of your love. [2]*

Carefully preserving traditions, the author also conveys his original perception of love. In the poem "The Spring", the reader is presented with a girl sitting by the spring. Starting from a real episode, the poet creates a lyrical love story, or rather, expectations of love. The love of the lyric hero of the poem is like a pure spring emanating from the depths of the earth. The heroine of the poem is both sublime and simple in anticipation of a bright feeling.

In the poem "Free Land – Uzbekistan" the poet glorifies the most precious achievement of the people – freedom and independence of the Motherland. Erkin Vakhidov refers to the historical past of his native land, when "the hordes were trampled by predatory, evil, and wounds are visible on the ground." The poet is proud that the eternal striving for freedom and prosperity of the motherland, expressed in the epics "Alpamysh", Tor-oglu "is being carried out in our time, and he is a direct participant in the events. It is organic and accurate to compare the homeland with the legendary heroic winged horse – a symbol power, strength and freedom [4].

Erkin Vakhidov tries himself in different genres – epic, journalistic, but more and more gravitates towards song. Many of his poems are known as songs performed by Uzbek singers. Later, the work of Erkin Vakhidov is noticeably different from his earlier works, he is freed from his previously inherent laconicism and abruptness towards smoother intonations. During this period, poetry collections "Love" (1976), "Living Planets" (1978), "East Coast" (1982), "Message to Descendants" (1983), "Insomnia" (1985), "Suffering" (1991) were published "The Bitter Truth is Better" (1992).

Erkin Vakhidov's authorship belongs to the poems "The Dream of the Earth", "The Poem Written in a Tent", "Devotion", "Rise of the Immortals", "The Conqueror and the Barber", the plays "The Golden Wall", "The Istanbul Tragedy", "The Second Talisman" [1].

Erkin Vakhidov translated Goethe's Faust, poems by S. Yesenin, A. Tvardovsky, M. Iqbal, R. Gamzatov, G. Emin and many other poets into Uzbek.

The poet's poems went to the people. They were also translated into Russian. Today, each line of Erkin Vakhidov's poems is interpreted under a different sign – eternity. After all, when people leave, especially poets, not only their portraits change, from which they seem to look at their contemporaries in a different way, but the words they have written are seen differently, the meaning of which penetrates even deeper into the soul.

*We live easily, without noticing seconds.
We laugh at carelessness in captivity.
And the pendulum – it shakes its head,
blaming this carelessness.
He seems to be telling us: – It will be too late.
Hurry for a second, anyone.
Everything has its own term. And I wouldn't have to after
regret them by shaking your head. [2]*

(Translated by S. Ivanov)

References

1. Akbarov A. O poetah horoshih i raznyh: sb. krit. st. – Tashkent: Hudozh. lit., 1965.
2. Vahidov E. Stihi i dramy. – Tashkent: Fan, 1985.
3. Karimov N. She"rij shakllar va uslubij junalishlar. // “Uzbek adabiyotida zhanrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi” tuplami. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Huzhamberdieva Sh. Kavkaz v tvorchestve Erkina Vahidova // Molodoj uchenyj. – 2016. – № 10 (114). – S. 1509-1510.

ERKIN VOHIDOVNING TARJIMONLIK MAHORATI

*Gulchehra QO‘YLIEVA,
Guliston davlat universiteti
dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati haqida soʻz borib, nemis shoiri Gyotening “Faust” asarini tarjima qilib, jahon adabiyotining durdona asariga ijodkorona mahorat bilan yondoshib, oʻzbek kitobxonlariga taqdim etgani va hozirgacha bu asar oʻz qimmatini yoʻqotmagani haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: shoir, adabiyotshunos, tarjimon, fojeaviy asar, falsafiylik, mohirlik.

Oʻzbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi, Oʻzbekiston Qahramoni Erkin Vohidov nafaqat shoir, balki dramaturg va publitsist, adabiyotshunos hamda mohir tarjimon ham edi. Buyuk ijodkor zamonaviy oʻzbek sheʼriyati osmonida yarq etib chiqib, bir-biridan chiroyli, ravon va sermazmun sheʼrlar guldastasini sheʼriyat ixlosmandlariga armugʻon etib ketdi. “...Bu avlod sheʼriyatni hayotga yaqinlashtirdi. Sheʼriyat gʻoya koʻkidan tushib, oddiy insonning hiskechinmalarini tarannum eta boshladi.... A.Oripov, E.Vohidovlarning ijtimoiy pozitsiyasi publitsistika darajasida qolib ketmadi, ular chinakam sheʼriyatga daxldor boʻlib, buni taʼminlagan bosh omil ijtimoiy dardning shaxsiylantirilganidir.” [1. 190-191 b]

Shoir “oddiy insonning shoir ijod yoʻliga koʻz tashlar ekanmiz, jahon adabiyoti durdonalaridan koʻplab ijodkorlar: Gyotening “Faust” fojeasini, F.Shillerning “Gero va Leandr”ni, rus adabiyotidan Sergey Yeseninining “Eron taronalari”ni, M.Svetlovning “Tirik qahramonlar”, “Italyan yigit”, A.Tvardovskiyaning “Soʻz haqida soʻz”. “Tiriklik haqida”, “Sen va men”, “Sheʼrim” va boshqa koʻplab shoirlar asarlarini oʻzbek tiliga oʻgirib, sheʼriyatga oshno dillarni xushnud etgan. Ijodkorlar hayoti davomida oʻqib-oʻrganganlari, yozgan asarlari, toʻplagan hayotiy tajribalari, koʻrgan-kechirganlarining oʻzi bir maktab hisoblansa, vaqtlar oʻtib yigʻilib borgan fikrlar aql oʻzanidan toshay deganda uni boshqa oʻzanga yoʻnaltira olsagina foydadan holi boʻlmaydi. Shu oʻrinda oʻzbek xalqining mahoratli va sevimli shoiri Erkin Vohidovning kitobxonlarga qoldirgan ulkan va boy adabiy merosi koʻz oldimizda gavdalanib, shoirning jahon adabiyoti durdonalaridan qilgan tarjimalarini esa oʻzanidan toshgan fikrlar jamlanmasiga oʻxshatgim keladi. Erkin Vohidov: “Men bu tarjimaga kirishishdan oldin nemis tilini oʻrganmoqchi boʻldim. Shunda bir nemis menga “Faust”ni tushunish uchun nemis boʻlib tugʻilishning oʻzi kamlik qiladi, dedi. Shundan soʻng tilni

o‘rganishdan voz kechdim-da, Gyoteni o‘rganishga kirishdim” degan ekan. Gyotening 1773-1831 “Faust” asari yozilgandan keyin roppa-rosa 200 yil o‘tgandan keyin Erkin Vohidov uni 1972-75 yillarda tarjima qilishga muvaffaq bo‘ldi:

Ilohiyot ila band bo‘ldim,
Faylasufi xiradmand bo‘ddim.
Ilmi huquq, ilmi tabobat –
Barchasini o‘rgandim, faqat,
Faqat menga bir narsa ayon:
Nodon edim, nodonman hamon...
Toki ruhlar kelsin chorlasam,
Ayon etsin asrorin olam...
Tanholikda bilayin, olam
Qay kuch ila uyg‘un erur jam...
Toki etay tub haqiqatga...

Asarning bosh g‘oyasi Faustdagi insonparvarlik qarashlarning natijasi sanalib, agar insonga aqlu zakovat ato etilmaganda edi, u tabiat va koinot sirlarini ilm va fan kuchi orqali bilishga bo‘lgan qiziqishi ortmagan bo‘lar edi. Doktor, magistr darajasini olgan insonning o‘z-o‘zini tanqid qilishi, sirli olamni bilishga bo‘lgan kuchli intilishi, dangasalikni engish, o‘qib-izlanishga bo‘lgan rag‘batni oshiruvchi asar asrlar osha o‘z qimmatini yo‘qotmaganiga amin bo‘lasiz. Kitobxonga bir o‘qishda tushunish qiyin bo‘lgan murakkab asarning faylasufona jihatlarini tarjimonning o‘xshatish va mubolag‘alarida ko‘ramiz:

Quruq safsatayu va’z esa faqat –
Jaranglab turuvchi qalbaki tanga...

yoki

Qog‘oz bosa bilmas ko‘ngil tashnasin,
Tafakkur miftohi kitobda emas.
Hayot asroriga intilgan har kas
O‘z qalbidan topar sirlar chashmasin

kabi hech takrorlanmas Erkin Vohidov usulida, turfa falsafiy tashbehlardan shoda-shoda marjonlar tizib, kitobxonga Gyotening olmoncha nafasini tuyishiga erishgan.

Bizga ma'lumki, "Faust" Gyote ijodining cho'qqisi hisoblanib, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi choragi – 60 yil davomida yozilgan. Asar o'qish davomida Shunga amin bo'lamizki, asar o'zbek kitobxonlarini tragediyadan kelib chiqadigan tarbiyaviy jihatining asrlar osha o'lmay kelayotganiga va bundan keyin ham kitobxonlarga yo'ldosh bo'lib qolishiga Shubha yo'q.

Ilohiyot ila band bo'ldim,
Faylasufi xiradmand bo'ldim.
Ilmi huquq, ilmi tabobat –
Barchasini o'rgandim, faqat...,
Topganim yo'q boylik va Shuhrat,
Topganim yo'q hayotda lazzat...
...Toki ruhlar kelsin, chorlasam,
Ayon etsin asrorin olam...

Asar tarjimasi ustida ekan, "Gyotening sharq falsafasiga yaqinligi mening yo'limni yoritib turdi, ruhimga madad bo'ldi" deb yozgan edi E.Vohidov. Shuningdek, tarjima qilish davomida, asarni o'girish oson ko'chganini, buning uchun Gyote ijodini chuqur o'rganganligini, uning sharqni sevishi, islomdan va Muhammad payg'ambar faoliyatidan xabardorligiga yo'yadi. Zotan, ravon va chuqur o'y mushohadakorlik Erkin Vohidov ijodiga hamohangligi she'r muhlislariga ayon.

"Odatda tragediyalar fojeali tugaydi. Biroq asar sinchkovlik bilan mutolaa qilinsa, "Faust"da bunday yakunning o'zi yo'q. Chunli u hayotini bilimlarini muttasil takomillashtirib borishsiz tasavvur qila olmaydi" [2].

"Faust" qahramoni umri davomida katta tajriba to'playdi, tinimsiz izlanish va fikrlash uning aqliy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, dunyoga kelgan inson hayotining ma'no-mazmuni o'yinkulgidan, kayfu safodan, qalbi esa go'zalligu sevgidan limmo-lim emasligini, el-yurt uchun va xalqi farovonligi yo'lida titnib-tinchimay mehnat qilishi lozimligini uqtiradi. Mashaqqatli mehnati samarasini ko'rgan va yaratish zavqini tuygan, yashab o'tgan hayotidan mamnun

Faust olamdan o'tadi. Uning jonini esa farishtalar osmonga olib chiqib ketishida esa yana bir ramziy ishora bor – shayton yo'liga yurmagani va uni ham dog'da qoldirib yuksaklarga ko'tarilib ketganida fojeaviylikni emas ruhiyat engillashganini his etiladi.

“Gyotedan nimalarni o'rgansa bo'ladi? uning eng ulug' fazilati: millatparvarlik, o'z yurti, o'z tili va adabiyotiga cheksiz muhabbat, shu bilan birga, boshqa xalqlarga. Ularning adabiyoti va madaniyatiga ham chuqur hurmat bilan qarashi; uzluksiz ham aqliy ham jismoniy harakatda bo'lishni; boshlagan ishni oxiriga etkazishni; go'zallikka, tabiatga oshuftalikni, irodalilikni; yaratuvchilik fazilatini; do'stlarga mehr va sadoqatni; aslzodalarga xos dabdabalarga intilmaslikni; talantli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni va boshqa ko'plab fazilatlarini o'rganish mumkinki, ularning sanog'iga etish qiyin”, deydi yana bir mohir nemis tili tarjimoni, ustoz Yanglish Egamova. [3.]. Demak, Gyote Faust timsolida shaxsan hayot yo'lini yaratgan deb bemalol ayta olamiz. Asarni bizga tufha etgan tarjimonlarning ikki dunyosi obod bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati; – T.: Adib, 2012. –B.190-191.
2. Saidov A. Dastlab amal bo'lgan. – T., 2007. 13.05.2014 y. Hurriyat gazetasi /Ziyouz.
3. Yoshlik jurnali. 2013 yil 12- son. Suhbatdosh Gulnoz Mo'minova.

ERKIN VOHIDOV VA NAZAR ESHONQUL IJODIDA MIFOLOGIZM

Shodiya TURDIYEVA,
**O'zbekiston Milliy universiteti
magistranti**

Annotatsiya. Maqolada she'riy va nasriy asarlarda uchraydigan mifologizmlar, ularning asardagi o'rni, asar mazmuni qay darajada ochib berishi yoritilgan. Mifologizmlarning she'riy asarda qay yo'sinda qo'llanilishi, nasriy asarlarda qanday foydalanilishlari

atroflicha ochib berilgan. Ularning asardagi ta'siri Erkin Vohidov va Nazar Eshonqul asarlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Mif, mifologema, mifologizm, mifologik obraz, mifologik syujet, mifik motiv, neomifologizm, folklorizm

Adabiyot vujudga kelibdiki, miflarning unga ta'sirini ko'rish mumkin. Chunki adabiyot, xususan, badiiy adabiyot miflar zamirida vujudga keladi, rivojlanadi. Miflar nafaqat mumtoz adabiyotni, balki zamonaviy adabiyotni ham rivojlantiradi. Bugun zamonaviy sochim va tizmda ham miflardan keng qo'llaniladi. Buning natijasida mifologizm va folklorizm vujudga kelgan. Zamonaviy badiiy adabiyotda miflarga murojaatni nasriy asarlarda juda ko'p uchratamiz. Bugungi yozuvchilarimiz o'zlarining asarlarida miflardan unumli foydalanib kelishmoqda. Shu o'rinda nasr bilan hamohang tarzda nazmda ham miflarga murojaatni, ulardan unumli foydalanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Nasrda o'zining mifologizmga boy asarlari bilan Nazar Eshonqulni misol keltirsak, nazmda so'zni moxrlilik bilan qo'llay bilgan, mifologizm va folklorizmdan ustamonlik bilan foydalana bilgan she'riyatimizning ustunlaridan biri hisoblangan Erkin Vohidovni ta'kidlab o'tish darkor. Bu ikki ijodkor mifologik tasavvurlarini ijod namunalari ga chuqur singdirgan.

Erkin Vohidov ijodida uchraydigan mifologizmlar haqida so'z borganda, uning dostonlari, xususan, "Ruhlar isyoni" dostoni ko'z oldimizda gavdalanadi. Asarda shoir tomanidan asosiy voqeani yanada yaqqolroq gavdalantirish maqsadida qator afsonalardan foydalaniladi. Bu afsonalar zamirida ijodkor o'zining o'ylarini ham so'zlab o'tadi. Asarda afsonalarni keltirar ekan, ularning barini Narzul Islom voqeasi bilan bog'laydi. Ijodkor dastlab mangulik haqida fikr yuritib, unga bog'liq afsonani keltiradi:

Roviy aytar:

Allazamon –

Allaqaysi ma'voda

Falokatga uchrab karvon

Poyoni yo'q sahroda...⁹¹

⁹¹ Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2018. - 332-bet.

Unga ko‘ra bir karvon cho‘lda bo‘ronga uchrab, faqat bitta odam tirik qoladi va u ham tashnalikdan qiynalib suv qidirib yurardi. Nogahon yo‘lidan bir chashma chiqib qoladi, lekin bu chashma obihayot bo‘ladi. Uni ichgan inson bu hayotda bezavol yashaydi. Buni tushungan u odam suvni ichmaydi lekin, ko‘zasida olib oladi. Bu odamning baxtiga Shu suvdan ichgan va uzoq umr ko‘rib azoblangan va o‘zini qumga ko‘mga odam chiqib qoladi. Shu odam sababli qahramon mangu yashashga insonlarning badoshi yetmaydi degan xulosaga kelib, chashma suvini sahroga to‘kib ketadi. Obihayotdan esa bir nihol bahramand bo‘lganini aytar ekan ijodkor, uning vaqt o‘tib ulkan daraxt bo‘lganini va u daraxt chinor ekanligini ham aytib o‘tadi. Chinorning uzoq yashash sababini Shu voqaega bog‘laydi. Shoir o‘zining bu afsonasi orqali garchi inson hayotdan to‘ymasada, boqiy yashashga bardoshi yetmasligini, boqiy hayot insonga xos emasligini ham ta’kidlab o‘tadi. Shoirning bu afsonasi dostonga kirish vazifasini bajaradi. Dostonda keltirilgan keyingi afsona bu – askar haqidagi afsonadir. Shoir tomonidan keltirilgan bu rivoyat insondagi isyon ruhini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shoir har narsadan isyon ruhini axtaradi, bu ruh hayotni mohiyatini ko‘rishga yordam berishini ta’kidlaganday bo‘ladi. Isyon ruhi esa shoirlarda kuchli bo‘lishi va shu ruh bilan dunyoni o‘zgartirish mumkinligini aytadi. O‘z fikrlarini dalililash uchun keltirilgan bu mifologizm ham isyon ruhini tasvirlashga qaratilgan. Bu asarda “Fidoiylik to‘g‘risida rivoyat” mavzusi ostida berilgan. Unda hind urf-odati (misrda ham bu odatga amal qilingan) bo‘lgan, o‘lgan eri bilan tirik ayolini ko‘mish odatining jaholat ekanligini ta’kidlaydi.

*Qadim zamon,
Ayol dini
Fidoiylik deganlar,
Eri o‘lsa, xotinini
Qo‘shib ko‘mar ekanlar.* ⁹²

Shoir bu afsonani berar ekan insonlarni tasvirlashga alohida ahamiyat beradi. U jamiyat a‘zodarini bu urf-odat xatoligini bilishsada unga qarshi chiqmaganligini, bu odatlar o‘zlarini boshqarishi yo‘l

⁹² Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. 344-bet.

qo‘yganligini, odat deb ko‘r-ko‘rona ergashishlarini tanqid qiladi. Bu jaholatga qarshi chiqqan yolg‘iz hurfikr yigitni ham o‘ldirishadi. Uni la‘natlashadi, tahqirlashadi, lekin yigitning vasiyatini bajarib, rafiqasini ham u bilan birga qabrga ko‘mmaydi. Haqiqatni barilla ayta olgan bu yigitdagi jasorat boshqalarda ham bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Shoir tomonida keltirilgan bu afsonada har qanday vaziyatda ham haqiqatni barilla aytish kerakligini ta‘kidlaydi. Bu afsonalardan so‘ng asarning asosiy qismiga kirib boriladi. Unda 1926-yilgi voqealar tasviri beriladi. Bu voqealarni yanada aniqroq tasavvur etish, ijodkor g‘oyasini tushunishga yordam beruvchi “Jaholat to‘g‘risida rivoyat” beriladi. Ijodkor tomonida bu asarga kiritilgan Jaholat haqidagi afsona uni yanada ta‘sirchan etadi. Bu afsona asosiy voqea, boshqa afsonalarni bir-biriga bog‘lab turgan Narzul Islom voqeasiga mazmun jihatidan yaqin hisoblanadi. Afsonaning boshlanishidanoq bu zamonning qanday zamon ekanligi aytib o‘tiladi:

*Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatli zamonda
Bir donishmand
ulug‘ hakim
O‘tkan ekan jahonda.⁹³*

Bu afsona qahramoni fidoiy tabib bo‘lib, bemorga butun vujudi bilan yordam berar edi. Bir kuni tabib ko‘zi ojiz odamning ko‘z nurini qaytaradi. Lekin johil zamonning quboniga aylanadi. Hakim ham Narzul Islom kabi jaholardan aziyat chekadi. Har ikki voqeada ham odamlar ularni yo‘qotganlaridan keyin haqiqatni anglab yetadilar. Asarda Narzul Islomning holati bilan parallael ravishda rivoyatlar keltirilib boriladi. Shoirning tutqunlikdagi kechinmalarini tasvirlar ekan “Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat” keltiriladi. Unda qudratga ega bo‘lgan shohning o‘z o‘g‘li tomonidan tutqunlikda saqlanishi tasviri va buning sabablari keltiriladi. Asardagi “Zoxidlar va Oriflar haqida rivoyat”da voqelik emas balki, ularni ta‘riflari keltirilgan. Dostonda parallel keltirilgan bu mifologizmlar asarning

⁹³ Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018, 354-bet.

badiiy bo‘yoqdorligini, ta’sirchanligini oshiradi. Bu rivoyatlarga qarab Narzul limning kechinmalarini yanada teranroq anglaymiz. Ular asarni nafaqat badiiy jihatdan balki, poetik jihatdan ham go‘zallashtirgan.

Ijodkor tomonidan asarda mifologik voqealardan tashqari mifologik obrazlardan ham unumli foydalaniladi. Bundan ijodkorning hind urf-odatları va dinidan xabardor ekanligini sezish mumkin. Asarda keltirilgan diniy-mifologik obrazlar qatoriga Krishna, Indra, Shiva, Durga kabi obrazlarni kiritish mumkin. Asarda bosh qahramon sifatida Narzul Islom, bundan tashqari Hakim (tabib), Mirzo Bobur, Shohi Jahon, Avrangzeb, Zohid, Orif kabi obrazlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu obrazlar Narzul Islom voqeasi bilan parallel ravishda qo‘yilgan afsonalar qahramonlari bo‘lib, ma’lum tarixiylikka asoslangan. Asarning oxirrog‘ida keltirilgan “Zohidlar va Oriflar haqida rivoyat” Zohid va Orif obrazlarining mohiyatini ochishga qaratilgan. Ularning maqsadlari va bosib o‘tadiga yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Asar voqealari garchi Hindistonda kechyotgan bo‘lsada, ko‘tarilgan muammom bizga ham tegishli edi. Unda qator obrazlar, parallel voqealar orqali ozodlik, shoirlikning yuki kabilarga urg‘u beriladi.

Mifologizmlar asar mazmuniga singib, uning badiiyligi va tushunarligini oshiradi. Nazar Eshonqulning asarlarida buni yaqqolroq ko‘rishimiz mumkin. Uning hikoyalari, qissalari va romanida mifning ta’sirini ko‘rish mumkin. Ijodkor tomonidan asarga kiritilgan miflar ochqich kalit vazifasini bajaradi. Xususan, “Sibizg‘a volasi”⁹⁴ nomli hikoyasini to‘la mif asosiga qurilgan. Unda Iskandarning shoxi borligini aytolmaq qiynalgan sartarosh haqida, qancha yashirilmasin oxir-oqibat oshkor bo‘lgan haqiqat haqida so‘zlanadi. Qolaversa uning “Qora kitob” nomli qissasida mifologizmlarni yaqqol ko‘ramiz. Bu asarda kichik parchalar orqali asar mazmuni yoritiladi. Uning asaridagi bu kichik parchalar asar mohiyatini o‘zida jamlaydi. Yozuvchi tush motiviga alohida e’tibor qaratadi. Uning yordamida o‘zining fikrlarini, tasvirlarini berib o‘tadi. Ijodkorning ijodida ham xuddi “Ruhlar isyoni” dostonidagi isyonkorlikni uchratish mumkin. Uning ham qahramonlari o‘zlarining taqdirilariga nisbatan isyon qiladilar. Lekin yozuvchi isyon bilan birga,

⁹⁴ Eshonqul N. Sibizg‘a volasi (mif-hikoya) // Yoshlik jurnali. 2012. 5-son.

umidsizlikni ham berib o‘tadi. Asarlarida keltirilgan mifologizmlar yozuvchining uslubida o‘ziga xoslikni vujudga keltirgan. Bu uslubni g‘arb adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. Ijodkorning ko‘plab hikoyalarida bundayin uslubni aniqroq ko‘rish kumkin. Qolaversa ijodkor asarining ichida o‘zi ham mifik hikoyalar yaratadi. Ijodkorning “Tun panjaralari” qissasida keltirilgan miqlar Shayton mifologik obrazi bilan bog‘lanadi. “Sibizg‘a volasi” mif-hikoya qahramoni Iskandar esa Axuramazda (Quyosh)ning o‘g‘li va Axriman bilan jang qilgan deya ta’riflanadi: “...bu Quyosh o‘g‘liga ikkinchi marta sataroshlik qilishga kimning aql-idoki dosh berolmagan.”⁹⁵ Bu ta’rifda Iskandarning Quyosh o‘g‘liligi aytilgan bo‘lsa, voqelar davomida uning tashqi ko‘rinishidagi izlar nima sababdan paydo bo‘lganligi aytiladi. “... Axuramazdaga xos salobati, yuzidan, boshidan taralayotgan nur har qanday odamni gungu garang, zabonsiz qilib qo‘yadi...Iskandar Axrimanning ko‘p yovuz kuchlari bilan olishib, yuzida o‘sha ulug‘vor janglarning izlari qolgan...”⁹⁶ bu parchalardan Iskandan to‘g‘risidagi bir tasvir gavdalansa, sataroshning uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandagi tasvini buni aksini ko‘rsatadi. Bu hikoyada Iskandar haqidagi miqlar asos qilib olingan.

Yozuvchi tomonidan asarlarga Odam alayhissalom, Shayton, Axuramazda, Axriman kabi diniy-mifologik obrazlar olib kirilgan. Bu obrazlar asar tabiatiga mos ravishda tanlangan bo‘lib, asar bilan yaxlit butunlikni kasb etgan. Adib yana qator mifologik obrazlarni asarlariga olib kirgan. Go‘ro‘g‘li, Iskandar kabi obrazlar bunga misol bo‘la oladi. Yozuvchi o‘zining asarlarida asosan diniy-mifologik yoki mifologik obrazlarga murojaat qiladi.

Bu ikki ijodkor mifologizmlarni mahorat bilan asar tarkibiga kiritadi. Ularning ijodida miqlardan fordalanish asarning badiiyligini oshiribgina qolmasdan, ko‘tarilgan mavzuni ochib ham beradi. Shoir Erkin Vohidov ijodida folklorizmga ko‘p duch kelsakda, ayrim asarlarida mifning ta’siri, asar mazmuniga singdirilganligini va shu asarga olib kirilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi Nazar Eshonqul esa aksari asarlarida mifdan foydalanadi. Uning uslubida ramziylik, shartlilik kabi modern uslubi yaqqol sezilib turadi. Bu ijodkorlar asarlarida diniy-mifologik obrazlardan foydalanishi bilan

⁹⁵ Eshonqul N. Sibizg‘a volasi (mif-hikoya) // Yoshlik jurnali.2012. 5-son

⁹⁶ Eshonqul N. Sibizg‘a volasi (mif-hikoya) // Yoshlik jurnali. 2012. 5-son

o'xshashdir. Nazar Eshonqulning diniy-mifologik obrazlari aksari islom dini ("Sibizg'a volasi"da zardushtiylik) bilan bog'lansa, Erkin Vohidov qahramonlari turli dinlar ("Ruhlar isyoni" dostonida hindlarning mifologiyalari, Misr va qadimiy turk mifologiyalari) ga aloqador. Ijodkorlar o'zlari ham miflarni yaratgan. Asarlarining g'oyasiga qarab neomifologizmlarni ham mohirlik bilan qo'llaganlar. Erkin Vohidov va Nazar Eshonqul asarlarining mazmuni ochishda ochqich kalit vazifasini bajargan mifologizmlar ijodkorlar tomonidan ustamonlik bilan foydalanilgan. Asarlardagi har bir mifologik detallar ham alohida ahamiyat kasb etgan. Bu ikki ijodkorning yana bir o'xshash tomoni Shundaki, ular asar mazmunidan kelib chiqqan holda o'zlari ham afsona yaratadi. Natijada yangi bir mif, neomif, neomifologizm vujudga keladi. Bularni yaratishda esa ijodkorlar mifologemalarga⁹⁷ murojaat qiladi.

Adabiyotshunoslikda o'zining o'rniga ega bo'lgan mifologizmlar, asaning badiiyatini oshiradi, mazmunini kitobxonga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, o'zida qo'shimch ma'nolar yuklab asar ixchamligiga sabab bo'ladi va asarni ochuvchi kalit hisoblanadi. Bugundi zamonaviy adabiyotshunoslikda ham mifologizmlarga alohida ahamiyat qaratiladi. Zamonaviy nasr va nazmda ham mifologizmlardan keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy nasrda buni yaqqol ko'rish mumkin. Mif adabiyotning asosi bo'lganligi sabab, uning ta'sirini sezmaslikning iloji yo'q. Shuning uchun ham adabiyotshunoslikda mifologizmlarni o'rganishga alohida ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqul N. Yalpiz hidi (Qissalar va hikoyalar). – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008.

2. Eshonqul N. Sibizg'a volasi (mif-hikoya) // Yoshlik jurnali. 2012. 5-son.

3. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018.

4. www.ziyonet.uz

5. [www. Arxiv.uz](http://www.Arxiv.uz)

6. [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com)

⁹⁷ Mifologema – mifning bir bo'lagi, qismi

ERKIN VOHIDOV – TARJIMON

*Suhrob PO‘LATOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov shaxsining fenomenalligi va bu fenomenallikni ijodkorning tarjimonlik mahoratida aks etishi haqida ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Tarjima, tafakkur, rus, rus tili, she‘rlar turkumi, o‘zbek tili, fenomen, turkona talaffuz, ma‘naviy ta‘sir.

Tarjima so‘z san‘ati rivojini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Irqi va dini, o‘y-qarashlari farqli bo‘lgan el-elatlar orasidagi makon va zamon chegaralarini, so‘zsiz, tarjima orqali yengib o‘tish mumkin. Binobbarin, tarjima uchun umumbashariy g‘oya-fikrlarni o‘zida mujassam etgan asarlar tanlanishi tarjimon muvafaqqiyatini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ana shu ma‘noda, bu fikrlar O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiy intilishlariga ham dahldor bo‘lib, adibning eng yirik va sara tarjimalarini qator voqeaband she‘rlar, ta‘bir joiz bo‘lsa, tarjima jarayonida orttirilgan tafakkur majmui sifatida baholash, ayni haqiqat degan o‘ydaman.

Umuman olganda, biz Erkin Vohidovni tarjimon sifatida bilamizmi?

Erkin Vohidovni nafaqat shoir, balki yetuk tarjimon sifatida ham o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘sha olgan noyob iqtidor egasi deb baralla ayta olamiz. Shoirning tarjimai-holi bilan tanishib chiqar ekansiz, uning talabalik vaqtlaridanoq tarjimonlik faoliyatini boshlaganligini bilib olishingiz mumkin. Bu esa shoirning o‘z xalqiga jahon she‘riyati havosini olib kirish va bevosita yosh shoirlarning badiiy-estetik tafakkurini jahon nazm sarchashmalari orqali oziqlantirishdek yuksak vazifalarni bajarishi yo‘lidagi uzoq va mashaqqatli mehnatga naqadar jiddiy qaraganligidan dalolat desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Erkin vohidov ijodiy izlanishlarining muhim qanoti uning o‘zbek tarjimachilik san‘atini rivojlantirish yo‘lidagi

ko‘p qirrali faoliyatiga bevosita dahldordir. Bugungi o‘zbek tarjima san‘atining rivoji haqida gap ketganda, bu sohada g‘ayrat ko‘rsatgan fidoiylar safining avvalida Erkin Vohidov nomining e‘tirof etilishi g‘oyat tabiiydir. Zotan, shoir iqtidori, ko‘p yillik zahmatli izlanishlari mahsuli sifatida dunyoga kelgan, jahonning turli tillarida yaratilgan asarlar tarjimasi nafaqat shoir ijodiy yo‘liga ko‘rk bo‘lib qo‘shilgan, balki o‘zbek kitobxonlari ma‘naviy xazinasining qator nodir va muqaddas durdonalar hisobiga to‘lishiga zamin yaratdi.

Erkin Vohidovning o‘ris (menimcha rossiyaliklar millati va tiliga nisbatan “rus”, “ruslar”, “rus tili” deb ishlatishimiz turkona talaffuzga to‘g‘ri kelmas) shoiri S.Yeseninning 1921-yilda Eronga qilgan safari mobaynida olgan boy taassurotlari bilan to‘yingan “Eron taronalari” she‘rlar turkumini yuksak mahorat bilan tarjima qilganligi, unga o‘zbekona ruh va shira bag‘ishlaganini e‘tirof etib o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylayman. Gap isboti bilan deganlaridek, “Eron taronalari” turkumiga kuruvchi birgina mana shu:

Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan,
Mast vasvasa qo‘zg‘amas tug‘yon.
Men dardimga Tehron gulidan,
Choyxonada topoldim darmon...

parcha orqali ustoz Erkin Vohidovga "S.Yeseninni o‘zbekcha gapirtira olgan shoir" degan ta‘rifni berishimiz to‘laqonli o‘zini oqlaydi.

Erkin Vodidovning Sergey Yesenin ijod bulog‘idan naqadar simirganligini, ustoz shoirning Yesenindan “Eron taronalari”, “Tanlangan she‘rlar”, “Zamin darg‘asi”, “Lirika: she‘rlar, dostonlar” kabi bir qancha she‘riy to‘plamlarni o‘zbek tiliga movhirona o‘giranligi yaqqol dalil bo‘la oladi. Shoirning ijodiy tafakkurining shakllanishiga jahon she‘riyati benazir san‘atkori bo‘lmish Sergey Yesenindek shoirning ma‘naviy ta‘sirini ustozning quyidagi estaligi orqali bilib olishimiz mumkin:

“Yoshlikda orttirilgan do‘st umrning ko‘rki, qalbning suyanchig‘i bo‘ladi. Kishi shodligini ham, dardini ham avvalo u bilan baham ko‘rgisi keladi, har gal uchrashganda bamisoli yoshlikning beg‘ubor olamiga qaytgandek bo‘ladi. Tasavvurimda Sergey Yesenin she‘riyati mening shunday – yoshlik do‘stim. U bilan men talabalik yillari tanishib qarddon bo‘lib qolganman. Esimda, ikkinchi kurs

studenti edim. Paxta terimiga xasharga chiqqan kunlarimiz ishdan so‘ng yotoqda, xira chiroq nurida yarim kechagacha yeseninxonlik qilar edik. O‘shanda «Eron taronalari»ning bir qancha she‘rlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Mana, o‘sha kunlarga ham o‘ttiz yilga yaqin vaqt bo‘ldi. Bu fursat ichida men Yesenin ijodiga ko‘p marta qaytdim. Uning kitoblari o‘zbek tilida uch bor ommaviy nushada chop etildi. Ba‘zi she‘rlar o‘zbekcha qo‘shiqqa aylandi.

Sergey Yeseninga har gal murojaat etganimda o‘sha talabalik yillari, qadrdon paxtazor yodinga tushadi. Shoir so‘zlarini chanoqlardan tortib olayotgandek bo‘laman. Dimog‘imga paxta hidiga omuxta rus o‘rmonlarining tanish hidi urilgandek bo‘ladi. Odatda shoir tavallud sanasini nishonlaganda «u tirik bo‘lganda falon yoshga kirar edi» degan so‘zlarni aytishadi. Men negadir Sergey Yeseninni to‘qson yoshli chol sifatida ko‘z oldimga keltirolmayman. U dunyoga chaqmoqdek kelib ketdi. Lahzadek umrida bor nurini sochib, butun borligini namoyon qildi. Yesenin barcha muxlislari tasavvurida o‘ttiz yoshli o‘t yurak yigit, tuyg‘ulari tizgin bilmagan yosh shoir bo‘lib qoladi”.

Sergey Yesenin she‘rlari ruhi Erkin Vohidov uslubi bilan juda hamohang. Misralar misralarga Shunday quyma holda to‘g‘ri keladiki, kezi kelganda bu she‘r tarjimami yoki Erkin Vohidovning o‘zinikimi – ajratish mushkul bo‘lib qoladi. Gap ana Shunday ta‘rif-u tavsiflar haqida ketar ekan, xo‘sh, bugun biz Erkin Vohidovning tarjima ishlaridan qanchalik xabardormiz?! Bu savolga, albatta, javob topish barobarida, ulug‘ shoirning tarjimonlik salohiyatini qay darajada yuksakligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Fikrlarimizga xulosa yasar ekanmiz, shuni ta‘kidlash kerakki, Erkin Vohidovdek ulkan iste‘dod sohibi o‘zbek adabiyotining tarjimachilik sohasini yangi pog‘onaga ko‘tardi, o‘zi tarjima qilgan asarlarni romantik ohangdorlik, musiqiylik va joziba bilan boyitdi va Shu bilan o‘zbek poeziyasini yanada rango-rang va jozibali qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inog‘omov R. Shoirlik qismati, – T.: Universitet, 1999.
2. Vohidov E. Saylanma. She‘r dunyosi. – T.: Sharq, 2001.

III. ERKIN VOHIDOV – DOSTONNAVIS

ERKIN VOHIDOV VA UNING SHOH ASARI

*Ulug‘bek HAMDAM,
filologiya fanlari doktori*

1

Har bir san‘atkor, – xoh u qo‘shiqchi, rassom bo‘lsin, xoh shoiru yozuvchi, – ijodining eng baland cho‘qqilari bo‘ladi. Bu cho‘qqilar yo o‘z vaqtida (muallifning tirikligida) yoxud ma‘lum zamonlar o‘tgach (muallifdan keyin) ko‘zga tashlanadi. O‘zbekning ulkan shoirlaridan biri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni shoir ijodidagi ana shunday cho‘qqilardan biri. Ne baxtkim, shoirimiz ham, doston ham (yozilganiga 28 yil bo‘ldi!) tirik! Nazarimda u nafaqat Erkin Vohidov she‘riyatining gultoji, balki XX asr o‘zbek dostonchiligining eng vazmin toshi, eng chiroyli porlagan yulduzi, faxri va sharafidir!..

So‘zimizning indallosida zamona kayfiyati, odamlarning ruhiyati va ularning tinimsiz o‘zgarib-turlanib borishi masalasiga to‘xtalsak. YAshirib nima qildim, sakkizinchi va o‘ninchi sinf orasida o‘qib yurgan chog‘larim Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she‘riyatining chinakam shaydosi edim. (Ochig‘i, bunday ashaddiylik hozir Ovrupa futbol muxlislari orasida bor, deb o‘ylayman). Matbuotning qay bir nuqtasida she‘riyat to‘g‘risida suhbat ketsa, maqola chop etilsa, ko‘zlarim, avvalo, shu ikki nomni izlab qolardi. Bor bo‘lsa, ko‘nglim joyiga tushib, maqolani qoniqish bilan o‘qib chiqardim, yo‘q bo‘lsa-chi?.. Bilasizmi, qanaqa hissiyot yuragimni qamrab olardi? Go‘yo mavjud haqiqatga xiyonat qilingandek, go‘yo o‘sha maqola yoki nutq muallifi ataylab bu ikki shoirni chetlab o‘tib ketgandek sezardim o‘zimni. Holbuki, derdim o‘zimcha, eng katta haqiqatni shular yozyapti, eng dilbar, ohanrabo she‘rlar shularniki, demak, ularga albatta to‘xtalish shart edi. Lekin nega to‘xtalishmaydi? Nega adabiyotdagi asosiy gap qolib, boshqa mayda-chuydalar to‘g‘risida soatlab gap sotib, kilometrlab maqola yozishadi?.. Bu xil iztirobli e‘tirozlar murg‘ak ongimni, qalbimni zaxalagan, ozorlagan edi – esimda. YAna shu narsalar esimdaki, o‘sha kezlar ulg‘aysam, albatta,

bu xil yolg'onlarga chek qo'yaman, o'zim ular haqida, ularning olovli va rostgo'y, dilbar va donishmand she'rlari to'g'risida tinimsiz-tinimsiz yozaman, o'z dardimga qo'shib ularnikini ham targ'ibu tashviq qilaman, deb ko'nglimga tugardim. Ammo o'quvchim, e'tibor bering, falakning gardishini qarangki, o'sha chog'lar 15 yoshda bo'lsam, bugun 38 daman, taxminan, Pushkin va Cho'lponlar ketgan yoshdaman, biroq men ham Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripov she'riyatiga bag'ishlangan bitta ham alohida maqola yozmabman! 1997 yilda "30 yillar o'zbek she'riyatida "sof lirika muammosi" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganimda o'rta maktabda adabiyotdan dars bergan Yoqubjon Ismoilov degan muallimimiz hayron bo'lib so'ragandi: "ilmiy ishni nega Vohidov va Oripov she'rlaridan yozmadingiz? Axir, maktab programmasiga kiritilmagan esa-da "Vohidov" 'va "Oripov"ni siz va sizga o'xshagan yana bir-ikki o'quvchi uchun o'tar edim, esingizdami? Sizni dissertatsiya yoqlayapti, deb eshitganimdayoq "tadqiqot, hoynahoy, shu ikki shoir ijodidan!" deya o'ylagandim..." Shunda men ayni savolni ikki zabardast shoirlarimizning o'zlariga bergim, ehtimol, sizlar yordam berarsizlar, degim kelgandi... Axir, men yuragimda necha o'n yillar mobaynida "Sen bahorni sog'inmadingmi?", "Qani, nay ber menga, do'stginam...", "Birinchi muhabbatim", "Bahor kunlarida kuzning havosi", "Jannatga yo'l" kabi Oripovning, "Inson qasidasi", "Ishq istilosi", "Debocha", "Majnuntol", "Ruhlar isyoni" kabi Vohidovning she'r, g'azal va dostonlarini olib yurganim holda tadqiqot fursati etganda nega butunlay o'zga tabiatli she'r ustida ilmiy izlanish olib bordim? Yoxud men-da ko'nglimdagi va hayotdagi haqiqatga xiyonat qildimmi?.. Bu xil savollarga bugun mening javobim bor, (lekin kecha ular meni qiynagandi). Javob shundan iboratki, ijodda zamon bilan hamnafaslik degan tushuncha bor ekan va u faqat balandparvozlik bilan, yasamalik bilan aloqador bo'lmay, ayni chog'da real, samimiy mazmunga ham ega: shoir o'z davrining tepib turgan yuragi bo'lishi shart ekan. Oltmishinchi va etmishinchi yillarda yuqoridagi ikki shoir chindan ham "yurak" edilar. Ular o'sha uzoq o'n yilliklar kayfiyatini eng yorqin va eng to'la ifoda qila olgan ijodkorlar edi. Endi ikkinchi tomon – o'quvchi aynan shunday kuchga ehtiyojmand edi. Etmishinchi yillar oxiri va saksoninchi yillarning avvalida men ham bir o'quvchi sifatida davrimizning urib turgan "qaynoq yurak"lariga quloq berishim va ular orqali o'zimni, muhitni tushunishga urinishim

tabiiy edi. Keyin esa (saksoninchi yillarda) mamlakat hayotida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi va jamiyat, uning bir bo‘lagi inson juda keskin evrilishlarga muhtalo bo‘ldi. Sotsializm parchalanib, kapitalizm elementlari kirib kela boshladi. Natijada inson va u yashayotgan muhitning kayfiyati tubdan o‘zgardi. Demak, u kechagi kitobni yopib, bugungi kayfiyatni ifoda qilgan san‘at va adabiyotga ehtiyoj sezdi. Ayni chog‘da o‘zga bir haqiqatni ham tushunib etdim: ma‘lum bir tuzum va uning ustivor yo‘nalishini kuylagan adabiyot vaqti kelib shu tuzum davradan ketgandan so‘ng o‘z hukmron qiymatini yo‘qotar ekan. Shuning uchun ham 90-yilda o‘quvchi-tadqiqotchi adabiyotimizning mangu haqiqatlar tarannum etilgan sahifalariga e‘tibor qilishga urindi. Nazarimda "sof lirika" muammosi" degan mavzuda tadqiqot olib borganligimning sababi – ana shu!

Ko‘ngil she‘riyati ijtimoiy buyurtmalar bilan "dunyoga kelgan" g‘oyaparast poeziyadan bir qadar charchagan mening avlodimning o‘sha kezlaridagi kayfiyatiga bir qadar mos tushgandi 90-yillar o‘rtalarida. Lekin Erkin Vohid va Abdulla Orifning menga yod bo‘lib ketgan she‘rlari va dostonlari ham ko‘ngildan chiqqan, ko‘ngilning mahsuli edi, lekin negadir ularni tanlamadim... Ehtimol, ma‘lum muddat vaqtning, zamonlarning hukmiga havola etib sinagandirman: qani-chi, bir oz fursat o‘tgandan keyin ham tushlarimga kirib chiqadigan bu she‘rlar, bu dostonlar yana to‘lqinlantirarmikan, ongim va qalbimni larzaga solarmikan, degandirman. Madomiki, shunday bo‘lgan ekan, qachonki bu ikki zabardast shoir ash‘oridan so‘zlamochi bo‘lsam, negadir hamisha o‘ttiz-qirq yil orqaga ketaman va u erda mavjud she‘rlar haligacha yuragimni kuydiradi, hislarimni jumbishga keltiradi. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni shular qatorida va uning jovidonligiga ilk garov shudir, dostonning har ikki zamon sinovlariga bardosh bera bilganidir.

2

Doston XX asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan otashqalb hind shoiri Nazrul Islomning hayotiga bag‘ishlanadi. Unda Hindistonni ingliz mustamlakalaridan ozod ko‘rishni istagan va shu muqaddas kurashga nafaqat ijodini, balki o‘z erki va hayotini ham baxshida etgan otashqalb shoirning tutqunlikdagi achchiq qismati, qismatidan-da achchiqroq o‘y-xayollari birin-sirin hikoya qilinar ekan, Erkin Vohidov vaqti-vaqti bilan o‘quvchi nigohini insoniyat tarixida

yulduzdek porlagan turli-tuman ajoyib rivoyatlarga qaratadi. Xo'sh, nega? Nega shoir o'z badiiy muddaosini Nazrul Islomning hayoti va ijodi orqaligina bayon etib qo'ya qolmadi? Nega u o'quvchini o'zi yanglig' qiynagisi, uni o'tdan olib o'tlarga solgisi, zulm, istibdod, jaholat kabi sirtmoqlarda osgisi keldi?.. Chunki muddao Nazrul Islom emas, bu – bir bahona. Asl muddao – bashariyat tabiatining ikki tarafiga e'tiborni qaratish: oq va qora, yorug'lik va zulmat, ma'rifat va jaholat, istibdod va ozodlik...

Nazrul Islom va uning alamli qismati bir durbinkim, shoir mazkur usturlubning bir uchini o'quvchi ko'ziga tutib, ikkinchi og'zini insoniyatning xatolarga liq to'la kechmishi va buguniga qaratadi. Natijada o'quvchi Nazrul Islom kechmishi orqali o'zi va odamzodning botiniga nazar tashlash imkoniga ega bo'ladi, inson tabiatidagi o'zak masalalarga bir nuqtadan qarash va uni kuzatish maydonini qo'lga kiritadi. Bu maydonning ismi Nazrul Islom hayoti aks ettirilgan "Ruhlar isyoni" dostonidir! Yoshi va davridan qat'i nazar, o'quvchiki bor, endi shu maydonga tushsa, albatta istibdod va ozodlikdan, jaholat va ma'rifatdan, olomon va xalqdan... saboq oladi. "Ruhlar isyoni"ning davrlar chig'irig'iga dosh berib kelayotganining sababi – shu. Bu esa dostonni sharaflagan unsurlardan tag'in biridir.

3

Butun er kurrasini ulkan zulmat qoplab kelayotgani haqida bugun ommaviy axborot vositalari dunyo bo'ylab tinmay jar solayapti. Zamondoshizning – ona sayyoramizning qaysi nuqtasida istiqomat qilishidan qati nazar, bundan xabari bor. Nimasini aytay, bu haqda jahonning eng qudratli mamlakatlarining davlat rahbarlaridan tortib, eng puldor boylariyu eng ta'sirli korchalonlarigacha besh qo'ldek biladi... Biroq achinarlisi va ajablanarlisi shundaki, necha zamonlardir odamzod o'zi bilib, o'zi ko'rib, shundoq burnining ostida nafasini tuyib kelgan yov – zulmatga qarshi o'zaro birlasha olmay kelayotir. Go'yo hamma bir-biriga oldinda tubsiz bir choh borligini gapiragapira, lekin o'z yo'lini o'zgartirmay, hatto shu yo'lni o'zgartirish to'g'risida ham laqillay-laqillay, ayni chog'da to'ppa-to'g'ri o'sha qa'rga tomon odimlayotgandek. Vo ajab!.. O'ylaganing sari insonning aqlli mavjudot ekanligiga shubhalana boshlaysan. Alam qiladi, axir o'zini, avlodlarini, odamzodni, jamiki tiriklikni halokatdan qutqara olmagan aql aqlmi? Biz sizlarga aql berdik, fikr qilmaysizlarmi? deya

amr etilmaydimi muqaddas bitiklarda. Garchi Folkner kabi dunyoning eng jiddiy yozuvchilaridan biri alal oqibatda isonga, uning har qanday yovuzliklar, yovuz kuchlar ustidan g'alabasiga ishonib o'tgan bo'lsa-da hali inson o'z qalbidan mustahkam o'rin olgan, uning tomirlaridagi qonida shovullab oqayotgan jaholatu nafs balosidan ko'p-da uzoq ketolgani yo'q-da!.. Darvoqe, shunday ishonchning o'zi uchun ulug' yozuvchiga oltindan haykal qo'ysa arziydi. Chunki insonning er sharini koptokdek dumalatib jar yoqasiga tepib ketayotganini ko'rabila turib yana shu odamga, uning ezgu niyatiga ishonch bildirish hazil gap emas!..

Har gal "Ruhlar isyoni" dostonini mutolaa qilar ekanman, yuqoridagi kabi mulohazalar fikru yodimni chulg'ab oladi. Chunki undagi g'oya, pafos ayni masalalarning bag'ridan sizib chiqadi. Shu bilan birga fikrlovchi insonning yuqoridagi mavzu bo'yicha asosiy savollariga o'ziga xos javob bo'lib yangraydi ham!

Albatta, doston juda ko'p masalalar bor. Erkin Vohidov abadiyat, shoir qalbi, isyon, fidoyilik, tutqinlik, istibdod, ozodlik, shoh ota va shoh o'g'il, zohidlik va oriflik, oliy ruhlar va hokazo mavzularni alohida fasllarda tekshirib chiqadi, ularning falsafiy, insoniy mohiyatini tushunishga intiladi. Garchi har-xil tarixiy zamonlar, turli-xil ijtimoiy siyosiy davrlar, bir-biridan uzoq voqealar, odamlar qismati doston sahnasida qorishib ketgan esa-da, bularning barchasi shoir mushohada prizmasi ostida bir nuqtada birlashadilar. Birlashib, istibdodga ko'nmagan, ozodlikdan tonmagan, isyonkor qalb hayot yo'li ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Natijada bu isyonkor qalb abadiy hayot suvini tuproqqa to'kadi, evaziga o'z davrida o'z zamondoshining qon sirqib turgan dardlari bilan yashash yo'lini tanlaydi. Yo'l tabiiy ravishda uni mamlakatni, odamlarni o'z qa'riga tortgan istibdodga qarshi kurashga chorlaydi. U kurashadi. Chunki tug'ilgandayoq fidoyilik haqidagi rivoyat uning tomirlarida qon o'rnida oqardi. Ozodlik uchun kurash esa hamisha tutqinlikni boshlab keladi. Lekin chinakam isyonkor qalb o'z tavridan voz kechmaydi, xayolini har-xil o'ylar ilma teshik qilib yuborsa-da, "SHohi jahon va Avrangzeb", "Oliy ruhlar" kabi rivoyatlardan madad olib, jismining nolalariga quloq bermay, ruhini ziyon-zahmatsiz ravishda ko'klarga olib ketadi...

Lekin doston haqidagi shuncha gapdan keyin ham masala mohiyati ochilmay qolayotgandek. Chunki biz undagi bitta faslga

teginmadik hali. Bir mushohada qilib ko'raylikchi, insonni mana shunday yashab o'tishga, dostonida aytilganidek, go'zallar haqida emas, tinimsiz-tinimsiz ozodlik to'g'risida she'r yozishga, ozodlik uchun jonini jabborga berishga va natijada qamoqlarga tushib, ayovsiz zulm, shafqatsiz qiynoqlar iskanjasida jon taslim qilishga majbur qilayotgan kim yoki nima o'zi?!.. Odamlar nega bu bebaqo dunyoga urush-janjallar da'vosisiz jimgina kelib, bir-birlarini jimgina sevib, ardoqlab ketavermaydilar? Axir, inson qo'liga nimaiki olmasin, paymonasi to'lgach, hammasini qaytib berishga mahkum-ku va buni har kim biladi-ku!.. YAna nega?!.. Bu mazmundagi yuzlab, minglab so'roqlarimizning bitta javobi bor: JAHOLAT!! Shoir Erkin Vohidov ijod asnosida asarga yana boshqa badiiy maqsadlar yuklamoqchi bo'lgan esa bordir, lekin "Ruhlar isyoni" dostonini tutib turgan o'q, uning markaziy nuqtasi menimcha bitta – "Jaholat to'g'risidagi rivoyat". Chunki qaysi zamondaki odamzodning kelajagi, er yuzidagi tiriklikning ertangi taqdiri haqidagi muammolar ko'tarilar ekan, hamma yo'llar insonni to'ppa-to'g'ri jaholatning bo'sag'asiga eltavergan... Ha, odamiyzod irqiyu dinidan, mavqeyu kasb-koridan qat'i nazar, bir-birini xuddi tug'ishgan aka-singildek sevmochi bo'lsa, avvalo jaholatni o'ldirsin, ertaga, indinga, undan keyin... ming yildan keyin ham avlodim quyoshni ko'rsin desa, avvalo jaholatni o'ldirsin!.. Ha, aklingizga nimaiki kelmasin, hammasining sharti – shu! "Jaholat to'g'risidagi rivoyat" dostonida boshqa rivoyatlar qatoridagina keladigan navbatdagi bekat emas, aslo! Bu rivoyat o'sha Nazrul Islom va uning kabi dunyo bo'ylab minglab, millionlab istibdodga qarshi chiqqan, chiqayotgan o'lmas va o'chmas isyonkor qalblarni tiriklayin qamoqda chirishiga, olovda yonishiga, vijdon azobida qovurilishiga sabab bo'ladigan nodon va johil olomonga, jaholatga otilgan o'ziga xos la'natlovdir! Axir, issiq tanangizga bir o'ylab ko'ring, xastani har xil darddan, hatto ko'rlikdan davolab, sog'lar qatoriga qo'shgan donishmand hakimni o'tda tiriklayin kuydirishlariga yana shu bemorning ovoz berishi, olovga somon eltishi bu – uchiga chiqqan jaholatning mahsuli emasmi!? SHunday qilayotgan yoki shunday qilayotganlarga jim qarab turganlar, bular – olomon emasmi? Bas, shunday ekan, johillik va olomon qaysidir ma'noda bir-biriga sinonim, ma'nodoshdir hamda inson qanday rivojlangan mamlakatda va qaysi xalqning ichida yashamasin, magar u johil esa, baland saviyali xalqning orasida turib ham olomonga

taalluqlidir. Yoki aksincha, olomonning ichida turib ham kishi ma'naviy darajasining yuksakligiga, jasoratiga va hokazo ko'plab fazilatlarini amallarining sajiyasiga qarab turib xalqqa tegishli bo'lishi mumkin. Ha, jaholat va ma'rifat odamlarni ikki qutbga ayirib tashlaydi, natijada bir yonda to'lda, olomon, ikkinchi tomonda esa xalq, millat paydo bo'ladi. Dostondagi "Jaholat to'g'risidagi rivoyat"da har ikkisi ham bor. Bir tarafda johil, nodon olomon, ikkinchi yoqda esa donishmand hakim va olovda yoqib bo'lgandan keyin aql va ma'rifat ko'zlari ochilgan odamlar!

*O't qo'ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo'ldi samovot.
Jaholatning hukmi bilan
Qurbon bo'ldi buyuk zot.
Gulxan yondi ko'kka o'rlab,
Cho'g'i har yon sochildi.
Shu olovdan elning, ajab,
Aql ko'zi ochildi.
O'kindilar,
Aza tutib
Yig'ladilar, kuydilar.
Donishmandga yillar o'tib
Oltin haykal ko'ydilar...*

Qani edi dostonida aytilganidek, o'zining bitta xatosidan ta'sirlanib yoppasiga butun elning ko'zi ochilib ketsa! Unda er yuzida umuman olomon qolmagan, hamma millat degan sharafli dengiz bag'rida o'z elkanlarini hilpiratib mag'rur suzib yurgan bo'lardi. Yo'q-da, hech qachon bunday bo'lmagan va dunyoda fuqarosi millat bo'lib shakllanmagan biron bir mamlakat qolar ekan, bo'lmaydi ham! Odatda, barmoq bilan sanarli odamlarninggina aql ko'zlari ochiladi va ba'zan o'zlari qilmagan gunohlar uchun javob berishga intiladilar. Olovda tiriklayin yoqib yuborilgan donishmand hakimga oltin haykal qo'yganlar ham aslida olomon emas, balki halqqa aylangan yoki aylanayotgan ozchilikdir! (Aslida, millat, xalq ana shularning ma'rifatidan o'sib chiqib, shakllanadi). Bu ozchilik, ko'pincha o'zi mansub bo'lgan halqning o'tmishda yo bugun qilgan, qilayotgan

johilliklari uchun iztirobga tushadi, insoniyat vijdoni qarshisida izza bo‘ladi va xatolarni tuzatishga kirishadi. Hamisha shunday bo‘lgan va jaholat bor ekan, olomon mavjud ekan, shunday bo‘lib qoladi...

4

"Ruhlar isyoni" dostonining badiiy haqiqati ana shunday achchiq hayot haqiqatini inkor etmaydi. Aksincha, shoir undan borini boricha aks ettirishga, to‘g‘rima-to‘g‘ri bo‘lmasa, aylanma yo‘llar bilan dardini aytishga urinadi hamda bunga, asosan, erishadi ham. Dostonda "Isyon qo‘shig‘i" bor. Unda shoir Erkin Vohidov Nazrul Islom tilidan zulm va istibdodga qarshi otashin qo‘shiq bitadi:

*"So‘yla, inson,
So‘yla, qadding ko‘tarib baland
Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand...
Uyg‘onmoqning vaqti keldi,
Bosh ko‘tar, uyg‘on!
Bosh ko‘targil,
Ming yil to‘kkan
Ko‘z nuring haqqi.
Qo‘zg‘al,
Asriy qullik bukkani
G‘ururing haqqi.
Qo‘zg‘al,
Buyuk Tojmahalning
SHukuhi uchun.
Qo‘zg‘al,
Ulug‘ bobolarning
Pok ruhi uchun.
Erk bongin ur,
Sen intiqom –
Tablin baland chol.
Tug‘ilgansan ozod,
mudom
Ozod bo‘lib qol".*

Asrlar mobaynida bunday ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she'rga duch kelmagan sharq insoni hayratlanib yoqa ushlaydi. Kimi "bu she'r emas, agar she'r bo'lsa, qani unda gullar raqsiyu bulbullar navosi?" desa, boshqasi "Bu she'r Sharqqa xosdir, nahot! Na ishqiy, na rindona. Bunday ash'or Sa'diyga yot, Hofiz uchun begona" deya yozg'iradi. Nihoyat, ulardan hindulari Nazrul Islomni "jobon", musulmonlari esa "kofir" deb e'lon qilishadi. Qarang, olomon ham Nazrul Islomning to'g'ri gapni aytayotganini bilishadi, lekin... "Ul kun Budda: Mard agar sen Dardni ichga yut, degan. Ul yuzingga ursalar sen, Bul yuzingni tut, degan", "U dunyoda baxting ta'min, Bu dunyoda cheksang g'am", Shunday deya bergan ta'lim Ul... Ustodi mukarram" deyishadi va shoirni isyon qilgani uchun, zulm va istibdodga, haqsizlikka qarshi chiqqani uchun, qadim SHarq an'analariga rioya etmagani uchun malomat qilishadi. E'tibor bering, aziz o'quvchim, aynan shu faslda olomonga xos bo'lgan bir qirra ochilib qolmoqda, u ham bo'lsa, haqiqatni ko'rib turib undan ko'z yumish, bilib turib o'zni bilmadek tutish:

*Ha, zulm bor, haksizlik bor,
Barchaga bu ayondir.
Ammo buni zinhor-zinhor
Aytib bo'lmas zamondir, –*

deydi olomonning bir tomoni. Boshqa tomoni unga jo'r bo'ladi:

*Hamma bilar,
Inson erkin – yashashi shart poyidor,
Biz ham aytsak bo'lar,
lekin
Uyda bola-chaqa bor.*

Mana, ko'ring, tomosha qiling endi. Nazrul Islom ko'rib, tushunib etgan haqiqatni qolganlar ham bilar ekan... Ular ham mamlakat yovning mustamlakasi ostida ezilib yotganini ko'rib turishar ekan. Faqat... faqat tillari soqov, quloqlari kar ekan ularning. Chunki shunday qilinganda hech kim ularni boshqalardan ayirib olib turtmas, urmas, qiynamas, chopmas va olovda yoqmasdi. Nafsilamrini aytganda, olomon deganimiz, zo'r kelganda, hatto bola-chaqasini ham

o‘ylamaydi. Bola-chaqa bu – bir niqob, ular shu niqob ostiga odatda, o‘z shirin jonlarini yashirmoqchi bo‘ladi. Qolaversa, bu o‘rinda ishlatilgan "bola-chaqa" so‘zi farzandlar so‘zining sinonimigina emas, balki undan kattaroq, ko‘proq ma‘nolarga egadir. "Uyda bola-chaqa bor" degani bir tomonda haqiqatni aytish va balolarga giriftor bo‘lish bo‘lsa, boshqa tomonda tinchgina umrguzaronlik qilish bor va buning ichiga uydagi bola-chaqayu xotin-xalajdan tortib qozon-tovog‘u shirin taomgacha kiradi, deganidir.

Yuqorida shoir Erkin Vohidov doston maydonida aytmoqchi bo‘lgan dard darajasiga etgan ayrim og‘riqlarini aylanma yo‘llar bilan bo‘lsa-da, baribir, o‘quvchiga etkazadi, dedik. Bu adabiyotning, san‘atning buyuk imkoniyatidir, aslida. Endigina o‘qiganimiz parchalar bir tomondan olomon psixologiyasini ochib berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan olomon tilidan aytilayotgan achchiq va alamli iqrortar doston yozilgan etmishinchi yillar adog‘ida hukmron sovetlar davlatiga nisbatan o‘ziga xos ayblovddek jaranglaydi. Axir, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, voqealari o‘zga mamlakatda kechayotgan dostonda birovning nomidan boshqa birovga qarata aytilayotgan bo‘lsa ham shoir: "Ha, zulm bor, haqsizlik bor, Barchaga bu ayondir. Ammo buni zinhor-zinhor Aytib bo‘lmas zamondir" deb tursa, bu misralardagi haq gap qo‘shirnog‘u o‘tmishlar zanjirini, chet mamlakatlar chegaralaridagi simtikonlar to‘rini parchalab shoir yashayotgan ulkan mustamlakachi mamlakat sarhadlariga, u orqali butun o‘quvchilar armiyasining aql va yurak maydonlariga vulqondek otilib kirib kelmasligi mumkinmi? Yo‘q, albatta. Chunki mening o‘zim o‘n to‘rt yoshimda tuzukroq anglab-anglamay aynan yuqoridagi misralarni dostonidan uzib olib maktabda, paxta dalalarida baralla aytib yurganimni aniq-tiniq xotirlayman. Xudo rahmat qilgur akam Oybek bo‘lsa, to‘ylarda so‘zga chiqib kelin-kuyovga bag‘ishlab butun bir dostonidan katta-katta rivoyatlarni bus- butinbcha yoddan aytib berardi. Albatta, bazmdagilarning ko‘pchiligi tushunmas va bu qadar uzun "she‘r" o‘qigan hamqishloqlaridan norozi bo‘lishardi. Lekin alpqomat va qaytmas akam bilan yuzma-yuz bo‘lishdan qo‘rqib, ularning birontalari yurak yutib oshkora qarshilik ko‘rsatishmasdi. Go‘ring nurga to‘lgur akam bo‘lsa, ko‘zlarini chirt yumgancha xuddi yoriga o‘zi yozgan ishqiy she‘rini o‘qib berayotgan oshiq shoirdek hayajon, harorat va balanddik bilan dostonni aytib tebranar, tebranib aytardi. Endi o‘ylab qaragam, akam mendan uchta ko‘ylakni ko‘p

yirtgani uchun "Ruhlar isyoni" dostonining asl mohiyatini kengroq va chuqurroq tushungan, inchunin, har safar uni yoddan o'qiganda dostondagi Nazrul Islom haqiqatiga o'z haqiqatini, Nazrul Islom dardiga o'z dardini qo'shib o'qigandek yayragan ekan. Yo'q esa, yigit yoshi yashnab turgan akam nega yor vasfi kuylangan she'rlarni emas, tutqinlik va ozodlik, jaholat va ma'rifat darj etilgan dostonni xuddi o'z dardidek ko'cha-ko'yda, to'y-hashamda, qo'yingki, hamma-hamma erda kuylab yurardi... Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, yoddan o'qilganda she'rning nuqta-verguli, qo'shtirnog'i aytiladimi? Misol uchun, "qo'shtirnoq, Ha zulm bor, haqsizlik bor, Barchaga bu ayondir..." deyiladimi? Yo'q, albatta! Doston parchasi "engilmas va parchalanmas, abadul-abad turadi" deyilgan Sovetlar davlatining fuqaro-tinglovchisi qulog'iga aynan "Ha zulm bor, haqsizlik bor..." shaklida etib boradi va u mushohada qila boshlaydi: nahotki, buni yozishayapti ekan? Chop etishibdi-ku. Nima bo'lganda ham baraka topishsin. O'zi bor gap-da!.. Ertasiga qarabsizki, o'quvchi ham taxminan o'sha misralar ma'nosiga yaqin gaplarni aytib yurgan bo'ladi. Axir, doston 1978 va 1979 yillarda yozilgan. Ulkan mamlakatdagi qayta qurishga, demokratiyaga va nihoyat, mustaqil davlatlar hamdo'stligiga bor yo'g'i besh o'n-yil qolgandi o'shanda. Demak, – deya xulosa qilsak yarashadi, – qayta qurishlar, demokratiyalar va mustaqil davlatlar o'z-o'zidan bino bo'lgani yo'q, balki odamlarning haqqa va haqiqatga bo'lgan ana shunday intilishidan, kayfiyatidan dunyoga kelgan. "Ruhlar isyoni" dostoni esa o'zbek ziyolilarining haqiqat va ozodlik tomon eng katta parvozlaridan birida yozilgandir!

5

Doston faqat aytilganlardan iborat emas. Uning deyarli har bir bobi to'g'risida butun boshli kitob yozsa bo'ladi. Chunki unda yolg'on yo'q, she'riy romantika ko'zingizga rangin to'r solmaydi, sizni hayot va uning muammolaridan xayolning kamalakdek tovlangan o'zga olamiga yulib olib fikringizni ipakdek muloyim to'rlar bilan zanjirband etmaydi, aslo! "Ruhlar isyoni" dostoni Erkin Vohidovning ziyoli shoir bo'lib g'arq pishgan 42-43 yoshlarida yozilgan va o'zida shoirning butun Jasorati, Iste'dodi, Donishmandligini... bir nuqtaga jamlagan eng umrzoq, eng jozibali va eng haqiqatparast asaridir! Agar shoir boshqa hech nima yozmagan

bo'lgan taqdirda ham birgina "Ruhlar isyoni" dostoni uni millat va adabiyot ko'ksida o'chmas yulduzdek porlab turishiga kifoya qilardi. Chunki u odam va odamzodning eng tansiq, eng aziz... orzu armonlari haqida go'zal, hazin, ayni chog'da, mag'rur qo'shiqdek yuraklarimizda, ong va ruhlarimizda aks sado beradi. Chunki u qullik va zulmga rozi bo'lmagan, unga ko'nmagan, unga qarshi kurashgan va ozodlik uchun shirin orzulari ne, hatto aziz jonlaridan voz kecha olgan insoniyatning chinakam qahramonlarini madh etadi!.. Axir dostonida hindistonlik shoir Nazrul Islom tilidan "Tug'ilgansan ozod, mudom Ozod bo'lib qol" deya aytilgan olovli misralar bundan oltmish-etmish yil burun xalqni jonidan sevgan, uning uchun har nega tayyoru oqibatda bo'yniga "xalq dushmani" tavqi la'nati osilib vahshiylarcha otib tashlangan ulug' Cho'lponning "Kishan kiyma, bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!" degan otashin chaqiriqlarini yodga solmayaptimi!? Lekin oyoqlarida hali mustahkam va butun dunyoga o'z zo'ravonligini o'tkazib turgan Imperiya hududida o'sha etmishinchi yillarda millat uchun hayot va jonlarini fido qilgan buyuk jadidlar to'g'risida yozish mumkinmidi? SHu bilan birga, agar Erkin Vohidov botinida go'rlari nurga to'lgur ma'rifatparvar bobolarimizning ozodlik, istiqlol, ma'rifatparvarlik kabi umummillat g'oyalariga jindekkin hurmat bo'lmasa, chet ellik, deyarli bizning cho'lponlar yo'lini bosib o'tgan shoir Nazrul Islom haqida bundayin ko'ngilga yaqin dostonni bitishi mumkinmidi!? Ko'rinadiki, "Ruhlar isyoni"da darj etilgan va dostonning pafosi darajasida kuylangan dard ayni chog'da bizniki hamdir! U o'z tuprog'imizda, o'z nazrul islomlarimiz qismatlarida misqol-misqol yig'ilgan va qalb to'rimizda ardoqlangan, biroq taqdir taqozosi bilan hindistonlik shoir hayot yo'li misolida aks ettirilgan umuminsoniy darddir!

6

Nazarimda "Ruhlar isyoni"ni yozar ekan, shoir Haqiqatning ko'zlariga tik qaray olgan. Yoki buni boshqacha aytamiz: Haqiqatning ko'zlariga tik qaray olgan muddati davomida shoir ko'nglidan kechganlari bu – "Ruhlar isyoni" dostoni!

7

Ammo "Ruhlar isyoni" dostonining Haqiqat ko'zlariga dosh berish muddati insoniyat umriga teng!

8

Dostonda ko'pgina fasllar so'ngida shoir beixtiyor o'z ko'ngliga murojaat qiladi. Ajab, murojaatlarning asllari murojaatga aylanib, o'quvchi ko'ngliga duodek yog'iladi:

*Haq uchun
Bosh tutkan tikka
Mardlar ruhi yor bo'lsin.
Bu dunyoda
nohaqlikka
Ko'nmaganlar bor bo'lsin!*

Bu dunyoda hamma narsaning o'z o'lchovi bor. Jumladan, insonlikning, madaniyatlikning, jo'mardlikning... Odamning hayvondan farqi, uning kishilik g'ururi, mardligi... boringki, odamning insonligi eng avval, uning xaqiqatga, haqqa qay darajada yaqinlashib kelgani bilan ham o'lchansa, ajab emas! Chunki inson qo'y yoki eshak emaski, qaysi tomonga haydasa, shu tomonga ketaversa! "Inson bu mag'rur jaranglaydi!" deydi ulug'lardan biri. Bas, shunday ekan, Insonlik bu – yuksak martabakim, unga tinimsiz intilmoq, intilmoq va intilmoq zarur. SHularni o'ylaganda inson nomiga munosib bo'lishdan ortiq sharaf yo'q dunyoda deb hayqirging keladi! "Ruhlar isyoni" dostonidagi ruhlar isyoni ham aslida, insonning qullikka, jaholatga, zulm va istibdodga ko'nishiga qarshi ko'tarilgan muqaddas harakatdir: "Tug'ilgansan ozod, mudom Ozod bo'lib qol!" deydi Erkin Vohidov bengal shoiri Nazrul Islom va o'zbek shoiri Cho'lponlarga jo'r bo'lib. Dostonga ko'ngil qo'ygan o'quvchiki bor, ruhan beixtiyor bu shoirlar safiga kelib qo'shiladi.

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA FOLKLOR OHANGLARI

*Shahnoza NAZAROVA,
filologiya bo'yicha falsafa doktori*

She'riyat haqidagi tayanch tasavvurlarimiz Erkin Vohidov ijodi bilan bog'liq tarzda shakllangan. A.Oripov, Sh.Rahmon, U.Azim,

H.Xudoyberdieva kitoblari biz – litsey o‘quvchilarini boshqacha qilib qo‘yar, dunyo adabiyotini o‘qish va tushunishga yo‘l ochar edi. “Faust” mutolaasi ko‘p tushunchalarni o‘zgartirib yubordi. Talabalikning ilk bosqichlari “Ruhlar isyoni” dostonining Milliy teatrdagi namoyishi hayajonlari bilan o‘tdi.

Endi bo‘lsa Erkin Vohidov dostonlaridagi uslub, bu uslubni qanday davom ettirish va qanday isloh etish mumkinligi to‘g‘risida savollar tug‘ila boshladi.

“Nido” dostonini yod olganmiz, undagi hayqiriqlar, murojaatlar bola yoshimizga juda mos kelardi. Dostonning yaratilish uslubi, badiiy echimi ham aynan hayqiriq va murojaatlarga bog‘liq ekan. Dostonning avvali kuchli so‘z oqimi bilan o‘ziga yo‘l ochadi, shoir asar boshidanoq asr nidosiga uyg‘un xalq nidosi, xalq ohanglarini saralay boshlaydi.

*Qishloq ko‘chasidan zanjiday qora
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg‘usiga bo‘lmagan oshno.
Qah-qah urayotir,
Barq urayotir.
Bilmas, boshi uzra bulutli samo
CHaqmoq chaqayotir,
Guldurayotir.*

Bolalik va bulutli samo harakatlari ohang bilan yaratiladi. Bu yo‘l xalq dostonlariga xos bo‘lib, natijaga so‘zlar, bo‘g‘inlar sonini qisqartirish va zarbni kuchaytirish orqali erishiladi. Dostonlarda bu tezlik, tig‘izlik misrani 8-7 bo‘g‘ingacha qisqartiradi. “Nido” dostonida bo‘lsa misra 5 bo‘g‘ingacha tushadi va oqimdagi tezlik yanada oshadi.

Alla xalq qo‘shig‘iga badiiy ishlov berish (matnga individual mazmun, kechinma olib kirish) orqali ona nutqi yaratiladi. Alla matnida xalq ertaklariga xos rivoya usulidan foydalaniladi:

*Olis sohillarda,
Ufqdan nari.
O‘lim sochmoqdadir
Yov quzg‘unlari.*

Qo‘shiqdagi tuyg‘u, ertakdagi voqeyiy bayon dostonida birlashadi.

Xalq dostonlarida voqealar tasviriga ko‘ra bo‘g‘inlar sanog‘ida bir o‘lchovdan boshqasiga o‘tib boriladi, ulkan musiqiy kompozitsiyaning ohanglari to‘lqindek ko‘tarilib tushadi. Ayni holat biz o‘rganayotgan dostonga ham tegishli. 5-6 bo‘g‘inli o‘chov epik mazmun ifodasida 9-12 bo‘g‘ingacha kengayadi:

*Ko‘ru karmiz,
Beshdan oltiga
Endigina o‘tgan yoshimiz,
Ko‘cha-ko‘yda ko‘tarib suron
Yuguramiz sahardan to kech...*

Dostonda folklor asarlari syujetiga xos xabar, tush motivlari ham istefoda etiladi, ular qavatma-qavat joylashtiriladi. Bolaning maktubida u ko‘rgan tushdan xabar beriladi:

*Dada,
U kun sizni tushimda ko‘rdim.
Oq otda keldingiz,
So‘radingiz suv.
Men buni ayamga gapirib berdim.
Dadang keladi, deb aytdi,
Rostmi shu?..*

An‘anaviy ramzlar va ularning an‘anaviy tabiri bolaning og‘ir, ammo umidli ruhiy holatini bayon etadi.

Doston matnida maqol (Otang bolasi bo‘lma/ Odam bolasi bo‘l; Ustunga zo‘r kelar qulasa ustun), duo (Qosh, ko‘zlaring otangga o‘xshar... / O‘xshamasin umring, iloyim), bolalar so‘z o‘yinlari (Tarqalamiz uy-uygayu tepa to‘yga) kabi folklor janrlari bir-butun holatda birlashadilar. Maqol ohangida hikmat, duo ohangida niyat yaraladi.

*Otang bolasi bo‘lma,
Odam bolasi bo‘l, der.
Bu so‘zni ilk bor menga*

*O'rgatgan otam edi.
Men otam farzandiman,
U esa odam edi...
El mendan rozi bo'lsin
O'xshabsan, deb otangga.*

“Nido” va “Orzu chashmasi” dostonlari bir yilda – 1964 yilda qog‘ozga tushirilgan. Ikki doston ham alohida mukammal kompozitsiya, alohida go‘zallikka ega. Ular mutolaasidan ma’lum bo‘ladiki, shoir o‘sha yillarda folklor va mifologiyani o‘z ijodiy laboratoriyasiga olib kirishga, farqli bir yo‘l topishga, matn ichida matn yaratishga uringan. “Orzu chashmasi” dostoniga “Qora dengiz ertagi” deya yana bir nom beradi. Doston an’anaviy dostonlardagi kabi roviy nutqi bilan boshlanadi. Butun uslubiy echim ertak, afsona, xalq qo‘shiqlari syujeti, motivlari, obrazlari, ohanglari asosida ishlab chiqiladi, folklor qaytadan jonlanadi. “Nido” dostonida folklor ikkilamchi manba bo‘lsa, bu dostonida u birlamchi manba va birlamchi g‘oya holatidadir. Endi roviyning o‘zi tinglovchiga, shoir esa dengizga aylanadi.

*Tebranadi
Ohista to‘lqin,
Moviy dengiz tilga kiradi.
So‘ylab g‘amli o‘tmish ertagin,
Qoyalarga boshin uradi.*

Voqealar mifologik makonda – suv bo‘yida bo‘lib o‘tadi. Tog‘dagi muqaddas buloq, uning tilga kirishi, hikoyat so‘zlashi, kelajakka ishoralar berishi, oshiqlarga maktub (xabar) eltishi, suv boshidagi pari qiz, uning ishq, soz tutgan oqin yigit, qo‘shiqning muhabbat uyg‘otishi, tush, visol, qizni olib qochish, to‘y kechasidagi ayriliq, qizni asir saqlash, go‘dakning yov yurtda tug‘ilishi, qizning suv parisiga evrilishi, yot makondan qaytish – barchasi folklor syujetlari, motivlariga mos tarzda talqin etiladi. Suv mifologiyada makonlar o‘rtasidagi chegaradir. Suvni oshib o‘tgan qahramon boshqa makonga tushib qoladi. Xuddi shuningdek, dengizda olib ketilgan qiz yot makonga, ayollik olamiga kirib boradi, farzandi o‘sha begona o‘lkada tug‘iladi, ma’lum muddatdan so‘ng qaytiladi. Sochilib ketgan

voqealarning dastlabki makonga – chashmaga quyilishi – epik vaqt va epik makon bilan bog‘liq barcha muammolarning mifologik asosga ko‘ra hal qilinishi dostonning ifoda uslubini yaratgan.

Doston matniga aytishuvlar singdirib yuboriladiki, hissiy tasvir yanada tiniqlashadi:

*“...Yuzlari oy kelganda
Qo‘lga olay sozimni,
Oqshom payti bo‘lganda
Aytay yurak rozimni,
Quchay sarvinozimni”.*

*“Mening ko‘nglimni olgan
Barno yigit qaydadir,
Yuragimga o‘t solgan
Tanho yigit qaydadir...”*

SHoir biror nuqtada folklor yoki o‘z uslubi ohanglari chegarasida qolib ketmaydi. U qirg‘oqdan qirg‘oqqa solingan qildek ko‘prikdan o‘tib boradi. Ijodkorning marom va me‘yorni bu qadar o‘rnata olgani ulkan havas, ulkan muhabbat uyg‘otadi.

“Ruhlar isyoni” dostonida folklor manbalaridan foydalanishda ramziylik etakchilik qiladi. Keltirilgan rivoyatlar asar syujetiga birikib ketmasdan unga falsafiy-didaktik ruh bag‘ishlaydi. Doston muqaddimasi istibdod, inson va iste‘dod o‘rtasidagi mangu ziddiyat haqida so‘zlaydi: g‘olib kelishning birinchi sharti tirik qolmoqdir, tirik kuchlarga erisha oladilar.

*Shu oftobu
Ming bir ohang,
Ming bir rangli bu dunyo
Senikidir
Hayot esang,
Hayot esang avvalo.*

Ammo tiriklik g‘animat va nobop o‘rindiqlikdek liqildoq. Nobop ham g‘animat umr ichida kurashish, yana engish kerak. Muqaddima hamda unga ilova qilingan abadiyat haqidagi rivoyat birlashib shu

xulosani beradi. Vujud va ruh butunligini saqlab qolish, insonni saqlab qolish haqidagi dostonning ilk fasli boshlanadi. Muqaddima va ilk rivoyatda keltirilgan xayol, tuyg‘u va fikr bengal shoiri Nazrul Islom misolida moddiylashadi. Har qanday iste’dod isyondir, hamma ko‘nikadi, u ko‘nmaydi, hamma orzu qiladi, u erishadi, hamma qurbongoh hozirlaydi, u qurbon bo‘ladi. “Isyon qo‘shig‘i” nomi bilan dostonga ohangning yangi to‘lqini – tashqi ovoz kelib qo‘shiladi va ko‘pohanglik yuzaga kela boshlaydi. Qadim yunon adabiyotidagi xor, xalq dostonlarimizda kuylangan epik qaytariqlarga o‘xshash bu qo‘shiq ijodkordan ham, roviydan ham farqli uchinchi bir ovozdir.

*So‘yla, inson,
So‘yla qadding ko‘tarib baland.
Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand...*

Ovoz shoirni yutishga tayyorlanayotgan voqelikdan xabar beradi: haqiqat istagan uni o‘z qoni bilan o‘rnatsin. Bayondagi hissiylikni yanada oshirish uchun “Fidoyilik to‘g‘risida rivoyat” keltiriladi. G‘alayon fitnadan kelib chiqadi, undan tug‘ilgan jaholat bo‘lsa eng yaxshilarni hukmga buyuradi: xurofot emas, xalqni uyg‘otishni istagan Nazrul Islom zindonga solinadi. Ifodaga uyg‘un “Jaholat to‘g‘risida rivoyat” havola etiladi: olomon o‘z tabibini o‘tda yoqadi, rad etadi, so‘ng o‘kinadi, yukinadi. Dostonning uchinchi faslida irodasi, isyoni, muhabbati sabab zindonband etilgan shoir qismati va unga hamohang Shoh Jahon rivoyati so‘zlanadi. Shoir ham, shoh ham o‘zlari qurgan iztirob va ishq zindonida qoladilar. Ijodkor tarixdan rivoyat yaratadi va Nazrul Islom haqidagi o‘z rivoyatini asoslaydi. To‘rtinchi faslda vujud bilan ozodlikka etolmagan ruhning uni tark etishi hikoya qilinadi. Uchinchi ovoz shoir so‘zlarini kuylay boshlaydi:

*Ey, xoliqi olam,
Tilagimni qondir,
Umrimga ber barham,
Vujudimni yondir!*

Nazrul Islom ruhini Oliy ruhlar olib ketadilar. Ijodkor bu haqdagi fasldan, ya'ni dostonning o'zidan qadim tasavvurlarga uyg'un rivoyat yaratadi va ilova qiladi:

*Lek daholar,
Ulug'larning
Ruhi – oliy ruh emish.
O'z arshidan
Ular bizga
Bo'larmishlar rahnamo.
Ko'p ishlarni dilimizga
Solarmishlar doimo.*

Dostonning so'ngi "Ozodlik" fasliga ilova qilingan qism "Shoirlar va payg'ambarlar haqida rivoyat" deya nomlanadi. Ammo bu folklor janri sifatida tushiniladigan rivoyat bo'lmay, unda ilohiy Payg'om va ilhom bergan So'z haqidagi shoirning falsafiy mushohadalari bayon etiladi. Har bir fasldan so'ng keltirilgan rivoyatlar doston syujetiga organik birikib ketmasa-da, ramzlarda, ishoralarda va g'oyada bir-butun bo'lib birlashadi. Ijodkor birinchi, ikkinchi fasllarda tayyor rivoyatlar qolipidan, uchinchi faslda tarixiy voqelikning badiiy talqinidan, to'rtinchi faslda xalqning e'tiqodiy tasavvurlariga tutash o'z yaratgan rivoyatidan, to'rtinchi faslda qadim e'tiqod tushunchalaridan foydalanadi.

Erkin Vohidov dostonlari tiniq, fusunkor ham ulug'vor ohanglari bilan mehriyodek o'ziga tortadi. Dostonlarda uslub yaratish borasida mukammal ijodiy amaliyot hisoblanadi.

Ularda shoir donishmand, donishmand bo'lsa shoirdir. Donishmandligi xalq yuragidan, shoirligi o'z yuragidan quyilib keladi va tutash daryolardek birlashadi.

ZAMON RUHIGA HAMOHANG SHE'RIYAT

*Tozagul MATYOQUBOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Sharq mumtoz adabiyotida she'riy majmualar taniqli shoirlarning o'zlari, kotiblar yoxud ularning shogirdlari tomonidan tartib berilib, asosan, "Devon" deb nomlangan. Devon tartib berishning o'ziga xos an'anasi shakllangan. She'rlar, bir tomondan, o'z janriga ko'ra, ikkinchi tomondan, g'azallar alifbo tartibiga ko'ra joylashtirilgan. Bu qoidaga qat'iy amal qilingan. Devonlar asosan g'azal, ba'zan esa qasida bilan ham boshlangan. She'riy janrlar Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, masnaviy, qit'a, ruboiy tarzida; shoirning "Badoye' ulvasat" kulliyotida esa: g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, qasida, qit'a, tuyuq tartibida joylashtirilishi kuzatiladi. Anglashiladiki, she'riy majmua Devon sanalishi uchun uning tarkibiga mumtoz lirikaga xos barcha janrlarga mansub she'rlar kirishi qat'iy shart sanalmagan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Navodir unihoya" va Atoyi "Devon" larida faqat g'azal janriga mansub asarlar kiritilgan. Ular qofiyalanuvchi misralar qaysi harf bilan tugayotganiga qarab joylashtirilgan.

Bizning davrimizga kelib yuqoridagi qat'iy qoidalarga ham birqadar isloh kiritilayotgani kuzatiladi. Masalan, O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Senga baxtdan taxt tilarman"⁹⁸ nomli devonida g'azal, qasida, muxammas, qit'a, fard janriga mansub asarlar bilan bir qatorda, Ibn Sino, Hofiz She'roziy, Bedil, Mirzo G'olib, Muhammad Iqbol, Silva Kaputikyan asarlaridan shoir tomonidan milliy tilimizga o'girilgan ayrim tarjimalar ham o'rin olgan.

Devonning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, unda g'azallar yuqorida ta'kidlanganiday, qat'iy alifbo tartibida emas, balki yozilgan yillari kesimida joylashtirilgan. Bu hol mutlaqo tasodifiy emasligini muallifning o'z izohlari orqali kuzatish maqsadga muvofiqdir. E.Vohidov devonning "Taqdim" nomli muxtasar So'zboshi qismida yozadi: "Mumtoz adabiyotimizda devon tuzishning

⁹⁸ Вохидов Эркин. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.

o‘z qoidalari bor. G‘azallar qat‘iyan alifbo tartibida terilmog‘i kerak. Yillar tartibida emas. Bu o‘zgarmas qonun tufayli biz bugun buyuk shoirlarimiz muayyan g‘azalni qachon, umrining qaysi faslida yozganlarini bilmaymiz. Faqat taxmin qilishimiz mumkin xolos. Bizning shitobi tez, o‘zgaruvchan zamonda, o‘ylasam, eski qoidalar hamisha to‘g‘ri kelavermas ekan. SHularni mulohaza qilib men g‘azallarni yil tartibida joylashtirdim. O‘tgan asrning o‘rtalarida yozilgan baytlar bilan yaqin kunlarda bitilganlarini yonma-yon qo‘yib bo‘lmas ekan. Zamon boshqa, ruh boshqa.”⁹⁹

Ko‘rinadiki, shakliy isloh shunchaki tasodif tufayli yuzaga kelmagan. Ular: birinchidan, shiddat bilan rivojlanayotgan davr talab-ehhtiyojlari natijasi;

ikkinchidan, turli yillarda bitilgan g‘azallarda ular yozilgan davr nafasi o‘z izini qoldirgan;

uchinchidan, bunday tartib berishda shoir ijodiy ruhining ifodasida kuzatiluvchi davriy o‘zgarishlarni ilg‘ash imkoni yuzaga chiqqan.

to‘rtinchidan, o‘zgarmas kanonlar tufayli mumtoz shoirlarimiz umr fasllariga xos ijodiy-ruhiy kayfiyat-hollarni aniqlash qiyinligi bilan bog‘liq mushkulot ham o‘z echimini topgan. Endilikda tadqiqotchi olimlar va keng kitobxonlar bu asarlarni xronologik tartibda kuzatish imkoniga ega bo‘lishadi.

Darhaqiqat, E.Vohidov oltmish yildan ortiq umrini ulug‘ ustozlarga ergashib g‘azallar mashqiga sarflagan. Bundan yarim asr ilgari “Yoshlik devoni” bilan el nazari, kitobxonlar ishonchini qozongan shoirdir. Devonning qimmati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, muallif nazaridan o‘tib tartib berilganida;

ikkinchidan, E.Vohidovning o‘ziga xos umr sarhisobi ekanida;

uchinchidan, zarif kitobxonga havola etilgan ko‘ngil hayajonlari jamlanganida.

Devonda E.Vohidovning: 1967-1994 yillar ijodiga daxldor 110 ta g‘azal; 1968, 1973, 1975 yillarda yozilgan 3 ta qasida; 1962-2009 yillarda bitilgan mustaqil hamda Navoiy, Bobur, Fuzuliy g‘azallariga bog‘langan 12 ta muxammas; shoirning 1957-2011 yillar ijodi maxsuli

⁹⁹⁹ Воҳидов Эркин. Такдим. Қаранг: Воҳидов Эркин. Девон. Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, -Т.: 2015.-Б. 3.

sanaluvchi 6 ta qit'a va fardlar; shuningdek turli yillarda amalga oshirilgan 14 ta tarjima asarlari jamlangan.

E.Vohidovning adabiy an'anaga munosabatini oydinlashtirish ham ancha maroqli mashg'ulot. Gap shundaki, o'z davrida shoirning aruzda bitgan asarlari tevaragida qizg'in bahslar bo'lib o'tgan. E.Vohidov bildirilgan past-baland fikrlarga jiddiy e'tibor bermay, nafaqat aruzda ijod etish, balki televideniya muntazam berib borilgan "G'azal oqshomi" ko'rsatuvini boshqarishni ham davom qildiravergan. Munaqqid U.Normatov bilan bo'lgan adabiy suhbat asnosida bu jarayonni izohlar ekan, shoir: "Bugun sodda, jo'n she'riyatga emas, yuksak hislar, nozik san'atlar, "tagdor" misralar bilan to'lgan she'riyatga talab paydo bo'ldi"¹⁰⁰, deb yozadi.

Anglashiladiki, E.Vohidov hamisha davr va kitobxon ehtiyojini nazarda tutib qalam tebratgan. Bemalol aytish mumkinki, bu hol qaysidir ma'noda, ishchi-dehqon ommasini nazarda tutib yozilgan ommaviy she'riyatning sodda va jo'n qoliplaridan uzoqlashish, chinakam badiiyat, yuksak san'at asarlari yaratishga intilish, ichki ma'naviy-ruhiy ehtiyojga ergashish edi. Shoir ustoz Alisher Navoiy g'azallari haqida to'xtalib yozadi: "... chinakam badiiyat bor, inson qalbining holati bor. Uni o'qiganda har kim undan o'z holatiga mos tuyg'u topadi." Mazkur misol badiiylikni ardoqlash haqidagi yuqoridagi fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, o'tgan asrning 40-yillaridayoq G'.G'ulomning bedilona she'riyati, Oybek falsafiy manzumalari, H.Olimjon o'ynoqi ash'orlari yuzaga kelgan, keyinroq 60-yillarda adabiyotimizga I.Gyotening "Faust", Dantening "Ilohiy komediya" singari asarlari tarjimasiga bemalol qo'l urishga jur'at eta olgan E.Vohidov va A.Oripovlar mansub yangi avlod dadil kirib kelgan edi. Umuman, E.Vohidov aruzga murojaat qilar ekan, quyidagi maqsadlarni nazarda tutgan:

1. Har bir shoirning o'zini doimiy yangilab turish ehtiyojini teran his qilish. Ya'ni odatiy fikrlash uslubi va ko'nikilgan vazn va qofiyalardan uzoqlashish.

2. Mumtoz she'riyat maktabidan ijodiy o'rganish. Zamonaviy she'riyatga yangi jilo bag'ishlash, obrazli fikrlash, sanjob misralar tuzish san'atiga yaqinlashish.

¹⁰⁰ Воҳидов Эркин. Талант тарбияси. Қаранг. Воҳидов Эркин. Изтироб. -Т.: Ўзбекистон., 1992, - Б. 195.

3. She'riyatda oddiylikda murakkablikka tomon intilish. O'z ijodining yangi, betakror bosqichiga qadam qo'yish.

4. Navoiy, Bobur, Ogahiyning faqat nomlarinigina bilish darajasiga tushib qolgan 70-yillarning yoshlarini klassik she'riyatimiz latofati va malohatiga yaqinlashtirish. Bemisl madaniy boylik bo'lgan mumtoz adabiyot an'analarini tiriltirish, millat kishilarining fozil inson bo'lib kamol topishiga xizmat qildirish.

5. Mumtoz adabiyot ruhida tarbiya topgan xalqning baland didi, aruzni qadrlay olishiga bo'lgan ishonch.

Bularning barchasi E.Vohidov ma'naviy olamiga kuch, ruhiyatiga mislsiz qudrat bag'ishladi. Uning g'azallari xalqimizga manzur bo'ldi. Shubhasiz, g'azal atrofida bahslarning avj olishi, uning el ko'nglidan joy olishi, bu janr o'z yangi hayotini boshlashi muayyan ma'noda E.Vohidovning "Yoshlik devoni" yuzaga kelishi bilan bog'liq tarzda sodir bo'lgan jarayon edi. Shoirning "Nimaiki yashayotgan ekan, demak u kerak: demak xizmat qilyapti", degan sobit ishonchi, adabiy tanqidchilikning "g'azal adabiy shakl sifatida o'z umrini tugatdi", qabilidagi "bashorat" larini parchalab tashlashda muhim omil vazifasini o'tadi. Zotan, shoir ayrim munaqqidlarga javoban:

*Ey munaqqid, sen g'azalni
Ko'hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida*

deb eslatar ekan, ularga insoniy tuyg'u harorati va uning samimiy ifodasiga imkon beruvchi shakl hamisha yashovchanligini uqtirgan edi.

G'azal janrida ko'p va xo'p yozganiga qaramasdan, E.Vohidov o'zini mohir g'azalnavis sanamadi. Aksincha, g'oyat kamtarona tarzda, she'riyat bo'stonida oddiy "g'azal shaydosi", deb bildi. 1967 yildayoq Devon debochasiga:

*Do'stlarim shoir demang,
Erkin g'azal shaydosidur,
Yosh dengi ma'zur tuting
Sahv o'lsa gar devonida*

degan misralarni bitdi.

Vaholanki, E.Vohidov o'sha paytdayoq zamondosh inson kayfiyatini ifoda etishda til va vazn emas, balki tuyg'uning nechog'lik kechinilgan va samimiy ekani, ifoda go'zalligi muhim faktor sanalishini birinchilardan bo'lib anglagan edi.

Shoir she'riy nutq tabiati, poetik ijod jarayonining mohiyati haqida to'xtalar ekan, o'z muhosibiga: "Romantik kayfiyatlar paytida, tabiiyki, kishi jinday zamindan yuqoriroq ko'tariladi, obrazli qilib so'zlashga, balandroq pardalarda kuylashga moyilroq bo'ladi", deya uqtiradi. Shu orqali adabiyot hamisha real hayotiylikka asoslanmaydi. She'rda voqelik emas, balki kayfiyat aks etadi. Poetik fikr ifodasiga monand keluvchi har bir shakl zamonlar osha yashashga haqlidir, degan fikrni ma'qullaydi. Yillar o'tib, uning naqadar haq ekani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Umuman, azaliy an'analarga sadoqati, vorislik tuyg'usi teranligi, o'z qalb amriga ishonib, eliga tayanib yashagani, ijodni qismat, yurtga xizmat qilishni mas'uliyat va burch deb bilgani uchun ham Erkin Vohidov bugun alohida e'zoz va ehtiromga loyiqdir.

ERKIN VOHIDOV TURKUMLARIDA HAJVNING O'RNI

*Shoira AXMEDOVA,
BuxDU professori, f.f.doktori*

Annotatsiya. Maqolada E.Vohidovning hajviy turkumlaridan biri "kulgi mushoiralari"da satirik kulgining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hajviyot, satira, yumor, turkum, kulgi, shoirning mahoarti, g'azal, tanqid.

Hajviy yo'nalish barcha xalqlar adabiyotida jonli oqim bo'lganligini jahon adabiyoti durdonalari ko'rsatib turibdi. Hajv ulug' san'atkorlarda hayotga yaqinligi, hodisalarning yashirin qirralarini ocha bilishi va boshqa juda ko'p imkoniyatlarga egaligi bilan ahamiyatlidir, shu jihatdan, shubhasiz, Navoiy, Rable, Servantes, Gogol kabi so'z san'atkorlarining roli nafaqat o'zbek, fransuz, ispan, rus adabiyotida, balki jahon xalqlari adabiyotida ham katta bo'lgani ma'lum.

O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov she‘riyatida she‘riy turkumlarning o‘ziga xos shakllari uchraydi. Masalan, “Kavkaz she‘rlari” turkumi, Kanada turkumi, “Donishqishloq latifalari” va h.k. Shu bilan birga shoirning hajviy mahorati uning satira, yumor ruhi ustuvor bo‘lgan turkum g‘azallarida yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Bu xususiyat shoirning “Kulgi mushoiralar” turkumida yanada yorqinlashadi.

Said Ahmad hajvning hayotdagi o‘rni haqida Shunday yozadi: “Hajv hayotimizni bezaydigan, ruhlarimizni engillatadigan va shu bilan birga hayotimizdagi illatlarni turtkilab turadigan, yo‘ldan chiqqanlarini ko‘pchilik orasida po‘stagini qoqadigan g‘oyaviy qurol hamdir”.

Hajv asosida muallifning voqelikka nisbatan kulgili va tanqidiy munosabati yotadi, bu munosabat g‘azab bilan emas, balki achinish, ba‘zan hamdardlik, agar yumor kuchli bo‘lsa beozorlik tuyg‘ularida ifodalanadi. Satirik kulgi kuchli bo‘lgan asarlarda ijodkor o‘zigagina xos kulgi aralashgan tanqidini ham yaratadi. “Nasihat” she‘ri boshdan oyoq piching, kinoya bilan sug‘orilgan: boshlig‘ing oldida e‘tibor topmoqchi bo‘lsang, “Qomating yuz turli bukkin, so‘zni ham ming tusda qil”. She‘rni o‘qir ekansiz, ko‘z oldingizda boshliq “tur desa turadigan, yot desa” yotadigan xushomadgo‘y kimsalarning qiyofasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

E.Vohidov inson tabiatidagi laganbardorlik yoki dangasalikni hajvchi sifatida kulgi ostiga oladi, shu kulgi to‘g‘ri ta’sir etsa, o‘sha odam yoki asar personaji Shu illatdan qutulishi mumkin. Demak, hajv o‘z vazifasini bajaradi, inson tabiatini ko‘rkamlashtirishga yo‘naltirib, yaxshilikka xizmat qiladi.

Shoir asarlarida kulgi muallifning tasvirlanayotgan hodisaga munosabatini ifodalovchi vosita bo‘lib keladi. U hajviy kulgidan hayotdagi “kosa tagidagi nimkosa”ni ifodalashda (“Donishqishloq latifalari”dagi Matmusa obrazi), shuningdek, har xil salbiy hodisalarni, turli-tuman ba‘zi qusurlarni o‘ziga xos yo‘l bilan tanqid qilishda foydalanadi.”Soch madhi”, “Ko‘chamen” g‘azallari fikrimizga misol bo‘ladi. “Soch madhi” g‘azaliga nazar solaylik:

Bir zamonlar faxr etarding
Qop-qora soching bilan,

Sen bu kun qoshimdadursan
Turfa qirmoching bilan.

Qirmoch – “pishirilayotgan ovqatning qozon tagiga yopishib qolgan yoki kuygan qoldig‘i”¹⁰¹ deb izohlanadi lug‘atda. Kulgini keltiruvchi (qolgan - qutgan, yakkam-dukkam sochli boshni turfa qirmochga o‘xshatish) vositani shoir mahorat bilan topgan. Shoirning keyingi o‘xshatishlari, mubolag‘alari ham original: bunday g‘aroyib partav afshon sochning hech qaerda hatto Iroq, Ajam, Rum, Chinmochinda ham uchramasligi kulgini kuchaytirishga sabab bo‘lmoqda. “Partav afshon – o‘rilmagan, qaralmagan, tashlandiq” ma’nolarini bildiradi. She’r oxiridagi nasihat va o‘xshatish (guli qiyg‘och) kulgini yanada kuchaytirayapti:

Do‘stginam , boshingni tik tut
Arzigay faxr aylasang.
Bu kabi oppoq ochilgan
Guli qiyg‘oching bilan.

Shoir ijodida mumtoz adabiyotimizdagi asarlarga o‘xshatma tarzida yozilgan hajviy g‘azallar ham uchraydi. Masalan, “Ko‘chamen” g‘azali Muqimiyning “Ko‘samem”, “Devonamen”, “Aroba”, “Loy” hajviyalariga, “Boshindadur” hajviyasi Alisher Navoiyning “O‘n sakiz ming olam oshubi...” g‘azaliga o‘xshatma tarzida bitilgan.

Muqimiy “Ko‘sa” turkumida to‘rtta yumoristik g‘azal yozgani va shoir Nodimning “Ko‘samem” g‘azaliga bog‘lagan bir muxammasi ma’lum. “Ko‘samem” she’ri aniq prototipga ega bo‘lib, “yig‘i aralash kulgiga o‘xshab yangraydi”¹⁰². Undan farqli ravishda E.Vohidovning “Ko‘chamen” hajviy she’ri nomidan ma’lumki, “turfa vayron, yozda changistonu qishda balchig‘iston” ko‘chaning dardu hasratiga bag‘ishlangan. Ko‘cha tilidan, nochorlikdan aytilgan “qanchalarning ko‘zlarini changu g‘ubordan” to‘ldirishidan uning pushaymonligi sezilib turadi. “Qanchalarning etigini tortib olg‘on ko‘chamen” degan satrlar kitobxon ko‘z oldida ko‘chaning haqiqiy manzarasini tasavvur

¹⁰¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. Тошкент. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.2006-2008.

¹⁰² Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 127-бет.

qilishga yordam beradi va Shu bilan birga bu tasavvurlar (ko‘chaning loyi shu qadar baland va ko‘pligi bois etik kiygan odamning etigini tortib olishi) kulgi keltirib chiqaradi.

“Boshindadur” hajviy g‘azalida o‘n sakkizga kirgan o‘g‘il va uni taltaytirib yuborgan ota hajv ostiga olinadi. O‘n sakkizga yoshga kirgan o‘g‘ilning satirik portreti shunday chiziladi:

Nay misoli shim kiygan ul
Sandiqdayin tufli bilan,
Hurpayib turgan savatdek
Soch aning boshindadur.

Mazkur satrlarni o‘qigan kitobxon ko‘z oldida o‘g‘ilning kulgili qiyofasi yorqin ochiladi. O‘zgaralar ustidan kulgan padar o‘zining badfe‘lligi o‘g‘ilga o‘tganidan “yoqosin chok etsa-da” hech nimani o‘zgartirolmaydi. Buni shoir “Barcha “rahmat” elning otgan ta’nai toshindadur” satrlari orqali tasvirleydi. Hajv ostiga olingan o‘g‘ilning satirik portreti va otaning holati kulgi uyg‘otsa-da, bu kulgi zamirida achchiq haqiqat yotadi: yoshlikda o‘g‘ilni suyib, ardoqlagan ota ham hajv tig‘iga duchor qilinadi. “Erkalab boshiga qo‘ydi, Ul hamon boshindadur”.

“Yumor tuyg‘usiga ega odam nimadan kulishni, kulgi qatlariga qanday ma’nolarni joylashni yaxshi biladi...Erkin akada yumor tuyg‘usi chindan ham kuchli...”¹⁰³. Ammo tahlilga tortgan turkum g‘azallarimiz shoirning satirik kulgi yaratishda ham yuksak mahoratini namoyon eta olganini ko‘rsatadi.

E.Vohidovning hajviy asarlarida kulgi turli xil vazifalarni bajarib keladi: voqelikka bo‘lgan munosabatni ifodalovchi vosita, tarbiyalash quroli, insonni har xil illatlardan xalos qilishga ko‘maklashadi, turli xil illatlar “kasaliga” duchor bo‘lishning oldini oladi, hajv hissini o‘stiradi va tarbiyalaydi. Shoir ijodida yumoristik kulgining salmog‘i katta bo‘lsa ham, “Kulgi mushoiralari” turkumidagi ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan g‘azallarda satirik kulgi ustuvorlik qiladi.

¹⁰³ Мелибоев А.Юмор туйгуси.Китобда: То куёш сочкайки, нур. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: О‘zbekiston, 2016. –256-бет.

“NIDO” DOSTONIDA QAHRAMON RUHIYATINING BADIY TASVIRI

*Shahlo HOJIEVA,
O‘zMU dotsenti, f.f.nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston qahramoni va xalq shoiri Erkin Vohidovning elga mashhur bo‘lgan “Nido” dostoni tahliliga bag‘ishlangan. Asardagi qahramon ruhiyatining badiiy tasviri va teran gumanizm ifodasi bayon etilganligi hamda ijodkor ushbu biografik asarida xalq dardini yonib kuylagani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Qahramon ruhiyati, badiiy tasvir, ichki kechinma, ideal, gumanizm, bashariyat.

Erkin Vohidov ijodiy merosi keng qamrovi, yuksak badiiyati, betakror ifoda uslubi bilan XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Shoirning latif lirik She‘rlari, ona xalqini qusurlardan xoli ko‘rish istagi tajassum topgan hajviyoti, teran ma’no qatlamlariga va o‘ziga xos obrazlar olamiga ega dostonlari milliy adabiyotimizning nodir namunalari. Ijodkor o‘z asarlarida xalq dardini yonib kuyladi, butun ilhomini, kuchini inson ruhiyatini teran ochib berishga, yuksak ideallarni mohirona tasvirlashga qaratdi.

Shoir o‘nga yaqin doston yaratdi. “Toshkent sadosi”, “Quyosh maskani”, “Buyuk hayot tongi”, “Charog‘bon”, “Baxmal”, “Palatkada yozilgan doston”, “Nido”, “Ruhlar isyoni”, “Istambul fojiasi” kabi dostonlari ushbu janrning yuksak namunalari ekani jihatidan alohida ajralib turadi. Zamonaviy o‘zbek dostonchiligi rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan “Nido”, “Ruhlar isyoni” va “Istambul fojiasi” dostonlari, ayniqsa, shoirga Shuhrat keltirgani ma’lum. “Nido” 1964 yilda yozilgan bo‘lsa-da, hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Doston xalqimiz yuragidan joy oldi, hali hamon sevilib o‘qiladi.

Asarda ikkinchi jahon urushining xalqimiz qalbida qoldirgan jarohati qalamga olingan. Dostonning “Bag‘ishlov” qismida ijodkor qahramonning ichki kechinmalarini, yuragida kechgan tug‘yonlarini ta’sirchan uslubda, san’atkorona tasvirlaydi. Asar muqaddimasida lirik qahramon –urush qurbonining “tanho yodgori” tilidan uning ruhiyati yuksak badiiy talqin etiladi. “Ona Erning otash qa’ri” ifodasi orqali

shoir urush alangasini ko‘zda tutadi. “O‘g‘lim!” degan nido, “Otajon” degan qutlug‘ so‘zni yigirma yil tilga olmagan, vujudi alamdanda tilka bo‘lgan, yuragini o‘tli iztirob yoqsa-da, ko‘zlarida bir tomchi yosh yo‘q, otaning ko‘ksini teshgan qora o‘q azobini o‘z qalbida sezgan farzand iztiroblari ifodasi orqali urushning insoniyat hayotidagi fojeiy ta’siri teran ifodalangan.

“Nido” dostoni biografik talqin asosiga qurilgani jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. “Bu doston avvalo yuksak badiiyati, samimiyati, haqqoniyati, teran gumanizmi bilan ajralib turadi, – deb yozadi adabiyotshunos olim Umarali Normatov. – Doston urush va inson muammosiga bag‘ishlangan. Adabiyotda qayta-qayta qalamga olingan bu muammo Erkin Vohidov dostonida o‘ziga xos betakror tarzda ishlangan, hodisaga shaxsiy daxldorlik asarga ajib samimiyat baxsh etgan” [4.26].

Asarda og‘ir qadamlar, etiklar zarbidan titragan tuproq haqida yozar ekan, shoir iztirobga yo‘g‘rilgan mana bunday savollarni qo‘yadi: “*Qaerga ketmoqda Shuncha odamlar? Nahotki, yo‘llari shunchalar yiroq*”. Shu paytda asar qahramoni nogahon ular orasida dadasini ko‘rib qoladi:

– Ana, ko‘ryapsanmi?
Mening dadamlar!
Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq.
Yuguraman – ortga ketar qadamlar.
Yig‘layman – ko‘zimga kelmaydi namlar,
Murg‘ak vujudimda faqat zo‘r titroq!

Erkin Vohidov – ruhiyat tasviri borasida yuksak mahorat egasi. Shoir so‘zlar vositasida tuyg‘uni butun murakkabligi bilan mohir musavvir kabi yaqqol chizib bera oladi. Lirik qahramon – bolaning “Dada!” deb chaqirsa-da ovozi chiqmasligi, yugursa-da qadami ortga ketishi, yig‘lasa-da ko‘ziga namlar kelmasligi, murg‘ak vujudidagi titroq – ushbu satrlardagi har bir so‘z zamirida olam-olam ma’no bor. Barchasi qahramon ruhiy holatini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlashga xizmat qiladi. Ijodiy niyat va tasvirning bu darajadagi uyg‘unligi adabiyotshunos Ibrohim G‘afurovning mana bu so‘zlarini tasdiqlaydi: “Erkin Vohidov fikrchan, o‘ychan, fikr-o‘y ichiga butun tabiati, fe’l-

atvori bilan sho'ng'igan odam. U har bir voqea-hodisaning mantig'ini qidiradi, voqealarning mantig'iga butun diqqatini qaratadi. U mantiqda ham juda kuchli" [6- 5]

Bu misralar o'quvchi qalbiga chaqmoqdek ta'sir qiladi. Dostonni mutolaa qilar ekan, u asar qahramonining o'tli tug'yonlarini chuqur his etadi. Bu esa: "Adabiy ijod hamisha So'z olamiga sayohatdir. Ijodkor So'zni tirik jon deb biladi va So'z bilan so'zlashadi. Mening bu yozganlarim ana shunday jonli til bilan jonli suhbat bo'lishini istayman" [6.10], degan Erkin Vohidov ijodda ushbu niyatiga to'liq erisha olganini ko'rsatadi.

Dostonda qahramon ruhiyati tasviri ona-bola dialogi orqali ham ta'sirchan ifodalangan. Onaning farzandiga dalda niyatida aytgan so'zlari go'yo o'quvchi qalbida ham aks sado beradi:

Ellarning erk degan
Sof tilagi deb,
Jahonning nurafshon
Kelajagi deb,
Ofat solmasin deb
Olamga qotil,
Otang uzoq yurtda
Jang qilayotir.

Shoir yuqoridagi misralarda "nurafshon kelajak"ni tasvir qilish bilan birga, bolaning murg'ak qalbiga kelajakka ishonchni, hayotni sevishni va Shuning barobarida, jang qilayotgan otasidan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. Onaizorning bu kunlarning albatta o'tishi, bashar jarohatining bitishi, dunyo urushsiz dunyoga aylanishi, lekin mash'um urushning g'ami, dog'i, yuraklarga solgan firog'i qolishi haqidagi so'zlari muallif orzulari bilan hamohang ekani jihatidan qimmatlidir. Shu o'rinda Abdulla Avdoniyning tarbiya haqidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sturmakdur" [1-36], degan fikrlarida sevimli shoirimizning onalari xuddi o'unday tarbiya qilgan deya olamiz. Onaning tarbiya borasidagi xizmatlari bois, farzand etuk shoir, kamol topgpn jamoat arbobi va xalqining sevimli shoiriga aylandi.

Dostondagi bolaning dadasiga xat yozish lavhasi, Rustamning bir oyog‘i yo‘q, qo‘ltiqtayoqda qaytgan akasi, urushga bir qo‘lini tashlab kelgani bois o‘g‘lini qucha olmagan Xol akaning ahvoli, otasidan qoraxat olgani bois Tal‘atning darsga kela olmagani hammani, hatto muallimni ham yig‘latgani, dadasini ikkala ko‘zi bilan teng sog‘ingan doston bosh qahramoni qalbidagi to‘fonlar – barchasi ruhiyat tasviri borasida shoirning nechog‘lik yuksak mahorat sohibi ekanini tasdiqlaydi. Mana bu tasvirlarda otasidan xat kutib ko‘zlari nigoron bo‘lgan bola ruhiyati shunchalik hayotiy va ta‘sirchan suvratlanganki, ularda ifodalangan dard ko‘ngillarni o‘rtab yuboradi:

Hijron kechalari g‘oyatda uzun,
Ayriliq yo‘llari olis nihoyat.
Ko‘chaga chiqaman yuz bora har kun,
Ko‘zlarim nigoron,
Kelarmikan xat?
Tongda turganda ham,
Kun botganda ham,
Hatto kechalari qilolmay toqat,
Eshikka qarayman,
Chekaman alam.
Intizor bo‘laman,
Kelarmikan xat?

Asar qahramonining murg‘ak xati bekatma-bekat yo‘l bosar ekan, uning borar manzilidan mash‘um qoraxat ham yo‘lga chiqqani tasviri, *“Qosh, ko‘zlaring otangga o‘xshar... O‘xshamasin umring iloyim”*, degan iztirob va samimiyat ila yo‘g‘rilgan, o‘zbek xarakterini ifodalagan satrlar shoirning shaxs ruhiyati vositasida millat ruhiyatini tasvirlay olgani isbotidir. Shu o‘rinda adabiyotshunos olimlar I.G‘aniev va N.Afoqovanning qu‘idagi fikrlarini keltirishni lozim bildik: “She‘rini tekshirayotganda shoir shaxsi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki she‘rda muallifning ruhida kechayotgan iztirob, g‘ussa, hasrat, dard, muhabbat, nafrat, iqror, istak – hamma-hammasi akslanadi. Borliqni qabariq nigoh bilan ko‘radigan shoir his eta olgan go‘zallik, mehr, nafrat kabi kechinmani his qilish uchun o‘sha holatni boshdan kechirish shart” [6. 5].

Butun bir polkka qarshi bahodirlarcha kurashgan to‘rt soldat qismati; tahlika va jasorat, yovuzlik va adolat o‘rtasida kechgan bu jangda ularning ko‘kragida qo‘rg‘oshin bilan er quchishi, tungi og‘ir jangdan so‘ng ona bag‘ridagi ma‘sum go‘dak singari tin olishi – doston syujetiga asos bo‘lgan voqelikning poetik tasviridir. Shoir tashxis san‘ati orqali insoniyat jamiyatining fojiali qismati bilan bog‘liq bu voqeani peyzaj tasviri bilan uyg‘unlashtirib suvratlantiradi. To‘rt botir firoqiga chiday olmay shu tong sabo yig‘lagani, boshini qirg‘oqqa urib daryo yig‘lagani, oq, momiq bulutlarning bag‘ri chok-chok so‘kilgani, shu tong oftob nurlari ko‘zyosh bo‘lib to‘kilgani – bular barchasi qahramon ruhiyatini mukammal poetik tasvirlashga xizmat qilgan. Asar qahramonining:

O‘rmonlar shovillagan
Olis yurtda hali ham
Nomsiz tepalik uzra
Uxlab yotibdi otam,

degan faryodi ona tabiat motami bilan benihoya mutanosiblikda talqin etilgan.

Ona Yerning qo‘ltiqtayoqlar zaxmidan ingrayotgani, atom zontlarining vahmidan yuragi pora ekani, ko‘ksida olovli oh-faryod bilan chorlayotgani tasviri asar qahramoni ruhiyatida kechayotgan nido bilan hamohang, uyg‘un. Endi bu tashvishli dunyoni, sermashaqqat olamni bo‘ronlardan, quyoshli yo‘llardan nurli istiqbolga olib o‘tish – zamona odamlarining zimmasidagi ulkan mas‘uliyat. Ana, shoir nima demoqchi!

Doston mana bunday satrlar bilan yakunlanadi:

Avlodlar uchun ham
Qutlug‘ bo‘lur albat
Yer uzra to‘kilgan ko‘z yosh, qon va ter.
Bepoyon kenglikda
Charx uradi abad
Ulkan yurak shaklidagi Er....

Erning shamoyilini yurakka tashbeh etish – bu tasodifiy emas. Chunki Erkin Vohidov Ona Yerni tirik vujud, deb tasavvur etadi.

Bashariyatni ana shu Ona bag'rida tinch-totuv yashashga undaydi. Toki, onalar suyukli yoridan, bolalar valine'mati – otasidan ayrilmasin! Toki, odamzod odamiylikni nafs qutqusiga boy bermasin! Zero, butun bashariyat ana shu yurak shaklidagi Ona Yer farzandlaridir.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov dostonida qahramon ruhiyati tasviri orqali Ona zamin osoyishtaligini asrash, Odam bolalarining bir-biriga yovlashmay, tinch-totuv, ahil-ittifoq yashashi nurli istiqbolga erishmoqning asosiy sharti ekani haqidagi umumbashariy muammoni yuksak badiiy talqin etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Vohidov E. So'z latofati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Vohidov E. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq, 2016.
4. Normatov U. Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
5. G'afurov I. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq, 2017.
6. G'aniev I., Afoqova N. Abdulla Orif falsafasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021.

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR İSYONI” DOSTONIDA SHAXS KONSEPSIYASI

*Dildora AZIMOVA,
O'zMU katta o'qituvchisi (PhD)*

Annotatsiya. “Ruhlar isyoni” dostoni ozodlikni ijtimoiy zaruriyat sifatida anglab etish hosilasi. Dostonida tasvir etilayotgan va idrok qilinayotgan voqelik farqlanadi. Nazrul Islom timsoli orqali E.Vohidov o'z estetik ideali – shaxs erki, vatan ozodligi g'oyalarini ilgari surdi. Dostonida shoir shaxsi muammosi bosh kredo sifatida tasvirlanadi. Muallif o'zga makon va shoir obrazi vositasida o'z estetik idealini ilgari surdi. Shoir shaxsiga qo'yilgan talablarni ko'rsatish orqali muallif mavjud jamiyatni o'zgartirishni, chinakam shoirlik konsepsiyasini ifodalaydi.

Kalit soʻzlar. Doston, shaxs, konsepsiya, estetik ideal, kredo, makon, zamon, obraz.

“Ruhlar isyoni” 1979-yilda yozilgan. Undagi voqealar Abdurauf Fitratning “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” dramalari kabi ustalik bilan Hindiston zaminiga koʻchirilgan. Erkin Vohidov “Ruhlar isyoni”ni yaratgan chogʻda nafaqat, “Hind ixtilolchilari”, balki Fitrat domla ijodidan ham bexabar boʻlganini aytadi. Mazkur asarlardagi estetik analogiya ikki buyuk ijodkor uchun ham yurt ozodligi masalasi – anglab etilgan zaruriyat ekanidan dalolat beradi. Har ikkiasarda ham milliy ozodlik masalasi estetik ideal darajasiga koʻtarilgan. U.Normatov fikricha, oʻz davrida munaqqidlar Fitrat asarining maʼno-mundarijasi xususida soʻz aytishdan tiyilgani kabi “Ruhlar isyoni” toʻgʻrisida ham mustabid tuzum sharoitida yozilgan maqolalarda doston maʼno-mundarijasi doirasini Hindiston chegaralaridan buyoqqa olib oʻtishga jurʼat etolmaydilar¹. Garchand, dostonidagi voqealar Hindiston zaminida sodir boʻlsa-da, Vatan mustaqilligi yoʻlidagi kurashlar, yurt ozodligi, erkni kuylagan ijodkorlar boshiga tushgan koʻrgiliklar, qiynoqlar, hoʻrliklar bizga ham begona emasdi. Nazrul Islom obrazi hukmron doira tomonidan taʼqibga olingan “vaysaqi intelligentlar”ning tipik vakili edi. Faqat voqealar bizda emas, hind zaminida sodir boʻldi. Bu usulni mohirona qoʻllagan shoir Erkin Vohidov bir oʻrinda oʻzini fosh qilib qoʻyadi:

Nazrul Islom
Nomi oxir
Ming baloga taqaldi.
El uchun jon tikkan shoir
El dushmani atald².

Sinfiy kurashlar oʻrtasida sunʼiy ravishda ziddiyat hosil qilish va “xalq dushmani” degan ayblov bilan jazolash faqat shoʻro tuzumiga xos edi. Buni shoirning oʻzi ham “Nazrul Islom mening koʻzimga goh Choʻlpon, goh Usmon Nosir boʻlib koʻrinardi. Hattoki, bilib-bilmay, Nazrul Islomni “xalq dushmani” deb ayblashdi, deya yozib yuborganman. Vaholanki, Hindistonda Nazrul Islomni hech kim “xalq

¹ Normatov U. Ruhlar isyonining nurli tolehi // Jaʼhon adabiyati. 2005 yil, 7-son.

dushmani” deb atamagan”³, – degan edi. Dostonda “o‘zga” tilidan gapirayotgan shoirning aynan o‘zi edi. Demak, dostonda hind isyonkor shoiri haqidagi voqealar tasvirlangan bo‘lsa-da, unda idrok qilinayotgan narsa boshqa – vatan ozodligi va shaxs erki masalasi edi. Bu tuyg‘u Erkin Vohidovda “Ruhlar isyoni” yozilishidan ancha avvalroq uyg‘ongan, obrazga muallif shaxsiyatining singdirilishi Nazrul Islom timsolida ko‘zga tashlanadi. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostonidagi yigit obrazida ham shunday. Chunki qahramonlar orqali o‘z botiniy istaklarini ifoda etayotgan ijodkorlar asarni harakatga keltiruvchi kuch – konfliktni o‘zi yashab turgan real muhitdan olgan. “Jamiyatda yashab turib inson shu jamiyatning qonun-qoidalaridan tashqarida bo‘la oladimi?”¹ deya savol qo‘ygan edi shoirning o‘zi “Ozodlik qayg‘usi” nomli maqolasida. O‘zi yashab turgan tuzumdan qoniqmaslik, u bilan ziddiyatga kirishish, muhitga sig‘maslik Nazrul Islom xarakterida o‘z aksini topgan. Nazrul Islom timsoli orqali E.Vohidov o‘z estetik ideali – shaxs erki, vatan ozodligi mavzusini ilgari surdi. Nazrul Islom shoir mahorati tufayli barkamol xarakterga aylandi. Agar tuzum adolatli bo‘lsa, unda shaxs va jamiyat munosabatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi. Sho‘ro tuzumi qo‘l ostidagi xalqlarni boshqarish uchun totalitar mafkura hukmronligini o‘rnatdi. Kommunistik utopiya haqidagi yolg‘on aqidaga butun boshli xalqlarni ishontirdi. Erdagi jannat – kommunizm qurish g‘oyasiga asoslangan tuzumda sinflarning ijtimoiy tengsizligi bo‘lmasligi lozim edi. Buni “sovetskaya vlast” – sho‘ro hokimiyati to‘la ta‘minlashi lozim edi. Lekin amalda bu sistema qo‘l ostidagi xalqlarni dastlab qadimgi Rim imperiyasidan meros bo‘lgan “Bo‘lib tashla, hukmronlik qil” aqidasi bilan boshqargan bo‘lsa, sal nariroq borib ommaviy qatag‘onlar vositasida qo‘rquv iskanjasida ushlab turdi. Ilk bor Rim senati tomonidan qo‘llanilgan mazkur usul kolonizatorlar tomonidan bosib olingan millatlar o‘rtasida sun‘iy ravishda qarama-qarshilik tug‘dirish uchun qo‘llanilardi. XIX asr ingliz mustamlakachilari tomonidan Hindistonda tatbiq etilgan bu “bo‘lib tashlash” usuli Chor Rossiyasi manfaatlariga mos tushardi. Va‘da qilingan utopiyaning antiutopiya ekani ayon bo‘ldi. “Ruhlar isyoni”da xuddi shu holat ko‘rsatiladi. Isyonkor Nazrul Islom boshlagan qo‘zg‘olon mustabidlar tomonidan shu taxlit bostiriladi. Endi dostonda voqealar oqimi

³ Эркин Воҳидов билан суҳбат. Бу обод кунларга етдик соғ-омон. //Тафаккур. 2011 йил. 3-сон.

¹ Воҳидов Э. Озодлик қайғуси//Тафаккур, 2008 йил, 3- сон. –Б. 48.

o‘zgaradi, yanada keskinlashadi. Istibdodga qarshi kurash milliy va diniy nizoga aylanib ketadi.

Sh.Hasanov “Ruhlar isyoni”da “Muallifning “aralashuvi” asosiy tasvir tarziga aylanmaydi. Muallifning o‘z nomidan gapirishiga Nazrul Islom qismati monelik qiladi¹” deydi. Lekin dostonda Nazrul Islom va muallif shaxsiyati o‘rtasida estetik analogiya mavjud. Shoir shaxsiyatida doston yozilgunga qadar bo‘lgan davrdagi qator omillar tufayli anglab etilgan voqelikni ifodalash zarurati paydo bo‘lgan edi. Erkin Vohidov dastlab, Nazrul Islom hayoti haqida doston yozadi. Lekin quruq belletristikadan iborat bu asar o‘ziga ma’qul kelmaydi. Chunki shoirga Nazrulning dardi vosita edi xolos. Uning aytmoqchi bo‘lganlariga hind shoiri qismatini yoritishdangina iborat asar torlik qilardi. Shu bois ijodkorda “Ruhlar isyoni”dek doston yaratilishiga ehtiyoj tug‘ildi. Zotan, bu ehtiyoj yillar davomida ijodkor fitratida etilib kelardi. Nazrul Islom qismati esa bu mohiyatni anglatish vositasi bo‘lib xizmat qildi. O‘z “men”ini namoyon qilish ehtiyoji Nazrul Islom timsolida badiiy reallashdi. Bu holat faqat mavjud sistemaning yolg‘on asosga qurilganini tasdiqlashgina emas, ijodkor uchun o‘z “men”ini saqlab qolish imkoni ham edi. Biz ilk ijodini boshlagan chog‘larda “Buyuk hayot tongi” otganiga mutlaqo ishongan shoir o‘rnini “yolg‘on erk, yolg‘on saodat, yolg‘on vatan” haqidagi asl haqiqatni anglab etgan va bu fojeaviylikni yoniq pafos bilan Nazrul Islom vositasida o‘quvchi-adresatga etkazayotgan ijodkor SHAXS egallaganini ko‘ramiz. Dostonning asl mohiyatini tushunish – o‘zini shaxs sifatida anglab etgan ijodkor haqiqatlarini anglab etishdan boshlanadi.

Dostonda shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlagan milliy o‘zlikni anglash muamosi hayotga, insoniyatga berilgan baho tomon kengayib boradi:

*Ey dil,
Quloq ber nidoga,
Toki erda inson bor,
Na podshoga, na gadoga
Alqasosdan omon bor*

yoki:

¹ Hasanov Sh. XX asrning 2-jarmi ўzbek dostonlari poetikasi. Doktorlik dissertatsiyasi. 2004 йил. –Б. 76.

*Kel, ey ko‘nglim
Ruhlarni sen,
To borsanki, qilg‘in yod.
Kimlar uni vijdon desin,
kimdir desin
E‘tiqod.
Ammo ular dunyoda bor!
Shak keltira ko‘rmagin.
Meni nopok yo‘ldan
Zinhor,
Zinhor olib yurmagin.
Hatto o‘zing qolsang yolg‘iz,
Dema
Mendan ogoh yo‘q.
Yashamoqdan e‘tiqodsiz
Ortiq erda gunoh yo‘q¹.*

Ko‘rinib turibdiki, dostonda shoirning estetik bahosi birgina yurt ozodligi va shaxs erki muammosi bilangina cheklanib qolmay, olam uyida hech narsa javobsiz qolmasligi hamda e‘tiqod masalasi tomonga qarab kengayib boradi. E‘tiqod– inson shaxsining bosh a‘moli ekanini hisobga olsak, dostonda shoir olam va odam to‘g‘risida falsafiy mushohadalarini badiiy haqiqatga aylantirayotganining guvohi bo‘lamiz. Adabiyotshunos U.Hamdam fikricha, “Muddao Nazrul Islom emas, bu – bir bahona. Asl muddao – bashariyat tabiatining ikki tarafiga e‘tiborni qaratish: oq va qora, yorug‘lik va zulmat, ma‘rifat va jaholat, istibdod va ozodlik...”². Asarda rivoyatlar vositasida voqelikka munosabat bildiriladi, baholanadi, hukm chiqariladi. Doston badiiyatini quyidagi uch asos tutib turadi:

1. Davr va shaxs fojeasini anglab etgan, bu fojeani adresatga etkazayotgan muallif “men”i, pafosi;

2. Erk va ozodlik maslagiga aylangan tipik obraz – Nazrul Islom;

3. Yuqoridagi ikki omil asosida ma‘naviy-ruhiy tozarish – katarsis holatini boshidan kechirayotgan, o‘z “men”ini idrok eta boshlagan o‘quvchi.

¹ Воҳидов Э. Тўла асарлар тўплам. 2-жилд: Шеърлар, дoston, foжеий комедия, таржима. – Т.: Шарқ, 2015. – Б. 266.

² Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи.–Т: Фан, 2007. – Б.6.

Doston yakuniga kelib, kitobxon o'zida iztiroblar ortidan kelgan ma'naviy-ruhiy tozarishni boshdan kechiradi. Asar qahramonining iztiroblari o'quvchi qalbiga ko'chib o'tadi. Estetik mushohada chog'ida ushbu iztirobni o'ziniki deb qabul qiladi. Natijada muallifga tegishli bo'lgan dardni "yuqtiradi". Bu iztirob olam va tiriklik, insoniy mohiyat xususidagi qarashlarga, his-tuyg'ularga ta'sir etadi. Shoir tomonidan real lavhalar bilan birga qo'llanilgan rivoyatlar olim U.Normatov fikricha "hayot haqiqati va mohiyatini ochishga xizmat qiladi, shoir ilgari surgan falsafiy mushohadalar uchun dalil-isbot vazifasini o'taydi"¹. Doston muallifi rivoyat, afsona, naqlar orqali qahramonlar ruhiy olami, xarakterlar o'rtasidagi ziddiyatlar, davr va shaxs fojeasini ko'rsatib beruvchi omillar, sabablarni tahlil etishga uringan. Mavjud voqelikka munosabatini rivoyat, afsonalarga singdirib yuborgan. Real voqelik tasviri bilan ijodkor badiiy-estetik qarashlarini ifoda etuvchi rivoyatlar, afsonalarning o'rin almashinib kelishi drammatizmning kuchayishiga olib kelgan. Muallif mazkur rivoyatlar orqali o'z davrining ijtimoiy masalalariga nisbatan o'zining faol pozitsiyasini namoyon etdi. Afsona, rivoyatlardagi obrazlarda esa davrning o'ziga xos ijtimoiy tiplari namoyon bo'ladi. Masalan, Donishmand – Suqrot dan Nazrul Islomgacha bo'lgan Shaxsning timsoli. Lekin g'alati paradoks: hukmron jamiyat, gumroh olomon tomonidan bu kabi zotlar aksar hollarda qadr topmagan, qabul qilinmagan, jazoga loyiq ko'rilgan. Sikuta ichib o'ldirilgan Suqrot, gulhanda kuydirilgan Galiley, Kopperniklar singari dostonidagi tabib ham jaholatning qurboniga aylandi. Bu mudhish adolatsizlik doston bosh qahramoni Nazrul Islom taqdirida ham takrorlandi. I.V.Gyotening "Faust" asarida bir holat bor. Chex siyosiy arbobi Yan Gusni kofirlikda ayblab o'tda yoqqanlarida bir soddadil kampir "savob uchun" bir quchoq o'tin tashlagan. Shunda Yan Gus *Santa simplicitas* – "tabarruk soddalik" deya kinoya qiladi. Cherkov ta'limotlarini buzishni gunohi azim bilgan omi kampir uchun Yan Gusdek "gunohkor" yonayotgan gulxanga o'tin tashlash savob bo'lib ko'ringan. "Jaholat haqidagi rivoyat"da ham donishmand tabib Shunday jaholatning qurboni bo'ladi. E'tibor berilsa, ilmu hikmat egalari donishmandlar uchun jismoniy o'limdan ko'ra johillik va ularni tushunadigan kimsa yo'qligidan dahshatga tushadilar. Ular

¹ Normatov U. Образ кўлами//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1981 йил, 5 июнь, 10-сон. –Б. 3.

johillik va ularni tushunmasliklaridan ko‘proq aziyat chekadilar. Shunga o‘xshash holatni Chingiz Aytmatov tahlil qilar ekan, “Turmushning tuzilishida, aytish mumkinki, hayot dialektikasida mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan bir xususiyat — abadiy fojea yashab keladi: mutafakkir jamiyat qonunlarini kashf etadi, jamiyat bo‘lsa xuddi ana shu xizmatlari uchun uni murtad deb e‘lon qiladi, keyinchalik esa xuddi ana shu kashfiyotlarni qurol qilib oladi”¹. “Ruhlar isyoni”da izlanishdan charchamagan, qalban, ruhan yuksalib borgan hakim nashtar bilan ko‘rning ko‘zini ochadi. Lekin, nodonlar uning ishini Tangriga isyon deb, hakimning o‘zini shayton deb ataydilar. Xurofot odamni zaiflashtiradi (Emil Zolya) deganlari to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Alal-oqibat, johil, nodon olomon donishmandni sazoyi qiladi.

*Buyurdilar: “Yoqing shitob
Azozilning oshnasin
Kerak bo‘lsa kimga savob
Cho‘p keltirib tashlasin”...*

Erkin Vohidov mazkur rivoyat orqali Nazrul Islomga o‘xshash shaxslarning ayanchli qismatini ko‘rsatdi. Biz assotsiativ tarzda insoniyat tarixida hamisha bunday zotlar bo‘lgani, ular o‘z xalqiga, hatto insoniyatga buyuk xizmatlar qilgani holda yunon afsonasidagi Prometey holiga tushganini anglaymiz. Dostonda tabibning aybdorligi masalasi alohida e‘tiborga molik. U aslida aybdormidi? Atrofdagi fahsh, o‘g‘rilik, razolatni ko‘rsa-da, miq etmaydigan olomonning va sobiq ko‘rning barcha kulfatlarga Donishmand tabibni aybdor sifatida ko‘rishi psixologiyada “Karpman uchburchagi”¹dagi kabi aybdorni topish va jazolash holatining o‘zidir. U olomon g‘azabiga uchradi. G‘azabga dalilning keragi yo‘q. U faqat sabab qidiradi. Olomonning g‘azabi ham shunday kuchga ega. Ko‘zi ochilgan ko‘r – qurbon. U tabibni zolim sifatida ayblaydi. Qutqaruvchi vazifasini zimmasiga olgan olomon esa oxir-oqibat zolimga aylanadi. Rivoyat voqeasini reallik bilan bog‘lansa, mavjud jamiyatdagi holat anglashiladi. “Sho‘ro hokimiyati o‘z faoliyatining boshlanishidan to intihosiga qadar o‘zini “ta‘qibchi–qurbon–xaloskor” arxetipik uchburchagidagi

¹ Айтматов Ч. Кассандра тамғаси // www.ziyo.net/ 64-бет.

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Треугольник_Карпмана

“xaloskor” rovida taqdim etishga intildi... Mohiyatan esa, u “ta’qibchi sifatida “qurbonlik” keltirish bilan band bo’ldi”². Mana Shu tarzda jamiyatning ma’naviy o’limi sodir bo’ladi. Ulkan shaxslar orasida jamiyat bilan kelisha olmaydigan, zamonga, muhitga moslasha olmaydigan insonlar bo’ladi. Ular ma’lum qonun-qoidalar, cheklovlar, taqiqlar doirasiga sig‘maydi. Nazrul Islom ham ana shunday edi. Qiynoqlar uning es-hushidan ayirdi. Unda gallyutsinatsiya boshlanadi. Undagi bu ruhiy holat Zigmund Freyd nazarda tutganidek xayolot va mayllar siqilishi ta’sirida emas, Karl Gustav Yung nazarda tutgan kundalik hayot tarzining natijasida, ijtimoiy-psixologik omillar tufayli vujudga keldi. Xayolotga kuchli ravishda berilish insonni passivlashtiradi. Bu undagi kurashchanlik ruhini so‘ndiradi. SHaxs va muhit, jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat, xassos qalbning chirkin voqelikni qabul qila olmasligi oqibatida Nazrul Islom ruhiy xastalikka duchor bo’ladi. Ong nazoratining kuchsizlanishi, alahsirash, gallyutsinatsiya dunyosida yashash boshlandi. Nazrul Islomning qismati fojeali yakun topdi. Lekin bu fojeaviylikda qahramonlik, isyon bor. Kun kelib, mustamlakachilar murdor oyog‘ini bu zamindan uzib, Hindiston ozod bo’ldi. Lekin ming afsuski, shoir buni na his etdi, na quvondi. Faqat uning asarlariga ko‘chgan isyonkor ruhigina yillar osha tildan-tilga o‘tib, mangu yashab kelmoqda.

ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘ZIGA XOS QIRRALARI

*Shukrullo JO`RAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov ijodi hamda ijimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari, shoir ijodida o‘ziga xos munosib o‘ringa ega badiiy publitsistik asarlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Adiblar hiyoboni, poetic obraz, falsafiy teranlik, vatan tushunchasi, “Ibtido”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes”, “O‘zbekim”, o‘zbek adabiyoti darg‘alari.

² Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. –Т.: Akademyashr, 2016. –Б. 189.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar pul toppish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”¹⁰⁴ 2020 yil 20 may “Adiblar hiyoboni” ochilishidagi aytib o‘tgan edi, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Hiyobonda Navoiy, Bobur, Ogohiy, Muqimiy, Furqat, Avloniy, Behbudiyalar qatorida XX asr o‘zbek adabiyoti darg‘alari Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Saida Zunnunova, G‘afur G‘ulom, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripovlar qatorida, XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti rivojida o‘zining munosib o‘rniga ega Erkin Vohidovning o‘rin olishi adib ijodi davlatimizda o‘z o‘rniga ega ekanligidan dalolat beradi.

“Chinakam badiiy asar shoirning yurak bilan yolg‘iz qolib suhbatlashishi. Hozir jo‘n nasihat zamoni emas. “Ey birodarlar, ko‘proq kitob o‘qinglar!” degandan ko‘ra o‘sha kitobni yozish kerak. “Teatrga ko‘proq tushinglar, televizorni ham tez-tez ko‘rib turinglar” degandan ko‘ra ularning ma’naviy saviyasini balandroq ko‘tarish lozim. Kerak bo‘lsa shoirning o‘ziga dars berib qo‘yadilar” “Yuraklarni larzaga soladigan she’riy so‘zing bo‘lmasa to‘g‘richa gapingni to‘g‘richa ayt qo‘y. Undan ham ham yaxshisi sukut qukut qil”¹⁰⁵ deydi, 1993-yil “Vatan” gazetasiga bergan maqolasida. Bundan ko‘rinadiki adibning ma’naviyat, she’riyat, bilim haqidagi qarashlari qanchalar dolzarb voqeylik ekanligi bugungi kunda jamiyatimizda insonlar hayotida bilimga bo‘lgan dunyoqarash insonlarning bozor munosabatlari jamiyatida bir muncha pasayganligi ma’naviyat esa telekanallarimiz orqali berilayotgan ayrim qo‘shirnoq orasidagi seriallar hamda ko‘rsatuvlar orqali nomoyon bo‘lmoqda desak aslo yanglishmaymiz.

Bu so‘zlarning isboti sifatida adibning “Lekin ko‘nglimda bir hadik bor: Amerika va Ovruponing bozor sharoitida yashayotgan ko‘plab davlatlarida bo‘lib, shu narsaga iqror bo‘ldimki, bozor qonunyalari hokim bo‘lgan yurtda adabiyot va san’atning qadri bir qadar past bo‘ladi. Tirikchilik ketidan quvib ketib, ma’naviyatdan

¹⁰⁴ 2020-yil 20-may “Adiblar hiyoboni” ochilishidagi aytib o‘tgan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev

¹⁰⁵ Vohidov E. Asarlar. Erk saodati. 6-jild. – T.: Sharq, 2018. 19-bet.

uzilib qolmasak edi. Bu marakkab muammo. Goho vatan nomukammal bo`lib qolmasaydi, degan tashvishli hayollar orom bermaydi.”¹⁰⁶

Darhaqiqat, Vatanimiz oxirgi o`ttiz yilda qanchadan qancha yutuqlarga erishdi, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar o`z samarasini bermogda. Sportchilarimiz, bilimli yoshlarimiz jahon miqyosida vatanimiz bayrog`ini yuksaklarga olib chiqishmogda. Shuni ham aytib o`tish lozimki, ma`naviyat tushunchasi insonlar orasida mavqeyi jihatidan bir muncha orqada tasavvur etiladigan tushunchaga aylanganligi hech birimizga sir emas. Bozor munosabatlari jamiyatida odamlar tirikchilik tashvishlari bilan tarbiyalangan avlod ongida Vatan tushunchasi ham nomukammal tushunchaga aylanayotganligi ham bugungi jamiyatimizga yod tushunchalar qatorida emas.

Erkin Vohidov ijodini kuzatar ekanmiz, undagi falsafiy teranlik, yorqin poetik obraz va badiiy san`atlar, milliy tafakkur va xalqona donishmandlik kabi qirralarni ko`ramiz. Bularning hammasini shoirning yuksak saviyadagi poetik tasvir vositalarini qo`llash mahorati orqaligina ro`yobga chiqqanligini anglash qiyin emas. Shoir she`riyatidagi poetik tasvir vositalari, xususan, she`riy nutq qurilishidagi so`z tanlash va ularning badiiy matnda mohirona ishlatilishi nafaqat adabiyotshunoslarni, balki keng kitobxonlar ommasini ham bahs-munozaraga chorlaydi. Erkin Vohidov ijodi ko`pdan beri ilmiy jamoatchilik, adabiy tanqidchilik e`tiborini o`ziga tortib keladi. Shoir lirikasi va ayrim asarlari haqida Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G`afurov hamda Usmonjon Qosimov singari yetuk tanqidchi-adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlari, yana bir qancha olimlarimiz tomonidan yaratilgan maqolalar mavjud. Ammo hozirgi kunga qadar Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi, adibning badiiy ijod, so`z qadri va ularni qo`llashdagi muallif mahorati kabi muammolarga bag`ishlangan publitsistik maqolalari yetarlicha tadqiq qilingan emas.

Adib tomonidan 1993-yil 22-iyunda “Xalq so`zi” gazetasiga bergan javoblarida shunday deydi. “Ruhlar isyoni”da shunday satr bor: “Iste`dodning tabiati isyondir”. Bu dunyoda shoir bor – isyon

¹⁰⁶ Vohidov E. Asarlar. Erk saodati. 6-jild. – T.: Sharq, 2018. 19-bet.

bor. Haqiqiy shoir ko‘rgan kuniga qanoat qilib, bir joyda to‘xtab qola olmaydi.”¹⁰⁷

Shunindek, adib mustabid tuzum sharoitida ham o‘zining haq so‘zi bilan el orasida e‘tibor qozonganini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Yozuvchi o‘z she‘riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Buning yorqin misolini shoirning “O‘zbekim” qasidasida ko‘rishimiz mumkin, o‘z vaqtida xalq o‘rtasida og‘izdan tushmaydigan bo‘lib qolgan edi. Bu qasida 1968-yilda chop etilgan bo‘lib, muallif she‘riyatining eng avj pallasi hisoblanadi. Sharq mumtoz she‘riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-u xonlar sha‘niga, ular tomonidan amalga oshirilgan ezgu amallarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – o‘zbekimga qasida bag‘ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy pulitsistik isyon deya baholasak yanglishmagan bo‘lamiz, negaki, bunday *ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho‘ro mustamlakasi barcha millatlar «sovet xalqi» degan umumiy, sun‘iy nom bilan atalar, insonlarning ma‘lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atalib, bunday ijod na‘munasini yaratgan ijotkorlar ham siyosiy ham ijtimoiy taziq ostiga olinar edi. Ko‘rinib turibdiki adib ijodi iste‘dodining dastlabki isyoni ayni “O‘zbekim” qasidasida ulkan bir portlash ko‘rinishida, so‘z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko‘rinadi deb aytsak aslo yanglishmaymiz.*

Bu o‘rinda qasidani maxsus sharhlab o‘tirishga hojat yo‘q: u haqda ko‘p yozildi. “Asar darsliklardan joy olgan. Millatning sha‘nig‘ururi toptalgan, tarix darsliklarimizda xalqimizning shonli o‘tmishi qora bo‘yoqlar bilan bulg‘angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug‘ og‘aga, partiyaga hamdu sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug‘lovchi “O‘zbekim” qasidasi g‘ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi.”¹⁰⁸ Ehtimol, uning she‘rlarida yuzaki o‘rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg‘on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog‘orasiga o‘ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo‘liga kirmagan. U o‘tkinchi mayllarga berilmay, so‘z san‘atining azaliy

¹⁰⁷ Vohidov E. Erk saodati. 6-jild. – T.: Sharq, 2018. 117-bet.

¹⁰⁸ Ximik 1991. Ochiq ensiklopediya.

muammosi – shaxs jumbog`i, ijtimoiy adolat tuyg`usi ifodasi bilan qiziqdi.

Muallif qo`lidagi qalam go`yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so`zlar musiqa singari quyilib keladi uning she`rlari yakka so`zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, ko`p ovozli simfoniyani eslatadi, publitsistik maqolalarini o`qiganda inson ko`ngil xazinasining, tuyg`ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi.

80-yillarga kelib Erkin Vohidov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar ro`y berdi.

“Yani, avval So‘z kelgan, Olloxning “bo‘l” degan nidosi kelgan va mayda zarrachalar olamidan yangi Olam yaralgan. Agar shu ilohiy So‘z kelmaganda olam kukunligicha qolgan bo‘lardi”¹⁰⁹ Adib ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan bu asar ijodkorning butun bir hayotidagi so‘z bilan bo‘g‘liq bo‘lgan o‘y-hayollar, ilmiy-nazariy qarashlar, insoniy kechinmalar, qadriyat va urf-odatlar, milliy madaniy shuningdek diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek inson va insoniyat hayotida so‘zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi, millatlarni bir biriga bo‘g‘lovchi va shu bog‘lash orqali butun insoniyat bir-biriga naqadar kuchli bo‘g‘langanligini chuqur his etishga qaratilgan asosli qarashlari o‘z aksini topgan. Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodi butun O‘zbek xalqi tomonidan qanchalik qadrlanishi va e‘zozlanishi, asarlari xalqning barcha qatlamlari tomonidan sevib o‘qilishi hech qanday isbot talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchamizga ayon, shuni alohida aytib o‘tish joizki adibning qanchalik serqirra ekanligini u tomonidan yaratilgan sheriylar hamda nasriy asarlarida ko‘tarilgan mavzular misolida ko‘rishimiz mumkin jumladan; “So‘z latofati” kitobida “Ibtido”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes” kabi ilmiy nazariy qarashlari jamlangan maqolalari adibning naqadar falsafiy va ilmiy dunyo qarashga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

¹⁰⁹ Vohidov E. So‘z latofati. – T., 2014. 5-bet.

Yozuvchi, o‘zining nafaqat eng sara asarlari bilan balki, o‘zining badiiy publististik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabt etganligini ham alohida takidlab o‘tishimiz lozim, shuningdek adibning radio va televideniya orqali jiddiy chiqishlar shuningdek, matbuotda birin-ketin o‘tkir publitsistik maqolalar e‘lon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. So‘z latofati.
2. Ximik1991 ochiq ensiklopediya
3. Hoshimov O`. O‘zbeklar. - T: O‘qituvchi. 2006/
4. Karimov A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq. 1997 yil
5. Vohidov E. Asarlar. Erk saodati. 6-jild. – T.: Sharq, 2018.

ERKIN VOHIDOVNING “NIDO” DOSTONI TAHLILI

*Ozodaxon OTABOYEVA,
Farg‘ona shahar 3-o‘rta maktab
o‘qituvchisi*

1936-yilning 28-dekabr kuni Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tavallud topgan Erkin Vohidovning bolaligi ancha sertashvish va qayg‘uli kechdi. O‘n yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ayrilib yetim qolgach, uni Toshkentda istiqomat qiluvchi tog‘asi o‘z qaramog‘iga oldi. Shu bahona Erkin Vohidov poytaxtga keladi va Shu yerdagi maktabda tahsil ola boshlaydi. Kitobga, adabiyotga muhabbat yosh Erkinda ancha erta namoyon bo‘la boshladi. U shoir G‘ayratiy tomonidan o‘quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to‘garakda ijod sirlarini o‘rganishga kirishdi. Bu ilk ijodiy maktab uning iste'dodini charxladi, she‘riyatga havasini yanada alangalatib yubordi. Hali o‘smir chog‘laridayoq yozgan she‘rlari ustozlari tomonidan yuqori baholandi.

O‘rta maktabni a‘lo baholarga tamomlagan Erkin Vohidov Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning o‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi, aynan Shu ilm dargohida adabiyotga yanada yaqinlashdi, o‘zining ijodi ham takomillashib bordi. Oliy ta‘lim undagi adabiy bilimlarni

chuqurlashtirish bilan birga ijodiy salohiyatini ham kamolga yetkazdi. Shuning uchun ham uning «Tong lavhasi», «Kamtarlik haqida», «Buloq», «Sevgi», «Ona tuproq» kabi qator she'rlaridagi chuqur ma'no go'zal ifodalar, ajoyib tasvirlar bilan uyg'unlashib ketgan.

Universitetni tugatgach Erkin Vohidov «Yosh gvardiya» nashriyotida, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bosh muharrir, direktor, «Yoshlik» jurnalida bosh muharrir lavozimlarida faoliyat yuritdi. Ko'plab sara, sifatli asarlarning nashr etilishiga hissa qo'shdi. Ayni paytda o'zi ham «Nido», «Palatkada yozilgan doston», «Quyosh maskani», «Ruhlar isyoni» kabi ajoyib dostonlar yozdi.

Erkin Vohidovning "Nido" dostoni g'alabaning yigirma yilligi arafasida, 1964-yilda yozilgan. Shoir dostonda yuksak mahorat bilan urush tufayli ota-onasidan ayrilgan bolaning iztirobli xotiralari, o'y-fikrlari orqali urushning birgina avlod taqdiridagina emas, balki bir necha nasl hayotida ham dahshatli iz qoldirganini, avlodlar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ko'rsatib beradi.

Dastlab dostonning qahramoni bilan bolalikning zavq-shavqiga mast holatida uchrashamiz:

“Urush-urush” o‘yin bo‘lsa bas,
Titratamiz ko‘ku zaminni.
Kim o‘ylabdi deysiz u nafas
Bu urushning rostakamini.
Burchaklardan bir-birimizni
Yog‘och miltiq bilan otamiz.
Biz bilmaymiz:
Qay birimizning
O‘qqa uchdi bu vaqt otamiz.
Ko‘ksimizni ushlagancha jim
Yiqilamiz
Biz dunyoda rostakam o‘lim
Borligini qaydan bilamiz?!

Shoir qahramonini “uzoqlarda dahshat solib kezgan jang guldurosi”ning qishloq ko'chalaridagi mash'um lavhalariga, “rostakam o'lim”ning keltirgan musibatlariga ro'baro' qiladi: jangdan

qaytgan hamqishloqlaridan birining oyog‘i bo‘lsa, birining qo‘li yo‘q; boshiga o‘limning ko‘lankasi tushmagan oila deyarli qolmagan.

Musibat bola oilasini ham chetlab o‘tmagan. Otasining o‘limi haqida xat keladi. Bu mash‘um xabarning bola ruhiyatida tug‘dirgan g‘alayonlari dostonda nihoyatda ta‘sirli ifodalangan. Uning so‘zlari otasining qabri oldidagi qalb nidosi, qasamyodiday taassurot qoldiradi:

Umrinni fido etay
U jon bergan Vatanga,
El mendan rozi bo‘lsin
O‘xsabsan, deb otangga.

Dostonning qahramoni – bola otalar ishiga sadoqatli, ularning dushmanga qarshi olib borgan mardona kurashi, qahramonliklari bilan faxrlanuvchi, otalarning fidoyiligi evaziga barpo bo‘lgan hayotning qadriga yetuvchi, ular kabi xalqqa, Vatanga beminnat xizmat qilishga bel bog‘lagan avlodning umumlashma obrazi darajasiga ko‘tariladi. Ayni paytda bu qahramonning ahdi-paymonida, e‘tiqodida otalar, tengdoshlar oldidagi burchini, vazifasinigina emas, kelajak, o‘zidan keyingi avlod oldidagi mas‘ulligini chuqur his qiluvchi insonning qalb amri, o‘y-maqsadi ham ifodalangan:

Bu tashvishli dunyo,
Sermashaqqat olam,
Bizning yelkamizda qoldi-ku, do‘stim!
Uni bo‘ronlardan
Quyoshli yo‘llardan
Nurli istiqbolga olib o‘tamiz.
Biz uni olganmiz
Tabarruk qo‘llardan
Tabarruk qo‘llarga eltib tutamiz.

O‘quvchi “Nido” dostonini zerikmay, qiziqish, hayajon bilan o‘qiydi. Bolaning monologi qalb nidosi tarzida ifodalanishi, bola ruhiyatiga mos ravishda ifodaning, ohangning tovlanishi dostonni o‘qishli qilgan. Bundan tashqari, dostonda izohtalab so‘zlar yo‘q. Doston g‘oyat soda, ravon, hammaga tushunarli tilda yozilgan.

Shoir sifatlash, o‘xshatish kabi badiiy ifoda vositalaridan o‘z oldiga qo‘ygan ijodiy niyatiga mos holda mohirona foydalangan, asarning ta’sirchanligini oshirishga erishgan.

Ona nutqida qo‘llangan “urushsiz dunyo”, “otash-alanga”, “dahshat ummoni” kabi sifatlashlar jabrdiyda, ammo farzandining ertasiga umidvorlik bilan qarovchi onaning holatini ta’sirli ifodalagan. “Otashin falak”, “otashin tuproq”, “yog‘och arg‘umon” sifatlashlari esa, bolalikning sehrli og‘ushida g‘am-tashvishsiz yelday uchayotgan bolaning xatti-harakatlariga juda monanddir.

Qishloq ko‘chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir...
Mayli edi otamdek yashab,
To so‘nggi dam unga o‘xshasam...

kabi parchalarda qo‘llangan o‘xshatishlar ham shoirning ifodalamoqchi bo‘lgan fikriga mosligi, qahramon ruhida kechayotgan tug‘yonli holatni o‘quvchi qalbiga ko‘chirishga yordamlashishi jihatidan tahsinga loyiqdir.

Keng tarqalgan adabiy janrlardan biri dostonidir. Dostonda katta hayotiy voqea-hodisalar shoirning shaxsi va qahramonning kechinmalari orqali ifodalanadi. Lirik ifoda bilan epik tasvir qorishiq holda beriladi. Shuning uchun doston liro-epik asar ham deyiladi. “Nido” doston janrining xuddi ana Shu jihatlarini o‘zida mujassam etgan asardir. Uning eskirmaslik siri ham ana shunda bo‘lsa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Ensiklopedik lug‘at. – Toshkent, 1988.
2. O‘zbek adiblari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2016.

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARINING BADIY TALQINI

*Umida BUXOROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola Erkin Vohidov ijodi haqida fikr yuritilgan. Asarlari asosan dostonlarining badiiy talqini yoritilgan. Bundan tashqari asarlari mohiyati, dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar fikrlar asosida isbotlab berilgan. Urushning ayanchli tasvirlarini, minglab chaqirim uzoqdagi insonlar hayotiga ham rahna solganligini asarlarida keltirganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijod, fojia, doston, obraz, falsafa, fikr, drama, tarjima.

Erkin Vohidov o‘zligini she‘r, g‘azal, qasida, doston, drama kabi bir qancha janrlar bilan namoyon etib kelmoqda. Uning she‘rlarini ahli zufaro hamisha zavq-shavq bilan mutolaa qilishiga Shubha yo‘q. Erkin Vohidov bilan ijod dunyosiga deyarli bir vaqtda kirib kelgan, qariyb yarim asr yonma-yon turib ijod etgan Robert Rojdestvenskiy qalamkash do‘sti haqida yozadi: “Erkin Vohidov olamiga marhamat qiling, uning o‘y, anduhu quvonchlariga sherik bo‘ling. Ishonaman: Siz bu ajoyib shoir bilan qadrdon do‘st bo‘lib qolasiz”.¹¹⁰

Har bir badiiy asar o‘z uslubi bilan tug‘uladi. Asardagi uslub ijodkor uslubi bilan qo‘shilib ketadi. E. Vohidovning “Inson”, “O‘zbekim”, “Istanbul fojeasi”, “Palatkada yozilgan doston”, “Nido” asarlari betakror hamda o‘z uslubiga ega. Bevosita shoir shaxsiy hayoti, tarjimai holi – fashizmga qarshi urush qurboni bo‘lgan o‘z otasi haqidagi “Nido” dostoni lirik qahramonining qalb sadosi, anduhlari, Abdulla Qahhor yozganidek, million-million kishilarning nidosi, urushga nafrati, urushda halok bo‘lganlar xotirasiga ehtiromi kabi yangraydi. Unda urushning daxshati Shunchaki oddiy tasvirlanmagan. Hali yosh bolaning ongida urush oddiy “o‘yin” edi. Burchaklarda bir-birini yog‘och miltiq bilan otishib o‘ynagani, yolg‘ondan o‘lgani, hammasi uning ongida osongina jonlangan edi. Haqiqiy o‘lim, qonli urushning daxshatlarini his qilmagan edi.

¹¹⁰ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. (She‘r qolur, shoir qolur). T., Sharq – 2007.

Rustamning akasi qo‘ltiqtayoqda, bir oyoqsiz qaytishi, Xol aka hatto o‘g‘lini quchishga ham qo‘li yo‘q bo‘lib qaytib kelganligi, Tal‘atning esa otasidan qoraxat kelganligi va Shunda hatto muallim ham yig‘ladi deyish orqali butun bir xalq urush tufayli ko‘z yosh to‘kdi demoqchidir. Sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov ta‘biri bilan aytganda “... urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o‘tkazdi. Mushkul damlarda iymonini, insonligini saqlab qolgan otalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o‘rnak bo‘lsa ne ajab!” Ushbu doston orqali kitobxon urushning fojiali oqibatlarini, inson ongi, ruhiyatidagi o‘zgarishlar, ochlik muhtojlikning oqibatlaridan voqif bo‘lgan holda, bugungi kunga shukronalar bilan yashash, qadriga yetish hayotda har qanday vaziyatlarga chidamli bo‘lish kabi hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi. Bu bizga aytilgan yigirmanchi asr nidosidir.

Erkin Vohidov asarlari ichida eng yuqori cho‘qqiga erishgan asarlaridan biri “Ruhlar isyoni”dir . 1979-yilda yozib tugatgan “Ruhlar isyoni” dostonida milliy istiqlol to‘g‘risida so‘z ochish aslo mumkin bo‘lmagan bir zamonda mustabid tuzum qatag‘oni qurboni Fitratning “Chin sevish”, “Hind istilolchilari” asarlari izidan borib, dekoratsiyani Hind eliga ko‘chirib, shoir Nazrul Islom timsoli orqali o‘z ona yurtida erk, ozodlik yo‘liga hayotini tikkan Qodiriy, Cho‘lpon, Fitratlar qismatiga ishora etishga, rivoyat-u, hikoyatlar orqali shaxs erki g‘oyasini umuminsoniy miqyoslarda turib ifodalashga erishadi.¹¹¹ Unda turlicha falsafiy fikrlar, rivoyatlar hamda shoir haqidagi “bo‘lmagan” gaplarning aytilganini uchratishimiz mumkin. Asar boshdan oyoq ziddiyatlar tasviri asosida yozilgan. Dostondagi Nazrul Islom obrazi – ozodlik, hurlik, adolat hamda erk timsolidir. Uning bahonasida erkinlikni kuylagan. Nazrul Islom tilidan aytilgan “Tug‘ulgansan ozod, mudom Ozod bo‘lib qol!” so‘zlari asarga epigraf qilib olingan. Bu so‘zlar zamirida qancha ma‘no bor. Haqiqatan ham bu hayotga keldingmi, demak doim ozod bo‘lib yasha demoqchi. Jaholat to‘g‘risida rivoyatda:

To biz uchun jon berganlar –
Ruhi mangu shod bo‘lsin.

¹¹¹ Normatov U. Mohiru mehru mahorat “ O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi

misralari orqali yurt uchun yonganlar, jonini fido qilganlar, jadidlarning ruhi shod bo‘lishini tilamoqda. O‘sha davrda jadidlar nomini ochiqcha tilga ololmaganligi uchun Shu yashirin satrlar orqali ifodalab bergan.

“Palatkada yozilgan doston” da tezkorlik, reportajsiyoqlilik, voqealarning dam rivojlanib, dam pasayib turishi seziladi. Shu dostonda o‘quvchi qizning O‘zbekiston boshlig‘i nomiga besh so‘m jo‘natishi, bu pulga bolalar bog‘chasi qurishni so‘rashi kitobxonni titratib yuboradi.¹¹² O‘zbek qizining ko‘kragiga urub “Men o‘zbek qiziman” deyishi kishining yuraklarini larzaga solmay qo‘ymaydi albatta. Zilzila Toshkentda emas, balki uning yuragida bo‘lgandi. Dostonda “minbarda turib, burch, vijdon haqida ko‘ksiga urib, xalqiga joni fido bo‘lishini aytgan yigitning joni xalqumiga kelgani, o‘sgan yeriga qalbi payvandligini aytib ertasi kuni tonggi reys bilan Qrimga uchganligi”ni aytib ustidan ochiqcha kulib qo‘ygan.

Erkin Vohidov bir necha kitoblar muallifi, yuzlab she‘rlar, maqolalar, dostonlar, adabiy talqinlar muallifidir. Har bir asarida shoir uslubi o‘zgacha aks etgan. U o‘z xalqi qalbiga chuqur kirib borgan ijodkorlardandir. Shoir o‘zbek she‘riyatiga yangicha fikr, yangi shakllar, yangi obraz, yangicha ohang, yangicha usul va vositalar olib kirdi va uning tamoman yangilanishiga munosib bag‘ishlaydi. Urush davridagi insonlar qismati o‘z asarlarida yoritib beradi. Xalqimiz mehnatini olqishlaydi. Demak, shunday shoirni sevmalik, asarlarini chin dildan suyib mutolaa qilmaslik mumkin emas!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq. 2018.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq. 2007
3. Normatov U. Mohiru mehru mahorat // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.

¹¹² Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. (She‘r qolur, shoir qolur). T., Sharq – 2007.

ADABIYOT DARSLARIDA ERKIN VOHIDOV IJODINI O‘RGATISH USULLARI

Gulbahor BERDIYEVA, Lobar MELIYEVA
Guliston shahar matematika va fizika faniga
Ixtisoslashgan 2-sonli IDUM o‘qituvchilari

Annotatsiya. Yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, shakllanishida adabiyotning ham muhim o‘rni bor. Maktab o‘quvchilarida adabiyotga muhabbat tuyg‘usini o‘stirish, Shu asosda badiiy didni shakllantirish, asarni tahlil qilish malakasiga ega bo‘lish, inson va uning ichki olamini idrok etishga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv dasturiga kiritilgan Erkin Vohidov ijodiga mansub asarlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Shoir, qasida, nido, tinchlik, erk, ozodlik, mustaqil o‘qish.

Joriy yilda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Erkin Vohidovning badiiy ijodi va ma’rifiy faoliyatida Vatan va xalqqa sodiqlik, el-yurt kamoli va ravnaqi orzusida yashash kerakligi keng ko‘lamda ifodalagan. Shoir asarlarida o‘zbek xalqiga hos insoniylik, samimiyat, mehr-oqibat, Vatan va xalqqa muhabbat va sodiqlik, fidoyilik kabi fazilatlar o‘z aksini topgan.

Adabiyot darslarida yozuvchi va shoirlarning tarjimai holi, ya’ni hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni o‘quvchi ongiga singdirish ham juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu ma’lumotlar ko‘pincha asarning g‘oyaviy-badiiyligini anglashga, asarlarining ijtimoiy-estetik mohiyatini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi. Adabiyot darslarida yozuvchi yoki shoirlar o‘tilganda birinchi soati hayoti va ijodiga ajratiladi. Biz, avvalo, asar muallifining hayot yo‘li va ijodiga oid ma’lumotlar bilan tanishtirishimiz kerak. Bu o‘quvchida asarni chuqur badiiy tahlil qilish, uni anglash imkonini beradi.

Amaldagi o‘quv dasturiga asosan, Erkin Vohidov ijodi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-, 6-, 11- sinflarida o‘rganish nazarda tutilgan. 5-sinf adabiyot darsligida “Nido” dostonidan parcha (3 soat), 6-sinf adabiyot darsligida “O‘zbekim” qasidasi (3 soat), 11-sinf adabiyot darsligida “Ruhlar isyoni” dostonidan parcha, “Inson”

qasidasi, “Yaxshidir achchiq haqiqat” (2 soat) she’rini o‘rganish ko‘zda tutilgan. Badiiy asarlar ijodkor shaxsiyatining ifodachisi hisoblanadi. O‘quvchi buni anglab yetgandan keyingina asar mohiyati to‘laroq va teranroq tushuniladi. Shundagina muallifning adabiyotga, jamiyatga, Shu xalq va millatga bo‘lgan muhabbati va xizmatlari to‘la idrok etiladi. Ijodkorning hayot yo‘lini, uning atrofdegilar bilan munosabatini, sevgi va sadoqatini aynan o‘z qo‘li bilan yozilganini o‘quvchiga yetkaza olsak, uning yuragida ijodkor asarlariga muhabbat tuyg‘usi shakllanadi.

Erkin Vohidov she’riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarida birdek yuksak saviyada ijod qilgan. Shoir asarlarini o‘rganish, so‘z qo‘llash mahoratini o‘quvchiga yetkazishda pedagogik mahorat, bilim zarur. Taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatov shoir ijodini anglash uchun kitobxondan zukkolik, malaka talab etilishini o‘rinli ta’kidlaydi: “Shoir she’rlari sirtdan sodda, yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha uchun birdek tushunarli tuyulsada, ulardagi tagma’noga yetish, ularni uqish oson emas. Ular “xos odamlar”ning teran tahlili, o‘y-mushohadalari, xilma-xil talqinlari uchun boy ozuqa beradi. “O‘zbekim”, “Inson” qasidalarini, “Ruhlar isyoni” dostonini anglab etish uchun qanchalar bilim, boy hayotiy va adabiy tajriba kerakligi ayon. Bir ma’rifiy davrada bir donishmand alloma “Yoshlik devoni”dagi “Uzum” radifli g‘azalni yarim soat davomida baytma-bayt yod aytib, ularni birma-bir sharhlab, oddiy tuyulgan satrlar bag‘ridagi biz xayolga keltirolmagan turli ma’nolarni batafsil tushuntirib bergan, oxiri “Ey dilorom, senga Erkin tutdi maydek she’rini, Dil xumida necha yil Qon bo‘ldi bu devon- uzum” satrlarini “shoh bayt” deb atagan edilar”.

Maktabda hajm jihatdan katta asarlar bir necha darsda o‘rganiladi. Har bir adabiyot darsi oldingi darsning uzviy davomi va navbatdagi darsning boshlanishi bo‘lishi kerak. Darslarning uzviy birlikda bo‘lishi o‘quvchilarda o‘rganiladigan mavzu, badiiy asar haqida bir butun taassurot qoldiradi. “Ruhlar isyoni” dostonining hajmi katta bo‘lgani uchun darslik imkoniyati hisobga olinib, ayrim qismlari berilgan. Asar voqeaband bo‘lmagani uchun ma’nosini anglash qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘qituvchi darsning mazmunigagina emas, balki uning o‘quvchilarda jo‘shqin kayfiyat uyg‘otadigan bo‘lishiga ham e’tibor berishi kerak. Har bir dars o‘quvchini o‘ylashga, mustaqil fikr yuritishga majbur etishi kerak.

“Ruhlar isyoni” dostoniga isyonkor bengal shoiri Nazrul Islom hayoti, fojiali taqdiri asos qilib olingan. Nazrul Islom XX asr boshlarida mavjud tuzumga qarshi ijodi bilan Hindiston yarimoroliga kuchli ta’sirini o’tkazgan shoir. Mustamlakachilik zulmiga nisbatan isyonkor she’rlar yozgani, xalqini ozodlikka chorlagani uchun qiynoqqa solishadi, es-hushidan ayirishadi.

E.Vohidov dastlab Nazrul Islom boshidan kechirgan fojiali hayotini hikoya qiluvchi she’riy qissa yozadi. Keyinchalik 1965-yilda Nazrul Islomning fojiali o’limidan ta’sirlanib, “Ruhlar isyoni” dostonini yaratadi. Shoirga aytmoqchi bo’lgan fikrini aytish uchun Nazrul Islom hayoti bir vosita bo’lgan. Shoir dostonida Nazrul Islomning erk uchun ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashi, bu yo’ldagi orzu-armonlari, alam-iztiroblarini bo’yu-basti bilan gavdalaniradi. Yana bir tomoni, Shu bahona shoir hayoti, qismati, kuzatishi, ko’ngil dardlari, kechinma va xulosalarini bayon etgan. E.Vohidov “Ruhlar isyoni” dostoni haqida: “Asar garchi Nazrul Islom haqida bo’lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o’zimning, umuman, shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma’nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati o’y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko’rishga intildim”, – deya yozadi. Asarni o’qigan o’quvchi erk tushunchasi, ozodlik-ne’mat ekanligi va shoirlik qismatini idrok etadi.

Erkin Vohidov she’riyatining bosh mavzularidan biri – millatparvarlikdir. O’zbekiston haqida, shu yurt egalarining ko’p ming yillik tarixi haqida aqalli bir misra bo’lsa-da, she’r yozmagan shoir bo’lmasa kerak. O’zbek she’riyatida ona Vatanimizga, xalqimizga bag’ishlab ko’plab she’riy asarlar yaratilgan. Hech Shubhasiz, “O’zbekim” qasidasi bu chaman ichindagi bir sara guldir. Shoir o’zbek xalqining uzoq o’tmishini o’rganib, maqtasa arziydigan tarixini qalamga olgan. Qasida shoirning xalqiga, qadimiy tarixiga bo’lgan mehr-muhabbati satrlar orqali o’quvchi qalbiga ham o’tgandek bo’ladi. Asar o’quvchilarni boy tariximizni bilishga, millatimizni sevishga undaydi. E.Vohidov she’rlari turli mavzularda bitilgan bo’lsa-da, Vatan madhini kuylab yozgan she’rlari ijodidan alohida o’rin oladi. U vatanni ko’proq sevishi, ko’proq qadrlashi, insonparvarligi, vatanparvarligi kishida alohida taassurot uyg’otadi.

Tarixingdir ming asrlar,
Ichra pinhon, o‘zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.

(“O‘zbekim” qasidasi)

Darhaqiqat, bu misralarni o‘qiganimizda qulog‘imizga biz bolalikdan eshitgan mashhur qo‘shiq jaranglaydi. Bu qo‘shiqning misralarini marjonday ipga tergan, har qanday insonning his-tuyg‘usini qo‘zg‘ata olgan Erkin Vohidov butun bir ijodi bilan o‘zbek xalqining suyuqli dilbandiga aylana olgan adibdir.

Shoirning yana bir o‘qilishi va yodlanishi oson bo‘lgan “Nido” dostoni ikkinchi jahon urushi kulfatlari, g‘am-alamlari haqida bitilgan. Asar urush yillaridagi og‘ir hayotni, ayriliq azobi, sog‘inch hissini ifodalaydi. Asar qahramoni yosh bolaning xarakteriga xos xususiyatlar mahorat bilan yoritilgan. Dostonda urushdan oyoqsiz kelgan Rustamning akasi, qo‘lsiz qaytgan Xol amaki va Tal‘atning otasidan qora xat kelgan epizodlar urush fojialarini yanada bo‘rttiradi. Asarda Vatan himoyasi uchun kurashganlar, ularning ortida qolgan farzandlari, onalari nidosi tinchlik uchun kurashga undaydi. Ayniqsa, jamiyatimizda islohatlar kechayotgan bugungi yangi davrda biroz unutilayozgan ikkinchi jahon urushi front orti voqealari, qayg‘u-quvonchlarini yana bir bor eslaymiz. Doston farzandlarimizga bugungi dorilomon kunlarni avaylashga, asrashga, qadrlashga o‘rgatadi. “Nido” dostoni shu jihatdan ham va o‘qimishliligi uchun bugungi kunda kitobxonlar tomonidan sevib o‘qishga arziydigan va sevib o‘qilayotgan asardir.

5-sinf o‘quvchisining yoshi jihatidan biroz kichikligini inobatga olinsa, dastlab o‘qituvchi tomonidan adabiyot darsligida berilgan “Nido” dostoniga kirishdan oldin, adib hayot eslatib o‘tiladi. Sababi asarning mazmun-mohiyati urush davri (aynan shoirning o‘z hayoti) haqidaligi inobatga olinsa, Shu yo‘ldan borish to‘g‘ri sanaladi va asarga kirish qism sifatida o‘qituvchi tomonidan “Nido” dostoni o‘qiladi. Bu birinchidan, o‘quvchi ongida o‘sha davr muhitini his etish, tushunish, ikkinchi tomondan esa ifodali va obrazli o‘qish texnikasining rivojlanishiga omil bo‘ladi. She‘r matnini maromiga yetkazib o‘qish uning zamirida yotgan ma‘no, tuyg‘ularni to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidov ijodini o‘rganish sinfdan tashqari o‘qish bilan mustahkamlanadi. Chunki sinfdan tashqari o‘qishsiz ta’lim samaradorligi va o‘quvchilarning bilimini oshirish mushkul. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Misol uchun, o‘quvchilar qiziqish doirasiga ko‘ra “Donishqishloq latifalari”, “Istanbul fojiasi”, “Oltin devor” hamda xohlagan she’rlari, asarlarini mustaqil o‘qish sifatida tavsiya etish mumkin.

Demak, biz adabiyotni o‘rganish va o‘rgatish yo‘llarini ham bilishimiz lozim. Bu fanning maqsadi: o‘quvchi-yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, yuksak ma’naviyatga chorlash, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdan iboratdir. Shunday ekan, adabiyot darslarida mavzularini o‘rganishda ham uni to‘g‘ri tashkil qilish, darsdagi har bir usul o‘z o‘rnida, samarali va to‘g‘ri qo‘llanilishi lozim. Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini uning dunyoqarashini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, unga to‘g‘ri baho berish, asarlariga qiziqish uyg‘otish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil izlanishga chorlash uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2016.
2. Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2002.
3. Vohidov E. Shoiru, she’ru, Shuur. – T.: Yosh gvardiya, 1987.
4. To‘xliiev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. To quyosh sochgayki nur. E.Vohidov zamondoshlari nigohida. – T.: O‘zbekiston, 2018.

IV. ERKIN VOHIDOV IJODIDA MUMTOZ AN'ANALAR

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA "GO'ZALLIK" TUSHUNCHASINING BADIY TALQINI

*Mahliyo MIRSOATOVA,
O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Erkin Vohidovning ijodida "go'zallik" tushunchasi qay tarzda ifodalanishi, shoir badiiy poetik obrazlar orqali tasvirga olgan tushunchalar xususida so'z boradi. Shoir chiqargan xulosalar asosida tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar. She'riyat, ijodiy faoliyat, soddalik, kamtarlik, go'zallik, etuklik, buyuk amaliyot.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov o'zbek She'riyatiga ulkan hissa qo'shgan, uni boyitgan, parvozlantirgan, hassos ijodkordir. Uning She'rlari sodda ko'rinsada, ulkan mazmun kashf etadi. Erkin Vohidov ijodi haqida adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov shunday yozgan: "Erkin Vohidov XX–XXI asrda keng quloqch yozib ishladi. O'zbek xalqining farzandi bo'lganligi bilan hammadan ortiq faxrlanardi. Uning faxrlanishi buyuk amaliyot bilan belgilanardi. U hech qachon aravani quruq olib qochmasdi, hech qachon amaliy ish bilan mustahkamlanmagan quruq so'zlarni tiliga ham olmasdi. U yosh chog'idan ota-onadan ayrilib, qarindoshlari tarbiyasida o'sdi va xalqini ota o'rnida ko'rdi. Sadoqati va muhabbati faqat xalqqa edi. Xalq deb kuydi, yondi, tinim bilmay ijod qildi"¹¹³. Yuqoridagi firklardan ko'rinadiki, shoirning ijodiy faoliyati, ona xalqiga, vataniga, eng muhimi insonparvarlikka qaratilgan. Chunki shoirning o'zi ham buyuk bir shaxsga aylangan –inson edi.

Erkin Vohidovni samimiy shoir sifatida yaxshi bilamiz. Samimiylik, kamtarinlik va insoniylik uning ijodi mavzu ko'lamining bosh maqsadi bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, soddalik uning ijodida

¹¹³ Гафуров И. Адабиёт – халқнинг юраги. – Тошкент: Adabiyot, 2021. 283-6.

muhim rol o'ynagan. Shoir o'z ijodida soddalik – go'zallik, etuklik, barkamollik tushunchalarini ifodalaydi. Buyuklikning siri soddalikda bo'lsa kerak nazarimizda. Erkin Vohidov she'rlarini o'qiganda, ular dastavval go'yo qo'shiq bo'lib ko'ringandek, keyin qog'ozga ko'chirilgandek taassurot qoldiradi kishida. Shoirning “Bag'ishlov”, “Kavkaz she'rlari”, “Azganush”, “Fuzuliy haykali qoshida”, “Go'zallik” kabi talay she'rlarini sanash mumkin. Ayniqsa, uning “Go'zallik” she'ri alohida kasb etishini ta'kidlash joiz. Uncha hajmi katta bo'lmasada, bor yo'g'i sakkiz misradan iborat ushbu she'r, o'ziga salmoqli va vazminda ma'noni yuklab olgan. Go'zallik haqida akademik-shoir G'afur G'ulom go'zal satrlar bitgani bizga ma'lum. Mashhur jadid Shunos shoir Cho'lpon chiroyli, mazmundor baytlar bitganini yaxshi bilamiz. Ammo Erkin Vohidovning “Go'zallik” she'ri, har ikkala shoir she'rini takrorlamagan holda, alohida poetik mazmun kashf etgan:

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko'rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.

Shoirning ushbu satrlarda ko'rinadiki, olam va odam tushunchasi boshqa ijodkorlarning fikri o'yini, poetik tushunchasini takrorlamasdan, yangicha talqinda, yangicha yo'sinda poetik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Insonning dunyoga kelishi, uning olamga sayqal berish, uni rivojlantirish, barkamollikka erishtirish, go'zallashtirish bular hammasi insonning vazifasiga kirishini tasvirga olganini guvohi bo'lamiz. Dunyoni go'zal qilib ko'rsatish, yo'q narsadan bor qilish, chiroyli osmono'par binolar qurish, insonni ko'zini qamashtiradigan bog'u rog'lar barpo etish insonning vazifasi deb biladi va shu vazifaga boshqalarni undashga choralydi:

Shundan beri inson tinmayin
Shu er uzra ter to'kar hamon.
Erni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

Inson go‘zallikni barpo qilishi uchun, tinmay mehnat qilishi, “ter to‘kishi”ni alohida qalamga olgan shoir, qanchalik go‘zallikni yuzaga keltirgani sayin, insonning o‘zi ham yanada go‘zalashishini ta’kidlaydi. Bu misralar inson go‘zallik uchun, yaxshilik uchun, yaxshi amallar uchun dunyoga kelganini anglash mushkul emas ushbu baytlardan. “Yaxshidan bog‘, yomondan dog‘ qoladi” degan mashhur maqol bor xalqimizda. Maqoladgi ushbu ifoda shoir satrlarida qat’iy mazmunini topgan desak xato bo‘lmas.

Erkin Vohidovning “Go‘zallik” nomli she’ri tahliliga e’tibor qaratgan adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Abdug‘ofur Rasulov shunday yozgan edi: “Erkin Vohidov go‘zallikni birinchidan, keng miqyosda – olam va odam bog‘liqligida oladi. Shoir olamning go‘zallashuvi, odamning ulug‘lashuvi “tinmayin to‘kilgan ter samarasi” ekanligini bildiradi”¹¹⁴ deya fikr bildirgan olim, shoir ijodini yanada mukammalligi haqida shunday degan edi: “Erkin Vohidov yarim asr muqaddam she’riyat olamiga shogird sifatida kirib keldi. Lekin bu olamda u o‘zini zinhor mehmon deb bilmadi. Aksincha, “she’riyat dunyosi keng, gulzori ko‘p, bo‘stoni ko‘p”ligini sira unutmadi. Hamma zamonlardagi, barcha yurtlardagi shoirlarning tili har xil, dili, dardi, armoni, intilishlari, orzulari bir xil bo‘lgan. Har bir shoir o‘z qalbini, orzu-armonlarini o‘ziga xos uslubga, hech kimnikiga o‘xshamaydigan badiiylikda aks ettirgan. Haqiqiy shoir qalbini, o‘zligini to‘la ifodalash imkonini hamisha boyitib borgan”¹¹⁵. Aytish mumkinki, shoirning go‘zallik haqidagi tushunchasi inson kelajagini, inson taqdirini ifoda etgan tushunchadir. Erkin Vohidov she’riyati sodda va samimiy she’riyat ekanligini ta’kidlash bilan birga, adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlari bilan dalillamoqchimiz: “Erkin she’rlarida yurak qa’ridan otilib chiqadigan mayinlik, o‘quvchi qalbiga darrov singib ketadigan latiflik bor. Uning she’rlarida shakl mukammal, musiqiylik kuchli, bular she’rlarga takrorlanmas rang bag‘ishlaydi, ularni hayotiy va sodda qiladi. Erkin hayotdagi juda oddiy hodisalarni, buyumlarni ham poetik obrazga aylantira oladi, ular zamiridagi poeziyani topa oladi”¹¹⁶. Haqiqatan olim fikrlarini davrm

¹¹⁴ Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМНК, 2007. 242-б.

¹¹⁵ Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМНК, 2007. 245-б.

¹¹⁶ Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 161-б.

ettirib aytmoqchimizki, bular barchasi – shoir adabiy-estetik qarashlarini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov nazmiy nazmiy merosi iste’dodlarning bugungi va kelajak avlodlari uchun benazir ijodiy maktab o‘laroq bundan keyin ham millat adabiy-estetik tafakkuri rivojiga xizmat qilishidan umidvormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016.
2. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1970.
3. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – Toshkent: “Sharq” NMNK.
4. G‘afurov I. Adabiyot – xalqning yuragi. – Toshkent: Adabiyot, 2021.

ERKIN VOHIDOV MUXAMMASLARIDA SALAFLARIGA IZDOSHLIK

Dilrabo Qozoqboyeva
O‘zbekiston Milliy universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning Fuzuliy, Navoiy va Bobur g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari haqida so‘z boradi. Salaflariga izdoshlik, an‘ana va o‘ziga xoslik masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Fuzuliy, Navoiy, Bobur Erkin Vohidov, muxammas, an‘ana va izdoshlik.

Annotation: This article deals with the muhammas of Erkin Vahidov connected to the ghazals of Fuzuli, Navoi and Babur. Its predecessors cover issues of follow-up, tradition and identity.

Keywords: Fuzuli, Navoi, Bobur Erkin Vahidov, muhammas, tradition and succession.

Erkin Vohidov lirikasining nafis, diltortar jihatlaridan biri bu – mumtoz adabiyot an’analarini XX asr adabiyotida namoyon etishidir. Shoir safdoshlaridan aruzda ijod etishi, ayni aruz vazniga juda kam shoirlar murojaat etgan bir paytda qo‘l urishi Erkin Vohidovning ijodiy jasoratidan dalolatdir.

Aruz vaznida she‘r yozish shoirdan muhim tayyorgarlikni, nazariy ilmlarni puxta o‘zlashtirishni talab etadi. Erkin Vohidov mumtoz asarlarni, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Umarxon Amiriy, Muhammadrizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, kabi so‘z ustalarining g‘azallarini, muxammaslari, mustazodlari va boshqa mumtoz lirik janrlardagi she‘rlarni sevib o‘qigan va salaflariga ergashib g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan.

Shoir nafaq o‘zbek mumtoz adabiyoti, balki Sharq mumtoz poetikasining nuktadon bilimdoni hamdir. Fuzuliy, Navoiy, Bedil ijodini puxta o‘zlashtirgan va ularga izdoshlik qilgan. Zotan, Fuzuliy, Navoiy, Bedilni bilmaslik har qanday shoir-u olim, adabiyotshunos uchun ayb sanaladi. *Fuzuliyning “Etmasmidim”* radifli g‘zalidan ilhomlanib, taxmis bog‘laydi:

O‘lmasam zor anga, tarki zor etmasmidim,
Ishq koridin kechib bir o‘zga kor etmasmidim,
Gar junun yor o‘lmasa holimdin or etmasmidim,
Aql yor o‘lsaydi tarki ishqi yor etmasmidim.
Ixtiyor o‘lsaydi rohat ixtiyor etmasmidim¹¹⁷.

Taxmisda shoir ishqqa yetishish uchun o‘zni tark etish, o‘zdan balki majoziy ishqni tark etib, Ilohiy muhabbatga yetishishni ixtiyor etadi. “Solikni hurlik va farog‘atga yetkazadigan maqom tarkdir. Uning uchun tarkdan ortiqroq bir nima yo‘qdir”¹¹⁸. Sharq mutasavviflari Allohdan o‘zgaga ko‘ngil berishda teran ma‘no ko‘rmaganlar. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov tasavvufda tarki dunya haqida shunday deydi: “Tark yo‘li – insonni insonga qaramlikdan, tobelikdan qutqazadigan qanoat, hurriyat yo‘li bo‘lib,

¹¹⁷ Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma: Birinchi jild. - T.: “Sharq”, 2000. – B. 204.

¹¹⁸ Aziziddin Nasafiy. Tasavvufda inson masalasi. - Istanbul:1990, - B. 196.

uning kerakligini kereaksizdan, ma'nini ma'nisizlikdan, boqiyini foniydani ajratishdagi xizmati katta. Umuman, tom ma'nodagi tark shavqi va sururu bilan yashsash odamni barcha mahluqotlardan yuksakka ko'taradi, eng hayirli, eng muqaddas haqiqatlar ravnaqi uchun kuch bag'ishlashga yo'naltiradi"¹¹⁹. Taxmisdan Erkin Vohidovning Sharqning buyk mutasavvif shoirlari ijodidan ham xabardorligini, voqelikni ham, hayot hodisalarini ham shu nuqtai nazardan talqin qilganligini kuzatishimiz mumkin.

Shoir Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslarida esa, Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslariga nisbatan majoziy ishq, ma'shuqa muhabbatini tarannum etadi. *Navoiyning*:

Husn ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach ¹²⁰ –

mat'lali g'azaliga quyidagicha muxammas bog'laydi:

Nega ul kun sochlaringni anbar afshon aylading,
Ro'zigorim tiyra, ko'zim kavkabiston aylading.
Qo'lga qo'ygachmu xinolar yo dilim qon aylading,
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Erkin Vohidov muxammaslarida salafлари an'analarini davom ettirib, mazmunan yangicha tuyg'ular berib, Navoiyning fikrlarini tadrij asosida rivojlantirib, mavzu ko'lamini kengaytirib turfa badiiy san'atlar vositasida ifodalaydi. Taxmisdan mumtoz badiiyat an'analarini saqlab qolish bilan birga, o'quvchiga zamonaviy ruhda yetkazib berish mahoratini ko'ramiz. Shoir mumtoz adabiy timsollarga zamonaviy rux bag'ishlaydi. "Erkin Vohidov ...o'zi bilan birga she'r xazinalarini olib yuradi. Uning bilan birga Navoiy yurganidek, Fuzuliy yurganidek... Ularning she'rlarini o'z she'rlaridek o'qiydi. Ularni so'zlatadi, tilga kiritadi – yetgan yeriga

¹¹⁹ Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. 4-kitob. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – B. 59.

¹²⁰ Alisher Navoiy. MAT. I tom. Badoye ul-bidoya. 1983. – B. 76.

she'r xazinalarini yetkazadi, borgan yeriga she'r xazinalarini yetaklab boradi¹²¹.

Mumtoz adabiyotdagi “ko‘z”, “qosh”, “kiprik”, “lab”, “xol” kabi obrazlarining badiiy takomilini Erkin Vohidovning Bobur g‘azaliga bog‘lagan muxammasda ko‘rishimiz mumkin:

Qaro bo‘lmish, ne tongkim, ro‘zgorim qora ul ko‘zdin,
Qaro o‘q otdi kipriklar, ko‘ngilda yora ul ko‘zdin,
O‘zim sobitman ishqda, ko‘z yoshim sayyora ul ko‘zdin,
Ko‘z ochg‘il boqqankim, bolmisham bechora ul kozdin,
Lab ochg‘il so‘rg‘alkim, tashna bo‘lmishman zilolingga.

Keyingi bandlarda “gul”, “bulbul”, “ko‘ngil”, “kabutar”, “maktub”, “noma” kabi obrazlarga murojaat etib Bobur uslubini namoyon etadi. Mubolag‘aning turli korinishlarini qo‘llaydi: “yuzin ko‘rgach, ajab yo‘qdur, kuyib ketsang”, “qaro o‘q otdi kipriklar”, “asiri bandi zulfingman”, “hayotim mayli barbod et”. Erkin Vohidov muxammaslarida mumtoz adabiyot an‘analaridan chekinmaydi, aksincha, badiiy sayqal beradi. Shaklan mumtoz lirik janrlarning nazariy qonun-qoidalarini saqlagan holatda, mazmunan boyitadi.

Umuman olganda, Erkin Vohidov Fuzuliy, Navoiy va Bobur g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida salaflari ijodidan ta’sirlanganadi, g‘azallarda keltirilgan obrazlarni taxmisdan badiiy rivojlantiradi, mazmunan boyitadi. Ilmi bade’ qonun-qoidalariga amal qiladi. Qofiya va vazn xususiyatlarini saqlashga harakat qiladi. Badiiy san‘atlar borasida salaflari yo‘lidan borib, ajoyib mubolag‘alar yaratadi. Erkin Vohidovning mumtoz lirik janrlarda mohirona ijod qilishi nafaqat buyuk shoir, balki nazariy bilimlarga ega olimlik sifatlaridan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. MAT. Birinchi tom. Badoye ul-bidoya. –T.: “FAN”, 1983.

¹²¹ Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma: Birinchi jild. - T.: “Sharq”, 2000. – B. 7.

2. Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma: Birinchi jild. –T.: “Sharq”, 2000. – B. 416.

3. Aziziddin Nasafiy. Tasavvufda inson masalasi. – Istanbul: 1990, – B. 236.

4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. 4-kitob. – T.: Tafakkur, 2021. – B. 240.

“...LEK NAVOIYDEK BOBOM BOR”

*Mo`minjon SULAYMONOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Gulnoza XOLDOROVA,
Namangan davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O`zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiga Alisher Navoiy merosining ta`siri masalalariga oid fikr-mulohazalar bildirilgan. Ulug` mutafakkir asos slogan an`analarning XX asr o`zbek adabiyotida muvaffaqiyat bilan davom ettirilganligi misollar yordamida tahlil qilib berilgan.

Kalit so`zlar. She`riyat, adabiy ta`sir, mumtoz adabiyot, g`azal, an`ana, qasida, aruz vazi, maqol, irsolu masal.

Dil nigohi dunyo tafakkurini o`zgartirib yuborishga qodir bo`lgan siymolarning avlodi bo`lganligimiz har doimo qalbimizga surur, faxr-iftixor tuyg`ularini beradi. Bu milliy g`urur hissi qon-qonimizga, jon-jonimizga singib ketgan. Daholikdan taralgan shu`laning erkin parvozi deya ta`riflangan Erkin Vohidov she`riyatida ham shu g`urur hissini tuyishimiz mumkin. Bu o`rinda Erkin Vohidov ijodi hamda uning o`shishiga, yuksalishiga ulkan hissa bo`lib qo`shilgan sarchashmalari haqida so`z yuritmoqchimiz. Avvalo, buyuk adibning she`riyati, hech mubolag`asiz, mangulikka daxldor ekanligini ta`kidlash o`rinli, deb hisoblaymiz. Shoir so`zlarning bor latofatini misralari orqali o`zbek kitobxonni yuragiga muhrlay olgan ijodkor sifatida Shuhrat qozondi, dong taratdi. Erkin Vohidov she`riyati chindan ham o`zbek adabiyotida ulkan voqea, yuksak parvoz bo`ldi, desak, ham mubolag`a emas. Bu parvozning bir qanoti

Navoiy adabiy merosi va shoirning ijodiy an'analari bilan bog'liq ekanligi sir emas. Shuning uchun ham Erkin Vohidov "poetik sayyorasi"ning bir ildizi, o'zani Hazrat Navoiyga borib taqaladi, deb bemalol aytish mumkin. Zero, shoir olamga mashhur "O'zbekim" qasidasida ulkan faxr-g'urur bilan:

*Menga Pushkin bir jahon-u,
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksi osmon, o'zbekim¹²²,*

– deb bejiz yozmagan.

"...Bu singari insonlarning borligi, safimizda turgani adabiyotimiz uchun ham, millatimiz ma'naviyati uchun ham noyob hodisadir... Ko'glimning tub-tubida Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning o'rni bilinayotganini his qildim". "Mening juda katta armonlarim bor. Bu shoirlarimiz hali yashasa bo'lardi. Agar ular hozir adabiyotga e'tiborni, adiblar xiyobonini ko'rganda edi, yangicha ilhom olgan bo'lardi, bunga men ishonaman."¹²³

Yurtboshimiz Erkin Vohidov merosini o'rganishga, o'rgatishga juda katta e'tibor bilan qaramoqdalar. Erkin Vohidov ijodi – bashariyatga odam va olam haqida eng muhim hayotiy saboqlarni badiiy talqinda uqtirishga qodir she'riyat. Shuning uchun ham Prezidentimiz suhbatlardan birida: "Ulug' shoirimizning "Inson" qasidasi benazir asar. Uni bir qancha tillarga tarjima qilib, kuyga solib, qo'shiq qilib aytinglar. Hozir ham inson g'oyasi qanchalar noyob va aziz ekanligini odamlar yoshlar bilsin"¹²⁴, – deb aytgan edi.

Asl she'r ko'ngil gavhari, ilohiy mo'jiza, ijodkorning qalb tuyg'ularini ifodalovchi, hammaga ham nasib etavermaydigan noyob hodisa. Erkin Vohidov ham Yaratganning qudrati bilan so'z latofatini anglab yetgan va buni o'zgalarga ham anglatishga uringan so'z san'atkori bo'lib elda mashhur bo'lda, o'zga yurtlarda ham tanildi.

Erkin Vohidov zamondoshlariga aruzni, o'n to'rt kunlik oydek yashartirib, yangilab, qaro ko'zlariga surma, qo'llariga esa xino singari e'zozli qo'yib berdi. "Sovet davriga yot", "eskirgan", "yangi

¹²² Vohidov, Erkin. Yoshlik devoni. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. 21-bet

¹²³ Mirziyoyev, Sh. Yozuvchilar uyushmasi a'zolariga so'zlagan nutqidan. xabar.uz saytidan olindi .

¹²⁴ Mirziyoyev Sh. Namangan viloyat faollari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan. kun.uz saytidan olindi.

madaniy davrning g‘oyaviy boyligini ifodalashga noloyiq”, deb ayblanib kelingan aruz Erkin Vohidov tufayli, zamonaviy, serimkon, jozibador vazn sifatida o‘z o‘rnini topib oldi. Shoir shu sohadagi izlanishlarini davom ettirib, aruzning mumtoz Sharq adabiyotidagi pirlaridan biri – Alisher Navoiy g‘azallarida ifodalangan mazmunning boy va go‘zalligini, ulug‘ shoirning she‘riy san’atlardan foydalanish mahoratini shunday yorqin ko‘rsatib berdiki, biz endi “Qaro ko‘zim”ni aytgan hofizning ovoqidagina emas, uning tilidan kuylanib chiqayotgan so‘zlarning turfa va chuqur ma‘nolarini chaqib ham sel bo‘ladigan bo‘ldik.¹²⁵

Chindan ham Erkin Vohidov g‘azallarida Navoiy an‘analari bilan bog‘liq umumiy tasvirlar, uyg‘un o‘xshatishlarni anchagina uchratish mumkin. Bu mushtaraklik ikki badiiy did sohibining tafakkur uyg‘unligidan, so‘z latofatini namoyon eta olish qobiliyati bilan bog‘liqligini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Erkin Vohidov g‘azallarida talmeh san‘ati vositasida bir necha marta “Xamsa” qahramonlariga ishora qilib o‘tadi. Yoki Navoiy g‘azallarida uchraydigan tasavvufiy istilohlarni ham tasvirga ajoyib tarzda tatbiq etadi.

Shoir “Hijron yuki” g‘azalida Alisher Navoiyning “Aylagin jondin judo, Etguncha jonondin judo” baytini epigraf qilib keltiradi. Shu g‘azalning umumiy mazmunida hijron yukidan boshlangan tasvir hatto jon yukidan xalos bo‘lish orzusigacha yetib boradi. Har bir baytda shoir ishq vasfi uchun “yuk” so‘ziga yangicha ma‘nolarni yuklab borganki, bu she‘rning yana-da jozibaliroq bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

Erkin Vohidovning

*Kimki muz yurak bo‘lsa,
O‘ylama eritmakni.
Ming quyosh yoqib qo‘ysang,
Qilmagay asar, zoye¹²⁶*

misralari Alisher Navoiyning

¹²⁵ Erkin Oshiq. Shogird ehtiromi. // To quyosh sochgayki nur. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 24-b.

¹²⁶ Vohidov, Erkin. Yoshlik devoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – T.: 1969. 33-bet.

*Kuchuk birla xo‘tukni, qancha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur dag‘i eshak, bo‘lmaslar also odami,-*

baytini beixtiyor yodimizga soladi.

Yoki:

*Gar quyon yurakli er,
Jazm etsa bahodirlik.
Unga arg‘umoq esiz,
Tilla naqsh kamar zoye¹²⁷*

misralarida ham mazmunan umumiylik bor. Xuddi Navoiy qit‘asidagi xulosalarni hozirgi o‘zbek adabiy tilida qaytadan tushuntirib bergandek tasavvur uyg‘otadi.

Bir masalaning ikki buyuk adib tafakkuri birla o‘xshash yechimi, bu ikki buyuk dahoning ma‘naviy yaqinligi, fikrlari umumlashmasi hamdir. Ikkisi ham esda qolarli, ta‘sir kuchi jihatidan ham, badiiy joziba jihatidan ham.

“Yo‘q emish orzuda ayb” she‘ri beixtiyor ulug‘ Navoiyning “Jong‘a chun dermen” g‘azalini yodimizga soladi. ”Jong‘a chun dermen” g‘azali Navoiy g‘azaliyotida ham, o‘zbek g‘azalchilik tarixida ham alohida hodisa hisoblanadi. Chunki g‘azal tamoman bir-birini taqozo etuvchi baytlar ketma-ketligidan tuzilgan. G‘azal tadrijiy g‘azal bo‘lib, she‘riyatdagi savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. Bunda birov savol beradi, ikkinchi taraf Shu savolga javob beradi.

To‘liq bir g‘azalni savol-javob tarzida bitish Navoiydan oldin yashab, ijod qilgan qalam sohiblari ijodida juda kam uchraydi. Ammo bu g‘azal ayni san‘atni oliy darajada qo‘llashi va mantiqiy asoslanganli bilan alohida ajralib turadi.

“Yo‘q emish orzuda ayb” g‘azalida ham ayb ishq bo‘lgan ko‘ngilga qo‘yiladi. Ko‘ngil aybni jodu ko‘zga yuklaydi. Oxirgi baytga quloq tuting:

*Jodu ko‘zlar bandi yolg‘iz-
Sen emas, tutqun yurak,*

¹²⁷ O‘sha joyda

*Avval oxir, ko‘hna meros,
Ishq degan tuyg‘uda ayb¹²⁸.*

Demak, “saydi ishq bo‘lgan ko‘ngilga” haqiqiy aybdor, “ko‘hna meros – ishq tushunchasi” ekan.

Navoiyning “Jong‘a chun derman” deb boshlanuvchi g‘azalidagi talqinida ko‘ramiz:

*Ey Navoiy, barcha uzrin dedi, o‘lguncha kuy-
Kim, sanga ishq o‘ti-o‘q ermish azalning qismati¹²⁹.*

Lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekanini tan oladi. G‘azalning har bir baytida o‘ziga xos badiiy ifoda va tasvirlarga duch kelamiz va bu holat Erkin Vohidov ijodida ham yaqqol bo‘y ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning aruz vaznida yozgan she‘rlarida Alisher Navoiy an‘analari ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Haqiqiy she‘riyat teran tafakkur, yorug‘ tuyg‘ular va chinakam hayajon hosilasidir. Bu kabi ijod namunalari esa hamisha barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. Yozuvchilar uyushmasi a‘zolariga so‘zlagan nutqi.
2. Mirziyoyev Sh. Namangan viloyat faollari bilan uchraShuvda so‘zlagan nutqidan. kun.uz sayti.
3. To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – T.: O‘zbekiston. 2016.
4. Vohidov, Erkin. Yoshlik devoni. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969. 21-bet.
5. Vohidov, Erkin. So‘z latofati. – T., 2014
6. Navoiy, Alisher. Favoyid ul-kibar.
7. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Umumiy o‘rta-ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua.

¹²⁸ Vohidov, Erkin. Yoshlik devoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – T.:1969. 21-bet.

¹²⁹ Navoiy, Alisher. Favoyid ul-kibar. 597-g‘azal

NAVOIYNING QO‘LLARI

*Tohir QAHHOR,
filologiya fanlari nomzodi*

O‘tgan asrning 60-70- yillarida adabiyotimizga o‘zbek she‘riyatini mazmun va shakl, eng muhimi, bir oz bo‘lsa-da g‘oyaviy jihatdan yangi yo‘lga bura olgan yosh to‘lqinlar kirib keldi. Aziz Abdurazzoq, Husniddin Sharipov, To‘ra Sulaymon, Erkin Vohidov, Xayriddin Saloh, Sayyor, Razoq Abdurashid, To‘lqin, Anvar Hoji, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Muhammad Ali, Jamol Kamol kabi shoirlar ilk she‘riy to‘plamlari bilanoq tilga tushdi. Ularning asarlaridagi sof lirikaga yaqinlik, zamon, o‘tmish va kelajakka tutash dadil qarashlar o‘quvchilarni quvontirdi. Qo‘rqov saltanati va ikkinchi jahon urushidan, keyingi og‘ir yillardan qutulish yuki ostida ezilgan ruhlar bir oz tiklandilar. O‘sha oltmishinchi yillarda maktab o‘quvchisi edim, goh non, goh zog‘ora eb yurgan xalqning yangi pul chiqqanda sevinganini yaxshi eslayman. Yangi she‘riyatdan muxlislarning sevingani ham shunga o‘xshash bir tabiiy holat edi. Har holda, urushdan so‘ng hali uncha tiklanib ololmagan yupun o‘lkada, stalinchilik zulmi va Sibir surgunlari ta‘siridan qutulmagan sovuq muhitda ruhi qunushgan insonlarni bu shoirlarning 50 yoki 120 betli jajji to‘plamlari kichik gulxanlar kabi quvontirdi, jonlarini bir oz ilitdi. Bir ozdan keyin yuz bergan siyosiy burilishlar, tarixiy va adabiy merosga munosabatning o‘zgarishlari mustamlakadagi mazlum ommaning tosh qotgan, qaqragan ko‘ngliga umid tomchilari kabi yog‘ildi. Navoiyning 15 jildligi, Beruniy va Ibn Sinoning ham jild-jild asarlarining o‘zbek va rus tillarida bosilishi milliy fan va adabiyotimiz darajasini, uning jahondagi o‘rnini xalqimizga moddan ko‘rsatib qo‘ygani, 37-yillarda betonlashtirib tashlangan ommaviy milliy tushunchani ham qo‘zg‘otdi, milliy fikrlar chechagi u mudhish toshni yorib chiqa boshladi. Ana o‘sha yangi to‘lqin ichida, menimcha. Cho‘lponning tovushi so‘ndirilgandan keyingi chorak asrlik jimlik zulmatini yorib, el ko‘ziga ko‘ringan, uzoq-uzoqlarga eshitilgan eng yorqin, yoqimli ovoz Erkin Vohidovniki edi. Chunki shoirning barmoqdagi asarlarida Oybek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Mirtemir lirikasidagi kabi samimiy, musaffo, tiniq va yangroq ifoda bor edi. Aruzdagi “Yoshlik devoni”

esa, o'sha 20-yillarda boshlangan klassik adabiyotimiz an'analarini zamonaviy she'riyatga olib kirish yo'nalishidagi katta muvaffaqiyat edi. Qirq yoshli shoir Habibiy, Charxiy, Chustiy kabi ustozlar qo'lidan olgan estafeta bayrog'ini yanada yuksakka qadadiki, bayroq haliyam o'sha nuqtada erkinona xilpirab turibdi. Bu devon chiqqungacha, balki Erkin Vohidov zamondosh shoirlar safida, yondosh yurgandir, ammo "O'zbekim" qasidasi bilan ular ichida aruz vaznida qalami mukammal, yo'ldoshlaridan farqlanadigan fazilat egasi ekanligini isbotladi. Aruzni davrmizga, xalqimizga yanada yaqinlashtirish bilan birga, milliy mushohada tarzimizni tarixiy o'zanlarga yo'naltirishga intilgani, she'rdagi ohang ustunlarini ma'no va mazmun tamaliga usta me'morday mustahkam tiklay olganini, bu bilan o'quvchi ikki-uch o'qishda yodlab oladigan, kuyi so'zi bilan birga yaratilgan qo'shiq kabi she'ru g'azallar bitgan shoir – maydonda boshqalardan ajralib turgan yagona botir qalam ekanini ko'rsatdi. Boylik va shuhrat ofat deyilar. Tarixda, turli zamonlarda bu ikki yuxoning qurbonlari ko'p ko'rilgan. Barcha inson moddiy va ma'naviy nafs kishanbandidir, shu bois uning bu ikki jozibali cho'qqiga intilishi g'oyat tabiiy. Unga chiqqanlarni yiqilishdan yaxshi axloq, kamtarlik saqlab qoladi deyishadi. Erkin Vohidovning yigirma yoshida yozgan "Kamtarlik haqida" nomli she'ri ana shu mavzuda. O'zbeklar muxitida choy ichish kundalik odatdir; mehmonga da'vat etisharkan, bir choy ichib keting, deyishadi; emak paytida ham birinchi qutlug' non sindirilsa, undan keyin choy quyib, piyolani o'ng qo'lda tutib, xurmat bilan uzatiladi. She'r ana shu choy uzatishdagi udumdan, piyolaning choynakdan kamtarona pastda turishidagi holatdan ilhomlanib bitilgan.

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
SHunday ekan, mag'rurlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, xatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.*

Soʻzlar bilan chizilgan bu manzara ommaga juda yaqinligi, xulosadagi bu oʻgit xalqning koʻnglida, tilida, kundalik hayotida doim bor boʻlgani uchun ham sheʼr yaralganidan buyon yodlanib, turli yigʻinu shanliklarda oʻqib kelinmoqda. Sheʼr tamalidagi holat va maʼno, menimcha, dunyoning koʻplab tillariga tarjima qilinganda ham aslyatdan uzoqlashmaydi va faqat oʻzbeklarga xosligini yoʻqotmaydi. Slav tillariga oʻgirilganda, chaynik va stakan shaklida; turkiy tillarga tarjima qilinganda esa, masalan, turkchada, ozarbayjonchada chaydanlik va bardaq tarzida, shaklanu mazmunan aslyatdagi koʻrinish va mantiqni, gʻoyani toʻla aks ettirishi mumkin. Til jihatdan qaralganda, choy, choynak chin tiliga, piyola yunonchaga bogʻliqligi maʼlum, ammo bu atamalar ikki yarim yildirki turkistonliklar tiliga oʻzlashib ketganligi barobarida, xalqimizning tarixiga oidligi bilan ham eʼtiborlidir.

Sheʼrning qiymati, menimcha, qanday yozilgani va qanday tushuncha aks ettirilgani bilan oʻlchanadi. Qalam egasi sanʼatkorligi bilan shuhratga, nimani yozgani, nelarni degani bilan xalqqa va ijtimoiy haqiqatu adolatga yaqinlasha boradi. E. Vohidov “Oʻzbekim”, “Inson” qasidalari, shuningdek, Navoiy, Bobir, Fuzuliy gʻazallariga bitgan muxammaslari bilan ana shu ikki fazilatga qirq yoshida erishgan sanʼatkordir. Erkin Vohidovning shuhratini “Oʻzbekim” oʻsha yillarda butun Oʻzbekistonga, oʻzbeklar yashaydigan qoʻshni Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmanistonga, keyinchalik qardosh turkiylarimizning Ozarbayjon, Turkiya kabi oʻlkalarigacha etkazdi. Xatto Amerikadagi Turkistonliklar jamiyatidagi minglab vatandoshlarimiz ham bu qasidani yod oʻqishgani, bayramlarda qoʻshiq qilib aytishgani maʼlum. 90-yillargacha, yaʼni mustaqillik davri boshlagunga qadar bu qasida oʻzbeklarning har bir toʻyu tomoshasida kuylangan bir milliy gimn edi (hali milliy madhiyamiz yozilmagan paytda, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi bir yigʻinda TV muxbiri bu xususdagi fikrimni soʻraganda, yuqoridagi tushunchamni aytgandim).

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, oʻzbekim,
Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon, oʻzbekim.
Soʻylasin Afrosiyobu soʻylasin Oʻrxun xati,
Koʻhna tarix shodasida bitta marjon oʻzbekim...

1924-yilda sho‘ro Turkiston muxtor respublikasini yo‘qotib, azaldan Tiyonshon-Tangri tog‘lari atrofida, ko‘pincha bir xoqonlik yo xonliklar ichida birga yashagan turkiylarni sun‘iy ravishda, qonunsiz (referendum o‘tkazilmagan), yangi sho‘ro imperiyasi manfaatiga moslash uchun bir-biridan ajratib tashlangani ma‘lum. Afrosiyobning qadim Samarqandning quruvchisi va xoqoni Alp Er To‘nga ekanini bildirgan “Qutadg‘u bilik”, arablar istilosigacha xizmat qilgan ona tilimiz, yozuvimiz – ko‘kturk alifbosi, ya‘ni O‘rxun xati haqidagi kitoblar ham o‘sha 60-70- yillar orasida bosildi va “O‘zbekim” qasidasida yuksak mahorat bilan ifodalangan bu tushunchalar xalqimiz ongini ochdi. “Yagona sho‘ro xalqi” yaratish, ya‘ni imperiyadagi boshqa millatlarni yo‘qotib, bitta tilni, bitta elni hukmron etishga qaratilgan siyosat yuritilayotgan bir davrda bu qasidaning maydonga kelishi, menimcha, davr talabi edi. Rum qaysari va Chingizu Botular bosqiniga ko‘ksini qalqon qilgan xalqimizni ulug‘larkan, shoir ishg‘ol ostidagi vatanning fojeali manzarasini shunday chizadi:

Yog‘di to‘rt yondin asrlar boshinga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj, yurti vayron o‘zbekim.
Davr zulmiga valekin bir umr bosh egmading,
Sen Muqanna, sarbador sen, erksevar qon o‘zbekim...

Bu qasidada erksevarlik ramzi o‘laroq tilga olingan Muqanna, sarbadorlar haqida keyinchalik Muhammad Alining romani, Azim Suyunning dramasi, Mirzapo‘lat Toshpo‘latovning qissasi, ko‘plab she‘rlar yaratilganida ham bu satrlarning ta‘siri bor, albatta. Muallif dunyoga Beruniy, Xorazmiy, Farobiy, Ulug‘bek kabi jahonshumul olimlarni, “she‘riyat mulkida shohu sulton” Navoiyni, Bobiru Mashrablarni tuhfa etgan xalqning achinarli ahvolini (Maariy “orif inson o‘z yurtida g‘aribu g‘urbatdadir, yaqinlari orasida begona va kimsasizdir” deganidek), mazlumligini quyidagicha tasvirlaydi:

Ilmu she‘rda shohu sulton, lek taqdiriga qul,
O‘z elida chekdi g‘urbat, zoru nolon o‘zbekim.

Qasidaning o‘sha mazlumlik yillardan boshlab xalqimiz ruhiga tayanch, joniga suyanch bo‘lib xizmat qilganini alohida ta‘kilash

lozim. Hayotim davomida yoshu keksalarimiz tilidan, qisqagina qilib: “Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o‘zbekim!” deya yoki:

Menga Pushkin bir jahonu menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, ko‘ksim osmon, o‘zbekim!

– deb qo‘llarini havoda silkitib, faxrlanishganini ko‘p ko‘rganman. Qasidaning eng mashhur satrlari, xuddi maqolga o‘xshab eng ommalashgan baytlari shular bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

Erkin Vohidovning ko‘plab she‘rlarida shohbaytlar, shohsatrlar bor. Bu qasidada ham quyidagi baytda bir so‘zni bir necha ma’noda qo‘llanganini, jarangdorlik va teranlikni ko‘ramiz:

Yig‘ladi furqatda Furqat ham muqimlikda Muqiyim,
Nolishingdan Hindu Afg‘on qildi afg‘on, o‘zbekim.

Bu qasidada, shoirning ilk mashhur she‘rlaridan biri milliy turmushdagi choy ichish, choynak va piyola detaliga bog‘liq bo‘lganidek, o‘zbeklar qiyofasini belgilaydigan bosh kiyimga daxldor yana bir shohbayt ham bor:

Qayga bormay boshda do‘ppim, shuhratim, qadrim buyuk,
Olam ichra nomi ketgan O‘zbekiston, o‘zbekim.

Qadim zamonlardan yigirmanchi asr boshlarigacha Turkiston qavmlari, urug‘lar bir-biridan bo‘rklari, qalpoqlari bilan farq qilishgan. O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa respublikalar tuzilgandan keyin bu saqlanib qoldi; bugunda ham Farg‘ona va eski Iloq – Toshkent vodiylari bilan Samarqandu Buxoro tomonlarda kiyiladigan do‘ppilar farqlidir. Shoir “Qayga borsam, boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib” deb yozganida (keyinchalik bu satr yuqoridagidek tahrir etilgan), bizningcha, umuman do‘ppini ko‘zda tutgan. Bu bayt qasidani uzukka ko‘z qo‘yilganday bezab turibdi. Ba’zilar “turkman ham cho‘girmasini, qozoq ham qalpog‘ini kiyib gerdayib yurishi mumkin, shuyam gapmi” deya kesatiq qilgani ham ma’lum. Bu aruzni bimaydigan, mumtoz adabiyotimizdan uzoq, uni o‘qisa ham tushunmaydigan, adabiyotga bir ko‘z bilan qaraydigan chaladomlarning chirik tushunchasini eslatidan mayda gap,

menimcha. Do‘ppi kiyish yigirma birinchi asrga kelib, viloyatlarimizda avvalgiday urf bo‘lsa ham, Toshkentda va ayrim tumanlarda kam qo‘llanilayotgani ham ma‘lum (oltiariqlik bir tanishimdan nega shlayapa kiyishini so‘rasam, do‘ppi kiysam, kim o‘ldi deya so‘rashadi, dedi kulib; demak, bugunlarda do‘ppi faqat to‘yda yo asosan a‘zada, janozada kiyiladigan bosh kiyimga aylangandi, deyish ham mumkin). Ammo bu asar yozilgan o‘sha 1968 yildan 90 yillargacha “O‘zbekim” qasidasi xalqimizning eng sevimli she‘ri, qo‘shig‘i sifatida to‘yu tantanalarda milliy gimn kabi yangraganini hech kim inkor etolmaydi; zotan boshqa hech bir shoir bu darajada mukammal qasida yozolmagani ham ayon. Qisqasi, bu o‘z davrida bitilgan va elimizning milliy ruhda tarbiyalanishida nonu suvday ximat qilgan, muallifini yuksaltirgan qutlug‘ asar. Shularga suyanib, O‘zbekiston va o‘zbeklarning qadim Turkiston va Turonga bog‘liq tarixlarini, milliy qadriyatlarini she‘rga solish, “O‘zbekim”day obidani yaratish 1968-yilda faqat Erkin Vohidovga nasib etdi, deyish mumkin. Shu o‘rinda muallifning etuk faylasuf shoirligini, mahoratu san‘atini isbotlagan yana bir asari “Qo‘llar” haqida to‘xtalish joiz.

Taningda kamtarin a‘zo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir,
Mudom mehnat uchun paydo bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.
Hayot deb erdan uzsang ham, najot deb ko‘kka cho‘zsang ham,
Iki dunyo senga oshno bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.
G‘azal baxsh etgan olamga, ajal keltirgan odamga,
Bu tig‘dir, bu guli ra‘no bu qo‘llardir, bu qo‘llardir...

Bundan qirq yil oldin bu qasidani o‘qigan she‘rxon inson mehnati ulug‘langan va odam, vatan, mehnat, hayotning bir butun ekanligini ta‘kidlagan, tasvirlagan yuqoridagi shohona baytlardan ko‘ngli va aqli to‘yingani, zavqlangani ma‘lum. Mustaqillikdan keyin diniy bilimi ortayotgan kitobxon o‘qirkan, u dunyoda qo‘llaringiz qilgan amallaringizdan xabar bergay, kabi qutlug‘ so‘zlarni eslashi va bu qasida muallifiga yanada mehru xurmati ortishi tabiiydir. “Hayot deb erdan uzsang ham, najot deb ko‘kka cho‘zsang ham”, “G‘azal baxsh etgan olamga, ajal keltirgan odamga” kabi qo‘sh qofiyali satrlar esa shoirning san‘ati, maqomi yuksakligini uqdirib turibdi.

Jahon da'vosini etgan, jahondin lek ochiq ketgan
Iskandar ilki bedavo bu qo'llardir, bu qo'llardir,

- baytida Navoiydan ta'sirlanib, navoiyona satrlar bitsa,

Diyorim bir saxiy soqiy, Orol unga mayi boqiy,
Siru mavjli Amudaryo bu qo'llardir, bu qo'llardir,

- deya, Hofizning mashhur "Bideh soqiy mayi boqiy, ki dar jannat naxohi yoft" satriga jo'r bayt muallifining, bizningcha, Navoiy va Lutfiylar ikki yig'lagan ko'zga o'xshatgan ikki Turkiston daryosini yangi zamonda yurtni obod qilishga kirishgan ikki buyuk qo'lga qiyoslagani, albatta, kashfiyotdir.

Fasohat xomasin tutgan, g'arib o'z sohibin etgan
Alisherdek buyuk siymo bu qo'llardir, bu qo'llardir,

baytini o'qirkan, Navoiyni suygan, unga shaydoli va sadoqatini uning ijodiy va insoniy fazilatlarini asarlarida, hayotida davom ettirishga intilishi bilan ko'rsata olgan Erkin Vohidov ham Navoiyning barhayot, navoiyona qalam tutgan qo'llaridan biridir, degan fikr kechadi ko'ngildan. Yigirmanchi yillarda Vadud Mahmud yozganidek, sharq turklarining eng buyuk shoiri Navoiy, g'arb turklarining eng ulug' shoiri Fuzuliydir. Bu ikki ustoz ijodini, bu ikki qardosh mintaqa shoirlari asarlarini puxta o'rgangan Erkin Vohidovning ikkala ustoz g'azaliga bog'lagan muxammasini o'qirkansiz, uch shoirning bir maydonda musobaqa qilayotganiga guvoh bo'lasiz.

"Etmasmidim" radifli mashhur g'azalga muxammas bog'larkan, shoirimiz Fuzuliy ruhi bilan o'z ruhini birlashtirishga intiladi, Fuzuliy baytiga ma'nodosh, ohangdosh so'zlardan fuzuliyona satrlar yarata oladiki, u bir shoir tomonidan yozilgandek, erkinona shavqu shiddat kamtarlikdagi fuzuliy injaliklari bilan birlashgandek taasurot qoldiradi.

O'lmasam zor anga, tarki ohu zor etmasmidim,
Ishq koridan kechib bir o'zga kor etmasmidim,
Gar junun yor o'lmasa, holimdan or etmasmidim,

Aql yor o‘lsaydi, tarki ishq yor etmasmidim,
Ixtiyor o‘lsaydi rohat ixtiyor etmasmidim.

Navoiyning “ixtiyorsizlikdan bormu manga ixtiyor” degan hayqirig‘ida buyuk bashariy fojea, Fuzuliyning “ixtiyor o‘lsaydi rohat ixtiyor etmasmidim” degan nolishu alamida azaldan Odam Ota bolalarigi rizqu nasiba etilgan Hayot, O‘lim va bu ikki tushunchaga bog‘liq mudhish ixtiyorsizligu erksizlik bor. Bu buyuk alam, qaramlik, nochorlik dunyosidir. U bilan xatto “isyonkor” Mashrab ham “dardingni qarindoshu g‘amingni padar ettim” deya murosaga kelganday tuyuladi. Bu g‘urbat va g‘ariblik dunyosi xalq dostonlarimizda chapanchasiga “nomard dunyo”, Go‘ro‘g‘li kabi qahramonlar tilidan esa jaydari qilib “yolg‘onchi” deya bir so‘z bilan sifatlangan. She‘rda Er yuzi va undagi umrlarning faqat fojea va yo‘qolish bilan bitadigan oxiriga tutash mal‘un ixtiyorsizlik fojealari chizilmoqda.

Janr talabiga mos o‘laroq Erkin Vohidovning ilk satrlari Fuzuliy g‘azalining ilk misrasidan kelib chiqib yaratilgan, ya‘ni “Aql yor o‘lsaydi, tarki ishq yor etmasmidim” satriga “O‘lmasam zor anga, tarki ohu zor etmasmidim? Ishq koridan kechib bir o‘zga kor etmasmidim?” degan pushaymonlik xasrati tutashdir. Oshiq, yorga muhtoj bo‘lmasam, azoblanib o‘tirarmidim; ishq mehnatidan kechib, boshqa ish qilmasmidim; esim bo‘lsa, shundayin jinnicha holimdan orlanmasmidim (bu satrni “ishq foydasidan kechib, boshqa foydaga yo‘nalsam bo‘lmasmidi” kabi uqish ham mumkinki, bu-da muallifning mahoratidir, albatta), derkan, muxammaschi “Aql yor o‘lsaydi, tarki ishq yor etmasmidim” satriga tazod bilan “Gar junun yor o‘lmasa, holimdan or etmasmidim,” misrasini bog‘laydiki, menimcha, bu ikki dohiy shoirning ikki yondan shovillab oqa kelgan fikru tuyg‘ularining irmog‘i bir cho‘qqida birlashib, endi yanada kuchliroq guvillab oqayotganday tuyuladi. Odatda irmoqlar pastga oqadi. Biroq bu she‘riy daryo tepaga, ruhoniy yuksaklikka yo‘naladi, Erkin Vohidovning:

Ul ruhi bayzolinin savdologimdan qil qiyos,
Ul dili xoroligin shaydologidan qil qiyos,
Zuhd elin taqvin mug‘a oshnoligimdan qil qiyos,

kabi qo'sh qofiyali satrlari Fuzuliyning o'z davridagi ijtimoiy muhitning kufri kajraftorligi bois insonlarning buzilayotganini tasvirlagan "Voizin kufirin banim rasvoligimdan qil qiyos! Anda sidq o'lsaydi, ban taqvo shior etmasmidim" degan nochor holatiga bog'lanib, yaxlit fojeali manzara yaratadi. Ya'ni, voizning, ayrim odamlarning kofirligi yu yolg'onchiligining natijasini mening masxarali ahvolimdan, rasvo bo'lganimdan ham bilib olaver; ularda to'g'riligu sadoqat bo'lsaydi, men ham to'g'riyu taqvoli bo'lmasmidim, deydi oshiq Fuzuliy. Kitoblarda, xitoblarda erkinligu dorilomonlikdan safсата sotilgan sobiq sho'roning aldoq davrida yashagan Erkin Vohidov o'z dardini Fuzuliyga dardkashlik tarzida, unga muxammas bog'lash vositasida ustalik bilan ifodalay olgan.

Yuzaki qaralganda, muxammas oshiqonadir, albatta; ammo orif she'rxon uni o'qirkan, satrlar ortidagi teran falsafiy ma'nolarni uqib, baytlardan tiklangan ma'naviy baytul dardni g'iyoban ko'rarak zavqlanadi. Bu milliy mushohada tarziga, uni tug'dirgan, tarbiyalagan milliy adabiyot va madaniyatga bog'liqdir. Faqat usta shoirlar, ustoz qalamlar xizmati bilan bu milliy mushohada tarzi millatni yashatib, uni yot ta'sirlar ostida erib-bitishdan, assimilyasiyadan saqlab kelmoqda. Bu she'rning ijtimoiy ahamiyati ana shunda va muallifning yana mumtoz adabiyot an'analarini rivojlantirib, eski dutorda zamonu zamondoshlarning yangi dardu ishqini kuylashidadir.

Shoirimizning aruzda bitgan asarlarida ham, barmoqdagi she'rlarida ham, ikki vaznda qilgan tarjimalarida ham biz yuqorida imkon qadar anglashga va anglatishga uringanimiz san'at va mahorat namunalari juda ko'p. Esenindan qilingan tarjimalar ustoz Mirtemirning Geynedan o'girgan she'rlari kabi o'zbekcha, ravonu soddadir; shu bois biz, etmishinchi yillardagi talabalar ularni yoddan o'qirdik, xatto o'zimizcha qo'shiq qilib aytardik. "Faust"ning o'zbekchasi esa, tarjima san'atida Erkin Vohidov maktabini yaratdi. Ovrupo she'riyatining cho'qqilaridan biri hisoblangan bu kitob tarjimasini, bizningcha, bu kabi asarlarni xalqimiz mulkiga aylantirish zarurligini ta'kidlagan, bu ishga shoirimizni yo'naltirgan bir davlat rahbariga, shuningdek, elimizga muallifning sidqu samimiyatini, so'zida sobit turib, bu og'ir ishni muvaffaqiyat bilan yakunlaganini ham ko'rsatadi. Erkin Vohidov tarjimalari ichida Esenin she'rlari yoshlarimizda sof va samimiy ishq tuyg'ularini yolqinlantirganini, Gyotening "Faust"i Ovrupo dunyosini, insoniy hayot, o'lim,

muhabbat, musibat sirlarini anglashga yo'naltirganini, Rasul Hamzatovning "Dog'istonim"i esa ona yurtga, elimizga va tilimizga mehr uyg'otishi barobarida, uning yo'lida yashash va kurashish lozimligini zimdan uqdirgan, milliyatchilikka tashviq qilgan asar ekanligini aytish mumkin. Shoirimizning qayta qurishning jozibali maydonlarida ko'p o'qilgan, chet ellar matbuotida ham sharhlangan "Ona tilim o'lmaydi" she'rida ham, menimcha, "Dog'istonim"dagi jasorat va donolik, vatanparvarlik va millatparvarlik ochiq ko'rinib turadi. Shu o'rinda, uch-to'rt yil oldingi bir suhbat paytida, Erkin akaning Dog'istonga borgani, Rasul Hamzatov bilan birga turli anjumanlarda bo'lgani, bir tantana chog'i unga musallas to'la shox tutishgani va shoirimiz ilk bor bundayin katta qadahni oxirigacha sipqorganini va bir amallab o'zini tutganicha sahnadan tashqariga chiqib olganini kulib aytib berganini esladim. Ha, shoirlar ba'zan sahnada musallasli shox bilan, goho esa, tarixlarda ko'p ko'rilganidek, tojli shoh bilan yuzma yuz qoladilar, bu dongdor shoirlarning qismatidir, undan qochish amri mahol, "ixtiyorsizlikdan bormu manga bir ixtiyor" deganday. Ha, gapning uchini yo'qotmay, mashhur avar shoiriga qaytaylik. So'ng yillarda Rasul Hamzatov "Kitobimning nomini "Mening Dog'istonim" emas, "Meniki bo'lmagan Dog'iston" deyishim kerak ekan" deya afsusu pushaymon chekkan ekan. Dog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Dog'iston xalq shoiri Magomed Ahmedovning eslashicha, "Agar bir kishi bir narsa o'g'irlasa, u kichik o'g'ridir; ikkinchi bor o'g'irlik qilsa, u o'rtacha o'g'ridir; uchinchi marta o'g'irlikka bosh ursa, u katta o'g'ridir; to'rtinchi bor o'g'irlik qilsa, u siyoatchidir" degan ekan Rasul Hamzatov. Mustabid sho'ro davrida barcha mashhur san'atkorlar kabi rahbarlik va deputatlik lavozimlarini bajargan ixtiyorsiz bir avar shoirining o'kinchi bu. Katta iste'dodlar odatda fe'li va xulqi to'g'ri insonlardir; manfaatparastlik va manmanlik kattaday ko'ringan iste'dodni ham kichraytirib yuboradi. "Dog'istonim" muallifi asl katta iste'dod, katta shaxs bo'lgani uchun ham yuqoridagi kabi o'kinchli, ammo adolatli, mardona fikrlarni aytgan deb o'ylayman. Zotan uch yuz milyo'nli bir saltanatdagi yuzlarcha millatlar yo'qotilib, bitta sovet xalqi yaratishga bel bog'langan o'sha oltmishinchi yillar qiyomatida "Dog'istonim" kabi asarlar Nuh kemasiga er yaqinligidan mujda keltirgan kabutarlar edi; bu kabutarlarni umidsiz, boshi egik, ko'ngli siniq xalqimizga ko'rsata va qutulish tovushini eshittira olgan,

soʻngra oʻzi ham “Ona tilim oʻlmaydi” deya maydonga tushgan Erkin Vohidov edi.

ALISHER NAVOIY VA ERKIN VOHIDOV

*Munisjon HAKIMOV,
OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va
folklori instituti ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Alisher Navoiy dahosi koʻplab ijodkorlar uchun ijod manbai boʻlgan. Ulugʻ shoirning soʻnmas ijodi yaratilganidan toʻ hanuz anʻana, taʻsir va talqin koʻrinishida davom etmoqda. Bu zamonaviy oʻzbek sheʻriyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida ham yaqqol aks etgan. Shoir ijodida mutafakkir nafaqat millat, balki insoniyat ideli sifatida aks etganiga guvoh boʻlish mumkin.

Kalit soʻzlar. Sheʻr, tafakkur, anʻana, taʻsir, talqin, shaxs, gʻazal, aruz, yor, oshiq, raqib.

Insoniyat tamaddunida shunday shaxslar boʻladiki, ularning ilmiy, maʼnaviy-estetik tafakkuri nafaqat oʻz davrida, balki asrlar osha keyingi avlod tafakkuri uchun ham mezon vazifasini oʻtaydi. Bu insonlarni mutafakkir deyishadi. Sharq mumtoz sheʻriyatining yigirmaga yaqin janrida qalam surgan Alisher Navoiy ham oʻzining beqiyos tafakkuri bilan jamiyat rivojiga mislsiz taʻsir koʻrsatgan mutafakkirdir. Turkiy sheʻriyatda Navoiydan soʻng faoliyat yuritgan hech bir soʻz sanʼatkori yoʻqki, daho sanʼatkor ijodini chetlab, undan ilhom olmagan boʻlsa. Oʻzbek halqining atoqli shoiri Erkin Vohidov sheʻriyatida ham Navoiy ijodining taʻsiri alohida oʻrin tutadi.

E.Vohidov bolalik chogʻlaridanoq buyuk mutafakkirning asarlariga oshufta boʻlib ulgʻaydi. Choʻlpon, Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom kabilarning navoiyona satrlarini oʻqishi, ustoz Gʻayratiyning mumtoz Sheʻriyatni tahlil qilib berishi boʻlgʻusi shoirni «sehrli olam»ga oshno qildi.

*Fuzuliy devonin qoʻlimga oldim,
U soldi koʻnglimga gʻazal mehrini...*

*Ko‘p zahmat so‘ngida
Anglab etoldim
Ustoz Alisherning buyuk sehrini¹³⁰,*

–deya o‘sha onlarni xotirlaydi shoir.

Navoiy she‘riyatini bor bo‘y-basti bilan tasavvur qilishga intilgan qalamkash ko‘rdiki:

*Azaliy davrada charx uradi er,
Mushtariy azaldek chaqnab turibdi...
Besh asr so‘ngida buyuk Alisher
Bahri muhit aro kezib yuribdi.*

Shoir nazdida she‘riyat – ulkan bir ummon. Unda kezishni istagan har bir ijodkor bamisoli bir qayiq. Necha-necha qayiqning dengiz tubiga g‘arq bo‘lganiga esa tarix guvoh. Besh asr o‘tsa hamki, Alisher Navoiy kemasi achchiq to‘lqinlarga ko‘krak urib, qit‘alararo kezishdan tingani yo‘q. Bu kema:

*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish¹³¹,*

–deya bashariyat uchun totuvlik, tinchlik, mehru muhabbat yukini o‘z elkasiga ortib olgan. Ulkan kemaga ortilgan har bir bayt, har bir misra bemisl san‘atkorlik mahsuli, olam-olam hikmat xazinasi. Shoir iqrori esa Shunday:

*Hayajon ko‘nglimda, hayrat aqlimda,
Olis qirg‘oqdaman – bu nechuk timsol!!
YArim ming yil osha o‘zga iqlimda
Bundoq uchrashuvni kim etmish xayol.*

Navoiy ijodining shaydosiga aylangan E.Vohidov faqatgina hayratlanib qolmay o‘zi ham g‘azallar bita boshladi. Ammo u aruzga kirib kelgan vaqtlarda adabiy jamoatchilikning katta qismi bu vaznni

¹³⁰ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ. 2000. 360-361-бетлар.

¹³¹ Алишер Навоийнинг 570 йиллиги муносабати билан Тошкентда ўтказилган халқаро конференциядаги маърузасида Э. Воҳидов байтдаги ёрлиқ сўзи ийҳом санъати асосида икки маънода – *дўстлик* ва *мақтовли* маъноларида қўллаганлигини илк бор таҳлил қилиб берган эди. Бу шоирнинг Навоий ижодининг нозик дидли билимдони эканлигидан далолатдир.

eskirgan deb kamsitar, insonning ichki dunyosini to‘la ochib bera olmaydi, ijodkorni ramkaga solib qo‘yadi, deya ayblashar edi. «Bundan tashqari uni dinga, o‘tmishda qolgan «nuqson»larimizga ulab, battar erga urishdi. Shunga ko‘ra maktabu oliy o‘quv yurtlarida g‘azalni o‘rganishga yuzaki yondoshildi, u tashlab qo‘yildi».¹³² Bu jarayon nafaqat o‘zbek, balki boshqa turkiy xalqlar va tojik adabiyotida ham yuz berdi.¹³³ Mana shunday og‘ir bir vaqtda Jamol Kamol, Omon Matjon, A.Oripovlar bilan birga E.Vohidov ham aruz vaznida nomigagina ijod qilish uni yana-da ojizlantirib qo‘yishini, shuning uchun an’anaga badiiy mahorat bilan yondoshish lozimligini amaliy isbotlashga bel bog‘lashdi. «...xalqimiz Navoiy va Fuzuliylar, Hofiz va Bedillarning go‘zal va teran g‘azallarini biladi. Uning aruz vazniga didi ana o‘shalarni o‘qib tarbiya topgan. Shu sababdan jo‘n va sayoz misralarning xalqimiz orasida e‘tibor topmasligi tabiiy.

Aruz adabiyotning, umuman san‘atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi»¹³⁴, – deydi ayb vaznda emasligini to‘g‘ri anglagan shoir.

Nihoyat, so‘zining amaliy isboti sifatida E.Vohidov «Yoshlik devoni»ni yaratdi. Devon «Debocha»sining ilk misralari shunday boshlanadi:

*Istadim sayr aylamoqni
Men g‘azal bo‘stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.¹³⁵*

Ko‘rinadiki, shoir Navoiy bilan sirlashishni, mutafakkir she‘rlaridagi ma’no, obraz va usullarni yangi talqinda kuylashni havas qiladi. Navoiyning:

*Zohid, senga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak¹³⁶,–*

¹³² Камол Ж. Умрим, ҳайрат билан қайларга етдинг / Ёшлик. 1993. 12-сон. 9-б.

¹³³ Бу ҳақда қаранг: Юнусов М. – Т.: Фан. Традиция ва новаторлик проблемаси. 1965. 19-25-б.

¹³⁴ Воҳидов Э. Шоиру шеър шуур. – Т.: 1987, 21-б.

¹³⁵ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ. 2000. 114-б.

¹³⁶ Навоий А. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. I жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2011. 737-б.

satrlaridagi zohidga xitob qilingan nafas E.Vohidovning:

*Ol o‘zing koshonalarni,
Menga qo‘y mayxonani,
Barcha hushyorlik senga-yu,
Barcha xummorlik menga¹³⁷,*

satrlarida yorga lutf tarzida yangicha ufurib turibdi.

Yorga oshiq yoki oshiqqa yor holidan xabar etkazishni sabo (shamol, el, shabboda)ga xitob qilish Navoiyning bir qancha g‘azallarida uchraydi. Mana ulardan biri:

*Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.¹³⁸*

Oshiqning bu usulda yor bilan dardlashishi mumtoz adabiyotda an‘anaga aylanib ulgurgan. Navoiyshunos A.Hayitmetovga ko‘ra, bu kabi g‘azallarda Navoiy yorning «hech qaerini aslo xunuk demaydi, lekin u bevafo. Go‘zal husni bilan g‘ururga berilgan va go‘zalligidan haqiqiy oshig‘ini yoki oshiqlarini emas, o‘ziga nomunosib kishilarni (raqiblarni) bahramand qiladi»¹³⁹. E.Vohidovning lirik qahramoni ham:

*Dildorga noma yozdim,
Etkur o‘zing, men ojiz,
Gul bo‘ylarini bog‘dan
Keltirgan ey, shabboda¹⁴⁰,*

deya shabbodaga xitob qiladi. Shoirning mahorati shundaki, uning lirik qahramoni Navoiy lirik qahramoni kabi yorni *badahdu paymon, nomusulmon, vaslig‘a bir va‘da qilg‘andin pushaymon* tarzida ayblashni istamaydi. U shabbodadan yorning «ko‘ngliga qayg‘u solma»slikni, dil sharhini navo bilan so‘zlashini so‘raydi. Ya‘ni yorning go‘zalligiga maxliyo bo‘lgan oshiq uni ayblashdan o‘zini

¹³⁷ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000, 116-б.

¹³⁸ Навоий А. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. II жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2011, 90-б.

¹³⁹ Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Ўзбекистон. 2015, 127-б.

¹⁴⁰ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ. 2000, 120-б.

tiyadi, yor ham o‘z husnidan «o‘ziga nomunosib kishilarni (raqiblarni) bahramand qil»maydi. Uning yori nihoyatda nozikta‘b:

*Hasrat to‘la so‘zingdan
Ozor topar nigorim,
Ramzi ishora birlan
Qilgin uni ifoda.*

Navoiy yorning tashqi go‘zalligi tasvirlangan g‘azallarining ayrimida «Ma‘shuqaning bir necha a‘zolarini birin-ketin ta‘riflasa, boshqa ba‘zi g‘azallarida uning faqat bir a‘zosi yoki xarakteridagi bir xususiyatning o‘zinigina tasvirlab ko‘rsatadi»¹⁴¹. E.Vohidov «Ko‘zing» g‘azalida yorning faqatgina ko‘zini tasvirlash orqali oshiq holini bayon qiladi. Shoir ko‘zni *shu‘laafshon, shabiston, shohu sulton, jodu, moviy osmon* kabi sifatlar bilan tasvirlar ekan, ko‘zga nisbatan ummon tashbehini qo‘llashi uning san‘atkorligidan dalolat:

*Hislarimning elkanida
Bir adashgan yo‘lchiman,
Sevgi bo‘ronin yuborgan
Cheksiz ummondir ko‘zing.*¹⁴²

Shoir misralarga lirizmni shu darajada jo qilganki, ishq bilan bog‘liq tushunchalar (his, sevgi, ko‘z) ham, bu tushunchalar tashbehi (elkan, bo‘ron, ummon) ham kitobxon ko‘z o‘ngida go‘zal bir tasvirni uyg‘otadi. Yorning ko‘zi – cheksiz ummon. Oshiq – hissiyotlaridan elkan yasab yo‘lga chiqqan yo‘lchi unga qancha termulmasin, sarhad noma‘lum. Ma‘shuqa yuborgan Sevgi bo‘roni uni yo‘ldan, aniqrog‘i, es-hushidan adashtirgan. Har qanday she‘r, albatta, mantiqiy izchillikka asoslanmog‘i lozim. She‘rdagi oshiq ham, o‘rmonga o‘tin olib borilmaganidek, ummonga suv keltirishni ma‘qullamaydi – yig‘lashni xohlamaydi:

*Yor ko‘zin ummon deb aytding,
Unga suv to‘kmoq nechun? –*

¹⁴¹ Хайитметов А. Навоий лирикаси. –Т.: Ўзбекистон, 2015. 129-б.

¹⁴² Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. 131-б.

*Bas, ani ko'rganda, Erkin,
Nega giryondir ko'zing?*¹⁴³

Ummon so'zini ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'nosida qo'llash orqali yaratilgan satrlarda o'ziga xos mantiqiy bog'liqlik borligi o'quvchining g'ashiga tegmaydi, aksincha zavq beradi. Umuman, bu kabi so'zni o'ynata olish usuli E.Vohidov she'riyatining o'ziga xosliklaridan biridir.

Mumtoz adabiyotda o'zga shoir g'azaliga nazira bog'lash, muxammas bog'lash an'ana sifatida mavjud. E.Vohidov «Yo'q emish orzuda ayb...» g'azalida esa na nazira, na muxammas bog'lamasdan Navoiyning «Jong'a chun dermen...» g'azali («Favoyid ul-kibar», 597-g'azal)ni mavzu g'oya va uslubda davom ettiradi. Navoiy g'azalida lirik qahramon ishq ofati jonga qaerdan kelganligini surishtiradi. Jon jismni, jism bag'irni, bag'ir ko'ngulni, ko'ngul ko'zni, ko'z mahvash tal'atini aybdor qilib ko'rsatadi. E. Vohidov g'azali go'yo bu g'azalga xotima yasaydi, hukm chiqaradi. Ko'ngul ikki jodu – ko'zni ayblaydi.

*Bandga tushgan bu ko'nguldur*¹⁴⁴,
Menda, ayting, ne gunoh,
Dil kushiga dom ko'ygan
*Ul ikki joduda ayb.*¹⁴⁵

Keyingi baytlarni shoir o'ziga xos uslubda davom ettiradi. Ya'ni keyingi «sababchini» «ayblanuvchi» emas lirik qahramon belgilaydi:

Jodu ko'zlar bandi yolg'iz –
Sen emas, tutqun yurak,
Avval oxir ko'hna meros
Ishq degan tuyg'uda ayb.

¹⁴³ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. 131-б.

¹⁴⁴ Бизнингча, бу сатр «Бандга тушган бу кўнгул дер» тарзида ўқилгани маъқул. Чунки иккинчи сатр айнан кўнгул тилидан сўзланмоқда (Х.М.).

¹⁴⁵ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. 126-б

Navoiyga ko‘ra xulosa «*ishq o‘ti-o‘q ermish azalning qismati*». E.Vohidovga ko‘ra ishq ko‘ngil mayli, ko‘ngil esa Oллоh (azal)ning mo‘‘jizasi:

*Ey ko‘ngil, o‘z mayling ila
Bo‘lding ishq domiga band.*

*Izlama endi bahona,
Demagin u-buda ayb.*

«Hayotga, borliqqa yaqin turgan Navoiy umr bo‘yi o‘z lirikasini yangi mazmun, yangi rang, yangi tovushlar bilan boyitib bordi. U borliqdagi go‘zal narsalarni, osmoniy jismlarni, tog‘dagi shabadalarni, yil fasllarini – hamma-hammasini kuyladi, bu bilan hayotga cheksiz muhabbatini ko‘rsatdi».¹⁴⁶ E.Vohidovning san‘atkorona tashbehlariga ham asosan gulu giyohlar, daryoyu soylar, osmon jismlari, tog‘u toshlar, tabiat hodisalari asos bo‘lgan. To‘g‘ri «butun insoniyatni ikki asr jarayonlarida alg‘ov-dalg‘ov qilgan, larzaga solgan, qonlar kechib, shonlar topgan yo‘riqlari, yo‘llari, chaqmoq yanglig‘ olovli chiziqlari uning yuragidan o‘tgan va she‘riy aks sado bergan»¹⁴⁷, lekin «G‘uncha», «Surma», «Tun bilan yig‘labdi bulbul...», «Chashma», «Sarv», «Barg», «Shohigul», «Uzum», «Gullar bazmi», «Lola» kabi ko‘plab g‘azallari shoirning betakror tashbehli topilmalariga juda boy. Buni shoir «She‘riyatning hayotidagi kurashchan vazifasini tushunib etmagandan yoki she‘rning haqiqat sadosi, dardli yurak nidosi ekanini bilmaganimdan emas, mening ruhimga go‘zallik olami yaqinroq bo‘lganidandir, bolalikdan Sharq she‘riyati ruhida tarbiya topganimdan bo‘lsa kerak»¹⁴⁸, – deya izohlaydi. U Sharq she‘riyati deganda, eng avvalo, Navoiy she‘riyatini nazarda tutgan, bizningcha. Mana, shoirlarning g‘uncha haqidagi mushoirasiga e‘tibor beraylik. Navoiyda:

*Guli ruxsoring aro bo‘lg‘ali pinhon g‘uncha,
Rashkdin bog‘da pinhon yutadur qon g‘uncha*¹⁴⁹,

¹⁴⁶ Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Ўзбекистон. 2015. 127-б.

¹⁴⁷ Фафуров И. Эркин Воҳидов сайёраси. / «То қуёш сочгайки нур». – Т.: О‘zbekiston. 2016. 4-5-б.

¹⁴⁸ Воҳидов Э. Шоиру шеър ушуур. – Т., 1987. 14-б.

¹⁴⁹ Навоий А. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. II жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2011. 561-б.

deya lirik qahramon yoriga go‘zalligini maqtar ekan firini bog‘da yashiringan g‘unchaning rashkdan qon yutayotganligiga uning jamoli sababkorligini husni ta’lil san’ati asosida ifoda etadi. E. Vohidovda esa tinglovchi yor emas, balki lirik qahramon to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘unchaga murojaat qiladi:

*Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g‘uncha,
Ne sirni saklagaysan,
Bag‘ring nechun tuguncha?*¹⁵⁰

Bunda g‘uncha obrazi shunchaki qiyos vositasi emas, lirik qahramon musohibi bo‘lganligi uchun faolroq. Oshiq o‘zining holatini g‘unchaga esh biladi, u bilan dardlashadi. G‘uncha ko‘ksi qonligiga, uyatdan qizarganligiga oshiqniki kabi ishq sabab. Lirik qahramon u bilan dardlashib, so‘roqqa tutib borar ekan, g‘uncha ham o‘ziga xos oshiq sifatida namoyon buladi:

*Bo‘ldingmi men kabi yo
Bir bevafoqa oshiq,
Ayt, sevganingni senga
Parvosi yo‘qmi uncha?*

Adabiyotshunos Y.Ishoqovga ko‘ra «O‘zbek klassik poeziyasi haqida gap ketganda, ko‘z oldimizga beixtiyor turlicha qarashlar va g‘oyalar ifodasi uchun asrlar davomida aktiv xizmat qilgan xilma-xil original tashbih va sifatlashlar (epitet), nozik istiora va istioraviy obrazlar keladi». ¹⁵¹ Hassos so‘z ustasi she’rni tashbehlardan shu qadar to‘yintiradiki, oqibatda mayda detallargacha, masalan, shudring tomchisi ham uning sinchkov nigohidan yashirin emas:

*Gulgun yanog‘ing uzra
Bir tomchi yosh ko‘rarman,
Kel, birga dardlashaylik,
Uy-uyda yig‘laguncha.*

¹⁵⁰ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. 118-б.

¹⁵¹ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. 108-б.

Navoiy g‘azalida ham oshiq ko‘z yosh to‘kadi, lekin bunda, E.Vohidov g‘azalidagi kabi, tabiat hodisasi (shudring) inson holati (ko‘z yosh to‘kish) vositasida emas, inson holati tabiat hodisasi orqali ifoda qilinadi. Husni ta’lilning ajoyib namunasi yaratiladi:

*Ko‘z yoshimdin agar og‘zingda erur kulgu ne tong,
Chun bo‘lur necha bulut yig‘lasa xandon g‘uncha.*

E.Vohidovning narsaning turli jihatlariga e’tibor berib, mayda detallardan ham go‘zal tashbehtar qila olishi mumtoz shoirlar g‘azallariga bog‘langan muxammaslarning yorqin va betakror bo‘lishiga ham asos bo‘lgan. Jumladan, shoirning Navoiyning «Aylagach» radifli g‘azaliga bog‘langan muxammasi g‘azal mavzusidan ayon bo‘lganidek yorning go‘zalligi haqida.

*Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha, bulbul afg‘on aylagach,
Nega afg‘on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,
Misli oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.¹⁵²*

Muxammasga zamin bo‘lgan g‘azal matla’sini shoir yor «sochini har tomonga yoyib tarasa, husni ortadi – bamisoli piligini, torini tarab yoyib qo‘ysa sham ravshanroq yongandek»¹⁵³, deya sharhlashdan avval Navoiy ijodxonasiga kirib boradi: «Shoir qo‘lida qalam, she’r xayoli bilan band. Uning qarshisida mayin nur taratib sham yonib turibdi. Alisher qalamning uchi bilan sham piligini yoyib qo‘yadi. Sham ravshanroq yonadi. Ana shunda shoir xayolida she’r tug‘iladi. Sham yorug‘ligi va kuydirishi bilan uning ko‘z oldida sevikli yori bo‘lib jonlanadi. Axir uning dil uyini yoritgan, zulmatli hayot ichra uning xayolini charog‘on qilgan va tunlar hijronida o‘rtagan yor sham emasmi?» Endi u ham shu ijodxonada ustoz qarshisida cho‘kka tushib qalam sura boshlaydi – ustozning husni ta’lilni yuzaga chiqargan go‘zal «yolg‘on»i oldida shogird ham latif «yolg‘on» qo‘shsa nima

¹⁵² Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. –Т.: Шарқ, 2000. 205-б.

¹⁵³ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Т.: O‘zbekiston. 2014. 129-б.

bo‘libdi! Yorning yoyilgan sochi husnni orttirgani, tor (pilik)ning parishon qilinishi shamni ravshan qilgani kabi bulbulning afg‘on chekishi ham g‘unchaning ko‘z ochishini tezlatadi. Darvoqe, sham qorong‘ulikni yoritadi. U yorug‘likda kerak emas. Oy ham shabistonda qadrli – ko‘rkam. Bu kabi inja satrlar bilan shogird ham ustoz muxlislarini ayni o‘ziniki kabi she‘riyat dunyosida sayru sayohat qildiradi.

E.Vohidov Navoiyning «To muhabbat dashti...», «Har qachonkim kemaga ul oy...» g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida ham buyuk shoirning g‘oyasi, uslubi va dardiga to‘laqonli esh bo‘la olgan.

*Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjug‘ daryo kibi oshufta ko‘gnglum qo‘zg‘alur,¹⁵⁴ –*

satrlari bilan boshlanadi g‘azallardan biri. Baytdagi go‘zal qiyosga ko‘ra, yor (ul oy) har gal kemada sayohatga chiqar bo‘lsa, oshiq ko‘ngli «*mavjug‘ daryo kibi*» to‘lqinlanadi. Muxammasda esa tasvir yanada aniqroq ko‘rinadi. Undagi satrlar g‘azalga o‘ziga xos ekpozitsiya vazifasini o‘taydi. Oshiq ko‘ngli «*mavjug‘ daryo kibi*» to‘lqinlanishining sabablari hassoslik bilan kuylanadi. Oshiqning firoqda «*sohilda bir jism*» bilan qolishi, yorning oshiq jonini olib yiroqqa ketishi – «*ayriliq oni*». Yor har gal kemada sayohatga chiqar bo‘lsa, oshiq ko‘ngli «*mavjug‘ daryo kibi*» to‘lqinlanishining boisi shundan:

*Ayriliq oni yaqindur, kema yo‘l bongin cholur,
Vah, meni tashlab firoqqa, yor yiroqqa yo‘l olur,
Jon borib jono bilan, sohilda bir jismim qolur,
Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjug‘ daryo kibi oshufta ko‘gnglum qo‘zg‘alur.*

She‘r, eng avvalo, dard mahsuli. Shoir she‘rda nafaqat o‘zining, balki jamiyat, insoniyatning g‘am-qayg‘usini qanchalik o‘tkir aks ettira olsa, she‘r Shu qadar ta‘sirli bo‘ladi. E.Vohidov Navoiyning «Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni...» g‘azalini sharhlar

¹⁵⁴ Навоий А. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. I жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. 190-б.

ekan, «falak bedodidan, zamon bedodidan shoirning chekkan nolasi bo‘lib, necha asrlar osha devondan devonga ko‘chirilib, og‘izdan og‘izga o‘tib, ham kitob varaqlarida, ham qo‘shiqlar qanotida bizgacha etib keldi», deya uning asrlar osha o‘z qadrini yo‘qotmaganligiga haqqoniy izoh beradi. E.Vohidov ham:

*Ko‘p jafolar ko‘rdi olam,
Ko‘z yumib qilsam xayol,
Misli sayyod tig‘i majruh –
Aylagan ohu zamon¹⁵⁵,*

kabi satrlarda zamon (dunyo)ga nisbatan umumlashma fikr-mulohazalarni bayon qiladi.

Atoqli va sevimli shoirimiz E.Vohidov bir umr Navoiyning muhibi bo‘lib yashadi. Shoirning she‘riyati o‘quvchiga takror-takror Navoiyni eslatib turishi buning yorqin dalili. Unga:

*Ayt-chi, shoir, uchar bo‘lsang fazolarga,
Ko‘char bo‘lsang Oy, Hulkaru Zuhrolarga,
Yo‘lga Yerdan nimalarni olar eding,
Sen kemangga nimalarni solar eding?¹⁵⁶ –*

deb savol berganimizda shoir eng zarur narsalari orasida, albatta:

*Navoiyning, Fuzuliyning she‘rlarini
Olar edim, olar edim men barini.
Bularsiz men uchmoqqa hech rozimasman,
Fazolarga ko‘chmoqqa hech rozimasman,*

javobini berishi tayin. Chunki E.Vohidov «o‘zi bilan she‘r xazinalarini olib yuradi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Gyote yurgandek, Geyne yurgandek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Cho‘lpon yurgandek... Ularning she‘rlarini o‘z she‘rlaridek o‘qiydi. Ularni so‘zlatadi, tilga kiritadi – yetgan yeriga

¹⁵⁵ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ. 2000. 55-б.

¹⁵⁶ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ. 2000. 162-б.

she'r xazinalarini yetkazadi, borgan yeriga she'r xazinalarini yetaklab boradi».¹⁵⁷

ALISHER NAVOIY AN'ANALARI ERKIN VOHIDOV G'AZALLARIDA

*Iroda ISHONXANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallaridagi an'analar zamonaviy she'riyat vakili hisoblangan Erkin Vohidov ijodida aks etishi haqida fikr bildirilgan, g'azallar qiyoslangan. Bu usul yosh avlodning Alisher Navoiy ijodini yaxshi o'zlashtirishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Kalit so'zlar: g'azal, mumtoz, zamonaviy, vazn, an'ana, san'at, lug'at, omonim, antonim, devon.

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyoti an'analari o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Ular sababli adabiyot durdonalari qadrlanib kelinmoqda. Mumtoz adabiyot an'analari zamonaviy adabiyot namunalarining ham qiymatini oshirishiga shubhamiz yo'q. 20-asrning zabardast ijodkori Erkin Vohidov g'azallari tahlilida bunga amin bo'lamiz.

Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" kitobida G'afur G'ulomning Shunday fikrlari bor: "...bu bola mudragan aruzni uyg'otib yubordi. Ivirsiq shoirlar aruzni adoyi tamom qilgan edilar. Aruz baayni pati yulingan tovuq bo'lib qolgandi. Erkin uni arab, fors so'zlaridan tozalayapti. Sof o'zbek g'azalini yaratyapti ... Juda chiroyli, ma'noli, mahorat bilan yozilgan g'azallari ko'p ekan."¹⁵⁸ Yuqoridagi fikrlarni o'qib, Erkin Vohidov g'azallarini Alisher Navoiy g'azallari bilan qiyoslama tahlil qilmoqchi bo'ldim.

¹⁵⁷ Фафуров И. Юрак мулкидаги кашфиётлар // Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. 7-б.

¹⁵⁸ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. – Т.: Шарқ, 1999. 87-бет.

Birinchi navbatda, gʻazallar vazniga eʻtibor qaratdim. Oʻzbek mumtoz adabiyotida eng koʻp uchraydigan vazn ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) hisoblanadi.

*Koʻngullar nolasi zulfung kamandin nogahon koʻrgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon koʻrgach.*¹⁵⁹

Erkin Vohidov gʻazallarida ham ushbu vazn eng koʻp qoʻllanganlaridan biri hisoblanadi:

*Istadim sayr aylamakni
Men gʻazal boʻstonida,
Kulmangiz ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.*¹⁶⁰

Yoki:

*Tun bilan yigʻlabdi bulbul
Gʻuncha hajri dogʻida.
Koʻz yoshi shabnam boʻlib
Qolmish uning yaprogʻida.*¹⁶¹

Yana bir koʻp uchraydigan vazn – hazaji musammani solim(mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun):

*Junun vodiysigʻa moyil koʻrarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yoʻli buzmoq buzilgʻon roʻzgorimni.*¹⁶²

Bu vaznning goʻzal namunalarini Erkin Vohidov sheʻriyatida ham uchratishimiz mumkin:

*Ajab, vaslingga men endi
Yetishganda koʻrindi moh,
Masal borkim, ogʻiz oshga,
Burun toshga tegibdir, voh!*¹⁶³

¹⁵⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami, 3-tom. – T.: Fan, 1988. 96-bet

¹⁶⁰ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. 114-bet.

¹⁶¹ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. 115-bet.

¹⁶² Alisher Navoiy Mukammal asarlar toʻplami. 3-tom, – T.: Fan, 1988. 486-bet.

Mumtoz adabiyotda bir mashhur vazn bor. “Qalandariy” deb nom olgan bu vazn – hazaji axrabi makfufi mahzuf (maf’uvlu mafoiyly mafoiyly fauvly):

*Yor bordiyu ko‘nglumda aning nozi qolibdur,
Andoqki, qulog‘im to‘la ovozi qolibtur.*¹⁶⁴

Bu go‘zal ohangni Erkin Vohidov devonida ham ko‘rishimiz mumkin:

*Gul fasli sanam
Sayr ila gulshanda bo‘libdur,
G‘uncha ko‘z ochib,
Gul yuzida xanda bo‘libdur.*¹⁶⁵

Mumtoz g‘azallarning yana bir go‘zal tomoni – she‘riy san‘atlarning qo‘llanishi. Erkin Vohidov g‘azallarida ham she‘riy san‘atning betakror namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Keling, she‘riy san‘atlarning qo‘llanishini Alisher Navoiy g‘azallaridagi bilan taqqoslab ko‘raylik:

1. Istiora (o‘xshatish) san‘ati

*Gulu gulzor sening bog‘i jamolingg‘a fido,
Sarvu shamshod dog‘i toza niholingg‘a fido.*¹⁶⁶

Zamondosh shoirimiz ijodidan:

*Shafaq ko‘zgusida
O‘z husniga oshiq bo‘lib boqmish
Va tog‘larni taroq aylab,
Quyosh sochin taroqlabdur.*¹⁶⁷

¹⁶³ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000, 195-bet.

¹⁶⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988, 163-bet.

¹⁶⁵ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.174-bet.

¹⁶⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 5-tom, – T.: Fan, 1990, 28-bet.

¹⁶⁷ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. 179-bet.

Bu baytda shafaq ko‘zguga, tog‘lar taroqqa, quyosh nurlari soch tolalariga o‘xshatilgan.

Yoki

*Ko‘rmasa bir dam jamolin
Men kabi zor yig‘lasin,
Abr ichida berkinib,
Motamsaro bo‘lsin quyosh.*¹⁶⁸

Yuqoridagi baytda havoning bulut bo‘lishi quyoshning motam tutishiga, yomg‘ir yog‘ishi oshiqning ko‘zyoshlariga o‘xshatilgan.

2. Talmeh (misrada mashhur shaxs yoki voqeaga ishora qilish) san’ati

*Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sango.*¹⁶⁹

Fikrimizcha, Erkin Vohidov ham she’riy san’atlarni nozik tushungan:

*Ey munaqqid, sen g‘azalni
Ko‘hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida.*¹⁷⁰

Yoki

*Sevgi sahrosida qolmish
Necha Majnundan g‘ubor,
Necha Farhod gardi yotgay
Bistunning tog‘ida.*¹⁷¹

(Bistun – Farhod qazigan tog‘.)

3. Tazod (baytda zid ma’noli so‘zlarni qo‘llash) san’ati

¹⁶⁸ Vohidov E. Ishq savdosi, –T.: Sharq, 2000. 189-bet.

¹⁶⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988, 37-bet.

¹⁷⁰ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. 114-bet.

¹⁷¹ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. 115-bet.

*Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslig‘ osonkim,
Erur paydolinging pinhon, vale pinhonlig‘ing paydo.*¹⁷²

Zamondosh shoirimiz ham o‘z she‘rlarida antonimlarni o‘rinli qo‘llagan:

*Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Bor sitam zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga.*¹⁷³

Yoki

*Shahr ichida holatimdan
Kulmagan bir oqilu
Xilvat ichra menga ulfat
Bo‘lmagan devona yo‘q.*¹⁷⁴

Birinchi baytda shodlik – zorlik so‘zlari antonim bo‘lsa, ikkinchi baytda oqil so‘zi devona so‘ziga zid ma‘noli bo‘lib kelgan.

4. Tanosub (baytda bir-biriga yaqin so‘zlarni qo‘llash) san‘ati

*Xattining vasfin yozarmen kirpiku xoli bila,
Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod.*¹⁷⁵

Bu she‘riy san‘atga ham “O‘zbekiston qahramoni” unvoni sohibi bo‘lgan ijodkorimiz g‘azallaridan misol keltirishimiz mumkin:

*Yoshligim, sen menga bergan
Kuch, shuuring, g‘ayrating
Xalqu yurtga baxsh etolsam,
Shunda mendan rozi bo‘l.*¹⁷⁶

Yoki

¹⁷² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988, 25-bet

¹⁷³ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.115-bet

¹⁷⁴ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.192-bet

¹⁷⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988. 115-bet

¹⁷⁶ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.143-bet

*Bu jahon gulzorida
Har bir chechakning o‘rni bor,
Xoh tikandir, xoh pechakdir,
Xohi yaproq, xohi gul.¹⁷⁷*

Birinchi baytda kuch, shuur, g‘ayrat so‘zlari bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar bo‘lsa, ikkinchi baytda chechak, tikan, yaproq, gul so‘zlari uyadosh so‘zlarga mansubdir.

5. Irsoli masal (baytda maqol qo‘llash) san’ati

*O‘qlaring ko‘nglumga tushgach kuydi ham ko‘z, ham badan,
Kim kuyar ulu qurug‘ chun naysitong‘a tushdi o‘t.¹⁷⁸*

“O‘rmonga o‘t tushsa, ho‘lu quruq barobar yonadi” maqoli ko‘zda tutilgan.

*Kulib yurgay edim bir vaqt
O‘qib Majnun jununidin,
Degaylar o‘zgadin kulma
O‘zingdan bo‘lmayin ogoh.¹⁷⁹*

Bu yerda “Birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuluvchilar bor” maqoliga ishora qilinyapti.

Yoki

*Ko‘yida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo‘q,
Elda bor Shunday masal:
Jon chekmasang jonona yo‘q.¹⁸⁰*

“Toqqa chiqmasang, do‘lona qayda, jon chekmasang – jonona” maqoli juda chiroyli tarzda ifoda etilgan.

6. Tajohuli orif (bilib bilmaslikka olish) san’ati

¹⁷⁷ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.146-bet

¹⁷⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988. 89-bet

¹⁷⁹ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.195-bet

¹⁸⁰ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.192-bet

*Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading?
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?*¹⁸¹

Hazrat Navoiydan keltirilgan yuqoridagi misralardan so‘ng, zamonaviy she‘riyat namunalaridan keltiramiz:

*Ayt, bu soching tolasimu
Jon ipin bir bandimu,
Yoki soching tolasiga
Jon ipim bog‘landimu?*¹⁸²

Yoki

*O‘t yuzingning Shu‘lasidan
Bu qoraygan qoshmi yo
Subhi bayzodek gul uzsa
Shomi savdo tusli barg.*¹⁸³

Bu san’atda oshiq qizning tashqi ko‘rinishiga yoki o‘zining ruhiy holatiga bog‘liq sifatlarni bilib turib so‘raydi, bu bilan holatning tasvirini yanayam go‘zallashtiradi. Erkin Vohidovning birinchi baytida oshiq qizning soch tolalarini jon ipiga o‘xshatib, chiroyli tasvir yasayapti. So‘ngra o‘z tasviriga o‘zi lol qolib, qizdan bu o‘xshashlik asosini so‘rayapti. Ikkinchi bayt yigit ikkilanyapti: go‘zalning qoshi yuzining Shu‘lasidan qorayganmikin yoki bu oppoq gulning ustidagi qora rangli bargmikin?

7. Tajnis(shakldosh so‘zlarni qo‘llash) san’ati

*Sahnida yuz gul chiqorib bir yig‘och,
Har gulining atri borib bir yig‘och.*¹⁸⁴

Bu baytda “yig‘och” so‘zi “daraxt” va “masofa o‘lchovi” ma’nolarida kelgan.¹⁸⁵

¹⁸¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-tom, – T.: Fan, 1988. 98-bet

¹⁸² Vohidov E.. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.183-bet

¹⁸³ Vohidov E. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000.130-bet

¹⁸⁴ Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim-madiah, 2019. 171-bet

¹⁸⁵ Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T.: Fan, 1993. 124-bet.

Omonim soʻzlarni sanʼatkorona qoʻllangan gʻazal:

*Tong emas bu, tongda boʻlsam
Men xayol obida gʻarq,
Tong qilibdur Chunki koʻnglim
Bu xayoldek obida.¹⁸⁶*

Yuqoridagi baytda “tong” (“subhidam” va “qotib qolmoq”) va “obida” (“suvida” va “yodgorlik”) soʻzlari shakldoshligi asosida betakror sheʼriy sanʼat yaratilgan.

Alisher Navoiy sheʼriyatining taʼsiri sezilib turgan goʻzal tashbehlarni oʻqib, sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning naqadar noyob isteʼdod sohibi boʻlganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Ikki zabardast ijodkor asarlarini qiyoslab tadqiq qilishimiz yosh avlodning oʻzbek mumtoz adabiyotini tushunishiga koʻmakdosh boʻladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy // Mukammal asarlar toʻplami, 3-tom. – T.: Fan, 1988-y., 616 bet
2. Anvar Hojiahmedov // “Oʻzbek aruzi lugʻati”. – T.: Sharq, 1998. 224-bet
3. Anvar Hojiahmedov // “Sheʼriy sanʼatlarni bilasizmi?”. – T.: Sharq, 2001. 96-bet
4. Dilnavoz Yusupova// “Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari”. – T.: Taʼlim-media, 2019. 184-bet
5. Erkin Vohidov // “Ishq savdosi”. – T.: Sharq, 2000. 416-bet
6. “Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat”. – T.: Fan, 1993. 376- bet
7. Said Ahmad// “Yoʻqotganlarim va topganlarim”. – T.: Sharq, 1999. 304-bet.

¹⁸⁶ Vohidov E. Ishq savdosi – T., “Sharq”, 2000. 122-bet

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARI

Eshkuziyeva Hilola G'ulom qizi
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'riyatida mumtoz adabiyot an'analaridan mohirlik bilan foydalanganligi, shoir she'rlarining kitobxon qalbidan chuqur joy olishiga ko'maklashadigan jihatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: She'riyat, "Yoshlik devoni", tashbeh, talmeh, tazod.

O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi ko'p qirraliligi va o'ziga xosligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodidagi milliylik, falsafiylik, odamiylik, tarixiylik singari g'oyalar tamoyili kitobxonni beixtiyor poetik mushohadaga chorlaydi. O'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqish, hayot haqiqatining murakkabligi va ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, ma'naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash E. Vohidov ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Erkin Vohidov asarlari orqali uning ko'p sohalardan xabardor ekanligi, jahon adabiyoti bilimdoni, mumtoz adabiyotni, shuningdek, Navoiy ijodiyotini chuqur o'rganganligi yaqqol seziladi.

Shoir 1969-yilda nashr ettirgan "Yoshlik devoni"dan joy olgan ijod namunalari mumtoz adabiyot an'analari ruhida yaratilganligi, zamonaviy g'azalchilikni rivojlantirganligi bilan xarakterlanadi. Devondan g'azal, ruboiy, muxammas kabi janrlar o'rin olgan.

E.Vohidov she'rlarida mumtoz adabiyotga xos badiiy vosita va she'riy san'atlarning qo'llanishi, mumtoz shoirlarimiz she'rlari ta'sirida, ular ruhi va shaklida yaratilgan ijod namunalari, Sharq adabiyotida mashhur an'anaviy obrazlar talqini va boshqalar orqali mumtoz adabiyot an'analarini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotshunos olim I. G'afurovning ushbu fikrlari diqqatga sazovordir: "E.Vohidov zamondoshimiz. U o'zi bilan birga she'r xazinalarini olib yuradi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Gyote yurgandek, Geyne yurgandek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Cho'lpon yurgandek... Ularning she'rlarini o'z

she'rlaridek o'qiydi. Ularni so'zlatadi, tilga kiritadi – yetgan yeriga she'r xazinalarini yetkazadi, borgan yeriga she'r xazinalarini yetaklab boradi. She'riyatning ma'rifati va madaniyati shu bo'lsa kerakda!"¹⁸⁷.

E.Vohidovning "Barcha shodlik senga bo'lsin", "Ko'zing", "Surma", "Yo'q emish orzuda ayb", "Chashma", "Dostonga yoz", "Sarv", "Hijron yuki", "Barg" kabi she'rlarida mumtoz she'riyatga xos uslub, g'oya, ohang ko'zga tashlanadi. "Ko'zing" she'ridan keltirilgan quyidagi parcha bunga yorqin misol bo'la oladi:

Hajrdin tor bu ko'ngilga
Shu'la afshondir ko'zing,
Yo magar ko'nglim yo'qolgan
Tor shabistondir ko'zing.

Shu bilan birga shoirning ko'pgina she'rlarida mumtoz adabiyotga xos tushuncha, atama, obraz va timsollar ishlatilganligini guvohi bo'lamiz. "Chashma" she'ridagi "sanam", "hajr", "vasl", "zohir"; "Tun bilan yig'labdi bulbul..." she'rida "sabo", "g'uncha", "bulbul"; "Sarv" she'ridagi "sarv", "oyruksor", "oshiq", "sunbul"; "Yo'q emish orzuda ayb..."da "sayyod", "sayd", "dom", "band", "ohu", "jodu", "ishq domi", "ishq", "kahrabo"; "Kiprigingdan o'q uzib" she'rida "ashk", "ko'ngil mulki", "g'am sipohi" kabilar fikrni tasdiqlaydi.

Tashna ko'nglim ichmasin deb
Ko'z yoshimdan qatra ham,
Ashk soyining yo'lida
Kiprigim dahm aylading.

Erkin Vohidov she'rlarida Sharq adabiyotida tez-tez uchraydigan an'anaviy obrazlar ham uchraydi. Mumtoz adabiyotda sevgi-muhabbat timsollari sanaladigan Layli (Laylo), Majnun, Farhod, Shirin kabilardan shoir ijodida ham mahorat bilan foydalangan. "Samar bo'lg'ay" she'rida quyidagi satrlar keltiriladi:

¹⁸⁷ Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq, 2000.

Tirilsa nogohon Farhod,
Yuzingni ko'rsa ko'zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil
Qo'yningda darbadar bo'lg'ay.

Lirik qahramon yorining jamolini shu qadar go'zal ekanligini, uni ko'rsa Farhod hatto Shirindan voz kechishini ta'kidlaydi.

Shoirning yana bir she'rida oshiq, ya'ni lirik qahramon o'zi hamda ma'shuqasini Laylo va Majnunga qiyoslaydi:

Jahonda ikki dilbarning
Biri sensan, biri, Laylo
Jahonda ikki oshiqning
Biri menman, biri Majnun.

Mumtoz adabiyotda badiiy san'atlarning o'rni ahamiyatlidir. Ular she'r badiiyatini oshiradi. Shoirning naqadar mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Erkin Vohidov she'rlarida ham she'riy san'atlar mahorat bilan qo'llanilganligini ko'ramiz. Shoir "Shohi gul" she'rida yor yuzini gulga mengzaydi:

Otashin gul uzdim, ol, bu –
Shohi gullar shohi gul,
Gul sochiq yo'llarda bo'lsin
Gul yuzim hamrohi gul.

Ijodkor talmeh san'atidan ham juda ko'p o'rinlarda foydalangan. Sharq she'riyatidagi mashhur talmehlardan biri Majnun obrazini E. Vohidovning "Masal borkim..." she'rida ham uchratamiz:

Kulib yurgay edim bir vaqt
O'qib Majnun jununidan
Degaylar, o'zgin kulma
O'zingdan bo'lmayin ogoh.

"Dilda ishq daryochadir..." she'rida lirik qahramon bo'lgan oshiq yigit ma'shuqasini ta'riflar ekan, mumtoz an'analarga xos mubolag'aviy tavsif keltiradi:

Voh, ajab nomingni aytsam
Lol bo‘lur til ham ko‘ngil,
She‘r ipi nogoh qalamning
Ignasidan qochadur.

Ma‘shuqaning ismi tilga kelganda, oshiqning uzvlari bo‘lgan til va ko‘ngil lol-u hayron bo‘lib, tang ahvolga tushadilar. She‘r ipining qalam ignasidan qochishi – bu oshiqdagi kuchli ishq sababli yuzaga kelgan ruhiy holatning ifodasi bo‘lib, ignaga ip o‘tkazish, ya‘ni yaxshi bir she‘r yozishga qo‘li bormaslik, hech ham ko‘nglidagi ishq o‘tini so‘z bilan ifodalay olmay ojiz qolish holatining ifodasi uchun qo‘llangan. “She‘r ipi” istiorasi yozilajak ash‘or ma‘nosida bo‘lsa, “qalamning ignasi” istiorasi esa yozishga chog‘langan qo‘l yoki shoirning ishga kirishishi ma‘nosida qo‘llanilgan.

Tazodning yuksak namunasi “Barcha shodlik senga bo‘lsin”, “Dutorim tori ikkidur...” she‘rlarida ko‘rish mumkin. Mana bu misralar mumtoz she‘riyatimiz ruhiga hamohang:

Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber,
Senga bo‘lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga.

Umuman, bunday mulohazalarni ko‘plab keltirish mumkinki, shularning o‘zi ham E. Vohidov she‘riyati mumtoz adabiyotimiz an‘analarini o‘zida mujassamlashtirganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vohidov E.. Ishq savdosi. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq, 2000.
2. Vohidov E.. Yoshlik devoni. – T.: Adabiyot va san‘at, 1969.
3. E. Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2020.

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING MUSIQIY OHANGDORLIGI

*Azimboyeva Go'zal,
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri E.Vohidov she'rlarining musiqiy ohangdorligi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar. Soz sehri, ajdodlar merosi, buyuk adabiyot, so'z latofati.

Millatning millarligini ko'rsatuvchi kuch adabiyotdir. Muhtaram prezidentimiz so'zlari bilan aytganda "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirsan kuchidan foydalanish kerak"¹⁸⁸. Bu yo'lda bizga O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, dramaturg, adabiy tarjimon, nafis so'z, go'zal hayol, husni dil sohibi Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, ohanglarga jo bo'lgan she'riyati mayoq vazifasini bajaradi. Buyuk shoirning she'rlari xalqning dilidagi gaplarni o'zida jam qilganligi bilan birga ma'no izchilligi, musiqiy ohangdorlik kasb qilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Erkin Vohidov she'rlarida musiqiy ohangdorlikni o'rganar ekanmiz uning har bir she'rida musiqiy ohang borligi yaqqol sezilib turadi. Shoirning hazilomus latifalari ham bor. Aslida bu hazil tariqasida chin voqelik zamirida yotgan haqiqatlarni bayon etadi. "Matmusaning qo'shig'i", "Matmusaning dutori"da musiqa terminlariga oid bir qancha so'zlar ishlatiladi.

Mana, xotin, ko'rib qo'y,
Manovni dutor deydi.
Manov bog'ichni parda,
Manov ipni tor deydi...

¹⁸⁸ Prezident Sh. Mirziyoyevning A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi. O'zA,2022. 20-may.

Bir mahal bobomda ham
Shunday cholg`u bor edi.
Esimdan adashmasam,
O`sha ham dutor edi.

Lekin u chalmay turib,
Qulog`ini burardi.
Barmog`i ham manov ip
Ustida yugurardi.

Sen bo`lsang bitta yerni
Tutgancha qolaverding.
Bir xil ting`ir- ting`irni
Qo`ymasdan chalaverding.¹⁸⁹

Bundan ko`rinib turibdiki Erkin Vohidov nafaqat shoir balki, musiqani teran xis qila olgan she`rdagi musiqiylikni ajib bir tasvirlay olgan ulug` shoiridir. “Matmusaning dutori” da dutor, parda, ip sozlashda kerak bo`ladigan dutorning qulog`i haqida so`z borgan. Dutor 2 torli musiqa asbobi bo`lib, fors tilidan (du – 2, tor – tor) “2 tor” degan ma`nolarni anglatadi. Dutor bizning zaminda qadim zamonlardayoq paydo bo`lgan milliy cholg`u asbobidir. Avval, rud, ud, barbat ham deyilgan. Bizda esa hozirgacha do`mbira va tanbur so`zlariga ma`nodosh sifatida ishlatiladi. Ayrim Turkman qabilalarida dutor hozir ham “tamgra” deyiladi.

Parda musiqaning bosh mezonlaidan biri va kuyning harakatdagi ko`rinishi hisoblanadi. Chalinayotgan sozda pardalarni buzish sozandalar tilida “pardadan qochish” g`alizlik hisoblanadi. Matmusa, xotini dutor chalayotganda ishlatgan “ting`ir-ting`ir” shu “parda qochishi” iborasiga xosdir.

So`z va soz san`ati tushunchalari bir-biriga uyg`un ravishda bog`liqdir. She`rga musiqiy ohangdorlik qo`shishda so`zlarning ham o`rni ahamiyatlidir. She`rdagi so`zlarni kuyga solish uchun turli xil musiqa asboblardan foydalaniladi. Musiqada “soz” so`zi ikki asosiy ma`noda ishlatiladi, ya`ni cholg`u asbobi va yaratuvchi ijodkorga nisbatan.

¹⁸⁹ Vohidov E. Tabassum. – Toshkent, 2010.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston xalq xofizi Sherali Jo‘rayev Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasini ijro etishda bir qancha cholg‘u asboblarning navolarini uyg‘unlashtirganini eslashimiz mumkin. Zero, so‘z yasharkan navo bor, navo yasharkan, so‘z barhayotdir. Lekin, bir narsani alohida takidlash kerak-ki, “O‘zbekim” qasidasi navo bilan sayqallangani uchungina emas, o‘zi nodir asar bo‘lganligi uchun xalq qalbidan chuqur joy oldi. Bekorga xofizning o‘zi: “O‘zbekim”ni kuylasam tomirlarimda qon to‘xtab qoladi. Shundan keyin boshqa qo‘shiq kuylay olmayman”, - demagan bo‘lsa kerak.

“O‘zbekim” qasidasi yaratilishiga guvoh bo‘lgan Erkin Vohidovning universitetda birga o‘qigan kursdoshi va do‘sti Rahmatilla Inog‘omov shunday eslaydi: “Xonada pashsha uchsa eshitiladi, miq etmay ishlaymiz. Ikkimiz ham o‘z hayollarimiz, ishimiz bilan bandmiz. Ahyon-ahyonda Erkinga sekingina razm solaman – uning hayoli parishon, qaraganimni ham sezmaydi. U yozishdan ko‘ra ko‘proq hayol suradi. Har zamon – har zamonda nimalarnidir yozayotgani ruchkasining qitirlashidan bilinadi. Ba‘zan esa ruchkasining yurishidan yozganlarini o‘chirayotganini his etaman”.¹⁹⁰

Erkin Vohidov juda murakkab bir zamonda yashadi. Qalbidagi so‘zlarni qog‘ozga tushirar ekan. Qora bulutlar soyasida yozganlarini o‘chirishga ham majbur bo‘ldi. Lekin, “O‘zbekim” qasidasi bundan mustasno. U har qanday tazyeqlarga qaramasdan yozildi, kuylandi, qalblarga jo bo‘ldi. Shuning uchun ham bu qasida beg‘ubor va sokin osmonda to‘satdan gumburlagan momaqaldiraq yanglig‘ hammayoqni larzaga keltirdi. Chin ma‘noda bu qasida xalq qo‘shig‘iga aylandi.

Ohangdor satrlarga boy bo‘lgan shoir ijodi har doim qalblarda kuy bo‘lib yangragay. Zero, so‘z tamom bo‘lgan joydan soz boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi. O‘zA, 20-may.
2. Erkin Vohidov. “Tabassum” Toshkent, 2010.
3. Rahmatilla Inog‘omov. Shoirlik qismati. Toshkent, 2016.

¹⁹⁰ “Shoirlik qismati” T. 2016. 65-bet.

4. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar “Sharq”, Toshkent, 2016.
5. Erkin Vohidov saboqlari. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2016.

ERKIN VOHIDOV – RUHIYAT TASVIRI USTASI

*Shirinmoh TO‘RAEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning ijodini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g‘oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligicha va to‘lig‘icha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o‘tkir ijtimoiy masalalarini dadil ko‘tarib chiqish, ma’naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir. O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo‘shgan atoqli shoir, taniqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda shoirning xotirisini abadiylashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, ruhiyat, tasvir, tuyg‘u, ijodkor, asar, manzara, detal, obraz.

Badiiy adabiyot ijodkor tomonidan yaratilar ekan, kitobxonlarga ta’sir etishi uchun badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Asarlarning ommalashib yuqori darajada o‘qilishi uchun ham badiiy tasvir vositalarning o‘rni muhimdir. Albatta shunday vositalar emotysionallikni oshiradi. Ijodkorlarning asardagi har bir detal, tasviriy vositalarning muhim o‘rni borki, ularni olib tashlash yoki o‘rniga boshqa birortasini qo‘yishning iloji yo‘q. Agar shunday bo‘lsa mazmuniga putur etadi. Asar bir butun komponent hisoblanadi. Asar o‘zining talab doiralariga javob berishi uchun yozuvchi ancha saviyali, hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan

qarashi, ularni tub mohiyatini anglashga intilishi, samimiy va soxtalikni aniqlay olishi hamda ancha saviyali bo‘lmog‘i kerak. Ijodkor o‘z fikrini yoritir ekan, o‘zining o‘y-xayollaridan kelib chiqib yondashadi ya’ni har bir ijodkor o‘z so‘zini aytadi. Asar tasvirlanganda uni badiiy tasvir vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Badiiy tasvir vositalari ijodkorning yozgan ijod mahsuligina bo‘lib qolmay, balki inson ruhiyatini ochishning ham bir ko‘rinishidir. Bu ko‘rinishlar orqali biz uni nima demoqchi ekanligini, yoki asar qahramonining qanday holatda ekanligini bilamiz va his qilamiz. Shuningdek, asarda qahramonlarning kechinmalari ijodkor tomonidan bo‘rttirilib ifodalanadi. Bunday paytda uning ruhiy holati og‘ir ekanligi, vaziyati qiyin hamda mashaqqatli yoki aksincha ekanligidan darak beradi. “Asardagi har bir detal, epizod, voqea, manzara va obraz tasviri vositalari ijodkorning g‘oyaviy-badiiy niyatiga xizmat qiladi. Asarda ayniqsa detallar muhim ahamiyat kasb etadi. Detaillar asarlarning keyini nima bo‘lishini, voqealar rivojini shakllanishi va bir-birini bog‘lashga xizmat qiladi”.

Shuningdek, XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xosligi, ko‘p qirraligi va ruhiyatning tasvirini to‘liq aks ettirishi bilan ajralib turadi. Xalqimizning sevimli farzandi Erkin Vohidov odamlarga faqat She’rigina emas, balki o‘zi ham kerakliligini chuqur his etishi tuyg‘usi bilan yashadi. U soddadil, mehnatsevar, bolajon xalqini sevish bilan birga uning ko‘zini ochish, erishilgan g‘alabani asrab qolishdan iborat ekanligini amalda isbotlab, istiqloq She’riyatini odamlar yo‘lini yorituvchi mash’alaga aylantirdi. Buning uchun harakat qildi, yashadi, kuyladi, faxr ayladi. Darhaqiqat, Erkin Vohidovning ruhiyatida insonlarning, jamiyatning aytaylik qalbning harorati sezilib turadi:

Soxta do‘st ko‘ngil so‘rar,
Ko‘ngilga lekin do‘st emas.
Darding ochma, dardi yo‘qdir,
Zoring aytma, zor emas.

Sog‘ligingda sog‘inar,
Sog‘moqchi bo‘lsa sog‘inar.
Suhbatingni istadim, der,
Maqsadi diydor emas.

Yuqorida keltirilgan “Soxta do‘st” she‘rida tasvirlangan insonning ruhiyatida do‘stlik, samimiylik o‘rnini soxtalik, ikkiyuzlamachilik, bilan bog‘liq hissiyotlarning yaqqol namunasi ko‘zga tashlanadi. Ushbu misrada shoir hayotda uchraydigan do‘stlik tushunchasining ichki ziddiyatlariga teran nazar tashlab, qalamga olingan soxta do‘stning ko‘ngil so‘rashi qalbgaga malham bo‘lmasligi, dardi yo‘q insonning dardkash bo‘lmasligi, yo‘qlaganda ham o‘z manfaati ustun ekanligi kabi ruhiyatning qarama-qarshiligi, ziddiyatlari bilan yaxlit etiladi. Natijada shoir she‘rlari kishilarni bir-biriga ko‘rinmas tuyg‘ulari bilan bog‘liq ehtiyojningqudratini ochib beradi.

Aslida inson bu dunyoda asl do‘stlikning qiymatini, insoniylik tuyg‘ularining ustunligini anglamog‘i zarur. Shoir hayot haqiqatini o‘z asarlarida jonli va jozibali, tuyg‘ular in‘ikosining murakkabligini ruhiy tasvirlar bilan boyitganligi bilan ajralib turadi. Ko‘rinib turibdiki, asarda inson tafakkurining ruhiyat bilan bog‘liq ichki kechinmalari voqealarning aks ettirilishi alohida o‘rin kasb etadi. Erkin Vohidov esa ana shunday ruhiyatni maromiga etkazib, insonning qalbiga ta‘sir qila oladigan darajada tasvirlagani uchun ham ruhiyat ustasi sifatida bir yoshlar ongida gavdalanadi. Birinchidan, o‘z ona xalqiga, Vataniga chinakam mehr qo‘ymagan ijodkor har qancha iste‘dodga ega bo‘lmasin bunday mavqega erisha olmaydi. Mehr-muhabbati kuchli, sadoqati beqiyos bo‘lganligi tufayli Erkin Vohidov xalqimizning chindan ham nihoyatda suyukli shoiri bo‘lib qoldi. Shoiri o‘zbek she‘riyatiga yangicha fikr, yangi shakllar, yangi obraz, yangicha ohang, yangicha usul va shukuh olib kirdi va uning tamoman yangilanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Shoirning she‘rlari ruhimizga ko‘tarinkilik, mehr-muhabbat, sokinlik, kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Demak, ana shunday ijodkorni sevmalikni, asarlarini o‘qimaslikning iloji yo‘q. Yosh avlodni ma‘naviy etuk va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ham shoirning o‘lmas merosi juda katta qimmatli manba sifatida xizmat qiladi...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlari. – T., Sharq, 2018 . – 31-bet
2. Internet materiallari

3. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she'riyat.// Sharq yulduzi, 2013. 2-son.

ERKIN VOHIDOV G'AZALLAIDA NAVOIY AN'ANALARI

*Dildora HUSANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning o'zbek mumtoz adabiyotida Navoiy an'anelarini davom ettirganligi va mavzu ko'lamini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Erkin Vohidov, g'azal, aruz, vazn, ijtimoiylik, yumor, an'ana.

She'riyat – go'zallik va tuyg'ular dunyosi. Mumtoz she'riyatimiz esa uning gultojidir. Bu muhtasham xazina bag'rida yaratilgan ne-ne g'azal-u qasidalar, ruboiy-u masnaviylar hali-haligacha o'z qiymatini yo'qotgan emas. Ularga jo bo'lgan his-kechinmalar esa yillar o'tgani sayin ta'rix qa'riga emas, balki kelajak tomon yanada sayqallangan holda insonlar qalbiga yo'l olmoqda. Mana shunday tuyg'ularning keng ko'lamiga ega g'azallarni bitgan shoirlardan biri, nafaqat shoir, balki Maqsud Shayxzoda e'tirofi bilan aytganda “G'azal mulkingning sultoni” Alisher Navoiydir.

Hazrat Navoiy yaratgan har bir asar ellar ichida doston bo'ldi, uning ijodiy an'anelari esa o'zidan keyingi shogirdlari uchun dastur-ul amal vazifasini o'tadi. Faxr bilan Shuni aytishimiz mumkinki, uning an'anelarini munosib davom ettirgan shogirlaridan biri O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov bo'ldi.

Erkin Vohidov nafaqat buyuk shoir, balki qalami o'tkir yozuvchi, yetuk tarjimon, mohir dramaturg sifatida ham adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ayniqsa, aruzni qayta jonlantirgani bu so'z san'atimiz tarixida unutilmas voqea va yorqin adabiyotimizning yangi nashidasi bo'ldi.

Biroq endi aruz namunalaridagi mavzu qamrovi ancha kengaygan edi. “Qizig'i shundaki, ancha vaqt ishq izhori va Yaratganga

munojotdan boshqaga yaramaydi, deb qarab kelingan aruzda shoir g‘oyat o‘tli ijtimoiy lirika namunalarini yarata oldi. Bu hol bitikning qanday saviya, salmoq va yo‘nalish kasb etishi qaysi vaznda yozilgani emas, balki qanday yozilganiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Erkin Vohidovning yetuk asarlari yuksak badiiyati, shafqatsiz haqiqati va samimiyligi bilan jahon she‘riyatining eng yaxshi namunalariga uyg‘undir”[1]. Darhaqiqat, shoir ijod qilgan g‘azallarda ijtimoiylik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Navoiy hazratlarining “O‘n sakkiz ming olam oShubi agar boshindadir...” deb boshlanuvchi g‘azaliga nazira (o‘xshatma) sifatida yozilgan g‘azali buning yaqqol namunasidir:

O‘n sakkiz ming olam oshubi padar boshindadir,
Ne ajab, chun o‘g‘li oning o‘n sakkiz yoshindadir.
...Nay misol shim kiygan ul sandiqdayin tufli bilan,
Hurpayib turgan savatdek soch aning boshindadir.

Shu o‘rinda, shoirning kulgi ustasi ekanligini, hazil-mutoyibani misralar bag‘riga mahorat bilan singdirib yubora olish mahoratini ham unutmashlik darkor. Yuqoridagi baytlarda ham xuddi Shu ohangni sezish qiyin emas, albatta.

Bilamizki, “o‘n sakkiz yosh” o‘smirlikning eng gullab-yashnagan davri sifatida talqin qilinadi, hozirgi kunda bu o‘smirlikka o‘tish, ya‘ni balog‘at davri bo‘lib, bunday paytda yoshlarda turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shoir ularni teran kuzatgan holda o‘g‘il bolalarning bu davrdagi holatini qisman yumor orqali tasvirlagan bo‘lib, ularning “ommaviy madaniyat” ga qay darajada berilib ketayotganliklarini aks ettirgan bo‘lsa, Navoiy g‘azalida yuqorida aytilgan ishq izhorini ko‘rish mumkin:

O‘n sakkiz ming olam oShubi agar boshindadir,
Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadir.
Desa bo‘lg‘aykim, yana ham o‘n sakkiz yil husni bor,
O‘n sakkiz yoshinda buncha fitnakim, boshindadir.

Ushbu misralarda shoir tarafidan yor vasfini ulug‘lab aytilgan ta‘rif-u tavsiflarning guvohi bo‘lish mumkin. Tasavvufda majoziy va

haqiqiy ishq mavjud bo‘lib, g‘azallar zamirida, asosan, majoziy ishq bitilgan bo‘lib, bu orqali haqiqiy ishqqa ishora turgan.

Erkin Vohidov g‘azalni yozishda yumordan foydalanadi. Yuqorida yengil yumor uyg‘otgan g‘azalning davomiga e‘tibor qilar ekanmiz, endi unda satirik kayfiyat aks eta boshlaydi:

Ul padar oh urmasin-nechun yoqosin chok etib,
Neki badfe‘l bo‘lsa, bari ushbu boshindadir.

Afsuski, o‘g‘ilning sho‘xliklari, taltayishlari ortidan badfe‘llikday illat bo‘y cho‘zdi. Bundan azob chekkan, qayg‘urgan, kerak bo‘lsa, yoqalarini pora-pora qilgan ota bo‘ldi. Keyingi baytga diqqat qiling-a:

O‘zgalardan kulgay erdi ko‘cha-ko‘yda bir zamon,
Aqlg‘a yuz hayrat, emdi-bul uning qoshindadir.

Ushbu baytni o‘qib, qalbingizda bir qarama-qarshilik yuzaga keladi: “Nahotki ota bir paytlar kimlarningdir ustidan Shunaqa ishlari uchun pand-nasihati berish o‘rniga kulgan bo‘lsa-ya...”,- degan taajjub sizni hayron qoldiradi. Dono xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Bu dunyo qaytar dunyo” kabi hikmatli so‘zlarini bevosita eslab, o‘yga tolasiz va xulosa chiqarasiz. Shoir bu hikmatli so‘zlarni g‘azal misralarida keltirmagan-u, lekin siz buni uning mag‘zidan uqib olasiz. Bu yerda baytning assotsiativlik xususiyatini ham ta’kidlash zarur.

Aynan Navoiyning ikki misra bilan ham mushohadaga boy g‘azallar yarata olish iste’dodi Erkin Vohidov g‘azallarida ham takror-takror uchrashi shoirning bu merosni munosib davom ettirganidan nishonadir.

O‘g‘lidan aylardi umid keltirar rahmat debon,
Barcha “rahmat”elning otgan ta’nai toshindadir.

Har bir ota-ona farzandining kamolini ko‘rishni, uning ortidan rahmatlar eshitishni istaydi. Bu ota ham o‘g‘lidan katta umidlar qilgan edi. Xalqning olqishida bo‘lishni istagandi. Biroq o‘tmishda qilingan xatolar farzandga ham soya solgan edi. Endi ota “rahmat” , “olqish” lar o‘rniga elning ta’na toshlarini oladi.

Erkin Vohidovning soʻz qoʻllash mahorati, haqiqatan, betakror. Biz “tosh otmoq” iborasini koʻp eshitganmiz, biroq misrada bu ibora oʻzgacha sayqallangan. Yaʼni “taʼna toshini otmoq” shaklini vazn talabidan kelib chiqqan holda undan izofali birikma yasab, alliteratsiya (tovushlar takrori, uygʻunligi)ni hosil qilish; qolaversa, mazmunda ham “taʼna qilmoq”, ham “rosmana tosh otmoq” maʼnosini berish orqali bu iychom sanʼatini hosil qilib, bularning bari uygʻunlikda musiqiy ohangni bera olganligi shoirning mahorati naqadar yuqori ekanligidan darak beradi.

Yoʻq ajab, yoshlikda oʻgʻlin ota ardoqlab, suyib,
Erkalab boshiga qoʻydi, ul hamon boshindadir.

Maqtaʼda yuqoridagi barcha voqealarning asl sababi koʻingandek boʻladi. Ota oʻgʻlini haddan ortiq erkalatganligi, kerak boʻlsa, boshiga chiqarganligi bois ham u hamon uning boshida. Yoʻqsa, bir oʻylang-a, axir yigit oʻn sakkizga kirdi, “togʻni talqon qiladigan” payti kelmadimi? Axir oʻn ikki yoshida taxt boshqargan Zahiriddin Muhammad Boburdek buyuk bobokaloni borligidan xabari yoʻqmi?..

Ha, kulgi orqali berilgan bu gʻazal hayotning Shunday lavhalarini koʻrsatadiki, bu orqali shoir farzand tarbiyasida alohida eʼtiborli boʻlish kerakligini, yigitlarning mard, jasur, oʻz vatanini sevib, qadrlaydigan, himoya qiladigan, ota-onani hamisha eʼzozlaydigan insonlar boʻlib ulgʻayishga undaydi, daʼvat etadi.

Gʻazalning shakliga eʼtibor qaratsak, Navoiyda 7 bayt boʻlsa, Erkin Vohidov 6 bayt shaklida yozadi. Gʻazal ramali musammani mahzuf , yaʼni foilotun-foilotun-foilotun-foilun bahrida yaratilgan, taqteʼsi

– v – – / – v – – / – v – – / – v –

“Millatga, yurtga chin mehr faqat maqtov-u madhiyadan iborat boʻlmaydi. Asl adabiyotda el-u yurtga muhabbat hayotning teran badiiy tasviri orqali yuzaga chiqariladi. Shafqatsiz hayotiy haqiqat, yechimsiz muammolar, insoniyat oldida turgan masalalar boricha koʻrsatilib, odamning koʻngil dardlari ochiq aytilgan asarlar el-ulus maʼnaviyatini yuksaltiradi. Bunday bitiklar xalqning dilidan joy olib, ruhiyatiga oʻktamlik baxsh etadi” [2].

Erkin Vohidov ijodini abadiy mavzular olami deyish mumkin. Shoirning Navoiyning “Aylagach” gʻazaliga bitilgan muxammasida

ham Navoiy an'alaridan o'rinli foydalanadi. U bu muxammasda gul, bulbul, g'uncha, ag'yor obrazlaridan foydalanadi.

Barg ostidan muloyim, boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan, bag'ring nechun tuguncha.

Erkin Vohidov g'azallarida gul so'ziga nisbatan g'uncha so'zini ko'proq ishlatadi va yorqinroq tasvirlaydi. Sodda va xalqona uslubda g'uncha haqida yozilgan aruzning o'ynoqi vaznidagi bu misralar rostdan ham yoqimli. Bu betakror ijod namunasi o'zbek g'azalchiligini yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqdi [3]. Erkin Vohidov ijodida hali tahlil qilinishini kutayotgan durdona asarlar judayam ko'p.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov barcha janrlarda barakali va keng qamrovda ijod qilgan. Jumladan, ko'rib o'tganimiz g'azal janrida ham mukammal qalam tebratgan. "Yoshlik devoni" nomli to'plamning to'laligicha aruz vaznida yozilishi esa so'zimizning isbotidir. Shoir yosh avlodda aruzga bo'lgan muhabbatni yana bir bor uyg'otdi. Aruzda faqat qalbning nozik tuyg'ularinigina ifodalash mumkin, degan fikrlardan qochib, o'zining yangi yo'nalishini, mavzu ko'lamini yarata oldi. Ha, hayotning ijtimoiy ko'rinishlarini ham, turfa xil mavhum tushunchalarni ham bir maromda go'zal ifodalay olish, ayniqsa, ularni quloqqa birdek mayin eshitiluvchi aruzga sola bilish, unda buyuklar an'anasini qo'llay olish bu haqiqiy mahorat sohibining ishi edi. Erkin Vohidov- ulkan va serqirra iste'dod egasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Yurak hurriyatiga intilgan shoir. "Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati" mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2020. – B. 8.

2. Zoyirova M. Erkin Vohidov ijodida mumtoz adabiyot an'analari. –Buxoro, 2012. – B.10.

3. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot darsligi. – Toshkent, 2018. – B.63.

ERKIN VOHIDOV IJODODA SO'Z LATOFATI

Ra'no SAYFULLAEVA
filologiya fanlari doktori, professori
Hulkar HAMROEVA,
filologiya fanlari nomzodi

Zamonaviy o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib va tarjimon, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov o'zining bebaho va noyob she'riyati, betakror dramaturgiyasi va publitsistikasi bilan xalqimiz yuragidan joy oldi. U biri biridan teran asarlarida insonning ziddiyatlarga to'la murakkab hayotini mohirona tasvirlaydi, uning ruhiyati va ichki dunyosini ochib beradi.

Muhtaram Prezidentimiz Marg'ilondagi ijodkorlar bog'iga tashrifi chog'ida: "Ushbu bog' yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan maskanga aylanishi kerak. Bu erga keluvchilar Erkin Vohidov she'rlaridan bahramand bo'lib, ma'naviy olamini yanada boyitsin. Hech shubha yo'qki, Qahramon shoirimizning she'ru g'azallari inson qalbiga nur indiradi, ziyo bag'ishlaydi. Bu nur esa kelajakda yoshlarning umr yo'llarini yoritib turguvchi bir mayoq bo'ladi, albatta" [G'.Majid, 2018: b.98] degan edi.

Erkin Vohidov asarlariga o'zgacha latofat va mas'ud ohang, "nur va ziyo" baxsh etgan asosiy omillardan biri – uning so'z tanlash va ishlatish mahorati, o'ziga xos tili va betakror tasvir usulidir. Atoqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Erkin Vohidov she'riyatining eng muhim, eng qimmatli tomoni shundaki, unda zamondoshimiz haqidagi, ziddiyatlarga to'la, serg'alva, sertashvish, quvonch va shodliklarga uncha moslasholmagan XX asrning ikkinchi yarmidagi insonning mashaqqatli, izlanishlarga boy hayoti to'g'risidagi haqiqat mujassamlashgan" [Sharafiddinov. O. 2019: b.75].

"Insonning mashaqqatli, izlanishlarga boy hayoti" va ruhiy kechinmalari haqida yozar ekan, shoir inson qalbiga, uning umriga nur baxsh etadigan birodarlik, mehr-oqibat tuyg'ulariga juda ko'p murojaat etadi. Uning "Qozoq oqinlariga", "Abay", "Azganush", "Qo'ng'irotda aytilgan alyor", "Ona tilim o'lmaydi", "Afg'on shoirlariga", "Darddoshlik (*Ivan Drachga*)", "Turkiston bozori",

“Tojik birodarimga”, “Sharqiy qirg‘oq (*Ivan Novikovga*)”, “Turkiston bir, Vatan bir” kabi asarlari nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti xazinasiga bebaho dur bo‘lib qo‘shildi. Shoirning “Qozoq oqinlariga” she’rida juda ohorli tashbeh - chiroyli so‘z o‘yiniga duch kelamiz:

*Qozoqning ardoqli o‘g‘li – O‘ljasi,
O‘zbek she’rxonining bo‘ldi o‘ljasi*

birinchi satrdagi “O‘ljasi” – *O‘ljas* - ism sifatida kelib, mashhur qozoq shoiri O‘ljas Sulaymonovga ishora bo‘lsa, ikkinchi satrdagi “o‘ljasi” – *o‘lja* – qo‘lga kiritilgan ma’nosini bildirmoqda.

Erkin Vohidovning “Do‘stlarimni hayron qoldirar”, “Do‘st bilan obod uying”, “Do‘stlarga maktub”, “Do‘stga biz sog‘ar uzatdik”, “Do‘stga deganim”, “Bevafo do‘stlarga”, “Do‘sti nodondan ko‘ra” , “Do‘stlik va adovat”, “Do‘stlaring bo‘lsin”, “Do‘stlik sharti”, “Soxta do‘st” kabi she’rlari syujet qurilishi, ramziy – majoziy mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Mohiyati esa yagona – ularda haqiqiy , pokiza do‘stlik ulug‘lanadi. Ularni do‘stlik sharafiga bitilgan falsafiy teran she’rlarning mumtoz namunalari deyish mumkin. Do‘stlik haqidagi bu nodir asarlarning yaratilishida qo‘llangan tasviriy vositalar, she’riy san’atlar, shoirning so‘z tanlash va so‘z qo‘llash mahorati alohida tadqiqot mavzuidir.

Yana bir haqiqat: Erkin Vohidov so‘zni eng yaqin, eng ishonchli do‘st deb biladi. Shoir “do‘st” so‘zini faqat Sharq mumtoz she’riyatida eng ko‘p murojaat qilingan obrazlardan biri hamda an‘analarga sadoqat sifatida emas, balki qalb amri bilan tilga oladi. Uning mehri va zavqi bilan bir qatorda zalvori va mas’uliyati ham katta, yuki og‘irligini yaxshi biladi. Bir umr shu ishonchiga sodiq qoldi. Eng muhimi, ikkalasi ham bir-biriga xiyonat qilmadi. Shuning uchun ham ulug‘ shoir ijodida eng ko‘p uchraydigan so‘zlardan biri – do‘stdir. Mavjud lug‘atlarimizda *do‘st forschadan olingan bo‘lib, shafqatli o‘rtoq, yor, oshno, mahbub(a). Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri: o‘rtoq ekanligi haqida izoh beriladi.* [O‘TIL.2006:b.677]

“Do‘stga deganim” g‘azalida shoir yuragini o‘rtayotgan iztirobni shunday ifodalaydi:

*Inson tilini
Til bilar inson tushunibdir,
Dil dilni va lek,
O‘ylama, oson tushunibdir
Achchiq esa ham
Chinni demak sharti sadoqat,
Do‘st anglamasa,
Yot buni qay on tushunibdi.*

Shoirning poetik-estetik olamini yorqin ifodalab beruvchi bu ta’sirchan satrlar tagma’nosida ifodalanayotgan ziddiyatlar hayotdagi munosabatlar va qadriyatlar o‘rtasidagi kurashni, insonning turli ruhiy holatlarini, ichki kechinmalarini ifodalayapti. Shuningdek, mazkur qarshilantirish inson sajiyasining o‘ta murakkabligini ko‘rsatadi. Aslida she’riyatning asosiy maqsadi ham inson ruhiyatini so‘z orqali ifodalashdir. E. Vohidov kitobxonda mushohada va voqelik haqida kuchli taassurot uyg‘otish maqsadida antiteza, metafora, takror kabi she’riy san’atlardan mahorat bilan foydalanadi. She’rning ta’sirchanligini va badiiy quvvatini oshirishda she’riy san’atlar juda keng ko‘lamli ifoda imkoniyati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, prof. A. Rasulov fikricha, “Erkin Vohidov so‘zni mo‘jizalar sayyorasi deb biladi: bu sayyorada sayr etishdan zavqlanadi. U Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy singarilarning so‘z qo‘llash mahoratiga tan beradi, ular qo‘llagan so‘zlarni yuz alfozda talqin, tahlil qilishdan erinmaydi. Erkin Vohidov – o‘ylovli, so‘zni o‘rni-o‘rniga qo‘yib qo‘llashni biladigan san’atkor. Uning she’rlaridagi so‘zlar jilvalanib, kuy taratib turadi va hamisha tagma’noga ishora etadi.” [Rasulov O.2007:b.254]

Shoir “Do‘st bilan obod uying” g‘azalida shunday deydi:

*Do‘sti sodiq yo‘q ekan deb,
O‘rtanib kuyma va lek,
Mehr uyin keng ochsang, Erkin,
Do‘st bo‘lur begona ham.*

Serqirra iste’dod sohibi Erkin Vohidovning so‘z ishlatish mahoratiga tahsinlar o‘qigan holda, shu o‘rinda o‘zimizning yana bir mulohazamizni aytib o‘tmoqchimiz. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining tashabbusi bilan Toshkent shahrining markazi – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida bunyod etilgan Adiblar xiyobonida donishmand shoirimiz ramziy ma’noda so‘zning, she’rning, ma’naviyatning “mehr uyin” keng ochgancha, bizni ezgulikka, komillikka, yangi kashfiyotlarga chorlab turibdi. Bugun Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodini, boy adabiy merosini o‘rganish borasidaijodiy laboratoriyalar tashkil qilindi. Ularda keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Marg‘ilondagi Erkin Vohidov nomli ijod maktabi bilan doimiy ravishda onlayn mahorat darslari, video muloqotlar o‘tkazib kelinmoqda.

Har bir navqiron avlodning o‘z e’tiqodi, o‘zi suygan va tan olgan ma’naviy – falsafiy manbalari bor. Ulug‘ shoirning do‘stlik va zakovat ziyolari bilan nurafshon “mehr uyi”ga qadam qo‘yar ekan, bugunning yoshlari tarix bilan yuzlashadilar, buyuklarning ruhiy isyonlarini yurak-yuraklaridan his etib, ruhan poklanadilar, so‘z san’atini o‘zlariga do‘st deb biladilar, muqaddas ona tilimizning latofati va ichki imkoniyatlari, xalqimizning dunyo ahlini hayratga solayotgan allomalari, mo‘tabar qadriyatlari bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold, I.V. (1997) *Semantika. Stilistika. Intertekstualnost* Tekst. I.V. Arnold. Sb. st.; SPb, Izd-vo S.-Peterb. un-ta. C. 443.
2. Fateeva, N.A. (1998) Tipologiya intertekstualnykh elementov i svyazey v xudojestvennoy rechi Tekst, *Izvestiya AN. Seriya literatury i yazyka*. Tashkent. №5. S. 25 - 38.
3. Yo‘ldoshev, M. (2010) *Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi*. Fil. fan.doktori... diss. Toshkent.
4. Torop, P.X. (1981). Problema interteksta Tekst. P.X. Torop , *Tekst v tekste: trud po znakovym sistemam; XIV. Uchyonye zapiski Tartuskogo gos. univers.* 567. Tartu: Tart. un-t, S. 33-44.
5. Qurbonova, M., Yuldashev, M. (2014) *Matn tilshunosligi*. Toshkent.
6. Vohidov, E. (2001) *Saylanma. Uchinchi jild. Umrin daryosi*. Toshkent: “Sharq”. B.527.

7. Xudoyberganova, D. (2010) *Badiiy matnning antropotsentrik tadqiqi*. Fil. fan.doktori... diss . Toshkent.
8. https://vuzlit.ru/878504/intertekstualnost_funksii_hudozhestvennom_tekste
9. <http://tafakkur.net/ozbegim/erkin-vohidov.uz>

BUYUK SHOIRNING ARBOBLIK VA PUBLISITLIK MAHORATI

*To‘lqin ESHBEK,
filologiya fanlari nomzodi*

O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov nafaqat atoqli shoir, shu bilan bir qatorda davlat va jamoat arbobi shijoatli publitsist, teran fikrli olim, dramaturg, sifatida elimiz qalbidan mangu joy olgan. Uning she’riy xazinasini umr tarozisining bir pallasida tursa, ikkinchi pallasida davlat va jamoat arbobligi, publitsist, olimligi undan-da zalvorliroq ko‘rinadi.

1999-2002-yillari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosida joylashgan bir muassasa matbuot guruhida faoliyat ko‘rsatgan kezlirim Erkin Vohidov, Pirmqul Qodirov, Ibrohim G‘afurov, Akmal Saidov, O‘tkir Hoshimov, Xurshid Do‘stmuhammad kabi Ustozlardan ko‘p saboq olganman. Bugun ilm-ma’rifat deganda shunday Ustozlar ko‘z oldimda namoyon bo‘laveradi. Katta avlod vakillarining hayoti va faoliyati – yoshlarga ibrat maktabi bo‘lishi tabiiy holdek.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda hamisha faol bo‘lgan Erkin Vohidov qator yillar O‘zbekiston Oliy Kengashi Oshkoralik masalalari qo‘mitasi raisi, Oliy Majlis Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi, Oliy Majlis Senatida qo‘mita raisi lavozimlarida ko‘rsatgan faoliyatini davlat va jamoat arbobi sifatida baholash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Oliy Majlisda Erkin Vohidovning deputatlar orasida o‘rni alohida edi. U kishi o‘nlab milliy qonunlarimiz vujudga kelishida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgani ayon. Ustozning Oliy Majlis sessiyalarida so‘zga chiqishlarini boshqa deputatlar ham hayajon bilan kuzatganlarini ko‘p kuzatganman.

Ustozning qanchalik mohir publitsist ekanini birgina “Iztirob” deb nomlangan (“O‘zbekiston” nashriyoti, 1992) salmoqli to‘plamidan joy olgan o‘nlab publitsistika, maqola va suhbatlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi o‘ttiz yil mobaynida “Iztirob”dagi maqolalar darajasidagi ijodni deyarli ko‘rmasdik... Bu kitob bo‘lg‘usi jurnalistlar uchun “mahorat maktabi” bo‘lib xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning 1982-yilda “Yoshlik” jurnalining birinchi Bosh muharriri sifatidagi faoliyati ham bo‘lg‘usi jurnalistlar uchun ibratdir. Ustozning ko‘p yillik faoliyatini gazeta va jurnallarsiz, nashriyotlarsiz tasavvur eta olmaysiz. Demak, bu ulug‘ siymo jurnalistikamiz bayroqdori sifatida ham e’tirof etilsa arziydi!

Ustozning olimligini “So‘z latofati” kitobi (“O‘zbekiston” nashriyoti, 2014-yil) isbotlab turibdi. Mazkur kitobni tom ma‘nodagi tilshunoslik ilmining yorqin na‘munasi, deyishga haqlimiz. Bu kitob mazmun-mohiyatiga ko‘ra doktorlik dissertatsiyasidan aslo kam emas. Faqat, zerikarli “ilmiy ish” shaklida emas, balki undan a‘loroq darajada – ilmiy-ommabop shaklida bitilgandir.

Ustozning “Shoiru she‘ru shuur: adabiy o‘ylar” (G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987) kitobini hech bir mubolag‘asiz adabiyotshunoslik ilmining yorqin namunalaridan biri, deyish mumkin.

Ilmga daxldorligi borasidagi hujjat kerak bo‘lsa, Erkin Vohidovga Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti faxriy fan doktori unvoni berilgan!

Yangi bosqichga qadam qo‘ygan O‘zMU Jurnalistika fakulteti talabalari bu yildan e’tiboran “So‘z latofati” kitobini eng muhim o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida o‘qib-o‘rganadilar. Bu kitobning tub mohiyatini teran o‘rganmagan odam jurnalist bo‘la olmaydi, degan xulosaga kelingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyobonida Erkin Vohidovning jozibali haykaliga boqsangiz beqiyos adabiy, ilmiy, publitsistik meros qoldirgan, insoniylik bobida ibrat ko‘rsatib ketgan ulug‘vor siymo ko‘z o‘ngingizda namoyon bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ana shunday ulug‘ ziyolilarimiz hayoti va ijod yo‘lini chuqurroq tadqiq etish, o‘quvchilar hamda talabalarga ularning tengsiz ma‘naviy xazinasini ko‘proq etkazish maqsadida har bir oliy

ta'lim muassasasiga shoiru adiblarimiz ijodini batafsil tahlil, targ'ib va tavsif etish zaruratini alohida uqtirdilar. Bundan muddao shuki, buyuk ma'rifatparvarlarimiz hayot va ijod yo'lini namuna sifatida talabayoshlar qalbiga jo etish, ularda Vatanga muhabbat, xalqimizga, millatga sadoqat tuyg'usini jo'sh urdirish, pirovardida, kelgusida shunday siymolarni kamolga etkazishdir.

Erkin Vohidov hayoti va ijodiy faoliyatini o'quvchilar maktabda adabiyot darslarida o'rganadilar. Ulkan milliy qomusimiz – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2-tomi, 505-sahifasi butunlay Erkin Vohidovga bag'ishlangani ayni muddao. XX-asrning oltmishinchi yillarida she'riyat osmonida chaqnagan yulduzdek shoir Erkin Vohidovning tarjimai holi qanchalik "qisqa" bo'lsa ijodiy yo'li shu qadar uzunki, ta'rifini yozaversak yuzlab sahifalar etmay qoladi.

Atoqli va ardoqli shoirning she'riyati beqiyos ma'naviy voqelikka aylandi. Bu voqelikni o'ziga xos – Tirik sayyora, degimiz keladi. Bu sayyorada ma'naviyat daraxtlari barq urib o'saveradi, mudom gullayveradi, mevalar beraveradi. Tirik sayyora, deb atashimiz boisi, Erkin Vohidovning she'r chashmasidan bahramand bo'lmagan o'zbek kitobxonni topilmasa kerak. Ulug' shoirning betakror she'rlaridan tengsiz ma'naviy lazzat olmagan she'riyat ixlosmandini tasavvur etish qiyin. Yurtimizda uning million-million nusxalarda chop etilgan kitoblari kirib bormagan xonadon yo biror maskan qolmagan bo'lsa kerak.

Ayni shu lahzalarda ham minglab qo'llarda betimsol kitoblar, tillarda quyma satriklar, dillarda o'chmas bitiklar!.. Har kun, har lahzada televizor, radio, magnitofon, videolarda mashhur shoir she'rlari, g'azallari bilan aytilayotgan o'lmas qo'shiqlar!..

Sevimli shoirimizning har bir asarini o'ziga xos – Tirik sayyora, deb atash mumkin. Modomiki, odamzodning "o'zi sirli bir dunyo" bo'lsa, uning qa'riga yo'l topgan ham, borligini she'riyat nuri ila munavvar etgan ham Shoir emasmi! "Tong nafasi", "Qo'shiklarim sizga", "Yurak va aql", "Mening yulduzim", "Nido", "Lirika", "Palatkada yozilgan doston", "Yoshlik devoni", "Chirog'bon", "Dostonlar", "Hozirgi yoshlar", "Muhabbat", "Tirik sayyoralar", "Bedorlik" kabi to'plamlar, "Muhabbatnoma" va "Sadoqatnoma" deb nomlangan saylanmalar ana shu ma'naviy sayyoraning tiriklik dunyosini tashkil etadi.

Zamon bilan hamisha hamnafas shoir eng dolzarb mavzularda qilgan suhbatlari, adabiy o‘ylari, yozgan maqolalari “Shoiru she’ru shuur”, “Iztirob” kitoblariga jamlangan.

“El ichida yashab, elning orzu-umidlari, kurashlari, shodlik va qayg‘ularidan chetda turish mumkin emas”,– deydi mumtoz shoir. Aslida bu ulug‘vor g‘oya Erkin Vohidov hayoti va ijodining mazmunidir, desak to‘g‘ri bo‘lar. Zero, ustoz buni nazmiy satrlarda shunday ifoda etgandir:

*El ustozim, men esam -tolib!
Suz durlarin termokdir ishim.
Odamlarning uzidan olib,
Odamlarga bermokdir ishim.*

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Davlat mukofoti laureati, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sohibi Erkin Vohidov millionlab ko‘ngillarni ma’naviyat, she’riyat nurlari ila munavvar aylayotgan Tirik sayyoradir.

Ustozning har bir she’ri, publitsistikasi va suhbatlari bugungi yoshlar uchun ulkan “mahorat maktabi”dir. U 1984 yili bir suhbatida shunday yozgan:

“1960-yil. Toshkent Davlat universitetining so‘nggi kursida o‘qib turgan vaqtimda «Sharq yulduzi»da «Buyuk hayot tongi» nomli dostonim bosildi.

Bu hodisa hayotimda unutilmas yangi sahifa ochdi. O‘sha kunlarda «Sovet O‘zbekistoni»da (hozirgi “O‘zbekiston ovozi” gazetasi – T.E.) shoir Turob To‘laning «SHarq yulduzi»ni varaqlab» maqolasi bosildi. Nomdor shoir bir student bolaning ilk dostoniga katta qalb egasiga xos tantilik bilan yuksak baho berdi.

Mana bugun oradan ko‘p yillar o‘tib xayol qilsam, «Sharq yulduzi» – men uchun ham beshik, ham dorilfunun bo‘libdi. Shu aziz va qadrdon jurnal sahifalarida G‘afur G‘ulomdan tortib to Abdulla Oripovgacha, Oybekdan tortib O‘tkir Hoshimovgacha, ustozlarim, do‘stlarim ijodidan bahramand bo‘ldim, shu muborak sahifalar necha avlod o‘zbek ijodkorlari qatori mening tengdoshlarim uchun ham mushoira, mubohasa maydoni bo‘ldi.

Bugunda «Sharq yulduzi» «Yoshlik» jurnali timsolida o‘zining — «ukasiga» ega. Barcha yoshlarning umidi shuki «uka» ham «aka»ga munosib, elga sevimli jurnal bo‘ladi.

Qadrdon jurnalimiz qutlug‘ yoshga to‘lgan kunda shogirdlik ta‘zimi va minnatdorligi bilan shunday degim keladi: «Sharq yulduzi» sen bizning ko‘z tikkan yulduzimizsan. Doimo baland bo‘l, doimo yorug‘ bo‘l. Ijod ufqida hamisha balqib tur. Lekin yosh shoir, yozuvchilarga yulduz qadar yiroq bo‘lma. Uzing yulduz bo‘lsang ham, bag‘ring osmon, mehring oftob bo‘lsin”.

Atoqli shoirning mashhur “Dorilfununga” sarlavhali she‘ri ham mo‘tabar dargohimizga munosib tuhfadir:

*Yana yigirmaga – yigit yoshimga,
Uzoq yillar o‘tib qaytgan bu kunim.
Ta‘zim qilib keldim sening qoshingga,
Azizim, munisim, dorilfununim.
Nedirsan? Olisga undagan sado,
Yo olis yillardan chorlagan unim.
Seni sog‘inaman va ikki dunyo,
Senga intilaman, dorilfununim.
Bolangman, bor hali o‘zingga hamdam,
Sho‘xlik, erkalgim, andak jununim.
Kim bo‘lsam, ne bo‘lsam va qayda bo‘lsam,
Sen meni tergab tur, dorilfununim.
Hayot beshafqatdir, yashash murakkab,
Yozolmay goh bilga cho‘kkan tugunim.
Iltijo qilarman, bedor yurakka
Qudrat ber, yoshligim – dorilfununim.
Hali bu olamga savolim ko‘pdir,
Xayolim qushida yo‘q lahza qo‘nim.
Yana shamchirog‘ing kerak bo‘libdir,
Yo‘limni yoritgin, dorilfununim.
She‘ru ishq, baxt, quvonch – dunyo biri kam,
Faqat e‘tiqodim – tanho butunim.
Qalbidagi eng yorug‘ nuqtam,
Senga talpinaman, dorilfununim.
Ezgulik sog‘inchi o‘rtab ko‘nglimni,
Bosh urib qoshingga kelgan bu kunim –*

*Sidqimni qabul et, tark etma meni,
Azizim, munisim, dorilfununim.*

O‘zi tahsil olgan o‘quv dargohini shu qadar e‘zozlagan publitsist, adib va shoirni albatta universiteti ham ardoqlaydi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida O‘zbekiston Qahramonlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinovlarning adabiy, ilmiy, publitsistik merosini tadqiq etish, talabalarda ular ijodiga yanada ko‘proq qiziqish va ishtiyoq uyg‘otish maqsadida alohida ekspozitsiya tashkil etilgan. Ayni shu dargohda tahsil olib, qahramon darajasiga etgan bu daholar to abad yoshlarga har tomonlama ibrat maktabidir.

Serqirra qalam sohibi bo‘lgan Erkin Vohidov adabiyot bo‘stoniga kirib kelganidan to shu kungacha uning ijodi haqida yuzlab gazeta-jurnallarda, turli nashrlarda nozikta‘b munaqqidu she‘riyatga tashna muxlislarning ko‘plab maqolalari yoritilgan. Bu “an‘ana” endilikda O‘zMUda izchil davom ettiriladi. Ya‘ni, talabalarimizning Erkin Vohidov hayoti va ijodiga bag‘ishlab yozgan maqolalari vaqti-vaqti bilan to‘plam holida nashr etib boriladi.

Erkin Vohidov bugun oramizda jisman bo‘lmasa-da, ruhan tirik! Uning tengsiz ijodiy merosi to abad yoshlarga saboq. Bu bebaho saboqni qalbiga jo etganlar shu ulug‘ siymo yanglig‘ kamolga etaveradilar.

ERKIN VOHIDOV IJODIGA BAG‘ISHLANGAN TURKUMLAR HAQIDA

*Sh.AXMEDOVA, BuxDU professori;
O.URBONOVAB, BuxDU tayanch-doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, tanqidchi I.G‘afurovning O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov ijodiga bag‘ishlangan turkum asarlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, janrlar, turkum, mavzu, ijki, tanqidchi mahorati.

O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov she‘riyatida she‘riy turkumlarning o‘ziga xos shakllari uchraydi. Masalan, “Kavkaz

she'rlari" turkumi, Kanada turkumi va h.k. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, E.Vohidov ijodiga bag'ishlangan turkum tadqiqotlar ham o'zbek tanqidchiligida yaratilganligini ijobiy hodisa, milliy she'riyatimizning darg'alaridan biri ijodi tadqiqi yo'lidagi o'ziga xos talqin deb hisoblash mumkin.

Adabiyotshunoslikda turkum masalasiga e'tibor qaratib kelinib, turkumga lirikaning o'ziga xos janri, "ko'plab har turli variantlarga izn beradigan o'ziga xos strukturaga ega mexanizm"¹⁹¹ sifatida qaralganini ko'rish mumkin. Turkum "tuzilishining bosh alomati – ataylab bir masnadga uyushtirilgan She'rlar guruhini qarashlarning murakkab tizimiga, shaxs yoki dunyoning butunligiga aylantirish imkonini beradigan kontekst bilan she'r o'rtasidagi alohida munosabatlarni tashkil qiluvchi tizim"¹⁹² sifatida tadqiq etilgan. Turkumlilik o'zbek she'riyatida qadimdan shakllanib kelayotgan adabiy hodisalardan biridir. Lirik turkumlilik – bu muallif tomonidan ma'lum bir ketma-ketlikda birlashtirilgan mustaqil asarlar to'plami bo'lgan badiiy tizimdir. Turkumning murakkab yaxlitligini qo'llab-quvvatlovchi yadro, bu – lirik qahramon obrazi. Lirik turkumlilikning qiymati har doim uning tarkibiy qismlari qiymatlarining yig'indisidan kattaroqdir, chunki o'zaro turkumni tashkil etuvchi unsurlar butun turkumning, ularning o'zaro ta'siri butun turkumning yangi ma'nosini keltirib chiqaradi, shu ma'noda katta rol o'ynaydi¹⁹³. Lirik turkumning quyidagi o'lchamlari ajaralib turadi: umumiy sarlavha, matnning barqarorligi, she'rlarning mavzuviy yaqinligi, motivlar va ramziy tasvirlar orqali kompozitsiyaning umumiy tamoyillari, fazo-vaqt davomiyligi, umumiy poetik hajm yoki ritm.

Lirik turkumlilik ko'pchilik o'zbek ijodkorlari ijodida uchraydi. "Zulfiya o'zbek adabiyotida lirik turkumning nodir namunalarini yaratdi, janrning turmush manzaralarini aks ettirish imkoniyatlarini oshirdi. U yaratgan turkumlarning boshqa o'zbek shoiralari, jumladan, O.Hojieva, G.Jo'raeva, H.Xudoyberdievalarning lirik turkumlariga ta'siri katta bo'ldi"¹⁹⁴.

¹⁹¹ Рудник Н.М. Проблема трагического в поэзии В.С. Высоцкого. – Курск, 1995. – С.142.

¹⁹² Ўша манба, – Б. 141.

¹⁹³ Қосимова А.Р. Лирик туркумлилик Анна Ахматова ижодидаги доимий услуб сифатида. Фил. фанлари номзоди ... дисс. автореферати.- М. 2011. -11 б.

¹⁹⁴ Умурова Г. Зулфия бадий олами ва поэтик мактаби.Фил.фанл.доктори ... дисс. – Самарқанд. 2019.148-бет.

Turkum – “janr, mavzu, g‘oya tamoyillariga yoki personajlarning umumiylikiga ko‘ra, muallif tomonidan tarixiy davr, yagona poetik kayfiyatga mos ravishda ongli ravishda uyushtirilgan asarlar guruhidir”¹⁹⁵. Adabiy tanqidchilikda ham turkum (sikl) hodisasi mavjud bo‘lib, ko‘pincha rus tanqidchisi V.Belinskiy ijodida uchraydi¹⁹⁶. Mavzuning birligi, yagona tizimni tashkil etadigan janrlarning rang-barangligi, tanqidiy-obrazli tafakkurning yagonaligi turkumni yuzaga keltiruvchi faol omillardan hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov ijodi adabiyotshunoslikda e‘tibor bilan tadqiq etib kelinmoqda. Shoir ijodining o‘rganilishida munaqqid I.G‘afurovning alohida o‘rni bor. Uning uslubida shoir ijodiga bag‘ishlangan turli shakldagi asarlar yozish tamoyili kuchli. Masalan, u E.Vohidov ijodi haqidagi mulohazalarini dastlab obzor maqolalarda bayon etgan edi, “Ishongisi kelar odamning” obzori turkum kichik maqolalardan tashkil topgan. “Yaratuvchi muhabbat” deb nomlangan taqrizida shoirning ikki kitobi “Tirik sayyoralar” va “Muhabbat” kitoblari haqida so‘z yuritiladi. Tanqidchi shoir ijodiga bag‘ishlangan alohida maqolalar (“Yesenin o‘zbekcha ohanglarda”) ham yaratdi. “Hujayradagi suvratlar” maqolasi E.Vohidov ijodiga mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan baho berilishi tanqidchi tafakkur ufqlarining yanada kengayganligini namoyon etadi. Munaqqidning “Joziba” kitobdan “Iste‘dod qanotlari” deb nomlangan portret maqola o‘rin olgan, unda munaqqid shoir ijodi haqida fikr yuritar ekan, umumlashtirish tamoyiliga tayanadi. Portret maqolaning boshidan shoir ijodiga baho beriladi: “Dunyoga she‘r dardi bilan kelgan, umr bo‘yi she‘r dardi bilan yashydigan shoirlar bo‘ladi. Erkin Vohidov shunday shoirlardan. She‘r dardi uni olamga, olamning porloq, tovlanuvchi manzaralariga, Hazrati Odamga, odamning to‘lg‘in va poyonsiz tuyg‘ulariga, go‘zallikka, guzallikning jam‘i ranglariga, tafakkurga, tafakkurning sayqallariga oshna qildi. U shular bilan to‘sti tutindi, she‘riyatini shular bilan bezadi”¹⁹⁷.

I.G‘afurov shu bilan E.Vohidovdagi kuzatishlarini to‘xtatmadi, balki shoirning yangi chop etilgan har bir kitobiga o‘z munosabatini bildirib bordi. Olimning salmoqli tadqiqotlarini o‘z ichiga olgan

¹⁹⁵ Сапогов В.А. Цикл // КЛЭ. – М.: 1975. Т.8. – С. 398-399.

¹⁹⁶ Егоров, Б. Ф. О мастерстве литературной критики. Жанры, композиция, стиль / Б. Ф. Егоров. — 2-е изд., испр. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 231 с. — (Антология мысли). — ISBN 978-5-534-07229-7. — Текст электронный.

¹⁹⁷ Фафуров И. Жозиба. — Т., 1970. 159-бет.

“O‘ttiz yil izhori” kitobidan E.Vohidov ijodiga bag‘ishlangan yana ikki taqriz o‘rin olgan. “Bedor vijdon” deb atalgan taqrizda shoirning “Bedorlik” kitobiga baho beriladi. “So‘z to‘lqinlari” deb atalgan taqriz obzor xarakterida yozilgan bo‘lib, unda 80-yillar mahsuli bo‘lgan yangi kitoblarga baho beriladi. Har bir yangi kitobi adabiyotda yangi voqea bo‘ladigan shoirlar sirasiga E.Vohidovni kiritar ekan, I.G‘afurov uning lirik, lirik-publiqistik, tarixiy, yumoristik, hajviy yo‘nalishdagi she‘rlarni o‘z ichiga olgan “Kelajakka maktub” she‘riy kitobi asosida fikr yuritadi. Uning, ayniqsa, “Donishqishloq latifalari” turkumi “ajib bir xalqona tabassumi, zavqli kinoyasi, dono zarofati bilan keng o‘quvchilarning mehr-muhabbatlariga, tahsiniga sazovor” bo‘layotganiga diqqatini qaratadi.

Taqrizlarda shoirning yangi kitoblariga baho berilgan, uning adabiy jarayondagi, shoir ijodidagi o‘rni ko‘rsatilgan, she‘rlaridan ba‘zilarini o‘ziga xos his-hayajon bilan tahlil qilgan munaqqid kechinmalari kitobxonni shoirga yanada yaqinlashtirishga xizmat etayapti. Munaqqid qalamining sehri, kuchi ham mana shunda.

Shu jihatdan qaralganda, munaqqidning E.Vohidov haqidagi turkum tadqiqotlari: obzor maqola, taqriz va maqolalari shoir ijodini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkumni birlashtiruvchi xususiyatlar mavzuning yagonaligi: barcha janrlarning aniq bir shoir ijodiga bag‘ishlanishi, tanqidiy munosabat: shoir ijodiga simpatiya bilan yondoshish, talqinda adabiy-tanqidiy tafakkurning ustuvorligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Adabiy-tanqidiy turkumning murakkab yaxlitligini qo‘llab-quvvatlovchi yadro, bu – ijodkor, ya‘ni E.Vohidov obrazi. Shuni ham qayd etish lozimki, turkumga kirgan har bir asar mustaqil adabiy-tanqidiy birlik sifatida yashay oladi

E.Vohidov ijodining o‘rganilishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Qahramoni bo‘lgan shoir ijodi haqida yirik tadqiqotlar, ilmiy-biografik asarlar yaratish yo‘lida tanqidchilikning orqada qolganligi ko‘rinadi. Shu jihatdan qaralganda, I.G‘afurovning shoir ijodi haqidagi turkumlari: obzor, taqriz va maqolalari ana shu kemptiklikni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hassos munaqqid Ibrohim G‘afurov E.Vohidov ijodini, birinchidan, samimiyat bilan, ikkinchidan, yuksak faxr tuyg‘usi, mehr bilan, uchinchidan, ilmiy izchillik va o‘ziga xoslik bilan tahlil va talqin etadi. Shuning uchun uning qalbidan chiqqan ehtirosli so‘zlar, mulohazalar teranligi, his-

hayajonga boyligi, eng muhimi, shoir ijodi haqida yangi soʻz ayta olganligi bilan diqqatni tortadi. Tanqidchining shoir ijodi haqida turkum asarlari shu jihati bilan eʼtiborni tortadi.

Oʻz millati qalbidan chuqur oʻrin olgan buyuk shoirning asarlari asrlardan asrlarga oʻtishi, xalq maʼnaviyatini boyitib borishi shubhasiz. Sevimli shoirning purmaʼno asarlarini tadqiq etish davom etaveradi.

ERKIN VOHIDOV – SOʻZ ZARGARI

*Gulchehra KELDIYOROVA,
OʻzMU dotsenti, f. f. nomzodi*

Oʻzbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov goʻzal sheʼrlari, gʻazallari, sermaʼno badiiy asarlari, ajoyib tarjimalari, tilga, soʻzga oid maqolalari, suhbatlari bilan madaniyatimiz taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshib kelgan faol ijodkor sifatida adabiyot, maʼnaviyat shaydolari qalbini zabt etib, yurtimiz sarhadlari osha yaqin-yiroq manzillarga yetib, madaniyatimiz xazinasini boyitdi. Shoir ijodi, faoliyati, shaxsiyati haqida koʻplab tadqiqotlar yaratilgan, risola, kitoblar yozilgan, gʻazallari qoʻshiq qilib aytilgan. Ularning yana bir katta xizmati – tilimizga oid maqola, nutq, suhbatlari, izlanishlari, jonkuyarliklarini alohida mulohaza yuritishga loyiq.

Bir necha tilni, eng avvalo, ona tilini chuqur egallagan, uning boyliklaridan yaxshi egallagan katta shoirimizni soʻz zargari, tilimiz jonkuyari deya taʼriflaydilar.

Shoirning oʻquvchilarga taqdim etgan har bir sheʼr, doston, drama, maqola, tarjimalari ijodiy kamoloti, badiiy mahorati bobida yangi bosqich, oʻziga xos choʻqqi edi. Bu esa asar tili ustida jiddiy ishlash, soʻz ummoniga chuqur kirib borish, betinim izlanish samarasi edi.

1980-yillar oxirida tilimizga davlat tili maqomi berish toʻgʻrisidagi qonunning ilk loyihasi matbuotda bosilib, muhokamaga qoʻyilgandi. Erkin Vohidov “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasida “Oʻzbekcha salomga oʻzbekcha alik boʻlsin” degan katta maqola bilan chiqdi. Chunki loyiha rus tilida yozilib, oʻzbek tiliga oʻgirilgani, unda bir qancha xatolari borligini dalillar bilan koʻrsatib

bergan, natijada ko'pchilikning fikr-mulohazalari, taklif-istaklari inobatga olinib, loyiha to'ldirilib, ancha mukammal holga keltirilib, 1989-yil 21-oktyabrda qonun qabul qilingan edi.

Erkin Vohidov tilimizning boyligi,sofligi, muammolari, istiqboli haqida mudom qayg'urib, jonkuyarlik qilib kelgan faol ijodkorlardandir. U kishining til, so'z haqida gazeta, jurnallarda chiqqan maqola, tadqiqotlarini jamlab, yangi kuzatishlar, fikr-mulohazalar qo'shib "O'zbekiston" nashriyotida "So'z latofati" deb nomlangan kitob nashr ettirdi. Asar muqaddimasida muallif dunyoning eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri So'z olamiga sayohat ekanligi, So'zni idrok qilgan inson olamni yanada teranroq idrok etishi, So'zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topishini ta'kidlaydi. Shoirning "Ona tilim", "Tirik xazina yoxud "jahongashta so'z", "So'z – zabarjad, So'z – gavhar, oltin", "So'z latofati" maqolalari fikrimiz dalilidir.

"Ona tilim" til to'g'risidagi tarixiy qonun qabul qilinganiga 15 yil to'lishi munosabati bilan yozilgan. Maqolaning "E, o'zimiz ekanmiz-ku", "Til fidoyilari, qaydasiz?", "Nelar topdik, nelar yo'qotdik", "Jahon tajribasi va "izm"lar", "Bobilmi yoki Vavilon?", "G'alati mashhur", "Proba" o'zbekchada qanday bo'ladi?" kichik sarlavhachalarining o'ziyoq uning mazmuni, ko'tarilgan muammolaridan darak berib turadi, shu bilan birga, sarlavhalarda qo'llanilgan ritorik so'roq gaplar, oksyumoron, yuklamalar ona tilimizning go'zalligi va boyligi, o'ziga xosligini, shoirning mahoratini ifodalaydi.

"Tirik xazina yoxud "Jahongashta so'z" bobidagi "Ulg'aygan so'zlar", "Bir pas necha daqiqa?", "Fuqarolar deyish to'g'rimi?", "Madina va madaniyat", "G'arib, g'aroyib so'zlar", "Tilning joni bor" fasllarida so'zlarning etimologiyasi, bugungi holatini tadqiq etadi.

Tadqiqot mahkama so'zi hokim, hukm, hakam, hukumat, muhokamaga o'zakdosh, hikmat daraxti ham shu ildizdan unib chiqqan deya tahlil qiladi. "Axborot" so'zi haqida xabarning jam'i – *axbor*, *axborot*ga aylanib yana bir ko'plik qo'shimchasi ortdi, *axborotlar* desak endi xabar uchta *lardan* iborat bo'ladi", deya fikrini davom ettiradi.

Erkin Vohidov ushbu maqolasida Navoiy dahosiga, lisoniy boyligi, tengsiz mahoratiga murojaat qiladi, ibratli misollar keltiradi. Ulug' shoirning

*Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il –*

misralari avval anglatgan, hozir anglatayotgan ma'nolar doirasi tadqiqida qora ko‘z va ko‘z qorasi birikmalarining ma'no ottenkalarini farqlaydi. Navoiyning “Bir pos chu tundin o‘tdi ul xayl” misrasiga e'tibor qaratib, lug‘atlarda *pos* tunning sakkizdan biri, bir soatga teng tungi muddat, soqchi, posbon so‘zlarining ruscha chasovoy ma'nosini beruvchi so‘z sifatida sharhlaydi.

Shoir so‘z tug‘iladi, kamol topadi, zavolga yuz tutadi, deydi. Masalan, *istak*, *xohish* ma'nolarini anglatgan *iroda* so‘zi o‘sib *qalb qudrati*, *qat'iyatni*, Bobur ruboiysida azob-uqubatni bildirgan *mehnat* so‘zi bugungi kunda baxt-saodat omili, shon-sharaf ishiga aylanganini eslatadi.

So‘zning boshiga ham yaxshi-yomon kunlar tushishini yigit, bahodir so‘zlari ruslarda “djigit”, “bagatyr” bo‘lgani, lekin polvon-balvanga, pahlavon axlamonga aylangani haqidagi kuyunib yozadi. Muallif ayrim so‘zlarimiz xorijda boshqacha ma'no anglatishidan ogoh qilib, ibratli misollar keltiradi.

“So‘z – zabarjad, so‘z – gavhar, oltin” maqolasida shoir so‘z etimologiyasini tadqiq qiladi, falsafiy xulosa chiqaradi. “Ko‘z”, “uz”, “el”, “omonat”, “bo‘l”, “chaq”, “yurak”, “ko‘k”, “oy” kabi so‘zlarni lingvist sifatida tahlil qiladi. *Chaq* o‘zakli so‘z bilan bog‘liq yigirma besh so‘z, birikmani sanadim, oxiri gugurt chaqish, so‘z mag‘zini chaqish, chaqchaqlashib olish bilan tugatdim, deydi shoir.

Tilimizda osmonning osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko‘k sinonimlarini keltirib, uning arsh, davvor, minu singari kam ishlatiladigan so‘zlarini ham sanasa ro‘yxat yanada uzayadi”, deya fikrini davom ettiradi.

Muhtaram shoirimiz o‘zbek tili uch buyuk daryo – turkiy, arabiy, forsiydan suv ichish barobarida eski lotin, xitoy, mo‘g‘ul, rus, yevropa tillaridan bahra olgani bois boy, hych bir tilda bo‘lmagan shakldosh so‘zlar san'ati tuyuq o‘zbek tilida bor, boshqa xalqda yo‘q askiya, so‘z o‘yini bizda mavjud, deydi. Shuningdek, atamalarning aksariyati arabcha, hunarmandchilikka, she‘riy uslubga xos, harakat nomlari asosan turkiy so‘zlar ekanligini misollar yordamida isbotlaydi.

Erkin Vohidov har bir ijodkor lug‘at boyligimizga bir necha, loaqal birgina so‘z qo‘shishi, so‘z, birikmalarning mag‘zini chaqishi lozimligini maqola, suhbatlarida tez-tez uqtirib turadi va bunga o‘zi doim amal qilib kelardi: “bo‘l”, “chaq”, “maosh”, “adash”, “qir”, “tup”, “oy”, “rang”, “qalb”, “zimiston”, “navo” kabi so‘zlardan yasaladigan yangi so‘zlar haqida fikr yuritadi. Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug‘atayn”da “yig‘lamoq” so‘zining qator-qator ma'nolarini izohlaganidek, Erkin Vohidov “rang” so‘zining o‘ttiz ikki ma'nosini ko‘rsatadi [2,129].

“So‘z latofati”ning “G‘azal sehri” bo‘limidagi “Shoir qalbining fig‘oni”, “Qaro ko‘zum”, “Insonning mangu dardi”, “Aylagach”, “Ko‘yida yig‘lar edim” boblarida Alisher Navoiyning, “Hamdardlikni kuylagan g‘azal” bobida qardosh ozarbayjon xalqining ulug‘ shoiri Muhammad Fuzuliy, “Xazon yaprog‘i” bobida Zahiriddin Muhammad Boburning sog‘inch iztirobida yozilgan she‘rlariga sharh bitilgani, tengsiz misralarda qo‘llanilgan badiiy san'atlar, ulug‘ shoirlar mahoratining muhim qirralarini ochib bergan.

Tilimizga xos yana bir jihatga – qadimda tur, yur, yot, ot, chop kabi qisqa, bir bo‘g‘inli so‘zlar askarlikda ko‘p ishlatilgani, buyruq berishga qulay bo‘lganligiga e'tibor bergan. Muallif o‘zimizga oson bo‘lsin uchun so‘zni qisqartirish (Muhammad Rahim, Mamaraim, Maraim, Mirim), atamaning yarmini yutish (ko‘zingni och, oyoq ostiga qara deyish o‘rniga ko‘zingga qara deyish), joy nomlarini noto‘liq aytish (Anjan, Angren, Buvayda, Rishton, Xo‘jalandarbuva) nojoyiz mantiqqa zidligini kuyunib yozadi, gapiradi.

Men o‘zbekman degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak. Erkin Vohidov til uchun qayg‘urish, uni boyitish, sofligini saqlash hammaning ishi, der ekan, eng avvalo, tishunoslar, adiblar, ijodkor ziyolilarni nazarda tutadi. Qilni qirq yoradigan, besh jildli “Izohli lug‘at” ni yaratgan, ko‘p kitob, tadqiqotlar bitgan tishunoslarga dam-badam murojaat etib, Alibek Rustamov, Shavkat Rahmatullaev singari taniqli allomalar nomini tutib g‘oyat mushkul va murakkab ish – “Etimologik lug‘at” tuzilishini, til muammolarini ko‘tarishda faol bo‘lishga undaydi.

Ona tili – umummillat mulki, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy.

Tildagi milliy ruh avvalo undagi ibora, maqol, matal va ko‘chma ma'noli birliklarda namoyon bo‘ladi. Buni til va jamiyat, til va

tafakkur muammosi bilan shug'ullangan tishunoslar va boshqa mutaxassislar ham e'tirof etishadi.

So'z qo'llashdagi xatoliklar, tilga e'tiborsizliklar haqida kuyunib fikr bildiradi. Shoir o'z ona tilining nozik tomonlarini chuqur his qiladi. Albatta, bu omillar atoqli olimning ona tilini chuqur bilishi, mohiyatini anglashidan darak beradi.

Yuqorida aytilgan til haqidagi fikrlar tishunos bo'lmagan, ammo til sehrini his eta oladigan, shuningdek, so'z sehridan to'la ma'noda zavq tuya olgan ulug' shoirning e'tiroflaridir. Shoirning ona tilimiz nafosati haqidagi fikrlari o'ziga xos teranligi, mantiqiyliqi va ilmiy asosiligi bilan ajralib turadi. Bu serqirra ustoz tom ma'noda so'z zargari, tilimiz jonkuyari, so'z mahoratini to'liq egallagan inson edi. Adabiyotimiz ostonasida turgan yoshlarimiz Erkin Vohidovni ko'proq o'qishlari va u kishining mahoratini o'zlashtirishga intilishlari zarur. Qaysi janrda bo'lmasin shoirning ijodiy merosi haqiqiy saboq maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Qish halovati. Asarlar. To'rtinchi jild. – T.: Sharq. 2016. – 415 b.
2. Erkin Vohidov saboqlari. – T.: Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2016. 129-b.
3. Umirov S. Sehrli va mehrlil so'z. – T.: Bodomzor invest, 2017. – 423-b.

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA O'ZLAHSGAN QATLAMGA OID LEKSIK BIRLIKLAR

*Alisher UBAYDULLAYEV,
O'zMU dotsenti, f.f.nomzodi*

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov she'rlarida qo'llangan o'zlashgan qatlamga oid leksik birliklarning qo'llanilishi, shoirning so'z qo'llash mahorati misollar asosida tahlil qilingan. Arabcha, forscha va rus tili orqali o'zlashgan leksemalar she'rda o'z o'rnida qo'llanganligi va ta'sirchanlikni ta'minlaganligi misollar asosida ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar. Leksikologiya, leksik qatlam, oʻz va oʻzlashgan qatlam, arabcha, fors-tojikcha, ruscha.

Oʻzbek adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga muhim hissa qoʻshgan Erkin Vohidov noyob isteʼdod egasi boʻlishi bilan birga tashabbuskor shoir ham edi. Isteʼdodli shoir oʻzining iliq lirizm va hayotbaxsh romantika bilan sugʻorilgan oʻynoqi va ravon poeziyasi, oʻtkir publitsistik maqolalari, dramalari, tarjima asarlari teran ilmiy tadqiqotlari bilan xalqimiz orasida keng hurmatga sazovor boʻlgan sevimli adiblardan biridir. Erkin Vohidov sheʼriyatining asosiy gʻoyasini vatanparvarlik, oʻzbek xalqiga boʻlgan cheksiz mehr-muhabbat, mustaqillik, erkinlik, insoniylik, ona vatanga sadoqat, vafodorlik va boshqa shu kabi xususiyatlar tashkil etadi. U shoirlik vaxti va taqdirini bir umrga oʻz xalqi taqdiri bilan bogʻladi. Erkin Vohidovning otashin sheʼriyati ham oʻzining nozik, betakror, toza va vegʻubor til boyligi bilan oʻziga xos nazm koshonasini bugun ham bezab turibdi. Bu goʻzal sheʼriyat haqida oʻylaganimizda koʻz oldimizdan betakror tashbehlar, latif tuygʻularga yoʻgʻrilgan quyma satrlar oʻta boshlaydi.

Uning “Oʻzbekim” (1968) qasidasidan olingan quyidagi misralar shoirning butun ijodiyoti uchun xos boʻlgan vatanparvarlik, ona xalqiga boʻlgan sadoqat va oʻzbek millatiga boʻlgan tuygʻusini koʻrishimiz mumkin:

Men Vatanni bogʻ deb aytsam,
Sensan unda bitta gul.
Men Vatanni koʻz deb aytsam,
Bitta mujgon oʻzbekim¹⁹⁸.

Shoirning Vatan, oʻzbek xalqi mavzusida yozgan misralari doimiy hamrohimiz boʻlib qoladi:

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin oʻgʻlingman, qabul et,
Oʻzbekim, jon oʻzbekim.

¹⁹⁸ Erkin Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq, 2000. – B. 202.

Bunga o'xshash durlar shodasini maroq bilan yana davom ettirishimiz mumkin.

Yosh avlodni yuksak axloqiy va nafosat ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy va ilmiy dunyoqarashini uzluksiz shakllantira borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish borasida boshqa sohalar kabi xalq ta'limi oldiga ham yangidan-yangi va jiddiy vazifalar qo'yilmoqda. Yoshlar ongini shakllantirishda g'oyaviy, axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy, nafosat ta'sir kuchini o'zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin.

Badiiy asar tilini ongli ravishda tahlil qilish ma'lum bir asar mazmunini, uning g'oyaviy mohiyatini, yozuvchining ijodiy mahorati va g'oyaviy yo'nalishini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi, yosh avlodni o'z bilimini amalda mustaqil sinab ko'rish malakalarini hosil qilib, ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi, turmush haqida, kishilar va insoniy munosabatlar to'g'risida shaxsiy mushohada yuritishga imkon yaratadi¹⁹⁹.

Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda yozma ijod numunasi hisoblanadi. Har bir matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va o'z xususiyatiga ko'ra turli xil ma'lumotlarni yetkazadi. Har xil xabarlarini yetkazishiga ko'ra matnlar badiiy matn, publitsistik matn, ilmiy matn, rasmiy matn shaklida bo'ladi²⁰⁰.

Leksikologiyada tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar, ya'ni o'sha tilning lug'at boyligi haqida so'z yuritiladi. Tildagi leksik (o'z va o'zlashma) qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda o'ta muhimdir. Leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul.

¹⁹⁹ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B.3.

²⁰⁰ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. –B.5.

Ana shu nuqtai nazardan o‘zbek tili leksikasini o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam bo‘lish lozim.

O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlariga nazar solsak, mazkur so‘zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar tufayli o‘zlashganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, fors-tojikcha leksemalar o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, bir-yuiri ijtimoiy va madaniy munosabatda bo‘lib kelganligi natijasida, arabcha istilohlar esa, asosan kitobiy til va fors-tojik tili, Shuningdek, qisman og‘zaki nutq orqali kirib kelgan. O‘zlashma so‘zlar o‘zbek adabiy tilida o‘zlashtiruvchi til tomonidan faol o‘zlashtirilgan obyekt maqomiga ega bo‘lgan. O‘zbek tili leksikasi tizimidan o‘rin olgan o‘zlashmalarning kattagina qismi o‘zlashtiruvchi tilga xos so‘z yasash, so‘z o‘zgartirish va shakl yasash vositalari negizida o‘z shaklini o‘zgartirgan. Boshqacha qilib aytganda, o‘zlashtiruvchi til o‘ziga kerakli so‘zlarni o‘zlashtiribgina qolmay, shuningdek, yot leksik materialga shakliy mazmun beradi, uni qaytadan dunyoga keltiradi. Turkiy tillar so‘z boyligida so‘g‘dcha, sanskritcha, xitoycha o‘zlashmalarning paydo bo‘lishiga turkiy xalqlarning juda qadimdan so‘g‘d, hind. Xitoy, xorazm xalqlari bilan yaqindan bo‘lgan aloqalari mahsuli sifatida baho beriladi²⁰¹.

Ma’lumki, o‘zbek tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari bilan bog‘liqdir. Shu tariqa, arab tilining kitobiy til va davlat tili bo‘lib qolish an’anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan²⁰². Professor E.Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyati bilan xarakterlanadi: 1. Turkiy urug‘, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi hamda qo‘shilishi (qadimiy davrlar); 2. O‘zbek tilining fors-tojik tili bilan (IX–X, XI–XV asrlar) aloqasi; 3. O‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozigacha)²⁰³.

Darhaqiqat, xalqlarning yonma-yon yashashi, o‘zaro munosabatlari va yaqinlashuvi, bir-biriga ta’siri natijasida ikki tillilik yuzaga kelgan. Erkin Vohidov she’riyatida ham o‘zlashgan qatlamga

²⁰¹ Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. – T.: Fan, 2007. – B. 29.

²⁰² Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 42

²⁰³ Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1985. – B. 105-106.

oid leksemalrni ko‘plab uchratish mumkin. Misol tarzida shoirning “Kamtarlik haqida” nomli she‘rini olaylik:

*Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning - chun
O‘par doim peshonasidan.*

Ushbu she‘rdagi *garchi* f. “agarchi” bog‘lovchisining qisqa shakli. O‘TIL, I, 489 b.²⁰⁴, *mag‘rur* (a. aqldan ajralgan, aldangan; o‘ziga bino qo‘ygan, kekkaygan; O‘z qadr-qimmatini, g‘ururini saqlagan; g‘ururli. 2. Asossiz yoki ortiq darajada g‘ururli bo‘lgan, o‘zini Shunday tutadigan; kekkaygan; manman. 3. *Ko‘chma*: turish-tuzilishi, ko‘rinishi viqorli. O‘TIL, II, 552 b.; *piyola* f. [yun. phiale - suv ichiladigan yassi kosacha] Tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi. O‘TIL, III, 256 b.; *choynak* [r. chaynik - choy idish] choy damlab ichiladigan, jo‘mrakli va dastali idish, uy-ro‘zg‘or asbobi. O‘TIL, IV, 504 b.; *kibr* (*kibr-u havo- o‘ziga ortiqcha baho berish, manmanlik*) a. mag‘rurlik, kattalik, takabburlik. O‘TIL, II, 364 b.; *kamtarin* (*kamtar*) f. ozroq, kamroq, siyrakroq; maqtanishni istamaydigan, o‘zini boshqalardan past oladigan, mag‘rurlanmaydigan; juda kamtar va itoatkor. O‘TIL, II, 311 b.; *qadam* [a. oyoq kafti, tovon; oyoq, odim] 1. Yurish jarayonidagi har bir oyoq tashlash, oyoq bosish; odim; 2. Har bir qadam oralig‘iga teng masofa, oraliq masofa; 3. *Ko‘chma*: ish-faoliyat, rivojlanish va sh.k.da olga‘ siljish, ilgarilash; 4. *Ko‘chma*: biror joy, tomonga qaratilgan, yo‘nalgan yurish; tashrif; 5. *Ko‘chma*: ish-faoliyatdagi har bir xatti-harakat; amal. O‘TIL, V, 202-203 b.; *g‘urur* [a. jaholat; xom (puch) xayol; manmanlik, mag‘rurlik; kibr-havo] 1. Insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. 2. Faxrlanish, mamnunlik

²⁰⁴ Misollar tahlilida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. -Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 1-5 jildlardan foydalanildi.

tuyg'usi; faxr, iftixor. 3. Faxrlanishga asos bo'ladigan narsa, kimsa va sh.k.lar. 4. Kibrilanish tuyg'usi, mag'rurlik, kibr-havo. O'TIL, V, 461b.; *ostona* [f. kiraverish, bo'sag'a; arafa; shoh saroyi; daxma] 1. Eshik, darvoza chorcho'pining ostki ko'ndalang yog'ochi; binoga, hovliga kiraverishdagi yerga ko'ndalang yotqizilgan yog'och, taxta, xarsang va sh.k.; bo'sag'a. 2. *Ko'chma*: uy, xonadon, dargoh. 3. *Ko'chma*: qishloq yoki shaharga kirverishdagi joy, bo'sag'a. 4. *Ko'chma*: biror voqea yoki hodisaning boshlanishiga yaqin qolgan payt; arafa. 5. *Geogr.* Daryo ostidagi, ba'zan suvdan chiqib ko'rinib turadigan va suv oqimini tezlashtirib, kemalar qatnovini qiyinlashtiradigan balandroq joy, do'nglik. O'TIL, III, 150 b.; *inson* [a. odam] 1. Odamzod, bashar. 2. Har bir yakka shaxs; odam. 3. Kimsaga (odatda, salbiy munosabatli) murojaat shakli. O'TIL, II, 213 b.; *peshona* [f. manglay, peshona] 1. *Anat.* Yuzning qoshdan sochgacha bo'lgan qismi, manglay. 2. *Ko'chma*: diniy tasavvurlarga ko'ra qismat, taqdir. 3. Bisot, bud-u Shud, bor-yo'g'i. O'TIL, III, 252 b.

Misollar tahlilidan ko'rinib turibdiki, E.Vohidov asarlari leksikasi turli semantik doiradagi leksemalar tizimidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasiga oid tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklar qo'llanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, shoir she'rlarida *latif, kitob, sarhisob, ravon, past-u baland, rishta, misra, ibtido, intiho, iztirob, dil, she'r, gulob, naqqosh, sarlavha, Shu'la, koshona, parvona, qasd, sabo, parivash, hilol, qissa, qalb, sohibjamol, barkamol, visol, xushhol, gulshan, poymol, timsol, ahvol, zinhor, alhol, daf'atan, chor atrof, ma'yus, bemajol, alqissa, iqbol, sado, parishon, harorat, navbahor, g'oyibona, bahor, gul, dom, oshiq, hijron, po'lat, bomba, nuqra, muqaddas, mo'tabar, muborak, madh, fusunkor, girdob, alvon, mohir, mehr, mahorat, ilm, olim, amal, mashaqqat, Shuur, tafakkur, poyezd, meridian, pero, million, milliard, samolyot, traktor, teleskop, atom, orden, pochta, informbyuro, gospital, razvedka, granata, avtomat, polk, soldat, kvartal, eshelon, sirena, projektor, gorsovet, kabel, vokzal, front, tank, minut, grajdan, ZAGS, byuro* va boshqa shu kabi arab, fors-tojik va rus tili orqali o'zlashgan so'zlar qo'llanilganligini kuzatish mumkin. She'rlarning sarlavhasida ham o'zlashgan qatlamga oid leksemalarni kuzatish mumkin: "*Manzara*", "*Ekskavator*", "*Majnuntol*", "*Olimlar va shoirlar*", "*Surat*", "*Firoq haqida*", "*Kosmonavt va shoir*", "*Asablar*", "*Inson va fursat*" va boshqa shu kabi.

Asar tilining betakrorligi uning uslubiy-semantik oʻziga xosligi bilan belgilanadi. Muallifning badiiy salohiyati, soʻz qoʻllash mahorati, voqea-hodisani teranlik bilan tasvirlashi, ruhiy kechinma, psixologik holatlarning sanʼatkorona ifoda etilishi asar tilining oʻziga xosligini taʼminlagan. U voqea-hodisalarni butun mohiyati bilan yoritadi, uning voqelikka xolisona yondashuvi asar tiliga tabiiylik va asar matnining uslubiy mukammalligini taʼminlagan. Xulosa qilib aytganda Erkin Vohidov oʻz sheʼrlarida oʻzlashgan qatlamga oid leksemalarni qoʻllash bilan chegaralanmaydi, balki badiiy matn talabi bilan ulardan oʻz oʻrnida foydalanadi. Bu esa sheʼrda oʻynoqilik, taʼsirchanlik kabi xususiyatlarni taʼminlaydi.

ERKIN VOHIDOV USLUBINING BAʼZI JIHATLARI HAQIDA

*Ijobat SAYMURATOVA,
GulDU, Oʻzbek adabiyotshunosligi
kafedrasida katta oʻqituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada shoir Erkin Vohidov uslubining baʼzi qirralari, ijod yoʻnalishining oʻziga xos jihatlari va badiiy mahorati hamda lirik kechinmalari, poetik chizgilari tahlilga tortiladi.

Kalit soʻzlar: lirika, uslub, mahorat, kechinma, poetik mushohada, estetik ideal, ijodiy individuallik, mazmun-mohiyat

Har bir shoir uslubining mukammal koʻrinish kasb etishida, u yashab ijod etgan davrning turli sohalardagi hayot tarzi, sharoiti hamda adabiy jarayoni muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olim I.Haqqul bu borada shunday yozadi: “Davr ruhi, zamon nafasi, jamiyat dardi ham dastlab ijodkor shaxsiga taʼsirini oʻtkazib, undan soʻng asarlariga koʻchadi”. [2,20]

Uslub sanʼatkor ijodiy qobiliyatining samarasi, shu bilan birga, ijodiy qobiliyat yetukligi, originalligining oʻziga xosligi ifodasi. Uslub orqali ijodkorning shaxsiyati, ijodiy individuallik kamoloti, adabiy jarayondagi mustaqilligi, badiiy tafakkur tipi, ijodiy mahorati anglashiladi. Uslub ijodkor badiiy olamidagi original ifoda va

yechimlarni jamlaydi, ko'rsatadi. Shu ma'noda o'zbek adabiyotining yirik zabardast vakillaridan biri Erkin Vohidov ham o'z uslubi va yo'nalishiga ega bo'lgan ijodkor sanaladi.

Erkin Vohidov o'z uslubini, badiiy mahoratini goh lirikada, goh mumtoz poetikada, goh tarjimada, goh dramaturgiyada namoyon etib, bir qator ibratli yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, nemis klassik shoiri Gyotening "Faust" asari shoir tarjimasida mukammallikka erishgan. Bir so'z bilan aytganda, shoir G'arbda jaranglagan sharqona ohangni yana Sharqqa qaytargan. "Faust" ustidagi uzluksiz ishlar tarjimon E.Vohidovninggina emas, balki shoir E.Vohidov fikrlarining ijodiy teranlashuviga samarali ta'sir ko'rsatdi. Uning poetik chizgilari shoir iqtidorining yuksakligi, estetik ideallarining buyukligi, oddiy voqea yoki oddiy badiiy detaldan favqulodda katta poetik umumlashmalar chiqara olish mahoratidan dalolat beradi.

She'r – shoirning anglangan va anglanmagan tasavvurlaridan tarkib topgan tuyg'ulardan yaraladi. Unda "borliq bilan yo'qlik" chegarasi doim bir-biriga ta'sir o'tkazib, biri-ikkinchisini marom bilan harakatlanishiga rag'bat bag'ishlab turadi. Shu ikki sifat o'rtasida muvozanat bilan fikr yuritayotgan ijodkor-shoir yirik va o'ziga xos tuyg'ular yig'indisini muayyan tartibga, yaxlitlik, butunlikka jamlay oladi. She'r – mangu dard haqidagi so'z. Shubhasiz, Erkin Vohidov ijodiyoti ana shunday teran mushohadalar to'plamidan iboratdir. Fikr va tuyg'u nisbati ziddiyatda, harakatda, tadrijiyatda ekan, shoir poetik olami ham tobora tiniqlashib, kengayib, o'ziga xos va mos yo'l tanlab boradi.

Erkin Vohidovning serqirra va rang-barang ijodiy merosiga nazar tashlasak, o'tgan davrning mafkuraviy g'oyalariga kuchli tanqidiy ruhda fikr yuritganini ko'ramiz. Buning yorqin namunasi sifatida "O'zbekim" qasidasi misol bo'la oladi:

*Ilmu she'rda gohu sulton
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zoru nolon o'zbekim. [1,34]*

Erkin Vohidov 1968-yil aruz vaznida yozgan "O'zbekim" qasidasida yo'qotilgan milliy g'ururni qayta tiklash va uyg'otish, milliy ruhni xalqimiz ongiga singdirish, mustahkamlash va bardavom

ettirish g'oyasini ilgari surgan edi. Olim Qozoqboy Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda: "O'zbekim" o'z vaqtida maydonga tashlangan mardona poetik chorlov bo'lgandi. [3,267]

Ma'lumki, ijodkorning doimiy harakatdagi tafakkurida kurtak ochgan badiiy fikrning o'ziga xos halqasini tashkil qiluvchi muayyan obrazda estetik nigoh, lirik harorat mujassam. Shu bois ham unga real hayot bilan aynanlik maqomini berish mumkin emas. "Illo badiiy haqiqat hayot haqiqati bo'lmay, ong va tuyg'u – ruhoniyl nazar ifodasining uyg'unligidan hosil bo'luvchi go'zallik sifatida matnga tayanib, ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik orqali poetik idrok etiladi", - deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim Islom Yoqubov. [5, 365]

Darhaqiqat, ijod uslubining o'ziga xosligi poetik idrok mohiyatidan oziqlanadi. To'g'rirog'i, ijtimoiy-ruhiy, milliy va umuminsoniy jihatlar qamrovi sharoit taqozosi, ijodkorning ayni shu jihatlarga qay darajada yondaShuvi bilan ham belgilanadi. Binobarin, she'riy tabdilda shakl, mazmun va uslub uyg'unligini ta'minlovchi asosiy omil dunyoqarashning nechog'li yuksakligi va tafakkurning miqyoslariga borib ulanadi. Ayni paytda, poetik tushuncha tadriji ham ichki, ham tashqi mohiyatini butunlashtiradigan estetik mohiyatning o'ziga xos qirralari bilan raqobatga kirishadi. Har bir she'r voqeligi ijodkor kechinmalaridan vujudga keladi. Bu esa umummillat kayfiyatini ifoda qilayotgandek taassurot uyg'otadi:

*U baxsh etgan otashda yondim,
O'zi bo'ldi menga rahnamo,
Unga, faqat unga ishondim,
Yurak meni aldama aslo! [1, 67]*

Aql va yurak amri ziddiyatini qarama-qarshi qo'ygan ushbu satrlarda shoir real hayot manzaralariga nazar tashlaydi. Bunda shoir hodisotni poetik kashf etish bilan cheklanib qolmaydi, balki ijodiy yondashuv hamda estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Bu munosabat tuyg'u shiddati uyg'unligini ta'minlash barobarida tasvir to'laqonliligini ham tasdiqlaydi.

Adabiyotshunos olim N.Rahimjonovning ta'kidlashicha: "Erkin Vohidov estetikasida insonning ma'naviy-intellektual kamolotiga alohida urg'u beriladi. Shoir nuqtai nazariga ko'ra inson tirikligining

ma'nosi, hayotining mazmuni qanday sharoitda va muhitda bo'lishidan qat'iy nazar, o'z shaxsida komillik xislat-xususiyatlarini takomillashtirishga muttasil intilishdan iborat. Ma'naviyatni, tiriklikni go'zallashtirish barobarida hayotni va jamiyatni yanada go'zallashtirish bosh muddaodir". [4,121]

She'r – ijodkorning ichki kechinmalarini, olamni qabul qilish va uni ifodalashdagi ayricha usulini belgilab beradi. Chunki ijodkor ana shu kichkina qalbi orqali, katta umumlashmalar hosil qiladi. Xoh u Vatan haqida bitilgan bo'lsin, xoh u muhabbat, qalb amrining buyurganini qalamga oladi. Erkin Vohidovning samimiy, dilbar va jozibali satrlarida millatning pinhon iztiroblari, uning ma'naviy-ruhiy manzarasi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Chunki shoir kitobxonning, nainki kitobxon, balki shu yurtda yashovchi oddiy insonlarning qalb nidolarini she'rga aylantiradi. Bu o'z navbatida millat qo'shig'iga, uning madhiyasiga aylanib ketadi. "Sen tomonga otilgan o'q menga tegsin" [1,83] satrlarining o'ziyoq aytilgan fikrlarimizni dalillaydi.

She'r – og'riqlardan dunyoga keladi. To'rt misra she'rga olam ma'no singdira olgan ijodkor chinakam salohiyat egasidir. Uning uchun shoir chinakam tuyg'ularni, qalbning millat uchun eng zarur so'zlarini she'rga aylantira olsa, o'z maqsadiga erisha oladi. Erkin Vohidov "To'rt satr" she'rida ham shu kabi mazmun-mohiyatni kitobxonga anglatadi. "Kamtarlik haqida" deb nomlanuvchi she'rda ham chiroyli tashbeh qo'llay olgan. Unda choynakning piyolaga egilishi – kamtarlik ramzidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov lirikasida hissiy idrok birlamchi omil vazifasini o'taydi. Unda tuyg'ular silsilasi sezimlar quvvat manbaini kengaytiradi. Aslida ham haqiqiy she'r tuyg'ular silsilasidan paydo bo'ladi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov lirikasi ham bunday xususiyatdan mustasno emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 1997. 283 b.
2. Haqqul I. Badiiy matn va tahlil muammolari. –T.: // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2012, 4-son.
3. Qozoqboy Yo'ldosh. So'z yolqini. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. 503 b.

4. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. – T.: Fan, 2007. 259 b.
5. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. – T.: TDPU, 2011. 475 b.

TIL VA DIL BIRLIGI

*Onajon RO‘ZIMOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Maqolada shoir Erkin Vohidov ijodi va she‘rlari, undagi chizgilar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikr, she‘riyat, shoir, so‘z, ko‘ngil, ruhiy kechinma, ijod yo‘li.

She‘riyat shunday bir gulshanki, u yerda turlicha iste‘dodlar kashf etiladi, chechaklar gul ochadi, nihollar unib chiqadi. She‘rni nihol desak, shoir uning bog‘boni, maysa desak yomg‘iri deyishimiz mumkin. Qushning uchishi uchun qanotlarning qiymaticha shoir ham o‘z she‘ri bilan bog‘langan bo‘ladi. Bunday birlikni she‘ridan tortib misralarigacha bir qilgan ijodkor Erkin Vohidov o‘z she‘rlaridan birida:

*Mohiru mehru mahorat,
Olimu ilmu amal.
Oshiqu ishqu mashaqqat,
Shoiru she‘ru shuur”*,

– deya she‘r va shoirlik haqida bitmish yozadi. Umri she‘riyatga chechak ekish bilan o‘tgan Erkin Vohidov, chin ma‘noda, she‘rga soxta ruh kiygizmasdan hissiyot bilan yaratdi. “Erkin Vohidov she‘riyati, aniqrog‘i, uning sara she‘rlari birinchi galda shoirning o‘zi uchun eng ardoqli, dil qa‘ridan sizib chiqqan shaxsiy kechinmatuyg‘ular hosilasidir. Ayni paytda ana Shu shaxsiy kechinmalar ko‘pchilik uchun ham qadrliligi va tushunarlidir. Erkinning yozganlari

qog‘ozda qolib ketadigan satrlar emas, ular tillardan dillarga ko‘chib, u yerda muqim joy olgan yetuk she‘riyatdir.”²⁰⁵

Ikki asr shoiri bo‘lgan Vohidov ijodni boshlagan ilk onlaridayoq ko‘pchilikning nazariga tushadi, shoirning ilk she‘riy kitobi – “Tong nafasi” haqida Ozod Sharafiddinov maxsus maqola yozib, milliy she‘riyatimizda yangi bir noyob iste‘dod maydonga chiqqanini el-yurtga oshkor etadi. “Erkin Vohidov poetik tafakkuri g‘oyat keng va tiniq shoir ekanligini ta‘kidlash zarur. Hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qarash, ularning tub mohiyatini anglashga intilish, qaysi biri xayrli, qay biri soxtaligini aniqlay olish istagi shoirning ilk ijodiy qadamlaridan buyon yo‘ldosh bo‘lib kelayotir. Shoirning badiiy tafakkuri doimiy harakatda bo‘lgani tufayli o‘zining sarxil mevalarini tez va mo‘l-ko‘l bera boshladi”²⁰⁶. Adabiyotshunos olimlar aytib o‘tganidek shoir umri davomida juda barakali ijod qilgan, har o‘n yillikni shoir to‘plamlariga taqsimlasak, “Yoshlik devoni”, “Kelajakka maktub”, “Muhabbat”, “Tabassum”, “Kuy avjida uzilmasin tor”, “Sadoqatnoma” to‘plamlari har yildan va har yerdan bo‘y cho‘zadi. She‘riyat olamiga ilk qadamdan tortib oxirgacha esa insoniyatni birlikka va hurlikka undash, o‘z lirik qahramonlari orqali qalblarni uyg‘otish, misralarga va so‘zlarga og‘ir yuk yuklamasdan - da go‘zal san‘at yaratish shoirning asosiy mavzu doirasi bo‘lgan. Shoir qayer to‘g‘risida, nima to‘g‘risida yozmasin, u avvalo o‘zi to‘g‘risida, o‘z xalqi va yurti to‘g‘risida yozadi, – deydi Vohidovning o‘zi. “Erkin Vohidov har doim ijodining boshlanishida aytgan:

*Xalq – ustozim, men esa tolib,
So‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim,*

– degan prinsipiga qat‘iy amal qilib yashadi va ijod qildi. Buning natijasi o‘laroq, u chinakam xalq shoiri sifatida tan olindi. Shoir butun ijodi mobaynida o‘zini “erkalab bag‘riga bosgan, mehnatkash, bag‘ri keng, orzulariday ulug‘ xalqi”ning beqiyos fazilatlarini, dardini kuylab kelmoqda. Shuning uchun ham shoirimiz asarlarida xalqona

²⁰⁵ NORMATOV U. MOHIRU MEHRU MAHORAT.

²⁰⁶ Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she‘riyat.

ruh, soddalik mudom ustuvor bo‘lib kelayotir.”²⁰⁷ “Shoir o‘zi yonmasa, boshqalarni yondira olmaydi, qalb hislarida otash bo‘lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi”,- degan tushuncha bilan yashagan ijodkor Erkin Vohidov insonning zohiridan botinigacha bo‘lgan kechinmalarini o‘z she‘rlariga singdirgan. Insonni olam bilib, uning baxtga to‘la bahorini, xazonga aylangan kuzini, yorug‘ kunini-yu qaro tunini-da o‘z she‘riyatida ifoda etgan. Na-da ijod dardi bilan, xalq dardi bilan yongan ijodkor o‘z she‘ri-yu so‘ziga Shunday mas’uliyat yuklaganki, insonni o‘ziga o‘zini yuzlashtiradi. Odamzotga qarata “Uyg‘on o‘zing, uyg‘on o‘zing” deya loqaydlikdan chekinishga undaydi. Birlikda mehr uyini barpo etishga barchamizni safarbar etadi:

*Marsga to‘p otquchi – sen,
Zuhroni uyg‘otquchi – sen,
Uyquda qotquchi – sen
Uyg‘on o‘zing, uyg‘on o‘zing.*

Bizga ma‘lumki, Erkin Vohidov tengdosh bo‘lgan avlod adabiyotga o‘tgan asrning 60-yillarida kirib keldi va o‘zbek she‘riyatini ham shaklan, ham mazmunan tubdan yangiladi. Aynan shu yillarda qo‘liga qalam olgan shoir-u yozuvchilar yuragi ozodlik, erk tuyg‘usi bilan to‘lib-toshgan edi. Hurriyatga, erkka intilgan bu ijod ahli o‘z asarlari ruhiga, eng avvalo, millatning qadr-qimmatini ulug‘lashni, milliy iftixor tuyg‘usini singdirishni istadi va bunga dadil kirishdi. Natijada bu avlodning ilk she‘rlariyoq o‘sha paytdagi jamiyatda chuqur tomir otgan yolg‘onga, soxtalikka, balandparvozlikka qarshi isyon sifatida jarangladi. Ammo bu isyonni ochiq-oshkora bayon etish mumkin emasdi. “Mustaqillikka erishilmasdan oldin yakkahokimlikni boy berib qo‘yishni istamagan kommunistik mafkura zaharli tishlarini qayrab turardi. Xayriyatki, she‘riyatda fikrni ramziy timsollar orqali ifodalash, tikonni gulga o‘rab “tortiq” qilishning turli usullari va vositalari bor. 60-yillar ijodkorlari ana shu usul va vositalardan unumli foydalanib, odamlar yuragiga kirib bordilar. “Mening ham o‘sha yillarga mansub she‘rlarimning har uchtdan bittasida jamiyatdagi yolg‘onu aldovlarga

²⁰⁷ Solijonov Y Ruhiyatni yoritgan she‘riyat.

qarshi isyon tuyg‘usi bor”, deydi bu haqda E.Vohidov (“Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon...” Suhbat /Tafakkur, 2011, 3-son).²⁰⁸

Erkin Vohidov o‘zining ijodiy jarayonida kashf etgan olamini berkitmasdan u yerga hammani oshno qila bildi. Shoir ijodidagi she‘rlar yosh chegarasini bilmaydi, she‘rda chizilayotgan portretlar yoshga ham kattaga ham bir mavzu doirasida yetib boradi. Ohangi o‘ynoqilikdan boshlagan she‘r borib – borib shoirning talabi bilan vazmin qadam tashlovchi so‘zga o‘rnini bo‘shatib beradi. Satrdan – satrga o‘tgan chuqur mulohaza “shirin yolg‘on”larga bo‘yalib boraveradi va shoirning ijod yo‘lini o‘quvchining ko‘ngliga yo‘naltiradi. “Erkin Vohidov butun ijodi misolida bizga, o‘zidan keyingi avlodga eng avvalo, milliy qadriyatlardan uzilmay ijod qilish lozimligini uqtiradi.”²⁰⁹ Shu ma’noda, shoirning yozganlari bir millat uchungina bo‘lib qolmay butun insoniyatga ruhiy ko‘mak bo‘lib yashamoqda. Tildan ko‘ngilgacha bo‘lgan masofani birlashtirgan “Tun bilan yig‘lagan bulbul”lar shoirning qolgan umrini yashashda, “Yoshlik devoni”-yu “Ruhlar isyoni”ni safarbar etgan. She‘riyat ziyosini nurlantirish va dunyodagi zulmatni ko‘tarishdek vazifasini so‘z bilan hamkorlikda bajargan Erkin Vohidov Xurshid Davron so‘zi bilan aytganda, o‘zbek chirog‘ini baland ko‘tarib borayotgan ziyokor bo‘lib ulgurdi.

ERKIN VOHIDOV QALAMIDA TATABBU CHIZMALARI

*Samiya JO‘RAQULOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotning boshlang‘ich davrlaridan an‘ana tarzida davom etayotgan hamda, hozirgi kunda she‘riyatning yirik merosini tashkil etuvchi tatabbular haqida ma‘lumot berildi, Shu bilan birga taniqli O‘zbek shoiri Erkin Vohidovning ushbu yo‘nalishda yozgan hajviy she‘ri tahlili haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

²⁰⁸ Yo‘ldosh Solijonov. Ruhiyatni yoritgan she‘riyat.

²⁰⁹ Xurshid Davron. Ustoz ibrati.

Kalit soʻzlar. Adabiyot, adib, nazm, nazira, tatabbu, mumtoz, ijodkor, taʼsir,

Adabiyot atalmish xazinaga nazar tashlar ekanmiz undagi boyliklar koʻzni qamashtirib yuboradi. Shu qimmatbaho boyliklar orasida serjilolik bilan tovlanib turuvchi olmoslar bu naziralardir. Ushbu sanʼat adabiyotimizning koʻrki desak mubolagʻa boʻlmaydi. Nazira arabcha نذيرة soʻzidan olingan boʻlib, *ergashish*, *izdoshlik* degan maʼnolarni anglatadi. Nazira sharq adabiyotidagi anʼanaviy usullardan biri boʻlib, oʻtgan yoki zamondosh adib asariga oʻxshatma tariqasida yozilgan asardir.²¹⁰

Nazirani mumtoz adabiyot shoirlari tatabbu deb ham yuritishgan. Shu oʻrinda maʼlum boʻladiki tatabbu yozish mumtoz adabiyotimiz davridayoq sheʼriyat ixlosmantlari uchun yetarlicha tanish uslublardan biri boʻlgan. Bunga isbot tariqasida soʻz mulkining sultoni boʻlmish Hazrati Alisher Navoiy oʻz “Xamsa” sining Nizomiy “Panj Ganj” iga tatabbu deb atashini keltirishimiz mumkin.

Adabiyotimizda har bir uslubning oʻz oʻrni bor boʻlgani kabi sheʼr va gʻazallarga bitilgan oʻxshatmalarning ham ahamiyati kattadir. Olam yaralibdiki uning borligʻini bir-biriga havas qilib, undan rang oluvchi tabiat egallagan. Tirik jon borki, nimagadir talpinadi, uni oʻzida mujassam etishga urinadi. Ayniqsa ijodkor qalblarning goʻzallikka talpinishini koʻproq kuzatamiz. Bir shoirning boshqa bir qalam ustasi yaratgan ijodiga bagʻishlagan oʻxshatmasi ham tabiat borligʻining bir boʻlagidir. Bunday ijodkorlar kamalikka havas qilgan rang-barang kapalaklarga oʻxshashadi. Tatabbu mana shunday goʻzal jarayonda vujudga keladi. Ushbu uslub orqali ijodkor oʻzi taʼsirlangan ijod mahsuliga oʻz hissiyotlarini namoyon etadi. Uni yanada goʻzalroq koʻrsatadi va ularning har birida oʻzi nazira yozgan asarlariga boʻlgan muhabbati namoyon boʻladi. Oʻsha ijodkordan yuksak badiiy mahorat, tasvir jozibalari, insonparvarlik gʻoyalarini oʻrganishga intiladi.

Adabiyotimizda tatabbular koʻplab topiladi. Xususan, mumtoz adabiyotda Ahmad Poshoning Navoiy gʻazallariga bagʻishlangan naziralari uning devonlarida ham keltirilib, el orasida juda mashhur

²¹⁰ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 37-bet

bo‘lgan. Bundan tashqari Zokirjon Furqatning ayrim she‘rlari Nodira asarlariga nazira tarzida dunyoga kelgan. Yana bir dunyoviy adabiyot vakillaridan biri bo‘lgan Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asari Xorazmiyning “Muhabbatnoma” siga nazira tarzida yozilgani barchaga ma’lum. Zamonaviy adabiyotda esa Amirqul Po‘lkanning Erkin Vohidovga nazira tarzida yozgan she‘r monologini misol tariqasida keltira olamiz.

Zamonaviy adabiyot tatabbulari ichida ko‘zga ko‘rinarlisi taniqli o‘zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni va davlat arbobi bo‘lmish Erkin Vohidovning so‘z mulking sultoni bo‘lmish Alisher Navoiyning “Boshindadur” g‘azaliga yozgan tatabbusidir. Ushbu o‘xshatma ilgaridagilaridan tamomila farq qilib, o‘ziga xos bir asar bo‘lgan. G‘azal satira janrida yozilgan bo‘lib, ijodkorning zamon yigitlari-yu zamonaviy kiyinishlar ustidan qilgan hajviy mushohadalaridan iborat. Ushbu asar qofiyalanish tartibiga ko‘ra “oddiy g‘azal” turiga kiradi, ya’ni a-a, b-a, c-a tarzida qofiyalangandir. Boshindadur g‘azali Ramali musammani maqsur vaznida yozilgan. Uning taqtesi: - v - - / - v - - / - v - - / - v - shaklida ifodalanadi. Shoir:

O‘n sakkiz ming olam shubhi
Padar boshindadur
Ne ajab, chun o‘g‘li oning
O‘n sakkiz yoshindadur

misralari bilan o‘smir farzandi sababdan g‘am, anduhlar bisyor ota siymosini gavdalantirgan. G‘azalning:

Nay misol shim kiygan ul
Sandiqdayin tufli bilan
Xurpayib turgan savatdek
Soch aning boshindadur

Baytlarida nay misol, sandiqdayin, savatdek so‘zlarida misol so‘zi, *-dek*, kabi qo‘shimchalari orqali tashbeh san‘atini yaratgan. G‘azal sodda til orqali yuksak ma’no ifodlashi hamda oson va ravon o‘qilishi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Ko‘rinadiki, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin Vohidov Alisher Navoiy g‘azaliga tatabbusi orqali zamon zayliga bog‘liq muammolarning biriga xalq e‘tiborini qaratdi. Shu orqali adabiyotimizda o‘xshatmalarning beqiyos o‘rni borligi va uning hayotdagi muhim vazifasini namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Inson kitobi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.
3. 8- sinf adabiyot darsligi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.